

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

I. S. SOLIHOV

TRAKTORLAR VA AVTOMOBILLAR

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan Oliy o'quv yurtlarining 5430100 — «Qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalashtirish» yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2012*

УДК: 631.372(075)

КБК 39.34

S-77

*Nashrga tayyorlovchi — texnika fanlari doktori,
professor Q.H.Mahkamov*

Taqribzilar:

N.T. Umirov — Toshkent davlat agrar universiteti
«Qishloq xo'jaligi mashinalari, foydalanish va ta'mirlash»
kafedrasining dosenti, texnika fanlari nomzodi;

A.H. Hamidov — Toshkent davlat texnika universiteti
«Yer ustı transport tizimlari» kafedrasining professori, texnika fanlari
nomzodi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan qishloq xo'jaligi mexanizatori.

Solihov, I.S.

S-77 Traktorlar va avtomobillar: darslik/ I.S. Solihov. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. — 512 b.
ISBN 978-9943-05-519-3

Darslikda traktor va avtomobilarning tuzilishi, ishlashi, nazariyasi, ayrim mexanizm va tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish umumiy bayon etilgan. Respublikamizda keng qo'llaniladigan traktorlar va avtomobillar aniq markalarning tuzilishi kitobning so'nggi boblarida keltirilgan.

Darslik 5430100 — «Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Undan 5310500 — «Avtomobilsozlik va traktorsozlik», 5310600 — «Yer ustı transport tizimlari va ularning ekspleatsiyasi» hamda 5610600 — «Xizmat ko'rsatish texnikasi va texnologiyasi» ta'lim yo'nalishlarining talabalari ham foydalanishlari mumkin.

УДК: 631.372(075)

КБК 39.34

ISBN 978-9943-05-519-3

© I. S. Solihov, 2012

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012

IKKINCHI NASHRGA SO'ZBOSHI

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan qishloq xo'jaligining rivojlanishi fermer va dehqon xo'jaliklarining mustahkam bazasini yaratish asosida amalgga oshirilmoqda. Bu xo'jalikka xos ishlab chiqarish vositalari va munosabatlarining takomillashtirilgan yangi shakli bo'lib, bunda asosiy ishlar mashina yordamida bajariladi. Mashinalar inson mehnatini yengillashtiradi, ish unumini oshiradi, arzon va sifatlil mahsulot yetishtirishga imkon beradi. Bir mashina ma'lum operatsiyani to'la bajarib, navbatdagi operatsiyani ikkinchi mashinaga tayyorlab beradi, buning uchun har bir sharoitga mos mashinalar tizimi qo'llanilishi lozim. Agar mahsulot yetishtirishdagi biror ish qo'l bilan bajarilsa, bu mexanizatsiyalashni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Demak, mashinalar tizimi mashinalarning oddiy to'plamidan iborat bo'lmasdan, balki ularning ishlab chiqarish jarayonlaridagi barcha operatsiyalarni ma'lum tartibda mexanizatsiyalashga imkon beradigan yig'indisidan iborat. Mashinalar tizimi qishloq xo'jalik ishlarini kam mehnat sarflab va energetika vositalaridan to'la foydalaniib, agrotexnika talablariga muvofiq bajarishga imkon berishi kerak. Bu mashinalar tizimi agrotexnika va biologiya fanining talablariga hamda ishlatuvchilar tajribasiga muvofiq takomillashtirilishi lozim.

Qishloq xo'jaligidagi ish jarayonlarini avtomatlashtirish mexanizatsiyalashtirishning eng yuqori darajasi bo'lib, bu hozircha boshlang'ich bosqichdadir. Traktorga o'rnatilgan qishloq xo'jalik mashinalarini, shuningdek, traktorga tinka'gan qurollarning ish organlarini boshqarishda elektron tizimlardan foydalanish, chorvachilikda mollarni sug'orish, ozuqa tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirishda kompyuter texnologiyalari borgan sari keng joriy qilinmoqda.

Fermer — qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining tashkilotchisi, dehqonchilikda hosil dorlikni oshirish, ko'p va arzon mahsulot tayyorlash uchun qishloq xo'jalik ishlarining o'z vaqtida va sifatlil bajarilishini hamda ishlatiladigan materiallar sarsini nazorat qiladi. Traktor ishlarining

texnologik kartasini tuzadi, agregatlarning marshrutini belgilaydi, qishloq xo'jalik ishlari texnologiyasining bajarilishini ta'minlaydi. Xo'jalikdagi mashinalarning ta'mirlash sisatini tekshirish va kadrlar tanlash ishlarini bajaradi. Shu sababli malakali fermier saqat agronomiya va biologiya bilimlariga ega bo'lib qolmasdan, balki qo'llaniladigan mashinalarning tuzilishini, ishlashini, texnik xizmat ko'rsatishni, oddiy kamchiliklarni topish va bartarasf qilishni va ularni ishlatish, ya'ni unumli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bilishi lozim.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligining ko'plab yetakchi mutaxassislari traktorlar va avtomobilarni I.S.Solihovning o'zbek tilida ilk bora yozilgan va 1969-yilda «O'qituvchi» nashriyotida chop etilgan «Traktorlar, avtomobillar va qishloq xo'jalik dvigatellari» nomli darsligidan o'rangan-ganlar. Ularning darslikni qayta nashr etish haqidagi takliflari asosida mazkur ikkinchi nashri yuzaga keldi.

Darslik 2011-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Traktorlar va avtomobillar» fanining namunavii dasturi asosida qayta ishlandi.

Darslikni qayta nashrga tayyorlashda ushbu o'zgarishlar kiritildi: darslik zamonaviy traktor va avtomobiilar konstruksiyasi bilan to'ldirildi, yangi davlat ta'lim standartlari hamda fanning yangi o'quv dasturi asosida qayta ishlandi, eskirgan boblar va konstruksiyalar chiqarib tashlandi, kattaliklar Halqaro birliklar sistemasi (SI) ga o'tkazildi.

Mashina-traktor agregatlari tuzishda qishloq xo'jalik qurollari, asosan, traktorga qo'shilgani uchun darslikning ushbu nashriga traktor nazariyasiga oid ma'lumotlar ham qo'shildi.

Mazkur darslik asosida traktorlar va avtomobilarni o'rGANISH amaliytajriba mashg'ulotlari bilan birga olib borilishi zarur.

Professor Qobul Mahkamov

i-bob. TRAKTOR VA AVTOMOBILLARNING TASNIFI VA UMUMIY TUZILISHI

I-§. O'zbekiston qishloq xo'jaligida traktor va avtomobilarning rivojlanish tarixi

Traktor yoki avtomobilni biror ixtirochi kashf etgani yo'q, albatta. Buning ustida juda ko'p iqtidorli kishilar - olim va muhandistar, ixtirochilar as'lalar davomida qunt va mashhaqqat bilan ish olib borganlar. Qilingan ishlar va murakkab o'zgarishlar natijasida traktor va avtomebillar hozirgi ko'rinishga keltirilgan.

Turkistonda qishloq xo'jaligidagi barcha ishlar, asosan, qo'l kuchi bilan bajarilar edi. Omoeh, mola, ketmon va o'toq ish qurollari bo'lib, inson kuchi, ho'kiz, eshak va ot energetika vositasi hisoblanar edi. Sobiq Ittifoqda traktorsozlik sanoati rivojlangani sari uning xomashyo bazasi bo'lib qolgan O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi traktorlarning soni ham asta-sekin orta boshladi: 1928-yilda O'zbekistonda 2072 ta traktor ishlagan bo'lsa, 1940-yilda ularning soni 24200 taga, 1970-yilda esa, 93647 taga yetdi.

Traktor va avtomobilsozlilikning ilk tarixiga nazar solsak, 1887-yilda Germaniyada Dizel motori qurildi. XIX asr oxirida XOLT, «Mogui» (AQSH) firmalari karburatorli, quvvati 40 va 75 o.k. motorlari bilan traktorlar ishlab chiqargan. 1920-yillarga kelib Gnomag (Germaniya) firmasi Z-50 turidagi benzinli 50/190 o.k. quvvatiga ega motorlar bilan jihozlangan traktorlar, Interneshil (AQSH) firmasi 15/30 va 10/20 modeldag'i g'ildirakli hamda Katterpillar (AQSH) firmasi 50/60 modeldag'i o'rmalovchi zanjirli traktorlar ishlab chiqargan.

Rossiyada 1893—1895-yillarda Y.V. Mamin neft motoridan harakatga keltiriladigan «o'ziyurar arava», 1910-yilda 25 va 45 ot kuchi quvvatlisi neft motorli traktor yasadi. U 1911—1913-yillar ja Balakov shahrida zavod qurib, motor quvvati 20, 30 va 60 ot kuchi bo'lgan rus traktorlarini ko'plab ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan.

Sobiq Ittifoq davrida traktor ishlab chiqarish 1918—1929-yillar davomida turli mashinasozlik zavodlari huzurida yo'lga qo'yilib, «Карплик», «Гном», «Могул», «Большевик», «Коломенец», «Запорожец» va boshqa markali traktorlar bir necha donalab ishlab chiqarildi. 1924-yildan boshlab Leningraddagi «Красный Пугачев»

zavodi «Фордзон-Путиловец» traktorini ko'plab ishlab chiqara boshladi. 1934-yilda Kirov zavodi «Универсал» (У-1 va У-2) traktorlari ishlab chiqara boshlab, Ikkinci jahon urushi boshlanishiiga qadar davom ettirdi. Bu davrda Stalingrad (1930) va Xarkovda (1931) g'ildirakli traktor, Chelyabinskda (1933) esa o'rmalovchi zanjirli traktor ishlab chiqaradigan zavodlar qurildi.

Ikkinci jahon urushi yillarda traktor sanoatiga katta ziyon yetkazildi. Stalingrad, Xarkov, Chelyabinsk zavodlarida traktor ishlab chiqarish to'xtatildi. Biroq, ko'p fursat o'tmay Oltoy (1943), Lipetsk (1944), Vladimir (1945) shaharlarida yangi traktor zavodlari qurildi, vayron etilgan Stalingrad, Xarkov traktor zavodlari esa qayta tiklandi. Urushdan keyin Minsk, Onejsk, Bryansk traktor zavodlari, Xarkov, Toshkent va Kishinyov traktor yig'ish zavodlari va traktor agregatlari ishlab chiqaradigan bir necha boshqa zavodlar qurildi.

Sobiq Ittifoqda avtomobil sanoati 1924-yilda Moskvadagi AMO avtomobil zavodi, 1925-yilda Yaroslavl avtomobil zavodi avtomobil ishlab chiqara boshlagach vujudga kelgan. 1930-yillarda Moskva va Gorkiy shaharlarida yirik avtomobil zavodlari qurilib, bu zavodlar yuk va yengil avtomobillar ishlab chiqara boshladi. Urushdan keyingi yillarda mavjud avtomobil zavodlari qayta uskunalarib, kengaytirildi, Ulyanovsk, Kremenchuk, Minsk, Kutaisi, Odessa, Lvov, Pavlov, Bryansk va boshqa shaharlarda avtomobil zavodlari qurildi.

Avtomobilsozlikning rivojlanishi natijasida sobiq Ittifoq qishloq xo'jaligida avtomobillar keng ko'lamda qo'llanila boshladi. Qishloq xo'jaligida 1928-yilda 700 ta yuk avtomobili bor edi. 1940-yilda 200 mingdan ortiq, 1966-yilga kelib bir milliondan ortiq avtomobil qishloq xo'jaligida ishladi. 1970-yillarda qishloq xo'jaligi har yili 200 mingdan ortiq yuk avtomobili oldi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan yuk avtomobillari soni ham ortib bordi, chunonchi 1950-yilda 7934 ta avtomobil ishlagan bo'sha, 1960-yilda 24167 ta, 1970-yilda esa 36000 tadan ortiq avtomobil ishladi.

Shunday qilib, respublikamiz qishloq xo'jaligida mexanik energetika vositalarining salmog'i asta-sekin orta boshladi. O'zbekistonda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta, g'alla, kanop va boshqalar) ko'p mehnat talab qilgani sababli sug'orishda nasos qurilmalarini harakatga kelirish uchun mexanik motorlar ko'p qo'llanilar edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ahvol butunlay o'zgardi. Qator xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarilgan eng ilg'or qishloq xo'jalik

texnikasi O'zbekistonga kirib keldi. Davlat bosh islohotchi bo'lib qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar yuz berdi. Paxtachilik biroz qisqartirilib, g'allachilik jadal rivojlandi. Natijada juda oz muddatda O'zbekiston g'alla mustaqilligini qo'lga kiritdi. Mulkehilik shaklining o'zgarishi natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini fermer va dehqon xo'jaliklari yetishtirib bera boshladi. Fermerlik harakati rivojlangan sari xo'jaliklar eng zamонави, umumidor va yuqori quvvatli traktor, avtomobil va qishloq xo'jalik texnikasini sotib ola boshladi. Mamlakatimizda fermer xo'jaliklarining yanada rivojlanishi qishloq xo'jaligini texnika bilan to'la-to'kis ta'minlanishiga olib keladi.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda avtomobil sanoatiga asos solindi. 1996-yildan boshlab Asakada avtomobil zavodi ishga tushirildi va O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoridan joy oldi. Bu zavod ko'plab eng zamонави yengil avtomobillar va mikroavtobuslar ishlab chiqarmoqda. Samarqand shahrida esa avtobuslar va yuk tashish avtomobillari ishlab chiqaruvchi avtomobil zavodi faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan tashkil etilgan avtomobilsozlik va traktorsozlik sanoati mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

2-\$. Traktorlar tasnifi

Traktor — g'ildirakli yoki o'rnatlovchi zanjirli o'ziyurar mashina, unga turli mashina va qurollarni tirkab yoki o'rnatib qishloq xo'jalik ishiarini, yo'l qurish, yer qazish kabi ko'pgina ishlarni bajarish mungkin. Traktor quvvat olish vali orqali o'ziga tirkalgan yoki o'rnatilgan mashinalarning turli mexanizmlarini harakatga keltira oladi. Traktor statsionar (bir joyda turib ishlaydigan) mashinalarni harakatga keltirishi uchun quvvat olish vali bilan jihozlangan.

Traktorlar vazifasiga, yurish qismi va asosining tuzilishiga, motoring turiga, tortish kuchiga qarab guruhlarga ajraladi. Traktorlar vazifasiga qarab qishloq xo'jalik, sanoat va melioratsiya traktorlariga ajraladi.

Qishloq xo'jalik traktorlari bajaradigan ishiga qarab umumiyl ishlarda foydalaniладigan, universal va maxsus traktorlarga bo'linadi.

Umumiyl ishlarda foydalaniладigan traktorlar (haydov traktorlari) yer haydash, yoppa kultivatsiya (chopiq) qilish, g'alla ekish, o'trib-yish va boshqa ishlarda ishlataladi. Ularning asosi unchalik baland bo'lmaydi. Ko'pincha o'imalovchi zanjirli qilinadi.

Universal (chopiq) traktorlari, asosan, chopiq qilinadigan ekinlarni ekish va qator oralarini ishlashda qo'llaniladi, ulardan yuk tashishda ham foydalanish mumkin. Ketingi g'ildiraklarining orasini ishlanadigan ekin qator oralig'iga moslab kengaytirish mumkin; asosi yerdan balandroq qilinadi. Traktor g'ildiraklarining holatini o'zgartirib, asosini pasaytirib, uni bog'da ishlashga yoki asosini yerdan balandroq ko'tarib, ekin qator oralarini ishslashga moslashtirish mumkin. Ba'zan bunday traktorlar *bog' traktorlari* deyiladi.

Universal traktorlarga mansub bo'lgan o'ziyurar shassiga turli qishloq xo'jalik mashinalarining ish organlarini o'rnatib, agregat hosil qilinadi. O'ziyurar shassiga turli qishloq xo'jalik mashinalarini o'rnatish yoki platforma o'rnatib, undan yuk tashishda keng foydalanish mumkin.

Maxsus traktorlar ayrim ishlarni (yuk ko'tarish, yog'och tashish va boshqalarni) bajarishga yoki tog'lik yerlarda va to'qayzorda ishlashga moslashtirilgan bo'ladi. Bu ishlar oddiy traktorlarni qo'shimcha uskunab lab bajarilishi ham mumkin.

Traktorlar yurish qismining tuzilishiga qarab g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirli xillarga ajraladi.

G'ildirakli traktorlar pnevmatik shinalar (ballonlar) bilan jihozlanadi. Traktorlar g'ildiraklarining soniga qarab uch g'ildirakli (paxtachilik traktorlari) va to'rt g'ildirakli bo'ladi. Ko'pincha keyingi g'ildiraklari yetakchi, oldingi g'ildiraklar yo'naltiruvchi, ba'zan esa to'rttalal g'ildirak ham yetakchi qilinadi. G'ildipakli traktorlar yengil, oddiy, arzon bo'lib, ularni ishlatish va ta'mirlash, bog'larda, ekin qator oralarida va yuk tashishda ishlatish qulay, lekin g'ildiraklarning yerga solishtirma bosimi o'rmalovchi zanjirlarnikidan ortiqroq (0,2 MPa gacha), shu sababli ko'proq sirpanib g'ildiraydi va yumshoq yerlarda yomon ishlaydi.

O'rmalovchi zanjirli traktorlarning yerga bosimi kam (0,02—0,05 MPa) bo'lib, tuproqni kam zichlaydi, kam sirpanadi va o'zining yurishi uchun kam quvvat sarflaydi, amnio ancha og'ir va murakkab tuzilgan.

Traktorlar asosining tipiga qarab ramali, ramasiz va yarim ramalilarga ajraladi.

Ramasiz traktorlarning asosi ramadan iborat bo'lib, unga traktorning barcha mexanizm va qismlari o'rnatiladi, ularni almashtirish va ta'mirlash osон.

Ramasiz traktorlarning asosi asosiy agregatlarning karterlarini bir-biriga biriktirib hosil qilinadi. Ramasiz traktorlar ixcham va yengil, amnio ayrim mexanizmlarni olish uchun traktorni bo'lak-bo'lak qilish kerak.

Yarim ramali traktorlarning asosi motor o'rnatiladigan kalta rama va ketingi ko'ptik korpusidan iborat bo'ladi.

Traktorlar motorining tipiga qarab elektr motorli va ichki yonuv motorli bo'ladi. Elektr motorli traktorlar bir qator afzalliklarga ega bo'lsa ham, lekin qo'pol tuzilganligi va ishlataladigan qimmatbaho kabelning tez ishdan chiqishi sababti ular qo'llanilmaydi.

Sanoat va melioratsiya traktorlari yer qazish, yo'l qurish, tog'-konchilik ishlarida, gidrotexnik inshootlar qurishda, o'rmonchilik ishlarida, xususan, og'ir yuklarni tashishda ishlataladi. Bu traktorlar ham turli ishlarda foydalaniladigan va maxsus sanoat traktorlariga bo'linib, ular qishloq xo'jalik traktorlariga qaraganda quvvatliroq motor bilan jibozlanadi.

Traktorlar tizimi. Mamlakat qishloq xo'jaligi va sanoatning barcha ehtiyojlarini qondirish uchun traktorlarning faqat eng zarur asosiy modeliga ega bo'lish lozim. Bu modellar traktor va o'ziyurar shassisining tizimini tashkil etadi. Shu asosda qishloq xo'jaligining ayrim sohalari uchun asosiy modelga mansub traktorlar yasaladi.

Traktorlar ilmog'ida tortish kuchiga qarab sinflarga bo'linadi. Bu tortish kuchi traktorning eng past ish tezligida ishlaganda hosil etiladi. Har qaysi sinfga tortish xususiyatlari taxminan bir xil, konstruksiyasi esa bixillashtirilgan mashinalar guruhi kiradi.

Qishloq xo'jalik traktorlarining nominal tortish kuchi 0,6; 0,9; 1,4; 2; 3; 4 va 5 t, sanoat traktorlarning tortish kuchi 10, 15, 25 t qilib belgilangan. Sanoat traktorlari qishloq xo'jaligidagi og'ir ishlarni bajarishta foydalanilganda ularning nominal tortish kuchi 6, 9 va 15 t ga teng bo'ladi.

Sug'oriladigan dehqonchilik tumanlarida ko'p tarqalgan traktorlarning texnik tafsifi kitobning yigirma to'qqizinchı bobida berilgan.

3-§. Avtomobillar tasnifi

Avtomobil -- passajirlarni va yuklarni yoki maxsus uskunalarni tashiydigan g'ildirakli mashina. Avtomobilarga turli asbob-uskunalar (purkagich, changitgich, o'g'itlagich, quduq qaziydigan mashina va boshqalar) ni o'rnatib, ulardan maxsus qishloq xo'jalik mashinasi sifatida ham foydalanish mumkin.

Avtomobillar vazifasiga qarab transport avtomobilari va maxsus avtomobilarga bo'linadi.

Transport avtomobilari yuk yoki passajirlarni tashiydi.

Yuk avtomobilari ko'tara oladigan yukining miqdoriga qarab, kam ($0,75-2,5$ t), o'rtacha ($2,5-5$ t) va ko'p (5 t dan ortiq) yuk ko'taradigan avtomobilarga bo'linadi. Yuk avtomobilari tashiladigan yukning turiga qarab bortli, yukni o'zi ag'daradigan (samosval) va maxsus kuzovli (sisternali, furgonli va boshqalar) bo'ladi.

Passajirlarni tashiydigan avtomobillar tuzilishi va tashiladigan passajirlar soniga qarab yengil avtomobillar va avtobuslarga ajraladi. $0,75$ t gacha yuk ko'taradigan avtomobil lar *yengil yuk avtomobilari* deyiladi.

Maxsus avtomobillarda maxsus ishlar bajariladi, buning uchun ular mos uskunalar bilan jihozlanadi. O't o'chirish avtomobilari, tez yordam avtomobilari, ko'ehma ustaxonalar, avtokran va boshqalar maxsus avtomobillardir.

Avtomobil lar yetakchi g'ildiraklarining soniga qarab shartli raqamlar bilan belgilanadi (4×2 ; 4×4 ; 6×4 ; 6×6), bunda oldingi raqam avtomobil g'ildiraklarining sonini, ikkinchi raqam esa yetakchi g'ildiraklar sonini ko'rsatadi. Masalan: 4×2 — bir o'qi yetakchi ikki o'qli avtomobil, 6×6 — barcha o'qlari yetakchi uch o'qli avtomobil deb tushuniladi.

Avtomobil lar motorining turiga qarab *elektr motorli* va *ichki yonuv motorli* bo'ladi. Elektr motorli avtomobil lar yuqorida tortilgan ikkita simdan (trolleybuslar) yeki o'ziga joylashtirilgan akkumulatorlar batareyasidan (elektromobil lar) tok olib ishlaydi.

Avtomobillarda benzinli motor va dizeldan tashqari gaz motorlari (gaz ballonli motorlar) ham qo'llaniladi.


Qishloq xo'jaligida, asosan, o'rtacha og'irlikdagи yuk ko'tara oladigan yuk avtomobil lari va 4×4 sxemali yengil avtomobil lar qo'llanilib, bular to'g'risidagi ma'lumotlar kitobning o'ttiz birinchi bobida berilgan.

4-§. Traktor va avtomobillarning umumiyl tuzilishi

Traktor va avtomobil lar ma'lum darajada bir-biriga bog'liq holda ishlaydigan bir qancha mexanizmlardan tuziladi. O'rmalovchi zanjirli traktoring umumiyl tuzilishi va uning asosiy mexanizmlari 1.1-rasmda ko'rsatilgan.

Traktor motor (*1*), kuch uzatish qismi (*2, 3, 4* va *5*), yurish qismi (*8*) va boshqarish mexanizmlari, ish uskunalari (*7*) va qo'shimcha uskunalardan iborat.

Avtomobil (1.2-rasm) motor (1), shassi (3, 4, 5 va 6), kuzov (2) dan iborat. Shassi o'z navbatida kuch uzatish qismi (3), yurish qismi (5), rul boshqarmasi (6) va tormozlar (4) dan tuzilgan. Traktor va avtomobil qismlarining vazifasi, tuzilishi va ishlashi bir-biriga anche o'xshaydi.



*I.1-rasm. O'rnatlovchi zanjirli traktorning umumiyo ko'rinishi
va asosiy mexanizmlari:*

- 1 - motor;
- 2 - tishlashish muftasi;
- 3 - biriktiruvchi val;
- 4 - uzatimalar qutisi;
- 5 - ketingi ko'priki;
- 6 - oxirgi uzatma;
- 7 - o'rnatish tizimi;
- 8 - yurish qismi;
- 9 - rama


Motor yonilg'ining yonishidan hosil bo'lgan issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirib beradi, keyin bu energiya tirsakli valdan traktorning kuch uzatish qisiniiga uzatiladi.

Kuch uzatish qismi (1.1-rasm) motor tirsakli valining aylanma harakatini traktor yoki avtomobilning yurish qismiga uzatadi. U ilashish

muftasi (2), birikitiruvchi yoki kardan val (3), uzatmalar qutisi (4), asosiy uzatma, differensial (g'ildirakli traktorlarda va avtomobilarda) yoki boshqarish mexanizmlari (o'rmalovchi zanjirli traktorlarda) va oxirgi uzatma (6) dan tuzilgan ketingi ko'priki (5) dan iborat.

Yurish qismi va boshqarish mexanizmi. Traktor yoki avtomobilning yurish qismi yetakechi g'ildiraklarining aylanma harakatini ilgarilanma harakatga o'zgartiradi hamda asosni ko'tarib turadi. Yurish qismi yetakechi va yo'naltiruvchi g'ildiraklar yoki o'rmalovchi zanjirli yurish qismi (8) rama (9) dan iborat (1.1-rasm).

G'ildirakli traktor va avtomobilarning boshqarish mexanizmlari (1.2-rasm) rul boshqarmasi (6) va tormoz (4) lardan iborat. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning boshqarish mexanizmlari bort friksionlari va tormozlardan iborat. Rul boshqarmasi traktor yoki avtomobilning oldingi (yo'naltiruvchi) g'ildiraklarini burib harakat yo'nalishini o'zgar-



1.2-rasm. Yuk avtomobilining umumiy ko'rinishi va asosiy qismlari:
 1 — moter; 2 — kuzov; 3 — kach uzatish qismi; 4 — tormoz tizimi;
 5 — yurish qismi; 6 — rul boshqarmasi

tiradi, tormozlar esa ularning harakatini sekinlashtiradi va to'xtatadi. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning boshqarish mexanizmi va tormozlari biror o'rmalovchi zanjirning harakatini sekinlashtirib yoki to'xtatib, traktorni zarur tomonga buradi, shuningdek, tormozlaydi.

Ish uskunasi traktorga biriktilgan mashina va qurollarni harakatga keltirish uchun xizmat qiladi. U tirkash moslamasi, o'matish tizimi (7) va quvvat olish validan iborat. Traktorning kabinasi, kapoti, qanoti, yoritish asboblari va boshqalar qo'shimcha uskunadir.

Avtomobil kuzovi yengil avtomobillarda passajirlar va haydovchining uulay o'tirishiga moslashtirilgan, yuk avtomobillarida esa yuk ortiladigan platforma va haydovchi kabinasidan iborat bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Qishtoq xo'jaligini mexanizatsiyalash deh nimaga aytildi va uni joriy qilishning ahamiyati nimadan iborat?
2. O'zbekistonda avtomobil va traktorsozlik sanotining rivojlanishi va uning qisqacha tarixini aytib bering.
3. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi energetika vositalari qanday rivojlangan?
4. Traktorlar vazifasiga qarab qanday guruhlarga ajraladi, ularning tuzilishidagi o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
5. G'ildirakli va o'rmalovchi zanjirli traktorlarning afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?
6. Traktorlar tizimi nima, traktorlar torish kuchiga qarab qanday sinjlarge ajraladi?
7. Avtomobillar vazifasiga qarab va yetakechi g'ildiraklari soniga qarab qanday xillarga bo'linadi?
8. Qishloq xo'jaligida qanday statcionar motorlar keng qo'llaniladi va uiardan qaysi sharoitlarda foydalaniлади?
9. Traktor va avtomobillarning asosiy qismlarini, ularning vazifasini tushuntirib bering.
10. Avtomobill shassisi va traktor ish uskunlariga nimalar kiradi?

2-bob. AVTOTRAKTOR MOTORLARINING TUZILISHI VA ISHLASHI

1-§. Ichki yonuv motorlarining tasnifi va tuzilish sxemalari

Biror turdag'i energiyani mexanik ishga aylantiradigan mashina motor yoki motor mashina deyiladi. Qanday energiyadan foydalananishiga qarab motorlar turlicha bo'ldi, masalan: shamol motorlari, suv motorlari, elektr motorlar, issiqlik motorlari va boshqalar. Shamol motorlarida shamolning esish kuchi, suv motorlarida suvning og'irligi, tezligi, bosimi mexanik ishga aylantirilsa, issiqlik motorlarda yonilg'inining yonishidan hosil bo'lgan issiqlik energiyasi mexanik ishga aylantiriladi.

Yonilg'i motorning qayerida yonishiga qarab issiqlik motorlari yonilg'i motor silindrlari ichida yonadigan ichki yonuv motorlarga va yonilg'i bug' qozoni o'txonasida yonadigan bug' mashinalari, bug' turbinalariga ajraladi.

Traktor va avtomobilarda qo'llaniladigan ichki yonuv motorlarining yonilg'i motorning maxsus kamerasida yonadigan reaktiv motorlar, gaz turbinalar va boshqa motorlardan farqi shundaki, gazning kengayishdagi kuchi motorning porsheniga ta'sir etib, undan boshqa detallariga uzatiladi va barcha jarayon silindr ichida harakat etuvchi porshen bilan bajariladi. Shu sababli bu motorlar porshenli ichki yonuv motorlari deyiladi.

Traktor va avtomobilarda qo'llaniladigan porshenli ichki yonuv motorlari quyidagi alomatlariga qarab bir necha guruhga ajraladi.

Motorlar yonuvchi aralashma hosil etilishiga qarab — aralashma motor silindri tashqarisida tayyorlanadigan benzinli va gaz motorlarga hamda aralashma silindr ichida tayyorlanadigan dizel motorlarga bo'slinadi.

Aralashmaning alanganishiga qarab — elektr uchquni bilan alanganadigan (benzinli va gaz) hamda siqishdan qizigan havo bilan o'z-o'zidan alanganadigan (dizel) motorlarga ajraladi.


Ish sikli porshenning nechta yo'lida bajarilishiga qarab — to'rt taktli va ikki taktli motorlar bo'ladi. Qo'llaniladigan yonilg'inining turiga qarab — suyuq yonilg'ida (benzin, kerosin, dizel yonilg'isida) va

gazsimon yonilg'ida (generator gazi, sijilgan yoki suyultirilgan gazlarda) ishlaydigan motorlar farqlanadi.

Silindrlarning soniga qarab — bir silindrli va ko'p (ikki, uch, to'rt, olti, sakkiz) silindrli motorlar bo'ladi. Motorlar silindrlari tik, yotiq. V harfi shaklida va oppozitiv (qarama-qarshi) joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

Sovitilishiga qarab — suv bilan sovitiladigan va havo bilan sovitiladigan motorlar bo'ladi.

Bir silindrli motoring sxemasi 2.1-rasmida keltirilgan. Motor silindri (1) ichida porshen (2) turadi. Porshen barmoq (6) yordamida shatun (7) ning yuqorigi kallagini biriktiriladi. Shatunning pastki kallagi tirsaklı val (8) ga birlashtirilgan. Tirsaklı val podshipniq (9 va 11) larda aylanadi, valning keyingi uchiga maxovik (10) mahkamlangan. Silindrning tepasi kallak (3) bilan bekitilgan. Kallakning kiritish va chiqarish kanallari bor. Kanallarning kallakka birikadigan teshiklari klapan (4 va 5) lar bilan yopilib, ma'lum paytda ochiladi.



2.1-rasm. Bir silindrli motoring sxemasi:

- 1 — silindr;
- 2 — porshen;
- 3 — kallak;
- 4 va 5 — klapanlar;
- 6 — porshen barmoq'i;
- 7 — shatun;
- 8 — tirsaklı val;
- 9 va 11 — tirsaklı val podshipniklari;
- 10 — maxovik

Benzinli motorlarda silindrlar kallagiga yondirish svechasi o'matiladi. Svechada hosil bo'ladigan elektr uchqun ish aralashmasini alangalatadi. Dizel motorlarda kallakka forsunka o'matiladi. Forsunkadan yonitg'i mayda to'zitilgan tuman tarzida silindrga purkaladi.

Tirsakli val aylantirilsa, porshen silindr ichida ilgarilanib-qaytib to'g'ri chiziqli harakat qiladi. Porshenning tirsakli val o'qidan eng uzoqlashgan (yuqoriga chiqib qaytadigan) nuqtasi *yuqori chekka nuqta* (YCHN) deb ataladi. Porshenning val o'qiga eng yaqinlashgan (pastga tushib qaytadigan) nuqtasi pastki chekka nuqta (PCHN) deb ataladi. Chekka nuqtalar orasidagi masofa *porshenning yo'li* deyilib, S bilan belgilanadi. Porshen har gal bir chekka nuqtadan ikkinchisiga harakat qilganda val 180° burchakka buriladi. Porshenning har yo'lida silindr ichida bajariladigan jarayon takt deb ataladi.

YCHN da turgan porshenning tepasida hosil bo'ladigan hajm *siqish kamerasingin hajmi* deyilib, V_h bilan belgilanadi. Porshen YCHN dan PCHN gacha harakat etib bo'shatadigan hajm silindrning ish hajmi deyilib, V_s bilan belgilanadi. Silindr ish hajmini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$V_h = \frac{\pi D^2}{4} \cdot S,$$

bu yerda: D — silindrning diametri; S — porshenning yo'li, mm.

Motor silindri ish hajmining silindrlar soniga ko'paytmasi *motorning litrabi* deb ataladi.

PCHN da turgan porshen tubining tepasidagi hajm *silindrning to'la hajmi* deyiladi, uning qiymati

$$V_a = V_h + V_s \text{ ga teng.}$$

Silindr to'la hajmining siqish kamerasi hajmiga nisbati *motorning siqish darajasi* (ε) deyiladi:

$$\varepsilon = \frac{V_a}{V_s} = \frac{V_h + V_s}{V_s} = \frac{V_h}{V_s} + 1$$

Motorning siqish darajasi porshen PCHN dan YCHN gacha harakat etganda yonuvchi aralashma yoki havo hajmining necha baravar kamayishini ko'rsatadi. Siqish darajasi benzinli motorlarda 4–8, dizellarda 13–20 ga teng. Siqish darajasi qancha katta bo'lsa, gazlar yonganda katta bosim hosil bo'lib, motorning quvvati shuncha oshadi va u tejamliroq ishlaydi. Biroq, siqish darajasi benzinli motorlarda

aralashmaning o'z-o'zidan alangalanish harorati bilan cheklanadi. Dizellarda siqish darajasini ortiqcha oshirish motorning detallariga ta'sir etadigan kuchni oshirib yuboradi, detallar tez yeyiladi, ishqalanishga quvvat ko'proq sarflanadi va yonilg'i ni yana ham yugori bosimda purkash lozim bo'ladi.

Ichki yonuv motorining uzuksiz ishlashi uchun silindri ichiga yonuvchi aralashma (benzinlarda) yoki havoni (dizellarda) muttasil kiritish, aralashmani yoki havoni siqish va siqilgan aralashmani svecha bilan, siqilgan havoga esa yonilg'i purkab yondirish lozim. Yonilg'i yonganda gaz paydo bo'ladi, uning harorati va bosimi ko'tariladi, natijada gazlar kengayib, porshenni pastga bosadi (ish bajaradi). So'ngra silindr ishlatalgan gazlardan tozalanadi. Shu jarayonlar ma'lum tartibda takrorlanaveradi. Silindrlarda takrorlanadigan barcha jarayonlar motorning *ish jarayoni* yoki *ish sikli* deyiladi. Motorning ish jarayoni to'rt yoki ikki taktdan iborat bo'lib, bu kiritish, siqish, ish yo'lli (kengayish) va chiqarish taktlaridir.

2-\$. To'rt taktli benzinli motorning ish jarayoni


Ish jarayoni porshenning to'rt yo'llida, ya'ni tirsaklı val ikki mart aylanganda bajariladigan motor *to'rt taktli motor* deyiladi. To'rt taktli motorning ish jarayoni 2.2-rasida ko'rsatilgan. Benzin, kerosin va gaz motorlari shunday tarzda ishlaydi.

Kiritish (so'rish) takti (2.2-rasm, a) d' silindr (9) ga yonuvchi aralashma to'ldiriladi. Tirsakli val (1) burilganda porshen (3) YCHN dan pastga siljiy boshlaydi va porshen tepasidagi hajim kengayib siyraklanish hosil bo'ladi. Bu paytda kiritish klapani (6) ochilib, silindr kiritish quvuri orqali karburator (5) bilan tutashadi.

Karburotorda yonilg'i va havodan tayyorlangan yonuvchi aralashma siyraklanish ta'siri bilan silindrga kiradi. Porshen PCHN ga ketganda silindr yonuvchi aralashma bilan to'ladi va yuqoriga ko'tariladi. Eteganda kiritish klapani kiritish teshigini bekitadi.

Yenish kamerasida oldingi ish siklidan qolgan gazlar yangi kirgan yonuvchi aralashmaga aralashadi. Qoldiq gazlar aralashgan yonuvchi aralashma *ish aralashma* deyiladi. Kiritish taktida silindrda bosim 0,07 — 0,09 MPa, ish aralashmaning harorati 70—120°C bo'ladi.

Siqish taktida (2.2-rasm, b) ish aralashma yonishga tayyorlanadi. Porshen PCHN dan YCHN ga siljganda silindr ichiga kirgan ish




2.2-rasm. To'rt taktli, bir silindrli benzinli motorning ish jarayoni:

a — kiritish; b — siqish; c — ish yo'li; d — chiqarish; e — tirsaklı val;
 2 — shatun; 3 — porshen; 4 — porshen barnog'i; 5 — chiqarish klapani;
 6 — kiritish klapani; 7 — svecha; 8 — karburator; 9 — silindr; 10 — maxovik

aralashmani siqadi. *Kiritish* (6) va *chigarish* (5) klapanlari yepiq bo'lganligi sababli aralashmaning hajmi kamayib, silindrdagi bosim va harorati ko'tarila boshlaydi. Motorning siqish darajasiga qarab aralashma hajmi kamayadi. Siqish taktining oxirida bosim 0,7—1,2 MPa ga, harorat esa 300—400°C ga yetadi.

Siqish taktining oxirida silindr kallagidagi yondirish svechasi (7) ning elektrodlari orasidan o'tadigan elektr uchqun aralashmani alangulatadi. Porshen YCHN ga yetib kelgan paytda aralashma yonib bo'ladi. Natijada silindrdagi bosim 3,0—4,5 MPa gacha, harorat esa 2400°C gacha ko'tariladi.

Ish yo'li (kengayish) takti (2.2-rasm, d). Yongan aralashmaning issiqlik energiyasi mexanik ishga aylantiriladi. Bu paytda kiritish va chiqarish teshiklari klapanlar bilan yopilgan bo'ladi. Gazlar kengayib porshenni pastga (YCHN dan PCHN gacha) bosadi. Porshennenning harakati barmoq (4) va shatun (2) orqali tirsaklı valga uzatilib, uni maxovik (10) bilan birga aylanishga majbur etadi. Ish yo'li taktining oxirida gazning bosimi 0,3—0,4 MPa gacha, harorati esa 900—1100°C gacha pasayadi va chiqarish klapani (5) ochilib, gazlar tashqariga chiga boshlaydi.



2.3-rasm. To'rt takli benzinli motoring indikator diagrammasi:
 P – bosim; V – hajm; V_s – sigish kamerasining hajmi;
 V_k – silindrning ish hajmi; V_o – silindrning umumiy hajmi


Chiqarish takti (2.2-rasm, e). Silindrler ishlataligan gazlardan tozalanadi. Porshen PCHN dan YCHN ga siljib, ishlataligan gazlar chiqarish teshigidan quvur orqali atmosferaga chiqariladi. Chiqarish taktining oxirida gazning bosimi 0,11–0,12 MPa, harorati esa 500–900°C bo'ladi. Chiqarish oxirida ish sikli tugallanib, so'ng yana kiritish, sigish va hokazo takti qaytariladi, ya'ni ish sikli takrorianaveradi.

Silindrda gaz bosimining turli taktlarda porshen tepasidagi hajm o'zgarishiga nisbatan qanday o'zgarishini grafik usulda indikator diagramma bilan ko'rsatish mumkin. To'rt takli benzinli motoring indikator diagrammasi 2.3-rasmida ko'rsatilgan. Diagrammada yonishning sigish takti oxirida tugashi ko'rinish turibdi.

3-\$. To'rt takli dizel motorining ishlash prinsipi

To'rt takli dizel motorining ish jarayoni 2.4-rasmida ko'rsatilgan. Dizel motorining ish jarayoni aralashma hosil qilish va aralashmaning alanganishi jihatidangina benzinli motorlardan farq qiladi, ammo

taktlari, porshenning harakat yo'nalishi va klapanlarning ochiq-yopiq turishi benzinli motordagiga o'xshaydi.



2.4-rasm. To'rt taktli, bir silindrli dizel motorining ish jarayoni:
a — kiritish; b — siqish; c — iši yo'li; d — chiqarish; / — forsunka


Kiritish takti (2.4-rasm, a). Porshen YCHN dan PCHN ga harakatlanib, silindrda siyraklanish hosil qiladi. Kiritish klapani ochitadi va silindrga havo tozalagichdan o'tib tozalangan havo kiradi. Kiritish taktida silindrda bosim 0,08—0,09 MPa, harorat 50—80°C bo'ladi.

Siqish takti (2.4-rasm, b). Porshen PCHN dan YCHN ga tomon siljiydi. Ikkala klapan yopiq bo'lganligi sababli silindrda havo siqiladi. Havoning ko'p siqilishi natijasida siqish taktining oxirida silindrda havoring bosimi 3,5—4,0 MPa gacha, harorati esa 500—650°C gacha ko'tariladi.

Siqish taktining oxirida porshen YCHN ga yaqinlashganda forsunka (/) dan yuqori bosim bilan yonilg'i purkaladi. Juda mayda zarra-chalardan iborat bo'lgan yonilg'i qizigan havo bilan aralashadi, qiziydi va birozdan keyin o'z-o'zidan alangalanadi. Aralashma yonganda silindrda bosim 5,5—9,0 MPa gacha, harorat esa 1600—2100°C gacha ko'tariladi. Yonilg'i purkalgandan keyin aralashma tez alangalanib yonmasa, dizel o'ziga xos taqillash ovozi chiqarib ishlaydi, bu yonilg'ining o'z-o'zidan alangalanish haroratiga bog'liq, bu harorat qancha past bo'lsa, dizei shuncha osoyishta (taqillamasdan) va ravon ishlaydi.

Ish yo'li takti (2.4-rasm, d). Dizellarda siqish taktida aralashma yonib tugamasdan, ish yo'li taktida ham yonishda biroz davom etadi. Ikkala klapan yopiq bo'lganligi sababli porshen gazlar bosimi ta'siri ostida YCHN dan PCHN ga siljiydi. Porshenning harakati shatun orqali tirsaklı valga uzatilib, uni aylanishga majbur etadi. Ish yo'li taktining oxirida silindrdağı bosim 0,3–0,4 MPa, harorat esa 600–900 °C gacha pasayadi.

Chiqarish takti (2.4-rasm, e). Benzinli motorlarda chiqarish takti qanday o'tsa, dizellilarda ham shunday o'tadi. Chiqariladigan gazlarning bosimi takt oxirida 0,11–0,12 MPa, harorati 400–800 °C atrofida bo'ladi.




2.5-rasm. To'rt taktli dizel motorining indikator diagrammasi:
P – bosim; V – hajm

To'rt taktli dizelning indikator diagrammasi 2.5-rasmda ko'rsatilgan. Bu diagramma yonish jarayonining kechishi jihatidan benzinli motordan farq qiladi. Yonilg'ining yonishi siqish takti oxirida boshlanib, ish yo'li taktining boshlanishida ham davom etishi porshenning pastga tushishiga qaramasdan, silindrdağı bosimning pasymasligiga imkon beradi ($Z \rightarrow Z'$ uchastkasi).

Benzinli motor va dizel ish jarayonida porshen ish yo'li taktida gazlar bosimi ta'siridan siljib tirsaklı valni ayantiradi. Kiritish, siqish

va chiqarish taktlarida esa porshenni maxovikning kinetik energiyasi hisobiga aylanuvchi tirsakli val harakatlantiradi.



2.6-rasm. Turbokompressorli motoring sxemasi:

1 — motor; 2 — kiritish quvuri; 3 — havo tozalagich; 4 — kompressor;
5 — val; 6 — turbina; 7 — chiqarish quvuri

Havo puflash. Dizel motorlarida havo silindrغا kiritish taktida so'rib olinmasdan, maxsus turbokompressor orqali 0,135—0,16 MPa bosim ostida kiritiladi, natijada silindrغا ko'proq havo kiradi va ko'proq yonilg'i yoqish imkonи tug'iladi. Bu esa, motor quvvatini 35% va undan ham ko'proq oshirishga imkon beradi (2.6-rasm).

Turbokompressorli motor (1) silindrlariga havoni bosim bilan kiritish jarayoni havo puflash deyiladi. Turbokompressor val (5) ga o'rnatilgan kichik turbina (6) va kompressor (4) dan iborat bo'lib, turbina motor chiqarish quvuri (7) dan chiqadigan ishlatalgan gaz bilan harakatga keltiriladi. Kompressor havo tozalagich (3) dan o'tgan havoni kiritish quvuri (2) orqali silindrarga kiritadi.

Dizel va benzinli motorlarni taqqoslash. Dizel motori bajargan ishi hisobida benzinliga nisbatan 20—25% kamroq yonilg'i sarflaydi. Dizel yonilg'isi arzon va yonilg'i jihatidan nisbatan xavfsizroqdir. Dizel silindrlarida yuqori bosim hosil bo'lishi tufayli uning detallari


mustahkam qilinadi, shu sababli dizel motori benzинli motorga nisbatan og'irroq va uni o't oldirish qiyinroq bo'ladi. Shu sababli dizel motori traktorlarda va katta yuk avtomobillarida qo'llaniladi.

4-§. Ikki taktlı benzинli motorning tuzilish sxemasi va ishlashi

Ikki taktlı motorning ish jarayoni porshenining ikki yo'lida yoki tirsaklı vali bir marta aylanganda bajariladi.

Ikki taktlı prinsip asosida ishlaydigan benzинli motor va ikki taktlı dizel motori bor.

Ikki taktlı benzинli motorlar ba'zi traktor dizellarning yurgizib yuborish motorlari sistemasida, ko'pchilik mototsikllarda, kichik statsionar motorlarda qo'llaniladi. Ikki taktlı benzин motorining tuzilish va ishlash sxemasi 2.7-rasmda ko'rsatilgan.



2.7-rasm. Ikki taktlı benzинli motorning ishlash sxemasi:

- 1 — karter; 2 — puflash kanali; 3 — puflash tuynugi; 4 — silindr;
- 5 — chiqarish tuynugi; 6 — karburator; 7 — kiritish tuynugi; 8 — porshen;
- 9 — svecha

Motorning karteri (1) jips berkitilib, kiritish tuynugi (7) orqali karburator (6) bilan, puflash kanali (2) va puflash tuynugi (3) orqali esa silindr (4) bilan tutashgan. Silindrning devorida chiqarish tuynugi (5) bor. Silindrning tepasi kallak bilan berkitiladi. Kallakka yondirish svechasi (9) burab qo'yilgan. Bu motorning alohida gaz taqsimlashi mexanizmini yo'q, uning vazifasini porshen bajaradi, ya'ni silindrda qiritish, chiqarish va puflash tuyuklarini ma'lum vaqtida ochib, berkitadi. Ikki taktlı benzинli motor quyidagi tartibda ishlaydi.

Tirsakli val aylanib porshen (5) PCHN dan YCHN ga siljiganda (2.7-rasm, a) krivoship kamerasida siyraklanish hosil bo'ladi va porshen yubkasi kiritish tuynugini ochganda karterga karburatordan yonuvchi aralashma suriladi.

Porshen oldin puflash, so'ng chiqarish tuynuklarini berkitib, silindrga kirgan aralashmani siqadi. Porshen YCHN ga yaqinlashganda yondirish svechasi (9) elektrodlaridan uchqun chiqib, siqilgan aralashmani yonditradi. Aralashma yonib, gazning bosimi 2.0 MPa gacha, harorati esa 1800°C gacha ko'tariladi. Gazlar kengayib porshenni pastga bosadi, uning kuchi shatun orqali tirsakli valga uzatilib, uni aylanishga majbur etadi.

Porshen YCHN dan PCHN ga tushganida (2.7-rasm, b) dastlab kiritish tuynugini berkitadi, karburatordan karterga aralashma kirishi to'xtaydi va karterdagagi aralashmani porshen siqa boshlaydi. Keyin porshen chiqarish tuynugini ochadi, ishlatalgan gazlar silindrden bu tuyruk orqali tashqariga chiqsa boshlaydi, natijada silindrda bosim tez kamayadi, so'ngra porshen puflash tuynugini ochadi, bunda karterdagagi siqilgan aralashma puflash kanali orqali silindrga kira boshlaydi.

Kiritish va chiqarish tuynuklari ochiq bo'lganligi sababli silindrga karterdan kirgan aralashma ishlatalgan gazlarni haydab tashqariga chiqaradi, shunda yonuvchi aralashmaning bir qismi ishlatalgan gazlar bilan (yonmasdan) atmosferaga chiqib ketadi (2.7-rasm, d). Porshen yana PCHN dan YCHN ga ko'tarilib yuqorida bayon etilgan jarayon takrorlanadi.

To'rt taktli va ikki taktli motorlarni taqqoslash. Ikki taktli benzinli motoring afzalligi shundaki, sodda tuzilgan, maxovigi to'rt taktliga nisbatan kichikroq bo'ladi.

Litraji va aylanish tezligi bir xil bo'lganda to'ri taktli motorga nisbatan 60—70% ko'proq quvvat beradi.

Ikki taktli motoring kamchiliklari: asosiy qismlari yonilg'iga aralashtiriladigan moy (15 / benzinga aralashtirilgan 1 / karter moyi) bilan moylanishi sababli yetarli darajada moylanmaydi va yaxshi sovitilmaydi, karteri jips berkitilishi shart bo'lganidan uni ko'p silindrli qilish qiyin.

Silindrлari ishlatalgan gazlardan yaxshi tozalanmaydi va yonuvchi aralashmaning bir qismi (30% chasi) yonmasdan tashqariga chiqib isrof bo'lganidan, yonilg'ining solishtirma sarfi to'rt taktli motorlardagiga nisbatan ancha ortiq.

5-§. Ko'p silindrli, to'rt taktli motorlarning ishlashi

Bir silindrli, to'rt taktli motoring ishlash jarayonini jadvalda ifodalash mumkin (2.1-jadval).

Demak, bir silindrli, to'rt taktli motorda porshenning to'rt yo'lidan faqat bittasi ish yo'li bo'lib, qolgan uchtasi yordamchi taktlarga to'g'ri keladi. Motor tirsakli valining uchiga mahkamlangan maxovik ish yo'li taktida o'ziga energiya to'plab, uni yordamchi taktlarni bajarishga sarflaydi. Valning tekis aylanishi uchun krivoship-shatun mexanizmi maxsus mexanizm bilan muvozanatlanadi.


Ko'p silindrli motorlarda ish sikli davomida ish yo'li takti ko'proq takrorlanadi, shuning uchun tirsakli val rayon aylanadi va maxovikning og'ir bo'lishiga va qo'shimcha muvozanatlovchi mexanizm o'rnatishga ehtiyoj qolmaydi. Motor silindrлari sonining oshirilishi bilan uning quvvati ham ortadi va detallari kichikroq (yengilroq) bo'ladi.

2.1-jadval

Bir silindrli, to'rt taktli motoring ish jarayoni

Tirsakli valning aylanishi	Porshenning harakat yo'nalishi	Taktlar	Kiritish klapani	Chiqarish klapani
Birinchi yarim aylanish	pastga	kiritish	yopiq	yopiq
Ikkinci yarim aylanish	yuqoriga	siqish	yopiq	yopiq
Uchinchi yarim aylanish	pastga	ish yo'li	yopiq	yopiq
To'rtinchi yarim aylanish	yuqoriga	chiqarish	yopiq	ochiq

Ko'p silindrli motoring rayon ishlashi uchun bir turli takt uning bir necha silindrlerida bir vaqtida takrorlanmasligi va ish yo'li takti ma'lum vaqtidan keyin muntazam takrorlanishi shart. Buning uchun tirsakli valning burilish burchaklari bilan ifodalangan (graduslarda) ish sikli silindrлari soniga bo'linadi. To'rt taktli motor ish sikli davomida tirsakli val ikki marta aylanib $360 \times 2 = 720^\circ$ ga buriladi. To'rt silindrli motorlarda ish yo'li takti $720:4=180^\circ$, olti silindrлarda esa $720:6=120^\circ$ dan keyin takrorlanishi lozim.



2.8-rasm. To'rt silindrli, to'rt takhti motoring ishlash sxemasi

Motoring turli silindrlarida bir xil taktning (masalan, ish yo'llining) takrorlanish tartibi *motoring ish tartibi* deyiladi.

Ikki silindrli motor tirsakli valning tirsaklari bir tekislikda qaramagareshi joylashtirilgan, shu sababli motor silindrlari 1-2-0-0 tartibda ishlaydi. Demak, valning birinchi yarim aylanishida birinchi silindrda, ikkinchi yarim aylanishida esa ikkinchi silindrda ish yo'lli sodir bo'lib, keyingi ikkita yarim aylanishida (valning ikkinchi marta aylanishida) hech qaysi silindrda ish yo'lli bo'lmaydi.

To'rt silindrli motorda (2.8-rasm) tirsakli valning ikkinchi va uchinchi tirsaklari bir tekislikka joylashtirilib, birinchi va to'rtinchı tirsaklari ikkinchi va uchinchilariga nisbatan 180° burchak hosil etadi. Motor ishlayotgan vaqtida 1 va 4 silindrlar porsheni pastga harakat qilsa (2.8-rasm, a), 2 va 3 silindrlar porsheni yuqoriga harakat qiladi. Agar shu paytda 1 silindrda — ish yo'lli, 2 silindrda — chiqarish, 3 silindrda — siqish, 4 silindrda — kiritish taktlari sodir bo'lyapti deb faraz qilsak, tirsakli valning ikkinchi yarim aylanishida (2.8-rasm, b) silindrlardagi

porshenlarning harakat yo'nalishi o'zgarib, 1 da -- chiqarish, 2 da — kiritish. 3 da -- ish yo'li, 4 da esa siqish taktlari sodir bo'ladi.

Uchinchi va to'rtinchchi yarim aylanishda silindrlarda sodir bo'ladi gan taktlarni kuzatish (2.8-rasm, d va e) qiyin emas. Silindrlardagi taktlarning takrorlanishi ularning ishlash tartibiga bog'liq bo'lib, to'rt silindrlri motorlar 1-3-4-2 yoki 1-2-4-3 tartibda ishlashi mumkin.

To'rt silindrli, to'rt taktsi motorni ish jarayonini ham jadvalda ifodalash mumkin (2.2-jadval).

2.2-jadval

To'rt silindrli, to'rt taktsi motorni ish jarayoni


Tirsakli valning aylanishi	Tirsakli valning burchaklari	Silindrlar			
		1	2	3	4
Birinchi yarim aylanish	0—180°	ish yo'li	chiqarish	siqish	kiritish
Ikkinci yarim aylanish	180—360°	chiqarish	kiritish	ish yo'li	siqish
Uchinchi yarim aylanish	360—540°	kiritish	siqish	chiqarish	ish yo'li
To'rtinchchi yarim aylanish	540—720°	siqish	ish yo'li	kiritish	chiqarish

Demak, ish yo'li tirsakli valning birinchi yarim aylanishida birinchi silindrda, ikkinchi yarim aylanishida uchinchi silindrda, uchinchi yarim aylanishida to'rtinchchi silindrda va to'rtinchchi yarim aylanishida ikkinchi silindrda bajariladi, ya'ni bu jadvalda motor silindrlari 1-3-4-2 tartibda ishlaydi. So'ngra barcha jarayon takrorlanadi. Boshqacha tartibda ishlaydigan to'rt silindrli motor uchun ham shunday jadval tuzish mumkin.


Olti silindrli motorlarda valning tirsaklari bir-biriga nisbatan 120° burchak hosil etadigan qilib joylashtiriladi. Bunday motorni sxemasi 2.9-rasmida ko'rsatilgan. Ko'pchilik olti silindrli motorlar 1-5-3-6-2-4 tartibda ishlaydi. Val har gal bir marta aylanganida uch silindrda ish yo'li takti sodir bo'ladi. Olti silindrli motorni ish jarayonlari 2.3-jadvalda ko'rsatilgan.

Olti silindrli, to'rt taktli motoring ish jarayoni

Tirsakli valning yarim aylanishlari	Tirsakli valning burilish burchaklari	Silindrlar					
		1	2	3	4	5	6
Birinchi	60°	ish yo'li	chiga- rish	kiri- tish	ish yo'li	siqish	kiritish
	120°						
	180°			siqish	chiga- rish	ish yo'li	
Ikkinchi	240°	chiga- rish	kiri- tish			ish yo'li	sicish
	300°						
	360°			ish yo'li	kiri- tish		
Uchinchi	420°	siqish			chiga- rish	ish yo'li	ish yo'li
	480°		kiri- tish				
	540°			chiga- rish	siqish		
To'rtinchি	600°	ish yo'li			kiri- tish	kiri- tish	chiga- rish
	660°		siqish	chiga- rish			
	720° (0°)				ish yo'li	siqish	




2.9-rasm Olti silindrli, to'rt taktli motor tirsakli valining sxemasi



2.10-rasm. Silindrlari «V» tarzda joylashtirilgan sakkiz silindrli motor tirsakli valining sxemasi

Silindrlari «V» tarzda joylashtirilgan sakkiz silindrli motorlarda valning har shatun bo'yiniga ikkita shatun mahkamalanadi. Val tirsaklari bir-biriga nisbatan 90° burchak hosil etadi. Bunday motorning sxemasi 2.10-rasmida ko'rsatilgan. Motor silindrlari 1-5-4-2-6-3-7-8 tartibda ishlaydi (2.11-rasm). Val har gal bir marta aylanganida to'rtta silindrda ish yo'li sodir bo'tadi. Bir silindrda ish yo'li taktining yarmi o'tganda boshqasida boshlanadi. Sakkiz silindrli motorning ish jarayoni 2.4-jadvalda ko'rsatilgan.



2.11-rasm. Sakkiz silindrli motor silindrlarining joylashtirilishi va ishlash tartibi

Sakkiz silindrlri motorning ish jarayoni

Tirsakli valning yarim aylanishlari	Tirsakli valning burlish burchaklari, grad	Silindrlar							
		1	2	3	4	5	6	7	8
Birinchi	0—90	Ish yo'li	Kiri-tish	Chi-qarish	Siqish	Siqish	Kiri-tish	Chi-qarish	Ish yo'li
	90—180				Siqish	Kiri-tish	Ish yo'li		Chi-qarish
Ikkinchi	180—270	Chi-qarish	Siqish		Ish yo'li		Siqish	Kiri-tish	
	270—360				Ish yo'li	Chi-qarish			Kiri-tish
Uchinchi	360—450	Kiri-tish	Ish yo'li	Siqish		Chi-qarish	Ish yo'li	Siqish	
	450—540				Chi-qarish	Kiri-tish			Siqish
To'rtinchi	540—630	Siqish	Chi-qarish	Ish yo'li	Kiri-tish		Chi-qarish	Ish yo'li	
	630—720		Kiri-tish	Chi-qarish		Siqish			Ish yo'li

6-§. Motorning quvvati, foydali ish koefitsienti va issiqlik balansi

Motorning indikator quvvati. Motor silindrlarida sodir bo'layotgan ish jarayoni indikator diagrammasi bilan aniq ifodalanadi. Motor silindrida gazlarning kengayishidan hosil bo'ladigan quvvat motorning indikator quvvati deyilib, u motorning litrajiga, tirsakli valning aylanish tezligiga, silindrlar soniga va o'rtacha indikator bosimiga bog'liq. Motorning bitta silindrida bir ish sikli davomida gazlar kengayishi natijasida bajariladigan ish A quyidagicha topiladi:

$$A = P_i \cdot \frac{\pi D^2}{4} \cdot S, \text{ N}\cdot\text{m}.$$

bu yerda: P_i — o'rtacha indikator bosim, MPa; D — silindr diametri, m; S — porshenning yo'li, m.

To'rt taktli motorning tirsakli vali ikki marta aylanganda har bir silindrida bittadan ish yo'li sodir bo'ladi, shu sababli har sekunddag'i

sikllar soni $\frac{n}{2 \cdot 60} \cdot i$ ga teng, bu yerda: n — valning daqiqasiga ayianishlari soni; i — silindriar soni.

Motoring indikator quvvati N_i bir siklda bajarilgan ishning har sekunddag'i sikllar soniga ko'paytmasiga teng:

$$N_i = P_i \cdot \frac{\pi D^2 \cdot S}{4} \cdot \frac{n \cdot i}{2 \cdot 60}, \text{ kW}$$

$\frac{\pi D^2}{4} \cdot S \cdot i$ — ifoda motor barcha silindrлarining hajmi m^3 . Motor silindrлarining ish hajmi (litraji) V_i litrlar bilan ifodalanadi, ya'ni:

$$V_i \cdot 1000 = \frac{\pi D^2}{4} \cdot S \cdot i, \text{ m}^3$$

Indikator quvvat formulasidagi $\frac{\pi D^2}{4} \cdot S \cdot i$ o'rнига $V_i \cdot 1000$ ni qo'yساқ,

$$N_i = \frac{P_i \cdot V_i \cdot n}{2 \cdot 60}, \text{ kW} \text{ bo'ladi.}$$

Ikki taktili motorlaraing n va i qiymatlari to'rt taktili motornikiga teng bo'lganda, ularning ish sikllari to'rt taktlilarnikidan ikki baravar ko'proq bo'ladi. Shu sababli ikki taktili motoring indikator quvvati:

$$N_i = \frac{P_i \cdot V_i \cdot n}{60}, \text{ kW ga teng.}$$

O'rтacha indikator bosimi to'rt taktili benzinli motorlarda 0,8—1,2 MPa, to'rt taktili dizellarda 0,7—1,0 MPa, ikki taktili benzinli motorlarda 0,45 — 0,5 MPa chamasida bo'ladi.

Motoring o'rтacha indikator bosimi uning quvvatini aniqlaydigan asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, yangi quriladigan motorlar uchun analitik usulda hisoblanishi mumkin. Mavjud motorlarning o'rтacha indikator bosimi motorni sinashda indikator deb ataladigan maxsus asbob bilan aniqlanadi.

Motoring effektiv quvvati. Motoring tirsaklı validan olinib, kuch uzatish qismiga beriladian quvvat effektiv quvvat N_e deyiladi. Motoring effektiv quvvati indikator quvvatidan albatta kam bo'ladi, chunki sitindrlarda hosil bo'lgan quvvatning bir qismi motor detallarining

ishqalanishiga, ventilator, yonilg'i, moy va suv nasoslari, generator va boshqa mexanizmlarni harakatga keltirishga sarf bo'ladi.

Motorning mexanik foydali ish koefitsienti. Motor effektiv quvvatining indikator quvvatiga nisbati uning mexanik foydali ish koefitsienti (FIK) deyiladi:

$$\eta_m = \frac{N_c}{N_i}$$

Motorning mexanik foydali ish koefitsienti η_m indikator quvvatining qancha qismi foydali ishga sarf bo'lishini ko'rsatadi.

Motorning mexanik FIK motorning turiga, moylanishiga, detallari sirtining ishlanish sifatiga, motor valining aylanish tezligiga va yuklanishiga bog'liq. η_m to'rt taktli benzinli motorlarda 0,70—0,85, to'rt taktli dizellarda 0,73—0,80 chamasida bo'ladi. Detallar sifatlari moy bilan yaxshi moylansa, sirlari silliq bo'lsa, η_m ning miqdori ortadi, aylanish tezligi ortganda η_m kamayadi.

Motorning effektiv foydali ish koefitsienti. Motorda yonilg'inining issiqlik energiyasidan qanchalik to'la foydalananishi effektiv foydali ish koefitsienti η_e bilan tavsiflanadi.

Uning qiymati motorda foydali ishga sarflangan issiqlik Q , miqdorini motorning ishlashi uchun sarflangan umumiy issiqlik Q_{um} miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi:

$$\eta_e = \frac{Q_f}{Q_{um}}$$

Ma'lumki, $Q_f = N_e$ va $Q_{um} = N_i G_s$,

bu yerda: N_e — yonilg'inining issiqlik chiqarish qobiliyati kDj/kg; G_s — yonilg'inining bir soatlik sarfi, kg. Demak:

$$\eta_e = \frac{3600 N_e}{N_i G_s}$$

Har bir motorning effektiv FIK motorning ish rejimi, uning texnik holati, aralashmaning tarkibi va boshqa omillarga bog'liq. To'la yukianishda ishlaganda effektiv FIK to'rt taktli benzinli motorlarda 0,22—0,28, dizellarda esa 0,30—0,38 chamasida bo'ladi.

Yonilg'inining solishtirma sarfi. Motorning tejamli ishlashi effektiv FIK dan tashqari, yonilg'inining solishtirma sarfi bilan ham aniqlanadi. Motorda bir kW quvvat hosil etish uchun har soatda sarflanadigan yonilg'inining miqdori yonilg'inining effektiv solishturma sarfi deyiladi:

$$q_c = \frac{G_c \cdot 1000}{N_c}; \quad q_e = \frac{G_e \cdot 1000}{\eta \cdot N_e} \cdot \frac{g}{kW \cdot saat}$$

Yonilg'ining solishtirma sarfi to'rt taktli benzinli motorlarda 270—330, dizellarda 205—250 g/kW saat chamasidadir.

Motorning issiqlik balansi. Motorda yonilg'i yonganida chiqadigan issiqlikning foydali ishga va turli nobudgarchiliklarga taqsimlanishi motorning issiqlik balansi deyiladi. Issiqlik foydali ishga aylanishdan tashqari, ishlatalgan gazlar, sovituvchi suv yoki havo bilan ham ketadi, shuningdek, atrofni isitadi, chala yonadi va boshqa nobudgarchiliklar uchun sarf bo'ladi. Traktor va avtomobil motorlarida issiqlikning taxminiy sarfi 2.5-jadvalda ko'rsatalgan.

2.5-jadval

Traktor va avtomobil motorlarining issiqlik balansi

Issiqlikning taqsimlanishi	Issiqlik miqdori, %	
	benzinli motorlar	dizellar
Motorda foydali ishga sarf bo'ladijan issiqlik	22--28	30--38
Sovituvchi sav yoki havo bilan olib ketiladijan issiqlik	25--35	20--30
Ishlatilgan gazlar bilan tashqariga chiqib ketadijan issiqlik	30--35	25--30
Ishqalanish va yordamechi mexanizmlarni harakatga keltirish uchun ketadijan issiqlik	15--25	15--30

Motorning issiqlik balansi nazariy hisoblash yo'li bilan yoki motorni laboratoriyada tekshirib aniqlanishi mumkin.

Motorning issiqlik balansi uning muhim iqtisodiy ko'rsatkichilaridan biridir. Motorning konstruksiyasini va ish jarayonlarini takomillashtirish, siqish darajasini oshirish, havo bilan sovitish, yengil, mustahkam va chidamlili materiallar qo'llanish yo'li bilan issiqlikning foydali ishga aylantiriladigan miqdori oshirilmoqda.

Motorning solishtirma ko'rsatkichlari. Motorning konstruksiyasiga baho berish va bir-biriga solishtirib ko'rishda uning litr quvvati, litr og'irligi va solishtirma og'irligidan foydalaniлади.

Motorning litr quvvati. Motor effektiv quvvatining silindrlari ish hajmiga nisbatli uning litr quvvati deyiladi:

$$N_l = \frac{N_e}{V_h i} \cdot \frac{kW}{l},$$

Motorning litr quvvati uning litrajidan qanchalik foydalaniishini ko'rsatadi. Litr quvvati qancha katta bo'lsa, motor shuncha yengil va ixcham bo'ladi.

Motorning litr og'irligi. Motor og'irligining silindrlar ish hajmiga bo'lgan nisbatli uning litr og'irligi deyiladi:

$$q_{l,o} = \frac{G_e}{V_h i} \cdot \frac{kg}{l},$$

bu yerda: G_e — yonilg'i quyilmagan, lekin to'liq uskunadangan motorning og'irfigi, kg.

Motorning litr og'irligi konstruksiyasining takomillashtirilganligini, yasalish texnologiyasi va materiallarining sifatini tavsiflaydi.

Motorning solishtirma og'irligi. Motor og'irligining effektiv quvvatiga bo'lgan nisbatli uning solishtirma og'irligi deyiladi:

$$q_{s,o} = \frac{G_e}{N_e} \cdot \frac{kg}{kW}$$

Motorning solishtirma og'irligi uning qanchalik takomillashtirilganligini ko'rsatadi. Motorning solishtirma og'irligi uning tipiga, konstruksiyasiga, materiallari sifatiga va boshqalarga bog'liq.

Motorlarning solishtirma ko'rsatkichlari 2.6-jadvalda keltirilgan.

2.6-jadval
Motorlarning solishtirma ko'rsatkichlari

Motorlar	Litr quvvati, kW/l	Litr og'irligi, kg/l	Solishtirma og'irligi, kg/kW
Benzinli avtomobil motori	15—50	50—110	1,5—5
Benzinli traktor motori	6—15	70—140	5—13
Avtomobil dizellari	15—30	65—130	5—12
Traktor dizellari	8—14	85—200	7,5—22

7-§. Ichki yonuv motorining umumiy tuzilishi


Motor krivoship-shatun va gaz taqsimlash mexanizmlari hamda ta'minlash, moylash, sovitish, yondirish va yurgizib yuborish tizimlaridan iborat bo'lib, ular birgalikda motorning bir me'yorda ishlashini ta'minlaydi.

Krivoship-shatun mexanizmi gazlar bositmini qabul qildi, porshening to'g'ri chiziqli ilgarilama-qaytma harakatini tirsakli valning aylanma harakatiga o'zgartiradi va motorning boshqa mexanizm va tizimlari bilan birgalikda ish jarayonini bajaradi.

Gaz taqsimlash mexanizmi motor silindrlariga o'z vaqtida yonuvchi aralashma yoki havo kiritadi va ishlatilgan gazlarni chiqaradi.

Ta'minlash tizimi benzinli motorlarda yonuvchi aralashma tayyorlaydi va uni silindrlarga uzatadi, dizellarda esa, silindrlarga havo va yonilg'i yuboradi, unda ish aralashma tayyorlaydi.

Moylash tizimi motorning barcha ishqalanadigan detallarini uzlusiz moylab, ularning ishqalanishini, qizishini va yeyilishini kamaytiradi.




2.12-rasm. To'rt silindrli, to'rt taktsli dizel motorining bo'ylama qirqimi:

1—porshen; 2—silindrlar gilzasi; 3—silindrlar bloki; 4—kiritish klapani;
5—silindrlar kallagi; 6—chiqarish klapani; 7—forsunka; 8—po'ben barmog'i;
9—tirsakli val; 10—shatun; 11—karter tubi; 12—maxovik

Sovitish tizimi motoring qizigan detallarini sovitib ularni ortiqcha qizishdan saqlaydi.


Yondirish tizimi benzinli motorlar silindrida yonilg'i-havo aralashmasini elektr uchquni bilan yondiradi.

Yurgizib yuborish tizimi motorni ishga tushiradi.




2.13-rasm. Havo bilan sovitiladigan to'rt takli dizel motorining ko'ndalang qirqimi:

- 1—motor karteri; 2—taqsimlash vali; 3—dekompressor valchasi;
4—moy radiatori; 5—silindr; 6—porshen; 7—silindr kallagi;
8—klapanlar qopqog'i; 9—yurgizib yuborish qizdirgichi;
10—ortiqcha qizish signalizatorining datchigi; 11—shatun



2. 14-rasm. Olti silindelli, to'rt taktili benzini motoring bo'ylama qiroqimi:
 1—biok karter; 2—silindrlar kallagi; 3—svecha; 4—kalta qurugilza; 5—porshen; 6 va 7—klapanlar; 8—turtgich;
 9 va 12—taqsimlash shesernalari; 10—shkv; 11—taqsimlash vali; 13—tirsakli val; 14—maxovik



2.15-rasm. Silindrlari «V» tarzida joylashtirilgan benzinli motorning ko'ndalang qirqimi:

1— startyor; 2—tirsakli val; 3—silindrlar bloki; 4—shatun; 5—porshen;
6—kiritish klapani; 7—silindrlar kallagi; 8—koromislo; 9—karburator;
10—shtanga; 11—chiqarish klapani; 12—silindr gilzasi; 13—turtgich;
14—taqsimlash vali; 15—tirsakli val posangisi

Motor mexanizmlari detallarining va ba'zi tizimlari ayrim elementlarining qanday joylashtirilganligini ko'rsatish uchun (2.12, 2.13, 2.14 va 2.15-rasmlarda) turli motorlarning qirqimi keltirilgan:

2.12-rasmda to'rt taktsli, to'rt silindrli dizel motorining bo'ylama qirqimi ko'rsatilgan. Bu suv bilan sovitiladigan motor bo'lib, bunday motorlar 1,4; 2; 3 t sinf traktorlarda qo'llanildi.

2.13-rasmda havo bilan sovitiladigan to'rt taktsli dizel motorining ko'ndalang qirqimi ko'rsatilgan. 0,6 va 0,9 t sinf traktorlarga ko'pincha shunday motorlar o'rnatiladi.

2.14-rasmida olti silindrlili, to'rt taktili karburatorli motorning bo'ylama qirqimi ko'rsatilgan. Qishloq xo'jaligida eng ko'p tarqalgan va silindrlari qatorasiga joylashtirigan 2,5; 4 t yuk ko'tara oladigan avtomobilarga shunday motorlar o'rnatilgan. Hozir chiqarilayotgan yuk avtomobillariga asosan silindrlari «V» tarzda joylashtirilgan motorlar o'rnatilmoqda, uning ko'ndalang qirqimi 2.15-rasmida keltirilgan. Bu rasmlardagi ayrim raqam belgilari kitobning tegishli boblarida eslatib o'tilgan.

Nazorat savollari

1. Motor deb nimaga aytildi, qanday motorlarni bilasiz?
2. Silindrning ish hajmi, yonish kamerasining va motorning sigish darajasi deb nimaga aytildi? Sigish darajasi motor quvvatiga va tejamli ishlashiga qanday ta'sir etadi?
3. To'rt taktili benzinli motor qanday ishlaydi?
4. To'rt taktili dizel motori ish jarayonining benzinli motordan qanday farqi bor?
5. Ikki takili benzinli motor qanday tuzilgan va qanday ishiydi?
6. Benzinli va d'zel motorlarini, shuningdek, to'rt va ikki taktili motorlarni bir-biriga taqqoslab, ularning afzalligi va kamchiliklarini aytib bering.
7. Motorning ishslash tartibi deb nimaga aytildi? 2, 4 va 6 silindrlili motorlar qanday tartibda ishlaydi?
8. Motorning indikator quvvati, effektiv quvvati, mexanik foydali ish koeffitsienti, effektiv foydali ish koeffitsienti va yonilg'ining effektiv solishtirma sarfi deb nimaga aytildi?
9. Ichki yonuv motori qanday mexanizm va tizimlardan iborat, ular qanday vazifani bajaradi?

1-§. Krivoship-shatun mexanizmining tuzilishi

Motorning krivoship-shatun mexanizmini (3.1-rasm) porshenning to'g'ri chiziqli harakatini tirsaklı valning aylanma harakatiga o'zgartiradi. Bu mexanizm silindr (2), porshen (3), porshen barmog'i (4), shatun (5), tirsaklı val (7) va maxovik (10) dan iborat. Bu detallar motor blok-karteri (1) ichiga joylashtirilgan.

Blok-karter. Blok-karter motorning barcha mexanizm va tizimlari o'rnatiladigan asosiy bazis detal bo'lib, ko'pincha cho'yandan, ba'zan aluminiy qotishmasidan quyib yasaladi. Blok-karter (3.2-rasm, a) motor asosi hisoblanib, uning silindr (1) lar joylashtiriladigan qismi silindrlar bloki (3) deyiladi. Tirsaklı val va taqsimlash vali joylashtiriladigan teshiklari bo'jadi. Pastki qismi (11) motor karteri deyilib, u pastdan tub qopqoq bilan yopiladi. Blok-karter ichiga va sirtiga motorning mexanizm va asboblari mahkamlanadi.

Bir silindrli motorlarning va havo bilan sovitiladigan motorlarning silindrlari (3.2-rasm, d) alohida yasalib, sovituvchi qovurg'alar (5) qilinadi. Silindr flanesi (5) ostiga qistirma (7) qo'yib, karter (8) ga mahkamlanadi (2.13-rasm, 1). Blokning tepasi silindrlar kallagi bilan berkitiladi.

Silindrlar (3.2-rasm, b, d) ichida motorning ish sikli sodir bo'ladi. Siliindrlar, asosan, cho'yandan quyib yasaladi. Silindrning ichki qismi silliq qilib ishlaniib, *silindr ko'zgusi* deyiladi.

Ko'pchilik avtomobil motorlarning silindri, shuningdek, yurgizib yuborish motorining silindrlari blok-karter bilan birga quyiladi. Ba'zi avtomobil silindrlari ichiga bor bo'yicha yoki faqat tepe qismiga (2.14-rasm, 4) yeyilishga chidamli maxsus cho'yan gilza o'rnatilib, bunday silindr ichiga kirgizilgan gilzalar «quruq gilza» deyiladi. Suv bilan sovitiladigan traktor motorlarida, asosan, quyma gilzalar (3.2-rasm, 4) qo'llaniladi. Quyma gilzalar yeyilishga chidamli cho'yandan yasaladi, ular ta'mirlash ishlarini ancha osonlashtiradi.

Blok devori bilan silindrlar o'rtaida sovitadigan suv o'tadigan oraliq (g'ilof) bor, shuning uchun bunday gilzalar «cho'l gilza» deyiladi.

Suv g'iloſidan karterga suv o'tmasligi uchun gilzaning blokka tegib turadigan pastki qismiga zichlovechi rezina halqa (9) o'rnatiladi. Ko'pincha gilzaning blokka o'rnatiladigan bo'rtig'i ostiga zichlovechi mis halqa (10) qo'yiladi.

Silindrlar kallagi silindrlar ustini berkitib turadigan qopqoq bo'lib, ko'pincha barcha silindrlar uchun yaxlit qilib yasaladi, ba'zan kallak vaznni og'irlashtirib yubormaslik uchun to'rt — olti silindrli motorning har ikki — uch silindriga alohida kallak qilinadi. Havo bilan sovitiladigan motorlarda har bir silindrning kallagi alohida bo'ladi (2.13-rasm, 7).

Klapamlari yuqoriga joylashtirilgan motorlarning kallagida (3.3-rasm) kiritish (4) va chiqarish (2) klapamlari uyasi va kiritish hamda chiqarish kanallari (8), uyurma harakat hosil qiluvchi diffuzor (10) li uyurma kamerasi (11) kanali (3) va turtgich sh'tangalari o'tkaziladigan teshik (6) lar bor. Suv o'tadigan teshiklar (1) va (7), shpilkalar o'tkaziladigan teshiklar (5), forsunka o'matiladigan teshik (9) ham kallakga joylashtiriladi. Klapan uyasi teshigini klapan (12) yopib turadi.


Motorning yonish kamerasi ko'pincha kallakka joylashtiriladi. Klapamlari pastga joylashtirilgan motorlarda klapamlar blokda turadi (2.14-rasm, 6, 7), shu sababli kallakning kiritish va chiqarish teshiklari bo'lmaydi. «V» tarzda joylashgan motorlarning har qator silindriga alohida kallak qilinadi (2.15-rasm, 7).

Silindrlar kallagi maxsus cho'yandan yoki aluminiy qotishmasidan quyib yasaladi. Suv bilan sovitiladigan motorlarda kallakning devori ikki qavat qilinib, orasida sovitadigan suv o'tadigan bo'shliq bo'ladi. Kallakning blokka o'rnatiladigan tekisligi silliq qilib ishlanadi. Blok bilan kallak orasiga metall-asbest qistirma qo'yiladi. Ba'zan (havo bilan sovitiladigan motorlarda) qistirma qo'yilmaydi. Kallak blokka shpilkalar (3.2-rasm, 2) va gaykalar bilan mahkamlanadi.

Porshen (3.4-rasm) ish yo'li taktida kengayadigan gazlar bosimini qabul qilib, barmoq va shatun orqali tirsaklı valga uzatadi, shuningdek, yordamchi taktlarni (kiritish, siqish va chiqarishni) bajaradi, bunda tirsaklı val shatun va barmoq orqali porshenni harakatga keltiradi.


Porshen aluminiy qotishmasidan, ba'zan (oldin chiqarilgan motorlarda) cho'yandan quyib yasaladi. Alyumin porshen yengil, issiqni yaxshi o'tkazadi va kamroq ishqalanadi.

Har bir porshennenning tubi (3), halqa ariqchalari (2) joylashgan zichlovechi qismi, yo'naltiruvchi qismi — yubkasi (4) va porshen barmog'i o'rnatiladigan bobishkasi (1) bo'ladi. Porshennenning tubi tekis yoki do'ng bo'ladi, ba'zan yonish kamerasi porshenga joylashtiriladi.




3.1-rasm. Kribochip-shatun mehanizmi:

1 — blok-karter; 2 — silindr; 3 — porshen harrog'i; 5 — shatun; 6 — taqsimlash shesternasi; 7 — tirsakli val; 8 va 9 — o'zak podshipnik vkladishlari; 10 — maxovik




3.2-rasm. Blok-karter (a), silindr gilzasi (b) va havo bilan sovitiladigan motor silindri (d):

1 — silindr; 2 — shpilkalar; 3 — silindrler bloki; 4 — silindr gilzasi;
 5 — sovituvchi qovurg'alar; 6 — flanes; 7 — qistirma; 8 va 11 — karter;
 9 — zichlovchi rezina halqa; 10 — zichlovchi mis halqa



3.3-rasm. Silindrler kallagi:

1 va 7 — suv o'tadigan teshiklar; 2 — chiqarish klapanlarining uyasi;
 3 — uyurma kamera kanali; 4 — kiritish klapanlarining uyasi;
 5 — kallak mahkamlanadigan shpilkalar teshigi; 6 — turkich shtangalar
 teshigi; 8 — chiqarish kanallari; 9 — forsunka o'rnatiladigan teshik;
 10 — diffuzor; 11 — uyurma kamera; 12 — klapan



3.4-rasm. Porshen (A): 1 — bobishka; 2 — halqa ariqchalar; 3 — tubi; 4 — yo'naltiruvchi qism; 5 — kesik; 6 — diffuzor osti o'yig'i; 7 — moy o'tadigan teshiklar; **va porshen halqalari (B):** 1 — silindr; 2 — konussimon qirqimli halqa; a — kompression halqa; b, d — moy sidirgich halqalari

(2.13-rasm, 6); porshen tubiga klapanlar uchun maxsus o'yiglar, diffuzor osti o'yig'i (6) qilinadi. Tubining mustahkamligini oshirish va issiqni tarqatish uchun ba'zan ichiga qovurg'a qilinadi. Porshenning moy sidirgich halqa o'rnatiladigan ariqchasiga teshik (7) lar qilinadi.

Motor ishlaganda porshenning yubkasiga nisbatan tepa qismi ko'proq qiziydi, shuning uchun zichlovchi qismning diametri yubkasidan kichikroq qilinadi va silindr devoriga jips tegishi uchun uning maxsus ariqchalariga porshen haqlarini o'rnatiladi.

Ba'zi porshenlarning yubkasi ellips shaklida yasaladi, ya'ni porshen barmog'i o'qiga nisbatan tik o'qi kattaroq bo'ladi. Bu ham porshenning zichroq turishini ta'minlaydi va ishqalanishni kamaytiradi. Ba'zan porshen yubkasiga «П» nusxa (2.14-rasm, 5) yoki qiya kesik ham qilinadi. Silindr bilan porshen yubkasi orasida 0,18—0,30 mm tirkish bo'lishi kerak. Yubkasi ellips shaklli yoki kesikli porshenlarda bu tirkish 0,95—0,10 mm bo'ladi.

Porshenlar silindrلarga diametri bo'yicha tanlab o'rnatilishidan tashqari, og'irligi bo'yicha ham tanlab (mumkin qadar tenglab) o'rnatalidi. Porshen silindrغا tezroq va yaxshiroq moslanishi uchun ba'zan sirtiga yupqa qalay qatlami qoplanadi.

Porshen halqlari (3.4-rasm) porshennenning silindrغا jips tegishini ta'minlab, gazlarni silindrдан karterga o'tkazmaydi va porshennenning issig'ini qisman silindrغا o'tkazadi. Porshen halqlarini maxsus cho'yan dan quyih yasaлади. Halqlar silindrغا kirgizilmaganda ularning diametri silindr diametridan kattaroq bo'lib, kesilgan uchlarning o'rtasidagi oraliq 10—15 mm bo'ladi. Silindrغا kirgizilgan halqaning uchlari (qulfi) yaqinlashib, ish vaqtida qizib cho'zilishi uchun ularning o'rtasida 0,2—0,8 mm tirkish qoldiriladi.


Porshennenning yuqori qismiga o'rnataladigan, gazni o'tkazmaslik uchun xizmat qiladigan halqlar kompression halqlarini deyiladi. Karburatorli motorlarda 2—3, dizellarda 3—4 ta kompression halqa bo'ladi. Kiritish taktida silindrغا karterdan kompression halqlar bilan porshen ariqchasi orasidan moy o'tishi mumkin. Shuning uchun kompression halqlardan pastga bitta, ba'zan ikkita moy sidirgich halqlar (*b, d*) qo'yiladi. Bu halqlarning sirtida ariqchasi va cho'ziqroq teshiklari bo'ladi. Halqa silindrغا ensiz sirti bilan tiraflanligidan kuchliroq qisiladi. Porshennenning moy sidiruvchi halqlar o'rnataladigan ariqchasida ham teshiklar ochiladi (3.4-rasm, *7*). Motor ishlaganda moy sidiruvchi halqlar silindr devoridagi moyni sidirib, porshen teshiklari orqali karterga qaytaradi, ba'zi motorlarda bu moyning bir qismi porshen bobishkasining teshiklaridan o'tib, porshen barmog'ini moylaydi.

Halqlarning justlashadigan uchlari (qulfi) to'g'ri, qiya yoki zinasi mon qilinadi. To'g'ri qulflari halqlar ko'proq tarqalgan. Ikki taktli motorlarda halqlarning buralmasligi va halqa uchlari silindr tuyunkalariga duch kelmasligi uchun porshen ariqchasiiga (qulsga) stopor vint o'rnataladi.

Halqlarni porshenga o'rnatganda ularning qulflari bir-biriga nisbatan 90—120° burib va porshen bobishkasini tepasida turmaydigan qilib joylashtiriladi, halqlarning qulflari bir tik chiziqda tursa, gaz o'tishi mumkin.

Halqlarning silindrغا ishqlanib yeyilishini kamaytirish uchun yuqorigi halqlarning sirtiga xrom qoplanadi, silindrغا tezroq moslanishi uchun esa ko'pincha yupqa qo'rg'oshin yoki qalay qoplanadi (oqartiriladi). Halqlarning silindrغا tezroq moslanishi, yaxshi va zinch tegishi uchun ular to'g'ri burchak kesimli qilinmay konussimon, faskali

yoki o'yiqli qilinadi. Bunday halqalarning pastki qirrasi silindrغا tiralib, keyin buraladi va moy sidiruvchi halqa sifatida ishlab silindr devoridan moy sidiradi.




3.5-rasm. Porshen barmoqlari: 1 — porshen; 2 — barmoq;
3 — stopor halqa; 4 — aluminiy tiqin;
5 — shatunning yuqorigi kallagi

Porshen barmog'i (3.5-rasm) porshen bilan shatunning yuqori kallagi (5) ni sharnirli bitlashtiradi. Barmoq (2) ning ikki chekkasi porshen (1) bobishkasiga, o'rta qismi esa shatunning yuqori kallagiga kirgizilib, zarbli kuchga va ishqlanishga bardosh berib ishlaydi. Porshen barmoqlari maxsus po'latdan ichi kovak qilib yasaladi, sirti segmentatsiya qilinadi, yuqori chastotali tok bilan toblanadi va silliqlanadi, natijada barmoq yengil, mustahkam va yeyilib ketmaydigan bo'ladi. Ikki taktli motorlar barmog'i gaz o'tmasligi uchun ichi to'siqli qilinadi.

Porshen barmog'i bobishkalarda va shatunning vtulkasida burila oladigan tipda qilinadi. Barmoq yoniga surilib silindr ko'zgusini shikastlamasligi uchun bobishkalarning o'yig'iga stopor halqalar (3) yoki bobishka teshiklariga alumin tiqinlar (4) kirgizib surilmaydigan qilinadi.

Shatun porshenni tirsaklı valning shatun bo'yniga birlashtirib, ish yo'li taktida porshendan tirsaklı valga kuch uzatadi (2.12-rasm, 10). Shatunga gaz bosimidan tashqari yo'naliishi o'zgaruvchan inersiya kuchi ham ta'sir etadi. Shatun maxsus po'latdan shtampovka qilib yasaladi.

Shatun (3.6-rasm) yuqorigi kallak (1), pastki kallak (3) va sterjen (2) dan iborat. Shatunning yuqorigi kallagi porshen barmog'iga, pastki kallagi esa tirsaklı valning shatun bo'yniga biriktiriladi (3.1-rasm, 5).



3.6-rasm. Shatunlar: 1 — yuqorigi kallak; 2 — sterjen; 3 — pastki kallak; 4 va 7 — po'lat vkladishlar; 5 — pastki kallak qopqog'i; 6 — shatun bolti; 8 — vtulka; 9 — pastki kallak teshigi; 10 — gayka; 11 — shiplint


Shatunning yuqorigi kallagiga bronza vtulka (8) presslab o'tqazilgan. Shatun yengil va mustahkam bo'lishi uchun uning sterjeni qo'shtavr qirqimli qilib yasaladi. Ba'zi shatunlarning sterjenida porshen barmog'ini moylash uchun tirsakli valning bo'yning birikurish uchun uning pastki kallagi ajralma qopqoqli qilinadi. Bu qopqoq ko'pincha shatun o'qiga nisbatan 90° burchak ostida qirqliladi (3.6-rasm. b, d). Ba'zan shatunni ixchamlashtirib silindr ichidan o'tkazib o'rnatish uchun qopqog'i 45° burchak ostida qiya qirqliladi (3.6-rasm. a).

Shatun pastki kallagini qopqog'i ikkita bolt (6) bilan biriktiriladi. Boltning tojli gaykasi (10) burab qotirilib, o'zicha bo'shab ketmasligi uchun shiplint (11) kirgizib qo'yiladi. Shatunning pastki kallagiga *shatun podshipnigi* o'rnatiladi.

Ko'pchilik shatunlarda sirpanish podshipniklari qo'llaniladi. Bunday podshipniklar sifatida alumin qotishmasi, babbitt yoki qo'rg'oshinli bronza quyilgan yupqa po'lat vkladish (4 va 7) lar qo'llaniladi. Vkladishlarning o'z o'qi atrofida buralib yoki siljib ketmasligi uchun ularga chiqiqqlar, shatunning pastki kallagida esa shu chiqiqqlarga mos o'yiglar qilinadi. Ba'zan, shatunning pastki kallagida kichik teshik (9) bo'lib, undan chiqqan moy taqsimlash valining kulachoklarini va turtgichlarni moylaydi.

Tirsakli val qismilarga ajraladigan qilib yasalgan bo'lsa, shatunning pastki kallagi yaxlit qilinib, unga yumalab ishlaydigan podshipniklar (ninasimon rolikli podshipniklar) o'rnatiladi. Sachratib moylanadigan motorlarda shatunning pastki qopqog'ida cho'michi bo'ladi.

Silindrlari «V» simon shaklda joylashtirilgan motorlarda valning har shatun bo'yning ikkita shatun o'rnatiladi. Motoring barcha shatunlari og'irligi bo'yicha mumkin qadir tenglab tanlanadi.



3.7-rasm. Tirsakli val va maxovik:

- 1 — oldingi uchi; 2 — o'zak bo'yni; 3 — tiqin; 4 — shplint; 5 — shatun bo'yni; 6 — moy tozalovechi bo'shilq; 7 — jag'i; 8 — moy kanallari;
- 9 — quyruq; 10 — maxovik; 11 — bolt; 12 — o'rnatish shifti;
- 13 — tishli gardish; 14 — moy qaytaruvchi rezba; 15 — flanes

Tirsakli val (3.7-rasm) porshenlardan shatunlar orqali olgan to'g'ri chiziqli harakatni aylanma harakatga, bosim kuchini esa burovchi momentga aylantiradi va uni maxovik orgali kuch uzatish qismlariga uzatadi. Shuningdek, gaz taqsimlash mexanizmi, suv, moy va yonilg'i nasosları, ventilator, generator va boshqalar tirsakli valdan harakatga keltiriladi.

Tirsakli valning o'zak yoki tayanch bo'yinlari (2), shatun yoki krivoship bo'yinlari (5), jag'lari (7), maxovik mahkamlanadigan flanesi (15) yoki quyrug'i (9) va ba'zan posangilar bo'ladi.

Tirsakli val motoring zo'riqib ishlaydigan muhim qismi bo'lib, po'latdan shtampovka qilib yoki maxsus cho'yandan quyib yasaladi.

Valning bo'yinlari yuqori chastotali tok bilan toplanadi, jilvirlanadi. zarur o'lechamga yetkazib pardozlanadi.

Silindri bir qator joylashtirilgan motorlarda silindrlarning soni qancha bo'lsa, tirsakli valning shuncha shatun bo'yinlari bo'ladi. Ikki va to'rt silindrli motorlarda valning shatun bo'yinlari bir-biriga nisbatan 180° , olti silindrlilarda esa 120° burchak bilan joylashtiriladi. Bir va ikki silindrli motorlar tirsakli valining faqat ikki uchida o'zak bo'yinlari bo'ladi. To'rt silindrli motorlar valining ko'pincha beshta, ba'zan esa ikkita, uchta yoki to'rtta o'zak bo'yini bo'ladi. Olti silindrli motorlar valning to'rtta yoki yettita o'zak bo'yini bo'ladi.

Tirsakli valning posangilar (2.15-rasm, 15) o'zak podshipniklarga tushadigan markazdan qochirma kuchlarni muvozanatlaydi. Posangilar val bilan birga yaxlit yoki alohida yasalib, val jag'iga boitlar bilan mahkamlanadi.

Tirsakli valning oldingi uchi (1) ga taqsimlagich mexanizmning harakatlantirish shesternasi o'matilib (3.1-rasm, 6), undan yoniig'i nasosi, moy nasosi va boshqalar harakatga keltiriladi. Ko'pincha valning uchiga ventilator va generatori harakatga keltiradigan shkiv (2.14-rasm, 11) hamda valni qo'l bilan aylantirishda dastaning uchi kirgiziladigan xrapovik o'matilibadi.

Motor ishlagan vaqtida tirsakli val qizib uzayib, o'z o'qi bo'yicha siljishi mumkin. Valning o'q yo'nalishida siljishini cheklash uchun biror o'zak podshipnigi tiraladigan qilinadi. Masa'an, beshinchı o'zak podshipnik vkladishlari bo'rtiqli qilinadi, u val jag'ining tirak sirtiga va moy qaytaruvechi rezba (14) bo'rtig'iga tiraladi; oldingi o'zak podshipnikning ikkala tomonida valga o'q bo'ylab ta'sir etuvechi kuchlarga bardosh beradigan babbittli po'lat tirak shaybalar qo'yiladi.

Tirsakli valning o'zak podshipniklari ham ko'pincha shatun podshipniklari singari tuzilib, ularning yupqa devorli vkladishlari kattaroq qilinadi, yuqorigi vkladishlar blokdagi uyaga, pastkisi esa, qopqoqqa o'rnatiladi. Qopqoq blokka boitlar bilan mahkamlanadi. O'zak podshipniklardan shatun podshipniklarga moy o'tkazish uchun valning tanasida parmalangan kanallari (8) bo'ladi. Bundan tashqari, ko'pebitlik vallarning shatun bo'yinida parmalangan bo'shliq (6) bo'lib, tigin (3) bilan berkitiladi. Tigin o'zicha buralib ketmasligi uchun unga shplint (4) kirgizib qo'yiladi. Val tez aylanganda markazdan qochirma kuch tufayli moydagi metall qirindilar va og'ir zarrachalar bo'shliq devoriga o'tinib qoladi. Toza moy trubka orqali chiqib podshif "kni moylaydi. Ta'mirlash vaqtida tigin burab chiqarilib, bo'shliq tozalanadi.

Ikkita o'zak bo'yinli tirsaklı vallarning o'zak podshipniklari ko'pincha sharikli, goho rolikli qilinadi. Bunday podshipniklar chidamli va ularning ishqalanish kuchi ancha kam bo'ladi. Bu podshipniklarning ichki halqasi val bo'yninga, sirtki halqasi esa karter devoridagi uyaga o'rnatiladi.

Maxovik (3.7-rasm, *10*) cho'yandan quyilgan og'ir disk bo'lib, motorning ravon ishlashini ta'minlaydi, krivoship-shatun mexanizmini qo'zg'almas (chekka) nuqtalardan siljitaladi, traktor va avtomobilning o'rnidan qo'zg'aliшини osonlashtiradi. Motorni o't oldirishda startyor yoki yurgizib yuborish motori yuritmasining shesternasi maxovikning tishli toji (*13*) bilan tishlashib tirsaklı valni aylantiradi.

O'zak bo'yinlar sharikli podshipnikda aylanadigan bo'lsa, maxovik tirsaklı valning quyrug'iغا shponka va gayka bilan mahkamlanadi.

Ko'pehilik motorlarda maxovik tirsaklı valning quyrug'iغا yoki uning flanesiga, nosimmetrik joylashgan teshiklariga kirgiziladigan bolt (*11*) lar va o'rnatish shtifti (*12*) bilan mahkamlanadi. Maxovikning to'g'iniga birinchi silindr porshenini YCHN ga keltirish, gaz taqsimlash mexanizmini rostlash, yondirish va yonilg'i berish paytini o'rnatish uchun turli belgilarni qilingan.

Motor karteri va sapuni. Motorning bloki bilan birga quyilgan pastki qismi karter deyilib, uning ichiga tirsaklı val va boshqa detallar joylashtiriladi. Karter ifloslanmasligi uchun past tomoni tub bilan berkitiladi (2.12-rasm, *11*). Unga moy quyiladi, tub cho'yan yoki aluminiydan quyib tayyorlanadi yoki po'latdan shtampovka qilib yasaladi, karter bilan tub orasiga qisirma qo'yiladi. Tirsaklı val va taqsimlash vali podshipniklarning uyalarini joylashtirish uchun karterga qovurg'ati to'siqlar qilinadi.

Motor ishlaganda siqish va ish yo'lli taktlarida porshen bilan silindr orasidan karterga oz bo'lsa ham gaz o'tadi. Silindrlar va halqlar yeyilgan sari gazlarning o'tishi ortadi.

Karter ichidagi bosimning oshmasligi uchun motorga sapun (3.9-rasm) o'rnatiladi. Sapun ortiqcha gazlarni chiqarib moyni tutib qoladi, motor soviganda karterga tashqaridan havo kirgizib chang o'tishiga yo'l qo'ymaydi, ya'ni karterni shamollatib turadi. Sapun korpus (*1*) va uning ichiga joylashtirilgan sim to'r (*2*) yoki tiqindan iborat. Sapun karterga yoki silindrlar kallagiga o'rnatiladi. Sapun to'g'ri ishlashi uchun texnik xizmat ko'rsatishlarda tiqinni chiqarib olib, kerosinda yuvish va moy bilan namlab joyiga qo'yish zarur. Avtomobil motorlariada sapun ko'pincha karterning ventilatsiya tizimi bilan birga yasalgan bo'ladi.

Motorning traktor va avtomobil ramasiga o'rnatilishi. Motor traktor va avtomobil ramasiga uch yoki to'rt yeridan o'rnatiladi. Motorning old qismi ramaga ko'pincha bir, ba'zan ikki yeridan mahkamlanadi. Ketingi qismi har doim ikki yeridan (ketingi tayanchi yoki maxovik karteri orqali) ramaga mahkamlanadi.

Motor ko'ndalangiga va uzunasiga siljimaydigan qilib (ba'zan maxsus tortqi qo'yib) o'rnatiladi. Motorning silkinishlarini ramaga o'tkazmaslik va rama qiyshayganda motor zarb yemasligi uchun rezina yostiqchalar (qistirmalar) qo'yib o'rnatiladi.


2-§. Krivoship-shatun mexanizmiga ta'sir etuvchi kuch va momentlar

Gazlarning bosimi porshen tubida (I) P kuchni hosil qilib, u silindr o'qi bo'ylab yo'naladi (3.8-rasm). Ushbu kuch porshen bo'rtiqlari orqali porshen P_{sh} va NP_{sh} barmog'iga uzatilib, ikkita tashkil etuvchiga ajralishi mumkin. Kuchi shatun (2) o'qi bo'ylab yo'nalib, porshen barmog'ini ezilishiga, shuningdek, uning, porshen bo'rtiqlari va shatun kallagi vtulka podshipnigi yeyilishiga olib keladi. Shatunning krivoship kallagi orqali P_{sh} kuch krivoshipning shatun (5) bo'yinchasiga beriladi. Uni 2 ta ta'sir etuvchi: P_t va T ga ajratish mumkin.

P_t krivoship bo'ylab yo'nalib, uning bo'yinlarini siqadi, o'zak bo'yinchalarini va ularning podshipniklarini ezadi, yeyilishini keltirib chiqaradi.

T kuch krivoshipga perpendikular yo'naltirilgan bo'lib, ya'ni uning shatun bo'yinchasi o'qi aylanish doitasiga urinma tarzda yo'naltirilgan bo'lib, bu tangensial kuchdir. U krivoship bo'yinchasi va shatun bo'yinchasi egilishini, o'zak bo'yinchalari buralishini, bo'yinchalar va ularning podshipniklari yeyilishini keltirib chiqaradi. Krivoship radiusi r ga teng yelkaga ta'sir etib, T kuch aktiv momentni hosil qiladi $M_a = T \cdot r$ (3.8-rasm, b) hamda uni transmissiya va traktor yurgizgichlariga uzatiladi.

N kuch shatunga perpendikular yo'nalgan. Lekin shatunning silindr o'qidan chetlanishi kichik bo'lganligi bois, ushbu kuchni (3) shartli ravishda silindr devoriga perpendikular deb olinadi va normal kuch deb ataladi. Porshen (1) siljishlardan miqdori va yo'nalishi jihatdan o'zgarib, navbatma-navbat uni silindr devorlariga siqadi va uning yeyilish va vibratsiyasini keltirib chiqaradi, bu esa dizel shovqini manbalaridan biridir.



3.8-rasm. Krivoship-shatun mexanizmiga ta'sir etuvchi kuch va momentlar

N kuch X o'zgaruvchani yelkaga ta'sir etib, reaktiv momentni keltirib chiqaradi, $M_p = N \cdot X$. Bu esa porshenning har qanday holatida miqdor jihatdan teng, lekin aktiv moment yo'nalishiga teskari bo'ladi: $M_p = M_a$.

Reaktiv moment dizel korpusining bo'yylama tebranishini keltirib chiqaradi, bu esa (9) kronshteynlar orqali traktor ramasi (7) ga uzatilib, haydovechi kabinasi va o'rindig'iga berilishi mumkin. Ushbu tebranislarni dempferlash uchun kronshteynlar va rama o'ttasida qayishqoq elementlar (asosan rezina) (8) o'rnatiladi.

P kuchning ko'rib chiqilgan tashkil etuvchilaridan tashqari, krivoship-shatun mexanizmiga markazdan qochma va inversion kuchlar ta'sir etib, ular uning qo'zg'aluvchi detallari tomonidan kelib chiqadi.

Krivoship o'qi bo'ylab aylanuvchi shatun bo'yinchasi massasi, unga o'rnatilgan shatun pastki kallagi massasi bilan birqalikda, shuningdek, shu massaga yotuvchi bo'yinchalarining tekis taqsimlanmagan qismlari markazdan qochma kuch P_m ni tashkil qiladi. Uning krivoship bo'yinchalarini cho'zadi, uning o'zak bo'yinchalari va podshipniklarni yuklaydi hamda dizel korpusini uning qayishqoq tayanchlarda tebranishini keltirib chiqaradi. Ushbu kuch krivoship bo'yinchalarining

davomiga o'rnatiladigan qarama-qarshi yukehalar yordamida bartaraf etilishi mumkin, agar ularning massalari tomonidan yaratiladigan markazdan qochma kuch $P_{k_{et,m}}$ miqdor jihatdan teng va P_m kuch yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalgan bo'lisa.

Silindr o'qi bo'ylab ilgarilanma-qaytma harakatlanadigan porshen komplekti massasi va shartli ravishda u bilan qo'shiladigan shatunning yuqori qismi massasi miqdor va yo'nalish jihatdan o'zgaruvchan inersiya kuchini hosil qilib, u P_m kuch bilan atgebraik qo'shiladi hamda uning ta'sir etuvechilari P_{sh} va \vec{N} miqdoriarda o'z aksini topadi. Ushbu inersiya kuchi birlamehi P_{m1} va ikkilamehi P_{m2} , tartibli inersiya kuchlari yig'indisi sitatida tasvirlanib, kosinusiodal tartibda o'zgaradi. P_{m1} maksimal kuchi P_{m2} maksimal kuchidan krivoship radiusidan 2 shatun uzunligi 4 nisbatigacha kotta bo'ladi.

P_{m1} kuchining o'zgarish davri krivoship burilishi 360° ga teng (3.8-rasm, b). Shuning uchun ushbu kuchni krivoship bo'yinchalari davomidagi yukehalar bilan qisman muvozanatlashtiriladi. Bunda P_{m1} kuehning bir qismini ta'siri vertikal tekislikdan gorizontal tekislikka o'tadi.


P_{m2} kuehning o'zgarish davri krivoship burilishining 180° ga teng. Shuning achiun uni bo'yinchalar davomidagi yukehalar bilan muvozanatlash mumkin emas. Bu maqsadda yukehalar (11) (3.8-rasm, d) ikkita qo'shimcha, (14, 13, 10) shesternalar bilan harakatga keladigan va krivoship yo'nalishiga teskar, 2 baravar ko'p aylanadigan vallarga o'rnatiladi.

Qo'shimcha vallarning tayanchlari, asosan, oraliq karter (12) ning ko'ndalang devorchalarida joylashadi. Yukehalar markazdan qochma kuchlarining gorizontal tashkil etuvechilarini bir-birini so'ndiradi, vertikal tashkil etuvechilarning yig'indisi esa P_{m2} kuchni muvozanatlaydi. Ushbu muvozanatlovchi tizimlar yetakechi traktor ishlab chiqarish firmalari dizeilarida qo'llaniladi.

Dizelning alohida silindrlarga P_m , P_{m1} va P_{m2} kuchlari reaktiv momentga qo'shimcha ravishda moment hosil qilib, ular korpusga uzatilib o'zining muvozanatlanishini talab qiladi.

3-\$. Krivoship-shatun mexanizmiga texnik xizmat ko'rsatish

Motor krivoship-shatun mexanizmining detallari yuqori harorat, kuchli bosim va inersiya kuchlari ta'sir etadigan og'ir sharoitda ishlaydi. Bu mexanizm qismlarining uzoq vaqt buzilmasdan ishlashi uchun mashinalardan foydalanish qoidalariga qat'iyan rioya qilish zarur.



3.9-rasm. Traktor motorlarining sapuni:
1 – korpus; 2 – sim to'r tijilma

Yangi olingen va ta'mir qilingan traktor va avtomobilarni ko'rsatmaga muvofiq chiniqtirish, motorning moylash tizimiga va havo tozalagichga texnik xizmat ko'rsatish qoidalariga amal qilish, motorni zo'riqtirib ishlatmaslik va issiqlik rejimini saqlash, zarurat bo'lmasa motorni qismlarga ajratmaslik — krivoship-shatun mexanizmining buzilmasdan ishlashi uchun eng zarur tadbirdir.


Krivoship-shatun mexanizmining detallari yeyilgan motorni ishga tushirish qiyin bo'ladi, quvvati pasayadi, moy va yonilg'i sarfi ortadi, sapundan (3.9-rasm) tutun chiqadi, chiqarish quvuridan esa ko'kimdir tutun chiqadi, motor taqillab ishlaydi. Agar bunga e'tibor bermay beparvolik bilan ishlataverilsa, jiddiy shikastlanish yuz berib, motor ishdan chiqishi mumkin.

Mashinalar chiniqtirish o'tkazilmay ishlatsa, detallarning sirtlari bir-biriga moslanish o'rniga ortiqcha qizishi natijasida halqalar porshen ariqchasiga yopishib (tijilib) qolishi, vkladishlar qadalib qolishi va uyasida aylanib ketishi mumkin.

Har bir motorga moyning mavsumga muvofiq xilini quyish, uning kamayib qolishiga va ifloslanib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak, aks holda krivoship-shatun mexanizmining detallari tez yeyiladi.

Ish vaqtida nazorat-o'lechov asboblarining ko'rsatishini doim kuzatib borish, shuningdek, yonilg'i, moy va suv sizishiga hamda jipsligi buzilishi sababli gaz chiqishiga va nozich joylardan havo so'rilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Motorni yuklangan holda ishlatishdan oldin, moyning qovushoqligini kamaytirish uchun birmuncha vaqt turgan

joyida ishlatib qizitib olish zarur. Shuningdek, uzoq muddat salt va kichik yuklanishda ishlatish yaramaydi, chunki detallarining moylanishi va yonilg'ining to'zitilishi yomonlashadi.



3.10-rasm. Stetoskop (a, b) va kompressomer (d)

Agar moyning bosimi pasayib ketsa, motor tutab, taqillab ishlasa yoki notekis ishlasa, uni darhol to'xtatib, sababini aniqlash va kamchiliklarni bartaraf qilish zarur.


Krivoship-shatun mexanizmi detallaridan porshen halqalari tezroq yeyiladi, ularning qulfidagi va porshen ariqchasiidagi tirqishi kattalashadi. Silindrлarning halqalar harakat qiladigan yuqori qismi ko'proq yeyilib, konus va ellips shakliga keladi. Porshenning halqa ariqchalari, bobishka teshigi va yubkasi yeyiladi. Porshen barmog'i, bobishka teshigi va shatunning vtulkasi yeyilganda, ularning orasidagi tirqish kengayadi. Tirsakli val podshipniklari va bo'yinlari yeyilganda, tirqish kattalashib, valning bo'yni ellips bo'lib qoladi.

Silindr, porshen va halqalar yeyilganda ish aralashmasi yoki havo yetarli darajada siqilmaydi, buni svecha yoki forsunka teshigiga kompressomer (3.10-rasm, d) o'rnatib bilish mumkin. Benzinli motorlar qo'l bilan, dizellar yurgizish motori yoki startyor bilan aylantirilganda kompressomerning manometri benzinli (karburatorli) motorlarda 0,6 — 0,8 MPa, dizellarda 2,1—2,6 MPa bosim ko'rsatishi lozim.

Motor detallari yeyilganda, ularning orasidagi tirqishi ortib o'ziga xos taqillash ovozlari chiqarib ishlaydi, buni stetoskop (3.10-rasm, a, b)

bilan eshitib aniqlash mumkin. Taqillashni aniqlashda stetoskop sterjennini motorning qayeriga tegizib eshitish qulayligi 3.11-rasmida ko'rsatilgan. Taqillashlarni aniqlash va bir-biridan ajrata bilish uchun ancha tajriba bo'lishi kerak.

Porshen barmog'i va shatun vtulkasi yeyilganda (4-soha) jaranglagan metall ovozi eshitiladi. Qaysi silindrda taqillashini forsunkaga yonilg'i yubormay yoki svechani massaga tutashtirib aniqlash mumkin.



3.11-rasm. Motor detallarining taqillash ovozlarini eshitish sohalari

Porshenlarning taqillashi 3-sohadan eshitiladi. Shatun podshipniklari «bo'g'iq» ovoz chiqaradi (2-soha). Tirsakli valning aylanish tezligi oshirilganda taqillash aniqroq eshitiladi.

Taqsimlash shesternalarining taqillashi (1-soha), klapanlarning taqillashi (5-soha) gaz taqsimlash mexanizmining ishiga bog'liq. Detonatsiya (karburatorli motorlarda) va yonilg'i purkash yoki yonish jarayonining buzilishi natijasida (dizellarda) ham taqillash ovozlari eshitilishi mumkin, lekin motorning ish rejimi o'zgartirilganda bu taqillashlar tezda o'zgaradi.

Porshen halqalari, barmoqlar, shatun vtulkasi, vkladishlar va porshenlar yeyilganida yangisiga almashtiriladi. Ba'zan porshen ariqchasi kengaytirilib, enliroq halqa va bobishka teshiklari kengaytirilib, kattaroq barmoq qo'yiladi. Silindr yeyilganda yo'nib kengaytirib kattaroq porshen o'rnatiladi yoki gilzasi yangilanadi. Tirsakli val bo'yni yeyilganda jilvirlab (silliqlab), ta'mir o'chamli vkladishlar o'rnatiladi.

Karter tubining boltlari bo'shab qolsa, tub qistirmasi yoki tirsaklı valning salnigi yeyilsa, motordan moy oqadi. Boltlarni qotirib tortish yoki qistirma va salniklarni almiashtirish bilan moy oqishi to'xtatiladi.

Silindrlar kallagining gaykalari bo'shab qolsa, po'lat-asbest qistirma yeyilsa (kuysa), motordan suv oqadi, gaz chiqadi. Gaykalarni dinamometrli kalit bilan o'ttadan chekkaga qarab ma'lum tartibda tortish zarur. Kallakni ochganda va umuman motorni qismlarga ajratganda porshen va yonish kamerasi devorlarini qurumdan tozalash lozim.


Nazorat savollari

1. Krivoship-shatun mexanizmining vazifasi nima va u qanday asosiy qismaldan tuzilgan?
2. Silindrlar bloki qanday tuzilgan? Quyma gilzali, gilzasiz, ho'l va quruq gilzali silindrlar va havo bilan sovitiladigan motorlar silindri qanday tuzilgan?
3. Silindrlar kallagi karburatorli va dizel motorlarda qanday tuzilgan?
4. Porshen va uning halqalari qanday tuzilgan? Kompression va moy sidiruvechi halqalar qanday ishlaydi, ularning qulfidagi tirkish nima uchun kerak va qanday o'lchanadi?
5. Porshen barmog'i nima uchun kerak va u qanday mahkamlanadi?
6. Shatunining tuzilishi va vazifasini, shatun podshipniklarining qanday tuzilganligini aytib bering.
7. Tirsaklı val va uning o'zak podshipniklari qanday tuzilgan?
8. Maxovik nima uchun kerak va valga qanday mahkamlanadi?
9. Motor karteri va sapun qanday tuzilgan va ularning vazifasi nimadan iborat?
10. Krivoship-shatun mexanizmiga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat? Detallarining yeyilganligi qanday aniqlanadi?

4-bo'b. GAZ TAQSIMLASH VA DEKOMPRESSIYA MEXANIZMI

1-§. Gaz taqsimlash mexanizmining tuzilishi

Motorlarning ishlashi uchun silindrlariga yonuvchi aralashma yoki havo kiritish va ishlataligan gazlarni silindrlardan chiqarib turish zarur. Gaz taqsimlash mexanizmi ana shu aralashma yoki havo kiradigan va ishlataligan gazlar chiqariladigan teshiklarni vaqtida ochib-berkitadi. Zamonaliviy motorlarda qo'llaniladigan klapanli gaz taqsimlash mexanizmi ikki turli bo'ladi.



4.1-rasm. Gaz taqsimlash mexanizmlari:

- a* — klapanlari yuqoriga joylashtirilgan, *b* — klapanlari pastga joylashtirilgan gaz taqsimlash mexanizmlari; 1 — klapan; 2 — yo'naltiruvchi vutka; 3 — klapan prujinasi; 4 — shayba; 5 — suxarikkar; 6 — koromislo; 7 — gayka; 8 — koromislolar o'qi; 9 — rostlash vinti; 10 — shtanga; 11 — turtgich; 12 — taqsimlash vali; 13 — taqsimlash shesternasi; 14 — rostlash bolti

Klapanlari yuqorida (kallakda) joylashtirilgan gaz taqsimlash mexanizmi barcha traktor motorlarida va ba'zi avtomobil motorlarida qo'llaniladi (4.1-rasm, a). Bu mexanizm kiritish va chiqarish klapanlari (1), klapanlarning yo'naltiruvchi vtulkalari (2), klapan prujinalari (3), suxariklar (5), shaybalar (4), koromislolar (6), koromislolar o'qi (8), gayka (7) li rostlash vintlari (9), shtangalar (10), turtgichlar (11), kulachokli taqsimlash vali (12) va taqsimlash shesternasi (13) dan iborat. Ustdidan maxsus qopqoq bilan bekitib qo'yiladi (2.13-rasm, 8).


Gaz taqsimlash mexanizmi quyidagicha ishlaydi. Motor ishlab, tirsakli valning taqsimlash shesternalari taqsimlash valini aylantirganda, val kulachogining do'ngi pastga qaragan bo'lsa klapan prujina ta'sirida teshikni berkitadi. Taqsimlash vali kulachogining do'ngi turtgichga tiralganda u yuqoriga ko'tariladi. Turtgich shtanga va rostlash vinti orqali koromisloning bir uchini ko'taradi, ikkinchi uchi esa, klapan sterjenini bosadi. Bu holda prujina siqilib, klapan pastga suriladi, ya'ni kiritish yoki chiqarish teshigini ochadi. Kulachok do'ngi turtgich ostidan burilishi bilan prujina kerilib, klapanni jips yopadi.

Klapanlari pastda (blokda) joylashtirilgan gaz taqsimlash mexanizmi, asosan, avtomobil motorlarida qo'llaniladi (4.1-rasm, b). Bu mexanizmning harakat uzatuvchi detallari kam bo'lganidan u ancha ixcham tuzilgan. Taqsimlash vali aylanib, kulachokning do'ngi turtgich ostiga tiralganda uni ko'taradi. Turtgich rostlash bolti (14) orqali klapanni ko'taradi.

Klapanlar kallakka joylashtirilganda motorning siqish kamerasi ixcham yasaladi, ish aralashma tezroq yonadi, motorning siqish darajasini oshirish, ya'ni yonilg'ining issiqlik energiyasidan ko'proq foydalanish mumkin bo'ladi. Klapanlar blokka joylashtirilganda mexanizm ixchamlashib, motorning vazni yengillashadi.

Kiritish yoki chiqarish teshiklarini klapanlar bilan jips berkitish uchun berk turgan klapan sterjenining uchiga koromislo yoki turtgichning rostlash vinti tegmasligi, ya'ni bir-biriga 0,2—0,3 mm yetmay turishi (tirqish bo'lishi) lozim. Motor ishlaganda klapan sterjeni qizib shu tirqishcha kattalashadi.

Klapanlarning ochilish va yopilish payti. Motor silindrlariga yonuvchi aralashma yoki havo to'ldirish, shuningdek, ishlatilgan gazlarni chiqarish uchun kiritish va chiqarish klapanlari porshen chekka nuqtalarga kelmasdan ilgariroq ochilishi va kechroq yopilishi lozim. Klapanlarning ochilish va yopilish payti, odatda, tirsakli valning burilish burchaklari (graduslar) bilan ifodalanadi. Buni motorning gaz taqsimlash



4.2-rasm. Gaz taqsimlash diagrammasi:

a — kiritish; *b* — siqish; *d* — ish yo'li; *e* — chiqarish


fazalari, grafik ko'rinishida ifodalanadigan diagramma esa, gaz taqsimlash diagrammasi deyiladi (4.2-rasm).

Kiritish takti (*a*) da kiritish quvurida yonuvchi aralashma yoki havoning inersiya kuchi hosil bo'ladi. Shuning uchun chiqarish taktida porshen YCHN ga yetmasdan kiritish klapani ochilishi bilanoq silindrga yonuvchi aralashma yoki havo kira boshlaydi. Yonuvchi aralashma yoki havo silindrga 40–60 m/s va undan katta tezlikda kiradi, shu sababli porshen siqish taktida yuqoriga harakat eta boshlashiga qapamay, aralashma yoki havoning silindrga kirishi davom etaveradi. Kiritish klapani chiqarish taktida porshen YCHN ga $\alpha = 8 - 24^\circ$ yetmasdan ochiladi va porshen PCHN dan $\beta = 22 - 64^\circ$ o'tgandan keyin yopiladi. Keyin siqish takti (*b*) boshlanadi.

Ish yo'li taktining (*d*) oxirida gazlar bosim kuchi ta'siri bilan silindrda o'zicha chiqa boshlashi va chiqarish taktida porshenga zo'r kelmasligi uchun chiqarish klapani ilgariroq ochilishi lozim. Ishlatilgan gazlar silindrda 60–100 m/s tezlikda chiqadi, shu sababli porshen YCHN dan o'tib, qaytishiga qaramay, gazlar silindrda chiqaveradi.

Chiqarish klapani barcha motorlarda ish yo'li taktida porshen PCHN ga $\gamma = 30 - 60^\circ$ yetmasidan ochila boshlab, porshen YCHN dan $\delta = 10 - 28^\circ$ o'tganidan keyin yopiladi. Chiqarish takti (*e*) ning oxirida va kiritish taktining boshlanishida ikkala (kiritish va chiqarish) klapan ham birmuncha vaqt $\alpha + \delta = 20 - 46^\circ$ ochiq bo'ladi. Ba'zi motorlarning gaz taqsimlash fazalari 3-ilovada keltirilgan.

Gaz taqsimlash mexanizmi detallarining tuzilishi. Klapan (4.3-rasm, *a*) tarelka (*5*) va sterjen (*3*) dan iborat bo'lib, kiritish va chiqarish teshiklarini kerakli paytda ochadi va jips berkitadi. Gazning yuqori



4.3-rasm. Klapan va uning detallari:

- 1 — shayba; 2 — suxariklar; 3 — klapan sterjeni; 4 — klapan faskasi;
5 — klapan tarelkasi; 6 — saqlagich halqa; 7 — prujina;
8 — yo'naltiruvchi vtulka

harorati, kuchli bosimi va kimyoviy ta'siriga bardosh berishi uchun kiritish klapanlari xrom-nikelli yoki xromli po'latdan, chiqarish klapani esa, o'tga chidamli maxsus silxromli po'latdan yasaladi. Klapan tarelkasi ortiqcha qizimasligi uchun ba'zan sterjeniga natriy to'ldiriladi. Klapanlar tarelkasining o'lehami ko'pincha bir xil, ba'zan kiritish klapanlari kattaroq qilinadi. Klapanning faskasi (**4**) ko'pincha 45° , ba'zan 30° burchakli qilinadi. Ba'zan klapanlarning uyasiga yeyilishga chidamli cho'yan vtulka o'rnatiladi.

Yo'naltiruvchi vtulka (4.3-rasm, **8**) klapanning harakatini yo'naltirib, uyasini to'g'ri berkitishini ta'minlaydi. Bu vtulka cho'yandan yasalib, silindrlar kallagiga yoki blokka presslab o'rnatiladi. *Klapan prujinasasi* (4.3-rasm, **7**) klapanini yopadi va uyasini jips berkitishini ta'minlaydi. Prujina maxsus po'latdan yasaiadi. Ba'zan har klapanga ikkitadan prujina o'rnatiladi (4.3-rasm. **b**). Prujinaning bir uchi blok yoki kallagi tepasiga, ikkinchi uchi tirak shayba (**1**) ga tiraladi. Tirak shayba suخارик (**2**) lar bitan klapan sterjeniga mahkamlanadi. Klapan sterjeni va yo'naltiruvchi vtulkasiga yonlama bosim tushmasligi uchun ba'zan klapan prujinasasi ustiga stakan o'rnatiladi. Ba'zan prujina o'ramining qadami turli kenglikda qilinadi, bunday prujina titramasdan ishlaydi.

Suxariklar chiqib ketganda va prujina singanda klapan silindrga tushmasligi uchun klapan sterjeniga saqlagich halqa (6) kiygiladi.


Koromislo (4.1-rasm, 6) o'qqa o'rnatilib, kalta yelkasiga rostlash vinti (9) burab kirkizilgan, bu yelkasi shtanga bilan ko'tarilganda, uzun yelkasining uchi klapanni bosib ochadi. Koromislo o'qi kovak qilinadi, undan kelgan moy koromislo vtulkasini va rostlash vintining kallagini moylaydi. Koromislo o'qi kallak stoykalariga mahkamlanadi (4.1-rasm, 8).

Shtanga (4.1-rasm, 10) yengil bo'lishi uchun quvursimon qilinadi. Shtanganing turtgich tiraladigan pastki uchi sharsimon shaklga ega bo'lib, yuqorigi uchiga sferik o'yqli uchlik presslab o'tqazilgan. Shtanga po'latdan yoki aluminiy qotishmasidan yasaladi.

Turtgich (4.1-rasm, 11) kulachok do'ngi tiralganda shtangani yoki klapanni ko'taradi. Turtgich po'latdan yasalib, ishqalanadigan sirti sementatsiya qilinadi va toblanadi.

Ba'zi dizel motorlarning turtgichi tebranuvchi richag shaklida osma rolikli bo'ladi (4.4-rasm). Turtgich (2) o'qda tebranib, vilkasi (5) ga rolik (4) o'rnatilgan. Rolik o'qi ninasimon podshipnikda aylanadi. Turtgichning rolik tepasidagi sferik o'yig'i (1) ga shtanga kirib turadi. Rolik taqsimlash vali kulachogi ustida g'ildirab ishlaydi, buning natijasida ishqalanish va yejilish kamayadi.


Turtgichning tarelkasi bir tekis yejilishi uchun yo'naltiruvchi vtulka (4.5-rasm, 3) ichida yuqoriga va pastga siljishidan tashqari o'z o'qi atrosida buriladi. Buning uchun turtgich (2) ning o'qi kulachok (1) ning chetrog'iga o'rnatiladi yoki turtgichning tubi do'ng qilinib, kulachok konus shaklida yasaladi.



4.4-rasm. Rolikli turtgich:

1 — sferik uya; 2 — turtgich; 3 — turtgich vilkasi; 4 — rolik

Taqsimlash vali (2.15-rasm, 14) klapanlarni vaqtida olib-yopib turadi, u blok-karterga o'rnatilgan vtulkalarda yoki sharikli podshipliklarda aylanadi.



4.5-rasm. Turtgichning kulachokka o'rnatilishi:
1 — taqsimlash vali; 2 — turtgich; 3 — yo'naltiruvchi vtulka


Taqsimlash valida tayanch bo'yinlar, silindrlar sonidan ikki baravar ko'p kulachoklar va shesterna o'rnatiladigan bo'yin bo'ladi. Bo'yinlar va kulachoklar sementatsiya qilingan va toblangan. Kulachoklarning shakli va joylashtirilishi motorning gaz taqsimlash diagrammasiga va silindrlarning ishlash tartibiga moslashtirilgan. Avtomobil motorlarida benzin nasosini harakatga keltiradigan ekssentrik, uzgich-taqsimlagich va moy nasosi valini harakatga keltiradigan shesterna ham taqsimlash vali bilan birga yaxlit yasaladi.

Taqsimlash valining o'q yo'naliishi siljishi (0,08—0,25 mm) turli usulda cheklanadi. Buning uchun valning bo'yiniga tirak flanes yoki uchiga tirak boit o'rnatiladi. Ularni burab, valning siljishini cheklash mumkin.

Taqsimlash shesternalari (2.14-rasm, 9,12) tirsaklı valdan taqsimlash vali, yonilg'i nasosi, moy nasosi, gidrotizim nasosi, generator va boshqa mexanizmlarga harakat uzatadi.

Misol tariqasida J-37M va CM/J-14 markali motorlarning taqsimlash shesternalari bilan tanishib o'tamiz (4.6-rasm). Harakat tirsaklı

valga o'rnatilgan kichik shesterna (1) dan oraliq shesterna (3) orqali taqsimlash valining shesternasi (2) ga, yonilg'i nasosining kulachokli vali (5) ga, moy nasosining shesternasi (7) ga. harakat uzatuvchi shesterna (6) ga, gidrotizimning moy nasosi (4) ga uzatiladi. Ventilator va suv nasosining shesternasi (8) taqsimlash valining shesternasidan harakatga keltiriladi.



4.6-rasm. Taqsimlash shesternalarining joylashtirilish sxemasi:

1 — tirsakli val taqsimlash shesternasi; 2 — taqsimlash valining shesternasi; 3 — oraliq shesterna; 4 — gidrotizim moy nasosi shesternasi; 5 — yonilg'i nasosi shesternasi; 6 — moy nasosi shesternasiga harakat uzatuvchi shesterna; 7 — moy nasosi shesternasi; 8 — ventilatorga harakat uzatuvchi shesterna

Ma'lumki, to'rt taktli motorning ish jarayoni tirsakli valning ikki aylanishida sodir bo'ladi, bu vaqt ichida klapanlar bir martadan ochilib-yopilishi lozim. Taqsimlash vali bir marta aylanganda barcha klapanlar ochilib-yopiladi. Shu sababli taqsimlash vali tirsakli valga nisbatan ikki baravar sekin aylanadi, taqsimlash shesternalari shunga moslab yasalgan.

Gaz taqsimlash mexanizmining ishini krivoship-shatun mexanizmining ishiga, ya'ni klapanlarning ochilish va yopilish paytlarini silindrлardagi taktlarga hamda yonilg'i yuborish va yondirish tizimining ishiga moslashtirish uchun taqsimlagich shesternalar ulardagi mos belgilarga qarab bir-biriga ilashtiriladi. Shesternalarning belgisi СМД-14 markali motor sxemasida ko'rsatilgan.

Taqsimlash shesternalari cho'yan, po'lat yoki tekstolitdan yasalib, ravon va shovqinsiz ishlashi uchun qiya tishli qilinadi. Taqsimlash shesternalari valning uchiga boltlar bilan yoki shponka va gayka bilan mahkamlanadi.

2-§. Dekompressiya mexanizmining tuzilishi

Siqish darajasiyuqori bo'lgan dizel motorlarini o't oldirishda va texnik xizmat ko'rsatishda tirsakli valni aylantirish ancha og'ir bo'ladi, chunki detallarning ishqalanishdagi qarshiliklarini yengish va silindrlarda havoni siqish uchun kuch talab etiladi.


Dizelni o't oldirishda yurgizib yuborish motori yoki elektr startyorga zo'r kelmasligi uchun silindrga kiritilgan havo siqilmasdan qaytarib chiqariladi. Motor birmuncha isib, ishqalanish qarshiliklari kamayib, tirsakli val ravon aylana boshlagach, silindrlarga kiritilgan havo qaytarib chiqarilmasdan siqila boshlaydi. Siqishdan qizigan havoga yonilg'i purkalib dizel o't oldiriladi va u ishlab ketadi.

Dekompressiya mexanizmi kiritish klapanlarini (ba'zan, chiqarish klapanlarini ham) qisman ochiq holda qoldirib, dizelni o't oldirishda silindrlardagi havoning siqilmasdan qaytib chiqishini ta'minlaydi. Bu mexanizm gaz taqsimlash mexanizmi bilan birga tuzilib, undan motorni yurgizib yuborishda va texnik xizmat ko'rsatishda foydalaniлади.

Dekompressiya mexanizmi taqsimlash valining kulachokiaridan tashqari, turtgichlarni ko'tarib (2.13-rasm, 3) yoki koromisloning uzun yelkasini bosib, yoxud kalta yelkasini ko'tarib, klapanlarni biroz (1—3 mm) ochadi va ochiq holda saqlaydi. Keyin klapanlarning hammasini yopishi (taqsimlash valining kulachogi yordamida ochib-yopsa bo'ladigan holda qoldirishi) yoki bir qismini yopib, bir qismini ochiq holda qoldirishi mumkin.

Turtgichni ko'tarib klapanni ochadigan dekompressiya mexanizmi 4.7-rasmida tasvirlangan. Bu mexanizm motor karterining o'ng tomonidagi teshiklarga o'rnatilgan to'rtta valik (3) dan iborat bo'lib, ularning kemtik uchlari kiritish klapanlari turtgich (4) larining halqasimon o'yig'iga kirib turadi. Valiklarning uchiga bir-biriga reyka (6) bilan biriktirilgan richag (2) lar mahkamlangan. Valiklarni qopqoq (5) tutib turadi. Richag reykaga barinoq (1) bilan biriktirilgan.

Dekompressiya mexanizmi quyidagicha ishlaydi. Motorni o't oldirishdan oldin reyka orqaga surib qo'yildi. Bunda valiklarning uchi turtgichlarni ko'tarib, kiritish klapanlarini ochadi va ochiq holda saqlaydi. Silindrga kiritilgan havo siqilmay chiqariladi, demak, tirsakli valni aylantirish yengil bo'ladi. O't oldirishda reyka oldinga surib qo'yildi. Valiklarni burib, kemtigi yuqoriga qaratiladi, kiritish klapanlari uyalarini bekitadi va gaz taqsimlash mexanizmi normal ishlay boshlaydi. Demak, have siqilib qiziydi, yonilg'i purkalib, motor ishlab ketadi.



4.7-rasm.
Dekompressiya mexanizmining sxemasi:
1 — barmoq;
2 — richag;
3 — vaikk;
4 — turtgich;
5 — qorqoq;
6 — reyka

Barcha dekompressiya mexanizmlarida klapamlarni ko'rsatilgandan katta ochilishiga yo'l qo'ymaslik kerak, aks holda klapan tarelkasi porshen tubiga urilib avariyaga sabab bo'ladı.

Klapamlari kallakda joylashtirilgan motorlarda gaz taqsimlash mexanizmi qalpoqlar bilan berkitilib ifloslanishdan saqlanadi.

3-§. Gaz taqsimlash va dekompressiya mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish


Gaz taqsimlash mexanizmi detallari ham yuqori harorat va ishqalanishga bardosh berib, og'ir sharoitda ishlaydi. Gaz taqsimlash mexanizmiga texnik xizmat ko'rsatish mexanizm detallarini ko'zdan kechirish, klapamlar tirqishini, dizellarda esa, dekompressiya mexanizmi tirqishini va taqsimlash valining o'qi bo'yicha siljishini tekshirish, rostlash hamda klapamlar jips berkitilishini ta'minlashdan iborat.

Taqsimlash valining kulachogi, klapan uyasi va boshqalarning yeyilishi, gaykalarning bo'shab qolishi, qistirmalarining zichlanishi natijasida klapanning sterjeni bilan koromislo yoki turtgich orasidagi tirqish o'zgaradi. Tirqish kamaysa, klapan o'z uyasini jips berkitmaydi, havo yoki gaz klapan tirqishidan o'tib, motorda kompressiya kamayadi va klapanning faskalari va uyalari tez kuyadi. Tirqish kattalashib ketsa, klapan ozroq va qisqa vaqt ochiladi, natijada silindrga havo yoki aralashma kamroq kiradi, yongan gazlardan yaxshi tozalanmaydi, klapamlar taqillab ishlab tez yeyiladi, motorning quvvati kamayadi va yonilg'ining solishtirma sarfi ortadi.

Klapani mexanizmning tirqishini rostlash uchun motor changdan tozalanadi, silindrlar kallagi va koromislo stoykalarining gaykasi burab qotiriladi. Klapamlar tirqishi motor isigandan keyin tekshiriladi.

Odatda, klapanlar tirqishi birinchi silindrdan boshlab rostlanadi. Boshqa silindrler klapani motor silindrlerining ishlash tartibida rostlanadi. Klapanlar tirqishini tekshirish va rostlash uchun porshen siqish taktida YCHN ga keltiriladi, bunda kiritish va chiqarish klapanlari yopiq bo'ladi. Porshen maxovik belgilari va o'rnatish shpilkalarini yordamida YCHN ga keltiriladi. Dizellarda tirsakli valni aylantirishni esonlashtirish uchun dekompressiya mexanizmidan foydalaniladi, ammo tirqishni o'lehashda dekompressiya mexanizmi ajratib qo'yildi. Tirsakli val yurgizish dastasi bilan yoki yurgizib yuborish motori orqali aylantiriladi.

Klapanlar tirqishini rostlashdan avval tirqishning kattaligi shchup (1) bilan tekshiriladi (4.8-rasm). Tirqishni rostlashda dastlab kontrgayka kalit (3) bilan bo'shatiladi, so'ngra vint otyvortka (2) bilan burab chiqariladi. Tirqish shchup bilan o'lehangandan keyin rostlash vinti otyvortka bilan qo'zg'atmasdan tutib turilgan holda kontrgayka burab qotiriladi.



4.8-rasm. Klapanlar tirqishini rostlash:
 1 — shchup;
 2 — otyvortka;
 3 — kalit

Taqsimlash valining o'qi bo'yicha siljishini rostlash uchun (СМД-14 da) tirak vinti oxirigacha burab kirgizilib, keyin 1/4 aylana burab bo'shatiladi. Klapanlar va ularning uyalari yeyilib, qurum bosib, jips yopilmasa, klapanlar o'z uyasiga ishqalab moslanadi. Ko'proq yeyilgan bo'lsa, klapan faskasi charxlab silliqlanadi, uyasi esa, sharoshkalanadi (frezalanadi).

Nazorat savollari

1. *Gaz taqsimlash mexanizmining turlari, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlashini aytib bering.*
2. *Gaz taqsimlash diagrammasi nimani ko'rsatadi, klapanlarning ilgari ochilishi va kechikib yopilishi sabablarini tushuntirib bering.*
3. *Dekompressiya mexanizmining vazifasi, tuzilishi, ishlashini so'zlab bering.*
4. *Gaz taqsimlash mexanizmiga texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlar bajariladi?*
5. *Klapanlarda tirqish nima uchun kerak va u qanday rostlenadi?*

5-bob. TRAKTOR VA AVTOMOBIL MOTORLARINING TA'MINLASH TIZIMLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

1-§. Yonilg'i va uning asosiy xossalari

Traktor va avtomobil motorlarida ko'p issiqlik chiqarib yonadigan suyuq yonilg'ilar qo'llaniladi. Bu yonilg'ilar neftri qaynatib haydab olinadi. Ko'pchilik avtomobilarda va dizellarning yurgizib yuborish motorlarida tez bug'ga aylanadigan yengil yonilg'i — benzin qo'llaniladi.

Zamonaviy traktorlar va katta yuk avtomobilari dizel yonilg'isida ishlaydi. Har bir yonilg'inining sifati davlat standarti bo'yicha aniqlanadi. Yonilg'inining asosiy xossalari quyidagilardir.

Solishtirma og'irligi (bir santimetr kub yonilg'inining gramm hisobidagi og'irligi) — avtomobil benzining 20°C haroratdagi solishtirma og'irligi $0,730\text{--}0,770 \text{ g/sm}^3$; kerosinniki — $0,820 \text{ g/sm}^3$; dizel yonilg'isini — $0,825\text{--}0,870 \text{ g/sm}^3$. Yonilg'inining solishtirma og'irligi areometr bilan aniqlanadi.

Issiqhk berish qobiliyati — 1 kg yonilg'i to'la yonganda beradigan issiqlikning miqdori — kaloriya hisobida o'lchanib, neftdan olinadigan yonilg'ilar uchun $10000\text{--}10500 \text{ kkal/kg}$ ga teng.

Bug'ga aylanishi — yonilg'inining suyuq holdan bug'ga aylanishi uning sifatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Avtomobil benzini $40\text{--}205^{\circ}$ da, kerosin $110\text{--}300^{\circ}$ da qaynab, bug'ga aylanadi.

Yonilg'inining fraksion tarkibi ma'lum miqdorining muayyan haroratda bug'ga aylanishini ko'rsatadi.

Qotish harorati deganda, probirkaga quyilgan yonilg'inining, probirkaga horizontga 45° qiyalantirilganda bir daqiqa davomida satbi o'zgarmaydigan harorati tushuniladi. ЙІІ, ІІІ va ІА markali dizel yonilg'ilarining qotish harorati $-10, -45$ va -60° ga teng.

Qovushoqligi — ichki ishqalanishi yonilg'inining tarkibiga bog'liq bo'lib, aralashma hosil etishiga va yonishiga ta'sir etadi. Dizel yonilg'isi ma'lum qovushoqlikka ega bo'lishi lozim.

Yonilg'inining qovushoqligi belgilangandan ortiqcha bo'lsa, u filtrlardan yaxshi o'tmaydi va yaxshi to'zitilmaydi, past bo'lsa — nasos va

forsunka tez yeyiladi. Dizel yonilg'i sinining qovushoqligi 20°C da 2,2 sst dan kam, 8 sst dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Detonatsiyaga chidamliligi — yonilg'i-havo aralashmasining motor silindrlarida detonatsiyasiz yonish xususiyati. Yonuvchi aralashma detonatsiyasiz (normal) yonganda uning yonish tezligi 20—30 m/s bo'ladi. Ma'lum sabablarga ko'ra (benzin sifati past bo'lsa, motor ortiqcha qizisa, aralashma juda barvaqt yondirilsa) aralashma zarbli to'lqin hosil etib yonadi, uning yonish tezligi 2000—2500 m/s ga yetadi. Motordan taqillagan ovoz chiqadi, motorning quvvati pasayadi, chiqarish qururidan qora tutun chiqadi va ortiqcha qiziydi. Motor silindrlarida yonuvchi aralashmaning shunday portlab yonishi *detonatsiya* deyiladi. Detonatsiya hedisasi yuz berganda motor qismlari tez yeyiladi, hatto sinib ishdan chiqadi.

Aralashma ortiqcha qizishi yoki uchqun berilmasa ham motorning qizigan qismlarga tegishi natijasida o'z-o'zidan yonishi mumkin, bunday holda yondirish tizimi o'chirilsa ham motor birmuncha vaqt ishlashi mumkin. Detonatsiya hodisasi esa, uchqun berilgandan keyin boshlanadi va yondirish tizimi uzilishi bilan motor darhol to'xtaydi. Detonatsiyaning o'z-o'zidan yonishdan farqi ana shundadir. Yonilg'inining detonatsiyaga chidamliligi uning oktan soni bilan aniqlanadi. Oktan soni biror yonilg'ini ma'lum miqdordagi geptan va izooktadan uglevodorodlar aralashmasiga taqqoslaganda undagi izooktanning qancha soyiziga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Sanoatimiz asosan A--76, A--80, A--93 markali benzinlar ishlab chiqaradi, A—avtomobil benzini ekanligini, raqamlar benzinning oktan sonini ko'rsatadi.

Benzinning oktan soni qancha yuqori bo'lsa, u detonatsiyaga shuncha chidamli bo'ladi va siqish darajasi yuqori bo'lgan motorda qo'llanishi mumkin. Benzinning oktan sonini oshirish uchun 1 kg benzinga 1—2 g etil suyuqligi qo'shiladi. Etil suyuqligining asosiy qismi tetroetil qo'rg'oshindir. A--76 benzinlari etillangan benzin bo'lib, rangi ko'kishdir.

Etillangan benzinda oz miqdorda bo'lsa ham qo'rg'oshin bo'lganligi sababli kishi hayoti uchun xavfli bo'lib, unda qo'l va mashina qismlarini yuvish, kiyim-kechak tozalash, benzinni shiang orqali so'rib quyish yaramaydi, benzin bug'larining nafas organlariga kirishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

sst (santistoks) — qovushoqlik o'lchami, 9-bob, 2-\$ da bayon etilgan.

Keyingi vaqtarda benzintli va dizel motorlarda propan-butan gaz yonilg'isi hamda turli spirtlar asosidagi bioyonilg'i yoki bioyonilg'ini benzin va dizel yonilg'isi bilan aralashmalari tobora keng qo'llanilmoqda.

Mamlakatimizda ДЗ ва ЙЛ markali dizel yonilg'ilar ishlab chiqariladi, З — qishki , ЙL — yozgi navlari dir.

Dizel silindriga purkalgan yonilg'i birdaniga alanganmaydi, oldin uning tomchilari bug'ga aylanadi. Kislород va yonilg'i uglevodorodlarining chidamsiz birikmalari — perekis hosil qilib keyin yonadi. Yonilg'i purkalgandan keyin aianganlanguncha o'tadigan vaqt — alanganishning tutilish (kechikish) davri yonilg'ining sifatiga, to'zitilish darajasiga va yonish kamerasining haroratiga bog'liq.

Alanganishning tutilish davri qancha uzoq bo'lsa, alanganishdan oldin silindrda shuncha ko'p yonilg'i to'planadi va tezlashib yonadi. Natijada bosim keskin ko'tarilib, motor detallariga zo'r keladi, ular o'ziga xos taqillagan ovoz chiqarib ishlaydi va tez yeyiladi, ya'ni dizel «qattiq» (baland ovoz chiqarib) ishlaydi. Alanganishning tutilish davri qisqa bo'lsa, dizel (muloyim, ravon) ishlaydi.

Dizel yonilg'isining yoki dizelning «yumshoq» ishlashiga sababchi bo'lgan xususiyati uning *setan soni* bilan aniqlanadi. Setan soni yonilg'ini ma'lum miqdordagi metan va metil naftalin uglevodorodlar aralashmasiga taqqoslaganda shu aralashmadagi setanning miqdorini ko'rsatadi. Dizel yonilg'ilarning setan soni 40—45 ga teng.

Barcha yonilg'ilar juda toza bo'lishi shart. Yonilg'ida suv, suvda eriydigan kislota, ishqor va mexanik qo'shimchalarning bo'lishiga yo'i qo'yilmaydi. Dizel yonilg'ilar ishlatishdan avval tindiriladi va filtrlanadi.

2-§. Yonuvchi aralashmaning tarkibi va uning motor ishiga ta'siri

Yonilg'i elementlarining kislород bilan kimyoviy birikib issiqlik chiqarishi yonish deyiladi. Yonilg'i bug'larining va to'zitilgan tomchilarining havo bilan aralashmasi yonuvchi aralashma deyiladi. Yonuvchi aralashma silindrda oldingi sikldan qolgan gazlar bilan aralashib *ish aralashma* hosil qiladi. Aralashmadagi yonilg'i bilan havoning nisbati *aralashma tarkibi* deyiladi.

Nefidan olingen yonilg'i (og'irligi bo'yicha) taxminan 85% uglerod va 15% vodoroddan iborat, havoda 23% kislород bor. Bu elementlarning kimyoviy birikma hosil etishidagi molekular og'irliklarini

hisoblaganda 1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun nazariy hisobda: 15 kg havo kerak.

Agar yonuvchi aralashmada havo kamroq bo'lsa (yonilg'i ortiqcha bo'lsa), *quyuqlashgan* aralashma, ancha kam bo'lsa, *quyuq* aralashma deyiladi. Aksincha, havo ko'proq bo'lsa (yonilg'i kam bo'lsa), *suyuqlashgan*, ancha ko'p bo'lsa, *suyuq* aralashma deyiladi.

Haqiqiy sarflangan havoning miqdori L_1 ni, yonilg'ining yonishi uchun zarur bo'lgan nazariy miqdori L_n ga nisbatli havoning *ortiqlik koeffitsienti* α deyiladi. Bu koeffitsient yonuvchi aralashma tarkibini yaqqol ko'rsatadi:

$$\alpha = \frac{L_1}{L_n}$$

Normal aralashmada haqiqatan sarflangan havoning miqdori nazariy zarur bo'lgan miqdorga teng bo'lganligi sababli havoning ortiqlik koeffitsienti: $\alpha=1$. Bu koeffitsient suyuq aralashmalarda birdan katta, quyuq aralashmalarda esa, 1 dan kichik bo'ladi: $\alpha=1,0-1,1$ bo'lsa, suyuqlashgan aralashma, $\alpha > 1,1$ bo'lsa, suyuq aralashma, $\alpha = 0,8-1,0$ bo'lsa, quyuqlashgan aralashma, $\alpha < 0,8$ bo'lsa, quyuq aralashma deyiladi.

Yonuvchi aralashma juda quyuq yoki juda suyuq bo'lsa, u yonmaydi. Havoning ortiqlik koeffitsienti 0,5 dan kam yoki 1,35 dan ortiq bo'lsa, aralashma yonmaydi, shu sababli bu qiymatlarni alangananishning pastki ($\alpha = 0,5$) va yuqorigi ($\alpha = 1,35$) chegarasi deyiladi.

Yonuvchi aralashmaning tarkibi motorning quvvatiga va tejamli ishlashiga katta ta'sir etadi. Motor normal aralashmada ishlaganda maksimalga yaqin quvvat beradi, yonilg'ining solishtirma sarfi ham me'yordan ortmaydi. Quyuqlashgan aralashma ($\alpha = 0,9$) tezroq yonadi, motor maksimal quvvat beradi, ammo yonilg'ining solishtirma sarfi sal ortadi. Motor suyuqlashgan aralashmada ($\alpha = 1,1$) ishlaganda eng tejamli ishlaydi (yonilg'ining solishtirma sarfi kam bo'ladi), ammo quvvati sal kamayadi.

Motor quyuq aralashmada ishlasa ham, shuningdek, suyuq aralashmada ishlasa ham quvvati kamayadi va yonilg'ining solishtirma sarfi ortadi. Motor quyuq aralashmada ishlaganda chiqarish quvuridan qora tutun chiqadi (yonilg'ining yonmagan uglerodli ishlatiylan gazlar bilan birga chiqadi). Suyuq aralashmada ishlaganda motorning ravon ishlashi

buziladi, karburatorda «aksirish» paydo bo'ladi va aralashmaning sekin yonishi tufayli motor ortiqcha qiziydi.

Motor turli sharoitda ishlashi uchun turli tarkibli aralashma talab etiladi.

Sovuq motorni o't oldirish uchun aralashma nihoyatda quyuq bo'lishi kerak, chunki yonilg'ining faqat bir qismi bug'ga aylanadi, qolgan qismi mayda tomchi holda kiritish quvuri va silindr devoriga o'tirib, keyin karterga oqib tushadi.

Motor sekin aylanib salt ishlaganida silindrغا oz miqdorda aralashma kirib undagi qoldiq gazlar bilan aralashadi, bunday aralashma sekin yonadi. Motoring ravon salt ishlashi uchun aralashma quyuq bo'lishi lozim.

Motor o'rtacha yuklanishda ishlaganida aralashma suyuqlashgan bo'lishi lozim, chunki motordan to'la quvvat talab etilmaydi, ammo yonilg'ining solishtirma sarfi eng kam bo'ladi va motor tejamli ishlaydi.

Motor to'la yuklanishda ishlaganda maksimal quvvat hosil etish uchun u quyuqlashtirilgan aralashmada ishlashi lozim. Kichik yuklanishda ishlayotgan motorni birdaniga katta yuklanishda ishlaysha ko'chirganda aralashma qisqa muddat quyuqlashtirilishi lozim, aks holda motor o'chib qoladi. Motoring turli rejimlarda ishlashi uchun zarur tarkibli aralashma karburatorda tayyorlanadi.

3-§. Havo tozalagichlar

Traktor va avtomobil ko'pincha chang sharoitda ishlaydi. Motor silindrlariga kiritiladigan havoni chang va to'zondan tozalash uchun ta'minlash tizimiga havo tozalagich o'rnatiladi. Motor silindrlariga havo bilan birga chang zarrachalari kirsa, porshen, silindr, klapan va boshqa detallar tez yeyiladi hamda karterdag'i moy barvaqt iflosolanadi.

Zamonaviy motorlarga, asosan, kombinatsiyalangan havo tozalagichlar o'rnatilib, silindrlarga kiritiladigan havo ularda ikki-uch sidra tozalanadi.

Havo tozalagich (5.1-rasm) kallak (8), korpus (2), markaziy quvur (4), markazdan qochirma usulda ishlaydigan quruq chang ajratgich (6), olinmaydigan (5) va olinadigan sim to'r kassetalar (10) va tub (1) dan iborat. Tub korpusga kirgizilib, bolt va qalpoqli gaykalar bilan mahkamlangan. Tubga halqa sathigacha karter moyi quyiladi.

Motor silindrlaridagi siyraklanish tufayli havo tozalagich orqali so'rildigani havo yuqorigi chang ajratgichning teshiklaridan kirib,


yo'naltiruvchi kurakcha (7) larga urilib vint chizig'i yo'nalishida tez aylana boshlaydi. Undagi yirik zarrachalar markazdan qochirma kuch ta'sirida chang ajratgichning devorlariga urilib, havodagi changning 60% chasi pastki tirkish (5) lar orqali tashqariga chiqadi.

Bir sidra tozalangan va uyurma harakatga kelgan havo markaziy quvurdan havo tozalagich tubiga tushib, undagi moyga uriladi. Havanoning harakat tezligi sekinlashadi, yo'nalishi esa o'zgaradi.

Natijada havodagi changning bir qismi inersiya bo'yicha harakat qilib, moy vannasi tagiga cho'kadi. Havo moyga urilib uni ko'pirtiradi va moy tomchilar bilan birga havo tozalagich korpusidagi sim to'r kassetalaridan o'tib yana (uchinechi marta) tozalanadi.

Sim to'r filtrdan o'tgan havo havo tozalagichning kallagidagi qisqa quvur (3) orqali motorning kiritish kollektoriga kiradi. Traktor motorlarining tozalagichlari aynan shunday prinsipda tuzilgan. Ba'zan havo tozalagichning yuqorigi kassetalariga tukli gazmol lenta sirilgan bo'lib, havo yana ham yaxshiroq tozalanadi.


Avtomobil motorlarining havo tozalagichiga (5.2-rasm) havo korpus (6) bilan qopqoq (9) orasida hosil bo'lgan tirkishdan kiradi. Katta tezlikda kirgan havo korpusdagi moy vannasi (2) ga urilib o'zidagi yirik zarralarni moyda qoldiradi, yo'naltiruvchi halqa (1) ga urilib yo'nalishini o'zgartiradi. So'ng moy tomchilarini o'ziga ilashdirib yuqoriga ko'tariladi va kapron tolasidan iborat filtr (7) dan o'tadi. Bu filtrda moy tomchilar va chang qoladi. Tozalangan havo markaziy quvur (4) dan karburatorga kiradi. Motorning karteriga toza havo kirib shamollatib turishi uchun quvurecha (5 va 8) lar qo'yilgan. Havo tozalagichning markaziy quvuri (4) bo'shlig'iga tutashdirilgan korpusning halqasimon bo'shlig'i (3) havo



5.1-rasm. Traktorlarda ishlataladigan havo tozalagich:

- 1 — havo tozalagichning tubi;
- 2 — korpus;
- 3 — qisqa quvur;
- 4 — markaziy quvur;
- 5 — pastki tirkish;
- 6 — chang ajratgich;
- 7 — yo'naltiruvchi kurakchalar;
- 8 — kallak;
- 9 — olinmaydigan sim to'r;
- 10 — olinadigan sim to'r

so'rishda hosil bo'ladigan shovqinni pasaytiradi. Ba'zi traktorlarda havoni atigi ikki marta tozalasa ham puxta tozalaydigan siklonli havo tozalagichlar qo'llaniladi.



5.2-rasm. Avtomobilarda ishlataladigan havo tozalagich:


- 1 — yo'naltiruvchi halqa; 2 — moy vannasi; 3 — halqasimon bo'shliq;
- 4 — markaziy quvur; 5 va 3 — motor karterini shamollatuvchi quvurlar;
- 6 — korpus; 7 — filtrlovchi element; 9 — qopqoq

Siklonli havo tozalagichning (5 3-rasm) ichiga to'qqizta siklon (11) joylashtirilgan bo'lib, u kallak (6) va tub (12) bilan berkitilgan g'ilof (4), kallak ichiga joylashtirilgan ikkita sim to'r kasseta (9) va (10) dan iborat. Kallak qisqa quvur (5) vositasida motorning so'rish qurvriga ulanadi. Havo tozalagich tubining chang yig'iladigan bunker (13) so'rib oluvchi quvur (1) orqali ejektor (2) ga va motor chiqarish qurvurining uchidagi uchqun o'chirgich (3) ga biriktirilgan.

Havo kiradigan quvur (8) ning tepasiga sim to'rli qalpoq (7) o'matilgan. Quvurning pastki uchi g'ilof (4) ga tangensial (urinma) yo'nalishda ulangan. Siklonlarning ichida kallakka biriktirilgan quvurlar o'rnatilgan va tepe tomonida urinma yo'nalishda biriktirilgan cho'ziq kesikli qisqa quvuri bor.

Havo tozalagich quyidagi tartibda ishlaydi. Motor silindrida hosil bo'lgan siyraklanish tufayli sim to'r qalpoq (7) dan kirgan chang havo g'ilof (4) ga urinma yo'nalishda kirganda uning ichida uyurma harakatga keladi (sxemada qora strelkalari bilan ko'rsatilgan). Havo g'ilofdayoq qisman changdan tozalanadi, so'ngra chang havo to'qqizta sikloining

tangensial joylashtirilgan qisqa quvuridan kirib uyma harakatni davom ettiradi.



5.3-rasm. Siklonli havo tozalagich:

- 1 — so'rib oluvchi quvur; 2 — ejektor; 3 — uchqun o'chrigich;
 4 — g'ilof; 5 — qisqa quvur; 6 — kallak; 7 — sim to'r qalpoq;
 8 — havo kiradigan quvur; 9, 10 — sim to'r kasseta; 11 — siklon;
 12 — tub; 13 — bunker

Havo oqimining mar'azdan qochirma harakati tufayli chang zarrachalari havodan ajralib bunker (13) ga tushadi (punktir strelkalar bilan ko'rsatilgan). Ishlatilgan gazlar ejektor o'rnatilgan quvurdan katta tezlikda o'tib, ejektorda siyraklanish hosil etadi. Ejektor changni atmosferaga chiqarib tashlaydi. Kirgan havoning 12—15% chang bilan chiqib ketadi.


Qolgan havo siklonlar ichidagi ingichka qisqa quvurdan kirib chigal sim to'r kassetalar orqali o'tib tozalanadi va motorning so'rish quvuriga kiradi (oq strelkalar bilan ko'rsatilgan).

Oddiy moy vannali havo tozalagichlarda havo changdan 97—97,5% gacha tozalansa, bu havo tozalagichda 99% gacha tozalanadi.

4-§. Kiritish va chiqarish quvurlari. Ovoz so'ndirgich va uchqun o'chirgich

Benzinli motorlarda karburatordan kiritish quvuri orqali silindrlarga yonuvchi aralashma kiradi, dizellarda esa havo tozalagichdan kiritish quvuri orqali havo kiradi. Chiqarish quvuri orqali ishlatalgan gazlar silindrlardan tashqariga chiqariladi.

Kiritish va chiqarish quvurlari har qaysisi ayrim yoki birga cho'yandan yoxud aluminiy qotishmasidan quyib tayyorlanadi. Quvurlarning flanesi ostiga metall-asbest qistirma qo'yib silindrlar kallagini yoki blokiga shpilka va gaykalar bilan mahkamlanadi. Karburatorli motorlarda yonuvchi aralashma kiritish quvuridan o'tayotganida quvur devorlariga mayda tomchi holda yopishib, yonilg'i pardasi hosil etishi mumkin. Bu yonilg'i silindrga o'tib, unda qurum paydo qiladi yoki karterga o'tib moyni suytiradi, natijada motor qismlari tez yeyilladi, motorning quvvati pasayadi, yonilg'i sarfi ortadi.



5.4-rasm. Yonuvchi aralashmaning qizdirilishi rostlanadigan kiritish va chiqarish quvurlari:

1 — kiritish quvuri; 2 — to'siq; 3 — sektor; 4 — chiqarish quvuri

Kiritish quvurlarida yonilg'i tomchilarini bug'ga aylantirish uchun quvur ishlatalgan gazlar bilan (ba'zan sovitish tizimidagi suv oqimi bilan) isitiladi. Aralashmani isitib yonilg'ini bug'ga aylantirish darajasi

maxsus to'siq (zaslonka) orqali qo'l bilan yoki avtomat ravishda o'z-gartiriladi. Ba'zan rostlanmaydigan qilinadi.


Yonuvchi aralashma ishlataligal gazlar oqimi bilan isitiladigan kiritish va chiqarish quvurlari 5.4-rasmida ko'rsatilgan. Sektor (3) yozgi yoki qishki holatga surib qo'yilsa, to'siq (2) ochiladi yoki yopiladi, ya'nii chiqarish quvuri (4) dan chiqadigan ishlataligal gazlar kiritish quvuri (1) ga tegmasdan to'g'ri chiqib ketadi yoki uni qizdirib o'tadi. Aralashmani ortiqcha qizdirish ham yaramaydi, chunki silindrغا kiradigan aralashmaning vazni kamayib, motorning quvvati pasayishi mumkin.

Yurgizib yuborish motori bilan o't oldiriladigan dizellarda ba'zan yurgizib yuborish motorining chiqarish quvuri dizelning kiritish quvuri ichidan o'tkazilib, silindrلarga so'rildigan havo isitiladi.

Traktor va avtomobilarning ichki va tashqi shovqini amaldagi davlat standartlari DAST 12.2.120-88 va DAST 12.1.003-83 ga muvofiq me'yordanadi.

Ishlatilgan gazlarning chiqishdag'i shovqinini so'ndirish uchun avtomobillarda va ba'zi traktorlarda chiqarish quvurining uchiga *tovush so'ndirgich* o'rnatiladi.

Tovush so'ndirgich (5.5-rasm, a) ko'p teshikli ichki quvur (1), (4) va ichki quvur (5), to'siq (3) lar bilan bir-biridan ajratilgan kamera (6) va g'ilof (2) dan iborat. Ishlatilgan gazlar tovush so'ndirgich ichki quvuridan kameralarga qayta-qayta o'tib, atmosferaga chiqqanda ken-gayadi, tezligi, harorati va bosimi kamayadi, natijada chiqadigan gazlarning tovushi pasayadi.



5.5-rasm. Avtomobil motorining tovush so'ndirgichi (a) va traktorlarda ishlataladigan uchqun o'chirgich (b):

1 va 4 — ko'p teshikli ichki quvur; 2 — g'ilof; 3 — to'siq; 5 — ichki quvur;
6 — ajratilgan kameralar; 7 — konusimon korpus;

8 — qo'zg'almaydigan kamera; 9 — xomut; 10 — chiqarish quvuri

Motorlarning chiqarish quvuriga tovush so'ndirgich va ko'pincha uchqun o'chirgich o'rnatiladi. Ko'pchilik motorlarda chiqarish quvurining uchiga qo'shaloq konus shaklli sim to'qli tovush so'ndirgich joylashtirilgan.

Keyingi vaqtida chiqarilgan motorlarga ejektorli (5.3-rasm, 2, 3) va konus shaklli uyurma uchqun o'chirgich (5.5-rasm, b) o'rnatilgan. Bu uchqun o'chirgich qo'zg'almaydigan kurakcha (8) li parrak va konus korpus (7) dan iborat bo'lib, motorning chiqarish quvuri (10) ga xomut (9) bilan mahkamlanadi. Ishlatilgan gazlar parraklar orasidan o'tib, uyurma harakatga keladi. Uchqun zarrachalari konus devorlariga ishqalanib, uyurma oqimda tezroq yonib tugaydi.

Traktor ochiq joyda turganda silindrlarga suv tushmasligi uchun chiqarish quvurining devorida maxsus halqasimon ariqcha yasalgan. Suv tomchilari halqasimon ariqchaning teshiklaridan yerga tushadi. Ba'zan tovush so'ndirgichning kosachasida maxsus teshik qilinadi. Ba'zi chiqarish quvuri qopqoq bilan yopib qo'yiladi. Motor ishlagan vaqtida chiqaradigan gazlarning bosimi qopqoqni ochadi, motor to'xtaganda esa, qopqoq yopilgancha turadi.

5-§. Havo tozalagich, kiritish va chiqarish quvurlariga texnik xizmat ko'rsatish

Havo tozalagichga texnik xizmat ko'rsatish barcha qismlarining jips biriktirilganligiga e'tibor berish, tubidagi moyni o'z vaqtida almashtirish, kasseta to'rlarini yuvishdan iborat.

Inersion chang ajratgichlarning chang chiqadigan tirqishlari ko'zdan kechiriladi va lozim bo'lsa tozalanadi.

Havo tozalagichning tubiga, halqasimon belbog' sathigacha toza yoki ishlatalgan moy filtdan o'tkazib quyiladi. Moy kam bo'lsa, havo yaxshi tozalanmaydi, ko'p bo'lsa, klapamlarni qurum bosadi va dizel tutab ishlaydi, ba'zan motor tirsaklı valining haddan tashqari tez aylanishiga sabab bo'ladi.

Havo tozalagichning moyi, ish sharoitiga qarab, motor 10—60 soat ishlagandan keyin almashtiriladi. Moyni almashtirishda kassetening sim to'riari ko'zdan kechiriladi, lozim bo'lsa, dizel yonilg'isida yoki kerosinda yuviladi. Siklonli havo tozalagichning qalpoqli gaykalari har smenada burab qotiriladi va havo kiradigan quvurning sim to'ri tozalanadi hamda ejektor quvurning havo tozalagichga va chiqarish quvuriga jips biriktirilganligi tekshiriladi.

Motor 60 soat ishlagandan keyin havo tozalagichning havo kiradigan quvuri ejektor quvuri, kassetalar joylashtirilgan kallagi ajratib olinib, sim to'qimali kassetalar chiqariladi. Kassetalar dizel yonilg'isida yuviladi, quritiladi va dizel moyiga botirib, keyin moyni silqitib, moy tommaydigan bo'lga chiqariladi. Kassetalar moyining qurib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Motor juda chang va +40° dan issiq sharoitlarda ishlaganda kassetalar namlanadigan moyga 10—15% solidot qo'shiladi.

Changli sharoitlarda bu ishlar motor har 25—30 soat ishlagandan keyin takrorlanadi. Kallak va siklonlar artib tozalanadi, o'tirib qolgan moy, qurum ketkaziladi. Buning uchun siklonlar benzinda yuviladi.

Havo tozalagichlarni yig'ishda va ishlatishda qismlarining jips biriktirilganligiga alohida e'tibor berish zarur.

Kiritish va chiqarish quvurlari vaqt bilan ularning biriktirilgan va mahkamlangan joylaridagi bolt va gaykalarni tortib qotirib, tashqaridan havo so'rmaydigan va gaz chiqmaydigan qilinadi. Qistirmalari yeyilgan (kuygan) bo'lsa yangilanadi. Ta'mirlash vaqtida chiqarish quvurlari va uchqun o'chirgichlar kuydirib yoki boshqa usullarda qurumdan tozanadi.

Nazorat savollari


1. Traktor va avtomobil motorlarida qanday yonilg'ilar ishlatiladi, ular qanday asosiy xossalarga ega?
2. Yonilg'ining oktan soni va setan soni nimani bildiradi, ular motoring ishiga qanday ta'sir etadi?
3. Nima uchun benzin etillangan, etillangan benzindan foydalanish qoidalari nimalardan iborat?
4. Yonuvchi aralashma nima, qanday aralashmalar bo'ladi, aralashmaning tarkibi motor ishiga qanday ta'sir etadi?
5. Havo tozalagichlarning vazifasi, turi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
6. Kiritish va chiqarish quvurlarining vazifasi va tuzilishini aytib bering.
7. Tovush so'ndirgich va uchqun o'chirgichning vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
8. Havo tozalagich, kiritish va chiqarish quvurlariga texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlar bajariladi?

6-boh. BENZINLI MOTORLARNING TA'MINLASH TIZIMI

1-§. Ta'minlash tizimining umumiy tuzilishi va ishlash sxemasi

Benzinli motoring ta'minlash tizimi zarur tarkibli yonuvchi aralashma tayyorlab, uni belgilangan miqdorda motor silindrlariga yuboradi, ishlatilgan gazlarni esa atmosferaga chiqaradi.

Ta'minlash tizimi (6.1-rasm) yonilg'i baki (1), yonilg'i filtri (9), yonilg'i nasosi (8), karburator (5), havo tozalagich (4), kiritish (6) va chiqarish (7) quvurlari, tovush so'ndirgich (10), yonilg'i sathini ko'rsatgich (3), sath datchigi (2) va ta'minlash tizimining boshqarish uskunalaridan iborat.



6.1-rasm. Benzinli motor ta'minlash tizimining sxemasi:

1 — yonilg'i baki; 2 — sath datchigi; 3 — yonilg'i sathini ko'rsatkich; 4 — havo tozalagich; 5 — karburator; 6 — kiritish quvuri; 7 — chiqarish quvuri; 8 — yonilg'i nasosi; 9 — yonilg'i filtri; 10 — tovush so'ndirgich


Yonilg'i nasosi (8) yonilg'ini filtr (9) orqali o'tkazib, karburator (5) ga uzatadi. Kiritish taktida silindrda siyraklanish hosil bo'lib, havo tozalagich (4) orqali havo, karburatorning qalqovuchli kamerasi (P) dan esa yonilg'i so'rilib aralashtiriladi.

Hosil etilgan yonuvchi aralashma kiritish quvuri (6) va kiritish klapidan o'tib, motor silindrlariga kiradi. Aralashma siqilib, yondirilib, ish bajarilganidan keyin chiqarish klapani, chiqarish quvuri (7), tovush so'ndirgich (10) orqali atmosferaga chiqariladi.

Ba'zi kichik motorlarda (statsionar va yurgizib yuborish motorlarida) yonilg'i nasosi, yonilg'i sathini ko'satgich, hatto havo tozalagich ham bo'lmaydi, chunki bu motorlar changsiz sharoitlarda, ba'zilari esa qisqa muddat ishlaydi.

2-§. Oddiy karburator va uning ishlashi

Karburator yonilg'ini to'zitib havo bilan aralashdirib, yonuvchi aralashma tayyorlaydi. Karburatorning ishlashi pulverizatorning ishlash prinsipiiga asoslangan.



6.2-rasm. Oddiy karburator:

- 1 - qalqovuchli kamera; 2 - qalqovuch; 3 - ignasimon klapan;
- 4 - quvurcha; 5 - diffuzor; 6 - jiklerli to'zitgich;
- 7 - aralashtirgich kamera; 8 - drossel to'siq; 9 - jikler

Oddiy karburator (6.2-rasm) ikki asosiy qism — qalqovuchli kamera (1) va aralashtirgich kamera (7) dan iborat. Qalqovuchli kamera ichiga qalqovuch (2) va ignasimon klapan (3) joylashtirilgan. Aralashtirgich kamerada diffuzor (5), jiklerli to'zitgich (6) va drossel to'siq (8) bor.

Qalqovuchli kamera (1) da yonilg'i belgilangan sathdan oz bo'lsa, qalqovuch (2) pastroq tushib, uning richagi ustidagi ignasimon klapan (3) yonilg'i kiradigan teshikni ochadi va kameraga yonilg'i kiradi. Qalqovuch yengil bo'lganligi sababli yonilg'i betiga qalqib chiqadi va yonilg'i ma'lum sathga yetgach, ignasimon klapan ko'tarilib, yonilg'i kiradigan teshikni berkitadi. Shunday qilib, kameradagi yonilg'inining sati o'zgarmas holda saqlanadi.

Karburator quvurining diffuzor bo'g'zidan drossel to'siq o'qigacha bo'lgan bo'shliq (7) aralashtirgich kamera deyiladi. Diffuzor (5) ning bo'g'ziga jikler to'zitgichi (6) ning yonilg'i chiqadigan teshigi joylashtilgan.

To'zitgich quvurining qalqovuchli kameraga chiqarilgan uchiga jikler (9) o'rnatilgan. Yonilg'i yoki havo (ba'zan aralashma) o'tishini chegaralaydigan kalibrangan (aniq diametrlı qilib ishlangan) teshik jikler deyiladi. Jiklerlar limitlovchi (o'tishni chegaralovchi) yoki rostlanadigan bo'ladi.

Drossel to'siq (8) silindrarga kiradigan aralashmaning miqdorini o'zgartirish uchun xizmat qiladi, u haydovchining kabinasidan boshqariladi.

Karburator quyidagicha ishlaydi: motor silindrda hosil bo'lgan siyraklanish kiritish teshigi va kiritish quvuri orqali karburator aralashtirgich kamerasi (7) ga o'tadi va kamera orqali silindrغا havo so'rildi. Diffuzor (5) ning to'zitgichi (6) joylashtirilgan bo'g'zida havoning tezligi ortadi. Bu paytda qalqovuchli kamera (1) da atmosfera bosimi (unga quvurcha (4) orqali havo kiradi), aralashtirgich kamerada esa, siyraklanish bo'lganligi sababli, to'zitgich quvurcha orqali yonilg'i oqib chiqib, havo oqimi bilan to'zitiladi. Yonilg'i zarrachalari havo bilan purkalib bug'ga aylanadi va havoga aralashib, yonuvchi aralashma hosil qiladi.

Yuqorida tushuntirilganidek, motorning turli ish rejimlarida aralashma tarkibi ham turlicha bo'lishi kerak. Oddiy karburator motorning ma'lum yuklanishida va ma'lum aylanish tezliklaridagina qanoatlanadirli ishlashi mumkin. Motorni o't oldirishda, salt ishlaganda va aylanishlar soni birdaniga oshirilganda, zarur tarkibli yonuvchi aralashma tayyorlay olmaydi.

Oddiy karburatorda drossel to'siq ochilgan sari silindrغا ko'proq aralashma kiradi va u ko'proq quyuqlashadi, chunki siyraklanish ortgan sari havoga nisbatan yonilg'inинг miqdori ortadi, aksincha to'siq berkitilganda aralashma suyuqlashib, motor o'chib qoladi. Shu sababli oddiy karburatorni motorning turli ish rejimlariga moslashtirish uchun unga bir qancha o'zgartirishlar kiritib, qo'shimcha moslamalar o'matilishi lozim.

Karburatorlar yonuvchi aralashma oqimining yo'naltirilishiga qarab aralashma oqimi *pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga va gorizontal yo'naltiriladigan* xillarga bo'linadi. Aralashma yuqoridan pastga yo'naltirilgan karburatorlarda sifatlari aralashma hosil bo'ladi, silindrlar

aralashma bilan yaxshiroq to'ladi va yonilg'i birmuncha tejaladi, shu sababli bunday karburatorlar ko'proq qo'llaniladi. Aralashma oqimi gorizontal yo'naltirilgan karburatorlar ixcham bo'lib, ko'pincha ikki taktli benzin motorlarida qo'llaniladi.

3-§. Karburatorlarning qo'shimcha moslamalari


Motoring turli rejimlarda ishlashiga munosib yonuvchi aralashma tayyorlash uchun oddiy karburator yurgizib yuborish moslamasi, salt ishlash tizimi, asosiy dozalovchi tizim, ekonomayzer va tezlatgich nasos bilan jihozlanadi.

Yurgizib yuborish (o't oldirish) moslamasi (6.3-rasm). Motorni yurgizib yuborishda tirsakli val sekin aylantiriladi, aralashgirgich kamerada ozroq siyraklanish hosil bo'ladi va yonilg'i jikler to'zitgichidan ozroq chiqadi.

Motor sovuqligida quyuqlashgan aralashma hosil qilib, yurgizib yuborish uchun karburatorlarga yurgizib yuborish moslamasi o'rnatiladi, u asosan havo to'sig'idan iborat. Motorni o't oldirishda havo to'sig'i (/) yopiladi, aralashtirgich kamerada siyraklanish ortib, asosiy dozalovchi va salt ishlash tizimi jikleriaridan yonilg'i oqib chiqadi. Aralashmaga havo, asosan, to'siq tirqishidan kiradi.

Motor ishga tushib ketganidan keyin ham aralashma ortiqcha quyuqlashmasligi uchun havo to'sig'iga avtomat klapani (3) o'rnatilgan. Havo prujina (4) kuchini yengib, klapani (3) ni ochadi va teshik (2) dan aralashtirgich kameraga ko'proq kirib, diffuzordagi siyraklanishni kamaytiradi va aralashmani ortiqcha quyuqlanishdan saqlaydi.

Salt ishlash tizimi (6.4-rasm). Motor salt ishlaganida silindrlarga oz miqdorda aralashma kiritilishi lozim, shuning uchun drossel to'siq deyarli yopib qo'yiladi. Aralashtirgich kamerada siyraklanish kamayishi sababli jiklerlardan yonilg'i oqib chiqmaydi. Motoring salt ishlashi uchun karburator salt ishlash tizimi bilan jihozlanadi, u yonilg'i




6.3-rasm. Yurgizib yuborish moslamasi:

- 1 — havo to'sig'i;
- 2 — teshik;
- 3 — klapan;
- 4 — prujina

jikleri (2), havo jikleri (3), rostlash vinti (8), kanal (4), teshik (5) va (7) lardan iborat. Salt ishlash tizimi yonilg'i va havo drossel to'siqning sirtiga, ya'ni siyraklanish yetarli bo'lgan uchastkaga chiqadigan qilib joylashtirilgan bo'lib, u quyidagicha ishlaydi.

Karburatorning drossel to'sig'i (6) bekitilganda siyraklanish salt ishlash tizimining teshigi (7) va kanali (4) orqali salt ishlash yonilg'i jikleri (2) ga «o'tib», undan yonilg'i chiqqaydi, chunki asosiy jikler (1) to'zitgichidan yonilg'i chiqmaydi. Bu yonilg'iga havo dastlab jikler (3) dan, so'ngra drossel to'siqning tepasidagi qo'shimcha teshik (5) dan kirib emulsiya (yonilg'i bilan havo pufakechalar) hosil qiladi. Emulsiya drossel ostidagi teshikdan oqib chiqib, drossel chetidagi tirkishdan chiqadigan havo bilan to'zitiladi.

Salt ishlashdagi aralashimaning miqdori va tarkibi rostlash vinti (5) bilan o'zgartiriladi. Vint burab kirdgilsa, aralashma suyuqlashadi, burab chiqarilsa, quyuqlashadi. Drossel to'siq ochila boshlaganda emulsiya drossel tepasidagi teshik (5) dan chiqib, motorning salt ishlashdan o'rta yuklanishda ishlashga ravon o'tishini ta'minlaydi. Ba'zan rostlash vinti salt ishlash tizimining havo kanaliga o'matilgan bo'ladi. Bunday vint burab kirdgizilganda aralashma quyuqlashadi, burab chiqarilsa, suyuqlashadi.



6.4-rasm. Salt ishlash tizimi:

1 — asosiy jikler; 2 — salt ishlash yonilg'i jikleri;


3 — havo jikleri; 4 — kanal;

5 va 7 — teshiklar; 6 — drossel to'siq; 8 — rostlash vinti

Asosiy dozalovchi tizimlar. Asosiy dozalovchi tizim motoring o'rta yuklanishlarida tejamli ishini ta'minlaydigan aralashma hosil qiladi.

Zamonaviy karburatorkarda asosiy dozalovchi tizimning ikki turi: yonilg'ining harakatini havo bilan sekinlashtirib jiklerdag'i siyraklanishni o'zgartirish usuli va diffuzordagi siyraklanishni o'zgartirish usullari qo'llaniladi.

Yonilg'ining harakatini havo bilan sekinlashtirib jiklerdag'i siyraklanishni o'zgartiradigan dozalovchi tizim (6.5-rasm) to'zitgich quvurcha yonilg'i jikleri (1) dan tashqari havo jikleri (2) bilan ham tutashtirildi. Motor ishlayotganda yonilg'i jikleridan kiradigan yonilg'i diffuzordan o'tadigan havoga aralashib yonuvchi aralashma hosil qiladi. Drossel to'siq kattaroq ochilib, diffuzor (4) dan o'tadigan havoning tezligi ortganda to'zitgich quvurchadan yonilg'i tezroq o'ta boshlaydi, ammo yonilg'i jikleri to'zitgichdan o'ta oladigan miqdorda yonilg'i o'tkaza olmaydi. Bunday holda siyraklanish ta'sirida zaxira kamera (3) dan yonilg'i, havo jikleri (2) orqali esa havo so'rilib, to'zitgich quvurchadan yonilg'i emulsiya bolida chiqadi. Natijada yonilg'i havo bilan tormozlanib jiklerdag'i siyraklanish pasayadi, suyuqlashtirilgan aralashma hosil bo'ladi va yonilg'i bilan chiqqan havo yonilg'ini yaxshiroq to'zitadi.




6.5-rasm. Yonilg'ining harakatini havo bilan sekinlashtiruvchi asosiy dozalovchi tizim:

1 – yonilg'i jikleri; 2 – havo jikleri; 3 – zaxira kamera;
4 – diffuzor

Diffuzordagi siyraklanishni o'zgartiruvchi dozalovchi tizim (6.6-rasm) to'zitgichli asosiy (2) va qo'shimcha (1) jikler va uchta diffuzordan iborat. Asosiy jikler to'zitgichining teshigi kichik diffuzor (5) bo'g'ziga, qo'shimcha jiklerniki esa katta diffuzor (6) bo'g'ziga joylashtirilgan. Katta diffuzorning elastik plastina (4) lar bilan berkitiladigan to'rtta tuynugi bor. Bu tuynuklar turliche ochiiib, diffuzorlardagi havo oqimining tezligini o'zgartiradi.

Drossel to'siq qisman ochilib, motor kichik yuklanishda salt ishlaganda (*a* holat) katta diffuzorning plastinalari yopiq bo'ladi (o'rta diffuzorga tegib turadi). Shunda havo, asosan, kichik va o'rta diffuzor (3) bo'g'zidan o'tadi, yonilg'i esa asosiy jiklerning to'zitgichi (7) dan ko'proq, qo'shimcha jikler to'zitgichi (8) dan ozroq chiqib, aralashma hosil bo'ladi.


Drossel to'siq kattaroq ochilib havoning tezligi ortganda katta diffuzorning plastinalari (4) ochilib, ular bilan o'rta diffuzorning sirti orasida havo o'tadigan tirqish hosil bo'ladi (*b* holat). Natijada kichik diffuzor bo'g'zidagi siyraklanish pasayadi, asosiy jiklerning to'zitgichi (7) dan yonilg'i ozroq (sekinroq) chiqadi, qo'shimcha jikler to'zitgichi (8) dan ko'proq (tezroq) chiqadi. Asosiy va qo'shimcha jiklerlar teshigi hamda katta diffuzor plastinalarining elastikligi motorning tejamli ishlashiga mos aralashma hosil etishiga imkon beradigan qilib tanlangan.



6.6-rasm. Diffuzordagi siyraklanishni o'zgartiruvchi asosiy dozalovchi tizim:
1 — qo'shimcha jikler; 2 — asosiy jikler; 3 — o'rta diffuzor; 4 — elastik plastinalar; 5 — kichik diffuzor; 6 — katta diffuzor; 7 — asosiy jikler to'zitgichi; 8 — qo'shimcha jikler to'zitgichi

Ekonomayzer. Karburatorlarning asosiy dozalovchi tizimlari suyuqlashtirilgan (tejamli) aralashma tayyorlaydi. Motorning maksimal quvvat hosil qilishi uchun silindrga ko'proq va quyuqroq aralashma kiritish

($\alpha = 0,9$) lozim. Ekonomayzer aralashtirgich kameraga qo'shimcha yonilg'i yuborib, araiashmani quyuqlashtiradi. Ekonomayzer drossel to'siq o'qidan (mexanik usulda) yoki aralashtirgich kameradagi siyraklanishdan (pnevmatik usulda) harakatga keltiriladi.



6.7-rasm. Ekonomayzerlar sxemasi:


a — mexanik, b — pnevmatik usulda harakatga keltiriladigan; 1 — richag; 2 — ekonomayzer jikleri; 3 va 9 — prajina; 4 — zveno; 5 — ekonomayzer klapani; 6 — tortqi; 7 — planka; 8 — asosiy dozalovchi tizimning to'zitgichi; 10 — kanal; 11 — teshik; 12 — porshen

Mexanik usulda harakatga keltiriladigan ekonomayzer (6.7-rasm, a). Drossel to'siq 80% dan ko'proq ochilganda ekonomayzerning klapani (5), richag (1), zveno (4), tortqi (6) va planka (7) ta'siridan ochilib, asosiy dozalovchi tizimning to'zitgichi (8) ga ekonomayzer jikleri (2) dan qo'shimcha yonilg'i kiritadi. Planka (7) bilan ekonomayzer klapani (5) orasida tirqish bo'lganligi uchun drossel to'siq kattaroq ochilganda prujina (3) ning kuchini yengib klapanni oehadi. Shundagina motor to'la quvvat bera boshlaydi.

Pnevmatik usulda harakatga keltiriladigan ekonomayzer (6.7-rasm, b) klapani (5) ning ochilishi drossel to'siqning sirtidagi siyraklanishga bog'liq. Agar drossel to'siq yopiq bo'lsa, uning sirtidagi siyraklanish teshik (11) va kanal (10) orqali porshen (12) pastki qismiga uzatilib, prujina (9) ning kuchini yengib, porshenni pastga suradi. Bunda ekonomayzerning klapani (5) yopiq turadi.

Drossel to'siq ochilgan sari uning sirtidagi, demak, teshik (11) va kanal (10) dagi siyraklanish kamayadi, porshen prujina (9) ta'sirida ko'tariladi, uning plankasiga bog'langan ekonomayzer klapani ochiladi

va uning jikleri (2) dan asosiy dozalovchi tizimga qo'shimcha yonilg'i boradi. Drossel to'siqning ochilishi o'zgartirilmaganda motorning aylanishlari kamaysa siyraklik pasayib ekonomayzer ishlay boshlaydi. Demak, avtomobil harakatni tezlata boshlaganda aralashma quyuqlashadi. Bu pnevmatik usulda harakatlantiriladigan ekonomayzerning afzalligidir, ammo uni ustalik bilan sozlash kerak va prujina (9) ma'lum kuchga ega bo'lishi lozim.



6.8-rasm. Tezlatgich nasos:
 1 — richag; 2 — sterjen; 3 — kiritish klapani; 4 — porshen;
 5 — prujina; 6 — planka; 7 — to'zitgich jikler;
 8 — haydash klapani; 9 — kanal

Tezlatgich nasos. Motor salt ishlab turganda drossel to'siq keskin ochilsa, havoning diffuzoridan o'tish tezligi yonilg'inining jiklerlardan oqish tezligiga nisbatan ko'proq ortib, aralashma suyuqlashadi va motor o'chib qolishi mumkin. Tezlatgich nasos (6.8-rasm) shu paytda (yuklanish keskin oshirilganda) aralashirgich kameraga qo'shimcha yonilg'i yuborib, motorning o'chib qolmasdan ishlashini ta'minlaydi. Tezlatgich nasos porshen (4), richag (1), sterjen (2), planka (6) va prujina (5) orqali drossel to'siq o'qidan harakatga keltiriladi. Kiritish klapani (3) o'z vazni bilan ochilib, porshen ostiga yonilg'i to'ladi. To'siq birdaniga ochilganda richaglar tizimi va prujina orqali porshen (4) pastga bosilib.

kiritish klapani (3) yonilg'i kira digan teshikni berkitadi, haydash klapani (8) esa ochilib, yonilg'i to'zitgich - jikler (7) orqali havo quvuriga purkaladi.

Nasos ishlamaganda haydash klapani (8) kanal (9) ni berkitadi. Drossel to'siq sekin ochilsa, kiritish klapani bekilmaydi va porshen tagidagi yonilg'i qalqovuchli kameraga qaytib chiqadi, ya'ni tezlatgich nasos ishlamaydi.

4-\$. Karburatorlarning tuzilishi va ishlashi


Aralashma oqimi gorizontal yo'naltirilgan, yonilg'i havo bilan tormozlanadigan karburator (K-16A) ning sxemasi 6.9-rasmida ko'rsatilgan. Karburatorning qalqovuchli kamerasi (3), aralashtirgich kamerasi (17), havo to'sig'i (8), drossel to'sig'i (15), yonilg'i kanali (4), asosiy jikler (5) va to'zitgich (6) dan iborat asosiy dozalovchi tizimi; kanal (9; 12; 18) lar, salt ishslash jikleri (10), rostlash vinti (11) va drossel to'siq yaqinidagi teshik (13; 14) lardan iborat salt ishslash tizimi bor.

Qalqovuchli kamera kanal (4) orqali asosiy dozalovchi tizimga va salt ishslash tizimi hamda muvozanatlagich kanal (16) orqali havo o'tadigan qisqa quvurga tutashtirilgan.

Yonilg'i bakdan shtutser (1) orqali qalqovuchli kameraga tushadi. Qalqovuch (2) kameradagi yonilg'inining sathini o'zgarmas holda saqlaydi. Karburatorning yurgizib yuborish tizimi havo to'sig'i (8) va qalqovuchni cho'ktirgichdan iborat.

Motorni yurgizib yuborishda havo to'sig'i deyarli yopiq, drossel to'siq esa biroz ochiq bo'ladi. Motorni yurgizishni osonlashtirish uchun karburator cho'ktirgichining tugmacha sini bosib, qalqovuchli kamera-dagi yonilg'i sathi oshiriladi. Yonilg'i asosiy dozalovchi tizimdan va salt ishslash tizimidan so'rilib quyuq aralashma hosil qilinadi. Motor o't olishi bilan havo to'sig'i ochib qo'yiladi.

Motor salt ishlaganda drossel to'siq biroz ochiq bo'ladi, shunda diffuzor (7) da siyraklanish kam bo'lganligidan yonilg'i salt ishslash kanali (18) va jikler (10) orqali so'rildi. Havo kanal (9, 12) va teshik (13) dan kirib yonilg'iga aralashib, teshik (14) dan emulsiya chiqadi. Drossel to'siq tirqishidan havo kirib emulsiyaga aralashib, quyuqroq aralashma hosil qiladi. Yonilg'inining miqdori salt ishslash vinti (11) bilan, salt ishslash aylanishi esa, drossel to'siqning yopilishini cheklovchi vint bilan rostlanadi.




**6.9-rasm. Aralashma oqimi gorizontal yo'naltirilgan karburator
(K-16A) ning sxemasi:**

1 — shtutser; 2 — qalqovuch; 3 — qalqovuchli kamera; 4 — yonilg'i kanali;
5 — asosiy jikler; 6 — to'zitgich; 7 — diffuzor; 8 — havo to'sig'i;
9, 12 va 18 — kanallar; 10 — jikler; 11 — rostlash vinti; 13 va 14 — drossel
to'siq yaqinidagi teshik; 15 — drossel to'siq; 16 — muvozanatlagich kanal;
17 — aralashtirgich kamera

Motor katta yuklanish bilan ishlaganda drossel to'siq to'la ochiladi, diffuzordagi siyraklanish kuchayadi, yonilg'i asosiy jiklarning to'zitgichi (6) dan chiqib havo oqimi bilan aralashadi. Tirsakli valning aylanish tezligi ortgan sari aralashtirgich kamerada siyraklanish ortib, salt ishslash tizimi — kanal (9), jikler (10) va kanal (18) orqali havo kirib jikler tepasidagi siyraklanishni pasaytiradi, natijada asosiy jiklerdan keladigan yonilg'i havo bilan tormozlanib, aralashmaning quyuqlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Karburator rux qotishmasidan quyib yasalgan. Ishlamagan vaqtida havo quvurining qopqog'i berkitilib, qulqolli gaykasi burab qo'yiladi.

Aralashma oqimi yuqorida pastga yo'naltirilgan, diffuzordagi siyraklanishni o'zgartirib dozalovechi **ueh diffuzorli karburator** (K-22F) ning sxemasi 6.10-rasmida ko'rsatilgan. Karburator o'rta *B*, yuqorigi *A* va pastki *D* qismlardan iborat. O'rta qismi *B* o'z navbatida karburator korpusi, aralashtirgich kamera va qalqovuchli kameradan iborat; yuqoridagi qismi *A* — havo to'sig'i (13) o'rnatilgan qisqa quvur va qalqovuchli kameraning qopqog'idan iborat; pastki qismi *D* esa drossel to'siq (32), tirsakli valning aylanish tezligini cheklagich (1) dan iborat. Karburatorning pastki qismi bilan korpus orasiga issiqlik o'tkazmaydigan qistirma (5) qo'yilgan.



6. 10-rasm. Diffuzordagi siyraklanishni o'zgartirib dozalovchi karburator (K-22F) ning sxemasi:

A -- yuqorigi; B -- o'rta; D -- pastki qismlari; 1 -- tirsaklı valning aylanish tezligini cheklagich; 2 -- rostlash vinti; 3 va 4 -- salt ishlash tizimi teshigi; 5 -- qistirma; 6 -- o'rta diffuzor; 7 -- salt ishlash tizimining yonilg'i jikleri; 8 -- kichik diffuzor; 9 -- katta diffuzor;

10 -- emulsiya jikleri; 11 -- bavo jikleri; 12 -- avtomat klapani; 13 -- bavo to'sig'i; 14 -- muvozanatlagich quvurcha; 15 -- tezlatkich nasos to'zitgichi; 16 -- to'zitgichlar bloki; 17 -- asosiy jikler; 18 -- qo'shimicha jikler; 19 -- teshik; 20 -- haydash klapani; 21 -- kiritish klapani; 22 -- tortqi; 23 -- richag; 24 -- porshen; 25 -- ekonomayzer klapani; 26 -- kanal; 27 -- rostlash ninas; 28 -- qo'shimicha jikler; 29 -- asosiy jikler; 30 -- jiklerlar bloki; 31 -- ekonomayzer jikleri; 32 -- drossel to'siq

Motoring turli rejimlarida ishlashiga munosib aralashma tayyorlash uchun karburatorning asosiy dozalovchi tizimi, salt ishlash tizimi, yurgizib yuborish moslamasi, ekonomayzeri va tezlatgich nasosi bor.

Karburatorning asosiy dozalovchi tizimi quyidagilardan: asosiy jikler (29) va qo'shimicha jikler (28) dan iborat jiklerlar bloki (30), asosiy jikler to'zitgichi (17) va qo'shimicha jikler to'zitgichi (18) dan iborat to'zitgichlar bloki (16), dozalovchi nina (27) va kichik diffuzor (8),

o'rta diffuzor (6), katta diffuzor (9) dan iborat diffuzorlar blokidan tashkil topgan.

Salt ishlash tizimi yonilg'i jikleri (7), ikkita havo jikleri (11), emulsiya jikleri (10), rostlash vinti (2), turli kanal va teshiklardan iborat. Karburatorning qalqovuchli kamerasi muvozanatlagich quvuriga (14) vositasida havo quvuriga tutashtirilgan.

Motorni yurgizib yuhorishda havo to'sig'i (13) deyarli yopib qo'yiladi, drossel to'siq (32) qisman ochiladi. Aralashtirgich kamerada hosil etilgan kuchli siyraklanish tufayli asosiy dozalovchi tizimdan va salt ishlash tizimidan ko'p miqdorda yonilg'i so'rildi, havo to'sig'i chetidagi tirkishdan kirgan havo yonilg'iga aralashib quyuq aralashma hosil bo'ladi. Motor ishlay boshlashi bilan havo to'sig'ining avtomat klapani (12) aralashtirgich kameradagi siyraklanish kuchi bilan ochilib, o'zidan havo o'tkazadi va aralashmaning ortiqcha quyuqlanishiga yo'l qo'y-maydi.

Motoring *salt ishlashi* uchun drossel to'siq deyarli yopib qo'yiladi, havo to'sig'i to'la ochiq turadi. Drossel to'siq sirtida hosil bo'ladi dan kuchli siyraklanish tufayli yonilg'i teshik (19), asosiy dozalovchi tizimning qo'shimcha jikleri (28), ekonomayzer jikleri (37), gorizontal kanal, salt ishlash yonilg'i jikleri (7) va vertikal kanal orqali o'tadi. Yonilg'i vertikal kanaldan o'tganda unga havo jikleri (11) dan kiradigan havo aralashadi va emulsiya hosil bo'ladi. Bu emulsiya jikler orqali o'tib, ikkinchi havo jikleridan drossel to'siq tepasidagi teshikdan kirgan havo bilan aralashadi va ishlash tizimining drossel to'siqdan pastroqda joylashtirilgan teshigi (3) dan chiqadi, bu teshikning og'zi rostlash vinti bilan o'zgartiriladi.

Motoring *o'rtacha yuklanishda ishlashi* uchun drossel to'siq biroz ochiladi, natijada aralashtirgich kamerada siyraklanish ortadi va asosiy dozalovchi tizim vositasida tegishli tarkibli aralashma hosil etiladi. Bunda karburatorning asosiy dozalovchi tizimi shu bobning 3-§ da keltirilgan 6.6-rasmda ko'rsatilgandek ishlaydi.

Motoring yuklanishi va aylanishlari past bo'lganda aralashtirgich kamerada hosil bo'lgan siyraklanish tufayli asosiy va qo'shimcha jikllerlar to'zitgichidan yonilg'i oqib chiqadi. Kichik va o'rta diffuzor bo'g'zida siyraklanish kuchli bo'lganligi sababli yonilg'i asosiy jikler to'zitgichidan ko'proq, qo'shimcha jikler to'zitgichidan esa ozroq chiqadi. Drossel to'siq kattaroq ochilib, motoring aylanishlari oshirilganda aralash-tirgich kameraga diffuzorlar orqali havo tezroq o'tadi. Havo oqimining bosimi ta'siri ostida katta diffuzorning plastina klapalarli egilib,

havoning ko'p qismi katta diffuzor bilan o'rta diffuzor orasidan o'tadi. Kichik diffuzordagi siyraklanish pasayadi, natijada asosiy jiklerdan yonilg'ining chiqishi kamayadi va motorning tejamli ishlashini ta'minlaydigan aralashma tayyorlana boshlaydi. Ish sharoiti o'zgarganda yoki jikler yeyilganda asosiy jikler teshigini rostlash ninasi (27) bilan kattaroq yoki kichikroq qilish va shu bilan aralashma tarkibini o'zgarturish mumkin.

Motor to'la yuklanishda ishlaganda (drossel to'siq 80% dan ko'proq ochilganda) karburatorning mexanik usulda harakatlantiriladigan ekonomayzeri ishlay boshlaydi. Porshenning shtogi richag (23) va tortqi (22) orqali pastga siljitsa, ekonomayzerning klapani (25) ochilib, kanal (26) orqali ekonomayzer jikleri (31) dan qo'shimcha jiklerga yonilg'i o'tib, aralashtirgich kameraga kiradi, natijada quyuqlashtirilgan aralashma hosil bo'lib, motor to'la quvvat hosil qilib ishlaydi.

Drossel tosiq keskin ochilib, sekin ishlab turgan motor aylanishlari oshirilganda karburatorning tezlatgich nasosi qisqa muddatga aralashmani quyuqlashtirib motorni o'chib qolishdan saqlaydi. Tezlatgich nasos ekonomayzer bilan birga yasalib, drossel to'siq keskin ochilgandagina porshen (24) keskin harakat etib, yonilg'i bosimi kiritish klapani (21) ni yopadi, haydash klapani (20) ni esa ochadi. Tezlatgich nasos to'zitgich (15) orqali aralashtirgich kameraga qo'shimcha yonilg'i purkaydi. Porshenga tortqi (22) dan prujina orqali harakat uzatilganligi sababli yonilg'i ravon purkaladi.

Ko'p kamerali karburatorlar. Keyingi vaqtida ko'pchilik avtomobilarda ko'p kamerali karburatorlar qo'llanilmoqda. Ularda aralashma silindrلarga teng taqsimlanadi va ko'proq kiradi. Natijada avtomobilning quvvati ortadi va turli sharoitlarda yaxshi ishlaydi. Ko'p kamerali karburatorlarning qalqovuchli kamerasi bitta, ammo aralashtirgich kamerasi ikkita yoki to'rtta qilinadi. Kameralari parallel yoki ketma-ket ishlaydi. Parallel ishlaganda har qaysi kamera ma'lum silindrлarga aralashma yuborib, drossel to'siqlar bir vaqtida ochiladi, ketma-ket ishlaganda oldin biri ochilib, ikkinchisi motor to'la yuklanishda ishlagan-da ochiladi.

Ko'pehilik yuk avtomobillari va avtobuslarda qo'llaniladigan ikki kamerali karburatorlar «oilasining» asosiy konstruksiysi bo'lgan K-88A markali karburatorning ishlashini qisqacha bayon etamiz.


Karburator (6.11-rasm) uchta korpusdan iborat: yuqorigisiga havo tos'ig'i (8), o'rtagisiga qalqovuchli kamera (23), pastkisi (19) ga ikkita aralashtirgich kamera joylashtirilgan, har kamera ЗИЛ-130

avtomobili «V» simon joylashtirilgan silindrining to'rttasiga aralashma yuboradi. Karburatorning asosiy dozalovchi tizimi yonilg'i ni havo bilan tormozlash prinsipida ishlaydi.

Karburatorning drossel to'siq o'qidan harakatga keltiriladigan ekonomayzeri, tezlatgich nasosi va markazdan qochirma pnevmatik maksimal aylanishlar sonini cheklagichi bor.

Sovuq motorni yurgizib yuborishda havo to'sig'i (8) berkitilib, drossel to'siq (20) sal ochiladi va tezlatgich nasosga bir-ikki marta dam beriladi. Motor o't olishi bilan aralashma quyuqlashmasligi uchun havo to'sig'iga avtomat klapan qo'yilgan.

Motor salt ishlaganda so'rish quvurida hosil bo'ladigan siyraklanish teshik (22) lar va kanal (24) lar orqali aralashtirgich kamerasiga «o'tadi» va yonilg'i asosiy jikler (3) lar orqali o'tib salt ishlash jiklerlari (4) dan chiqadi. Havo jikler (4) lar tepasidagi teshikdan, to'siqjar tepasidagi teshik (22) dan va to'siqlar yonidan o'tib, ularning sirtida quyuqlashgan aralashma hosil bo'ladi. Salt ishlaganda aralashma tarkibi vint (21) lar bilan rostlanadi.



6.11-rasm. Ikki kamerali karburator (K-88A) ning sxemasi:

1 — qalqovuch; 2 — nina klapan; 3 — asosiy jiklerlar; 4 — salt ishlash jiklerlari; 5 — havo jiklerlari to'sig'i; 6 — to'la quvvat jikleri; 7 — forsunka; 8 — havo to'sig'i; 9 va 24 — kanallar; 10, 12 va 13 — shtoklar; 11 — planka; 14 — tezlatgich nasos porsheni; 15 — turgich; 16 — ekonomayzer klapani; 17 — kiritish klapani; 18 — richag; 19 — aralashtirgich kameralar korpusi; 20 — drossel to'siq; 21 — rostlash vinti; 22 — teshiklar; 23 — haydash klapani; 25 — qalqovuchli kamera

Motor o'rta yuklanishda ishlaganda drossel to'siq (20) lar qisman ochiq bo'ladi, asosiy kanallar orqali havo ko'proq o'tadi va kichik diffuzordagi siyraklanish ortib, karburatorning asosiy dozalovchi tizimi ishlay boshilaydi. Yonilg'i asosiy jikler (3) lardan kichik diffuzorlarning halqasimon tirkishiga o'tadi. Yo'lakay unga havo jikler (5) lardan kirgan havo aralashib, natijada to'la quvvat jikler (6) laridagi siyraklik pasayadi. Motoring kichik va o'rta yuklanishlarida ekonomayzer ishlamaydi va karburator tejamli tarkibda aralashma tayyorlaydi. Bu rejimda salt ishlash tizimidan ham havo o'tib aralashma tarkibiga ta'sir etadi.

Drossel to'siq kattaroq ochilganda ekonomayzer klapani ishga tushadi. To'siqning o'qi burilib richag (18), shtok (13), planka (11), shtok (10) ga ta'sir etadi. Shtok (10) prujinasi orqali turtgich (15) ni bosib ekonomayzer klapani (16) ni ochadi. Bunda ekonomayzer klapani ostidagi prujina siqiladi va to'la quvvat jikleri (6) ga asosiy jikler (3) dan tashqari klapan (16) ochgan teshikdan qo'shimcha yonilg'i kiradi. Bu yonilg'iga havo jikleri (5) va salt ishlash tizimi orqali ham havo kiradi. Shunday qilib, karburator drossel to'siq to'la ochilganda motoring maksimal quvvat berishini ta'minlaydigan tarkibda quyuqlashtirilgan aralashma tayyorlaydi. Yonilg'i sarfi ortganda qalqovuchli kamerada yonilg'i sathi birmuncha pasayadi. Qalqovuch (1) nina klapan (2) ni batamom ochadi, yonilg'i nina korpusidagi teshiklardan shiddat bilan oqib chiqib, qalqovuchni pastga bosadi va shu yo'l bilan kerakli miqdorda yonilg'i kirishi ta'minlanadi. Drossel to'siqlar keskin ochilganda tezlatgich nasos aralashmani quyuqlashtirib, avtomobilni o'midan tez qo'zg'atishni va tezlatib haydashni ta'minlaydi. Bu nasos ekonomayzer bilan birga drossel to'siq o'qidan harakatga keltiriladi. Drossel to'siq yopiqroq turganda kiritish klapani (17) orqali kirgan yonilg'i nasos porsheni (14) ostidagi bo'shliqni to'ldiradi.

Drossel to'siq keskin ochilganda richag (16) burilib, shtok (13) ni siljitaladi, shtok planka (11) ni bosadi. Planka shtok (12) prujinasini siqib, shtokni va u bilan birga porshen (14) ni pastga bosadi. Klapan (17) yonilg'i bosimi ta'siri ostida yopiladi. Yonilg'i kanal (9) teshigidan kirib, haydash klapari (23) ni ohib, tezlatgich nasos forsunkasi (7) dan karburatorning asosiy havo yo'liga purkaladi. Karburatorning maksimal aylanishlarni cheklagichi haqida 8-bob 4-§ da bayon etilgan.

Benzinli motorlar ta'minlash tizimiga qarashli boshqa asboblarining tuzilishi va ishlashi, dizellarning ta'miniash tizimi va aylanishlar soni regulatori haqida 7- va 8-boblarda bayon etilgan.

5-§. Karburatorlarga texnik xizmat ko'rsatish

Karburatorda kamchilik bo'lsa, aralashmaning tarkibi o'zgarib, suyuqlanishi yoki quyuqlanishi mumkin. Aralashma suyuq bo'lsa, karburatorda tarsillash ovozi eshitiladi, motor ortiqcha qiziydi va quvvati pasayadi.

Aralashma juda quyuq bo'lsa, motor tutab ishlaydi, qismlarini ko'proq qurum bosadi va yonilg'i sarfi ortadi.

Qalqovuchli kamerada yonilg'i sathi pasaysa, karburator to'g'ri rostlanmasa, filtr, jikler va kanallar iflosanib, yonilg'i yetarli yuborilmasa va karburator flaneslari orgali tashqaridan havo so'tilsa, aralashma suyuqlashadi.


Qalqovuchli kamerada yonilg'i sathi yuqori bo'lsa, karburator to'g'ri rostlanmasa, yonilg'i jiklerlari yeyilib kattalansa, ekonomayzer va tezlatgich nasos klapanlari jips bekilmasa va havo to'sig'i to'la ochilmasa aralashma quyuqlashadi.

Karburatorga texnik xizmat ko'rsatish har kuni uni changdan tozalash, yonilg'i sizishini va tashqaridan havo so'tilishini yo'qotish, vaqtli-vaqtli bilan aralashma tarkibini rostlash, qalqovuchli kameradagi yonilg'i sathini tekshirish va rostlash, filtrlarni yuvib, jikierlarni puflab tozalash hamda jiklerlarning yonilg'i o'tkazish qobiliyatini tekshirish va asosiy jikler ninasining turish holatini tekshirishdan iborat. Shuningdek, qarov vaqtida barcha qismlarining mahkam biriktirilganligi ko'zdan kechiriladi, bo'shab qolganchasi qotiritadi.

Karburatorni qismlarga ajratishda qistirmalarni yirtilishdan ehtiyojlash, jikler va kanallarini siqilgan havo yuborib tozalash lozim, ularni sim yoki o'tkir uchli asboblar bilan tozalash yaramaydi.

Qalqovuchli kameradagi yonilg'inining sathi oddiy moslama bilan tekshiriladi. Moslama (6.12-rasm) rostlash ninasi (2) ning korpusiga burab qo'yiladi. U shtutser (1), rezina trubka (3) va shisha quvurecha (4) dan iborat. Benzin nasosi dastaki richag bilan ishlatilib qalqovuchli kameraga benzin yuborilganda shisha quvurchadagi yonilg'inining sathi zavod qo'llanmasida ko'rsatilgandek bo'lishi lozim. Yonilg'i sathi qalqovuch richagining plastinkasini qo'l bilan egib yoki nina klapan egarining ostidagi qistirmaning qalinligi o'zgartirib rostlanadi.

Motor salt ishlaganda uning eng kam aylanishlari drossel to'siqning yopilishini cheklaydigan vint bilan, aralashmaning tarkibi salt ishlash vinti bilan rostlanadi. Asosiy jikler ninasi (6.10-rasm, 27) burab ochilib yoki berkitilib jikler teshigining kattaligi tanlanadi.



6.12-rasm. Karburatorning qalqovuchli kamerasidagi yonilg'i sathini tekshirish:

1 — shtutser; 2 — rostlash ninasi; 3 — rezina quvurcha;
4 — shisha quvurcha

Nazorat savollari


1. Benzinli motorlar ta'mintlash tizimining vazifasi, uning asboblari.
2. Ta'mintlash tizimining asboblari bir-biri bilan qanday bog'lanib ishlaydi?
3. Oddiy karburator qanday asosiy qismlardan iborat va qanday ishlaydi?
Motorning turli rejimlarda ishlashi uchun aralashma tarkibi qanday bo'lishi kerak?
4. Karburatorlarning qo'shimcha moslamalari (salt ishlash tizimi, asosiy dozalovchi tizimi, ekonomayzeri va tezlatgich nasosi) qachon va qanday ishlaydi?
5. Aralashma oqimi gorizontial yo'naltirilgan karburator motorning turli rejimlarida qanday ishlaydi?
6. Diffuzordagi siyraklanishni o'zgartirish yo'li bilan dozalaydigan karburator qanday asosiy qismlardan iborat va u qanday ishlaydi?
7. Ko'p kamerali karburator qanday afzalliklarga ega va u qanday ishlaydi?
8. Karburatorga texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlari bajariladi?
Karburator qanday tekshirildi va rostlanyadi?

7-boq. DIZEL MOTORLARINING TA'MINLASH TIZIMLARI

1-§. Ta'minlash tizimining umumiylsxemasi

Dizelning ta'minlash tizimi yonilg'iini tozalaydi va uni yuqori bosim bilan yonish kamerasiga purkaydi, shuningdek, silindrлarga kiritiladigan havoni tozalaydi hamda yonilg'i va havodan iborat yonuvchi aralashma tayyorlaydi.

Dizelning ta'minlash tizimi (7.1-rasm) yonilg'i baki (1), dag'al filtr (12) va mayin filtr (4), yonilg'i haydash pompa (11), yonilg'i nasosi (5), forsunka (7) lar, past bosim quvurchasi (13), yuqori bosim quvurchasi (6), havo tozalagich (10), kiritish va chiqarish quvurlari, aylanishlar soni regulatori (15), ta'minlash tizimining boshqarish va tekshirish asboblaridan iborat.



7.1-rasm. Dizel motori ta'minlash tizimining umumiylsxemasi:

1 — yonilg'i baki; 2 — kompensator bakiha; 3 — manometr; 4 — mayin filtr; 5 — yonilg'i nasosi; 6 — yuqori bosim quvurchasi; 7 — forsunka; 8 — yonish kamerasi; 9 — quvur; 10 — havo tozalagich; 11 — yonilg'i haydash pompa; 12 — dag'al filtr; 13 — past bosim quvurchasi; 14 — jo'mrak; 15 — aylanishlar soni regulatori

Yonilg'i bak (1) dan jo'mrak (14) va quvurcha (13) orqali dag'al filtr (12) ga oqib keladi. Filtrda yirik aralashmalardan tozalangan yonilg'i pompa (11) bilan so'rib olinib, filtr (4) ga haydaladi. Yonilg'i mayin filtrda obdan tozalanib, keyin yonilg'i nasosi (5) ga yuboriladi. Yonilg'i nasosi yonilg'inining bir qismini yuqori bosim bilan quvurcha (6) orqali forsunka (7) ga yuboradi. Yonilg'inining forsunkaga yuborilmagan qismi pompaga qaytariladi.

Forsunka yonilg'ini mayda to'zitib, yonish kamerasi (8) ga purkaydi. Yonilg'i kameradagi siqilgan va qizigan havoga aralashib yonuvchi aralashma hosil qiladi va uning issig'idan alangalanib yonadi.

Silindrga kiritiladigan havo havo tozalagich (10) dan o'tkazib changdan tozalanadi va quvur (9) orqali so'riliadi.

Manometr (3) mayin filtrdan yonilg'i nasosiga boradigan yonilg'inining bosimini ko'rsatadi. Manometr bevosita quvurchaga o'matilmasdan, balki quvurchedagi bosimni tekislovchi (kompensator) bakcha (2) orqali biriktiriladi.

2-§. Dizellarda aralashma hosil etish usullari

Yuqorida bayon etilganidek, dizellarda qizigan havoga yonilg'i purkab aralashma hosil qilinadi, purkalgan yonilg'i to'la va tez yonishi uchun siqilgan havo bilan turli usullarda aralashtiriladi.

Aralashma hosil qilish usuliga qarab dizellar bir kamerali va ko'p kamerali xillarga bo'linadi.

Bir kamerali dizellarda (7.2-rasm, a) yonilg'i forsunka (3) yordamida bevosita silindrga, ya'ni porshen (1) tepasidagi yonish kamerasi (2) ga purkalib, aralashma hosil qiladi.

Yonilg'i yuqori bosim bilan mayda to'zilib purkalishi natijasida qizigan havoga yaxshi aralashib yonadi. Yonish kamerasi yarim sterik shaklda yoki o'rtasi do'ng, atrofi chuqurroq qilinadi. Yonilg'inining yaxshi to'zitishi uchun forsunkaning yonilg'i purkaladigan teshiklari juda kichik (0,1 - 0,25 mm) va bir necha dona qilinadi. Undan yonilg'i 30-40 MPa (ayrim hollarda 140 MPa gacha) bosim bilan purkaladi.

Bunday dizellarda yonish kamerasi ixcham bo'lganiigi sababli issiqlik energiyasidan yaxshiroq foydalaniadi. Yonilg'inining solishtirma sarfi kam bo'ladi ($q_e = 231-285 \text{ g/kW soat}$), motorni yurgizib yuborish osonlashadi.

Yonilg'i yuqori bosim ostida purkalishi yonilg'i jibozlarini murakkablashtiradi, yonilg'inining niyoyatda tiniq tozalanishini talab etadi.

Yonilg'i yonganda yuqori bosim hosil bo'ladi va bosim juda tez ko'tariladi. Shu sababli motor baland ovoz chiqarib ishlaydi hamda qismlariga zo'r keladi. forsunka teshiklarini tez qurum bosadi, ana shuning uchun ham bir kamerali aralashma hosil qilish usuli keyingi vaqtida kamroq qo'llaniladi.

Porshenga o'rnatilgan kamerali dizellarda (7.2-rasm, *b*) yonish kamerasining 70% ga yaqin qismi porshen (*1*) ning tubiga joylashtirilgan sferik yoki ellipsoid shaklli kamera (*4*) dan iborat bo'lib, qolgan qismi porshen bilan kallak orasiga joylashtirilgan bo'ladi.

Siqish takti oxirida forsunkadan purkalgan yonilg'inинг ozgina (5% ga yaqin) qismi siqilgan havoga purkalib yonadi, qolgan qismi porshen tubidagi kameraning devoriga yupqa parda tarzda tarqaladi. Yonilg'i kamera devorining issig'idan bug'ga aylanib uyurma harakatga kelib, yonish sohasiga chiqadi. Yonilg'i bug'larining navbat bilan yonishi motorning kuchli shovqin chiqarmasdan va tutamasdan ishlashini ta'minlaydi. Bu usulni pardali aralashma hosil etish yoki M jarayon deyiladi.


Pardali aralashma hosil qilish usulida ham forsunka bir necha teshikli qilinib, yonilg'i 17,5–20,0 MPa bosim bilan purkaladi. Yonilg'inинг solishtirma sarfi 218–245 g/kW soat chamasida bo'ladi. Bu usul keyingi vaqtida borgan sari keng qo'llanilmog'da.

Old kamerali dizellarda (7.2-rasm, *d*) yonish kamerasi porshen tubiga joylashtirilgan asosiy kamera (*6*) va silindr kallagiga joylashtirilgan old kamera (*5*) dan iborat. Siqish taktida havo old kameraga o'tib, unda uyurma harakat qiladi va qiziydi.

Old kameraning hajmi yonish kamerasi hajmining 25–40% ga yaqin qismini tashkil qiladi,unga forsunka (*3*) o'rnatiladi.

Old kamerali purkalgan yonilg'i havoga aralashib, alangananib, old kamerada 20–30% yonadi. Yonilg'inинг qisman yonishi natijasida hosil bo'lgan bosim kuchi ta'sirida aralashma old kameradan asosiy kameraga o'tib, undagi qizigan havoga aralashib, yana to'ziyi va bosim biroz pasayadi. Shu sababli, yonilg'i bir kamerali dizellarga nisbatan pastroq (7,5–13 MPa) bosimda purkaladi.

Old kamerali dizellarning ta'minlash tizimi oddiy tuzilgan, turli rejimda ham durust ishlaydi, bosim ortiqcha ko'tarilmasligi tufayli motor qismlariga kampoq yuklanish tushadi. Lekin yonish kamerasining ko'p sirti sovitalishi natijasida issiqlik ko'proq nobud bo'ladi, shu sababli yonilg'inинг solishtirma sarfi ko'proq ($q_c = 280\text{--}290 \text{ g/kW soat}$), motorni yurgizib yuborish qiyinroq.



7.2-rasm. Dizel moterlari yonish kamerasining shakllari:

- a* — bir kameraли;
- b* — porshenga о'rnatilgan kameraли;
- c* — old kameraли;
- d* — uyurma kameraли;
- 1 — porshen;
- 2 — yonish kameraси;
- 3 — forsunka;
- 4 — porshenga joylashtirilgan kamera;
- 5 — old kamera;
- 6 — asosiy kamera;
- 7 — diffuzorli kanal;
- 8 — uyurma kamera.

Uyurma kamerали dizellarda (7.2-rasm, *e*) yonish kamerаси иккى qismdan iborat bo'lib, uning 20—40% chamasini tashkil etadigan asosiy kamera (6) porshen tubi bilan silindr kallagi orasiga joylashtirilgan. Qolgan qismini tashkil etadigan sferik shaklli uyurma kamera (8) silindrлar kallagiga joylashtirilgan.

Uyurma kamera porshen tepasidagi asosiy kameraga urinma yo'naliшida joylashtirilgan diffuzorli kanal (*7*) vositasida tutashtirilgan.

Siqish taktida havo silindrдан uyurma kamerага katta tezlikda kirib uyurma harakatga kelди va qiziydi. Shu qizigan havoga yonilg'i forsunkadan 8—13 MPa bosim bilan purkaladi. Yonilg'i havoning uyurma harakati yo'naliшida purkalib, havo bilan aralashadi, qiziydi va o'z-o'zidan alangalanadi.

Aralashma uyurma kamerадан asosiy kamerага о'tib, undagi havoga aralashib, yana yonishda davom etadi. Xullas, bunda aralashma

silindrda siqilgan havoning energiyasi va uyurma harakati tufayli hosil bo'ladi.

Uyurma kamerali dizellar turli rejimlarda ham durust ishlaydi, uyurma harakat tufayli silindrlerda yonilg'i yaxshi aralashib, yaxshi yonadi, bu motor quvvatini birmuncha oshirishga imkon beradi hamda motor ravon ishlaydi, shuningdek, old kamerali motorga nisbatan o't oldirish osonroq, $q_c = 258 - 279 \text{ g/kW soat}$. Uyurma kamerali motorning kallagi birmuncha murakkab tuzilgan.

3-§. Yonilg'i purkash payti va uning motor ishiga ta'siri

Benzinli motorlarda yonuvechi aralashma tayyorlash, asosan, karburatorda boshlanib, motorning kiritish quvurlarida davom etadi va kiritish hamda siqish taktlarida silindrlerda tamomlanadi. Siqish takti oxirida svechadan berilgan uchqun ta'sirida alangalanib, asosan, ish yo'li boshlanguncha yonib bo'ladi.

Dizellarda esa, yaxshi to'zimaydigan va bug'ga aylanishi qiyin bo'lgan yonilg'i siqish taktining oxirrog'ida nasosdan quvurcha orqali forsunkaga yuboriladi. Yonilg'i forsunkadan yonish kamerasiga 150—400 m/s tezlikda purkalib, aralashma hosil qiladi. Bu jarayon karburatorli motorlarga nisbatan 40—50 baravar qisqa muddatda sodir bo'ladi. Shu sababli dizellarning silindrlariga normal aralashma hosil etish uchun zatur bo'lgan miqdordan 25—65% ko'proq havo kiritiladi ($\alpha = 1,25 - 1,65$).

Yonilg'inining qaysi paytda purkalishi dizelning quvvatiga, tejamli ishlashiga va boshqa ko'rsatkichlariga katta ta'sir etadi. Yonilg'i purkash payxi tirsakli valning burilish graduslarida ifodalanadi.

Zamonaviy traktor dizellarida siqish taktida porshenning yuqorigi chekka nuqtaga yetib kelishiga 15—40° qolganda yonilg'i nasosdan yuboriladi. Bu burchak nasosdan yonilg'i yuborishni ilgarilash burchagi deb ataladi. Yonilg'i ozroq bo'lsa ham siqilishi, quvurchalarning esa kengayishi va forsunka ninasining yonilg'i purkash uchun ko'tarilishi natijasida yoniig'inining nasosdan yuborilgan paytidan to forsunkadan purkalgunicha tirsakli val birmuncha buriladi. Shu sababli, yonilg'i forsunkadan porshen yuqorigi chekka nuqtaga 6—10° yetmasdan purkaladi. Bu burchak yonilg'i purkashni ilgarilash burchagi deb ataladi. Har bir motor uchun yonilg'i purkashni ilgarilash burchagining optimal (eng samarali) qiyinati tajriba yo'li bilan topiladi.

Agar yonilg'i ilgariroq purkalsa, bu paytda havo yetarli qizimagan bo'lishi mumkin. Bunda yonilg'i yonish kamerasi devorlariga yopishib, chala yonadi va dizel tutab ishlaydi. Lekin shunga qadar havo qizib ulgurgan bo'lsa, motor baland ovoz chiqarib ishlaydi, chunki yonilg'i barvaqt yonib, bosim kuchi siqish taktida yuqoriga ko'tarilayotgan porshenga ta'sir etadi va motor quvvati pasayadi.

Yonilg'i juda kech purkalsa, uning ko'proq qismi ish yo'li taktida silindr hajmi kattalashayotganda yonadi, shu sababli ish yo'li takti boshlanadigan vaqtida silindrda bosim kamayadi. Ishlatilgan gazlarning bosimi va harorati yuqori bo'ladi. Issiqlik silindr devorlariga (sovituvchi suvga yoki havoga) ko'proq o'tadi. Motor ortiqcha qiziydi, quvvati kamayadi va yonilg'inining solishtirma sarfi ortadi.


Dizellarda aralashma hosil qilishini ta'minlash va yonilg'inining to'la yonishi uchun yonilg'i nasosini to'g'ri o'rnatish, nasos va forsunkani vaqt-vaqt bilan rostlash, motor quvvatidan to'la foydalaniib, saft ishleshmini kamaytirish, yonilg'inining belgilangan navlarinigina qo'llash va ta'minlash tizimi asboblariga texnik xizmat ko'rsatish qoidasiga to'la rioya qilish zarur.

4-\$. Yonilg'i baklari, filtri va haydovchi pompalar

Yonilg'i baklari. Yonilg'i bakida yonilg'i zaxirasi saqlanib, traktorlarda motorning kamida 10 soat ishlashi uchun, avtomobillarda esa uning 300—400 km yurishi uchun yetadigan yonilg'i sig'adi. Bak (7.3-rasm) korpusi (*1*) po'lat tunukadan payvandlab yasaladi, mustahkam bo'lishi va yonilg'inining chayqolib urilishini kamaytirish uchun bak ichiga to'siqlar qilinadi.

Traktor yonilg'i bakining bo'g'ziga qopqoq (*3*), filtr (*2*), yonilg'i miqdorini ko'rsatadigan chizg'ich (*4*), tubiga esa ikkita jo'mrak o'rnatilgan. Jo'mrak (*6*) ka ulangan quvurechaning yonilg'i o'tadigan uchi bak tubidan balandroq o'rnatilib, undan ta'minlash tizimining asboblariga yonilg'i boradi. Jo'mrak (*5*) ning teshigi bak tubi bilan bir tekis qilinib, yonilg'i quyqasi shu jo'mrakdan bo'shatib olinadi.

Avtomobillarda bakning yuqorigi devoriga yonilg'i so'rib olinadigan quvurcha va yonilg'i sathi ko'rsatkichining datchigi (6.1-rasm, *2*) o'rnatiladi. Bakning tubida bo'shatib olish tiqini bo'ladi. Avtomobillarda bak jips berkitilib, uning yonilg'i quyiladigan bo'g'ziga bug'-havo klapanchi tiqin o'rnatiladi. Bunday tiqin o'rnatilganda bakdag'i benzin bug'ga ayanib kamaymaydi va bak ichida siyraklanish hosil bo'lmaydi.



7.3-rasm. Traktoring yonilg'i baki:

1 -- bak korpusi; 2 -- filtr; 3 -- qopqoq; 4 -- chizg'ich;
5 -- bo'shatib olish jo'mragi; 6 -- sariflash jo'nuragi; 7 -- dasta

Yonilg'i baklari traktorlarda kabina orqasiga yoki haydovchi o'rindig'ining ostiga o'rnatiladi. Avtomobilarda yonilg'i baklari ramadagi maxsus kronshteynlarga xomutlar bilan mahkamlanadi.

Yonilg'i filtrlari. Motor va yonilg'i jihozlari detallarining yeyilishini kamaytirish hamda karburator va forsunkalardagi kichik teshiklarning ifloslanmasligi uchun yonilg'ini tindirish va tozalash zarur.


Karburatorli motorlarda yonilg'i bakda tinib toza lanishidan tashqari tindirgich filtrda tozalanadi. Tindirgichda mexanik aralashmalar va suv cho'kadi. Tindirilgan yonilg'i sim to'r filtrdan o'tkaziladi. Dizellarda yonilg'i jihozlarining juda aniq yasalgan qismlari, chunonchi nasos gilzasi — plunjeri, forsunka ninasi — to'zitgichining yeyilmasligi uchun yonilg'i nihoyatda toza bo'lmog'i lozim. Shuning uchun yonilg'i bakka quyilishdan oldin, albatta, tindiriladi va maxsus filtrdan o'tkaziladi, motorning o'zida esa dag'al va mayin filtrlaridan o'tkazilib, barcha aralashmalardan uzil-kesil tozalanadi.

Dag'al filtrlar yonilg'ini yirik mexanik aralashmalardan tozalaydi. Dizellarda metall tasmalni va metall plastinali tirkishli dag'al filtrlar qo'llaniladi.

Metall tasmalni filtr (7.4-rasm, a) cho'yan korpus (2), filtrlovchi element (1) va shu elementni prujina (3) orqali qisib turadigan tiqin (4) dan iborat. Korpusning pastki qismida quyqa yig'iladigan chuqurchasi bo'lib, konus tiqin (5) burab ochilib quyqa bo'shatib

olinadi. Fiitrlovchi element qovurg'ali ishlangan po'lat stakan (6) va unga o'talgan jez tasma (7) dan iborat bo'lib, tasma stakanga taqab o'ralganda har 3,6 mm da 0,04—0,09 mm li tirkish hosil bo'ladi.

Yonilg'i filtdan o'tganda tasma o'ramlarining orasidagi tirkishlar kengligiga teng va undan katta aralashmalar filtr korpusida tutilib qoladi.



7.4-rasm. Yonilg'i filtri: a — metall tasmali, b — mayin, d — metall plastinali, e — buklama qog'oz elementli filtri; 1 — metall tasmali filtrlovchi element; 2 va 11 — korpus; 3 — prujina; 4 — qisuvchi tigin; 5 — konus tigin; 6 — stakan; 7 — jez tasma; 8 — metall plastinali filtrlovchi element; 9 — yulduzcha; 10 — disk; 12 — ipli filtrlovchi element; 13 — ip; 14 — filtrlovchi qog'oz; 15 — sim to'r quvurcha; 16 — qopqoq; 17 — filtri korpusi; 18 — karton silindr; 19 — filtrlovchi element; 20 — sterjen; 21 — qopqoq; 22 — uch yo'lli jo'mrak; 23 — tigin bolt.

Metall plastinali filtrning (7.4-rasm, d) filtrlovchi elementi (5) biringketin yig'igan kesikli jez disklar (10) va yulduzcha (9) lardan iborat. Disklar orasida yulduzcha qalinligida (0,07 mm) tirqish hosil bo'ladi va yonilg'i shu tirqishdan o'tganda mexanik qo'shimchalar tutilib filtr korpusiga cho'kadi.

Mayin filtr dag'al filtr tutib qola olmagan mayda mexanik qo'shimchalarni tutib, yonilg'ini uzil-kesil tozalaydi.

Pompadan haydalgan yonilg'i mayin filtrda tozalanib, yonilg'i nasosiga boradi (7.1-rasm, 5). Nasos yonilg'inining ozroq qisminigina forsunkaga yuborib, qolganini yana haydovchi pompaga qaytaradi, pompadan esa yana mayin filtrga boradi. Shunday qilib, yonilg'i mayin filtrdan qayta-qayta o'tib tozalanadi.

Ba'zan dag'al va mayin filtrlari bir korpusga yonma-yon o'rnatiladi (7.4-rasm, b, d). Bu holda yonilg'i bakdan pompaga so'riladi, undan keyin filtrlari orqali yonilg'i nasosiga yuboriladi.

Mayin filtr (7.4-rasm, b) korpus (11), filtrlovchi element (12) va qopqoq (16) dan iborat. Filtrlovchi element sim to'r quvurcha (15) ga bir necha qavat zinchlab o'ralgan xom pishitilgan paxta ip (13) va filtrlovchi qog'oz (14) dan iborat bo'lgan g'altak ko'rinishida yasalgan. Yonilg'i filtrdan o'tkazilganda barcha ifoslari shu ipda va qog'ozda tutilib qoladi. Dizellar filtrida 1 dan 6 tagacha element bo'ladi.

3, 4 t sinf traktorlar motorida ip filtr elementli, mayin filtr o'rniغا buklama qog'oz elementli filtrlar (2TФ-2) ham qo'llaniladi (7.4-rasm, e).

Filtrlar korpusi (17) umumiy qopqoq (21) bilan berkitilgan. Qopqoqqa haydash pompasidan yonilg'i keladigan va filtrlangan yonilg'i nasosga boradigan quvurchalar, uch yo'lli jo'mrak (22) va havo chiqarish ventili o'rnatilgan. Filtrlovchi element (19) teshikli karton silindr (18) ichiga joylashtirilib, garmencha shaklida buklangan pishiqliq qog'oz silindrdan iborat. Silindraning ustti va osti metall plastina bilan berkitilib, sterjen (20) ga o'rnatilgan.


Rasmdagi I sxemada filtrlarning parallell ishlashi, II sxemada o'ng tomondagi seksiyaning yuvilishi ko'rsatilgan; buning uchun jo'mrak 90° buriladi va tijin-bolt (23) 1,5 – 2 marta burab bo'shatiladi. Bolt teshigidan tiniq yonilg'i tushguncha yuvish kerak. Chap seksiya ham shu tarzda yuviladi, buning uchun jo'mrak ish holatidan chap tomonga 90° burilishi lozim.

Yonilg'i haydovchi pompalar. Avtomobilarda yonilg'i baki karburatorдан past joylashtirilgan. Yonilg'ini bakdan karburatorga majburan yuborish uchun maxsus haydash nasosi o'rnatiladi. Dizellarda bakdan

keladigan yonilg'ini mayin filtrdan bosim bilan o'tkazib asosiy nasosga yuborish uchun haydovchi pompa deb ataladigan yordamchi nasos o'rnatiladi.

Yonilg'i uzatish tizimlarida diafragmali, porshenli, shesternali va kolovorotli nasoslar qo'llaniladi.

Tindirgich stakanli diafragmali yonilg'i nasosi (7.5-rasm, a) karburatorli motorlarda qo'llanilib, taqsimlash valining ekssentrigi (1) dan harakatga keltiriladi. Ekssentrik ikki yelkali richag (2) ning o'ng uchini ko'targanda chap uchi shtok (4) orqali diafragma (6) ni pastga tortadi. Bunda diafragmaning prujinasi (5) siqiladi, diafragma tepasida siyraklanish hosil bo'lib, kiritish klapani (8) ochiladi va stakan (9) ichiga yonilg'i kirib, u sim to'rdan o'tib diafragma tepasidagi bo'shlinqni to'ldiradi.



7.5-rasm. Diafragmali yonilg'i nasosi:

- a — tindirgich stakanli; b — tindirgich stakansiz; 1 — ekssentrik;
- 2 — richag; 3 — qo'l bilan harakatga keltirish richagi; 4 — shtok;
- 5 — prujina; 6 — diafragma; 7 — haydash klapani; 8 — kiritish klapani;
- 9 — stakan; 10 — koromislo; 11 — shtanga

Ekssentrik richagni itarmasa, diafragmaning prujinasi (5) kerilib, diafragma tepaga bukiladi, kiritish klapani (8) yopiladi, haydash klapani (7) esa ochilib, yonilg'i nasosdan karburatorga boradi. Diafragmaning prujinasi 0,01—0,03 MPa bosim hosil qiladi.


Qalqovuchli kamerada yonilg'i sathi normal bo'lganda yuboriladigan yonilg'i bosimi karburatorning ninasimon klapanini ocha olmaydi. Bu holda nasos yonilg'i yubormaydi, diafragma (6) pastki holatda turadi,

richag (2) salt ishlaydi. Motor ishlamagan vaqida karburatorning qalqovuchli kamerasiga yonilg'i to'ldirish uchun nasosning richagi (5) qo'l bilan harakatga keltiriladi.

Tindirgich stakansiz diafragmali yonilg'i nasosi (7.5-rasm, b) silindrлari «V» simon tarzda joylashtirilgan avtomobilarda qo'llanilib, harakat ekssentrik (1) dan shtanga (11) orqali koromislo (10) ga uzatiladi. Bu nasosning kiritish klapani (8) ikkita. Ishlash prinsipi tindirgichli nasosga o'xshashdir. Ba'zi katta avtomobillar nasosining kiritish va haydash klapanlari uchtdan bo'lib, yana ham yuqori unumliroqdir.

Porshenli haydovchi pompa (7.6-rasm, a) cho'yan korpus (11), prujina (2) li porshen (13), sterjen (7) va prujina (10) li rolikli turtgich (8), prujinali kiritish klapani (5) va haydash klapani (1) dan iborat. Pompaning korpusiga, kiritish klapanining ustiga dastaki nasos o'rnatilgan. Pompa yonilg'i nasosi vali (9) ning kuлаchogidan yoki alohida ekssentrikdan harakatga keltiriladi.

Nasosning valigi (9) aylanmaganda kiritish va haydash klapanlari o'z prujinalarining bosimi ta'sirida yopiq turadi. Valik aylanganida kuлаchok turtgich (8) va shtok (7) orqali porshen (13) ni yuqoriga siljitaladi, bunda prujina (10) siqiladi. Porshenning tepasidagi yonilg'inining bosimi ortib, kiritish klapani (5) yopiladi, haydash klapani (1) esa ochiladi va




7.6-rasm. *Porshenli haydovchi pompa:*

a — tayyorlov yo'lli; b — ish yo'lli; 1 — haydash klapani; 2 — prujina; 3 — berkituvchi zoldir; 4 — dastaki nasos silindri; 5 — kiritish klapani; 6 — quvurcha; 7 — sterjen; 8 — turtgich; 9 — nasos valigi; 10 — prujina; 11 — korpus; 12 — kanat; 13 — porshen; 14 — filtr kanali

porshen tepasidagi yonilg'i kanal (12) orqali porshen tagiga o'tadi. Kulachok turtgichni ko'tarmaganda (7.6-rasm, b) porshen, shtok va rolik prujina (10) ta'sirida pastga tushib, porshen ostidagi yonilg'i kanal (12) orqali mayin filtr kanali (14) ga bosim bilan chiqariladi. Bunda porshen tepasida siyraklanish hosil bo'lib, haydash klapani (7) yopiladi, kiritish klapani (5) esa ochiladi, porshen tepasidagi bo'shliqqa quvurcha (6) dan yonilg'i so'rildi.

Nasosning valigi (9) aylangan sari pompa shu tarzda ishlay beradi. Agar mayin filtrning ifloslanishi yoki yonilg'inинг kam sarflanishi natijasida porshen ostidagi yonilg'i bosimi ko'tarilsa, u porshen tepasidagi prujinaning kerilishiga to'sqinlik qilib, porshenning yo'lini qisqartiradi, yonilg'i sarflammay porshen tagidagi bosim 0,15—0,17 MPa ga yetganida ham porshen pastga siljimaydi.



7.7-rasm. Shesternali haydovchi pompa:

1 — kiritish klapani; 2 — haydash klapani; 3 — korpus;
4 — yetaklanuvechi shesterna; 5 — yetakechi shesterna; 6 — o'tkazish klapani

Pompaning dastaki nasosi yordamida dizelning ta'minlash tizimi yonilg'iiga to'latiladi va tizimdag'i havo chiqarib yuboriladi. Dastaki nasos silindr (4), qopqoq, berkituvchi zoldir (3) va dastali sterjendan iborat. Dastaki nasosni ishlatalish uchun uning dastasi burab chiqariladi, keyin mayin filtrning puflash ventilidan havo pufakchalari chiqib ketib, toza yonilg'i chiqmaguncha dam berilaveradi.

Shesternali haydovchi pompa (7.7-rasm) korpus (3) ichiga joylashtirilgan yetakchi (5) va yetaklanuvchi (4) shesterna, o'tkazish klapani (6) dan iborat.

Pompaning yetakchi shesternasi (5) regulator valigidan harakatga keltirilganda yetaklanuvchi shesterna (4) ham aylanib, shesterna tishlarining orasiga yonilg'i qamrab olinadi. Shesternalarning tishlari bir-biriga tishlashganda yonilg'i ular orasidan siqib chiqarilib, bosim bilan filtrga yuboriladi. Filtrning ifloslanishi yoki yonilg'inинг kam sarflanishi sababli yonilg'i chiqariladigan bo'shiqdagi bosim ko'tarilsa, o'tkazish klapani (6) ochilib, yonilg'i korpusning so'rish bo'shilg'iga o'tadi. Rasmida yonilg'inинг harakat yo'nalishi strelkalar bilan ko'satilgan.

Pompaning dastaki nasosi porshenli pompalardagi singari ishlaydi, unda kiritish (1) va haydash (2) klapanlari bor.


5-§. Yonilg'i nasoslari

Yonilg'i nasosi motor silindrlerining forsunkasiga yuqori bosim bilan yonilg'i yuboradi. Yonilg'i ma'lum fursatdan keyin, ma'lum paytda va dizelning yuklanishiga munosib miqdorda va bir me'yorda yuborilib, forsunkadan yonish kamerasiga purkaladi.

Traktor dizellarida, asosan, ko'p plunjерli nasoslar qo'llanilib, motorning nechta silindri bo'lsa, nasosning shuncha elementi bo'ladi. Ba'zi traktorlarga bir plunjерli nasos o'rnatilgan. Bunday nasos bitta nasos elementi va motorning ishlash tartibiga qarab barcha forsunkalarga galma-gal yonilg'i yuboradigan taqsimlovchi qismidan iborat.

Ko'p plunjерli yonilg'i nasosi (7.8-rasm) nasos elementlari joylashgan kallak, plunjерlarning harakatlantirish mexanizmi va yuboriladigan yonilg'i miqdorini o'zgartiradigan mexanizmdan iborat. Kallak (7) korpus ustiga mahkamlanadi. Nasos mexanizmlari korpus (2) ichiga joylangan.

Ko'p plunjерli nasos elementlari umumiyl kallakka o'rnatiladigan seksiyasiz va nasos elementlari alohida korpusga joylashtirilgan seksiyali bo'ladi.




7.8-rasm. Ko'p plunjjerli yonilg'i nasosi (4TH-8,5x10T):

1 — reyka; 2 — korpus; 3 — plunjjer; 4 — klapan; 5 — gilza; 6 — haydash klapani; 7 — kallak; 8 — «II» simon kanal; 9 — xomot; 10 — shesterna; 11 — shlitsali disk; 12 — mufta; 13 — kulachokli val; 14 — turtgich

Nasos seksiyasi va uning elementlari 7.9-rasmida, nasos elementining ishlash sxemasi 7.10-rasmida keltirilib, ayrim qismlari ikkala rasmida bir turli raqamilar bilan belgilangan.

Nasos elementi gilza (7) ichida ulgarilama-qaytma harakatlanadigan plunjjer (4) va prujina (5) li haydash klapani (3) dan iborat. Nasosning kulachokli vali (13) taqsimlagich shesterna (10) orqali dizelning tirsaklı validan harakatga keltiriladi.

Kulachok (1) (7.9-rasm) aylanganda uning do'ngi turtgich (2) ni, turtgich esa plunjjer (4) ni ko'taradi. Bunda plunjerning prujinasasi (3)




7.9-rasni. Nasos seksiyasi (a) va uning elementlari (b):

- 1 - kulachok; 2 - turtgich; 3 va 9 - prujina; 4 - plunjер; 5 - «П» simon kanal; 6 - kallak; 7 - gilza; 8 - haydash klapani; 10 - shütser;
- 11 - haydash klapanining belbogi; 12 - haydash klapani uyasi;
- 13 - pastki teshik; 14 - yuqorigi teshik; 15 - plunjerning vertikal kanali;
- 16 - plunjerning radial kanali, 17 - vintsimon o'yiq; 18 - halqasimor o'yiqcha; 19 - povodok; 20 - shyba

siqiladi. Kulachok do'ngi turtgichdan chetga burilganda prujina kerilib shayba (20) plunjerni pastga siljitadi.

Gilzaning devorida ikkita: yonilg'i kiradigan yuqorigi (14) va yonilg'i qaytib chiqadigan pastki (13) teshik bor. Ikkala teshik o'zaro nasos korpusining kallagidagi «П» simon kanal (5) vositasida tutashtirilgan.

Plunjер pastga siljiganda (7.10-rasm, *a*) uning tepasida siyraklanish hosil bo'ladi va mayin filtrdan kelgan yonilg'i gilza (*7*) ning yuqorigi teshigi (*14*) dan kirib, plunjер (*4*) tepasidagi bo'shliqni to'ldiradi. Plunjер yuqoriga ko'tarilib, shu teshikni berkitgandan keyin, plunjер tepasidagi yonilg'ini siqa boshlaydi. Yonilg'inining bosimi tez oshib, prujina (*9*) ning kuchini yengib, haydash klapani (*8*) ni ochadi va yonilg'i shtutser (*10*) orqali yuqori bosim quvurchasidan forsunkaga o'tadi (7.10-rasm, *b*, *c*).



7.10-rasm. Nasos elementining ishlash sxemasi:

a — gilzaga yonilg'i to'lishi; *b* — yonilg'i yuborishning boshlanishi;
c — yonilg'i yuborishning tamomlanishi (raqamlar 7.9-rasmdagidek belgilangan)

Plunjerning sirtidagi halqasimon ariqcha (7.9-rasm, *18*) ning yuqorigi qirrasi gilzaning yonilg'i qaytib chiqadigan pastki teshigi (*13*) ga ro'para kelguncha forsunkaga yonilg'i yuborish davom etadi.

Plunjerning qiya kesikli ariqchasi gilzaning pastki teshigiga tutashishi bilan plunjerning tepasidagi yonilg'i vertikal (*15*) va radial (*16*) kanallar orqali nasosning kallagi (*6*) dagi «II» simon kanal (*5*) ga oqib chiqadi. Natijada plunjер tepasidagi yonilg'inining bosimi pasayadi, haydash klapani (*8*) prujinaning kerilish kuchi ta'sirida yopiladi va forsunkaga yonilg'i yuborish to'xtaydi (7.10-rasm, *d*).

Haydash klapanining belbog'i (*11*) uyasi (*12*) teshigiga jips kirib, yuqori bosim quvurchasini plunjerning tepasidagi bo'shliqdan ajratadi, shunda quvurchedagi yonilg'i bosimi keskin kamayib, forsunkadan silindrga yonilg'i purkash tez to'xtaydi.

Motor hosil qiladigan quvvat forsunkadan purkaladigan yonilg'inining miqdoriga bog'liq. Salt ishlaganda to'la yuklanishda ishlagandagiga

nisbatan 3—4 baravar kam yonilg'i purkaladi. Nasosdan forsunkaga yuboriladigan yonilg'ining miqdorini o'zgartiruvchi mexanizm (7.8-rasm) reyka (*1*) va to'rtta xomut (*9*) dan iborat. Xomutning kesigiga plunjerning povodogi kirkizilgan. Reyka regulatorga ulangan bo'lib, u surilganda xomutlar plunjelerlarni baravar buradi. Agar plunjер povodok (*19*) bilan (7.9-rasm, *b*) A tomonga burisa, vintsimon o'yiq (*17*) yonilg'i qaytib chiqadigan teshik (*13*) ka kechroq tutashadi, ya'ni plunjerning ish yo'li uzayadi, forsunkaga ko'proq yonilg'i yuboriladi. Plunjер *B* tomonga burilgan sari uning ish yo'li qisqaraveradi, forsunkaga yonilg'i yuborish ilgariroq tugatiladi. Natijada purkaladigan yonilg'ining miqdori kamayadi.

Plunjerni burib, vintsimon o'yiqning vertikal ariqchasi (*15*) yonilg'i qaytib chiqadigan teshik (*13*) ning ro'parasiga keltirilsa, plunjер tepasidagi yonilg'i plunjер ko'tarilganda shu teshikdan qaytib chiqib, forsunkaga bormaydi va motor to'xtaydi. Plunjerga yonilg'i kiradigan «II» simon kanalning (7.8-rasm, *8*) uchiga klapan (*4*) o'rnatilgan. Bu klapan kanaldagi yonilg'i bosimini 0,05—0,09 MPa chamasida saqlaydi.

Plunjeler kulachokli val (*13*) va to'rtta rolikli turkich (*14*) dan iborat mexanizm bilan harakatga keltiriladi. Kulachokli val motorning tirsaklı valiga nisbatan ikki marta sekin aylanadi. Kulachokli val mufta (*12*) va shlitsali disk (*11*) orqali shesterna (*10*) dan harakat oladi. Bu shesterna tirsaklı valning taqsimlovchi shesternasidan harakatga keltiriladi. Shlitsali disk (*11*) ni shesterna (*10*) gupchagiga biriktirish uchun ularda 14 tadan teshik bor. Shesternaning gupchagidagi teshiklar bir-biriga nisbatan $22^{\circ}30'$, shlitsali diskning teshiklari esa 21° burchak hosil etadigan qilib teshilgan. Disk va shesterna teshiklarining faqat ikkitasi **bir**-biriga to'g'ri kelishi mumkin. Yondosh teshigi to'g'ri kelishi uchun diskni shesternaga nisbatan $1^{\circ}30'$ burish lozim. Shu to'g'ri kelgan teshiklar orqali vint burab kirkizib, shesterna diskka biriktiriladi. Shlitsali disk kulachokli valning muftasiga qat'iyan ma'lum holatda biriktiriladi.


Nasosdan yonilg'i yuborila boshlash payti, kulachokli val (*13*) bilan birga shlitsali diskni shesternaga nisbatan burib o'rnatib o'zgartirilishi mumkin.

Rolikli turtgichlar korpus teshiklariga kirkizilib, roliklar kulachokka tiralib turadi. Turtgich (*14*) larning rostlash vinti bor. Bu vintlarni burab nasos elementlarining yonilg'i yubora boshlash paytini o'zgartirish va barcha seksiyalarining yonilg'i yuborish paytini tenglash mumkin.

Barcha nasos elementlarining baravar miqdorda yonilg'i yuborishi xomutlarning reykada turish holatini o'zgartirib rostlanadi.

Nasosning korpusiga quyish teshigiga qadar dizel moyi quyilib, shu moy bilan nasos kallagining tagida joylashgan detallar moylanadi. Gilza va plunjer ularning orasidan sizib o'tadigan yonilg'i bilan moylanadi.

Bir plunjerli nasos (7.11-rasm) ko'p plunjerli nasosga nishbatan ixcham. 2–3 baravar yengil va qismlari kamroq bo'lib, barcha silindrarga teng miqdorda yonilg'i yuboradi. OHM-4 markali bu nasos ko'p plunjerli nasos o'rniغا o'rnatilishi mumkin.



7.11-rasm. Bir plunjerli nasos (OHM-4):

- 1 — korpus; 2 — regulator; 3 — friksion yuritma; 4 — turtgich; 5 — nasos vali;
- 6, 14 — prujina; 7 — rolik; 8 — kulachokli shayba; 9 — tirak; 10 — o'tkazish klapani; 11 — plunjer; 12 — haydash klapani; 13 — shtutser; 15 — kallak;
- 16 — restlash mustasi; 17 — haydovchi pompa; 18 — dastaki nasos;
- 19 — boshqarish richagi; 20 — richag povodogi; 21 — povodok

Bir plunjerli nasosning korpusi (1) ga regulator (2) joylashtirilgan, sirtiga esa shesternali haydovchi pompa (17) va dastaki nasos (18) o'matilgan. Nasosning o'zi plunjer (11), rostlash mustasi (16), forsunkalarga yonilg'i chiqariladigan to'rtta shtutser (13) o'matilgan kallak (15), harakatlantirish mexanizmi, mayin filtridan yonilg'i keladigan shtutser va ortiqcha yonilg'ini pompaga o'tkazadigan shtutserdan ibora. Nasos plunjeri (11) ning (7.12-rasm) markaziy kanali (d), radial kanali (g), to'xtatuvchi


o'yig'i (*f*) va markaziy kanalga tutashtirilgan to'rtta taqsimlovchi o'yig'i (*b*) bor.

Nasos kallagi (*15*) ning mayin filtridan yonilg'i keladigan shtutseri, plunjер tepasiga yonilg'i boradigan kiritish kanali (*h*), shtutser (*13*) larga yonilg'i yuborish kanali (*a*) va kiritish kanali bilan tutashgan bo'shilg'i (*e*) bor.

Yonilg'i yuborish kanaliga ko'p plunjерli nasosdagidek egar va shtutserli haydash klapani (*12*) o'rnatilib, u ochilganda yuqori bosim quvurchalari orqali forsunkalarga yonilg'i boradi. Plunjер motorning tirsakli valiga nisbatan ikki marta sekin aylanadi va bir marta aylanishi davomida to'rt marta (har 90° burilganda) ilgarilama-qaytma harakat qildi.

Plunjер (*11*) prujina (*6*) ning kerilish kuchi bilan o'ngga siljiganda uning tepasida siyraklanish hosil bo'ladi. Plunjerning yuqorigi qirrasi kiritish kanali (*h*) ni ochishi bilan plunjер tepasiga, shuningdek, plunjerning markaziy kanaliga va ajratuvchi o'yig'iga yonilg'i to'ladi (7.12-rasm, *I*).

Plunjер harakatlantirish mexanizmi yordamida chapga surilganda kirgan yonilg'ining bir qismi kiritish kanaliga qaytariladi, bu yonilg'i



7.12-rasm. Bir plunjерli nasosning ishlash sxemasi (OHM-4):

I — yonilg'i to'lishi; *II* — yonilg'i yuborishning boshlanishi; *III* — yonilg'i yuborishning tamomlanishi; *a* — yonilg'i yuborish kanali; *b* — taqsimlovchi o'yig'i; *d* — markaziy kanali; *e* — bo'shilg'; *f* — to'xtatuvchi o'yig'; *g* — radial kanali; *h* — kiritish kanali (raqamlar 7.11-rasmdagidek belgilangan)

o'tkazish klapani (*10*) ni ochib pommpaga qaytib boradi. Plunjер kiritish kanali (*h*) ni berkitgandan keyin plunjер tepasida qolgan yonilg'ini siqa boshlaydi. To'xtatuvchi o'yiq (*j*) bu vaqtida rostlash mustasi (*16*) bilan yopiq bo'lganligi sababli yonilg'i plunjerning markaziy kanali (*d*) va radial kanali (*g*) bo'yab taqsimlash o'yig'i (*b*) ga kiradi (7.12-rasm, *II*).

Plunjер aylanib, yonilg'i chiqariladigan to'rtta kanal (*a*) ni o'zining taqsimlash o'yig'i (*b*) vositasida plunjerning tepasidagi bo'shlqdä navbat bilan tutashtiradi. Siqilgan yoniig'ining bosimi prujina (*14*) ning qarshiligini yengib, yuqori bosim quvurchalari orqali forsunkalarga boradi. To'xtatuvchi o'yiq (*f*) rostlash mustasi (*16*) dan chiqishi bilan yonilg'i borishi to'xtaydi, chunki plunjер ustidagi bo'shlq yonilg'i qaytib chiqadigan bo'shlq (*e*) qa (past bosim bo'shlq'iga) tutashadi (7.12-rasm, *II*).

Motor silindrlariga yuboriladigan yonilg'ining miqdorini o'zgartirish uchun rostlash mustasi (*16*) ning turish holati, shu bilan birga plunjerning yonilg'ini yuborish yo'li o'zgartiriladi. Rostlash mustasi (*16*) povodok (*21*) va regulator richagini povodogi (*20*) orqali yonilg'i yuborishni boshqarish richagi (*19*) yordamida tegishli holatga o'rnatiladi.

Traktorchi akselerator richagini oldinga sursa, rostlash mustasi chapga surilib, to'xtatuvchi o'yiq rostlash mustasidan kechroq chiqadi, natijada plunjerning faol yo'li ortib, yonilg'i ko'proq yuboriladi. Musta o'ngga surilganda plunjerning yonilg'i yuborish yo'li kamayadi, ya'nii yonilg'i oz yuboriladi.

Nasos plunjeringin harakatlantirish mexanizmi prujina (*6*) li turtgich (*4*), ikki kulachokli shayba (*8*), nasos vali (*5*) va valni harakatga keltiradigan detallardan iborat. Turtgich tirak (*9*) orqali nasos vali va ikki kulachokli shayba bilan biriktirilgan. Nasos vali (*5*) ning oldindi uchida shlitsa yasalgan bo'lib, u ko'p plunjerli nasoslardagi singari harakatlantirish shesternasiga biriktirilgan.

Ikki kulachokli shayba (*5*) turtgich prujinasi (*6*) kuchi bilan doimo to'rtta rolik (*7*) ka siqilib turadi. Roliklar o'qqa o'rnatilgan. Nasos vali bir marta aylanganda shaybaning kulachoklari rolikka to'rt marta tiraladi. Natijada shayba, turtgich va plunjер chapga siljib, yonilg'ini siqadi. Shaybaning kulachoklari rolikka tiralmaganda turtgichning prujinasi plunjerni o'ngga siljitadi.

Nasosning regulatori friksion yuritma (*3*) orqali shesternalardan harakatga keltiriladi. Nasosning ishqalantuvchi qismlari nasos korpusiga quyilgan moy bilan moylanadi.

6-§. Forsunkalar

Forsunka nasosdan yuboriladigan yonilg'ini dizelning yonish kamerasiga ma'lum bosimda purkab (mayda to'zitib) beradi (2.12-rasm, 7). Ochiq va yopiq forsunkalar bo'ladi. Silindrga yonilg'i purkal-magan vaqtida yopiq forsunkaning ninasi purkash teshigini berkitib forsunkaning ichki qismini silindrden ajratib turadi. Yopiq forsunkalar berkitadigan ninasining tuzilishiga qarab, shtiftli va shtiftsiz forsunkalarga bo'linadi.

Shtiftli forsunka (7.13-rasm, a) korpus (4), to'zitgich (1), to'zitgich ninasi (2), siquvchi gayka (3), shtanga (5), prujina (6) rostlash vinti (8), yonilg'i kiradigan va sizib o'tgan yonilg'i chiqadigan shtutserlardan iborat.


Forsunka o'zining flanesi bilan silindrler kallagiga mahkamlanib, ostiga zichlovchi qistirma qo'yiladi. To'zitgichning ignasi siqilgan prujina ta'sirida to'zitgich teshigini jips bekitadi.

Yonilg'i yuqori bosim quvuruchasidan kanal (12) orqali forsunkaga kiradi. Yonilg'i forsunka korpusidagi va to'zitgichdagi kanallardan o'tib, to'zitgich ninasining pastki qismidagi halqasimon bo'shliqqa keladi (7.13-rasm, b). Yonilg'i bosimi prujina (6) ning siqish kuchini yengib, ninani 0,35—0,4 mm ga (nina korpus chekkasiga tiralguncha) ko'taradi. Shunda to'zitgich teshigi bilan ninanining konus uchi orasida halqasimon tirkish hosil bo'ladi va yonilg'i shu tirkishdan purkalib to'zitiladi.

Yonilg'ining purkalish bosimi, asosan, prujinaning elastiklik kuchiga bog'liq. Prujinaning elastikligi rostlash vinti (8) bilan o'zgartiriladi. Vintning kontrgaykasi (9) bor, ustidan qalpoq (10) bilan berkitiladi. Rostlash vinti prujina gaykasi (7) ning rezbali teshigidan burab o'tkaziladi. Prujina gaykasi forsunka korpusiga burab qo'yilgan.

Yonilg'i bosimi belgilangan darajaga yetgandagina igna ochiladi va nasosdan yonilg'i yuborish to'xtashi bilan (nasos haydash klapanining belbog'chasi yonilg'ini qisman qaytarishi tufayli) nina darhol yopiladi, ya'ni forsunka ninasi birdaniga ochilib, keskin yopiladi, chunki nasos vali kulachogining shakli shunday qilingan. To'zitgich korpusi bilan igna orasidan oz miqdorda sizib o'tgan yonilg'i yuqorigi shtutser (11) dan tashqariga chiqishi mumkin. Buning uchun forsunkaning yonilg'i qaytib chiqadigan maxsus quvurchasi bor.

7.13-rasm, a da keltirilgan $\Phi 13-1,4 \times 15^{\circ}$ turidagi shtiftli forsunka yonilg'i purkash teshigining diametri 1,5 mm, purkash konusi 15° ga teng.




7.13-rasm. Forsunkalar:

a — shtiflti; b — shtiftsiz; d — ko'p teshikli; I — to'zitgich;
 2, 16 — to'zitgich ninasi, 3, 17 — siquvchi gayka; 4 — korpus;
 5 — shtanga; 6 — prujina; 7 — prujina gaykasi; 8 — rostlash vinti;
 9 — kontrgayka; 10 — qalpoq; 11 — shtutser; 12, 17 — kanallar;
 13 va 19 — gayka; 14 — disk; 15 — to'zitgich;
 18 — shtift; 20 — filtr

Shtiftsiz forsunkaning (7.13-rasm, b) to'zitgichi (15) ga disk (14) ishqalab moslanib, ikkita o'rnatish shtiftiga mahkamlanadi. To'zitgich teshigiga nina (16) kirgizilib, u disk teshigini berkitib turadi. To'zitgich disk bilan birga korpus (4) ga gayka (13) yordamida siqb qo'yilgan.

Ko'p teshikli shtiftsiz forsunka (7.13-rasm, d) to'zitgichi (15) ning 3—5 ta teshigi bor. To'zitgichning korpusiga nisbatan ma'lum holatda turishi shtift (18) bilan ta'minlanadi. Forsunkaga yonilg'i keladigan shtutserga filtr (20) o'rnatilgan. Forsunka silindrлar kallagi teshigiga gayka (19) bilan mahkamlanadi.

7-§. Yonilg'i quvurchalari



7.14-rasm. Yuqori bosim quvurchasi:

1 — quvurcha; 2 — qalpoq gayka; 3 — siquvchi halqa

Ta'minlash tizimining asboblari bir-biriga yonilg'i quvurchalari bilan birlash-tirilib, ular past bosim va yuqori bosim quvurchalariga ajraladi. Past bosim quvurchalari karburatorli va dizel motorlarda yonilg'i baki, filtr, nasos va karburatorga yonilg'i yuborish uchun qo'llaniladi. Bu quvurchalar mis, jez yoki po'latdan yasalib, konus yoki sferik shaklli uchliklar va gaykalar bilan shtutserlarga biriktiriladi.

Yuqori bosim quvurchalari (7.14-rasm) dizellarda yonilg'i nasosidan for-sunkalarga yonilg'i yuborishga mo'ljalangan. Bunday quvurcha (1) po'latdan yaxlit (choksiz) qilib yasaladi, devori qalin (2,5—3 mm) bo'ladi.

Quvurchani nasos va forsunka shtutseriga biriktirish uchun unga qalpoq gayka (2), siquvchi halqa (3) kiygizib, so'ngra uchi cho'ktirilib, konus shakliga keltiriladi.

Yuqori bosim quvurchalarining uzunligi yonilg'i purkalish paytiga va bosimiga ta'sir etadi, shu sababli ba'zi motorlarda barcha forsun-kalarga ulanadigan quvurchalar baravar uzunlikda qilinadi.

8-§. Ta'minlash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish

Motor ta'minlash tizimining bekam-u ko'st ishlashi yonilg'i va havo yuborish asboblarining durust ishlashiga bog'liq. Yonilg'i baki, filtr va pompaning eng ko'p uchraydigan kamchiligi — olarning ifloslanib qolishidir. Yonilg'i saqlash, tashish va quyish qoidalariiga rivoja qilmaslik natijasida yonilg'i baki va filtrlar ifloslanadi.

Yonilg'i ifloslanmasligi uchun uni idishdan idishga kamroq quyish, traktorga quyishdan oldin kamida 2—3 kun tindirish, bakka filtrlri nasos bilan quyish zarur. Dizelni bakdag'i yonilg'inining kamida 10—15% qolguncha ishlatalish va har gal yonilg'i quyishdan oldin bakdan 4—6 l quyqa yonilg'ini tushirib olish lozim. Bakning sim to'r filtrini va qopqog'idagi tiqinni vaqtiga vaqtiga bilan yuvib turish kerak.

Tindirgich filtr va dag' al filtrlarga texnik xizmat ko'rsatish ularda hosil bo'lgan quyqani bo'shatib olish, filtr korpusini va filtrlovchi elementni yuvishdan iborat. Dag' al filtr kerosinda yoki dizel yonilg'isida yuviladi.

Mayin filtrga texnik xizmat ko'rsatish uning korpusini quyqadan bo'shatish, yuvish va filtrlovchi elementni almashtirishdan iborat.

Filtrlovchi element ifoslansa, sirti kirlanadi. Agar yonilg'i manometri 0,02 MPa ga yaqin bosimni ko'rsatsa va elementning sirtini kir bosgan bo'lsa, filtr ipining ustki qavati va filtrlovchi qog'ozi olib tashilanadi. Bu elementlar yana ifoslansa, hammasi birdaniga almashtiriladi.


Haydovchi pompaning klapanlari jips yopilmasa, dizel ravon ishlamaydi va manometrning mili tebranib turadi. Bu kamchilikni yo'qotish uchun pompaning klapanlari, prujinasi va boshqa detallari dizel yonilg'isida yuviladi.

Nasos va forsunkalarga texnik xizmat ko'rsatish. Nasos va forsunkalarning kamchilikligi dizelning ishlashiga katta ta'sir etadi, chunonchi: motorning o't olishi qiyinlashadi, ravon ishlamaydi, tutab ishlaydi, quvvati pasayadi, yonilg'ining solishtirma sarfi ortadi va hokazo. Yonilg'i yuborish tizimiga havo kirib qolishi, yonilg'i purkash payti noto'g'ri o'rnatilishi, forsunka yonilg'ini yaxshi to'zitmasligi, turli forsunkalarga yonilg'i baravar miqdorda, teng bosimda va belgilangan paytda yuborilmasligi natijasida nasos, forsunka va quvurchalarda kamchiliklar yuz beradi.

Dizelning ta'minlash tizimidagi kamchiliklar ko'pincha yonilg'i ifosligidan, nasos va forsunkalarning noto'g'ri o'rnatilishi, to'g'ri rostlanmagantligi, qismlarining yeyilishi va, asosan, ularga texnik xizmat ko'rsatish qoidalarining buzilishi natijasida sodir bo'ladi.

Nasos, forsunkalar har kuni changdan tozalanadi, yonilg'ining sizishiga va havoning tashqaridan so'rilishiga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi, sirti artib tozalanadi va mahkamlanadigan qismlari burab qotiriladi. Nasos va regulator korpusidagi moyning sathi har kuni tekshiriladi, ma'lum vaqt ishlagandan keyin almashtiriladi. Yangi moy quyishdan oldin nasosga dizel yonilg'isi quyiladi, motor 2—3 daqiqa ishlataladi, keyin yonilg'i bo'shatib olinib, yangi moy quyiladi.

Yonilg'i filtrlari yuvilganda, almashtirilganda, shuningdek, dizel uzoq vaqt to'xtatib qo'yilganda yonilg'i yuborish tizimiga havo kirib qoladi. Bu motorning ravon ishlashini buzadi, hatto, ko'pincha uni o't oldirib bo'lmaydi. Tizimdan havoni chiqarish uchun yonilg'i bakining jo'mragi va dag' al filtrning havo chiqadigan tijini burab ochiladi,



7.15-rasm. Momentoskop:

- 1 — yuqori bosim quvurchasi;
- 2 — rezina mufta;
- 3 — shisha quvurcha

rasiga) ko'rsatgich mil qo'yiladi. Dizelning tirsakli vali momentoskopining shisha quvurchasiga yonilg'i to'lguncha aylantiriladi. Rezina muftani qo'l bilan qisib shisha quvurchadagi yonilg'ining bir qismi chiqariladi. Tirsakli val asta-sekin buralib, shisha quvurchadagi yonilg'i sathi kuzatiladi. Shisha quvurchadagi yonilg'i ko'tarila boshlagach, venti-

havo chiqib ketib yonilg'i uzlusiz, oqib chiqa boshlagandan keyin tiqin yana burab berkitiladi. So'ngra haydovchi pompaning dastasi burab chiqariladi va mayin filtrning ventili ochiladi. Filtrning quvurchasidan yonilg'i oqib chiqa boshlaguncha nasosga qo'l bilan dam beriladi. Keyin filtr ventili va pompaning dastasi burab mahkamlanadi. Dastaki nasosi bo'lмаган дизелларда тизимдаги havoni chiqarish uchun dizel yurgizib yuborish motori bilan aylantiriladi.

Dizelga yangi yoki ta'mir qilingan va rostlangan yonilg'i nasosi o'rnatishda, shuningdek, dizel baland ovoz chiqarib, ortiqcha qizib yoki tutab ishlaganda yonilg'i purkash payti tekshiriladi.

Nasosdan yonilg'i yuborish payti momentoskop (7.15-rasm) bilan aniqlanadi. Momentoskop qaytarma gaykali qisqa yuqori bosim quvurchasi (1), unga rezina mufta (2) bilan biriktirilgan shisha quvurcha (3) dan iborat. Yonilg'i yuborish paytini tekshirish uchun yonilg'i nasosi birinchi seksiyasining shtutseri burab chiqarilib, o'rniga momentoskop o'rnatiladi. Boshqa seksiyaarning qalpoq gaykasi bo'shatilib, yonilg'i bornmaydigan qilinadi. Yonilg'i yuborish richagi eng ko'p yonilg'i yuborish holatiga qo'yilib, dastaki nasos yordamida yonilg'i yuborish tizimidan havo chiqariladi.

Taqsimlash shesternalari karteri boltining ostiga (ventilator shkivining ro'pa-

latorning shkiviga ko'rsatgich mil ro'parasiga qalam yoki bo'r bilan belgi chiziladi.

Dizel ketingi balkasining tepasidagi o'rnatish vinti burab chiqarilib, boshqa tonmoni bilan teshikka kirgizilib, maxovikka taqaladi. Vint maxovik o'yig'iga kirdguncha tirsakli val sekin aylantiriladi. Shu paytda birinchi silindrning ikkala klapani yopiq bo'lsa, porshen siqish taktining oxirida yuqorigi chekka nuqtada turgan bo'ladi. Ventilatorning shkiviga ko'rsatgich mil ro'parasiga ikkinchi belgi chiziladi. D-54A markali motorda bu belgilari orasi 22,5—28,5 mm bo'lishi yonilg'i purkashni ilgarilash burchagini 15—19° ga teng ekanligini ko'rsatadi.

Yonilg'i purkash payti yonilg'i nasosining shlitsali shaybasini harakatlantirish shesternasiga nisbatan burib o'zgartiriladi. Purkashni ilgarilash burchagini oshirish uchun shlitsali disk (*II*) ni (7,8-rasm) o'ngga, kamaytirish uchun esa chapga bir teshik o'tqazib burab o'rnatib, yonilg'ini purkash payti 3° ga o'zgartiriladi.


Ventilatorning harakatlantirish shkivi to'g'iniga chizilgan belgilari orasini o'lehab nasosdan yonilg'i yuborish paytini aniqlash va zarur bo'lsa, o'zgartirish mumkin (shkivdagi belgilari o'rtasidagi oraliqning har 1,5 millimetri tirsakli valning 1° burilishiga teng).

Agar nasosning gilza va plurjeri yeyilgan bo'lsa, yonilg'i qisman ular orasidan sizishi tufayli yana ham kechroq purkaladi. Bunday hollarda yonilg'i yuborish paytini momentoskop bilan tekshiribgina qolmay, forsunkadan purkash burchagini ham aniqlash kerak.

Forsunkadan yonilg'i purkash paytini aniqlash uchun graduslar chizilgan sim to'rli disk va forsunka o'rnatiladigan tutgichdan iborat moslamadan foydalaniлади. Bu moslama ventilator shkiviga mahkamlanadi.

Forsunkaning ishlashini tekshirish va rostlash. Forsunkaning yonilg'i purkash bosimi maksimetrlar bilan tekshiriladi. Maksimetrlarning forsunkadan farqi shundaki, uning tarirovka qilingan prujinasi bo'ladi. Maksimetrlar (*2*) ning (7,16-rasm) rostlanadigan barabani (*4*) ni burab prujinasini turli bosimga moslash mumkin. Qisqa quvurecha (*5*) ning gaykasi nasos seksiyasiga buraladi va sinaladigan forsunka (*1*) quvurcha (*3*) orqali maksimetrga mahkamlanadi.

Maksimetrlar bo'lmagan holda forsunkaning yonilg'i purkash bosimini nazorat forsunka bilan tekshirish mumkin. Har qaysi forsunka alohida tekshirilib, boshqalari ajratib qo'yiladi. Akseleratorning richagi eng ko'p yonilg'i yuborish holatiga qo'yilib, dizelning tirsakli vali aylantiriladi va sinalayotgan forsunkadan yonilg'ining purkalishi kuzatiladi.



7.16-rasm. Purkash bosimini maksimetr (*a*) va nazorat forsunkasi (*b*) bilan aniqlash:

1 — sinaladigan forsunka; 2 — maksimetri; 3 — quvurcha; 4 — rostlash barabani; 5 — qisqa quvurcha; 6 — uchtalik; 7 — nazorat forsunka

Maksimetrnning rostlash barabanini burab, sinaladigan forsunkaning yonilg'i purkash bosimini aniqlash mumkin. Odatda, maksimetri yoki nazorat forsunka tegishli bosimga moslanib, sinalayotgan forsunka (1) (7.16-rasm, *b*) uchtalik (6) orqali nazorat forsunka (7) ga ularadi va rostlash vintini burab nazorat forsunka yoki maksimetrdan (7.16-rasm, *a*) yonilg'i bir vaqtida purkaladigan qilinadi. Forsunkaning rostlash vinti yarim aylanaga burlsa, purkash bosimi 3—3,5 MPa o'zgaradi.

Forsunka yonilg'ini tumansimon mayda to'zitishi va o'ziga xos ovoz bilan keskin purkashi, yonilg'i esa mutlaqo tomchilanmasligi lozim. Durust ishlamaydigan forsunkaning chekkasi qup-quruq va dud bosgan bo'ladi. Yonilg'i forsunkadan yaxshi purkalmasa va sizib tomchilasa, to'zitgich nam va chirk bosgan bo'ladi.

Ishlamaydigan forsunkani ishlab turgan motorda gaima-gal ajratib qo'yib bilish mumkin.

Buning uchun o'sha forsunka yuqori bosim quvurchasining uchini nasosning shtutseriga mahkamlaydigan gaykani bo'shatib, forsunka ishlamaydigan qilinadi. Bunda motorning ishlashida o'zgarish bo'lmasa va tutab ishlashi bosilmasa, shu forsunkaning ishlamasligi aniq bo'ladi. Agar motorning ishlashi o'zgarib, ovozi boshqacha bo'lsa, forsunka ishlayotgan bo'ladi.

Ishlamayotgan forsunkani boshqa silindrga almashtirib o'rnatib kamchilik sababini aniqlash mumkin. Agar boshqa silindrga o'rnatganda forsunka ishlasa, kamchilik nasos seksiyasida yoki yuqori bosim

quvurchasida bo'ladi. Yonilg'ining borish-bormasligini quvurchanı galma-gal ushlab ko'rib bilsa ham bo'ladi. Yonilg'i bormasa, quvurchanı ushlaganda yonilg'ining uritib o'tishi qo'lga sezilmaydi.

Forsunkaning to'zitgichini yuvib tozalab yoki vintini rostlab uni to'g'ri ishlaydigan qilib bo'lmasa, to'zitgich va ninani almashtirib, forsunka qaytadan rostlanadi.

Dala sharoitlarida nasos va forsunkalarni qismlarga ajratish bilan bog'liq bo'luman ishlar (tozalash, tekshirish, o'rmatish, rostlash kabi) bajariladi. Nasos va forsunkalarni qismlarga ajratish va rostlash bilan bog'liq bo'lgan ishlar (nasos elementlarining jipsligini aniqlash, yonilg'ining baravar yuborilishini tekshirish va to'g'rilash, nasos hamda forsunkalarni nazorat sinovdan o'tkazish) maxsus qurilmalarda bajariladi.

Nazorat savollari

1. Dizelning ta'minlash tizimiga qanday asboblar kiradi? Ularning traktorga o'rnatilishini va ishlashi prinsipini tushuntirib bering.
2. Dizellarda aralashma hosil qilish usullarini aytib bering.
3. Yonilg'i purkash payti nima? Yonilg'i nasosdan qachon yuboriladi va forsunkadan qachon purkaiadi? Purkash payti motor ishiga qanday ta'sir etadi?
4. Dag'ol va mayin filtrlarning tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
5. Haydovchi pompalarning turlarini, ularning tuzilishi va ishlashini so'zlab bering.
6. Ko'p plunjjerli yonilg'i nasosining tuzilishini va ishlashi prinsipini tushuntirib bering.
7. Bir plunjjerli nasosning tuzilishi va ishlashini so'zlab bering.
8. Forsunkaning turlari, tuzilishi, ishlashi va ularni qanday rostlashni tushuntirib bering.
9. Yonilg'i baki va quvurchalari qanday tuzilgan?
10. Dizel ta'minlash tizimining asboblariga texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlar bajariladi?
11. Yonilg'i purkash payti qanday tekshiriladi va o'rnatiladi?

1-§. Rostlagichning zarurligi va uning turi

Traktorga qishloq xo'jalik mashinalari tirkab yoki o'rnatib ishlatilganda yerning past-balandiigi, tuproqning bo'sh-qattiqligi, ekinning hosildorligi va boshqalar motorga tushadigan qarshilikni dam-badam o'zgartirib turadi.

Traktorchi yoki o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinasining haydovchisi bu o'zgarishlarni sezmaydi va oldindan aniqlay olmaydi, shuning uchun motor quvvatini unga tushadigan yuklanishga moslay olmaydi.

Ma'lumki, traktorning tirkash ilmog'idagi tortish quvvati uning harakat tezligiga va tortish kuchiغا bog'liq:

$$N_{tor} = P \cdot V, \text{ kW},$$

bu yerda: P — traktorning tortish kuchi, kN; V — harakat tezligi, m/s;

Tortish quvvati va tortish kuchi ma'lum bo'lganda harakat tezligi:

$$V = \frac{N_{tor}}{P}, \text{ m/s}$$

Demak, traktorning ilmog'idagi quvvati o'zgarmasdan, unga tushadigan qarshilik kamaysa, traktorning harakat tezligi ortadi yoki, aksincha, qarshilik ortsa, tezlik kamayadi. Natijada motorning tirsaklı vali goh tez, goh sekin aylanadi. Agar motor shunday ishlasa uning qismlari ko'proq zo'riqadi, tezroq yeyiladi va bajariladigan ishning sifati pasayadi.

Tirsaklı valning aylanish tezligi o'zgarishi bilan motor hosil qiladigan quvvat va yonilg'inining solishtirma sarfi ham o'zgaradi, ya'ni yonilg'inining eng oz solishtirma sarfi eng ko'p quvvat hosil qilish tezligiga munosib bo'lmaydi.

Motor eng tejamlı ishlaydigan aylanishlarda uning quvvati eng ko'p quvvatidan biroz kamroq bo'ladi. Motordan eng ko'p quvvat olishga munosib aylanishda yonilg'inining solishtirma sarfi birmuncha ortadi. Motorning tezlik tavsiisida keltirilgan eng tejamlı va eng ko'p quvvat berishga munosib aylanishlarida ishlashi texnik-iqtisodiy jihatdan

qulay bo'ladi. Aylanishlar soni rostagich har bir motorning silindrlariga yuboriladigan yonilg'i (yoki yonuvchi aralashma) miqdorini avtomat ravishda o'zgartirib, uning berilgan tezlik tartibini saqlaydi.

Motorning yuklanishi o'zgarganda rostagich tirsakli valning aylanish tezligini o'zgartirmaydi. Motorning yuklanishi kamayib, aylanishlar soni ortsa, rostagich silindrlerga yuboriladigan yonuvchi aralashma yoki yonilg'i miqdorini kamaytiradi, aksincha, yuklanish ortsa, ma'lum chegaraga qadar ko'proq aralashma yoki yonilg'i yuboradi. Shuning uchun rostagich motor tirsakli validan harakatga keltirilib, karburatorning drossel to'sig'iga ta'sir etib, aralashma yoki yonilg'i nasosining plunjeringa ta'sir etib, yonilg'i miqdorini o'zgartiradi.

Motorlarga, asosan, bir tartibli, ikki tartibli va ko'p tartibli markazdan qochirma rostagichlar hamda pnevmatik rostagichlar o'rnatiladi.

Bir tartibli rostagichlar motorning asosiy tartibiga (tirsakli valining yuklanish bilan ishlagandagi maksimal aylanish tezligiga) rostlangan bo'lib, uning aylanish tezligini belgilangandan ortishiga yo'l qo'ymaydi, animo boshqa tartiblarda ishlaymaydi. Bunday rostagichlar dizellarning yurgizib yuborish motorlariga o'rnatilgan.

Ikki tartibli rostagich motor salt ishlagandagi eng kichik aylanishlarni va yuklanish bilan ishlagandagi eng katta aylanishlarni cheklaydi, ya'ni motorning faqat ikkita tartibida ishlaydi. Ikki tartibli rostagich avtomobil dizellarida qo'llaniladi.

Ko'p tartibli rostagichlar qanday tartibga rostlab qo'yilsa, o'sha tartibda, ya'ni tirsakli valning barcha aylanishlarida ishlay beradi. Motorga ko'p tartibli rostagich o'rnatilganda ish unumi ortadi, yonilg'i tejaladi, mashinada ishlash osonlashadi va uning detallari oz yeyilib, yaxshi saqlanadi. To'siqlardan o'tishda va burilishlarda uzatmalarini almashtirib qo'shmasdan tezlikni o'zgartirish mumkin bo'ladi. Shuning uchun zamонавиу трактор дизелларидага фақат ко'п тартибли ростлагичлар о'ланилиади.

Bir tartibli pnevmatik rostagich yuk avtomobillarining karburatorli motorlara o'rnatilib, tirsakli valning maksimal aylanishlar sonini cheklaydi.

2-\$. Bir tartibli rostagichlar

Motorning tirsakli validan rostagichga (8.1-rasm) harakat uzatuvchi shesterna (1) ning chiqiqlariga ikkita yuqsha (2) sharnir holda biriktirilgan bo'lib, shesterna o'rnatilgan valning uchiga sirpanma mufta


(3) o'tkazilgan, uning o'yqlariga yukchalarining ichki uchlari (4) kengizilgan. Yukchalar shesterna bilan birga aylanib, chiqiqlarining o'qida burila oladi.

Mufsta rostlagich vali bilan birga aylanib, yukchalar kerilganda val ustida suriladi. Mufstaning uchida sharikli podshipnik (5) bor, unga prujina (6) bilan tortib qo'yilgan richagning pastki uchi doim tiralib turadi. Richagning yuqorigi uchi tortqi (8) va povodok vositasida drossel to'siqning o'qi (9) ga ulangan.

Motor belgilangan tartibda ishlayapti deb faraz qilamiz. Bunda yukchalarining markazdan qochirma kuchi va prujinaning tortish kuchi bir-biriga muvozanatlanib, yukehalar, mufsta, richag, drossel to'siq'i rasmida yo'g'onroq tutash chiziqlar bilan ko'rsatilgan holatda turadi.

Motoring yuklanishi kamaysa, uning tirsakli vali va rostlagichni harakatlantiruvchi shesterna tezroq aylana boshlab, yukchalarining markazdan qochirma kuchi ortadi. Yukchalar kerilib, prujinaning kuchini yengadi va mufstani chapga suradi. Mufsta richagning pastki uchini chapga, yuqorigi uchini esa o'ngga (rasmida shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan holatga) burab, tortqi drossel to'siq'ini berkiti boshlaydi. Motor silindrlariga aralashma ozroq kiradi va tirsakli valning aylanish tezligi pasayadi.

Motoring yuklanishi oshirilsa, valning aylanish tezligi pasaya boshlab, yukchalarining markazdan qochirma kuchi kamayadi. Pru-



8. J-rasm. Bir tartibili rostlagichning sxemasi:

- 1 — harakat uzatuvchi shesterna;
- 2 — yukeha,
- 3 — sirpanma mufsta;
- 4 — yukchaning ichki uchi;
- 5 — sharikli podshipnik;
- 6 — prujina;
- 7 — gayka;
- 8 — tortqi;
- 9 — drossel to'siq

jinaning tortish kuchi richag va muftam teskari tomonga suradi va tortqi (8) drossel to'sig'ini ko'proq ocha boshlaydi. Siliadrlarga kiradigan aralashmaning miqdori ortib, tirsakli valning aylanish tezligi pasaymaydi.

Shunday qilib, bir tartibli rostlagich motorning nominal aylanishlarini o'zgartirmasdan saqlaydi. Rostlagich prujinasing tarangligini o'zgartirib (prujina uchidagi gaykani burab) motor tirsakli valining nominal aylanishlarini o'zgartirish, ya'ni rostlagichni boshqa tartibda ishlaydigan qilish mumkin.


3-§. Ko'p tartibli rostlagichlar

Ko'p tartibli rostlagich ham markazdan qochirma kuch ta'siridan ishlaydi. Bu rostlagichning bir tartiblidan asosiy farqi shundaki, yukchalarning markazdan qochirma kuchini muvozanatlovchi prujinaning tarangligi dastaki richag bilan rostlanadi. Bu prujinaning tarangligini o'zgartirib motorni turli tartibda ishlashga ko'chirsak, rostlagich motoring shu tartibdagisi aylanishlarini saqlaydi.

Ko'p tartibli rostlagichning principial sxemasi 8.2-rasmida keltirilgan. Rostlagich shesternalar orqali motorning tirsakli validan harakatga keltiriladigan val (1), shesternaning chiqiq'iga sharnir holda mahkamlangan yukchalar (2), val uchiga o'rnatilgan sirpanma mufta (3) dan iborat bo'lib, bu mufta val bilan birga aylanishdan tashqari, uning ustida surila oladi. Mustaning shtifti (6) ga richag (5) kirgizilgan va unga rostlagich prujinasi (7) tiralib turadi. Richag (5) ning pastki uchi quyruq (4) va tortqi orqali akseleratorning richagi (10) ga, yuqorigi uchi esa tortqi (8) orqali yonilg'i nasosining reykasi (9) ga sharnir holda biriktirilgan.

Agar akselerator richagining turish holati o'zgartirilmasdan, motoring yuklanishi kamaytirilsa, motorning aylanishlari ortadi. Bunda yukehalar (2) ko'proq kerilib, mufta (3) ni chapga suradi, mufta richag (5) ni itarib, reykani chapga suradi va buning natijasida yonilg'i karoq yuboriladi. Aksincha, motorning yuklanishi ortsas, aylanishlari pasayadi, yukchalar yaqinlashadi. Mufta prujina (7) kuchi bilan o'ngga surilib, reykani ham suradi va yonilg'i ko'proq yuboriladi.

Akselerator richagi o'ngga burliganda (rasmida punktir chiziq bilan ko'rsatilgan // holatda) richag (5) mustaning chuqurchasidagi shtift (6) ga tiraladi va richag o'z o'qi atrofida boralib, uning yuqorigi uchi reykani chapga (// holatga) buradi, ya'ni yonilg'ini kamaroq yuboradigan




8.2-rasm. Ko'p tartibli rostagichning sxemasi:

1 — val; 2 — yukeha; 3 — sirpanma mufa; 4 — quyruq; 5 — richag; 6 — shtift; 7 — prajina; 8 — tortqi, 9 — reyka; 10 — akselerator richagi

holaiqa ko'chiradi. Agar shu paytda motorning yuklanishi o'zgarmasa, aylanishlari kamayadi. Yukehalarning markazdan qochirma kuchi kamayadi va prujina mustani o'ngga surib, richagni buradi, yonilg'i ko'p yuboriladi. Demak, motor ishlaganda har doim yukehalarning markazdan qochirma kuchi prujinaning elastiklik kuchi bilan muvozanatlanadi. Shuning uchun akselerator richagini turli holatga qo'yib, dizeлning tezlik tartibini o'zgartirish mumkin va rostagich har doim shu tartibni saqlaydi.

Ko'pchilik traktor motorlarida qo'llaniladigan ko'p tartibli (PB-700 modelli) rostagich (8.3-rasm) yonilg'i nasosining korpusiga mahkamlanadigan korpus (7) ichiga joylashtirilgan. Rostlagichning valigi (13) ikkita sharikli podshipnikka o'rnatilgan, uning harakatlantirish shesternasi (23) yonilg'i nasosi valigi (1) ning shesternasi (2) dan plastinasimon friksion prujinalar (3) orqali aylantiriladi. Aylanish tezligi birdaniga o'zgarganda shesterna prujinada sirpanib aylanib, rostagichning mexanizmini sinishdan saqlaydi.

Rostlagichning valigiga yukehalar (25), krestovina (22), tirak podshipnik (24), sirpanma mufa (16), tashqi prujina (15) va ichki prujina (14) o'matilgan. Krestovina valikka shponka bilan mahkamlanib, yukehalar unga sharnirli biriktirilgan. Muftaning tashqi uchidagi halqasimon o'yiqqa vilka (17) ning shtiftlari kirib turadi.



8.3-rasm. Ko'p tartibli rostlagich (PB modeli):

- 1 — yonilg'i nasosining vali; 2 va 23 — shesternalar; 3 — friksion prujina;
 4 — vint; 5 — richag; 6 — bolt; 7 — korpus; 8 — tirak; 9 — kronshteyn;
 10 — prujina; 11 — tirak bolt; 12 — vilka o'qi; 13 — valik; 14 — ichki prujina;
 15 — tashqi prujina; 16 — sirpanma musta; 17 — vilka; 18 — tortqi;
 19 — rostlash vinti; 20 — prizma; 21 — quyuqlashtirgich tugma;
 22 — krestovina; 24 — tirak podshipnik; 25 — yukcha

Vilka rostlagich richagi (5) ning valigiga o'rnatilgan kronshteyn (9) ning yuqorigi tarmog'iga o'q yordamida sharnirli birlashtirilgan. Richag valigi tortqi va richaglar orqali akselerator bilan bog'langan. Kronshteyn (9) ning valikka nisbatan o'z-o'zidan buralmasligi uchun, u kronshteynga o'ralgan prujina (10) bilan tutib turiladi. Prujina valikka vtulka va shayba bilan mahkamlanib, shaybaning egilgan chiqiq'i prujina uchlarining orasiga kirgizilgan. Kronshteyn valikka nisbatan burilganda prujina ham buraladi.

Vilka (17) ning yuqorigi uchi tortqi (18) bilan yonilg'i nasosining reykasiga birlashtirilgan, uning yuqori qismiga kontrgraykali rostlash vinti (19) buralgan. Vilka bu vint vositasida quyuqlashtirgichning valigi (21) ga o'rnatilgan korrektirlovchi prizmaga tiraladi. Yonilg'inining eng ko'p sarfi vint (19) bilan rostilanadi.

Valik richag (5) bilan chapga burilganda yonilg'i ko'proq, o'ngga burilganda esa kamroq yuboriladi. Richagning burilishi bolt (6) va vint (4) bilan cheklanadi. Rostlagich korpusining orqa devorida vilka va kronshteynning burilishini cheklaydigan tirak bolt (11) bo'lib, bu motorni haddan tashqari tez aylanishdan saqlaydi.

Motorning aylanish tezligini oshirish uchun richag (5) ni chapga burish kerak. Bunda kronshteyn ham shu tomonga burilib, vilka (17) ning pastki uchini tortadi. Vilkaning yuqorigi uchi o'ngga surilib, yonilg'i nasosi reykasini yonilg'i ko'proq yuboriladigan tomonga (o'ngga) suradi (8.4-rasm, 1).


Richag (5) ning tiragi (5) bolt (6) ga tiralguncha burilib, nasos reykasi eng ko'p yonilg'i yuboriladigan holatga suriladi. Bunday holatda vilka (17) ning rostlash vinti (19) quyuqlashtirgichning korrektirlovchi prizmasi (20) ga qadalib, reykaning siljishini cheklaydi.

Motorni yurgicib yuborishda richag (5) eng ko'p yonilg'i yuborish holatiga suriladi. Quyuqlashtirgich tugmasi (21) qo'l bilan tortiladi, shunda prizma (20) rostlash vintidan tushadi; vilkaning yuqori uchi va nasosning reykasi o'ngga qo'shimcha ravishda surilib ko'proq yonilg'i yuboradi. Motor ishlay boshlashi bilan yukchalarning markazdan qochirma kuchi vilkani keyinga (chapga) siljitali, quyuqlashtirgich valchasi prujina ta'sirida dastlabki holatga qaytadi.

Rostlagich, asosan, yuqorida keltirilgan sxemada ishlaydi. Motor ishlaganda yukchalar keriladi, mufta chapga suriladi, bunda prujinalar siqiladi. Vilka (17) tortqi orqali nasos reykasini chapga surib, uni shu tartibga munosib yonilg'i yuboradigan holatga ko'chiradi.

Motor sekin aylanib ishlaganida rostlagich quydagicha ishlaydi (8.4-rasm, 1). Rostlagichning richagi (5) o'ngga burib qo'yiladi, spiral prujina (10) ning uchlari bir-biriga yaqinlashib turadi. Vilka (17) va kronshteyn (9) deyarli bir chiziqdagi bo'ladi, sirtqi prujina (15) muita (16) ni itaradi. Sbu tartibda motorning yuklanishi kamaysa, yukchalar kerilib, mustani chapga (punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan holatga) suradi, u prujina (5) ni siqadi. Natijada vilka o'q (12) atrofida burilib, uning yuqorigi uchi reykanini chapga suradi va yonilg'i kamroq yuboriladi. Motorning aylanishi tezlashmaydi.

Agar motor yuklanishi shu tartibga belgilangandan ortsa, uning aylanishi pasayib, yukchalar yaqinlashadi, prujina (15) vilkani o'ngga buradi; yonilg'i ko'proq yuborilib, berilgan tartibda ishlashi ta'milanadi. Bunda vint (19) prizmaga tiraladi. Agar motorning eng kam aylanish tezligiga munosib yuklanishi sal ortsa ham u o'chib qoladi.



8.4-rasm. Ko'p tartibli rostlagichning ishlash sxemasi:

I—motor sekin aylanganida; II—motorning tezlik tartibi o'zgarganda;
III—motor qisqa muddat zo'rqiq ishlaganda (raqamlar 8.3-rasmdagidek
belgilangan)

Motorning tezlik tartibi o'zgarganda (8.4-rasm, II) yonilg'i yuborishni boshqarish richagi qo'zg'atilmagan holda, yukchalarining markazdan qochirma kuchi nasosning reykasini avtomat ravishda boshqaradi. Masalan, yonilg'i eng ko'p yuborilayotganda yuklanish kamaysa, tirsaklı valning aylanish tezligi, demak, rostagich yukchalarining markazdan qochirma kuchi ortadi. Bunda yukchalar mustani siljitadi, mufta esa rostagich ichki prujinasi (14) ning elastiklik kuchini yengib, vilkani chapga suradi. Vilka nasosning reykasini yonilg'i kamiroq yuboriladigan tomonga siljitadi.


Motor yuklanishi belgilangandan ortsa, tirsaklı valning aylanish tezligi kamayib, yukchalarining markazdan qochirma kuchi pasayadi. Prujinalar mustani chapga suradi, vilkaning yuqorigi uchi reykani o'ngga siljitadi va natijada ko'proq yonilg'i yuboriladi.

Qisqasi, richag (5) har qanday holatga qo'yilganda ham rostagich shu tarzda avtomat ravishda ishlayveradi.

Yuboriladigan yonilg'ining miqdori pasaygan yuklanishga muvosiq kamaymasa (masalan, reyka qadalib qolsa), yukchalarining markazdan qochirma kuchi ortib, mufta (16) va vilkaning kronshteyni (9) chapga burilib, bolt (11) ga tiraladi. Natijada yukchalar kuchi vilka orqali reykani chapga surib, yonilg'i miqdorini kamaytiradi (rasmida punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan).

Motor qisqa vaqt zo'riqib ishlaganda rostagichning korrektori (8.4-rasm, III) motor aylanish tezligining juda ham pasayib ketishiga va motorning o'chib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Bunday holda korrektor har siklda silindrga purkaladigan yonilg'i miqdorini oshirib, motorning burovchi momentini kuchaytiradi. Rostagichning korrektori quyuqlash-tirgichning prizmasi (20), vilkaning kronshteyni (9) va qo'shaloq spiral prujina (10) dan tashkil topgan.

Motor yuklanishi ortganda uning aylanish tezligi kamayib, yukchalarining markazdan qochirma kuchi pasayadi. Prujinalar (14, 15) mustani o'ngga siljiti, vilka (17) ga ta'sir etadi. Vilkaning yuqorigi uchi prizma (20) ga tiraganligi sababli vilkaning o'qi (12) va kronshteyn (9) o'ngga burila boshlaydi. Kronshteyn valik atrofida burilib, prujina (10) ni buraydi. Vilka yuqoriga ko'tarilib, rostlash vinti (19) prizmaning qiya sirti bo'ylab yuqoriga sirpanib o'ngga buriladi. Natijada reyka qo'shimcha siljib, yonilg'i ko'proq yuboriladi (bunday holat rasmida punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan). Korrektor, asosan, to'la yuklanishda ishlaydi. O'rta yuklanishda rostlash vinti prizma sirtining o'rtalarida turganligi sababli siljiydi, kichik aylanish tezligida ishlamaydi.



8.5-rasm. Ko'p tartibli ixchan rostagich (PBM-850):

1 — rostagich valigi; 2, 6 va 12 — richag; 3 va 16 — prujina; 4 — vint;
5 — plastina; 7 — bolt; 8 — tirak; 9 — yukeha; 10 — sirpanma mufta;
11 va 14 — o'q; 13 — kronshteyn; 15 — tortqi; 17 — valik; 18 — povodok

Rostlagichning ishlash tartibini o'zgartirish (rostlash) uchun prujinalar (14 va 15) uchiga qo'yilgan qistirmalar soni o'zgartiriladi. Rostlash bolti (6) ostidagi qistirmalarni o'zgartirib ham rostagich ishini rostlash mumkin. Qistirma kamaytirilsa, tirsakli valning maksimal aylanish tezligi ortadi, qo'shimcha qistirma qo'yilsa, maksimal aylanish tezligi kamayadi.

Ba'zi traktor dizellariga kichik gabaritli ko'p tartibli (PBM-850 modelli) rostagich o'rnatiladi (8.5-rasm). Yonilg'i nasosining kulachokli valigidan shesterna orqali harakatga keltiriladigan rostagich valigi (1) ga krestovina mahkamlangan. Uning o'qiga yukehalar (9) o'matilgan. Yukehalar tirak podshipnik orqali sirpanma mufta (10) ga tiraladi. Mufta povodoklar (18) orqali richaglar (2) ga ta'sir etadi. Rostlagich prujinasining bir uchi richag (2) va o'q (14) qa, ikkinchi uchi richag (6) ga biriktirilgan. O'q (14) ga yonilg'i nasosining reykasiga ulangan tortqi (15) o'rnatilgan. Rostlagich korpusga joylanib, yon va ust tomonidan qopqoqlar bilan yopilgan.

Dizel ishlamagan vaqtida richag (12) rostlash bolti (7) tirak (5) ka tiraladigan holatga suriladi. Motor yuklanishi kamayganda valik (1) tezroq aylanadi. Yukehalar (9) kerilib, prujina (3) ning qarshiligini yengadi va mufta (10) ni chapga siljitaldi. Bunda richaglar (2) o'q (11)

atrofida burilib, nasos reykasining tortqisi (15) ni chapga buradi. Natijada yonilg'i kamroq yuborilib, motorning aylanishlari belgilanganga qadar pasayadi.

Motorning yuklanishi ortganda yuqchalar yaqinlashadi va vint (4) plastina (5) tiralguncha barcha detallar dastlabki holatga qaytadi. Motor zo'riqib ishlaganda rostlagichning korrektori ishlay boshlaydi. Korrektor chap richag (2) ga burab qo'yilgan vint (4), quyuqlashtirgich valigi (17) o'rnatilgan kronshteyn (13) va kronshteynga mahkamlangan plastinasimon prujina (5) dan iborat. Yuqchalar yaqinlashib, prujina (3) ning sifilishi natijasida vint (4) plastina (5) ni egishi hisobiga nasos reykasini siljiti, qo'shimcha yonilg'i yuboradi.

Valik (17) ning chiqib turgan uchini bosib, yurgizib yuborish quyuqlashtirgichi ishga solinadi. Bunda plastina (5) vint (4) ga tegmasdan nasos reykasini yana siljitali, buning natijasida yonilg'i ko'proq yuboriladi. Dizel ishlab ketgach, yuqchalar kerilib, mufta va richag (2) ni siljitali, quyuqlashtirgichning prujimasi (16) valik (17) va kronshteynni dastlabki holatga qaytaradi.

Rostlagichning moy quiyish, bo'shatib olish va moy sathini belgilash teshiklari tiqinlar bilan berkitiladi.

Rostlagich qismlarini moylash uchun nazorat tiqini sathiga qadar dizel moyi quyiladi.

4-§. Motorning maksimal aylanishlarini cheklagich

Benzin motorli avtomobil yomon yo'lda past uzatmada, yaxshi yo'lda (xususan, tepalikdan tushishda) yuqori uzatmada harakat etganda tirsaklı vali haddan tashqari tez ayianishi mumkin. Bu yonilg'i sarsini oshiradi va motor detallarining tez yeyilishiga, hatto kuch uzatish va yurish qismlarining xavfli tezlikda harakat etishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun yuk avtomobili motorlariga maksimal aylanishlar sonini cheklagich (bir tartibli rostlagich) o'rnatilib, u karburator drossel to'sig'iga ta'sir etadi.

Aylanishlar sonini cheklagich bevosita drossel to'sig'iga yoki karburator bilan kiritish quvuri oralig'iga o'matilib, yonuvchi aralashma oqimi kuchidan harakatga keltiriladi, shuning uchun pnevmatik aylanishlar sonini cheklagich deyiladi. Keyingi vaqtida vakuum tipi markazdan qochirma maksimal aylanishlar sonini cheklagich ham qo'llanilmoqda. Bunday cheklagich taqsimlash shesternalari karterining qopqog'iga mahkamlanib, taqsimlash validan harakatga keltiriadi.

Karburotorning drossel to'sig'iga o'rnatilgan maksimal aylanishlar sonini pnevmatik cheklagichda (8.6-rasm) to'siq (1) ning aralashma oqimi uriladigan tomoni kemtilgan bo'lib, boshqa qalinqoq tomoni ilgak (3) va prujina (4) yordamida rostlash gaykasi (5) ga tortib qo'yilgan. Gaykani burab, vtulka (6) ni siljitim prujinaning tarangligini o'zgartirish mumkin. Prujina (4) to'siqni to'la ochishga intiladi, amme shtift (2) aralashshtirgich kamera devoriga tiralib, to'siqning ochilishini cheklaydi.

Tirsakli valning aylanish tezligi ortganda aralashma oqimi to'siqning kemtigini bosadi (8.6-rasm, a) va prujina kuchini yengib to'siqni berkita boshlaydi. Natijada silindrlarga aralashma kamroq yuborilib motorning vali sekinroq aylanadi, prujina to'siqni yana ochadi va hokazo.


Avtomobil tepalikdan tezlanib kelayotganda to'siq to'la ochiq bo'lmasa ham tirsakli valning aylanish tezligi ortishi mumkin. Bunday holda aralashma oqimi prujinaning tarangligini yenga olishi uchun drossel to'sig'ining o'qi aralashshtirgich kameraning qisqa quvuri o'qidan biroz siljitiib o'rnatilgan. Shu sababli to'siq chap tomonining sati va aralashma oqimining bosimi ortadi (8.6-rasm, b).

Drossel to'sig'ini boshqaradigan akselerator pedali richag va tortqlar tizimi orqali to'siq o'qiga, uning kulachoklari (7) orqali to'siq chiqiqlari (8) ga ta'sir etadi. Pedal bo'shatilganda uning prujinasi kulachokni chapga burib, to'siqni yopadi. Pedal bosilgan sari pedal prujinasining va prujina (4) ning kuchini yengib, to'siq ochiladi (8.6-rasm, d, e). Kulachok (7) lar bilan chiqiq (8) lar orasida bo'sh oraliq bo'lganligi sababli to'siq boshqarish pedalidan tashqari, aralashma oqimining tezlik dami bilan biroz yopilishi mumkin.

Maksimal aylanishlarni cheklagich (bir tartibli pnevmatik rostlagich) ning ishlashi to'siq prujinasining tarangligiga bog'liq bo'lib, u zavodlarda maxsus asboblar bilan rostlanadi.


Markazdan qochirma pnevmatik aylanishlar sonini cheklagich (8.7-rasm) ko'p kamerali karburatorlarda qo'llanilib, taqsimlash shesternalari qopqog'iga o'rnatiladi. U taqsimlash validan harakatga keltiriladigan markazdan qochirma datchik va karburator drossel to'sig'iga ta'sir etuvchi diafragmali mexanizmdan iborat.

Datchikning rotori (1) da klapan (3) ni teshik (4) dan uzoqlashtirib turuvchi prujina (2) bor. Motor yuklanish bilan ishlab, tirsakli vali yo'l qo'yilgancha tezlikda aylanganida diafragma (9) ustidagi bo'shilq trubka (5) va (6) lar orqali karburatorning kiritish quvuriga tutashtiriladi. Diafragma ostidagi bo'shilq ham kanal (15) va teshik (7) orqali shu quvurga tutashtirilgan. Bu vaqtida diafragma (9) ning ustidagi



8.6-rasm. Maksimal aylanishlar sonini pnevmatik cheklagich va uning ishlash sxemasi:

a — drossel to'sig'i to'la ochiq, b va e — drossel to'sig'ining yopilishi;
 d — drossel to'sig'iga harakat uzatish sxemasi; 1 — drossel to'sig'i;
 2 — shtift; 3 — ilgak; 4 — prujina; 5 — rostlash gaykasi; 6 — vtulka;
 7 — kulachok; 8 — chiqiq



8.7-rasm. Markazdan qochirma pnevmatik aylanishlar sonini cheklagich (ЗИЛ-130):

1 — rotor; 2 va 11 — prujina; 3 — klapan; 4 — klapan uyasi; 5 va 6 — trubkalar; 7 va 8 — teshiklar; 9 — diafragma; 10 va 13 — jiklerlar;
 12 — richag; 14 — drossel to'siglari; 15 — havo kanali

va ostidagi bosim bir xil bo'ladi. Motor tirsaklı vali belgilangandan ortiq tezlikda aylansa, rotoring markazdan qochirma kuchi prujina (2) ning tortish kuchini yengadi va klapan (3) teshik (4) ni berkitadi. Diafragma ustidagi bo'shliq karburatorning kiritish quvuriga tutashmay. jiklerlar (10 va 13) va teslik (8) orqali aralashtirgich kamerasiga tutashadi. Aralashtirgich kamerasidagi kuchli siyraklanish diafragma ustidagi bo'shliqqa ham o'tadi. Bu siyraklanish prujina (11) kuchini yengib diafragma (9) ni yeqoriga ko'taradi va richag (12) orqali drossel to'sig'i (14) o'qi burilib, to'siqlar sal yopiladi. Motor aylanishlari soni pasayib yo'l qo'yilganidan oshmaydi.

5-§. Rostlagichlarga texnik xizmat ko'rsatish

Ish vaqtida rostlagichga texnik xizmat ko'rsatish uni ko'zdan kechirish, bolt va gaykalarini burab qotirish, chang va loydan tozalash, moyning sathini tekshirish va belgilangan vaqtarda almashtirishdan iborat. Motoring rostlagich bilan saqlanadigan tezlik tartibi (yuklanish bilan ishlagandagi normal aylanishlar soni, salt ishlagandagi maksimal va minimal aylanishlar soni) tekshiriladi.

Rostlagichga nazorat tiqini sathiga qadar tegishli markadagi moy quyiladi. Moy kam bo'lsa, qismlari tez yeyiladi, ko'p bo'lsa, yukchalgarda tushadigan qarshilik ortib, rostlagich vaqtida ishlay boshlamasdan, motoring tirsaklı vali haddan tashqari tez aylanishi mumkin, bu ko'pineha avariyyaga sabab bo'ladi.

Rostlagich prujinalarining elastikligi o'zgarsa, detallari yeyilsa va sozi buzilsa, motoring belgilangan tezlik tartibi o'zgaradi. Rostlagich maxsus ustaxonalarda yonilg'i nasosi bilan birga rostlanadi.

Nazorat savollari

1. Traktor va qishloq xo'jalik motorlariga nima uchun rostlagich o'rnatish zarur?
2. Rostlagich motor ish tartibiga qanday ta'sir etadi?
3. Bir tartibli va ko'p tartibli rostlagichlarning turli tartiblarda qanday ishlashini va bir-biridan farqini tushuntirib bering.
4. Rostlagich korrektori va yurgizib yuborish quyuglashtirgichi nima uchun kerak va u qanday ishlaydi?
5. Motoring maksimal aylanishlari sonini cheklagichning vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
6. Rostlagichlarning ishoshi qanday o'zgartiriladi? Rostlagichga texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlar bajariladi?

1-§. Moylash tizimining vazifasi va turi

Motor detallari harakat qilganda sirtidagi g'adir-budurliklari bir-biriga yedirilib, ishqalanish kuchi hosil bo'ladi. Natijada detallar qiziydi, kengayadi, yeyiladi, hatto qadalib qolib ishdan chiqadi. Detallar qancha tez harakat qilsa, ishqalanuvchi sirtlar bir-biriga qancha kuchliroq siqilsa, ishqalanish kuchini yengish uchun shuncha ko'p quvvat sarf bo'ladi.

Detallarning ishqalanishini kamaytirish uchun ularning sirti yetarlicha silliq qilinadi, toblanadi. xrom va boshqa metallar bilan qoplanadi, antifriksion qotishmalari qo'llaniladi, sirpanib ishlaydigan podshipniklar o'rniغا yumalanib ishlaydigan (zoldirli, rolikli) podshipniklar o'rnatiladi va ishqalanadigan sirtlar orasida moy pardasi hosil qilinadi. Bunda sirtlar bir-biridan moy pardasi bilan ajratilib, qattiq sirtlar ishqalanishi o'rniغا suyuq moy qavati zarrachalari ishqalanadi.

Ishqalanuvchi sirtlar bir-biridan moy qavati bilan ajratilgan bo'lsa, bunday ishqalanish *suyuq ishqalanish* deyiladi. Bunday holda moy qancha qovushoq bo'lsa va detallar qancha tez harakat qilsa, moy qatlami shuncha qalin bo'ladi, ta'sir etuvchi yuklanish ortsas, moy qatlami yupqalashadi. Har ikkala holda ham ishqalanishni yengish uchun ko'proq kuch sarflanadi.

Agar detallar orasidagi tirkishdan moy qatlami siqib chiqarilib, faqat sirtlarning molekular kuchi ta'siri bilangina juda yupqa moy qavati (pardasi) qolsa, bunday ishqalanish *chegaraviy ishqalanish* deyiladi.

Agar detallar orasida yupqa moy pardasi buzilsa, detallar sirti qisman bevosita bir-biriga tegib *moysiz ishqalanish* hosil bo'ladi.

Detallar moylanganda ishqalanishning kamayishidan tashqari, ularning issig'i moyga o'tib, birmuncha seviydi, ishqalanadigan sirtlar yeyilishidan hosil bo'lgan metall zarrachalarni moy olib ketadi. moy pardasi detallar orasidagi tirkishlarni to'ldirib, ularning jipsroq tegishini ta'minlaydi (masalan, silindrarda kompressiya ortadi) hamda zanglatmaydi. Xullas, moy ishqalanish kuchini, detallarning yeyilish

va qizishini kamaytiradi, demak, shularni yengish uchun sarflanadigan quvvat tejaladi.

Motorning moylash tizimi ishqalanadigan detallarga ma'lum harorat va ma'lum bosimda yetarli miqdorda moy yetkazib beradi, u o'zaro kanal va quvurchalar bilan biriktirilgan turli mexanizm va qurilmardan iborat.

Motor detailarining ishlash sharoitiga (tushadigan yukiamasi va harakat tezligiga) qarab, ularga moy sachratib yoki bosim bilan majburan yuborilishi mumkin.

Sachratib moylanganda motor karteridagi moy harakatlanuvchi detaillar bilan sachratilib, mayda tomchilardan iborat moy tumanlari ishqalanuvchi detallarga o'tirib, ularni moylaydi. Moy sathi kamayganda, harakat sekinlashganda va qiyaliklarda ishlaganda detaillar yomonroq moylanadi, shuning uchun bunday moylash tizimi deyarli qo'llanilmaydi.

Detailarga moy majburan yuborilsa, *bosim bilan moylash* deyiladi, amino motorning barcha detailariga (silindrlar devori, porshenlar, taqsimlash valining kulachogi va boshqalarga) bosim bilan moy yuborish ancha qiyin.

Shuning uchun zamonaviy motorlarda, asosan, kombinatsiyalangan moylash tizimi qo'llanilib, bunda zo'r qib ishlaydigan detaillar (tirsakli valning o'zak va shatun podshipniklari, taqsimlash valining podshipniklari, koromislolar o'qi va boshqalar) bosim bilan moylanib, boshqa detaillar (silindr, porshen, kulachok va boshqalar) sachratib moylanadi.

2-\$. Traktor va avtomobillar uchun qo'llaniladigan moylar va ularning xossalari

Motorlar uchun qo'llaniladigan moylar detallarga tushadigan kuchli bosim va yuqori haroratga bardosh berishi, issiq gazlar bilan aralashib alanganmasligi va yonish kamerasida yonganda qurum va kul qoldirmasligi lozim. Karter va quvurchalardagi moylar sovuqda quyuqlanmasligi va qotib qolmasligi zarur. Shuningdek, moy detailarni zanglatmasligi va uzoq vaqt saqlanganda buzilmasligi kerak.

Havoning issiq-sovuqligiga qarab moylarning qovushoqligi birmuncha o'zgaradi, ya'nii issiqda suyuladi, sovuqda esa quyuladi. Turli mexanizmlarning ish sharoiti uchun turli xossal moy zarur. Masalan, benzinli va dizel motorlarni moylash uchun yilning turli fasllarida qovushoqligi har xil bo'lgan moylar qo'llaniladi. Suv nasosi podshipnigi

uchun suv yuvib ketmaydigan, elektr asbob-uskunalarni moylash uchun maxsus suyuq moylar, transmissiya mexanizmlarida esa yuqori bosimga chidamli quyuq moylar ishlataladi. Moy zaxirasi saqlanadigan tnaxsus karteri yo'q mexanizmlar, masalan, yurish qismlari, rul tortqilari, ventilatorlar va boshqalar uchun oqib tushmaydigan konsistent moylar qo'llaniladi.

Motor va transmissiya mexanizmlari uchun qo'llaniladigan moylar neftdan yonilg'i olingandan keyin qolgan qoldiq — mazutdan olinadi. Motor moylari mazutni qayta haydash yo'li bilan olinib, ular distillat moylar deb ataladi. Transmissiya moylari mazut qoldiqlarini tindirib va tozalab olinib, ular qoldiq moylar deb ataladi.

Motorda moyning eskirmasdan ishlash muddati moylash tizimi tuzilishiga, texnik xizmat ko'rsatish qoidalari to'g'ri bajarilishiga va moy sifatiga bog'liq. Moyning qovushoqligi, qotish harorati, stabilligi va korroziya hosil qilmasligi uning sifatini aniqlovchi asosiy ko'rsatichlardir.

Moyning qovushoqligi zarrachalarining bir-biriga nisbatan siljishiga qarshilik ko'rsatishini tavsiflab, santistoks (sst) hisobida ifodalanadi. Santistoks stoksning yuzdan bir ulushidir. Stoks moyning kinematik qovushoqligini o'lchash birligi bo'lib, u moy dinamik qovushoqligining zichligiga nisbatidir. Moyning dinamik qovushoqligi — bir-biridan 1 sm uzoqda turgan va 1 sm/s tezlikda harakat qiluvchi 1 sm² sathdagi ikki qatlamining qarshiligidir.

Moyning qovushoqligi ishqajanish kuchiga va moy pardasi qalinligiga ta'sir etadi. Ortiqcha qovushoq moy qalin moy pardasi hosil qilib, harakatlanishi va sachrashi qiyin bo'ladi hamda kichik tirqishlarga kira olmaydi. Moyning qovushoqligi oz bo'lsa, tirqishlardan siqilib chiqib, sirtlarni qanoatlanarli darajada moylamaydi.

Shuning uchun moylarni tanlashda ularning qovushoqligiga jiddiy ahamiyat beriladi.

Moyning qotish harorati uning quyulmaydigan holatga kelish harorati bo'lib, sovuq motorni yurgizib yuborish, moylash tizimining tirqishlaridan moyni o'tkazish uchun katta ahamiyatga ega. Moyning qotish harorati -20° dan -40° gacha bo'lishi kerak.

Moyning stabilligi deb, metallga yopishgan yupqa moy qavatining yuqori harorat va havodagi kislород та'sirdan oksidlanishga va turli zararli moddalar hosil qilishga qarshilik ko'rsatishiga aytildi.

Moyning korroziya hosil qilmasligi uning tarkibidagi kislota qavatiga bog'liq. Kislota detallarning yeyilishiga va yemirilishiga sabab bo'ladi.

Og'ir sharoitda ishlaydigan moylarga oz miqdorda (1—5%) maxsus murakkab modda (prisadka)lar qo'shiladi. Ba'zi prisadkalar moyni quyuqlashtiradi; yuqori haroratda moyning qovushoqligini oshiradi; qotish haroratini 20—40° ga pasaytiradi. Bunday prisadkalar depressoatorlar deyiladi: moyga oksidlanishini — organik kislotalar va smolali astalt birikmalar hosil qilishini sekinlashtirish uchun *kislotaga qarshi*, detallarning zanglab yeyilishini kamaytirish uchun *korroziyaga qarshi*, detallarda hosil bo'ladijan zararli quyqa va cho'kindilarni ketkazish uchun cho'kindilarni eritib *yuvadigan*, chegaraviy ishqalanuvchi detallarning sirtida mustahkam moy pardasi hosil qilish uchun *yeyilishga qarshi qo'shimchalar* qo'shiladi.

Ko'pincha moyning bir necha xossasini yaxshilash zarur bo'ladi, bunday hollarda *kompleks qo'shimchalar* qo'llaniladi. Masalan, dizei moylariga qo'shiladigan kompleks qo'shimchalar yeyilishni kamaytiradi, porshen halqalarining kuyib yopishishiga yo'l qo'ymaydi va moyning qotisi haroratini pasaytiradi.

Benzinli motorlarni moylash uchun M6Б, M8А, M8Б, M10Б markali, dizei motorlarni moylash uchun esa M8Б, M8В va M-10Б markali moylar qo'llaniladi. Bunda: M — motor moyi ekanligini, harislardan keyingi raqamlar moyning santistoks (sst) bilan ifodaianadigan 100°C dagi kinematik qovushoqligini ko'rsatadi; А, Б — guruh moylar karburatorli motorlarda va tarkibida 0,2% gacha otingugurti bo'lgan dizei yonilg'isida ishlaydigan dizellarda, В — tarkibida 1% gacha otingugurti bo'lgan yonilg'ida ishlaydigan dizellarda qo'llaniladi.

Turli moylarni bir-biriga aralashtirish va belgilangan navlari o'rniiga boshqasini ishlatish yaramaydi.

Transmissiya moylarining qovushoqligi motor moylaridan 2—3 baravar ortiq bo'ladi. Harorat 0°C ga yetguncha yozgi, -20°C ga qadar qishki transmissiya moylari qo'llaniladi. Ortiqcha sovuqda transmissiya moyiga 20 — 25% dizei yonilg'isi qo'shib ishlatish mumkin.

Transmissiya moyi sisatida ko'pincha prisadkasiz nigrol qo'llaniladi. Yozda TAн-15, qishda TAи-10 markali transmissiya moylarini qo'llash ma'qul.

Bunda TA — avtomobil va traktorlarda ishlatiladigan transmissiya moyi ekanligini; и — qo'shimcha (prisadka) borligini, raqamlar moyning kinematik qovushoqligini ko'rsatadi. Qo'shimcha qotish haroratini pasaytiradi va moy pardasining mustahkamligini oshiradi. Ba'zi traktorlarning transmissiya mexanizmlariga motorlar uchun qo'llaniladigan moylar quyiladi.

Konsistent moylar — mineral moylarga 10—25% quyuqlashtirgich (parafin, serezin,sovun va boshqa moddalar) qo'shib tayyorlanadigan quyuq moylardir. Quyuqlashtirgich modda sifatida uglevodorod qo'shilsa — vazelin, kalsiyli sovun qo'shilsa — solidol, natriyli sovun qo'shilsa konstalini hosil bo'ladi.

Solidol namga chidamli, lekin ortiqcha ($60 - 80^{\circ}\text{C}$ dan yuqori) issiqliqqa chidamsizdir. Konstalini birmuncha yuqori (130°C gacha) haroratga chidamli, ammo namga chidamsizdir. Turli detal va mexanizmlarni moylashda bu moylarning xossalalarini c'tiborga olish zarur.

3-§. Moylash tizimining umumiy sxemasi

Motor ishlaganda detallarning yejilishidan hosil bo'lgan metall zarrachalar, tashqaridan kirgan chang, qisman yonish mahsulotlari karterdag'i moyni ifloslaydi, moy qiziysi va unda smola hosil bo'ladi. Shuning uchun ishqalanuvchi detallarga ko'p miqdorda moy yuborish, moyni har doim puxta tozalash va lozim bo'lsa, sovitib turish zarur. Bu talablarni qanoatlantirish uchun traktor va avtomobil motorlarida kombinatsiyalangan moylash tizimi (9.1-rasm) qo'llaniladi.


Motorga bo'g'izdan quylgan moy zaxirasi karter (1) da turadi. Moy nasosi (2) moyni so'rib, dag'al filtr (4) ga bosim bilan yuboradi. Bu filtdan tozalanib o'tgan moyning bir qismi mayin filtr (3) ga yo'naltirilib, undan tozalanib o'tgan moy karterga oqib tushadi. Moyning boshqa qismi moy radiatori (6) ga yo'naltiriladi. Radiatorda sovigan moy magistral kanal (9) orqali motor qismlarini moylashga yuboriladi.

Moy magistral kanaldan tirsakli valning podshipniklariga, val tanasidagi parmalangan kanallar orqali esa, shatun podshipniklariga boradi. Shatun tanasidagi parmalangan teshik orqali porshen barmog'iga boradi. Magistral kanal bilan tutashtirilgan alohida teshik va quvurchalar orqali taqsimlash valining podshipniklariga, koromislolar o'qiga va zo'r qib ishlaydigan boshqa detallarga yuboriladi.

Podshipniklardan oqib chiqqan moyni tirsaklı val sachratadi; hosil bo'lgan moy zarrachalari silindrlar ko'zgusini, porshentlarni, taqsimlash valining kulachoklarini va boshqa detallarni moylaydi.

Motor sovuq kunda ishlaganda jo'mrak (5) moy radiatorga yuborilmaydigan holatga qo'yiladi, bunda moy sovitilmasdan filtdan magistral kanalga o'ta beradi.

Motorning moylash tizimida bulardan tashqari moyning sathini, bosimini va haroratini nazorat qilish asboblari ham bo'ladi.



9.1-rasm. Motor moylash tizimining sxemasi:


- 1 — motor karteri; 2 — tirsaklı val;
- 3 — moyin filtr;
- 4 — dag'at filtr;
- 5 — jo'mrak;
- 6 — moy radiatori;
- 7 — moy nasosi;
- 8 — moy qabul qilgich;
- 9 — magistral kanal

4-§. Moylash tizimining asbob va mexanizmlari

Moy nasosi motor detallarining ishqalanadigan sirtlariga bosim bilan moy yuboradi. Traktor va avtomobil motorlarida, asosan, shesternali moy nasosi qo'llaniladi. Nasos (9.2-rasm) cho'yan korpus (5), uning ichiga joylashtirilgan yetakchi (1) va yetaklanuvchi (2) shesternadan iborat. Nasosning yetakchi shesternasi taqsimlash shesternalari orqali tirsaklı valdan yoki taqsimlash valining vintsimon shesternasidan harakatga keltiriladigan valikka o'rnatilgan. Yetaklanuvchi shesterna korpusuga o'rnatilgan o'qda aylanadi. Shesternalar tishi korpusga jips tegib turadi.

Moy nasosi quyidagicha ishlaydi. Shesternalari turli tomonga aylanganda moy kirish kanali (6) dan kirib tishlar orasini to'ldiradi; tishlar bir-biriga tishloshganda korpus devori bilan tishlar orasidagi moy sicqilib haydash kanali (3) ga bosim bilan chiqadi.

Moy nasosga qabul qilgichning sim to'ri (7) dan tozalanib kiradi. Suzuvchi va qo'zg'almas moy qabul qilgichlar bo'ladi. Suzuvchi moy qabul qilgich moy betida qalqib, toza moy oladi. Ba'zi moy qabul qilgichlarning sim to'ri ifoslansa, nasosning so'rish kuchi bilan to'r yuqoriga ko'tariladi va o'rtasidagi teshigidan moy toza'anmasdan so'riladi.



9.2-rasm. Moy nasosining ishlash sxemasi:

1 — yetakchi shesterna; 2 — yetaklanuvchi shesterna; 3 — haydash kanali;
4 — reduksion klapan; 5 — korpus; 6 — moy kirish kanali; 7 — sim to'ri

Moy bosimi belgilangandan ortmasligi uchun moy nasosiga reduksion klapan (4) o'rnatiladi. Klapanning prujinasi ma'lum bosimga mo'ljallab rostlanadi. Motorni yurgizib yuborishda, moy sovuq (ortiqcha qovushoq) bo'lganda bosim mo'ljallangandan oshib reduksion klapan ochiladi, ortiqcha moy karterga (ba'zan nasos korpusining moy kiradigan kanaliga) qaytadi. Bunda ortiqcha bosimdan prujina qisilib, zoldir yoki plunjер shaklli klapan suriladi va ortiqcha moy qaytadigan teshik ochiladi.

Ko'pchilik motorlarda bir seksiyali (bir juft shesternali) moy nasosi, ba'zan esa ikki yoki uch seksiyali nasoslar qo'llaniladi.

Moy filtrlari. Motor detallarining yeyilishini kamaytirish uchun ish vaqtida moyga tushadigan metall qirindi, qurem, smola, chang va boshqalarini muttasil tutib qolib, moyning eskirishini kechiktirish lozim.

Moy motorga quyilishda va nasosning moy qabul qilgichidan o'tishda sim to'dan suzib o'tkaziladi, karterning bo'shatish tijinidagi magnitga qora metall qirindilari yopishib qoladi, ammo bu xilda tozalangan moyni yetarlicha toza deb bo'lmaydi, shuning uchun ham zamonaviy motorlarga dag'al va mayin filtrlar o'matiladi.


Dag'al filtrlar nasos yuborgan moyning hammasini o'zidan o'tkazib, uni asosan yirik mexanik aralashmalardan tozalaydi. *Dag'al filtrlar* lentali va plastinali bo'ladi. Lentali *dag'al filtr* (9.3-rasm) ustma-ust kiygizilgan ikkita jumjimali buklangan jez silindr (*11*) va uning ustiga o'ralganda tirkish hosil qiladigan shaklli lenta (*10*) dan iborat. Bu elementlar metall qalpoq (*8*) ichiga joylashtirilib, parallel ishlaydi. Nasosdan kelgan moyning ko'proq qismi jikler (*14*) dan o'tib, bosimi birmuncha pasayadi. Jez silindrлarga o'ralgan lentalarning tirkishidan tozalanib o'tgan moy ichki sitindr bo'shlig'iga yig'ilib, korpus tubidagi qisqa quvurcha va kanallar orqali moy radiatoriga yoki jo'mrak (*12*) yopiq bo'lsa, to'ppa-to'g'ri moy magistraliga boradi.

Silindrлar sirtida tutilib qolgan ifloslar korpusga yig'iladi, uni tushirib yuborish uchun tijin bilan berkitiladigan teshiklar bor. Filtr elementlari ifloslanib, moy o'ta olmay qolganda, moy bosimi oshib, *saglagich klapan* (*13*) ochiladi va moy magistralga tozalanmasdan o'tadi. Moy magistralidagi moyning bosimi *cheklagich klapan* (*15*) bilan rostlanadi; bosim ortganda (moy sovuq, podshipniklar tirkishi kattalashmagan bo'lsa) klapan ochilib moyning bir qismini karterga qaytaradi.

Dag'al filtrning qalpog'i (*8*) cho'yan korpus (*1*) ga bolt (*9*) bilan, korpus esa motor karteriga oddiy boltilar bilan mahkamlanganadi.


Plastinali *dag'al filtrning filtrlovchi elementi* (9.4-rasm) cho'yan korpus (*4*) ichiga joylashtirilgan. *Filtrlovchi element valik* (*12*) ka yig'ilgan filtrlovchi plastina (*8*) va yulduzcha (*9*) lardan iborat. Plastinalar orasida yulduzcha qalinligi (0,07—0,09 mm) ga teng tirkish hosil bo'ladi. Sterjen (*2*) ga kiygizilgan tozalagich plastinalar (*10*) filtrlovchi plastinalar orasiga kirib turadi. Sterjen (*2*) korpusga mahkamlangan.

Moy nasosdan kanal (*3*) bo'ylab tindirgich (*1*) ga keladi, halqa plastinalar orasidagi tirkishdan o'tib tozalanadi, plastinalarning teshiklari (*11*) hosil qilgan vertikal kanal orqali halqasimon bo'shliqqa yig'iladi va undan kanal (*5*) ga chiqadi. *Filtrlovchi elementlarni yopishgan ifloslardan tozalash uchun valik* (*12*) dasta (*7*) bilan burab aylanriladi. Bunda tozalagich plastinalar (*10*) kirlarni sidirib tindirgichga tushiradi. Tijin (*13*) burab chiqarilib, quyqa bo'shatiladi.



9.3-rasm. Daǵ'al va mayin filtrlari:

1 — korpus; 2 — vertikal o'sq; 3 — forsunka; 4 — rotor;
 5 — quvurcha; 6 — tirak; 7 va 8 — qalpoq; 9 — bolt; 10 — lenta;
 11 — jez silindr; 12 — kran; 13 — saqlagich klapan;
 14 — jikler; 15 — cheklagich klapan



9.4-rasm. Plasti-lined filtr:

1 - tindirgich; 2 - sterjen; 3 va 5 - kanal; 4 - korpus;
 6 - saqlagich klapan; 7 - dast; 8 - filtrlovchi plastina;
 9 - yelduzcha; 10 - tozalagich plastina; 11 - plastiinalar teshigi;
 12 - valik; 13 - tiqin

Filtrlovchi element ifloslanganda moyning asosiy magistralga o'tushi uchun saqlagich klapan (6) o'rnatilgan. Moy bosimi mo'ljaldan oshganda klapan (6) ochilib, moy kiradigan va chiqadigan kanallarni tutashtiradi.

Mayin filtrlari. Deyarli barcha traktor va ba'zi avtomobil motorlarida mayin filtr sifatida reaktiv sentrifuga o'rnatiladi. Ba'zi traktorlarga dag'al filtr qo'yilmasdan, faqat reaktiv sentrifuga o'rnatiladi. Birinchi holda magistraliga parallel ulangan, ikkinchi holda ketma-ket ulangan sentrifuga deyiladi.

Sentrifuga markazdan qochirma kuch ta'sirida moyni solishtirma og'irligi moynikidan og'ir bo'lgan oksidlanish mahsulotlari va smolalarдан tozalaydi.

Motor moy magistraliga parallel ulangan sentrifuga (9.3-rasm) filtr korpusiga o'rnatilgan vertikal o'q (2) da ravon aylano oladigan rotor (4) dan iborat bo'lib, nases chiqargan moyning bir qismini tozalaydi.


Rotor korpusi va uning qopqog'i aluminiy qotishmasidan yasalgan bo'lib, ikkita shiplka bilan bir-biriga tortib qo'yilgan. Korpusning o'rtasidagi kovak stoykaning ichiga o'qi (2) aylanadigan ikkita bronza vtulka presslangan, korpusga ikkita po'lat quvurcha (5) presslab o'rnatilgan. Korpus qopqoq bilan berkitildi. Quvurchalarning yuqorigi qismidagi kesiklari sim to'r qalpoqchalar bilan berkitilgan. Quvurchalarning pastki uchlari rotor korpusiga nisbatan urinma yo'nalishda parmalangan kanallarga tutashtirilgan. Kanallarning uchlariida kalibrangan teshikli forsunkalar (3) bor. Rotor qalpoq (7) bilan yopilib, o'q (2) burab qo'yiladigan gayka bilan mahkamlangan.

Sentrifuga quyidagicha ishlaydi. Moy nasosidan kelgan moyning ozroq qismi o'q (2) ning vertikal va radial kanallari orqali rotor korpusi ichiga o'tadi. Keyin quvurcha (5) ga va undan forsunkalar (3) ga o'tib, ularning teshigidan shiddat bilan oqib chiqadi. Oqib chiqayotgan moyning bosim kuchi (reaktiv kuchi) rotorni moy chiqayotgan tomonga teskari yo'nalishda aylanishga majbur qiladi.

Nasos moyni 0,4—0,6 MPa bosimda haydaganda va moyning harorati 80—85°C bo'lгanda sentrifuganing rotori daqiqasiga 5000—7000 marta aylanadi. Natijada moyning ichidagi solishtirma og'irligi undan og'ir zarrachalar rotoring aylanishidan hosil bo'lgan markazdan qochirma kuch tufayli rotor korpusining devoriga urilib unga yopishadi. Forsunkalar (3) dan chiqqan toza moy kanallar orqali motor karteriga oqib tushadi.

Sentrifuganing rotori aylanadigan o'qning qopqoqdagi vtulkasi diametri kichikroq, tubidagisi kattaroq qilingan. Shuning uchun moy bosimi ta'sir etadigan rotor tubining sathi qopqog'ining sathidan kichikroq. Natijada qopqoq yuzasiga moy kuchliroq ta'sir etib, rotorni (moyi bilan birga) yuqoriga ko'taradi va rotor vtulkalarining yonboshi o'qqa ishqalanmay kamroq yeyiladi. O'qqa gayka bilan mahkamlangan tirak (6) rotoring tepaga siljishini cheklaydi.

Sentrifugalardan foydalanish moyni haqiqatan ham yaxshi tozalashga va eskirish muddatining uzayishiga imkon beradi. Shuning uchun keyingi vaqtida motor moylash tizimiga ketma-ket ulangan sentrifugalar keng qo'llanila boshlandi. Bunday sentrifuganing yuqorida aytib o'tilgan sentrifugadan farqi shundaki, u nasos bilan haydalgan moyning hammasini o'zidan o'tkazib dag'al va mayin filtrlarning o'mini bosadi. Unda tozalangan moyning bir qismi rotoring aylanishini ta'minlab, motor karteriga oqib tushadi, qolgan qismi esa asosiy moy magistraliga borib motor detallarini moylaydi.



9.5-rasm. Motor moy magistraliga ketma-ket ulangan centrifuga sxemasi:

1 — moy nasosi; 2 — moy radiatori; 3 — vint; 4 — stakan; 5 — ichki stakan;
6 — quvurcha; 7 — o'q; 8 — reduksion klapan; 9 — cheklagich klapan;
10 — termostat klapan


Motor moylashi tizimiga ketma-ket ulangan centrifuga sxemasi va uning moylashi tizimiga ukunishi 9.5-rasmida keltirilgan. Nasos (1) dan kelgan moy quvurcha (6) va o'q (7) oralig'idan centrifuganing korpusiga kiradi. Moyning bir qismi forsunkalar orqali motor karteriga oqib tushib rotoni aylantiradigan reaktiv kuch bosil qiladi. Moydag'i og'ir zarrachalar stakan (4) devoriga urilib, unga yopishadi. Tozalangan moyning qolgan qismi ichki stakan (5) ga, undan quvurcha (6) orqali moy radiatori (2) ga, se'ngra moy magistraliga boradi.

Agar moy sovuq bo'lsa, termostat klapan (10) ochilib, moy radiatorga bormasdan, magistralga o'tadi. Reduksion klapan (8) bosim 0,6—0,7 MPa dan oshganda ochiladigan qilib rostlanadi. Cheklagich klapan (9) moy magistralidagi bosimni 0,1—0,2 MPa chamasida saqlab, foydalanimagan moyni karterga o'tkazib yuboradi.

Sentrifuga ishlaganda rotorning ko'tarilishi vint (3) bilan chegaralanadi. Sxemadagi I va II holatda rotor aylanmagan vaqtida tepasida tirqish hosil bo'lishi va pastki qismining jips tegib turishi ko'rsatilgan.

Ko'pchilik avtomobil va ba'zi traktor motorlarida mayin filtr sifatida ikki seksiyal filtr tindirgichlari (filtrlovchi elementlar) qo'llaniladi.

Bu elementlarning barchasida moy mayda zarrachalardan tozalanadi. Filtr yangiligida o'zidan moyning 10–15% ni o'tkazadi, element ifloslangan sari kamroq o'tkazaveradi, ma'lumi muddat ishlagandan keyin esa yangisiga almashtiriladi. Bu filtrlarda tozalangan moy magistralg'a yuborilmasdan motor karteriga oqib tushadi.



9.6-rasm. Mayin filtr va uning elementlari:

- a – ДАСФО; b – ДАСФО-ДФЛ; 1 – тигин; 2 – фильтровчий элемент; 3 ва 11 – кувурчча; 4 – цордоқ; 5 – болт; 6 – корпус; 7 – картон пластина; 8 ва 14 – юстирма; 9 – стержен; 10 – тешиклар; 12 – пластина; 13 – канал тешиги

ДАСФО elementli mayin filtr (9.6-rasm, a) korpus (6) ichidagi sterjen (9) ga kiritilib, tepasidan qopqoq (4) bilan berkitiladigan almashinadigan filtrlovchi element (2) dan iborat. Sterjenga prujina kirgizilib, ustidan bolt (5) bilan qopqoq siqib qo'yiladi.

Filtrga moy quvurcha (3) orqali kirib, korpusni to'ldiradi. ДАСФО elementti karton plastina (7) va qistirma (8) dan iborat. Moy plastina bilan qistirmalar orasidagi tirqish va karton plastina hamda qistirma materiallarining juda mayda g'ovaklaridan sizilib, qistirma kesigiga va undan markaziy kanal teshigi (13) ga o'tadi. Tozalangan moy markaziy kanaldan kalibrlangan teshik orqali sterjenga, quvurcha (11) orqali esa motor karteriga oqib tushadi.

Moydag'i ifoslar plastina va qistirma oraliqlariga to'planib, materialiga singib hamda quyqasi filtr korpusi tubiga cho'kib qoladi. Vaqtiga bilan tiqin (*1*) burab ochilib, to'plangan quyqa bo'shatiladi.


Moy sovuq yoki filtrlovchi element ifoslangan bo'lsa, moy filtrda tozalanmasdan, element tubidagi oltita teshik (*10*) orqali sterjenning kalibrangan teshigiga o'tib, aylanib yurib isiydi. Motor ishlab qizigandan keyin moyning teshiklari orqali o'tishi filtdagi bosimni va moyning o'tish tezligini kamaytirib, tinib tozalanishiga imkon beradi.

Boshqa filtrlovchi elementlar ham deyarli shu prinsipda ishlaydi, ammo ularning shakli boshqacharoqdir. Masalan, ДАСФО-ЭФЛ elementi (9.6-rasm, *b*) o'ziga xos shaklli plastina (*12*) va qistirma (*14*) lardan yig'iladi. Ba'zi motorlarning mayin filtrlari elementlariga moydag'i ifoslarni tutib qoladigan chigal paxta ip to'ldirilgan bo'ladi.

Moy radiatorlari. Issiq kunlarda va motor zo'riqib ishlaganda moyning harorati mo'ljalidagidan ko'tarilib, suyuladi va qovushoqligi pasayadi, detallar sirtidagi moy pardasi yo'qoladi. Natijada detallarning yeyilishi va moy sarfi ortadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun moylash tizimiga maxsus moy radiatori o'rnatiladi.

Moy radiatori suv radiatori oldiga o'rnatilip, ventilator hosil qiladigan havo oqimi bilan moyning haroratini 10—12°C pasaytiradi. Ba'zi avtomobilarda sovitish tizimidagi suv oqimi bilan sovitiladigan moy radiatorlari ham qo'llaniladi. Bunday holda moy faqat sovitilmasdan, balki uning harorati sovitish tizimidagi suvning haroratidan past bo'lganda isitiladi. Havo bilan sovitiladigan motorlarda moy radiatori ventilator g'ilosining ichiga o'rnatiladi.

Suv radiatori oldiga o'rnatiladigan moy radiatori (9.7-rasm, *a*) yamaloq yoki oval shaklli quvurchalardan yig'ilgan o'zak (*3*), yuqorigi (*4*) va pastki (*2*) bakchalaridan iborat. Quvurchalar sirtiga sovituvchi plastinalar kavsharlanadi yoki lentalar o'raladi. Pastki bakcha to'siq (*6*) bilan ajratilgan. Radiatorga moy nasosi yoki moy filtridan quvurcha (*5*) orqali moy kelib, pastki bakchaning to'siqqacha bo'lgan hajmini to'ldiradi. Keyin quvurchalarning bir qismi orqali yuqoriga ko'tarilib, yuqorigi rezervuarni to'ldiradi. Quvurchalarning ikkinchi yarmisidan moy pastki bakchaga va undan quvurcha (*1*) orqali moy magistralliga (ba'zan, moy filtriga) yo'naltiriladi. Mey radiatorining quvurchalari suv radiatorining quvurchalariga nisbatan ko'ndalang (gorizontal holatda) ham o'rnatiladi. Ba'zan barcha quvurchalardan moy bir tomonga o'tib soviyo.



9.7-rasm. Moy radiatori:

a — suv radiatori oldiga o'matiladigan; *b* — havo bilan sovitiladigan motorning moy radiatori; 1 va 5 — quvurchalar; 2 — pastki bakcha; 3 — o'zak; 4 — yuqorigi bakcha; 6 — to'siq; 7 — ketingi bakcha; 8 — quvurcha; 9 — oldingi bakcha

Sovuq kunlarda radiatorga moy yubormaslik uchun maxsus jo'mrak qilinib, u yopib qo'yiladi yoki o'z-o'zicha ishlaydigan avtomat klapan (termostat klapan) o'matiladi.

Havo bilan sovitiladigan motorlarda (2.13-rasm, 4) moy radiatori ventilatorning havo oqimi bilan sovitilib, oldindi (9) (9.7-rasm, *b*) va ketingi (7) bakcha hamda lenta o'rallgan po'lat quvurchalar (8) dan iborat bo'ladi. Moy sentrifugadan radiatorga o'tib, undan moy magistraliga boradi.

Nazorat asboblari. Moy sathi, bosimi va harorati turli asboblar — moy o'lhash chizg'ichi, manometr va termometr bilan tekshiriladi.

Moy o'lhash chizg'ichining karterdag'i meyning normal va minimal sathini ko'rsatadigan belgilari bo'ladi. Moy sathini o'lhash chizg'ichi chiqarib olinadi, quruq teza lattaga artiladi va qaytadan kirgizib yana chiqarganda, moyning chizg'ichiga yuqishiga qarab sathi aniqlanadi.

Manometr (9.9-rasm, 7) nazorat asboblar shchitiga o'matiladi. Odatta, 0 dan 0,6 MPa gacha bosimni ko'rsatadigan manometrlar qo'llaniladi. Normal moy bosimi turli motorlarda 0,15—0,4 MPa gacha bo'ladi. Moy haroratini ko'rsatadigan distansion termometr (9.9-rasm, 5) moy filtridagi yoki motor karteridagi moyning haroratini ko'rsatib, u ham asboblar

shchitiga o'rnatiladi. Moy harorati 70—80°C chamasida bo'lib, 90° dan ortib ketmasligi lozim. Havo biian sovitish tizimlarida karterdag'i moyning harorati 100° gacha bo'lishi mumkin.

Karterni shamollatish. Motor ishlaganda porshen halqalari bilan silindr ko'zgusi orasidan karterga o'tgan ishlatilgan gazlar va yonilg'i tomchilari moyni ifloslaydi va suyultiradi, ulardag'i suv bug'lari, sulfat birikmalar detallarning yeyilishini tezlashtiradi va karterdag'i bosimni oshiradi. Natijada salnik va qistirmalar orasidan moy sizadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun traktor motorlariga sapun o'rnatiladi, avtomobil motorlarining karteri esa majburiy ravishda shamollatiladi.

Karter berk usulda shamollatilganda, undagi gazlar motor silindr-lariga so'rib olinadi, ochiq shamollatilganda esa atmosferaga chiqariladi.


Karterni berk usulda shamollatish sxemasi 9.8-rasmida keltirilgan. Bunda karter havo filtrining yuqorigi va pastki qismidagi bosimlar surqi hisobiga shamollatiladi. Karterga havo tozalagich (1) dan quvurcha (2) orqali kiradi. Moy quyish quvuri (4) jips yopilgan bo'ladi. Silindrdagi siyraklanish tufayli karburator (7) orqali havo filtridan havo so'rilganda karterdag'i gaz ham quvurcha (3) orqali so'rilib, karter shamollatiladi. Karterdag'i yonilg'i bug'lari aralashgan gazlar motor klapanlar qutisi (6) orqali quvurcha (3) ga o'tadi.

Moylash tizimi asboblarining ishlashini D-144 motorining kombinatsiyalangan moylash tizimi misolida ko'rib o'tamiz. (9.9-rasm).

Moy nasosi (15) karterdag'i moyni qabul qilgich (17) orqali so'rib, sentrifuga (3) ga haydaydi. Sentrifuga kelgan moyning hammasini o'zidan o'tkazadi. Moy bosimini cheklaydigan reduksion klapani (16) nasos bilan sentrifugani ulyadigan quvurchaga o'rnatilib, 0,6 MPa bosimda ochiladigan qilib rostlangan.


Sentrifuganing rotorini aylantirishga sarflanadigan moy karterga oqib tushadi. Moyning qolgan qismi moy radiatori (10) ga o'tib, unda soviydi yoki jo'mrak (13) orqali bevosita magistralg'a yo'naltiriladi. Agar motor sovuq bo'lsa, moy bosimi oshib, saqlagich klapani (2) ni ochadi va moy sentrifugaga kirmasdan radiatorga o'tadi. Radiatorga boradigan moyning bosimi 0,06—0,08 MPa ortiq bo'lsa, radiatorming saqlagich klapani (12) ochiladi va moy radiatorga kirmasdan, magistralg'a o'tadi.

Radiatorda sovitilgan moy karterning o'rta to'sig'idagi gorizontal parmalangan teshikka keladi. Bunda moy oqimining ozroq qismi qiya parmalangan teshikdan taqsimlash valining o'rta bo'yini (5) ni moylashga boradi. Moyning ko'proq qismi tirsakli valning uchinchi o'zak



9.8-rasm. Motor karterini shamoliatish sxemasi:

1 — havo tozalagich; 2 va 3 — quvurcha; 4 — moy quyish quvuri;
5 — karter; 6 — klapanlar qutisi; 7 — karburator



9.9-rasm. Kombinatsiyalangan moylash tizimining (J1-144) sxemasi:

1, 4 va 14 — tirsakli valning o'zak bo'yinlari; 2 — saqlagich klapan; 3 — centrifuga; 5 — termometr; 6 — klapan koromislolari; 7 — manometr; 8 va 11 — taqsimlash valining bo'yinlari; 9 — vtulka; 10 — moy radiatori; 12 — moy radiatoriining saqlagich klapani; 13 — jo'mrak; 15 — moy nasosi; 16 — reduksion klapan; 17 — moy qabul qilgich

bo'yni (1) ga, bundan esa val tanasidagi parmalangan teshiklar orqali boshqa o'zak va barcha shatun podshipniklariga o'tadi. Tirsakli valning shatun bo'yinlaridagi bo'shlig'iga kirgan moy markazdan qochirma kuch ta'sirida qo'shimcha ravishda tozalanadi. Bunda moydagi aralashrnalar bo'shliqning devorlariga yopishib qoladi.

Tirsakli valning birinchi (14) va beshinchchi (4) o'zak bo'yinlaridan karterdag'i parmalangan teshiklar orqali taqsimlash valining oldingi

(11) va keyingi podshipniklariga moy boradi. Oraliq shesterna barmog'i va yonilg'i nasosini harakatga keltiruvchi valning vtulkasi (9) ham tirsakli valning oldingi o'zak podshipnigidan borgan moy bilan moylanadi. Taqsimlash valining keti bo'ynidan quvurcha orqali klapan koromislolari (6) ga moy yuboriladi. Silindrlar ko'zgusi, porshen barmog'i, porshen, taqsimlash valining kulachoklari va boshqalar sachratib moylanadi. Moy bosimi manometr (7), harorati esa termometr (5) bilan tekshiriladi.

5-§. Moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish

Moylash tizimining bekam-u ko'st ishlashi uchun har bir motorda yil fasliga qarab tavsiya etilgan moylarnigina ishlatalish zarur. Moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish karterdag'i moyning sathini tekshirish, tizimdagi moy bosimini va haroratini kuzatish, sentrifugalarni va dag'al filtr elementlarini yuvish, mayin filtr elementlarini almashtirish hamda motor moyini yangilashdan iborat.

Karterdag'i moyning sathi motor to'xtagandan keyin 15—20 daqiqa o'tkazib o'chanadi. Lozim bo'lsa, chizg'ichning yuqorigi belgisiga qadar moy quyiladi. Moyni belgidan ortiq quyish porshen halqalarining qurum bosishiga, ariqchalariga yopishib qolishiga va moyning ortiqcha sarflanishiga sabab bo'ladi.

Porshen halqalari porshen ariqchalariga yopishib qolgan, halqalari va boshqa detallari yeyilgan, sapun tiqilmasi ifloslangan bo'lsa, moy yonuvchi aralashma bilan birga kuyadi, shuningdek, salnik va qistirmalar jips bo'lmasa, moy sizadi. Har ikkala holda ham karterdag'i moy tez kamayib, ortiqcha isrof bo'ladi.

Moyning bosimini motor ishlab qizigandan keyin tekshirish lozim, chunki yurgizgan zahoti moy sovuqligida besim ortiq bo'ladi. Moy yo'llari ifloslansa, reduksion klapan qadalib qolsa yoki tavsiya etilganidan qovushoq moy ishlatsa, moy bosimi ortadi. Moy kam yoki suyuq bo'lsa, moy nasosi va tirsakli val podshipniklari yeyilgan, moy qabul qilgichning sim to'ri kirlangan, moy quvurechalar yorilgan, reduksion va cheklash klapanlari noto'g'ri rostlangan bo'lsa, moy bosimi pasayadi.

Dag'al filtr ifloslansa, moy tozalanmasdan va sovitilmasdan magistralga o'taveradi, shu sababli moyning harorati ortadi.

Har smenadagi texnik xizmat ko'rsatishda nazorat asboblarining ko'rsatishi, moyning sizmasligi va nazorat tiqinlar ko'zdan kechiriladi.

Motor to'xtagan zahoti sentrifuganing inersiya bo'yicha kamida 1 daqiqa shuvullab aylanishiga qulq solinadi va plastinali dag'al filtrning dastasini 2—3 marta burab valigi aylantiriladi.

Texnik xizmat ko'rsatishda ko'rsatilgan muddatlarda dag'al filtr va sentrifuga tozalanadi va yuviladi. Motor karteridagi moy bo'shatib olinib o'rniغا yangisi quyiladi. Mayin filtrning filtrlovehi elementlari almashtiriladi. Sapunning tizilmasi kerosin yoki dizel yonilg'isida yuvilib, moy bilan namlanib joyiga qo'yiladi hamda katerni shamollatish tizimining jipsligi tekshiriladi.

Nazorat savollarri

1. Motor detailarini nima uchun moylash zarur va ular qanday moylanadi?
2. Suyuq, chegaraviy va quruq ishqalanish deb nimaga aytildi? Bunday ishqalanishlar detallarning ishlashiga hamda yeyilishiga qanday ta'sir etidi?
3. Traktor va avtomobillar uchun qanday moylar qo'llaniladi, ularning sifatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
4. Transmissiya moylari va konsistent moylarni ta'riflab bering.
5. Motorlarning moylash tizimiga qanday mexanizm va asboblar kiradi va ular qanday joylashtiriladi?
6. Moy nasosi va moy qabul qilgichning tuzilishi va ishlash tartibi.
7. Lentali va plastinali dag'al filtrlar qanday tuzilgan?
8. Moylash tizimiga parallel va ketma-ket ulangan sentrifugalarning tuzilishi, ishlashi va moylash tizimiga ulanishini tushuntirib bering.
9. Karton elementli mayin filtrlar qanday ishlaydi?
10. Moy radiatorining tuzilishini va ishlashini so'zlab bering.
11. Moylash tizimiga qanday nazorat asboblari o'rnatiladi?
12. Katerni shamollatish tizimi qanday ishlaydi? Ochiq va berk tizimlardagi farqlar?
13. Dizel motori misolida moylash tizimida moyning harakatini tushuntiring.
14. Moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish vaqtida qanday ishlar bajariladi?

1-§. Sovitish tizimining vazifasi va turlari

Motorda issiqlik energiyasidan yaxshiroq foydalanish uchun uning silindrlari, yonish kamerasi, porshenlari va boshqa detallarining harorati eng qulay darajada bo'lishi (normal issiqlik rejimini saqlash) lozim.

Motor ortiqcha qizisa, silindrlarga yonuvchi aralashma (yoki havo) kam kiradi, moy suyulib qovushoqligi kamayadi, aralashma uchqun berilmasданоq yonadi, motor detallari ortiqcha kengayib, qadalib qoladi. Motor ortiqcha sovitilsa, moyning qovushoqligi ortadi, sisatii yonuvchi aralashma hosil bo'lmaydi va aralashma to'la yonmaydi, yonilg'i qisman tomchiga aylanib, karterga oqib tushib, moyni suyultiradi. Har ikkala holda ham motorning detallari tez yeyiladi, quvvati kamayadi va yonilg'ining solishtirma sarfi ortadi.

Sovitish tizimi motor detallarini sovituvchi mexanizm va asboblardan iborat bo'lib, zamonaviy motorlar havo yoki suv bilan sovitiladi.

Motor havo bilan sovitilganda har qaysi silindr alohida yasalib, silindr va kallak devorlari qovurg'ali qilinadi. Silindrlar mashinaning harakati vaqtida uriladigan havo oqimi bilan (motosikllar) yoki, ko'pincha, ventilator hosil qiladigan havo oqimi bilan sovitiladi.

Havo bilan sovitiladigan motorning radiatori, suv g'iloflari, suv quvurlari bo'lmaydi, shuning uchun u ixcham va oddiy tuzilgan, unga texnik xizmat ko'rsatish oson. Moter yurgizib yuborilishi bilan qiziydi, shu sababli kam yeyiladi, havoning issiq-sovuqligi motor ishiga kam ta'sir etadi, ammo ventilatorni harakatga keltirish uchun ko'proq quvvat sarf bo'ladi.


Ko'pchilik traktor va avtomobil motorlari *suv bilan sovitiladi*. Bunda silindr va kallak devorlari ikki qavat qilinib, ularning o'ttasida hosil bo'lgan bo'shliq (suv g'ilosи) da sovituvchi suv aylanib yuradi. Motor suv bilan sovitilganda detallari ortiqcha qizimaydi. Silindr bilan porshen orasida ozroq tirqish qoldirish mumkin, bu esa moy sarfini kamayitiradi. Suv qavati shovqinni izolatsiya qilishi sababli motorning shovqini kamroq eshitiladi. Suv bilan sovitish tizimi, suvning aylanish usuliga qarab, termosifon va suvi majburan aylantiriladigan tizimlarga bo'linadi.

2-§. Sovitish tizimlarining tuzilishi va ishlash sxemasi

Havo oqimi silindrlar (5) ga (10.1-rasm) taqsimlovchi g'ilof (1) va yo'naltiruvchi to'siq — deflektorlar (4, 5, 8) bilan yo'naltiriladi. Ventilator (9) tasma bilan tirsakli valning shkividan harakatga keltiriadi.

Ventilator daqiqasiga 4700—5100 marta aylanib, taqsimlovchi g'ilofga 18—24 m/s tezlikda havo oqimini yo'naltiradi. Silindr va kallakning sovitish yuzasini oshirish uchun ular qovurg'ali qilingan.

Yo'naltiruvchi to'siqlar havo oqimini silindrlar devoriga yaqinlashtirib, ularning yaxshiroq sovishiga imkon beradi. Shunday qilib, havo oqimi silindr va kallak qovurg'alariga urilib, issiqni qisman olib ketadi.



10.1-rasm. Motorni havo bilan sovitish sxemasi:

1 — taqsimlovchi g'ilof; 2 — moy radiatori; 3 — silindrlar;
4, 5 va 8 — deflektorlar; 6 — jaluba; 7 — tortqi; 9 — ventilator

Sovituvchi havoning chiqib ketadigan tomoniga har bir silindriga alohida jaluzalar (plastinalar) o'rnatilgan. Jaluba (6) trakterchi ortiqchidan joydar boshqariladigan tortqi (7) ga biriktirilgan. Havo sovuq vaqtida jaluzalarni qisman berkitib, issiqlikni kamroq tarqatish mumkin. Ventilator yo'naltiradigan havo oqimi moy radiatori (2) ga ham ta'sir etadi.


Ventilator tasmasi bo'shab ketsa, ventilatorga havo kiradigan sim to'r iftesansha, silindr va kallak qovurg'alarining orasini chang bossa yoki traktor ortiqcha zo'riqib ishlasa, motor qizib ketadi. Motorning

qizish darajasi kallakka o'rnatilgan datchik (6.9-rasm, 10) orqali tovush signali va lampochkali signalizator bilan aniqlanadi. Kallak harorati 160—175°C gacha qiziganda nazorat lampochka yonadi va signal chalinadi. Shuningdek, motor karteridagi moyning harorati ham motorning qizish darajasini aniqlaydi. Moyning harorati 100—105°C dan yuqori bo'lmasligi lozim. Bu esa moy termometri bilan aniqlanadi.

Termosifonli sovitish tizimida (10.2-rasm, a) suv tizimidagi sovuq va issiq suvlarning solishtirma og'irligi farqi hisobiga aylanib yuradi. Motor ishlaganda silindrлarning suv g'ilosi (6) dagi suv isib, ziehligi kamayadi, shu sababli yuqorigi qisqa quvur (5) orqali ko'tarilib, radiator (1) ga boradi. Radiatorda ventilator (2) hosil qilgan havo oqimi ta'sirida sovib, ziehligi ortadi va pastki qisqa quvur (7) orqali suv g'ilosiga kirib, issiq suvni yuqoriga ko'taradi.

Bunday sovitish tizimi bo'lgan motor yurgizib yuborilgandan keyin tezroq qiziydi, sovituvchi suvning harakat tezligi motorning yuklanishiga bog'liq, ya'ni yuklanish qancha ko'p bo'lsa, suv shuncha ko'p isib, tezreq harakat qiladi. Lekin suv nisbatan sekin harakat qilganligi sababli, sovitish tizimning sig'imi kattaroq bo'ladi. Natijada motorning vazni ortadi va suv sathi kamaysa (yuqorigi qisqa quvur va radiatordagi suv oqimi uzilsa), motor sovitilmaydi. Termosifon sovitish tizimi traktorlarning yurgizib yuborish motorlaridagina qo'llaniladi.

Suvi majburan aylantiriladigan sovitish tizimi (10.2-rasm, b) ko'pchilik traktor va avtomobil motorlarida qo'llanilib, suv markazdan qochirma nasos (12) bilan haydaladi. Bu nasos radiatorda sovigan suvni so'rib olib, silindrлarning suv g'ilosiga haydaydi, g'ilofda isigan



10.2-rasm. Suv bilan sovitish tizimlarining sxemalari:

- a — termosifonli sovitish tizimi; b — suvi majburan aylantiriladigan sovitish tizimlari;
- 1 — radiator; 2 — ventilator; 3 — parda; 4 — trubka;
- 5 — yuqorigi qisqa quvur; 6 — suv g'ilosi; 7 — pastki kalta quvur;
- 8 — bug'-havo klapani; 9 — termostat; 10 — termometr;
- 11 — taqsimlash kanali; 12 — suv nasosi; 13 — trubka

suv esa bosim bilan yuqorigi qisqa quvur orqali radiatorga kiradi. Suv majburiy ravishda tez harakat qilganligi sababli blokning g'ilosidagi issiq suv bilan radiatordagi sovitilgan suvning harorati faqat 5–10°C farq qiladi.

Motorning tirsakli vali qancha tez aylansa, nasos bilan ventilator ham shuncha tez harakat qilib, motor jadal sovitiladi. Motor ortiqcha sovib ketmasligi uchun radiatorning old tomoni jaluza yoki parda (3) bilan to'siladi va yuqorigi qisqa quvurga termostat (9) o'rnatiladi. Motor yetarli qiziguncha termostat suvni radiatorga o'tkazmasdan, trubka (13) orqali nasosga qaytaradi.

Agar radiatorning tepasiga uchi doim ochiq turadigan trubka (4) o'rnatilib, undan suv bug'lari atmosferaga chiqaversa, *ochiq sovitish tizimi* deyiladi. Agar sovitish tizimi maxsus bug'-havo klapani (8) bilan atmosferadan ajratib qo'yilsa, *yopiq sovitish tizimi* deyiladi.


Yopiq sovitish tizimida bosim atmosfera bosimidan ortganda bug' klapani ochilib, qisman bug'ni tushqariga chiqaradi, bosim atmosfera bosimidan kamayganda havo klapani ochilib, tizimga tashqaridan havo kiritadi. Yopiq tizimda suvning bug'lanishi, demak, sarfi ham kam bo'ladi, tizimda quyqa oz hosil bo'ladi, shu sababli bunday tizim ko'p qo'llaniladi. Motorning kuchliroq qiziydigan qismlarini jadal sovitish uchun suv silindrlar blokining yuqorigi qismiga suv taqsimlash kanali (11) orqali yo'naltiriladi.

Sovitish tizimidagi suvning harorati traktor yoki avtomobil asboblari taxtasiga o'rnatilgan termometr (10) ga qarab kuzatib boriladi. Sovitish tizimidagi suvning harorati 80—90°C chamasida bo'lishi kerak.

3-\$. Sovitish tizimi elementlarining tuzilishi

Radiator (10.3-rasm, a) yuqorigi bak (1), pastki bak (6) va o'zak (5) dan iborat bo'lib, suvning issig'ini trubkalar devori orqali havoga tarqatib suvni sovitadi. O'zak bir necha qator jez quvur va plastinalardan y'itiladi. Trubkalar qirqimi yumaloq yeki cho'ziqroq (10.3-rasm, b) bo'ladi. Cho'ziqroq sirtini oshirish va trubkalar mustahkamroq bo'lishi uchun ularga yuqqa jez plastinalar (8) kirdizilib kavshariab qo'yiladi. Ba'zan har qaysi trubkaga qovurg'ali jez lenta (9) o'raladi (10.3-rasm, e). Lenta trubkali radiatorning (10.3-rasm, d) sovituvchi sirti kattaroq bo'ladi.

Radiator o'zagi baklarga boltlar bilan mahkamlanadi yoki kavsharanadi. Radiatorning suv quyiladigan bo'lg'isi (11) h. i. berkitiladi. Pastki bakida suv bo'shatib olimadigan krami (4) bor. Yuqorigi (7) va



10.3-rasm. Radiator va uning trubkaları:


a — radiator; b — cho'zinchoq qirqimli, d — lentali, e — qovurg'ali jez lenta o'ralgan trubkalar; 1 — yuqorigi bak; 2 — tijin; 3 — o'zaik; 4 — bo'shatib olish jo'mragi; 5 — pastki kalta quvur; 6 — pastki bak; 7 — yuqorigi kalta quvur; 8 — jez plastinalar; 9 — qovurg'ali jez lenta

pastki (5) qisqa quvurlar radiatorni motor kallagining va blokining suv g'ilollariga biriktiradi.

Yopiq sovitish tizimi radiatorining tijinida (10.4-rasm) bug'-havo klapani bo'ladi. Bunday tijin jips yopilib, suvning qaynash harorati 106—108°C gacha oshiriladi. Radiatordagi ortiqcha bosim 0,02 — 0,03 MPa ga yetganda bosim kuchi prujina (5) ning kuchini yengib, bug' klapani (1) ochiladi va ortiqcha bug' quvurcha (4) orqali atmosferaga chiqadi (10.4-rasm, b). Havo klapani (2) ning kuchsiz prujinasi (3) atmosfera bosimi ta'siridan ochilib, quvurcha (4) orqali tashqaridan havo kiradi (10.4-rasm, a). Bu klapan yuqorigi bakdagj bosim atmosfera bosimidan 0,01—0,04 MPa kamayganda ochiladi.

Ventilator (10.5-rasm) havo oqimi hosil qiladi. Ventilator gupchak (2) ga mahkamlangan to'rtta yoki oltita parrak (1) dan iborat. Gupchak suv nasosi korpusi (7) ga o'rnatilib, ikkita sharikli podshipnikda aylanadi. Gupchak shkivi bitta yoki ikkita ponasimon qirqimli tasma (3) bilan aylantiriladi. Ventilator tasmasi kronshteyn (9) ga o'rnatilgan tarang-lovchi tolik (10) ni burib yoki ventilator shkivi o'rnatilgan kronshteynni ko'tarib taranglanadi. Ko'pincha ventilator va generator bir tasma bilan tirsakli valdan harakatga keltirilib, tasma generatori burib qo'yish bilan taranglanadi.

Suv nasosi sovitish tizimida suvni majburan harakatga keltiradi. Traktor va avtomobil motorlarida, asosan, markazdan ochirma tipdag'i




10.4-rasm. Bug'-havo klapani radiotor tigini:

a — tashqaridan havo kirishi; *b* — tashqariga bug' chiqishi; *1* — bug' klapani;
2 — havo klapani; *3* — kuchsiz prujina; *4* — quvurcha; *5* — kuchli prujina

Suv nasosi qo'llaniladi. Suv nasosi (10.6-rasm) motoring blok-karteri (8) ga mahkamlangan cho'yan korpus (7), povodok (11) orqali ventilator guphagini (2) ga mahkamlangan val (4) bilan birga aylanadigan parrak (6) dan iborat. Suvning nasosdagi tirkishlar orqali tashqariga sizmasligi uchun valga salnik (5) o'rnatilgan. Salnik gayka bilan zichlanadi yoki rezina manjeta, prujina va shaybalar bilan o'z-o'zidan zichlanadigan qiftinadi.


Markazdan qochirma suv nasosining ishlash sxemasi 10.6-rasmda keltirilgan. Korpus (1) ning o'rtasidagi qisqa quvur (5) dan suv keladi. Val (4) bilan birga aylanadigan parrak (2) sunni markazdan qochirma kuch ta'sirida nasosning korpusiga haydar, sovitish tizimida majburiy harakatga keltiradi. Suv nasosning korpusiga nisbatan urinma yo'nalishda joylashtirilgan quvur (5) dan suv g'iloflariga tarqaladi.



10.5-rasm. Ventilator va suv nasosi:


*1 va 6 — parrak; 2 — gupchak; 3 — tasma; 4 — val; 5 — salnik; 7 — korpus;
8 — blok-karter; 9 — kronshteyn; 10 — taranglovchi rolik; 11 — povodok*

Termostat (10.7-rasm) sovitish tizimidagi suvning haroratini ma'lum chegarada saqlaydi va suvning isishini tezlashtiradi. Termostat yuqorigi qisqa quvur (*1*) ga o'rnatilib, korpus (*3*), qovurg'ali jez silindr (*5*), shtok (*8*) ka mahkamlangan asosiy klapan va yordamchi klapan (*4*) dan iborat. Jips berkitilgan silindрга osон bug'lanадиган suyuqlik — etil spirtining suvdagi eritmasi oz miqdorda quyilган. Ba'zi motorlarda



10.6-rasm. Markazdan qochirma suv nasosining ishlash sxemasi:
1 — korpus; 2 — parrak; 3 — qisqich quvur; 4 — val; 5 — quvur

qattiq modda (mis kukuni aralashtirilgan serezin) to'ldirilgan termostatlar qo'llaniladi.



10.7-rasm. Termostat va uning ishlash sxemasi:
a — suvning kichik doira bo'ylab, b — suvning katta doira bo'ylab harakat qilishi; 1 — qisqa quvur; 2 — asosiy klapan; 3 — korpus; 4 — yordamchi klapan; 5 — qovurg'ali jez silindr; 6 — teshik; 7 — kanal; 8 — shtok; 9 — korpus uyasi


Tizimdagи suv sovuq bo'lganda silindr siqilgan holatda bo'lib, asosiy klapan termostat korpusi uyasi (9) ni berkitib, yuqorigi qisqa quvurga suv o'tkazmaydi. Bunday holda yordamchi klapan ochiq bo'lib, suv termostat korpusidagi teshiklar (6) orqali kanal (7) ga kirib, undan suv

nasosiga qaytadi (10.7-rasm, a). Ya'ni kichik doira orqali harakat qiladi. Tizimga suv quyishda suv g'iloflaridagi havoni chiqarib yuborish uchun asosiy klapanga kichkina teshik qilingan.

Suv radiatorda sovitilmaganligi uchun tez isib, silindr (5) ichidagi suyuqlik bug'ga aylana boshlaydi. Suvning harorati 70°C ga yetganda silindr suyuqlik bug'lari bosimi ta'siridan kengayib, asosiy klapanni ocha boshlaydi. Suvning harorati 85°C ga yetganda asosiy klapan batamom ochilib, yordamchi (pastki) klapan bekiladi va suvning hammasi radiator orqali o'tib, katta doira orqali harakat qiladi (10.7-rasm, b). Suv soviganda silindr siqiladi va shtok klapanlarni pastga tushiradi. Shunday qilib, termostat suvning haroratini avtomat ravishda 70—85°C chamasida saqlaydi.

Jaluzalar va parda radiator orqali o'tadigan havo oqimini o'zgartirib, motorning issiqlik rejimini rostlab turish imkonini beradi.

Jaluzalar (I) (10.8-rasm) buriladigan plastinalardan iborat bo'lib, radiator oldiga o'rnatiladi. Jaluzalar tortqi va richaglar tizimi orqali haydovchining o'rnidan boshqariladi. Plastinalar burilganda radiator



10.8-rasm. Sovitish tizimi elementlari:

1 — jaluza; 2 — radiator; 3 — ventilator; 4 — kran; 5 — shkiv; 6 — tasma; 7 — suv nasosi; 8 — taqsimlash trubkasi; 9 — termostat; 10 — yuqorigi qisqa quvur; 11 — yuqorigi bak; 12 — tiquq; 13 — trubka

batamom to'silib, undan havo o'tmaydi, qisman burilganda plastinalar orasida turli kenglikda tirqish hosil bo'ladi. Plastinalar tik va yotiq joylashtirilgan bo'ladi.

Parda radiatorming oldini to'sib qo'yadigan qalin matodan iborat. Parda tushirib qo'yilsa, havo kamroq o'tib, motor tezroq isiydi.

Jaluzalar va parda sovuq vaqtarda, shuningdek, yurgizib yuborilgan motorni tezroq isitish maqsadida qo'llaniladi.

Motorning sovitilish darajasi haydovchi ro'parasiga o'rnatilgan termometrga qarab kuzatiladi. Termometrning datchigi motorning kallagiga yoki radiatorming yuqorigi bakiga o'matiladi.

Sovitish tizimi clementlarining motorda joylashtirilishi va ularning birga ishlashi TA3-51A motori misolida ko'rsatilgan. Bu motorning sovitish tizimi suvi majburan aylantiriladigan yopiq tizim bo'lib, trubkali radiator (2), to'rt parakli ventilator (3) va u bilan bir valga o'rnatilgan markazdan qochirma suv nasosi (7) dan iborat. Ventilator ikkita ponasimon tasma (6) bilan tirsakli valning shkivi (5) dan harakatga keltiriladi.

Suv quyish bo'g'zi bug'-havo klapanli tiqin (12) bilan berkitilib, bug' chiqishi yoki havo kirishi uchun unga trubka (13) ulangan. Motor kallagiga termostat (9) o'matilgan. Sovitish tizimidagi suvni bo'shatib olish uchun radiator pastki bakiga jo'mrak (4) o'rnatilgan. Bundan tashqari, blokning chap tomonida ham bo'shatish jo'mragi bor. Suvning harorati asboblar taxtasidagi elektrik ko'rsatkichdan kuzatiladi, uning datchigi silindrlar kallagiga joylashtirilgan.

Motor yurgizilgandan keyin suv nasosi radiatorming pastki bakidan suvni so'rib olib, taqsimlash trubkasi (8) ga haydaydi. Suv taqsimlash trubkasining oltita teshigi bor. Trubkadan suv blok-karterning suv g'ilofiga va blokning yuqorigi tekisligidagi teshiklar orqali kallakning suv g'ilofiga borib, motorning eng qizigan qismlarini sovitadi.

Keyinchalik suv ikki yo'naliishi aylanishi mumkin. Suvning harorati $70^\circ \pm 2^\circ$ ga yetguncha termostatning asosiy klapani yopiq, yordamchi klapani esa ochiq bo'ladi. Bunda suv radiatorga bormay, termostatning yon teshiklari orqali nasosga qaytadi. Suv $70^\circ \pm 2^\circ$ dan ortiq isigan sari asosiy klapan ochila boshlaydi va suvning bir qismi yuqorigi qisqa quvur (10) orqali radiatorming yuqorigi baki (11) ga boradi, bir qismi yordamchi klapan orqali nasosga qaytaveradi.

Suvning harorati $83^\circ \pm 2^\circ$ ga yetganda asosiy klapan batamom ochilib, yordamchi klapan bekiladi va tizimdagisi suv safat radiator orqali aylanib o'tadi.

Sovituvchi suvning harorati kabinadan boshqariladigan jałuza (*I*) bilan ham qo'shimcha rostlanadi.

4-§. Sovitish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish

Sovitish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish suv quyish, ventilator tasmalarini taranglash, bo'shagan qismlarini mahkamlash, suv sizishini to'xtatish, ventilator va nasosni moylash hamda sovitish tizimini quyqadan tozalashdan iborat. Havo bilan sovitish tizimida ventilatorga havo kiradigan sim to'r va silindrlarning sovituvchi qovurg'alarini orasi tozalanadi.

Sovitish tizimi durust ishlamasasi, suv qaynab ketadi yoki motor yetarli darajada qizimaydi (o'ta soviydi). Suv sovitish tizimidagi tashqari ta'minlash, yondirish va moylash tizimlari to'g'ri ishlamasligi sababli ham qaynashi mumkin. Suv kam, tasma bo'shagan yoki moy bosgan, jaluzalar yoki parda yopiq bo'lsa, sovitish tizimiga quyqa to'plangan yoki radiator o'zagining sirti ifloslangan bo'lsa, radiatordan pastki qismida suv muzlab qolgan bo'lsa, termostat durust ishlamasasi yoki motor ortiqcha zo'riqib ishlasa, sovitish tizimining suvi qaynab ketadi.

Termostat to'g'ri ishlamasasi (asosiy klapani yopilmasa), jaluzalar yoki pardadan vaqtida foydalanimasa, motor yetarli qizimaydi (sovi ketadi).

Sovitish tizimiga har doim tiniq, oq suv («yumshoq suv») quyish kerak. Suvning sizishiga va sathining kamayishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Yopiq sovitish tizimidagi suvni motor sovigandan keyin bo'g'izning tinqinini ochib bo'shatib olish kerak.

Sovitish tizimining bo'shagan qismiarini tekshirib mahkamlash vaqtida radiator, xomut va shlanglar, suv o'tadigan qisqa quvurlar va suv nasosining salniklari, ventilator, taranglovchi rolikni ko'zdan kechirish lozim.

Ventilator tasmasing tarangligi bosh barmoq bilan bosib ko'rib yoki parrakning uchiga tosh osib tekshiriladi. Tasma avtomobil motorlarida 30—40 N, traktorlarda 50—70 N kuch bilan o'rtasidan bosilganda 15—20 mm egilishi lozim.

Sovitish tizimidagi quyqani yuvish uchun 1 /suvga 100 g kir sodasi va 50 g kerosin qo'shib aralashma tayyorlanadi. Sovitish tizimi bunday aralashma bilan to'ldirilib, 10 — 12 soat qoldiriladi. So'ngra motor yurgizilib 10—15 daqiqa o'rta tezlikda ishlatiladi va shundan keyin aralashma to'kiladi, so'ngra sovitish tizimi toza suv bilan yuviladi.

Aluminiy kallakli motorlarning sovitish tizimi termostatni olib qo'yib, kuchli suv oqimi bilan yuvib tozalanadi.

Sovuq kunlarda motorga suvni isitib quyish lozim. Buning uchun bo'shatib olish jo'mragi ochib qo'yilib, undan issiq suv tusha boshlaguncha suv quyiladi, keyin jo'mrak berkitilib, tizimga suv to'ldiriladi. Suvning muzlamasligi uchun parda va jaluzalardan foydalanish va motorga paxtali g'ilof kiygizish kerak. Ortiqcha sovuq hududlarda suv o'rniда past haroratda muzlaydigan antifriz qo'llaniladi.

Termostatning to'g'ri ishlashini tekshirish uchun u suvgaga solib ko'riladi. Suv isitilib harorati 68—72°C ga yetganda termostatning asosiy klapani ochila boshlashi va 82—85° da 9 mm ko'tarilib, batamom ochilishi lozim.

Nazorat savollari

1. Motorni nima uchun sovitish kerak? Ortiqcha qizishi yoki yetarli qizimasligi motor ishiga qanday ta'sir etadi?
2. Traktor va avtomobil motorlari qanday sovitiladi? Sovitish usullarining bir-biridan farqi.
3. Havo bilan sovitish tizimining tuzilishi, ishlashi va suv bilan sovitish tizimiga nishbatan qanday afzallik hamda kamchiliklarga ega ekanligini aytib bering.
4. Suvi majburan aylantiriladigan yopiq sovitish tizimining asosiy elementlari qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
5. Sovitish tizimining to'g'ri ishlashini tekshirishda nimalarga e'tibor beriladi?
6. Qanday sabablarga ko'ra motor ortiqcha qizishi yoki yetarli qizimasligi mumkin?
7. Sovitish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish vaqtida bajariladigan ishlari.
8. Havo sovuq vaqtarda sovitish tizimiga qanday texnik xizmat ko'rsatish kerak?

II-bob. TRAKTOR VA AVTOMOBILLARNING ELEKTR JIHOZLARI

1-§. Umumiy ma'lumotlar

Traktor va avtomobilarning elektr jihozlari vositasida silindirlardagi ish aralashmasi yondiriladi, motorni yurgizib yuborishda tirsakli vali aylantiriladi, yo'l va ish qurollari yoritiladi, signal berish va nazorat qilish asboblari ham elektr toki yordamida ishlaydi.

Elektr jihozlariga tok manbalari, tok iste'molchilar hamda ularni bir-biriga birlashtiruvchi har xil simlar, saqlagichlar va nazorat asboblari kiradi.

Barcha avtomobilarda va ko'pchilik traktorlarda tok manbayi sifatida akkumulatorlar batareyasi va o'zgarmas tok generatori qo'llaniladi. Ba'zi traktorlarda tok manbayi sifatida magneto va o'zgaruvchan tok generatori o'rnatiladi.

Elektr toki iste'molchilar yondirish tizimi asboblari (yondirish g'altagi, uzbek-taqsimlagich, svechalar), yoritish tizimining asboblari (faralar, podfarniklar, fonarlar, shchit lampalari va boshqalar), signalizatsiya tizimi (tovush signali, stop signal, burlish ko'rsatkichlari), yurgizish tizimi (startyor, uni qo'shish mexanizmlari, qizdirish svechalar) va nazorat-o'lchov asboblari (ampermestr, moy bosimi, moy va suv harorati, yonilg'i miqdori ko'rsatkichlari) dan iborat.

Elektr jihozlar tizimida bir simli tizim qo'llanilib, mashinalarning metall qismi — «massa» ikkinchi sim vazifasini o'taydi. Tok manbalari va iste'molchilarining mansiy klemmalari massaga ulangan.

Elektrotexnika qoidalariiga muvosiq. tok iste'molchilarga simdan borib, manbaga massadan qaytadi deb shartli qabul qilingan.

Traktor va avtomobilning to'la quvvat berishi, tejamlı ishlashi, yurgizib yuborish va ishlatish uchun qulayligi elektr jihozlar tizimining bekam-u ko'st ishlashiga ko'p darajada bog'liq.

2-§. Yonilg'ini yondirish usullari va yondirish payti

Porshentli ichki yonuv motorlarida yonilg'i quyidagi usullarda yondiriladi:

A. Havoni siqishda hosil bo'ladigan issiqdan yondirish traktor va avtomobil dizel motorlarida qo'llaniladi. Motorlarning siqish darajasiyuqori (13—20) bo'lganligi sababli silindрга kiritilgan havo siqish takti oxirida $500 - 650^{\circ}\text{C}$ gacha qiziydi. Forsunkadan mayda to'zitib purkalgan yonilg'i qizigan havoga tegib alangalanib ketadi.

B. Elektr uchqunidan yondirish benzinli va gaz motorlarida qo'llaniladi. Bu tizim tok manbayi, yondirish svechasi va ularni bir-biriga ulaydigan simdan iborat. Tok manbayi yuqori kuchlanishli tok ishlab chiqaradigan maxsus asbobdan (magnetadan yondirish) yoki past kuchlanishli tok manbayi va manba tokini yuqori kuchlanishli tokka aylantiradigan va taqsimlaydigan uskunadan (batareyali yondirish) iborat bo'lishi mumkin.

Yondirish payti. Yonilg'i elektr uchqunidan yondiriladigan motorlarda eng ko'pi quvvat hosil qilish va yonilg'inинг solishtirma sarfini kamaytirish uchun ish aralashma ish yo'li takti boshlanishi oldidan yona boshlab, ish yo'li taktida tirsakli val $10 - 12^{\circ}$ burliganda tugallanishi lozim. Bunday yondirish normal yondirish deyiladi.


Motor to'la yuklanishda ishlaganda uming silindrlarida ish aralashma sekundiga $20 - 30$ m tezlikda yonadi. Turli motorlarda normal yondirishga erishish uchun porshen siqish taktida YCHN ga $20 - 45^{\circ}$ yetmasdan uchqin berilishi kerak. Yondirishni ilgarilash burchagi motorning aylanishlar soniga, yuklanishiga, ish aralashmaning tarkibiga, yonilg'inинг naviga, motorning siqish darajasiga va yonish kamerasining shakliga, svechalarining qanday joylashtirilishiga va boshqa omillarga bog'liq.

Motorning aylanislar soni oshganda, yondirishni ilgarilash burchagi kattalashtirilishi lozim, aks holda aralashmaning normal yonishi uchun vaqt yetmaydi. Motorning yuklanishi kamayganda (drossel yopiqroq turganda) silindrlarga oz miqdorda aralashma kiradi va unga qoldiq gaz ko'proq aralashadi. Bunday aralashma sekin yonadi. Shuning uchun yondirishni ilgarilash burchagi oshirilishi lozim. Oktan soni kattaroq yonilg'i qo'llanilganda ham yondirishni ilgarilash burchagi oshirilishi lozim. Yonditish tizimida motorning ish rejimi o'zgarganda yondirish paytini o'zgartiradigan moslamalar bo'lishi kerak.

Yondirish tizimining asboblarini noto'g'ri o'rnatish yoki noto'g'ri rostlash aralashmaning ortiqcha ilgari yoki kech yondirilishiga sabab bo'ladi. Ikkala holda ham motorning quvvati kamayadi, yonilg'inинг solishtirma sarfi ortadi. Aralashma kech (ish yo'li taktida) yondirilganda motor ortiqcha qiziydi. Ortiqcha ilgari yondirilganda ish yo'li takti

boshlanishidan oldin aralashma yonib bo'lib, siqish taktida porshenga zo'r keladi va motor taqillab ishlaydi. Motorni yurgizib yuborishda aralashma kechroq yondirilishi lozim, aks holda tirsakli val teskarisiga aylanishi mumkin. Demak, yondirish asboblarini aralashma normal yondiriladigan qilib to'g'ri o'rnatish motoring quvvatini oshirish, tejamli ishlatish hamda xavfsiz yurgizib yuborish imkonini beradi.

3-§. Yondirish svechaları



11.1-rasm. Yondirish svechasi:

- 1 — markaziy elektrod;
- 2 — yon elektrod;
- 3 — zichlovchi qistirma;
- 4 — korpus; 5 — zichlovchi shayba;
- 6 — izolator;
- 7 — uchlik;
- 8 — siquvchi halqa

Yondirish svechasi motor kallagiga burab qo'yilib (2.14-rasm. 3), yonish kamerasidagi siqilgan ish aralashmani alangalash uchun elektr uchquni hosil qiladi. Yondirish svechasi yuqori harorat, yuqori bosim, elektr uchquni va yonishdagi boshqa kimyoviy moddalar ta'siriga bardosh berib ishlaydi. Qismlarga ajraladigan va qismlarga ajralmaydigan svechalar bo'ladi.

Qismlarga ajralmaydigan yondirish svechasi (11.1-rasm) yon elektrod (2) li metall korpus (4) va markaziy elektrod (1) li keramik izolator (6) dan iborat. Izolator korpusga jips kirkizilib, ustidan siquvchi halqa (8) o'rnatilgan. Izolatorning korpusga jips biriktirilishi va svechaning jips o'rnatilishi uchun izolatorga zichlovechi shaybalar (5) va korpusga zichlovechi qistirma (3) qo'yiladi. Yuqori kuchlanishli sim svechaga uchlik (7) orgali biriktiriladi yoki sim uchligi ilintirilib, gayka bilan siqib qo'yiladi.

Qismlarga ajraladigan svechaning izolatori shikastlanganda uni almash-tirish mumkin, ammo gaykani burashda izolator yorilishi ehtimol. Qismlarga ajraladigan svecha qo'pol, og'ir va qimmat turadi, shu sababli u kam qo'llaniladi.

Svechaning markaziy elektrodi bilan yon elektrodi orasida 0,6—0,8 mm tirqish bo'ladi. Yuqori kuchlanishli tok markaziy elektroddan yon elektrodga yoki, aksincha, shu tirqish orqali o'tib, yonish kamerasida ish aralashmani yondiradigan uchqun hosil qiladi. Tirqish shchup bilan o'lchanib, lozim bo'lsa, yon elektrodnini egib rostlanadi.

Svecha qalin rezina izolatsiyali ko'p qavat mis sim orqali yuqori kuchlanishli tok taqsimlagichiga tutashtiriladi.

Svechaga texnik xizmat ko'rsatish elektrodlar orasidagi tirqishni rostlash, svechani toza holda saqlashdan iborat. Ifloslangan svechani yumshoq mis sim cho'tka bilan benzinda yuvish lozim. Svechani tig'li asbob bilan qirib yoki jilvirlab tozalash yaramaydi, chunki izolatorning sirtidagi yaltiroq pardasi shikastlanib, svecha tez ifloslanib, ishlamay qoladi. Shuningdek, har bir motorga svechaning belgilangan markasini o'rnatish zarur, aks holda svecha yaxshi ishlamaydi va tez ishdan chiqadi.

4-§. Magnetoda yondirish tizimi.

Yuqori kuchlanishli magnetoning tuzilishi va ishlashi


Magneto magnitli elektr mashina — past kuchlanishli o'zgaruvchan tok ishlab chiqarib, uni yuqori kuchlanishli tokka aylantiradi va ko'p silindrli motorlarda yuqori kuchlanishli tokni silindrarning ishslash tartibiga muvofiq svechalarga taqsimlaydi.

Magneto (11.2-rasm, a) ikkita qutb boshmog'i (2) li korpus (3), aylanuvchi magnit — rotor (7), induksion g'altak, uzgich va kondensator (9) dan iborat.

Magnetoning korpusi aluminiy qotishmasidan yasalgan. Rotor vali korpusdagi ikkita shariqli podshipnikda aylanadi. Rotoring oldingi uchiga harakat uzatish mustasi, ketingi uchiga esa kulachok (14) o'rnatilgan.

Induksion g'altak, qutb boshmoqlariga o'rnatilgan o'zak (4), unga o'ralgan birlamchi chulg'am (5) va ikkilamchi chulg'am (6) dan iborat. Birlamchi chulg'am 200—300 o'rami izolatsiyali simdan iborat bo'lib, uning bir uchi g'altak o'zagiga, ya'ni massaga, ikkinchi uchi uzgichning qo'zg'almas kontakti (12) ga ulangan. Ikkilamchi chulg'am 10000—13000 o'ram izolatsiyali simdan iborat bo'lib, uning bir uchi birlamchi chulg'amga va u orqali massaga, ikkinchi uchi ega kontakt plastina (10) ga ulangan. Magneto korpusi orqa tomonidan qopqoq (8) bilan berkitiladi.


Kondensator (9) birlamchi chulg'amga nisbatan parallel ulanib, uning bir uchi massaga, ikkinchi uchi esa uzgichga biriktirilgan.



11.2-rasm. Magneto (a) va uning ishlash sxemasi (b):

1 — aylanuvchi rotor-magnit; 2 — qutb boshmog'i; 3 — korpus; 4 — o'zak; 5 — birlamchi chulg'am; 6 — ikkilamchi chulg'am; 7 — elektrod; 8 — qopqoq; 9 — kondensator; 10 — kontakt plastina; 11 — tashqariga chiqarilgan kontakt; 12 — uzgichning qo'zg'almas kontakti; 13 — uzgichning qo'zg'aluvchan kontakti; 14 — kulachok; 15 — disk; 16 — yoqib-o'chirgich

Uzgich massaga tutashtirilgan qo'zg'aluvchan kontakt (13), izolatsiyalangan qo'zg'almas kontakt (12) va kontaktlar o'rnatilgan disk (15) dan iborat. Kontaktlar prujina ta'sirida bir-biriga siqiladi, kulachok (14) esa ularni ajratadi. Magnit bir aylanganda kontaktlar bir marta ajralib, ularning orasida 0,25—0,35 mm tirkish hosil bo'ladi.



11.3-rasm. Magnetoning ishlash sxemasi

Magneto rotori shesternalar vositasida motorning tirsaklı validan harakatga keltiriladi. Birlamchi chulg'amda tok hosil bo'lishi elektr magnit induksiyasi hodisasiiga asoslangan (11.3-rasm). Magnit (rotor) aylanib, uning qutblari stoykaga ro'para kelganda (11.3-rasm, I) magnit maydoni shimoliy qutbdan janubiy qutbg'a korpusning chap qutb

boshmog'i, induksion g'altakning o'zagi va o'ng qutb boshmog'i orqali o'tadi. Magnit shu holatdan chorak aylanaga burilganda -- neytral holatda (*II* holat) rotoarning magnit maydoni korpus qutb boshmoglarining pastki qismi orqali o'tib, g'altak o'zagidan o'tmaydi. Magnit yana chorak aylanaga burilganda (*III* holat) rotor qutblari yana boshmoqlar ro'parasiga to'g'ri keladi, ammo oldingi galddagiga nisbatan o'rni almashganligi sababli o'zakda paydo bo'ladigan magnit maydonining ham yo'nalishi o'zgaradi.

Demak, rotor bir marta aylanganda g'altak o'zagidagi magnit maydonining miqdori va yo'nalishi ikki marta o'zgaradi. G'altakning e'zagida magnit maydoni o'zgarganda magnit kuch chiziqlari g'altakka o'ralgan birlamchi chulg'am o'ramlarini kesib o'tib, unda past kuchlanishli tok induksiyalanadi.

Bu tok (11.2-rasm, *b*) birlamchi chulg'am (*5*) dan uzgichning qo'zg'almas kontakti (*12*) ga o'tib, undan qo'zg'aluvchan kontakt (*13*), massa, korpusning qutb boshmog'i (*2*) va g'altakning o'zagi (*4*) orqali birlamchi chulg'amning ikkinchi uchiga qaytadi yoki teskari yo'nalishda o'tib, birlamchi tok zanjirini hosil qiladi. Birlamchi tok zanjiridagi kuchlanish 8—12 V atrosida bo'ladi.

O'zakda magnit maydonining miqdori va yo'nalishi ikki marta o'zgarishi sababli birlamchi chulg'amda ikki marta tok hosil bo'lib, ikki marta yo'qoladi va har gal tokning yo'nalishi o'zgarib turadi. Birlamchi chulg'amda tok hosil bo'lganda uning o'ramlari atrosida magnit maydoni vujudga keladi. Magnit aylanib, neytral holatdan taxminan $\alpha = 8 - 10^\circ$ burilganda (*II* holatda) birlamchi chulg'amdag'i tok va uning o'ramlari atrofidagi magnit maydoni kuchbaygan bo'ladi, bu α burchagi magnetoning «abrasi» deyiladi. Shu paytda magnitning uchidagi kulachok uzgichning kontaktlarini bir-biridan uzoqlashtiradi. Natijada birlamchi tok zanjiri uzilib, chulg'amdag'i tok yo'qoladi va tokning magnit maydoni ham tezda qisqaradi.

Magnit maydoni qisqarishida birlamchi chulg'am jar bir o'ranning kuch chiziqlari yonidagi o'rmini kesib o'tib, birlamchi chulg'amda o'zinduksiya tok'i hosil qiladi. Bu toklar bir xil yo'nalishga ega bo'lganligi sababli chulg'amdag'i tokning kuchlanishi ortib 200 — 300 V ga yetadi.

Tok kuchlanishining ortishi uzgich kontaktlari ajralganda ularning orasida uchqun paydo bo'tishiga sabab bo'ladi. Bu uchqun kontaktlarni kuydiradi va birlamchi chulg'amda tokning tez yo'qolishiga to'sqinlik qiladi hamda magnit maydonining qisqarishini sekinlashtiradi.

Uzgich kontaktlarining orasida uchqun hosil bo'lmasligi va birlamchi zanjir magnit maydonining keskin qisqarishi uchun uzgichning kontaktiarga parallel qilib, 0,25 m kf sig'imiли kondensator ulanadi. Uzgichning kontaktlari ajralib past kuchlanishli tok zanjiri uzelganda, kondensator chulg'amdag'i tokni o'ziga singdiradi va o'ramlarning magnit maydoni tez qisqaradi.

Birlamchi chulg'am magnit maydonining keskin qisqarishi sababli uning ustiga o'ralgan ikkilamchi chulg'am (6) da yuqori kuchlanishli tok induksiyalanadi. Ikkilamchi chulg'am o'ramlarning soni ko'p bo'lganligi uchun tokning kuchlanishi 10000—24000 V ga yetadi. Bu yuqori kuchlanishli tok induksion g'altakning ikkilamchi chulg'ami (6), tashqariga chiqarilgan kontakt (17), yuqori kuchlanishli sim (17), svecha (18) ning markaziy elektrodi, uchqun oralig'i, yon elektrod, massa, o'zak va birlamchi chulg'am orqali ikkilamchi chulg'amning ikkinchi uchiga qaytib yoki aksincha yo'nalishda o'tib, ikkilamchi tok zanjirini hosil etadi.

Ko'p silindrli motorlarga o'rnatiladigan magnetoda tok ikkilamchi chulg'amdan taqsimlagich barabanining markaziy elektrodiga va uning kontaktlaridan yuqori kuchlanishli tok simlarining elektrodiga navbat bilan o'tkaziladi.

Yuqori kuchlanishli magnetoda saqlagich, yoqib-o'chirgich va yurgizish tezlatgichi yoki ilgarilash mustasi ham bo'ladi.

Yuqori kuchlanishli sim uzilishi yoki svechadan chiqib ketishi, svecha elektrodining sinishi va boshqa sabablarga ko'ra svechada uchqun hosil qilmasligi sababli ikkilamchi chulg'am zanjiri tutashmasa, chulg'am izolatsiyasi shikastlanishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ikkilamchi chulg'am zanjiriga elektrod (7) bilan 12 mm ga yaqin *saqlagich uchqun oralig'i* qilinadi. Svechada uchqun hosil bo'lmasa, yuqori kuchlanishli tok shu oraliqdan o'tib, chulg'amning izolatsiyasini shikastlanishdan saqlaydi.

Yondirish uzgichi (16) birlamchi chulg'am zanjirini uzgichdan tashqari massaga tutashtiradi, natijada past kuchlanishli tok zanjiri uzilmaydi va yuqori kuchlanishli tokni induksiyalamaydi, ya'ni magneto ishdan to'xtaydi va motor o'chadi. Uzgich magnetoga o'rnatilgan tugma yoki ayrim chiqarilgan richagcha ko'rinishida qilinadi.

Yurgizish tezlatgichi (11.4-rasm, a) yurgizish dastasidan aylantirib o't oldiriladigan motorlarni yurgizib yuborishda magneto rotorini tez aylantirib, ikkilamchi chulg'amda induksiyalanadigan tokning kuchlanishini oshiradi hamda yurgizib yuborishda uchqun hosil bo'lishini kechiktiradi. Tezlatgich harakatlantirish valiga biriktiriladigan yetakchi

gardish — oboyma (10), magneto rotoriga vtulka (4) va shponka bilan mahkamlangan yetaklanuvchi disk (7) va gardishni diskka biriktiradigan yassi spiral prujina (8) dan iborat.

Motorni yurgizib yuborishda yetaklanuvchi diskning o'qi (3) dagi richagecha (6) lar magnetoning oldingi qopqog'iغا mahkamlangan disk (1) ning tiragi (2) ga tiralib, gardish (10) aylansa ham yetaklanuvchi diskni aylanishdan to'xtatadi va prujina (8) buralib siqiladi.


Richagchalarning uchi gardish chiqig'i (9) ga tiralib, diskning tiragi (2) dan chiqarilganda spiral prujina keskin kengayib yetaklanuvchi diskni va u bilan bog'langan magneto rotorini daqiqasiga 250 marta tezlikda aylantiradi. Motor yurgizilib, tirsakli val daqiqasiga 150—170 marta aylanganda, richagchalar markazdan qochirma kuch ta'siridan kerilib, yetaklanuvchi disk chiqig'i (5) ga tiraladi, disk (1) tiragiga ilinmaydi, ya'ni tezlatgich ishlamaydi. Demak, tezlatgich prujinasining siqilishi hisobiga uchqun yuborilishi kechikadi va prujinaning yozilishi hisobiga rotor tez aylanadi.

Ilgarilash muftasining maxovigi chizimcha bilan aylantirib yurgizib yuboriladigan motorlarga o'rnatiladi. Motor o't olgach, uning aylanishlari soni ma'lum chegaradan oshganda, bu mufta yondirish paytini avtomat ravishda ilgarilaydi.

Ilgarilash muftasining dastiabki konstruksiyasi (11.4-rasm, b) ikkita shtift (5) li korpus (2), sharnir holda biriktirilgan ikki just yukcha (3) va ikkita shtift (6) li yetaklanuvchi shayba (7) dan iborat.

Korpus povodok (1) vositasida motorning yuritma valiga, shayba (7) esa magneto rotoriga biriktirilgan. Korpus va shaybанинг shtiftlariga yukchalarning uchi kiygizilgan. Bitta yukchaga mahkamlangan yassi prujina (4) yukchalarni ma'lum holatda saqlaydi. Korpusdan shaybaga (motor yuritmasidan magneto rotoriga) yukehalar orqali harakat o'tadi. Motorning aylanishlari daqiqasiga 1000—1100 dan oshganda mufta ishilay boshlab, yukehalarning markazdan qochirma kuchi yassi prujinalarning elastiklik kuchini yengadi va yukehalar kerilib, shtift bilan birga shaybani bura boshlaydi (rasmida punktir chiziqlar bilan tilgan). Motorning aylanishlari daqiqasiga 1700—2000 ga yetgaeda, ilgarilash muftasining yetaklanuvchi shaybasi burilib, yondirish paytini 16—18° ilgarilaydi.

Ilgarilash muftasining takomillashtirilgan konstruksiyasi (11.4-rasm, d) yetaklanuvchi disk bilan birga aylanadigan vtulka (1) va bu vtulkaga erkin o'rnatilgan plastina (2), korpus (4), plastina (7) va povodok (8) dan iborat. Bu detallar vtulkaga halqalar bilan mahkamlab



11.4-rasm. Yurgizish tezlatgichi (*a*) va yondirishni ilgarilash muftalari (*b*, *d*):

- a)* 1 — disk; 2 — tirak; 3 — o'q; 4 — vtulka; 5 — disk chiqig'i; 6 — richagcha; 7 — yetaklanuvchi disk; 8 — spiral prujina; 9 — oboyma chiqig'i; 10 — oboyma; *b)* 1 — korpus povodagi; 2 — korpus; 3 — yukchalar; 4 — yassi prujina; 5 va 6 — shiftlar; 7 — shayba; *d)* 1 — vtulka; 2 va 7 — plastina; 3 — yukeha; 4 — korpus; 5 — qalpoqcha; 6 — prujina; 8 — povodok

qo'yilgan. Korpus ichiga ikkita yukeha (3) joylashtib, qalpoqcha (5) ichidagi prujina (6) lar bilan korpus gupchagiga siqilib turadi. Vtulka tez aylangan yukchalar markazdan qochirma kuchi ta'sirida korpusning o'yilqlarida siljib prujinalarni siqadi.

Vtulka (*I*) magneto rotoridagi shponkaga kirdzilib, gayka bilan mahkamlab qo'yilgan. Yetaklanuvchi disk va povodokning bir-biriga nisbatan 90° burchak hosil qiladigan qilib joylashtirilgan ikkitadan kesigi bor. Yukchalarining shpilkalar plastinalar kesigidan o'tkazilib, yetaklanuvchi disk va povodok teshigiga kirdzilgan. Povodokning qayrilgan chekkalar magnetoning harakatlantirish shesternasiga krigizildi.

Yukchalar markazdan qochirma kuch ta'siridan kerilganda, shpilkalar povodok va yetaklanuvchi diskning qiya kesiklarida siljib, magneto rotorini aylanish tomoniga buradi. Bu mustanening ish ko'rsatkichlari 11.4-rasm, *b* da tasvirlangan mustanikiga o'xshash.

5-§. Magnetoni o'rnatish va unga texnik xizmat ko'rsatish

Silindrлarda aralashmani kerakli paytda yondirish uchun magneto motorga to'g'ri o'rnatilishi lozim. Buning uchun motorni va magnetoni tayyorlab, keyin uni motorning harakatlantirish valiga biriktirish lozim. Ko'п silindrli motorlarda magneto simlarini svechalarga motor silindrлarining ishlash tartibiga muvofiq ularash kerak.

Magnetoni o'rnatish va to'g'ri o'rnatilganligini tekshirishni ПД-10М markali motorga magnetoning o'rnatilishi misolida tushuntirib o'tamiz. Silindr svechasini burab chiqarib, uning teshigidan yassi sim (shchup) kiritib, motor maxovigi val bilan ish yo'nalishida buriladi. Silindrda porshen YCHN ga yetganda (ko'tarilayotgan sim pastga tusha boshlaganda) simga belgi qilib, undan 5,8 mm balandga ikkinchi belgi qilinadi. Keyin sim ikkinchi belgiga qadar pastga tushguncha maxovik teskariga buriladi. Bunday holatda porshen YCHN ga 27° yetmagan bo'ladi.

Uzgich qopqog'i ochilib, rotor uzgich kontaktlari ajrala boshlaguncha aylantiriladi. Uzgich kontaktlari ajrala boshlaganda kulachokdagи chiziq uzgich korpusi strelkasi ro'parasida turadi. Shunday holatda avtomat mustanening povodogi harakatlantirish shesternasining o'yig'iga kiritiladi. So'ngra magneto kronshteynga boltlar bilan mahkamlanadi va yuqori kuchlanishli sim svechaga ulanadi.

Magnetoning to'g'ri o'rnatilganligi svechadan simni chiqarib olib, maxovikni aylantirib uchqun hosil bo'lishiga qarab tekshiriladi.

Magnetoga texnik xizmat ko'rsatish. Magnetoni har smenada artib chang, loy va moydan tozalash, puxta biriktirilganligini tekshirish lozim.

Uzgich kontaktlarining tozaligi va ularning orasidagi tirqishi tekshiriladi. Kontaktlar beti qoraygan va g'adir-budur bo'lsa, juda mayda tishli egov bilan tozalanadi yoki benzinda ho'llangan latta bilan artiladi.

Magneto moydonlari va kulachogini moylovchi pilik texnik xizmat ko'rsatishda ko'rsatilgan muddatlarda mashina moyi bilan moylanadi. Yurgizish tezlatgichi va ilgarilash mustasining ishlashi hamda magnetoning to'g'ri o'rnatilganligi tekshiriladi.

Magneto simlarini mahkam biriktirish, toza tutish, ayniqsa, nest mahsulotlari tegishidan saqlash lozim. Magneto kondensatori teshilsa, chulg'amlari uzilsa yoki rotori magnitsizlansa, kontaktlari toza, lekin noto'g'ri sozlangan bo'lsa ham magneto ishlamasligi mumkin, bunday holda magneto tegishli ustaxonada ta'mir qilinadi. Magnetoni bo'larbo'lmasga qismlarga ajratish yaramaydi. Kamchilikni svecha va simdan boshlab axtarish, keyin magnetoni tekshirish lozim.

6-\$. Akkumulatorlar batareyasi

Akkumulator batareyasi motorni yurgizib yuborishda startyorni va motor ishlamagan vaqtida hamda u kichik aylanishlarda ishlaganda barcha iste'molchilarни tok bilan ta'minlaydi. Akkumulator o'zgarmas tok manbayidan zaryadlanganda elektr energiyasi kimyoviy birikma hosil qilish uchun sarflanadi. Iste'molchilarни tok bilan ta'minlab zaryadsizlanganda kimyoviy energiya elektr energiyasiga aylanadi.


Traktor va avtomobilarda, asosan, kislotali qo'rg'oshin akkumulatorlar batareyasi qo'llaniladi (11.5-rasm). U to'siqlar (13) bilan uch yoki olti xonaga ajratilgan bak (6) dan iborat bo'lib, har qaysi idishi (xonasi) alohida qopqoq (5) bilan berkitilgan.

Har bir idishga separatorlar (10) bilan ajratilgan musbat (8) va manfiy (11) plastinalar birin-ketin joylashtirilgan. Separator bilan mushat plastina orasida shisha tola qavati (9) bor. Plastinalar bak tubidagi qovurg'alar (12) ga tiralib turadi.

Ikki chekkada manfiy plastinalar bo'lib, ularning orasiga musbat plastinalar joylashtirilgan, shuning uchun manfiy plastinalar musbatdan bitta ko'p bo'ladi. Bir turli plastinalar baretkalar (7) bilan birlashtirilib, shitirlar orqali klemmalarga chiqarilgan. Eng chetdagi manfiy (1) va musbat (3) klemmalarga qismalar biriktiriladi. Bir akkumulatorning musbat (+) klemmasi buning yonidagi manfiy (--) klemmasiga peremicha (4) bilan ulanadi. Batareyaning eng chetdagi musbat klemmasi elektr startyor qismasiga, manfiy klemmasi esa massaga biriktiriladi.

Akkumulator plastinalari 6—8 % surma qo'shilgan qo'rg'oshindan quyilgan panjara ko'rinishda yasalib, ularga oksidlangan qo'rg'oshin kukuni presslangan. Separatorlar mikropor plastmassadan yasalgan.

Har bir akkumulatorga qopqog'idagi teshikdan elektrolit quyilib, bu teshikka tiqin (2) burab qo'yildi. Elektrolit distillangan suvg'a kimyoiy toza sulfat kislota aralashitirib tayyorlanadi. Zaryadlangan quruq akkumulatorga solishtirma og'irligi 1,25 ga teng elektrolit quyiladi. Havo sovuq vaqlarda elektrolitning zichligi ortiqroq (1,29—1,31) bo'lishi lozim.



11.5-rasm. Akkumulatorlar batareyasi

Akkumulatorga o'zgarmas tok yuborilsa, sulfat kislota qo'rg'oshin plastinaga ta'sir etib, plastina qo'rg'oshin sulfat bilan qoplanadi, elektrolit parchalamadi, musbat plastina qo'rg'oshin peroksidi (PbO_2) ga, mansiy plastina esa, g'ovak qo'rg'oshin (Pb) ga aylanadi. Suv singib, sulfat kislota ajralishi natijasida elektrolitning solishtirma og'irligi ortadi, ya'ni akkumulator zaryadlanadi.

Bunda tok akkumulatorning musbat plastinasidan kirib, elektrolit orqali o'tib, mansiy plastinadan zaryadloveti manbaga qaytadi.

Zaryadlangan akkumulatorning klemmalariga iste'molchilar ulansa, tashqi zanjirga tok o'tib, akkumulatorda kimyoiy reaksiya aks tartibda sodir bo'ladi, ya'ni elektrolit kislotasi plastinaga singib, suv ajraladi va plastinalarga qo'rg'oshin sulfat qoplanadi. Bunda elektrolitning solishtirma og'irligi kamayadi, akkumulator esa zaryadsizlanadi.

Qo'rg'oshin akkumulatorning elektr yurituvchi kuchini elektrolitning solishtirma og'irligiga qarab aniqlash mumkin:

$$E = 0.84 + d,$$

bu yerda: E — akkumulatorning elektr yurituvchi kuchi; d — elektrolitning 15°C dagi solishtirma og'irligi.

Zaryadlangan akkumulatorning kuchlanishi 2 V ga teng, zaryadsizlanish natijasida kuchlanishi pasayadi. Kuchlanishi $1,7\text{ V}$ dan pasayishiga yo'l qo'ymasdan akkumulatorni qayta zaryadlash lozim. Avtomobil va traktor elektr uskunalari, asosan, 12 V kuchlanishfi tokka mo'ljalangan, shuning uchun oltita akkumulator ketma-ket ulanadi yoki uchtasi bir batareya shaklida yasalib, ular ketma-ket ulanadi.

To'la zaryadlangan akkumulatorlar batareyasi kuchlanishi $1,7\text{ V}$ gacha pasayguncha zaryadsizlanganda beradigan amper-soat toki miqdori akkumulator batareyasining *sig'imi* deb aytildi. Plastinalar qancha katta va ularning miqdori qancha ko'p bo'lsa, faol massasi qanchalik g'ovak bo'lsa, akkumulatorning *sig'imi* shuncha katta bo'ladi.

Traktor va avtomobillarga o'rnatiladigan akkumulatorlar batareyasi 3-CT-60; 3-CT-70-II; 3-TCT-135-11MC va hokazo markalar bilan belgilanadi. Bu markalardagi 3 — batareyaning nechta akkumulatordan iboratligini, T — traktor akkumulatori; CT — startyor akkumulatori ekanligini, 60, 70, 135 raqamlar esa batareyaning *sig'imi* (amper-soat hisobida) ko'rsatadi. Raqamlardan keyingi harflarning birinchisi idishning materialini (II — plastmassa), ikkinchisi esa separator materialini (M — mipora; C — shisha tola) bildiradi.

Akkumulatorlar batareyasiga texnik xizmat ko'rsatish. Akkumulatorlar batareyasini doim ko'zdan kechirish, artib tozalash, mahkam biriktirilganligini, elektrolitning sathini va sojishtirma og'irligini, batareyaning zaryadlanganligini, shamollatish teshiklarini tekshirish va tezalash lozim.

Elektrolitning sathi shisha trubka bilan tekshiriladi, u plastinalardan $12\text{--}15\text{ mm}$ baland bo'lishi zarur. Agar elektrolit bug'ga aylantib kamaygan bo'lsa, akkumulatorga distillangan suv, oqib ketib kamaygan bo'lsa, elektrolit quyish kerak. Elektrolitning solishtirma og'irligi — mamlakatimizning iqlim sharoitlarida to'la zaryadlanganda — $1,25$; 25% zaryadsizlanganda — $1,21$; 50% zaryadsizlanganda — $1,17$; batamom zaryadsizlanganda — $1,10$ bo'lishi lozim.

Akkumulator chala zaryadlansa, zaryadlanmagan holda elektroliti bilan saqlansa, akkumulatorning ortiqcha zaryadsizlanishiga yo'l qo'yilsa, elektrolitning sathi past bo'lsa yoki solishtirma og'irligi yuqori bo'lsa, plastinalarga sulfat qo'rg'oshining yirik donachalari o'tirib,

uning rangi oqarib qoladi, ya'ni plastinalar sulfatlanadi. Sulfatlangan plastinalar kimyoviy reaksiyada qatnashmaydi va batareya ishdan chiqadi. Plastinalar qisman sulfatlanganda akkumulator tez zaryadsizlanadi.

Elektrolit iflos bo'lsa, ya'ni unga tuz, ishqor va boshqa moddalar aralashsa, akkumulator tezda o'z-o'zidan zaryadsizlanadi. Separatori sinib tushsa, aktiv massasi to'kilsa, plastinalar bir-biriga tegib qolsa, akkumulator zaryadlanmaydi va tok bermaydi.

Akkumulator buzilmasligi uchun uni avaylab ishlatalish, ayniqsa, startyordan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur, chunki startyor akkumulatordan bir necha yuz amper tok oladi. Motorni o't oldirishda tirsakli valni startyor bilan 5 soniyadan ortiq aylantirish yaramaydi. Agar motor o't olmasa, kamida 15 soniyadan keyin qayta qo'shish va uch martagaecha takror yurgizib yuborishga harakat qilish mumkin. O't olmasa, sababini aniqlab, nuqsonini bartaraf qilish kerak.

Akkumulatorning qishda 25% dan, yozda esa 50% dan ortiq zaryadsizlanishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

7-§. Generator va rele-regulator


Generator mexanik energiyani elektr energiyaga aylantrib elektr toki ishlab chiqaradi. Generator tirsakli valdan tasma yoki shesterna orqali harakatga keltiriladi.

O'zgarmas tok generatori elektr magnitning maydonida yakorning aylanishi natijasida, o'zgaruvchan tok generatori esa, statorning qo'zg'almas chulg'amiga nisbatan doimiy magnitning aylanishi natijasida hosil bo'ladigan elektr magnit induksiyasi asosida tok ishlab chiqaradi.

O'zgaruvchan tok generatori akkumulatorlar batareyasi o'rnatilmagan traktorlarda yoritish tizimini tok bilan ta'minlaydi.

Bu generator (11.6-rasm) qo'zg'almas g'altak (5) lar o'rnatilgan stator (4), aylanuvchi magnit (1), oldingi va keyingi qopqoqlar hamda harakatlantirish shkivi (6) dan iborat. Qopqoqlardagi sharikli podshipniklarda magnit (rotor) vali aylanadi.

Generator statori po'lat plastinalardan yig'ib yasalgan, uning oltita yoki o'n ikkita o'zagiga izolatsiyalangan mis sim chulg'ami o'ralgan g'altaklar just-just qilib biriktirilib, uchta yoki oltita seksiya hosil qiladi. Seksiya chulg'amlarining bir uchi korpusdag'i «M» (massa) klemma (2) ga biriktirilgan. Bu klemmaga ulangan sim yoqib-o'chirgichga biriktiri-



11.6-rasm. O'zgaruvchan tok generatori (a) va uning ishlash prinsipi (b):
1 — aylanuvchi magnit; 2 — massa klemmasi; 3 — simlar ulanadigan
klemmalarr; 4 — stator; 5 — g'altak, 6 — shkiv

ladi. Har bir seksiya chulg'amining ikkinchhi uchi korpusdagi ayrim klemma (3) larga chiqarilgan. Shu klemmalarga ulangan sim tegishli yoqib-o'chrigichlar orqali elektr lampalarga birkiritiladi.

Generatorming rotorini temir-nikel-aluminiy qotishimidan yasalib, u aylanganda qutblari galma-gal g'altak o'zaklari ro'parasiga kelib, o'zakda miqdori va yo'nalishi o'zgaradigan magnit maydoni hosil bo'ladi. Rotoring / holatida magnit kuch chiziqlari g'altak o'zagi va korpus orqali tutashadi, // holatda faqat o'zak orqali tutashadi, /// holatda ham / holatdagidek, lekin qarshi tomonga yo'naladi. Magnit maydonining kuch chiziqlari g'altak o'ramlarini (11.6-rasm, b) bir holatdan boshqa holatga kesib o'tishi natijasida seksiya chulg'ammlarida o'zgaruvchan elektr yurituvchi kuch, uechlari birkiritilgan zanjirda esa, o'zgaruvchan tok hosil bo'ladi. Magnitning olti qutbli bo'lishi va tez aylanishi natijasida lampochkalar bir me'yorda ravshan yonadi.

Generator ishlab chiqaradigan tokning kuchlanishi avtomat ravishda rostlanadi, chunki rotor tez aylanganda o'zgaruvchan tokning chastotasi va zanjirning induktiv qarshiligi ham ortadi. Shuning uchun o'zgaruvchan tok generatoriga kuchlanish regulatori o'rnatilmaydi. Lampoch-

kalardagi tokning kuchlanishi o'zgarmasligi uchun tashqi zanjir qarshiligi (lampochkalar soni, quvvati va simlar) mo'ljallangandan o'zgarmasligi zarur. Traktorlarda qo'llaniladigan T-46 tipidagi olti seksiyali generator rotori daqiqasiga 3000 martaga yaqin aylanganda 12 V kuchlanishli 180 W tok ishlab chiqaradi.


Motori startyor bilan yurgizib yuboriladigan traktorlarga va barcha avtomobilarga o'zgarmas tok generatori o'rnatiladi. Bu generator motorning o'rta va katta aylanish tezliklarida barcha iste'molchilarni tok bilan ta'minlaydi va akkumulatorlar batareyasini zaryadlaydi.

O'zgarmas tok generatori (11.7-rasm), asosan, magnit maydoni hosil qiladigan elektromagnitlar va ularni kesib o'tadigan simlar tizimidan iborat.

Generatorning magnit tizimi po'lat korpus (*4*) va bir yoki bir necha just qutb boshmoqlari (*6*) dan iborat. Har bir qutb boshmog'iga uyg'otish chulg'ami (*5*) o'ralgan.

Yakor o'zak (*8*), chulg'am (*9*) va kollektor (*10*) dan iborat. O'zak valga presslab o'tqazilgan ayrim temir plastinalardan yig'ilgan. Chulg'am o'zakning o'yiquarlari joylashtirilgan izolatsiyalangan mis simdan iborat. Kollektor bir-biridan izolatsiyalangan mis plastinalardan yig'ilgan. Yakor chulg'amining uchlari kollektor plastinalariga ulangan. Yakor vali (*7*) korpusning oldingi (*3*) va ketingi (*13*) qopqoqlaridagi shartikli podshipniklarda aylanadi. Yakorning valiga shponka bilan o'rnatilgan shkiv (*1*) tasma orgali motorning tirsakli validan aylantiriladi. Shkivda shamollatish parraklari (*2*) bor.

Po'lat korpus va qutb boshmoqlarining qoldiq magnetizmi bor. Yakor aylanganda uning chulg'ami shu qoldiq magnet maydonining



11.7-rasm. O'zgarmas tok generatori:

- 1 — shkiv; 2 — shamollatish parraklari; 3 — oldingi qopqoq; 4 — korpus;
- 5 — uyg'otish chulg'ami; 6 — qutb boshmoqlari; 7 — yakor vali; 8 — yakor o'zagi;
- 9 — yakor chulg'ami; 10 — kollektor; 11 — musbat cho'tka;
- 12 — cho'tka tutqich; 13 — ketingi qopqoq; 14 — mansiy cho'tka

kuch chiziqlarini kesib o'tib, unda elektr yurituvchi kuch induksiyalaydi. Yakor chulg'amlarida hosil bo'lgan tok kollektor plastinalariga, undan cho'tka tutqich (12) ga o'rnatilgan musbat cho'tka (11) orqali yig'iladi, tokning bir qismi qutb boshmoqlarining uyg'otish chulg'amiga yo'naltirilib, ularning magnit maydonini kuchaytiradi, ya'ni boshmoqlar elektr magnitga aylantiriladi, tokning bir qismini tashqi zanjirga boradi. So'ngra massa orqali mansiy cho'tka (14) ga qaytadi.

Generator ishlab chiqaradigan tokning kuchlanishi yakorning aylanish tezligiga va qutblar magnit maydonining miqdoriga bog'liq. Ish vaqtida traktor va avtomobil motorlari tirsakli valining aylanish soni, demak, yakorning aylanish tezligi ham o'zgaradi. Shu sababli ishlab chiqariladigan tokning kuchlanishi ham o'zgaradi. Kuchlanishning ortishi iste'molchilarни, shuningdek, akkumulatorlar batareyasini ham ishdan chiqarishi mumkin.


Generator ishlab chiqaradigan tok kuchlanishining o'zgarmasligi uchun yakorning aylanish tezligi ortganda, qutblarning magnit maydonini kamaytirish va, aksincha, aylanish tezligi pasayganda, magnit maydonini oshirish lozim. Qutblarning magnit maydonini uyg'otish chulg'amining zanjiriga qo'shimcha qarshilik ulab o'zgartirish mumkin.

Generatorni elektr zanjiriga ularash yoki ajratish, kuchlanishini rostlash va uni zo'rirqib ishlashdan saqlash uchun rele-regulator o'rnatiladi. Rele-regulator avtomat ishlaydigan uchta asbob: kuchlanish regulatori (KR), tok cheklagichi (TCH) va teskari tok relesi (TTR) dan iborat.

Kuchlanish regulatori (KR) generator uyg'otish chulg'amining zanjiriga vaqti-vaqt bilan qo'shimcha qarshilik qo'shib, motoring aylanish soni o'zgarsa ham, ishlab chiqariladigan tokning kuchlanishini o'zgarmas saqlaydigan maxsus elektr magnit regulatordir.

11.8-rasmida generator va kuchlanish regulatori akkumulatorlar batareyasi (1) va tashqi zanjirning ularish sxemasi keltirilgan. Kuchlanish regulatori prujina (5) li yakorcha (4), kontaktlar (7), generator zanjiriga parallel ulangan chulg'amli o'zak (8) va qarshiliklar (9) dan iborat. Generatorning kuchlanishi zarur qiymatga yetguncha kontaktlar (7) prujina (5) kuchi bilan bir-biriga tegib turadi va tok uyg'otish chulg'ami (15) ga generator kollektori (13) dan musbat cho'tka (14), «Y» klemma, kontaktlar (6 va 7), yakorcha (4) va «Sh» klemma orqali kelib, generator massasidan mansiy cho'tka (12) orqali yakorning chulg'amiga qaytadi.

Kuchlanish mo'ljallangan qiymatdan oshganda o'zak (8) kuchliroq magnitlanib, yakorcha (4) ni o'ziga tortadi va prujina (5) ning qarshiligini yengib, kontaktlar (7) ni ajratadi. Uyg'otish chulg'amiga



11.8-rasm. O'zgarmas tok generatori, rele-regulator va akkumulatorlar batareyasining ularish sxemasi:

1 — akkumulatorlar batareyasi; 2 — ampermetr; 3 — teskari tok relesi kontaktlari; 4 — yakorcha; 5 — prujina; 6 — tok cheklagichi kontaktlari; 7 — kuchlanish regulatori kontaktlari; 8, 10 va 11 — o'zaklar; 9 — qarshilik; 12 — manfiy cho'tka; 13 — kollektor; 14 — musbat cho'tka; 15 — uyg'otish chulg'ami

tok qarshiliklar (9) orqali o'tib, qutblarning magnit maydoni kamayadi. Natijada regulator o'zagi (8) kuchsizroq magnitlanib, kontaktlar (7) qaytadan jufflashadi. Bu kontaktlar har soniyada 50 martadan ortiqroq birikib-ajralib, generator ishlab chiqaradigan tokning kuchlanishini 13,5 — 14,0 V dan oshirmaydi.

Tok cheklagich (TCH) generator ishlab chiqaradigan tok kuchining mo'ljalidagidan ortishiga yo'l qo'ymaydi, chunki iste'molchilar ortishi

bilan generator ishlab chiqaradigan tok ham ortadi, bu esa o'zak (10) chulg'amining ortiqcha qizishiga va batareyaning o'ta zaryadianishiga sabab bo'ladi. Tok cheklagich ham elektr magnit asbobdan iborat bo'lib, tokning kuchi ortganda kontakt (6) iar ajralib uyg'otish chulg'a-miga maxsus qo'shimcha qarshilik ulab, qutb boshmoqlari magnit maydonini kamaytirish yo'li bilan tok kuchining ko'payib ketishiga yo'l qo'yaydi.

Teskari tok relesi (TTR) generator ishlab chiqaradigan tokning kuchlanishi nominal kuchlanishdan ortganda generatorni elektr zanjirga avtomat ravishda qo'shadi. Bunda barcha iste'molchilar generatordan tok oladi va akkumulatorlar batareyasi ham zaryadlanadi.

Teskari tok relesi prujinali yakorcha, ikkita chulg'amli o'zak (11) va ikki kontakt (3) dan iborat. Generator ishlagagan vaqtida va kichik aylanishda ishlaganda kontaktlar prujina ta'sirida ajraladi: generator va batareya bir-biriga tutashtirilmaydi va barcha iste'molchilar batareya-dan tok oladi.

Generator tokining kuchlanishi mo'ljaldagiga yetganda o'zak (11) yakorcha (4) ni tortib kontaktlarni jisflashtiradi. Tok generatordan iste'molchilarga va batareyaga boradi. Rele-regulatorning o'ng tomon-dagi «Sh» klemmasi generator uyg'otish chulg'ami (15) ning uchiga, o'rtadagi «Y» klemmasi generator kollektori (13) dan tok yig'adigan musbat (+) cho'tkaga, chap tomonagi «B» klemmasi esa iste'molchilarga va ampermestr (2) orqali batareya (1) ga biriktirilgan. Zamonaviy traktor va avtomobilarga quvvati 180—350 W o'zgarmas tok generatori o'rnatiladi.

Generator va rele-regulatorlarga texnik xizmat ko'rsatish. Generator va rele-regulatorni doim changdan tozalash lozim. O'zgaruvchan tok generatordari tasmasini kunduzi chiqarib qo'yish yoki yuritmasining richagini ajratib qo'yish lozim. Tunda barcha faralarni yoqish va ularga bir xil lampochkalar o'rnatish zarur.

Generatorning harakatlantirish shkivi va rele-regulatorning mahkam-lanishi, generatorning rele-regulator, iste'molchilar, batareya va massaga puxta biriktirilganligi, generatorning kollektori, cho'tkalari, tasmasining tarangligi tekshiriladi.


Generatorning to'g'ri ishlashi ampermestr ko'rsatishiga qarab tek-shiriladi. Ampermestr o'rta va yuqori aylanishlarda batareyaning zaryad-lanishini ko'rsatishi lozim.

Tasma yetarli tarang bo'lmasa, simlar jips biriktirilmasa, generator kollektori va cho'tkasi iflos yoki yeyilgan bo'lsa, rele-regulator

kontaktlari kirlangan yoki orasidagi tirqishi o'zgargan bo'lsa, generator yetarli tok bermaydi yoki mutlaqo ishlamaydi.

8-§. Batareyali yondirish tizimi


Batareyali yondirish tizimi karburatorli avtomobil motorlarida qo'llaniladi. 11.9-rasmda silindrlari bir qator joylashgan olti silindrli, 11.10-rasmda esa «V» simon sakkiz silindrli motor yondirish tizimining sxemasi keltirilgan.



11.9-rasm. Olti silindrli motor batareyali yondirish tizimining sxemasi:
1 — yondirish uzgichi; 2 — akkumulatorlar batareyasi; 3 — generator;
4 — svechalar; 5 — kondensator; 6 — uzgich; 7 — yondirish g'altagi;
8 — taqsimlagich; 9 — yuqori kuchlanishli simlar

Bu tizim past kuchlanishli tok manbayi — akkumulatorlar batareyasi (2) yoki generator (3), yondirish g'altagi (7), kondensator (5) li uzgich (6), taqsimlagich (8), svechalar (4), yondirish uzgichi (1), past va yuqori kuchlanishli simlar (9) dan iborat.

Akkumulatorlar batareyasidan yondirish g'altagini birlamechi chulg'amiga kelgan past kuchlanishli tok uzgich va kondensator yordamida yuqori kuchlanishli tokka aylantiriladi. Taqsimlagich yuqori kuchlanishli tokni motor silindrlarining ishlash tartibiga muvofiq svechalarga yo'naltiradi. Yonish kamerasida uchqun hosil bo'lib, ish aralashma alangalanadi. Uzgich past kuchlanishli tok zanjirini uzib motorni o'chiradi.




11.10-rasm. «V» simon sakkiz silindirli motor yondirish tiziniining sxemasi
(raqamlar 11.9-rasmdagidek belgilangan)

Yondirish g'altagi (11.11-rasm) past (12 V) kuchlanishli tokni yuqori (15–20 ming) kuchlanishli tokka aylantiradi. Yondirish g'altagi o'zak (2), birlamchi chulg'am (3), ikkilamchi chulg'am (1), karbolit qopqoq (10), tashqi klemmalar, qo'shimcha qarshilik (5) va tunuka g'ilof (4) dan iborat.

G'altakning tunuka varaqlardan yig'ilgan o'zagiga karton trubka kiygizilib, uning ustidan 16–23 ming o'ramli ikkilamchi chulg'am (diametri 0,1 mm li sim) o'ralgan. Ikkilamchi chulg'am ustidan 300–330 o'ramli birlamchi chulg'am (diametri 0,72 mm li sim) o'ralib, ular qog'oz va karton trubka bilan bir-biridan izolatsiyalangan. Chulg'am-larning bunday joylashtirilishi birlamchi chulg'amni ortiqcheha qizishdan saqlaydi va ikkilamchi chulg'am uzunligini qisqartirishga va uning qarshiligini kamaytirishga imkon beradi.

Birlamchi chulg'amning uchlari past kuchlanish klemmalari (7 va 11) ga ulanadi. Ikkilamchi chulg'amning bir uchi (8) karbolit qopqoqning markaziy klemmasi (9) ga chiqarilib ikkinchi uchi birlamchi chulg'amga biriktirilgan. Qo'shimcha qarshilik — variator (5) birlamchi chulg'am zanjiriga ketma-ket biriktirilib, undan o'tadigan tokni avtomat ravishda rostlaydi. Uning bir uchi klemma (6)

ga, ikkinchi uchi birlamchi chulg'amning uchi chiqarilgan klemma (7) ga ulangan.



11.11-rasm. Yondirish g'altagi:

1 — ikkilamechi chulg'am; 2 — o'zak; 3 — birlamchi chulg'am; 4 — g'ilof;
5 — qo'shimcha qarshilik; 6, 7 va 11 — klemmalar; 8 — ikkilamchi
chulg'amning uchi; 9 — markaziy klemma; 10 — karbolit qoprog

Motorni yurgizib yuborishda startyor zanjiri ulanganda qo'shimeni, qarshilik birlamchi tok zanjiridan ajratiladi. Tirsakli valning kichik aylanishlarida uzgichning kontaktlari uzoq vaqt bir-biriga tegib turadi, shu sababli birlamchi chulg'am orqali ko'proq tok o'tib, qo'shimcha qarshilik simi qiziydi va uning qarshiligi ortib, birlamchi chulg'amni qizishdan va uzgich kontaktlarining orasida uchqun hesil bo'lishidan saqlaydi.

Motoring katta aylanishlarida uzgich kontaktlari qisqa vaqt tutashib, qo'shimcha qarshilik orqali kam tok o'tadi, u qizimaydi va qarshiligi ortmaydi, bu esa ikkilamchi chulg'amda yetarli kuchlanishli tok hosil bo'lishiha va yondirish tiziminining ishonechli ishlashiga imkon beradi. Shunday qilib, motoring kichik va katta aylanish tezliklarida svechalarda bir turli uchqun hosil bo'ladi.


Uzgich-taqsimlagich (11.12-rasm) yondirish g'altagini birlamchi zanjiridagi past kuchlanishli tokni uzadi va g'altakning ikkilatchi chulg'amida hosil bo'lgan yuqori kuchlanishli tokni motor svechalariga taqsimlaydi. Uzgich-taqsimlagich past kuchlanishli tok uzgichi, kondensator, yondirishni ilgarilaydigan markazdan qochirma, vakuum regulatorlar, oktan-korrektor va yuqori kuchlanishli tok taqsimlagichdan iborat.

Uzgich cho'yan korpus (3) ichiga joylashtirilgan qo'zg'almas disk (20), uning uyasidagi sharikli podshipnikda turadigan qo'zg'aluvchan disk (4) dan iborat. Qo'zg'aluvchan disk ustiga uzgich kontaktlari joylashtirilgan. Uzgichning qo'zg'aladigan kontakti (11) disk barmog'iga o'rnatilgan tebrarima richagga mahkamlangan, massadan izolatsiya qilingan va yondirish g'altagini birlamchi chulg'ami ulanadigan klemma (19) ga biriktirilgan. Uzgichning qo'zg'almas kontakti (10) massaga tutashtirilgan. Koataktlar ajralganda ularning orasida hosil bo'ladigan tirkish qo'zg'almas kontakti biriktirilgan kronshteynni sil-jitish yo'li bilan sozlanadi. Tirkish 0,35—0,45 mm bo'lishi lozim.

Qo'zg'aladigan kontaktning kolodkasi uzgich-taqsimlagich vaflining uchidagi kulachok (17) ka yassi prujina ta'sirida tegib, kulachok qirrasi kolodkani itarganda kontaktlar ajraladi. Fetr cho'tka (18) kulachokni tozalaydi va moylaydi. Motor necha silindri bo'lsa, kulachok shuncha qirrali qilinadi, u harakatlantirish validan aylantiriladi.

Kondensator (23) uzgich kontaktlariga parallel ulangan. Kondensator metall kojux ichiga joylanib, uzgich-taqsimlagich korpusining sirtiga mahkamlangan, uning tuzilishi va ishlashi magneto kondensatoriga o'xshaydi. Uzgich-taqsimlagichning vali (1) moy nasosining validan harakatga keltiriladi. Motoring taqsimlash vali qanday tezlikda aylansa, uzgich-taqsimlagichning vali ham shunday tezlikda aylanadi.

Taqsimlagich uzgich ustiga joylashtirilib, tok taqsimlaydigan metall plastinali rotor (12) va klemmalni qopqoq (15) dan iborat. Rotor va qopqoq karbolitdan yasalgan. Rotor kulachogi harakatlantirish validagi vtulka (16) ga mahkamlanib, u bilan binga aylanadi. Qopqoqning ko'mir kontakt (14) vositasida rotorming tok taqsimlash plastinasiga tegib



**11.12-rasm. Uzgich-taqsimlagich (a) va
uning markazidan qochirma regulatori (b):**

1 — valik; 2 — plastina; 3 — korpus; 4 — qo'zg'aluvchan disk;
5 — yukeha; 6 — diafragma; 7 — vaknum regulator korpusi; 8, 24 — prujina;
9 — tortqi; 10 — uzgichning qo'zg'almas kontakti; 11 — uzgichning
qo'zg'aluvchan kontakti; 12 — plastinali rotor; 13 — markaziy klemma uysasi;
14 — ko'mir kontaktlar; 15 — klemmali qopqoq; 16 — vtalka;
17 — kulachok; 18 — fetr cho'tka; 19 — klemma; 20 — qo'zg'almas disk;
21 — traversa; 22 — oktan-korrektor; 23 — kondensator; 25 — shtift

turadigan bitta markaziy klemmasi va tok taqsimlaydigan plastinadan navbat bilan keladigan tokni o'tkazadigan elektrodli yon klemmalari bor. Markaziy klemma uyasiga (13) ga yondirish g'altagini yuqori kuchlanishli simi kirgizib qo'yiladi. Yon klemmalarning uyasiga kiritilgan simlar svechalarning markaziy elektrodi ufanadi. Motor necha silindrlar bo'lsa, qopqoqning shuncha yon elektrodi bo'ladi.

Yondirish paytini ilgarilaydigan markazdan qochirma regulator motor tirsaklı valining aylanishiar soniga qarab yondirishni ilgarilash burchagini avtomat ravishda o'zgartiradi. Bu regulator aylanishlar soni ortganda uzgichning kulachogini aylanish tomoniga burib, birlamchi chulg'am zanjirini ilgariroq uzadi, ya'ni yondirishni ilgarilash burchagini kattalashtiradi. Aylanishlar soni kamayganda kulachokni dastlabki holatga qaytaradi.

Markazdan qochirma regulator qo'zg'almas disk (20) ostiga o'rnatilib, val (1) ga mahkamlangan plastina (2) ga o'rnatilgan va prujina (24) lar bilan tortilib turadigan ikkita yukcha (5) va yukchalar shtifti (25) kirib turadigan traversa (27) dan iborat. Aylanishlar soni ortganda yukehalarning markazdan qochirma kuchi prujinalarni cho'zib, traversani buradi. Uzgichning kulachogi traversaga biriktirilganligi sababli u ham burilib, uzgichning kontaktlarini barvaqtroq ajratadi. Regulator yondirish paytini 22—26° gacha ilgarilaydi.

Yondirish paytini ilgarilaydigan vakuum regulator yondirishni ilgarilash burchagini motoring yuklanishiga qarab avtomat ravishda o'zgartiradi. Motor kichik yuklanishda ishlaganda silindrlar ishlatilgan gazdan yaxshi tozalanmaydi va ish aralashma tarkibida ishlatilgan gaz ko'p bo'lganligi uchun aralashma sekin yonadi. Shuning uchun yondirish paytini ilgarilash kerak.

Vakuum regulator uzgich-taqsimlagichning sirtiga mahkamlanib, korpus (7), qopqoq, diafragma (6), prujina (8) va tortqi (9) dan iborat. Tortqining bir uchi diafragmaga, ikkinchi uchi uzgichning qo'zg'aluvchan diskini (4) ga biriktirilgan. Diafragma korpus bilan qopqoq o'tasiga siqligan. Qopqoq ichiga kirgizilgan prujina diafragmaga tiralib turadi. Qopqoq shtutser va trubka vositasida karburator aralashtirish kamerasining qisqa trubasiga birlashtirilgan.

Drossel to'siq ozroq ochilib, motor kichik yuklanishda ishlaganda aralashtirish kamerasida va unga birlashtirilgan vakuum regulator bo'shilig'ida siyraklanish kuchayadi. Diafragma atmosfera bosim kuchi bilan prujinaning elastikligini yengib, tortqi vositasida uzgichning qo'zg'aladigan diskini kulachokning aylanish yo'nalishiga qarshi tomon-

ga buradi. Natijada yondirishni ilgarilash burchagi kattalashadi, vakuum regulator yondirish paytini 24° gacha ilgarilaydi.

Motor kichik aylanishlarda salt ishlaganda karburatorning salt ishlash tizimi quyuqlashgan aralashma tayyorlaydi va tirsakli val sekin aylangani uchun aralashmani ertaroq yondirishning zaruriyati yo'q. Bunda vakuum regulator bo'shilig'idagi bosim atmosfera bosimiga yaqin bo'ladi, chunki karburatorning regulator kamerasiga tutashadigan teshigini drossel to'siq berkitib qo'yadi. Diafragma diskni prujina ta'sirida kulachokning aylanish tomoniga siljитib kech yondirish holatiga buradi.

Motor yuklanish bilan ishlab, drossel to'siq kattaroq ochilganda karburatordag'i, demak diafragma kamerasidagi siyraklanish kamayadi. Prujina asta-sekin diafragmani itaradi va uning tortqisi uzgichning diskini burib, dastlabki holatiga qaytaradi. Markazdan qochirma va vakuum regulatorlarning birga ishlashi motorni turli rejimida yondirishni ilgarilash burchagini optimal qiymatini ta'minlaydi.

Oktan-korrektor. Motor oktan soni kattaroq yonilg'ida ishlashiga ko'chirilganda yondirishni ilgarilash burchagini oshirish, aksincha, oktan soni kichikroq yonilg'ida ishlashga ko'chirilganda kamayitish zarur, buning uchun yondirish payti oktan-korrektor (22) vositasida qo'l bilan rostlanadi. Oktan-korrektor silindrlar blokiga mahkamlanadigan shkalali pastki plastina va uzgich-taqsimlagichning korpusiga mahkamlangan strelkali yuqorigi platinadan iborat.

Plastinalar ikkita gaykali sterjen yordamida bir-biriga bog'langan. Sterjenning rezbasiga rostlash gaykalar buralganda yuqorigi plastina va u bilan birga uzgich-taqsimlagichning korpusi buraladi. Yondirishni ilgarilash burchagini oktan-korrektor yordamida 12° gacha oshirish yoki kamayitish mumkin.

Yondirish uzgichi. Avtomobillar uzgichi motorni yondirish tizimi hamda nazorat o'lchan asboblarini tok manbayiga qo'shadi va ajratadi. Uzgich yondirish tizimining birlamechi zanjiriga ketma-ket ullanadi.

Batareyali yondirish tizimining ishlashi. Yoqib-o'chirgichning yondirish qulsi qo'shilganda va uzgich kontaktlari tegib turgan holda, past kuchlanishi tok akkumulatorlar batareyasining musbat klenmasidan startyorning uzgichi, yondirish yoqib-o'chirgichi, yondirish g'altagineg qo'shimcha qarshiligi, yondirish g'altagineg birlamechi chulg'ami, uzgichning qo'zrauvchan kontakti, qo'zralmas kontakti va massa orqali batareyanining mansiy klemmasiga qaytadi.

Uzgich kulachogining qirrasi qo'zg'aluvchan kontekst kolodkasiga tiralganda kontaktlar ajralib, birlamechi chulg'ami zanjiri uziladi.

Yondirish g'altagi birlamchi chulg'ami magnit maydonining keskin qisqarishi natijasida ikkilamechi chulg'amda yuqori kuchlanishli tok induksiyalanadi. Yuqori kuchlanishli tok taqsimlagichning markaziy klemmasi, rotori, yon klemmalari orqali svechaga borib, uning markaziy elektrodlaridan yon elektrodiga uchqun tarzda sakrab o'tib, keyin massa, akkumulatorlar batareyasi, startyor qo'shgichi, yondirish qulfi, yondirish g'altagini qo'shimcha qarshiligi, birlamchi chulg'am orqali ikkilamechi chulg'amga qaytadi.

9-\$. Batareyali yondirish tizimi asboblarini o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish

Batareyali yondirishni o'rnatish. Motor silindrlerida kerakli paytda uchqun hosil qilish uchun birinchi silindr porsheni siqish taktida YCHN ga keltiriladi va uzgich kontaktlarining ajrala boshlash payti topiladi. So'ngra uzgich-taqsimlagich o'rnatilib, simlar svechalarga biriktiriladi.

Misol tariqasida ГАЗ-53 yuk avtomobilida bu ishlar qanday bajarilishini ko'rsatib o'tamiz.

Maxovik karterining tuynugi ochiladi va birinchi silindr svechasi olib qo'yiladi. Tirsakli valni yurgizish dastasi bilan aylantirib birinchi silindrda siqish takti aniqlanadi. Bunda svecha teshigiga kiritilgan qog'oz tiqin bosim kuchi bilan chiqib ketadi. Valni aylantirishni davom ettirib, maxovikning «BMT» (YCHN) belgisi uning karteridagi belgiga ro'para keltiriladi.

Uzgich kontaktlarining tirqishi tekshiriladi va lozim bo'lsa rostlanadi. Oktan-korrektor mili nol holatga keltiriladi va mahkamlovchi vinti bo'shatib qo'yiladi.

Uzgich-taqsimlagich korpusi silindrler blokidagi uyasiga kirgiziladi, bunda harakatlantirish valining o'yig'i moy nasosi valining o'yig'iga keltirilib, vakuum regulator shtutserining trubkasiga to'g'rilanadi. Uzgich-taqsimlagichning korpusini kulachokning aylanish tomoniga qarshi burab, kontaktlar ajrala boshlaydigan holatga keltiriladi. Kontaktlarning ajrala boshlash payti uzgichning kontaktlariga parallel ulangan lampochkaning yonishi yoki yondirish g'altagini markaziy klemmasidan chiqarilgan sim uchida uchqun hosil bo'lishiga qarab aniqlanadi.

Oktan-korrektor vinti burab mahkamlanadi. Vakuum regulator trubkasi biriktiriladi. Taqsimlagichning rotori joyiga qo'yilib, simlar silindrlerning ishslash tartibiga muvosiq svechalarga ulanadi. Yondirish paytining to'g'ri o'rnatilganligi avtomobilni yurgizib ko'rib tekshiriladi.

Batareyali yondirish tizimining asboblariga texnik xizmat ko'rsatish uланин тоза holda saqlash, узгич kontaktlari orasidagi tиргishni tekshirish. lozim topilsa, rostlash va kontaktlarni tozalashdan iborat. Shuningdek, узгич-tаqsimlagich, sim va ularning uchliklari ko'zdan kechirilib, puxta o'rnatilganligi tekshiriladi.

Узгич kontaktlarining orasidagi tирqish quyidagicha rostланади: tirsakli val asta-sekin aylantirilib, kulachokning qirrasi qo'zg'aladigan kontakt kolodkasiga tegadigan holatga keltiriladi. Qo'zg'almaydigan kontaktning plastinasini diskka mahkamlaydigan vint bo'shatiladi va ekssentrikni burib, tирqish 0,35—0,45 mm qilinadi, so'ngra qo'zg'almaydigan kontakt plastinasini vint bilan qotiriladi.

Ish jarayonida узгич kontaktlarini moy bosishi, oksidlanishi, kontaktlarining orasidagi tирqishning o'zgarishi, узгич richagchasining massaga tegib qolishi, taqsimlagich qopqog'i va rotor yorilishi, kondensator izolatsiyasi teshilishi, rotor plastinkasi yeyitishi, vakuum regulatorning germetikligi buzilishi va simlarning izolatsiyasi shikastlanishi mumkin. Bu kamchiliklarning barchasi yondirish tizimining ravon ishlashini buzadi, bularni axtarib topib tuzatish yoki tegishli qismlarini almashtirish zarur.

10-§. Elektr startyorlar

Barcha avtomobillar, ba'zi traktorlar va ko'pchilik o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalarining motorini yurgizib yuborishda, ularning tirsakli val elektr startyor bilan aylantiriladi (2.15 rasm, 7).


Elektr startyor (11.13-rasm) akkumulatorlar batareyasidan tok olib ishlaydigan o'zgarmas tok elektr motori, harakatlantirish va qo'shish mexanizmidan iborat.

Startyor elektr motori korpus (5), yakor va korpus qopqog'i (9) dan iborat. Korpus uyg'otish chulg'ami (13) o'ralgan qutbli elektr magnit (12) dan, yakor esa val (2), o'zak (4), chulg'am (3) va kollektor (6) dan iborat. Korpusga mahkamlangan to'rtta qutb boshmoqlariga mis lentadan iborat uyg'otish chulg'amlari o'ralib, ular bir-biriga ketma-ket ulanadi.

Uyg'otish chulg'amining bir uchi startyorning musbat cho'tkasiga, ikkinchi uchi esa korpusdan chiqarilib, qo'shish mexanizmi va sim orqali akkumulatorlar batareyasining musbat klemmasiga ulangan.

Yakor o'zagiga o'ralgan mis lenta chulg'amlarning uchlari kollektor plastinalariga ulangan. Korpusning qopqog'idagi cho'tka tutqichlarga

o'rnatilgan ikkita musbat cho'tka (8) massadan izolatsiyalangan, ikkita manfiy cho'tka (7) esa massaga tutashrilgan. Cho'tkalar prujinalar ta'sirida kollektorga qadalib turadi. Yakor vali korpus qopqoqlariga va oraliq podshipnikka o'rnatilgan uchta bronza vtulkada aylanadi. Startyor valining shlitsali ketingi uchiga erkin yurish mustasi (15) bilan shesterna (1) o'rnatilgan. Startyor korpusiga qo'shish mexanizmi mahkamilanib, uning sirtqi klemmasining ikkita kontakti bor. Kontaktlarning biri yo'g'on sim bilan akkumulatorlar batareyasining musbat klemmasiga, ikkinchi uchi esa plastina orqali startyor klemmasi (10) ga ulangan.




11.13-rasm. Elektr startyorning tuzilishi:

1 — shesterna; 2 — val; 3 — yakor chulg'ami; 4 — o'zak; 5 — korpus;
6 — kollektor; 7 — manfiy cho'tkalar; 8 — musbat cho'tkalar; 9 — korpus
qopqogi; 10 — klemma; 11 — qo'shish mexanizmi; 12 — qutb boshinoqlari;
13 — uyg'otish chulg'ami; 14 — richagi; 15 — erkin yurish mustasi

Startyor elektr zanjirining sxemasi 11.14-rasmida keltirilib, ayrim qismlari 11.13-rasmdagidek belgilangan. Startyor richagi (14) qo'shilganda harakatlantirish shesternasi (1) motor maxovigining tishli gardishi bilan tishlashadi, keyin qo'shish mexanizmi (11) kontaktlari tutashadi va tok akkumulatorlar batareyasi (16) dan startyorga: batareyaning musbat klemmasidan — sim qo'shish kontaktlari — startyor klemmasi — uyg'otish chulg'amlari — musbat cho'tkalar — kollektor — yakor chulg'ami — manfiy cho'tkalar — massa orqali batareyaning manfiy klemmasiga qaytadi.

Yakor va korpusning mis lenta chulg'amlari juda oz qarshilikka ega bo'lganidan akkumulatorlar batareyasidan startyor chulg'amlariga

katta kuchli (600 A ga qadar) tok o'tadi. Bunda hosil bo'lgan yakor magnit maydoni qutb boshmoqlarining magnit maydoniga ta'sir etishi natijasida katta burovchi moment hosil bo'lib, yakor chulg'amining o'ramlari magnit maydonidan itariladi va yakor aylana boshlaydi. Harakatlantirish shesternasi (*I*) aylanib, o'zi bilan birga motor maxovigini ham aylantiradi va motor yurgizib yuboriladi.



11.14-rasm. Startyor elektr zanjirining sxemasi:

1—15 raqamlar 11.13-rasmida belgilangandek:

16 — akkumulatorlar batareyasi


Startyor richagi bo'shatilishi bilan batareyadan startyor chulg'amiga tok borishi to'xtab, yakor aylanmay qoladi. Motor maxovigi shesterna (*I*) ni aylantira boshlaydi, ammo erkin yurish mustasi aylanma harakatni faqat bir tomonlama uzatganidan startyor valiga aylanma harakat uzatmaydi. Musta va shesternali vtulka prujina ta'sirida maxovikning tishli gardishidan chiqib, dastlabki holatga qaytadi.

Startyor yuritma mexanizmining (11.15-rasm, *a*) *mustasi* (*8*) *richagi* (*10*) *bilan siljitinganda shesterna* (*I*) *maxovikning tishli gardishi* (*11*) *bilan tishlashadi*. Bunda startyorning yakori shlitsali musta (*6*) *orqali* *erkin yurish mustasini aylantiradi* (11.15-rasm, *b,I*). Erkin yurish mustasiniig (11.15-rasm, *d*) ichki (*3*) va tashqi (*2*) *gardishlari* *birga*

aylanadi, chunki roliklar (4) prujina (9) va plunjeler (5) ta'sirida ichki gardishning torroq qismiga qisiladi.

Motor yurgizib yuborilgandan keyin, mustaqil ishlay boshlaganda shesterna (1) tashqi gardish (2) bilan birga ichki gardish (3) dan tezroq aylanadi. Rolik (4) gardishning kengroq qismiga siljib, harakatlantirish shesternasining harakatini startyor valiga o'tkazmaydi (11.15-rasm, b, I). Richag bo'shatilganda mustaning prujinasi (7) harakatlantirish shesternasini opqara siljitib maxovikning gardishidan chiqaradi.

Startyorlar quvvati kW bilan ifodalanadi. Traktorlarga 1,5–3,3 kW, avtomobil larga 0,8–1,1 kW, yurgizib yuborish motorlariga 0,4–0,5 kW quvvatli startyor o'rnatiladi.



11.15-rasm. Startyorni qo'shish va harakatlantirish mexanizmi:
 1 — shesterna; 2 — tashqi oboyma; 3 — ichki oboyma; 4 — rolik;
 5 — plunjер; 6 — shlitsali mufta; 7 va 9 — prujina; 8 — mufta;
 10 — richag; 11 — maxovikning tishli gardishi

Startyorga texnik xizmat ko'rsatish. Akkumulator batareyasini zaryadsizlantirmaslik uchun startyordan to'g'ri foydalanish va uning bekam-u ko'st bo'lishiga e'tibor berish zarur. Qishda startyorni ishlatalishdan oldin tirsakli valni qo'l bilan bir necha marta aylantirish kerak.

Startyorga texnik xizmat ko'rsatish uni chang va loydan tozalash, startyor va similarning puxta biriktirilganligini ko'zdan kechirish, kollektor, cho'tkalar va yuritma mexanizmini tozalashdan iborat.

Startyorning kollektori ifloslansa yoki yeyilsa, cho'tkalar yeyilsa, cho'tka tutqichlarga qadalib qolsa, startyor yaxshi aylanmaydi yoki batamoni ishlamaydi. Yuritma mexanizm ifloslangan va moy bosgan bo'lsa, uning tishlari maxovikning gardishiga qadalib qoladi, erkin yurish muftasi tiqilib qoladi, ba'zan qaytarish prujinasi sinadi. Bunday kamchiliklarni yo'qotish uchun startyor ta'mirlanadi.

11-§. Yoritish va signalizatsiya asboblari

Traktor va avtomobil tunda ishlaganda yo'lni yoritish va yorug'lik vositasida signal berish uchun yoritish uskunalarini o'rnatiladi. Yoritish armaturalariga faralar, podfarniklar, ketingi chiroq, tirkama lampalari ularadigan shtepsel rozetkalar, nazorat asboblar shchiti lampasi, kabina yoki kuzov plafoni, kapot osti lampasi, qayta ulagichlar, simlar va saqlagichlar kiradi.


Fara (11.16-rasm) projektor tipidagi fonar bo'lib, metall korpus (β), patron (\mathfrak{A}) li qaytargich (\mathfrak{B}), nur tarqatgich (\mathfrak{C}) dan iborat. Qaytargichning ichki sirtiga aluminiy yoki xrom qoplangan bo'lib, u lampochka (\mathfrak{D}) nurini qaytarib yo'naltiradi. Nur tarqatgich taram-taram oyna bo'lib, ostiga qistirma qo'yilgan va gardish bilan mahkamlangan.

Lampochkalar bir kontaktli (\mathfrak{E}) va ikki kontaktli (\mathfrak{F}) bo'lib, prujina shifti yoki flanesli patronga o'rnatiladi. Oldingi fara lampochkalarining yaqinni va uzoqni yoritadigan cho'g'lanma tolam sim (\mathfrak{G}) lari bo'ladi. Faralar yorug'lik nuri tutami rostlash vintini yoki fara mahkamlangan kronshteynni burab rostlanadi.

Ketingi fonar (11.17-rasm) raqam belgisini yoritadi va tormozlansa, yonib ogohlantiradi. Fonar metall korpus (\mathfrak{H}) ichiga joylashtirilib, to'siq (\mathfrak{I}) bilan ikki xonaga ajratilgan. Fonarga qizil rangli oyna (\mathfrak{J}) tutilgan, past tomonida rangsiz oynasi (\mathfrak{K}) bor. Yuqorigi lampochka (\mathfrak{L}) tormozlanganda yonib stop-signal beradi, pastki lampochka (\mathfrak{M}) raqam belgisini yoritib turadi, u tunda yurganda yoqib qo'yiladi.


Podfarniklar gabaritni bildiradi, yoritilgan ko'chalarda yurganda va tunda to'xtatib qo'yilganda yoqiladi. Shuningdek, burilish tomonini ko'rsatuvchi signal lampa o'rnidagi ham qo'llaniladi.

Plafon yuk avtomobillari va traktorlar kabinasini hamda yengil avtomobillar kuzovini yoritadi. Plafonlarning oynasi xira bo'ladi.



11.16-rasm. Elektr fara va lampochkalar:

1 — nur tarqatgich; 2 — lampochka; 3 — korpus; 4 — patron; 5 — simlar;
6 — qaytargich; 7 — bir kontaktli lampochka; 8 — ikki kontaktli lampochka



11.17-rasm. Ketingi fona:

1 — korpus;
2 — qizil rangli oyna;
3 — lampochka;
4 — to'siq;
5 — pastki lampochka;
6 — rangsiz oyna

Shchit lampochkasi nazorat asboblar shchitini yoritadi.

Kapot osti lampochkasi motorni tunda texnik xizmat ko'rsatishdan o'tkazishda yoqliladi.

Shtepsel rozetkaga qishloq xo'jalik mashinalaridagi lampochkalar va ko'chma lampa ularadi.

Yoritish uskunalarida lampochkalarni yoqish va o'chirish uchun *pereklyuchatellar qo'llanilib*, ular qo'l yoki oyoq bilan boshqariladi.

Tovush signali avtomobil, traktor va o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalarining xavfsiz yurishini ta'minlaydi hamda traktorchi bilan qishloq xo'jalik mashinalarida ishlovchilarining aloqa bog'lashiga imkon beradi.


Vibratsion tipdag'i tovush signali (11.18-rasni) «III» nusxa elektr magnit (6), yakorcha (10), kontakt (1, 2) li vibrator, membrana (11) va kondensator (5) dan iborat. Signal tugma (9) bosilganda chalinadi. Sterjen (3) ga o'rnatilgan membrana, yakorcha va rezonator (12) bir-biriga jips biriktirilgan. Signal tugmasi bosilganda tok akkumulatorlar batareyasi (4) ning musbat klemmasidan — sim (7) — vibrаторning kontaktlari (1 va 2) -- vibrator plastinasi (5) — elektr magnit (6) chulg'ami — signal tugmasi (9) — massa orqali o'tib, akkumulatorlar batareyasining manfiy klemmasiga qaytadi.

Tok elektr magnit chulg'amidan o'tganda o'zak magnitlanadi, membrana sterjeni (3) kontaktlar (1 va 2) ni ajratadi, shu paytda tok zanjiri uziladi va membrana elastik bo'lganligi sababli yakorcha dastlabki holatiga qaytadi va kontaktlar jisflashadi, yana tok chulg'amdan o'tadi va jarayon takrorlanadi.

Shunday qilib, membrana har soniyada 150--300 marta titrab, havoning to'lqinlanishi natijasida tovush hosil bo'ladi. Vibratorning kontaktlari ajralganda uchqun hosil bo'lmasligi uchun ularga kondensator (5) parallel ulangan.

Yoritish asboblari va signalga texnik xizmat ko'rsatish. Faralar va ularning oynasi toza latta bilan artiladi. Zarur bo'lsa, fara qaytar-gichinaing reflektori iliq suv bilan qo'l tegizmasdan yuviladi. Kron-shteynlar va ulardag'i faralar mahkam o'rnatilgan bo'lishi lozim. Kuygan lampochkalar almashtiriladi, lekin sababini aniqlab va bartaraf qilib, keyin almashtirish kerak.

Signalga texnik xizmat ko'rsatish uni toza holda saqlash, vibrator kontaktlarini tekshirish va rostlashdan iborat. Signal mahkam o'rnatilgan, similari jips biriktirilgan bo'lishi lozim. Qoraygan kontaktlar mayda tishli egov yoki jilvir bilan tozalanadi.



11.18-rasm. Tovush signalining sxemasi:


1 va 2 — vibrator kontaktlari; 3 — sterjen; 4 — akkumulatorlar batareyasi;
5 — vibrator plastinası; 6 — elektr magnit; 7 — sim; 8 — kondensator;
9 — signal tugmasi; 10 — yakorcha; 11 — membrana; 12 — rezonator

12-§. Nazorat-o'lchash asboblari va boshqa uskunalar

Ampermetr — akkumulatorlar batareyasining zaryadlanishini va zaryadsizlanishini bildirib, tokning kuchini amperida ko'rsatadi. Ampermetr zanjirga ketma-ket ulanib, uning mili o'ngga (musbat tomonga) tebranganda zaryadlovchi tok, chapga (manfiy tomonga) tebranganda esa zaryadsizlovchi tok o'tayotganini ko'rsatadi.

Motoring o'ta qiziganligini bildiruvchi signalizator. Signalizatorning datchigi havo bilan sovitiladigan motorlar kallagiga burab kirgiziladi. (11.19-rasm, 10), signalizator (11.19-rasm, a) datchigining jez balloni (1) ga, undan izolator (5) bilan ajratilgan klemma (6) o'rnatilgan. Klemmanın kontakt plastinası (4) va po'lat asos (2) orqali massa bilan tutashtirilgan bimetall plastinası (3) bor. Klemma (6) sim bilan asboblar shchitidagi lampochkaga ulangan.


Kallak 155—165°C qiziganda bimetall plastina kengayib egiladi va kontaktlar juftlashib, nazorat lampochka yonadi (11.19-rasm, b). Kontaktlar orasidagi tirkishning qiymati vint (7) bilan rostlanadi.



**11.19-rasm. Motorning o'ta qiziganligini bildiruvchi signalizator (a)
va uning ishlash sxemasi (b):**

1 — icer balloon; 2 — polzat asos; 3 — bimetall plastina;
4 — kontakti plastina; 5 — izolator; 6 — klemma; 7 — vint

Ba'zi avtomobillardagi moylash tiziminining avariya signali ham uiddi
shu principda tuzilgan.



11.20-rasm. Yonilg'i sathini ko'rsatkich:

1 — qalqovuchi; 2 — polzun; 3 — reostat; 4 — yakorcha;
5 va 8 — g'altak; 6 — qarshilik; 7 — mil; 9 — uzghich

Yonilg'i sathini ko'rsatkich (11.20-rasm) — yonilg'i bakiga o'rnatilgan datchik va asboblar shchitiga o'rnatilgan priyomnikdan iborat. Yondirish tizimi qo'shilganda ishlaydi, bakda benzin kam bo'lsa, qalqovuch (1) pastda turadi va reostat (3) zanjirga ulanmaydi. O'ng g'altak (5) ning ikkala uchi massaga tutashadi va qarshilik (6) orqali tok o'tmay, tok faqat chap g'altak (8) dan o'tadi.

Chap g'altak o'zagi magnitlanib, yakorcha (4) ni tortadi. Mil (7) chapga tebranib nolni (bakning bo'shaganligini) ko'rsatadi. Bak to'la bo'lsa, qalqovuch yuqoriga ko'tarilib, polzun (2) reostat (3) ni zanjirga to'la ulaydi.

Tok ikkala g'altak orqali o'tib, o'ng g'altakning o'zagi kuchliroq, magnitlanadi. Natijada yakorcha o'ngga tortilib, miň II tomonga siljib, bakning to'laligini ko'rsatadi. Bakdag'i yonilg'inining sathiga qarab reostat (3) ning qarshiliği o'zgaradi, g'altaklar (5 va 8) ning o'zagi turlicha magnitlanib, yakorchani bakdag'i yonilg'i sathiga munosib holatga sil-jitadi.


Moy bosimini ko'rsatkich (11.21-rasm) moy magistraliga ulangan datchik va shchitga o'rnatilgan ko'rsatkichdan iborat.

Datchik korpusi (1) ning richag (4) orqali kontakt (15) ga ulangan diafragmasi (2) bor. Kontakt (15) massaga tutashtirilgan. Korpusning ichida massadan izolatsiyalangan chulg'amli bimetall plastina (5) bor. Bimetall plastina chulg'amining bir uchi izolatsiyalangan kontakt (14) ga, ikkinchi uchi esa korpusdan chiqarilgan izolatsiyalangan klemma (13) ga ulangan.

Ko'rsatkich (6) ning mil (9) ga biriktirilgan plastinasi (10) bor. Bu plastina chulg'amining bir uchi qo'shimecha qarshilik orqali datchikning kleimmasiga biriktirilgan kontakt (7) ga, ikkinchi uchi esa uzgich (11) orqali batareya (12) ga birikiirilgan kontakt (8) ga ulangan.

Yondirish uzgichi qo'shilganda, ko'rsatkich va datchik chulg'amlari orqali manbadan tok o'ta boshlaydi. Ko'rsatkich chulg'amidan qancha ko'p tok o'tsa, bimetall plastina shuncha ko'p egilib, mil ko'proq burilib, kattaroq bosimni ko'rsatadi.

Moy magistrali (3) da moy bosimi kam bo'lsa, diafragma (2) egilmaydi. Datchik chulg'amidan o'tgan tok bimetall plastina (5) ni qizdiradi, u egilib, kontaktlar (14 va 15) ni ajratadi. Bimetall plastina chulg'amidan tok o'tmaydi, u sovib to'g'rilanadi va kontaktlar yana juftlashadi. Kontaktlarning tegib turishiga qaraganda ajralib turish vaqtı uzoqroq bo'ladi. Bu esa datchik bimetall plastinasining chulg'amidan




11.21-rasm. Moy bosimini ko'rsatkich:

1 — korpus; 2 — diafragma; 3 — moy magistrali; 4 — richag; 5 — bimetall plastina; 6 — ko'rsatkich; 7, 8, 14 va 15 — kontaktlar; 9 — mil; 10 — plastina; 11 — uzgich; 12 — akkumulatorlar batareyasi; 13 — klemma

o'tadigan tokni kamaytiradi, plastina egilmasdan, milni nolga yaqin tomonda saqlaydi.

Moy bosimi ortganda datchik diafragmasi ko'proq egilib, kontaktlar (14 va 15) ni itarib, bimetall plastina (5) ni egadi. Natijada kontaktlar ko'proq vaqt tegib turib, kamroq ajraladi. Shuning uchun ko'rsatkich plastinasining chulg'ami orqali ko'proq tok o'tib, uni egadi va milni katta bosim tomonga (o'ngga) buradi.

Suv haroratini ko'rsatkich (11.22-rasm). Datchik (1) suv haroratini kallagining suv g'ilofiga, ko'rsatkich (2) esa shchitiga o'tnashdi. Yondirish uzgichi (3) qo'shilganda manba (4) dan tok kelib, ko'rsatkich ishlaydi. Datchik motorning o'ta qiziganini bildiruvchi signalizatorning datchigiga (11.19-rasm), ko'rsatkich esa moy bosimi ko'rsatkichiga (11.21-rasm) o'xshab ishlaydi. Datchik va ko'rsatkich chulg'amrlaridan tok ko'p o'tganda, mil og'ib, punktir bilan ko'rsatilgan holatni ishg'ol qiladi.



11.22-rasm. Suv haroratini ko'rsatkich:


1 - datchik; 2 — ko'rsatkich; 3 - uzgich; 4 — akkumulatorlar batareyasi

Suv isiganda datchikning plastinasi qizib, kontaktlar ajraladi. Ko'rsatkichning plastinasi sovib, mil yuqoriyoq haroratni ko'rsatadigan tomonga buriladi. Datchikning plastinasi sovigandan keyin kontaktlari yana justlashadi. Suv qancha issiq bo'lsa, kontaktlar shuncha kam vaqt tegib turadi va shunga mos yuqori harorat ko'rsatiladi.

Elektr alangali isitgich. Havo sovuq vaqtarda dizeliarni yurg'ib yuborishda yonilg'inining bug'ga yaxshi aylanishi va havoni isitish uchun elektr alangali isitkich va cho'g'lanish svechalari qo'llaniladi.

Dastaki usulda qo'shiladigan elektr alangali isitgich (11.23-rasm, a) qopqoq (2) li cho'yan korpus (1) dan iborat, u motorning kiritish quvuriga o'rnatiladi. Qopqoq korpusga markaziy bolt bilan mahkam-lanib, bu boltga prujina va tugma (4) li klapan joylashtirilgan. Qopqoq ichiga trubkalar (3) dan yonilg'i keladi. Korpusning pastki qismiga spiral (8) joylashtirilib, bir necha teshikli qalpoq (7) bilan berkitilgan. Spiralning bir uchi klemma (6) ga chiqarilib, ikkinchi uchi massaga tutashtirilgan. Klemma qo'shish tugmasi va nazorat elementi orqali

batareyaga ulanadi. Motorni yurgizib yuborishdan oldin qo'shish tugmasini bosib, spiral qizdiriladi. Keyin klapan (5) tugmasi (4) ni bosib, spiralga yonilg'i tushiriladi. Yonilg'i qizib qisman yonadi, kiritish quvuridan o'tayotgan havo issiq gazlarni ilashtirib silindrlarga olib ketadi. Havo birmuncha qiziydi va motorning o't olishi osonlashadi.




11.23-rasm. Elektr alangali isitgich:

a — qo'1 bilan; *b* — elektr magnit bilan qo'shiladigan; 1 va 12 — korpus; 2 — qopqoq; 3 — trubka; 4 — klapan tugmasi; 5 — klapan; 6 — klemma; 7 va 15 — qalpoq; 8 va 14 — spiral; 9 — elektr magnit; 10 — yonilg'i bakchasi; 11 — elektr magnitli klapan; 13 — kiritish quvuri

Elektr magnit bilan qo'shiladigan elektr alangali isitgich (11.23-rasm, *b*) elektr magnit (9) li klapan (11), yonilg'i bakchasi (10) va qalpoq (15) qa joylashtirilgan spiral (14) dan iborat. Isitkich korpusi (12) dizelning kiritish quvuri (13) ga burab o'rnatiladi (2.13-rasm, 9).

Bakchaga 0,25 l dizel yonilg'isi quyiladi. Traktoring rul kolonkasidagi tugma bosilganda elektr magnit qo'shiladi, yonilg'i klapani ochiladi va spiral qiziydi. Qizish darajasi nazorat elementning qo'shib o'sharab aniqlanadi.

Cho'g'lanish svechasi (11.24-rasm) motorning silindrlar kallagiga burab qo'yilib, qo'shimcha qarshilik va nazorat element orqali akkumulatorlar batareyasiga ulanadi. Barcha silindrlar svechasi ketma-ket ulangan. Svecha o'zagi (2) korpus (4) ga kirgizilib, o'zak ichiga undan izolatsiyalangan sterjen (3) joylashtirilgan. Tok svechaga sim (5 va 6) lardan o'tadi.



11.24-rasm.

Cho'g'lanish svechasi:

- 1 — spiral;
- 2 — o'zak;
- 3 — sterjen;
- 4 — korpus;
- 5 va 6 — simlar

yong'in chiqib ketishi ham mumkin. Qisqa tutashishga yo'l qo'yimaslik uchun yuk avtomobillari va ba'zi traktorlar elektr jihoziariga eruvchan va termobimetall saqlagichlar o'rnatiladi.


Eruvchan saqlagichlar ma'lum miqdordagi tokka mo'ljallangan ingichka mis yoki qo'rg'oshin simdan iborat bo'lib, zanjirga ketma-ket ularadi. Tok kuchi ortgandan saqlagich sim erib, zanjirni uzadi. Kamchilikni topib tuzatgach, saqlagich yangisiga almashtiriladi.

Termobimetall saqlagich (11.25-rasm) korpus (3) va kontakt (5) ga tegib turadigan kontaktli bimetall plastina (4) dan iborat. Agar bimetall plastina orqali mo'ljaldaidan ortiq tok o'tsa, u qizib egilib, o'ziga xos shiqillash ovozi eshitiladi (punktir bilan ko'rsatilgan holat) va kontaktlar ajraladi. Bunda qismalar (1) dan tok o'tmaydi. Plastina sovigandan keyin to'g'ilanib, zanjirni qaytadan ulaydi. Qisqa tutashuv tuzatilmaguncha saqlagich zanjirni goh ajratib, goh qo'shib turadi. Korpus tugmasi (2) ni bosib, saqlagichni qayta qo'shish mumkin.

Elektr jihozlarning ularish sxemasi. Traktor va avtomobil elektr jihozlarining tok manbalari, iste'molchilarini va turli asboblari ma'lum elektr sxema bo'yicha simlar tizimi vositasida bir-biriga ularib, elektr sxemani tashkil etadi.

Qarshilik svechalarga o'tadigan tok miqdorini cheklaydi. Startyor qo'shilgan paytda spiral ajratib qo'yilib, tok kuchlanishing ortiqcha pasayishiga yo'l qo'yilmaydi. Dizelni yurgizib yuborishda tok kuchlanishi 12 V dan 9—10 V gacha pasayadi. Svecha spiralining qanchalik cho'g'langanligi asboblar shchitiga joylashtirilgan nazorat element spiralining cho'g'lanishiga qarab aniqlanadi. Spiral ravshan cho'g'lana boshlaganda startyor qo'shilib, dizel o't oldiriladi. Dizel ishlay boshlashi bilan startyor tugmasi bo'shatilib, spiral tokdan ajratiladi.

Saqlagichlar. Tok manbalarini iste'molchilarga ulaydigan simlar yalang'ochlanib massaga tegsa qisqa tutashish bo'lib batareya zaryadsizlanadi, simlar ortiqcha qiziysi, lampochkalar kuyadi, ampermetr va boshqa asboblar ishdan chiqadi, hatto




11.25-rasm. Termobimetall saqlagich:

1 — qisma; 2 — tugma; 3 — korpus; 4 — plastina; 5 — kontakt

11.26-rasmda JT-75 traktori elektr jihozlarining sxemasi keltirilgan. Bu sxemada tok manbalari iste'molchilarga bir sim bilan ulanib, mashinaning metall qismi massa – ikkinchi sim vazifasini o'taydi. Shuning uchun akkumulatorlar batareyasi, generator va boshqa iste'molchilarining manfiy klemmasi mashinaning metall qismiga ulangan. Bu traktor motori yurgizib yuborish motori bilan o't oldiriladi, yurgizib yuborish motorining o'zi esa 0,5 ot kuchi quvvatli, CT-350 markali startyor (17) bilan aylantirilib o't oldiriladi. Asosan startyorni va dizel ishlamagan vaqtida hamda sekin aylanganida boshqa iste'molchilarini tok bilan ta'minlash uchun 42 amper-soat sig'imiли 6CT-42-9M markali akkumulatorlar batareyasi (16) o'rnatilgan. Dizel ishlagan vaqtida iste'molchilarni tok bilan ta'minlash va akkumulatorlar batareyasini zaryadlab turish uchun 180 W quvvatli T214-A markali generator (2) bor. Akkumulatorlar batareyasining zaryadlanishini yoki zaryadsizlanishini ampermetr (15) ko'rsatib turadi. Generator bilan akkumulatorlar batareyasining birga ishlashini ta'minlash va generator ishlab chiqaradigan tokning kechlanishini va

miqdorini cheklash uchun PP 315-Д markali tele-regulator (5) qo'yilgan.



11.26-rasm. DT-75 traktori elektr jihozlarining sxemasi:

1 — fara; 2 — generator; 3 — cho'g'lanish spiralining nazorat elementi;

4 — cho'g'lanish spiralini qo'shish tugmasi; 5 — rele-regulator;

6 — saqligachilar bloki; 7 — tovush signali uzgichi; 8 — plafon yoki kabinani shamollatuvchi elektr motorning ulab-uzgichi; 9 va 18 — shtepsel rozetkalar;

10 — ulagich; 11 — tovush signali; 12 — kabina plafoni;

13 — kabina ventilatorining elektr motori; 14 — nazorat asboblarini yorituvchi lampa; 15 — ampermetr; 16 — akkumulatorlar batareyasi;

17 — startyor; 19 — ko'chma lampa; 20 — yurgazib yuborish qizdirgichining cho'g'lanish spirali

Havo sovuq vaqlarda dizetni yurgizib yuborishni yengillashtirish uchun cho'g'lanish spirali (20), uning nazorat elementi (3) va qo'shish tugmasi (4) bor. Traktoring tovush signali (7) tugma (11) bilan boshqariladi. Kabinani shamollatish uchun o'rnatilgan ventilatorni elektr motor (13) harakatga keltirib, u ulab-uzgich (8) bilan boshqariladi.

Traktor tunda ishlaganda yo'lni, tirkalgan mashinalarni, kabinani, nazorat asboblarini yoritish uchun fara va lampochkalar (1, 12, 14, 19), ularning uzgichlari (10), shtepsel rozetkalar (9, 18) bor.

Tok manbalarini iste'molchilarga ulashda simlarni bir-biriga adashtirmaslik uchun ustidagi to'qimasi turli rangdagi simlar qo'llaniladi.

Zanjirda qisqa tutashuv yuz berganda shikastlanishdan saqlash uchun eruvchan saqlagichlar bloki (6) qo'yilgan.

Boshqa traktor va avtomobillar elektr jihozlarining sxemasi ham shunga o'xshash tuzilgan, lekin iste'molechilar soniga qarab yana ham murakkabroq bo'ladi. Elektr jihoz asboblarini traktor yoki avtomobilga o'rnatish, ulardagi muqsonlarni topish va bartaraf qilish uchun elektr jihozlar sxemasini bilish katta ahamiyatga egadir.

Nazorat savollari

1. Traktor va avtomobil elektr jihozlari qanday asosiy qismlardan iborat?
2. Ichki yonuv motorlarida yoniq'i qanday yondiriladi?
3. Karburatorli motorlarda ish aralashmasi qachon yondiriladi, uning ilgari yoki kech yondirilishi motor ishiga qanday ta'sir etadi?
4. Yondirish sivechasi qanday tuzilgan? Unga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat?
5. Magneto qanday asosiy qismlardan iborat, uning ishlashi nimaga asoslangan?
6. Past va yuqori kuchlanishli tok zanjiri haqida gapirib bering.
7. Yurgizish tezlatkichi va ilgarilash mustasining vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
8. HJL-10M motoriga magneto qanday o'rnatiladi va magnetoga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat?
9. Akkumulatorlar batareyasi qanday tuzilgan? Zaryadlanish va zaryadsizlanishda qanday hodisalar yuz beradi?
10. Akkumulatorning sig'imi nimaga bog'liq? Akkumulatorlarga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat?
11. Traktor va avtomobillarda qo'llaniladigan generatorlarning ishlash prinsipini, tuzilishini tushuntirib bering.
12. Rele-regulatorning vazifasi, tuzilishi va ishlash prinsipini tushuntirib bering.
13. Batareyali yondirish tizimining asosiy qismlari, ularning vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
14. Uzgich-taqsimlagich qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
15. Elektr startyorning tuzilishi va ishlashini so'zlab bering.
16. Yoritish asboblarining tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
17. Tovush signalini qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
18. Nazorat-o'chash asboblari qanday vazifani bajaradi va qanday ishlaydi?
19. Elektr alangali isitkich va cho'g'lanish - svechalarining vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering. Cho'g'lanish svechalariga ketma-ket ulangan qarshilik va nazorat elementi nima uchun kerak?
20. Traktor va avtomobil elektr jihozlariga nima uchun saqlagichlar o'rnatiladi? Eruvchan va termobimetall saqlagichlar qanday ishlaydi?
21. Traktor va avtomobil elektr jihozlari sxemasidan asosiy qismlarning hir-biriga ulanishini va o'rnatilishini tushuntirib.

1-\$. Traktor va avtomobil motorlarining yurgizib yuborish tizimlari

Motorlarni yurgizib yuborishda turli mexanizm va tizimlarining ishqalanish qarshiliklarini yengish, aylanuvchi qismida kinetik energiya hosil etish va silindrlarda yonuvchi aralashma yoki havoni siqish uchun tirsakli valni ma'lum kuch bilan va ma'lum tezlikda aylantirish zarur. Bu aylanish tezligi yurgizib yuborishdagi aylanishlar soni deyiladi. Havo qancha sovuq bo'lsa, silindrlar qancha ko'p va katta bo'lsa, shuningdek, motorning siqish darajasi qancha yuqori bo'lsa, tirsakli valni aylantirish uchun shuncha ko'p kuch talab etiladi.


Motorlar qo'l kuchi bilan, elektr startyor yoki yordamchi motor bilan yurgizib yuborilishi mumkin.

Motor qo'l kuchi bilan yurgizib yuborilganda yurgizish dastasining uchidagi shtiftni tirsakli val uchidagi xropovikning o'yig'iga ilintirib tirsakli val aylantiriladi. Karburatorli motorlargina qo'l kuchi bilan aylantirib yurgizib yuborilishi mumkin.

Motor startyor bilan yurgizib yuborilganda (12.1-rasm) startyor (3) ning harakat uzatuvchi shesternasi (2) maxovikning tishli gardishi (1) bilan ilashib, tirsakli val (4) ni aylantiradi. Bu eng ko'p tarqalgan usul bo'lib, barcha avtomobillarda, 2 t gacha sinf traktorlarda va ba'zi dizellarning yurgizib yuborish motorlarida qo'llaniladi.

Yordamchi benzin motori bilan yurgizib yuborish tizimi yurgizib yuborish motori, kuch uzatishi qismi, dekompressiya mexanizmi va dizelni isitish moslamalaridan iborat. Yurgizib yuborish motori dizel tirsakli valini aylantiradigan kuch manbayidir. Kuch uzatish qismi yurgizib yuborish motori tirsakli valining aylanma harakatini dizelning valiga uzatadi.

Dekompressiya mexanizmi dizel silindrlaridagi kompressiyani yo'qotadi (havoni chiqarib yuboradi), ya'ni tirsakli valni aylantirishni osonlashtiradi. Isitish moslamalari silindrga kiritiladigan havoni va sovitish tizimidagi suvn'i isitadi. Bu yurgizib yuborishning ishonchli usuli, amme murakkabroq tuzilgan va yurgizib yuborish jarayoni birmuncha cho'ziladi.



12. I-rasm. Elektr startyor bilan yurgizib yuborish sxemasi:

1 — maxovkning tishli gardishi; 2 — startyor shesternasi;
3 — startyor; 4 — tirsakli val

Benzinli motorlarni yurgizib yuborish uchun tirsakli valni daqiqasiga 40—50 marta tezlikda aylantirish kifoya.

Benzinli motorlarni yurgizib yuborish uchun quyuq aralashma va kuchli uchqun hosil etish zarur. Yurgizib yuborishni esonlashtirish uchun ta'minlash tizimiga aralashmani quyuqlashtiruvchi moslamalar: qalqovuchni cho'ktirgich, benzin nasosi va have to'sig'i o'matiladi. Yurgizib yuborishda kuchli uchqun hosil etish uchun ba'zan magnetoga yurgizish tezlatkichi o'matiladi, yondirish g'altagining qo'shimcha qarshiligi ajratib qo'yiladi.

Dizellarni yurgizib yuborish uchun silindrarda havoni purkalgan yonilg'i alanganadigan haroratga qadar qizdirish va yonilg'ini mayda to'zitib havoga aralashtirish zarur.

Dizelni yurgizib yuborishda tirsakli val yetarli tezlikda aylantirilmasa, siqish takti cho'zilib, issiqqlik silindr devorlariga tarqaladi, siqish takti oxiridagi harorat past bo'ladi va yonilg'ining to'zitilishi, shuningdek, aralashma hosil etish jarayoni yomonlashadi.

Shuning uchun dizellarni yurgizib yuborishda tirsakli valni daqiqasiga 200—300 marta tezlikda aylantirish zarur.

Dizellarni yurgizib yuborishda sovitish tizimidagi suvni va so'rila-digan havoni isitish, shuningdek, yonilg'ining alanganishini yaxshilash maqsadga muvoziydir.

2-§. Yurgizib yuborish motorlari

1,4 dan 4 t gacha sinf traktorlarining dizellari bir silindrli ikki takhti karburatorli ПД-10М va ПД-10М2 markali benzin motorlari bilan yurgizib yuboriladi. Bu motorlarning tirsakli vali 3500 ayl/daq aylanganda 7,4 kW ga teng quvvat beradi.

ПД-10М markali motorning (12.2-rasm) karteri (12), silindri (4) va silindr kallagi (8) alohida yasalgan. Karteri ikki qismidan iborat bo'lib, boltlar bilan birlashtirilgan. Silindri karterga to'rtta shpiylka bilan mahkamlanadi.

Silindr kallagi ham silindrga to'rtta shpiylka bilan mahkamlanadi.

Kallakka yonish kamerasi, yondirish svechasi va benzin quyiladigan jo'mrak (7) o'rnatilgan. Silindr devorlarida aylana bo'ylab tuynuklar qilingan.

Bulardan tuynuk (5) lar orqali ishlataligani gazlar chiqadi, tuynuk (9) orqali karterdan silindrga aralashma kiradi va karterga karburatorдан tuynuk (10) orqali aralashma so'riladi. Bu tuynuklar ma'lum paytda porshen bilan ochilib-yopiladi, shuning uchun bu motorning klapanlari yo'q.


Porshen (3) aluminiy qotishmasidan quyilgan, uning uchta kompresion halqasi bor. Porshen barmog'i erkin tipda yasalib, o'q bo'ylab siljimasligi uchun stopor halqa bilari mahkamlab qo'yilgan. Shatun (17) ning yuqorigi kallagiga bronza vyluka presslab o'tqazilgan. pastki kallagi ajralmaydigan qilib yasalgan. Tirsakli valga yig'ishdan oldin shatunning pastki kallagi rolikli podshipnik bilan birga krivoship bo'yniga kirdiladi.

Valning oldingi uchiga maxovik (2) mahkamlangan. Bu motorning ishlash prinsipi 2-bob, 4-§ da bayon etilgan.

Motorning krivoship-shatun mexanizmi detallari 15 / benzinga 1 / hisobida qo'shiladigan dizel moyi bilan moylanadi, shu sababli motorning ayrim moylash tizimi yo'q. Motor dizel bilan birlashtirilgan termosifon usulda sovitiladi.

Motorning ta'minlash tizimi yonilg'i baki, tindirgich, karburator (11) va regulator (14) dan iborat bo'lib, ularning tuzilishi va ishlash prinsipi 6-bob, 4-§ da va 8-bob, 2-§ da bayon etilgan. Bu motorning havo tozalagichi yo'q.

Yondirish tizimi yondirishni ilgarilaydigan avtomat muftali magneto (13), yondirish svechasi (6) va yuqori kuchlanish simidan iborat bo'lib, buning bayoni 11-bob, 4-§ da keltirilgan.



12 2-rasm. ПД-10М yurgizib yuborish motori (maxovik va startyor g'ilesi olingan holda):

1 — tirsaklı val; 2 — maxovik; 3 — porshen; 4 — silindr; 5 — ishlataligan gazlar chiqadigan tuyruk; 6 — svecha; 7 — yönilg'i quyiladigan jo'mrak; 8 — silindr kallagi; 9 — karterdan silindрга aralashma kiradigan tuyruk; 10 — aralashma karburatordan karterga kiradigan tuyruk; 11 — karburator; 12 — karter; 13 — magneto; 14 — bir rejimli regulator; 15 — tirsaklı val shesternasi; 16 — oraliq shesterna; 17 — shatun

ПД-10М ва ПД-М2 motorlari elektr startyor bilan yurgizib yuboriladi. 6 t sinif traktorlarining motorini yurgizib yuborish uchun П-23М markali, ikki silindrli, to'rt taktli, karburatorli benzин motori o'rnatilib, 2600 ayl/min da 17 kW quvvat beradi. Bu to'rt taktli, karburatorli motor avtomobil motori prinsipida ishlaydi.

3-§. Yurgizib yuborish tiziminining kuch uzatish qismlari

Kuch uzatish qismlari yurgizib yuborish motorining tirsakli valini dizelning valiga biriktirib haraka^t uzatadi, dizel yurgizib yuborilgandan keyin esa harakat uzatish mexanizmini ajratadi. Kuch uzatish qismlari ilashish muftasi, reduktor va yurgizib yuborish mexanizmidan iborat.


Motordan dizelning tirsakli valiga kuch uzatish sxemasi 12.3-rasmda ko'rsatilgan. Yurgizib yuborish motori (1) ning tirsakli vali oraliq shesterna orqali ilashish muftasi (3) ning shesternasini aylantiradi. Ilashish muftasi richag (2) bilan qo'shilganda diskilar bir-biriga siqilib, harakat mufta validan shesternalar (4—5, 8—9) orqali yurgizib yuborish shesternasi (12) valiga uzatiladi. Yurgizib yuborish shesternasi (12) richag (10) yordamida dizel maxovigining tishli gardishi (7) ga tishlashtiriladi. Bunda dizel vali (6) sekin (daqiqasiga 75 marta) aylanadi.

Shesterna (9) richag (13) bilan siljilib, shesterna (4) ga tishlash-tirilsa, reduktor va ilashish muftasining vali baravar aylanib, dizelning tirsakli vali yurgizib yuborish tezligida, ya'ni daqiqasiga 210 marta aylanadi. Dizel ishlay boshlagach, yurgizib yuborish shesternasi (12) avtomat ravishda ajratiladi.

Ilashish muftasi (12.4-rasm) yurgizib yuborish motorining tirsakli valini dizelning tirsakli valiga asta-sekin biriktiradi va ajratadi. Bu ko'p diskli, ho'l (moya ishlaydigan) muvaqqat qo'shilgan ilashish muftasi bo'lib, u shesterna (3) li baraban va baraban bilan birga aylanadigan beshta yetakchi disk (4), mufta vali (1) bilan birga aylanadigan beshta yetaklanuvchi disk (5), tirak disk (2), siqvich disk (6), siqish mexanizmi va tormozchadan iborat.

Siqish mexanizmi krestovina (8) ga o'rnatilgan uchta siqvich kulak (7), ajratkich (9) va boshqarish richagi (10) dan iborat. Krestovina muftaning validagi rezbaga o'rnatilgan. Tormozcha korpus (11) ga o'rnatilgan qo'zg'almas disk (13) va val (1) bilan birga aylanadigan gupchakka o'tqazilgan ikkita aylanuvchi disk (12) dan iborat.


Shesternali baraban oraliq shesterna orqali yurgizib yuborish motori tirsakli valining shesternasidan harakatga keltiriladi. Mufta validan harakat reduktorga uzatiladi, ya'ni uning uchiga reduktor shesternasi (4) chiqarilgan (12.3-rasm). Disklarning baraban yoki val bilan birga aylanishiga qaramay, ular muftani qo'shishda va ajratishda bo'ylama yo'nalishda siljiy oladi. Mufta richag bilan boshqariladi, richag oldiga (o'ngga) burilganda mufta qo'shiladi, chapga (ketinga) burilganda esa ajraladi.



12.3-rasm. Yurgizib yuborish tizimining kuch uzatish sxemasi:

- 1 — yurgizib yuborish motori; 2 — ilashish mustasining riehagi;
- 3 — ilashish mustasi; 4, 5, 8 va 9 — shesternalar; 6 — dizelning tirsakli vali;
- 7 — maxovikning tishli gardishi; 10 — harakatlantirish shesternasining riehagi; 11 — harakatlantirish mexanizmi; 12 — yurgizib yuborish shesternasi;
- 13 — reduktor riehagi

Reduktor shesternalarining shovqinsiz qo'shilishi uchun ilashish mustasi ajratilganda uning vali tormozcha bilan tez to'xtatiladi. Musta ajratilganda ajratkichning chekkasi aylanuvchi diskni qo'zg'almas diskka siqadi va musta vali tez to'xtaydi.



12.4-rasm. Yurgazib yuborish tizimi ilashish mustasining ishlash sxemasi:

- 1 — musta vali; 2 — tirak disk; 3 — shesterna; 4 — yetakchi disk;
- 5 — yetaklanuvchi disk; 6 — siquvchi disk; 7 — siquvchi musht;
- 8 — krestovina; 9 — ajratkichi; 10 — boshqarish richagi; 11 — kerpus;
- 12 — aylanuvchi disk; 13 — qo'zg'almas disk

Mufتا valga o'rnatilgan krestovinani burab rostlanadi. Krestovina o'zicha buralib ketinasligi uchun prujinali fiksatorning sterjeni siquvchi disk teshigiga kiritib qo'yiladi. Mufта va tormozchaning po'lat disklari korpusga quyilgan moyda ishlaydi.


Reduktor (12.3-rasm, 5) ilashish mustasining keyiniga joylashtirilib, harakatni yurgazib yuborish shesternasiga sekinlashtirib yoki to'ppato'g'ri uzatadi. Reduktor mufта valining uchiga chiqarilgan yetakchi shesterna (4), o'qda erkin aylanadigan katta (5) va kichik (8) oraliq shesternalar hamda yetaklanuvchi valga o'rnatilgan suriladigan shesterna (9) dan iborat.

Suriladigan shesterna richag (13) bilan siljilib, uning ichki tishi shesterna (4) ga bevosita tishlashtirilsa, reduktorning to'g'ri uzatmasi qo'shiladi. Agar harakat sxemada ko'rsatilgandek qo'shaloq shesterna orqali uzatilsa, sekinlashiruvchi uzatma qo'shiladi. Reduktorning neytral (harakat uzatilmaydigan) holati bo'lmaydi. Reduktor detallari ham korpusga quyilgan moy bilan moylanadi. Ba'zi traktorlarning yurgizib yuborish tizimida reduktor bo'lmaydi, unda harakat motordan ilashish mustasi orqali bevosita harakatlantirish mexanizmiga uzatiladi.

Harakatlantirish mexanizmi dizelni yurgizib yuborishdan oldin harakatlantirish shesternasini dizeл maxovigining gardishiga tishlashtiradi va dizeл mustaqil ishlab ketgach, harakatlantirish shesternasini avtomat ravishda ajratadi.

Harakatlantirish mexanizmi (12.5-rasm) tutqich (9), unga mahkamlangan o'qlarga o'rnatilgan ikkita yukcha (4), qo'shaloq prujina (6), turkich (10), yo'naltiruvchi vtulka (11) va ko'ndalang prujina (3) dan iborat. Tutqich boltlar bilan yurgizib yuborish shesternasi (7) ning gupchagiga mahkamlangan. Reduktor yetaklanuvchi vali (5) ning ichiga prujina (6) va turkich (10) kirgizilgan, uchidagi rezbasiga esa yo'naltiruvchi vtulka burab qo'yilgan. Bu vtulka turkichning siljishini va prujinaning cho'zilishini chegaralaydi. Turkichning ketingi uchiga tirak (2) presslab kirgizilgan, yukehalar tashqi uzun yelkasining ilgak shaklidagi uchi yo'naltirevchi vtulkaning bo'rtig'iga ilinadi, ketingi kalta yelkasiga esa ko'ndalang prujina tirab qo'yilgan.

Harakatlantirish mexanizmining qo'shish richagi (12) pastga bosib burilganda siqish richagi (1) tirakni bosib, tutqichni suradi va yurgizib yuborish shesternasini maxcvikning gardishi (8) ga tishlashtiradi (12.5-rasm, a). Yukehalarning tashqi uzun yelkasi vtulkaning bo'rtig'iga ilinadi, prujina kerilib, ularni siqb turadi. Shesternalar qo'shilgandan keyin richag dastlabki holatga qaytarib qo'yiladi.



12.5-rasm. Yurgizib yuborish mexanizmini ajratuvchi avtomatning ishlash sxemasi:

a — yurgizib yuborish shesternasi qo'shilgan; *b* — yukchalarining markazdan qochirma kuchi ta'siridan yurgizib yuborish shesternasi ajrala boshlamoqda;

d — yurgizib yuborish shesternasi ajralgan; *1* — richag; *2* — tirak,

3 va *6* — prujina; *4* — yukcha; *5* — val; *7* — yurgizib yuborish shesternasi; *8* — maxovik gardishi; *9* — tutqich; *10* — turtkich; *11* — yo'naltiruvchi vtulka; *12* — qo'shish richagi

Yurgizib yuborish motori ishlab turganida ilashish muftasi qo'shilsa, yurgizib yuborish shesternasi maxovikni aylantira boshlaydi. Reduktor, dekompressiya mexanizmi va boshqa moslamalardan tegishli tartibda

soydananib, dizelning tirsakli vali yurgizib yuborish tezligida aylantirilsa, dizel o't oladi (12.5-rasm, b).

Dizel ishlay boshlashi bilan maxovikning tishli gardishi yurgizib yuborish shesternasini aylantira boshlaydi. Shesterna tezroq aylanib, yukehalar markazdan qochirma kuch ta'sirida ko'ndalang prujina (3) ni qisib keriladi (punktir bilan ko'rsatilgan holatni ishg'ol etadi). Natijada yukehalarning ilgakli uchi vtulka (11) bo'rtig'idan chiqadi. Qisilgan prujinalar yana kerilib, turtkichni va yukehalar bilan birga tutqichni ketinga suradi. Harakatlantirish shesternasi maxovikning gardishidan avtomat ravishda ajraladi (12.5-rasm, d).


Yukehalar vtulkadan chiqishi, yurgizib yuborish shesternasining maxovikdan ajralishi ko'ndalang prujinaning kuchiga bog'liq. Ko'ndalang prujina, odatda, dizelning tirsakli vali daqiqasiga 300--325 marta aylana boshlaganda yukehalar vtulkadan chiqib ketadigan qilib rostlanadi.

НД-10М2 markali yurgizib yuborish motorining kuch uzatish tizimi ilashish mustasi, erkin yurish mustasi va yurgizib yuborish mexanizmidan iborat, ya'ni reduktori yo'q. НД-10М2 motorining o'zi startyor bilan o't oldiriladi. Ilashish mustasining yetakchi barabani (12.6-rasm, 11) shesterna (10) ga mahkamlangan. Bu shesterna oraliq shesternalar orqali yurgizib yuborish motorining tirsakli validan harakatga keltirilib, yurgizib yuborish mexanizmi vali (7) ning vtulkasida ravon aylanadi.

Yetakchi baraban o'yqliriga uchta yetakehi disk (4) kirgiziyan. Yetakehi disklar orasida uchta yetaklanuvchi disk (5) bo'lib, ular erkin yurish mustasi gardishi (6) ning o'yqliriga kirgizilgan. Harakat gardish (6) dan erkin yurish mustasi orqali val (7) ga uzatiladi. Erkin yurish mustasi gardishning o'yqliriga joylashtirilgan rolik (13), turtkich (14) va prujina (15) lardan iborat.

Ilashish mustasi qopqoq (12) ga joylashtirilgan dasta (1) bilan qo'shiladi. Dasta tortib burilganda tirak (2) podshipnik orqali siquvchi disk (3) ni o'ngga surib, yetakehi (4) va yetaklanuvchi (5) disklari bir-biriga siqadi. Bunda disk (3) bilan gardish (6) orasidagi tor qismiga siqilib, musta qo'shiladi. Gardish aylanganda roliklar (13) gunchisi o'yig'ining tor qismiga qisilib, valni aylantiradi Richag (1) itarib o'yilganda musta ajraladi.

Yurgizib yuborish mexanizmi, asosan, shesterna (9) va yukeba (8) dan iborat bo'lib, uning tuzilishi va ishlashi НД-10М motoriga e'xshaydi. Agar dizel ishlab ketgandan keyin val (7) gardish (6) dan tezroq aylana boshlasa, roliklar (12) gardish o'yig'ining kengroq qismiga



12.6-rasm. II/L-10M2 motorining kuch uzatish tizimi:

1 — dasta; 2 — tirak; 3 — siquvchi disk; 4 — yetakchi disk;
5 — yetaklanuvchi disk; 6 — gardish; 7 — val; 8 — yukeha; 9 — yurgizib
yuborish shesternasi; 10 — shesterna; 11 — yetakchi baraban; 12 — qopqoq;
13 — rolik; 14 — turkich; 15 — prujina

siljib harakatni uzatmaydi (12.6-rasm, b). Bu ilashish mustasi vaqtida ajratilmagan bo'lishiga qaramay, yurgizib yuborish motorini haddan tashqari tez aylanishdan saqlaydi.

4-§. Yurgizib yuborish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish

Yurgizib yuborish tiziminining durust ishlashi uchun yurgizib yuborish motorini va kuch uzatish qismlarini har smenada artib tozalash, bo'shab qolgan qismlarni mahkamlash zarur. Ayniqsa, yonilg'i bakining bo'g'zi, karburatorning havo kiradigan qisqa quvurining tozaligiga e'tibor berish lozim. II/L-10M markali motorda karterning jipsligi uning ishlashiga katta ta'sir etadi.

Traktor uzoq vaqtga to'xtatib qo'yiladigan bo'lsa, motoring karterida to'planib qolgan yonilg'i bo'shatib olinadi, silindrga va regulatorga 25 sin³ dizel moyi quyiladi. Benzinga qo'shilgan moy ajralib qoladi, uni aralashtirish uchun yurgizib yuborish motori benzin bakidagi

yonilg'ini bo'shatib olib, qaytadan quyiladi. Motorni yurgizib yuborishdan oldin karburatorga moy qo'shilgan benzin to'ldirish va motor valini bir necha marta aylantirish zarur.

Kuch uzatish qismlari dizel moyi bilan moylanadi. Qishda dizel moyiga dizel yonilg'isi aralashtirib quyiladi.

Reduktorni faqat ilashish mustasi ajratilgan holda va musta vali tormozlangandan keyin almashtirib qo'shish lozim. Redaktor richagini o'rta holatda qoldirish yaramaydi, uni sekinlashtiruvechi yoki to'g'ri uzatmaga qo'shib qo'yish kerak.

Harakatlantirish mexanizmi shesternasini faqat motor ishlamay turgan vaqtdagina qo'shish mumkin. Shesternani qo'shgandan keyin richagni dastlabki holatga qaytarib qo'yish lozim. Harakatlantirish shesternasi vaqtida ajralmasa, yukchalarni itarib turuvchi ko'ndalang prujinaning tarangligini rostlash kerak.

Nazorat savollari

1. Motorni yurgizib yuborishda qanday qarshiliklarni yengish kerak? Motorni yurgizib yuborishdagi aylanishlar soni nimaga bog'liq?
2. Motorlar qanday usullarda yurgizib yuboriladi, bu usullarning qaysi biri qanday motorlarda qo'llaniladi?
3. Yordamchi benzin motorli yurgizib yuborish tizimi qanday asosiy qismlardan iborat?
4. Yurgizib yuborish motori (НД-10М ва НД-10М2) qanday tuzilgan va u qanday moylanadi?
5. Yurgizib yuborish tiziminining kuch uzatish qismlari qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
6. Yurgizib yuborish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat?


I-§. Tormozlab sinash usullari va tormoz qurilmalari

Traktor va avtomobillar turli maqsadni ko'zlab sinaladi. Sinovalar mazmuni, muddati va xarakteriga qarab uch turli bo'ladi.

Nazorat sinovlari ishlab chiqarilgan, ta'mir qilingan yoki ma'lum muddat ishlataligan motorlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda motorning mexanizmi va tizimlari to'la-to'kis tekshiriladi va sozlanadi, maksimal quvvati, yonilg'ining solishtirma surfi aniqlanadi.

Aniqlovchi sinovlar motorlarning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlab, konstruksiyasiga baho berish uchun o'tkaziladi. Bunday sinovlar natijasida motorning turli taysisi, ya'ni aralashma tarkibi, aralashmani yondirish payti yoki yonilg'i purkash payti, motorning harakat tezligi aniqlanadi, yuklanishi o'zgartirilganda uning qanday ishlashini ko'rsatuvchi diagrammalar tuziladi.

Maxsus sinovlar ilmiy-tekshirish maqsadlarida o'tkazilib, motor ishiiga turli omillarning ta'siri, motorning eng quiy ish sharoitlari va boshqalar o'rganiladi. Maxsus sinovlar natijasida motorlar konstruksiyasi takomillashtirilishi mumkin. Motorlarni sinash uchun mexanik, gidravlik va elektr tormoz qurilmalari qo'llaniladi.




13.1-rasm. Mekanik tormozning sxemasi:
1 — shkiv; 2 — kolodka; 3 — qulogli gayka; 4 — richag;
5 — tarozi; 6 — sterjen

Mexanik tormoz (13.1-rasm) oddiy tuzilgan bo'lib, motor quvvati ishqalanish kuchini yengish uchun sarflanadi. Mexanik tormoz traktorning harakatlantirish shkivi o'rniغا mahkamlangan shkiv (1), uni siqib turadigan yog'och kolodkalar (2) va tarozi (5) dan iborat.

Qulqoli gayka (3) ni burab, kolodkalar shkivga siqiladi. Shkiv bilan kolodkalar orasida hosil bo'lgan ishqalanish kuchi kolodkalarni aylanish tomoniga burishga intiladi. Ishqalanish kuchining momenti richag (4) orqali taroziga uzatilib, P_l momenti bilan muvozanatlanadi. Bu moment motorning burovchi momentiga teng. P kuchning qiymati tarozida ko'rsatiladi. Shkivning daqiqasiga aylanish soni sterjen (5) orqali taxometr bilan aniqlanadi. Shkivni sovitish uchun maxsus quvurlardan suv oqizib qo'yiladi.

Mexanik tormoz bilan motorni aniq sinab bo'lmaydi, chunki ishqalanish koefitsienti, tarozining ko'rsatishi va aylanishlar soni doim o'zgarib turadi, shuning uchun kam qo'llaniladi.




13.2-rasm.
Diskli hidrolik
tormozning sxemasi:
1 — kronshteyn;
2 — g'ilof;
3 — rotor; 4 — val;
5 — i.vimrak

Gidravlik tormozlash qurilmalarida (13.2-rasm) motorning quvvati tormozning kojuxi bilan rotorini orasiga quyilgan suvning diskilarga urilishi va ishqalanishi natijasida isishiga sarflanadi. Diskli gidravlik tormoz val (4) ga o'rnatilgan rotor (3) va kronshteynlar (1) ga o'rnatilgan sharikli podshipniklarda burila oladigan kojux (2) dan iborat. Tormoz vali motor tirsakli validan harakatga keltiriladi.

Kojuxga jo'mrak (5) orqali quyilgan suv rotor diskining aylanishiga to'sqinlik qiladi va suvning qarshiligi kojuxni buradi. Kojuxning yelkasi taroziga tiraladi. Kojuxdagi suvning miqdorini o'zgartirib, tormozning qarshiligi (iste'mol qiladigan quvvati) rostlanadi.

Gidravlik tormozlarning tormozlovi chi momenti kichik bo'ladi va sekin aylanadi, shuning uchun motor harakati tormozga reduktor orqali uzatiladi. Gidravlik tormozning motordan olgan quvvatidan foydalaniib bo'lmaydi, bu uning kamchiligidir.

Elektr tormozlash stendida (13.3-rasm) sinaladigan motorning quvvati generator statori va rotorini magnit maydonlarining bir-biriga ta'sir etishi natijasida tormozlovi chi moment hosil etishga sartlanadi. Bu moment motorning burovchi momentiga teng bo'lib, uni tarozining tili ko'rsatib turadi.



13.3-rasm. Motorni ishlatib chiniqtirish va sinash stendi:

1 — reostat; 2 — elektr motor — generator; 3 — boshqarish pulti;

4 — sinaladigan motor, 5 — o'rnatish qurilmasi

Elektr tormozlash stendi sinaladigan motor (4), o'rnatiladigan qurilma (5), elektr motor - generator (2), suyuqlikli reostat (1) va boshqarish pulti (3) dan iborat. Boshqarish pultiga tarozining shkalasi, taxometr, manometr va termometr ko'rsatkichlari o'rnatilgan.

Bunday stendda ta'mir qilingan motorlarni yurgizib yubormasdan aylantirib chiniqtirish (sovuv holda), ishlatib chiniqtirish va sinash mumkin. Traktor, avtomobil va qishloq xo'jalik motorlarini chiniqtirishda elektromotor generator motorni aylantiradi, sinov vaqtida esa generator motorni tormezlaydi.

Elektr tormozlash stendi oddiy tuzilgan, ixcham, ishlatish va unga texnik xizmat ko'rsatish qulay bo'lib, sinaladigan motor quvvati hisobiga ishlab chiqariladigan elektr energiyasi tashqi zanjirga uzatilib, undan foydalaniлади. Shuning uchun elektr tormozlar keng tarqalgan, ba'zan elektr toki ishlab chiqaradigan kuch agregati sifatida ham qo'llaniladi.

Yonilg'i sarfni o'lehash qurilmasi. Motorni sinashda yonilg'inining solishtirma sarfni aniqlash uchun sarflangan yonilg'i og'irlik yoki hajm hisobida o'lehanadi. Motor tirsakli valining aylanishlar soni hisoblagich va taxometr bilan o'lehanadi.

2-\$. Tormozlab sinash texnikasi

Motorni sinashdan oldin tormozlash qurilmasi ko'zdan kechurilib, kerakli o'lehash-tekshirish asboблari tayyorlanadi. Sinaladigan motoring vali tormozlash qurilmasining vali bilan bir o'qda yotadigan qilib mahkamlanadi.

Motor nazorat sinovidan o'tkaziladigan bo'lsa, uning texnik holati tekshirib ko'riladi va rostlanadi. Dastlab motor boshqa energiya manbayidan aylantirib chiniqtiriladi. Motorni ishlatib chiniqtirish muddati ishlab chiqarish va ta'mir qilish sharoitlariga qarab belgilanadi.

Motor tegishli aylanishlarda ravon ishlab, quvvati kafolatlangan quvvatga mos bo'lsa, shu muddat davomida yonilg'i sartini o'lehab, yonilg'inining solishtirma sarfi aniqlanadi. Belgilangan talablarni qarorlantirib sinovdan o'lgan motor qisman qismalarga ajratilib, nazorat ko'rikdan o'tkaziladi. Aniqlangan kamchiliklari bartaraf qilinadi, so'ng gayta yig'iladi. ishlatib chiniqtiriladi va sinov tamomiangach, uning pasporti to'ldiriladi.

Motor aniqlovechi sinovdan o'tkazilganda uning ishlashiga baho beradigan asosiy tafsiflari aniqlanadi. Nazorat va aniqlovechi sinovlar tartibi va maznumi davlat standartiga muvofiq belgilangan. Motor-

ning turli tavsifi motor normal harorat rejimida rayon ishlab turganda tajriba o'tkazib topiladi. Elektr tormozlash qurilmalarida har bir tajriba 1,5–2 daqiga davom etib, ikki marta takrorlanadi. Tajriba vaqtida olingan ma'lumotlar sinov daftariga yoziladi va shunga qarab tegishli xulosalar chiqariladi.

3-§. Sinov natijalarini ishlab chiqish. Motorlarning tavsisi

Sinov daftariga motorning nomi, tartib raqami, qaysi mashinaga o'rnatilishi, qachon va qanday tormozlash qurilmasida sinalgani yoziladi. Shuningdek, motorning qanday yonilg'i va moyda ishlaganligi va ishida yuz bergan o'zgarishlar: tutab, titrab yoki taqillab ishlay bosplashi ko'rsatiladi.

Sinov vaqtida daftarga motorning rostlanishi o'zgargandagi ma'lumotlar, tajriba vaqtida o'lchash natijasida olingan ma'lumotlar va tegishli formulalarga qo'yib hisoblab topilgan ma'lumotlar yoziladi.

Karburatorning yonilg'i jiklerini, drossel to'sig'ining ochilishini yoki yonilg'i nasosi reykasing turish holatini, yondirishni ilgarilash burchagini yoki yonilg'i purkash burchagini o'zgartirish motorni rostlash deyiladi.

Har tajriba o'tkazishda tajribaning qanena vaqt davom etganligi, tormoz valining daqiqasiga aylanishlar soni, tormozlash qurilmasi tarozisining ko'rsatishi, yonilg'i sarfi, havo, suv, moy haroratlari, moy va yonilg'i bosimi va boshqalar o'lchanadi.

Har bir tajriba natijasida tirsakli valning daqiqasiga aylanish soni, tajriba vaqtida motordan olingan quvvat, yonilg'ining har soatdagi sarfi, solishurma sarfi va boshqa turli ma'lumotlar hisoblab chiqariladi.

Tormozlash qurilmalarida sinalgan motorning burovchi momenti M_{bar} va effektiv quvvati N_e quyidagi formulalardan hisoblab topiladi:

$$M_{bar} = 0,1 \cdot P \cdot l, \text{ Nm},$$


$$N_e = \frac{\pi \cdot 0,1 \cdot P \cdot l \cdot n}{30} = 10,46 \cdot P \cdot l \cdot n, \text{ kW},$$

bu yerda: P — tarozi mexanizmining ko'rsatishi, kg; l — tormoz tarozisining yelkasi, m; n — motor tirsakli valining daqiqasiga aylanishlar soni.

Har soatda sarf bo'ladigan yonilg'i miqdori:

$$G_T = \frac{3,6 G_{taj}}{T_{taj}}, \text{ kg/soat},$$

bu yerda: G_{taj} — tajriba vaqtida sarf bo'lgan yonilg'i, kg;
 T_{taj} — tajriba vaqt, s.



13.4-rasm. Benzinli motoring aralashma tarkibi rostlangandagi tavsifi (a) va dizelning yuboriladigan yonilg'i miqdori o'zgartirilgandagi tavsifi (b)

Hat soatda sarf bo'ladigan yonilg'i miqdoridan yonilg'ining solishtirma sarfi topiladi (yonilg'ining solishtirma sarfi haqida 2-bob, 6-§ da bayon etilgan). Motoring rostlanishini, tezligini va yuklanishini o'zgartirib olingan tavsiflari uning *asosiy tavsiflari*dir.

Benzinli motorlarda aralashma tarkibi va aralashmani yondirish payti, dizellarda esa yuboriladigan yonilg'ining miqdori va yonilg'i yuborish payti o'zgartirilgandagi tavsiflari ularning *rostlash tavsiflari* deyiladi.

Motoring *aralashma tarkibi rostlangandagi tavsifi* benzinli motorda yonilg'ining har soatdagi sarfi G_T , o'zgartirilganda (jiklerdan turli miqdorda yonilg'i o'tganda) motoring effektiv quvvati N_e va yonilg'ining solishtirma sarfi g_e ning o'zgarishini ko'rsatadi (13.4-rasm, a). Bunda drossellning turish holati, tirsakli valning aylanish soni, yondirishni ilgarilash burchagi o'zgartirilmaydi.


Motoring bu tavsifi karburatorni rostlashning motor quvvatiga va tejamlili ishlashiga ta'sirini ko'rsatadi hamda karburatorni to'g'ri rostlashga imkon beradi.

Benzinli motor maksimal quvvat beradigan qilib rostlanganda yonilg'ining solishtirma sarfi minimal sarfga nisbatan 12—20% ortadi.

Minimal yonilg'i sarfiga rostlanganda motoring quvvati 8–15% pasayadi.

Dizel motorining beriladigan yonilg'i miqdori o'zgartirilgandagi tavsifi dizel yonilg'i nasosi reykasini siljitim, yonilg'ining har soatdagi sarfi G_T , o'zgartirilganda effektiv quvvati N_e va yonilg'ining solishtirma sarfi g_e ning o'zgarishini ko'rsatadi (13.4-rasm, b). Tavsif tirsakli valning aylanishlar soni va yonilg'i purkash burchagining optimal qiymati o'zgartirilmasdan olinadi.

Dizel motorining bu tavsifi yuboriladigan yonilg'i miqdorining motor quvvatiga va tejamliligiga ta'sirini ko'rsatadi hamda maksimal beriladigan yonilg'i miqdorini cheklashga imkon beradi. Tavsifdan ko'rinishicha, yonilg'ining minimal sarfiga erishish uchun $\alpha = 2$, maksimal quvvat hosil etish uchun $\alpha = 1.04–1.1$ bo'lishi kerak, lekin $\alpha = 1.25–1.6$ dan kam bo'lmasligi kerak, aks holda dizel tutab ishtaydi.



13.5-rasm. Benzinli motoring (ГАЗ-51А) yondirish payti o'zgartirilgandagi tavsifi (a) va dizelning (СМД-14) yonilg'i yuborish payti o'zgartirilgandagi tavsifi (b)

Motoring yondirish payti o'zgartirilgandagi tavsifi yondirishni ilgarilash burchagi o'zgartirilganda motoring effektiv quvvati, yonilg'ining har soatdagi sarfi va solishtirma sarfining o'zgarishini ko'rsatadi.


Bunda drossel to'siqning ochilishi, asosiy jiklerning o'tkazish qobiliyati, tirsakli valning aylanishlar soni va motoring issiqlik holati o'zgartirilmaydi. Bu tavsif har bir motorda yondirish paytini ilgarilash burchagining optimal qiymatini aniqlashga imkon beradi hamda

yondirishni ilgarilash burchaginining motor quvvati va tejamliligiga ta'sirini ko'rsatadi.

TA3-51A motorining yondirish payti o'zgartirilgandagi tavsifi 13.5-rasm, *a* da keltirilgan. Tavsisdan ko'rinishicha shu motor uchun optimal ilgarilash burchagi 25° ga teng.

Dizelning yonilg'i yuborish (*purkash*) payti o'zgartirilgandagi tavsifi motor quvvati, yonilg'ining har soatdagi sarfi va solishtirma sarfining yonilg'i yuborish burchagiga qanchalik bog'liqligini ko'rsatib, bunda tirsakli valning aylanish tezligi, yonilg'i nasosi reykasining holati o'zgartirilmaydi.

13.5-rasm, *b* da CMJ-14 motorining yonilg'i yuborish payti o'zgartirilgandagi tavsifi keltirilgan. Bu tavsif motorning nominal tezlik rejimida ($n = 1700$ ayl/daq) olinib, yonilg'i yuborishning optimal ilgarilik burchagi $18 - 22^\circ$ chamasida bo'lishi kerak.



13.6-rasm. Motorlarning tezlik tavsifi:
a — benzinli; *b* — dizel


Motorning tezlik tavsifi motorni tormozlab yuklanishini o'zgartirib, aylanish soni n o'zgartirilganda effektiv quvvat N_e , burovchi moment M_{har} , har soatdagi yonilg'i sarfi G_f va yonilg'ining solishtirma sarfi g_f , ning qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Benzinli motorning tezlik (tashqi) tavsifi (13.6-rasm, *a*) drossel to'siq to'la ochiq turganda, karburatorni va yondirishni ilgarilash burchagini eng qulay holatga rostlab olinadi.

Dizel motorning tezlik tavsifi (13.6-rasm, b) yonilg'i nasosining reykasini korrektor tiragiga taqlaguncha surib qo'yib, yonilg'i yuborishni ilgarilash burchaginiq eng optimal qiyamatida olinadi.

Motorlarning tezlik tavsiflari asosida maksimal quvvat va maksimal burovchi momentga munosib aylanish soni topiladi va effektiv quvvati, burovchi momenti, yonilg'ining har soatdagi va solishtirma sarfining aylanish soniga qarab o'zgarishi aniqlanadi.

Karburator drossel to'sig'ini qisman ochib yoki yonilg'i nasosi orqali to'la miqdorda yonilg'i yubormasdan motorlarning tavsifini olish mumkin. Bunday tavsiflar chala tezlik tavsifi deyiladi.



13.7-rasm. CMJ-14 motorining regulator tavsifi

Motorlarning yuklanish tavsifi tormozlab yuklanishini o'zgartirish yo'li bilan ularning effektiv quvvati o'zgartirilgandagi aylanishlari soni n , burovchi momenti M_{har} , yonilg'ining har soatdagi sarfi G_f va yonilg'ining solishtirma sarfi g_r ning o'zgarishini ko'rsatadi. Yuklanish tavsifi benzinli motorlarda *drossel tavsifi*, dizellarda esa, *regulator tavsifi* deb ham yuritiladi.

Ba'zi motorlarning yuklanish tavsifini olishda quvvati o'rniga aylanishlari sonini o'zgartirib quvvati, burovchi momenti, yonilg'ining har soatdagi va solishtirma sarfining o'zgarishi aniqlanishi ham mumkin.

Har bir motorning yuklanish tavsifi uning quvvatidan qisman foydalaniqganda (beriladigan aralashma yoki yonilg'ining miqdori o'zgartirilganda) motor quvvati va tejamliligi haqida fikr yuritishga imkon beradi hamda regulatorning to'g'ri rostlanganligini ko'rsatadi. Misol uchun 13.7-rasmida СМД-14 markali motorning regulator tavsifi keltirilgan.

Motorlarning salt ishlash tavsifi motorning aylanishlari soni o'zgar-ganda yonilg'ining har soatdagi sarfni ko'rsatib, motorning salt ishlashdagi tejamliligini aniqlaydi. Bunda motor yuklanmasdan yuboriladigan aralashma yoki yonilg'i miqdori o'zgartirilib, aylanishlari soni ravon ishlaydigan eng kichik aylanishlardan boslab maksimal aylanishlarga qadar yetkaziladi. Motorning ta'minlash tizimi eng kam yonilg'i sarfni ta'minlaydigan qilib rostlanadi.

Nazorat savollari

1. Traktor va avtomobil motorlari nima uchun va qanday sinovdan o'tkaziladi?
2. Motorlarni sinash uchun qanday tormozlar qo'llaniladi, ularning ishlashi nimaga asoslangan?
3. Tormozlab sinash texnikasi nimadan iborat?
4. Sinov natijalari asosida qanday ma'lumotlar aniqlanadi va bu ma'lumotlardan nimalar topiladi?
5. Motorlarning asosiy tavsiflari va ularning mohiyatini tushuntirib bering.


14-bob. KRIVOSHIP-SHATUN MEXANIZMI DINAMIKASI

1- §. Krivoship-shatun mexanizmi kinematikasi

Ichki yonuv motorlarida porshenning ilgarilama-qaytma harakati krivoship-shatun mexanizmi vositasida tirsakli valning aylanma harakatiga aylanadi.

Krivoship-shatun mexanizmi markaziy (bunda tirsakli val va silindrler o'qlari bir tekislikda yotadi, 14.1-rasm, a) yoki dezaksial (bunda tirsakli val va silindrler o'qlari har xil tekisliklarda yotadi, 14.1-rasm, b) bo'lishi mumkin. Porshen barmog'ining o'qi siljtilishi hisobiga ham dezaksial mexanizm hosil bo'lishi mumkin.

Dezaksial krivoship-shatun mexanizmli motorda silindr o'qi tirsakli val o'qiga nisbatan uning aylanishi yo'nalishida e (dezaksaj) masofaga siljigan bo'ladi. Bu siljish porshen yo'lining 10% dan katta bo'lmaydi.



14.1-rasm. Krivoship-shatun mexanizmlari sxemalari:
 a — markaziy; b — dezaksial

Dezaksaj kiritilishi natijasida:

- ishechi yo'l paytida porshenning silindr devoriga bosimi kamayadi va bu bosim siqish yo'lida ortadi, natijada silindrning yeyilishi bir tekisda bo'lishga yaqinlashadi;
- porshen yo'li biroz ortadi, natijada motorning ishechi hajmi, demak quvvati ham biroz ko'payadi;
- YCHN yaqinida porshen tezligi kamayadi, natijada (deyarli o'zgarmas hajmda) yonish jarayoni yaxshilanadi;
- tirsaklı val taqsimlash vallari orasidagi masofa kattalashadi, natijada shatun quyi kallagi to'siqsiz aylanishi uchun zarur bo'lgan joy kengayadi.

Motorlar aylanishlar chastotalari ortib borgani sari yuqorida qayd etilgan afzallikklardan ba'zilarining ahamiyati kamayib boradi, chunki ishqalanish ishi, asosan, inersiya kuchi bilan aniqlana boshlanadi, u esa dezaksajga deyarli bog'liq bo'lmaydi.

Porshen barmog'i porshen o'qiga nisbatan siljigan krivoship-shatun mexanizmli motorlar ham dezaksial krivoship-shatun mexanizmli motorlar ega bo'lgan afzallikkarga ega bo'ladi. Bunday motorlar tobora ko'proq qo'llanmoqda. Bu motorlardagi dezaksaj taxminan $0,02 \cdot R$ bo'ladi.


Porshen dezaksaji kichik bo'lganligi tufayli dezaksial krivoship-shatun mexanizmining kinematik hisobini markaziy krivoship-shatun mexanizmi formulalari bo'yicha bajarish mumkin.

14.1-a rasmida markaziy krivoship-shatun mexanizmining asosiy belgilanishlari keltirilgan: φ — krivoshipning burilish burchagi; β — shatun o'qining silindr o'qiga nisbatan og'ish burchagi; $R = OB$ — krivoship radiusi; $L_{sh} = AB$ — shatun uzunligi; $\lambda = R/L_{sh}$ — krivoship radiusining shatun uzunligiga nisbati; $R + L_{sh} = A'O$ — tirsaklı val o'qidan YCHN (A' - nuqta) gacha bo'lgan masofa; S_v — porshen (porshen barmog'i o'qi — A nuqta)ning joriy siljishi.

Motorda ta'sir qiluvchi inersiya kuchlarining qiymatlari yuqorida qayd etilgan o'lchamlar va ularning nisbatlariga bog'liq.

Nisbat $\lambda = R/L_{sh}$ kamayishi bilan (L_{sh} kattalashishi hisobiga) inersiya va normal kuchlar kamayib boradi, lekin bunda motor balandligi va massasi ortadi. Avtomobil va traktor motorlarida $\lambda = 0,23 - 0,30$ qabul qilingan.

Krivoship-shatun mexanizmi ko'rildganda, odatda, tirsaklı valning burchak tezligi o'zgarmas deb, ya'ni uning burilish burchagi vaqtga



14.2-rasm. Porshen siljishi grafigi

proporsional deb qabul qilinadi. Amalda esa valning burchak tezligi o'zgaruvchi bo'ladi, sababi — valning burovchi momenti barqaror bo'lmaydi. Motor ishining barqaror rejimlarida tirsakli valning aylanishlar chastotasi juda kam oraliqda o'zgaradi. Faqat dinamikaning maxsus masalalari, xususan, tirsakli val tizimining tebranishlari ko'tilganda burchak tezlik o'zgarishlari hisobga olinadi.

Krivoship-shatun mexanizmi kinematikasining hisobi porshen yo'lli (siljishi), tezligi va tezlanishini aniqlashga keltiriladi.

Hisoblashda porshen kinematikasi faqat burchak φ funksiyasi bo'ilgan ifodadan foydalanish qulay.

14.2-rasmda porshenning siljishi va bu siljish tashkili etuvchilarining grafiklari keltirilgan.

Dezaksial krivoship-shatun mexanizmida porshenning siljishi:


$$S_x = R \left[(1 - \cos \varphi) + \left(\frac{\lambda}{4} \right) (1 - \cos 2\varphi) - k\lambda \sin \varphi \right],$$

bu yerda: $k = e/R = 0,05-0,15$ — nisbiy dezaksiallik koefitsienti.

Porshen tezligi va tezlanishi. Porshenning o'rtacha tezligi tasnifiy parametr bo'lib, u motorlar o'xshashlik nazariyasiga asos qilib olingan; u bo'yicha motorlar tezyurarligi qiyoslanadi; u motordagi mexanik yo'qotishlarga va natijada motoring effektiv ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi.

Porshenning o'rtacha tezligi:

$$v_{p.o.r.} = Sn/30 = 2\omega R/\pi$$




14.3-rasm. Porshen tezligi grafigi

Krivoship qaysi tarafga aylanishidan qat'i nazar, porshen YCHN da bo'lganida tezlanishi musbat, PCHN da bo'lganida esa, manfiy bo'ladi. Shatun va krivoship orasidagi burchak 90° ga teng bo'lganida tezlanish nolga teng bo'ladi.

Dezaksial krivoship-shatun mexanizmida porshen tezlanishi:

$$j_n = R\omega^2 (\cos \varphi + \lambda \cos 2\varphi + k \lambda \sin \varphi)$$



14.4-rasm. Porshen tezlanishi grafigi

2-§. Krivoship-shatun mexanizmi dinamikasi

Krivoship-shatun mexanizmining dinamik hisobida gaz bosimi va inersiya kuchlaridan vujudga keladigan summar kuch va momentlar aniqlanadi. Bu kuchlar bo'yicha detallar mustahkamlilikka va yeyilishga hisoblanadi hamda burovchi moment notekisligi va motor yo'lining noravonligi darajasi aniqlanadi. Ishlayotgan motorda krivoship-shatun mexanizmi detallariga silindrdagi gaz bosimi kuchlari, harakatlanayotgan massalarning inersiya kuchlari, karter bo'shilig'i tomonidan (taxminan atmosfera bosimiga teng) bosim va og'irlik kuchlari (og'irlik kuchlari kichik bo'lganligi sababli dinamik hisobda, odatda, hisobga olinmaydi) ta'sir qiladi.


Motorda ta'sir qilayotgan hamma kuchlarni tirsaklı valdag'i foydali qarshiliklar, ishqalanish kuchlari va motor tayanchlari o'ziga qabul qiladi.

Har bir ishchi sikl (to'rt taktli motor uchun 720° , ikki taktli motor uchun esa 360°) davomida krivoship-shatun mexanizmiga ta'sir qiluvchi kuchlar qiymati va yo'nalishi bo'yicha uzliksiz o'zgarib turadi. Shu sababli bu kuchlarning tirsaklı val burilishi burchagi bo'yicha o'zgarishining xarakterini aniqlash uchun ularning qiyatlari tirsaklı valning har $10-30^\circ$ burilishida aniqlanadi. Dinamik hisob natijalari jadvalga yoziladi.

Gaz bosimi kuchlari. Dinamik hisobni soddalashtirish maqsadida porshen yuzasiga ta'sir qiluvchi kuchlarni silindr o'qi bo'ylab yo'nalgan va porshen barmog'i o'qiga qo'yilgan bitta kuch bilan almashtirishadi. Uni vaqtning har bir oni (φ burchak) uchun motordan olingan haqiqiy indikator diagramma yoki (odatda, nominal quvvat va tirsaklı valning unga mos aylanishlar chastotasi uchun bajarilgan) issiqlik hisobi asosida qurilgan indikator diagramma bo'yicha aniqlashadi.

KSHMining dinamik yuklanganligi gaz bosimi kuchlari P_g ning vaqtga (tirsaklı valning burilish burchagi φ ga) bog'liqligi bilan baholanadi.

Indikator diagrammani tirsaklı val burilishi burchagi bo'yicha yoyilgan diagrammaga qayta qurish uchun indikator diagramma ostida $R - S/2$ radiusli yordamchi yarim aylana chiziladi (14.5-rasm). So'ngra yarim aylana markazi O nuqtadan PCHN tarafsga $R\lambda/2$ ga teng tuzatish qo'yiladi va O' nuqta olinadi. Yarim aylana O markazdan nurlar bilan bir necha teng bo'laklarga bo'linadi, so'ngra O' nuqtadan bu nurlarga parallel chiziqlar o'tkaziladi. Yarim aylanada hosil bo'lgan nuqtalar



14.5-rasm. Indikator diagrammanni $r\text{-}\varphi$ koordinatalarga yoyish

ma lum φ burchaklarga mos keladi. Bu nuqtalardan indikator diagramma chiziqlari bilan kesishguncha vertikal chiziqlar o'tkaziladi va bosimning olingan qiymatlari mos φ burchaklaridan vertikal bo'ylab qo'yiladi. Indikator diagrammanni yoyish siki boshlanishi r nuqtadan boshlanadi. Shuni nazarda tutish bo'zimiki, indikator diagrammada bosim absolut noldan o'lchanadi, yoyilgan diagrammada esa porshen ustidagi ortiqcha bosim $\Delta P_e = P_e - P_0$ ko'rsatiladi. Demak, motor siindridagi atmosfera bosimidan kam bo'lgan bosim yoyilgan diagrammada manfiy bo'ladi, tirsakli val o'qi tarafiga yo'nalgan gaz bosimi kuchlari musbat, tirsakli val o'qidan teskari tarafga yo'nalgnulari esa, manfiy bo'ladi.

Porshenga ta'sir qiladigan gaz bosimi kuchi:

$$r_g = (r_s - r_o) \cdot F_p, \text{ MN},$$

bu yerda: F_p — porshen yuzasi, m^2 ; P_e va P_0 — gaz bosimi va atmosfera bosimi, MPa .

Tenglamadan shu narsa ko'rindadiki, tirsakli val buralishi burchagi bo'vicha gaz bosimi kuchlarining o'zgarishi gaz bosimi ΔP_e o'zgarishi tavsifiga ega bo'ladi.


Yoyilgan diagrammadan gaz bosimi kuchlari P_e ni hisoblash uchun zarur bo'lgan mashtab koefitsienti:

$$F_R = \mu_r \cdot F_p, \text{ MN/mm}$$

Inersiya kuchlari. Krivoship-shatun mexanizmida ta'sir qiluvchi inersiya kuchlarini keltirilgan massalar harakatining taysifi bo'yicha ilgarilama-qaytma harakatlanuvchi massalarning inersiya kuchi P_i va aylanma harakatlanayotgan massalarning markazdan qochma inersiya kuchi K_R ga ajratishadi (14.6-rasm).

Ilgarilama-qaytma harakatlanayotgan massalarning inersiya kuchlari:

$$P_i = P_{ii} + P_{i0} = - (m_i R \omega^2 \cos \varphi + m_i R \omega^2 \lambda \cos 2\varphi).$$



14.6-rasm. Krivoship-shatun mexanizmida ta'sir qiluvchi kuchlar sxemasi:

a — inersiya va gaz kuchlari; b — yig'indi kuchlar

Ilgarilama-qaytma harakatlanuvchi massalar inersiya kuchi silindr o'qi bo'ylab yo'naladi va gaz bosimi kuchlari kabi, agar tirsaklı val o'qi tomon yo'nalgan bo'lsa musbat va agar tirsaklı valdan teskari tomonga yo'nalgan bo'lsa manfiy bo'ladi.

Krivoship (φ burchak)ning qaysi holatlari uchun ΔP_g va P_g aniqlangan bo'lsa, o'sha holatlar uchun P hisoblanadi.

Aylanma harakatlanuvchi massalarning markazdan qochma inersiya kuchi

$$K_R = -m_R R \omega^2$$

($\omega = \text{const}$ da) qiymati bo'yicha o'zgarmas bo'lib, krivoship radiusi bo'yicha ta'sir qiladi va tirsakli val o'qidan tashqariga yo'naladi.

Silindr o'qiga perpendikular ta'sir qilayotgan kuch N *normal kuch* deviladi va u silindr devorlari tomonidan qabul qilinadi:

$$N = P t g \beta, \text{ kN}$$

Agar N kuch tirsaklı val o'qiga nisbatan hosil qilayotgan moment yo'nalishi val aylanishi yo'nalishiga qarama-qarshi bo'lsa, u musbat hisoblanadi.

Shatun bo'ylab yo'nalgan kuch S krivoshipga uzatiladi. Bu kuch shatunni siqsa -- musbat, cho'zsa mansiy hisoblanadi:

$$S = P(1/\cos \beta), \text{ kN}$$

Shatun bo'ylab ta'sir qilayotgan S kuchdan tirsakli valning shatun bo'yinida ikkita tashkil qiluvchi kuchlar vujudga keladi:

krivoship radiusi bo'ylab yo'nalgan kuch:

$$K = P \cdot \cos(\varphi + \beta)/\cos \beta, \text{ kN}$$

va krivoship radiusi aylanasiga urinma yo'nalgan tangensial kuch:

$$T = P \cdot \sin(\varphi + \beta)/\cos \beta, \text{ kN}$$

Agar K kuchi tirsak chekkalarini siqsa, u musbat hisoblanadi. T kuchidan hosil bo'layotgan moment yo'nalishi tirsakli val aylanish yo'nalishi bilan mos bo'lsa, T kuch musbat hisoblanadi.

T , q iymati T egri chizig'i ostidagi yuzadan grafik ravishda (14.7-rasm) aniqlanadi:

$$T_{cr} = (\Sigma f_i - \Sigma f_j) \mu_p / OB,$$

bu yerda: Σf_i va Σf_j -- T egri chizig'i ostidagi mos ravishda musbat va mansiy yuzalar, mm²; μ_p -- to'liq kuchlar masshtab koefitsienti, MN/mm; OB -- diagramma asosi uzunligi, mm.

Hisoblar va T kuchi egri chizig'ini qurish aniqligini quyidagi tenglama yordamida aniqlashadi:


$$T_{cr} = 2 p_i F_p / (\tau n).$$

bu yerda: T_{tang} — tangensial kuchning bir sikldagi o'rtacha qiymati, MN; r_i — o'rtacha indikator bosimi, MPa; F_p — porshen yuzasi, m²; τ — motor takligi.

T qiymati bo'yicha bir silinorda hosil bo'ladigan burovchi moment aniqlanadi:


$$M_{\text{bur}_p} = TR, \text{ MN}\cdot\text{m}$$

T kuchining φ bo'yicha o'zgarishi grafigi $\mu_M - \mu_p R$ ($MN \cdot m/mm$) mashtabda M_{bur_p} o'zgarishining grafigi ham bo'ladi.



14.7-rasm. Tirsakli val burilishi burchagi bo'yicha P , N , S , K va T kuchlar grafiklarini qurish

Tirsakli valning shatun bo'yinlariga ta'sir qiluvchi kuchlar. Motor shatun bo'yinlariga ta'sir qiluvchi kuchlar analitik usulda yoki qurish yo'li bilan aniqlanadi (14.8-rasm).




14.8-rasm. To'rt silindrli, to'rt taktsi motorning yig'indi burovchi moment grafigini chizish

3-§. Motorni muvozanatlash

Motorni muvozanatlash deganda, undagi burovchi momentdan tashqari barcha kuchlar va momentlarni muvozanatlashtirish tushuniladi. Bunda porshen guruhi detallarining massasi, shatunlarning massasi va og'irlik markazlarining joylashishi teng bo'lishi hamda tirsakli val statik va dinamik muvozanatlashgan bo'lishi talab ettiladi. Motorning titrashi faqat uning muvozanatlanganlik darajasiga emas, balki alohida silindrlardagi burovchi momentning o'zgarishiga ham bog'liq. Shuning uchun uning barcha silindrlerida ishchi jarayonning kechishi (aralashma tarkibi, yonishni yoki yonilg'ini purkashni ilgarilash burchagi, silindrning to'lishi, issiqlik tartibi, aralashmaning taqsimlanishi) bir xil bo'lishiga erishish zarur.

Bir silindrli motorlarda barcha inersiya kuchlari va reaktiv moment muvozanatlashmagan bo'ladi.

Markazdan qochirma inersiya kuchi P_{mq} juda oson muvozanatlanadi. Buning uchun krivoship jag'iga ikkita posangi o'rnatiladi (14.9-rasm, a).



14.9-rasm. Bir silindrli motorui muvozanatlash:

- a — markazdan qochirma kuchlarni muvozanatlash;
b — biniuchi tartibli inersiya kuchlarini qisman muvozanatlash

Posangilar massasi ular hosil qiladigan markazdan qochirma kuchni krivoshipning muvozanatlanmagan massalari markazdan qochirma kuchiga teng bo'lishidan kelib chiqib tanlanadi:

$$P_{pos} = -P_{mq} \text{ yoki } 2m_{pos}r\omega^2 = -m_bR\omega^2,$$

bu yerda: r — posangi massalar og'irlik markazidan tirsakli val o'qigacha bo'lgan masofa.

Bitta posangi massasi va uning og'irlik markazining aylanish radiusi:

$$m_{pos} = m_b R / 2r \text{ va } r = m_b R / 2m_{pos}$$

Birinchi tartibli inersiya kuchlari faqat uchlarida to'rtta posangisi bo'lgan ikkita qo'shimcha val o'rmatish bilan to'liq muvozanatlanishi mumkin. Odatda, bir silindrli motorlarda birinchi tartibli inersiya kuchlarini qisman muvozanatlash bilan chegaralanadi. Shu maqsadda markazdan qochirma kuchlarni muvozanatlayotgan posangilar massasi m_{pos} ga yana qo'shimcha massa Δm_{pos} o'rnatiladi (14.9-rasm, b):

$$2P_{pos} = -2\Delta m_{pos} r \omega^2$$

Bu kuchni gorizontal va vertikal ikki tashkil etuvchiga ajratamiz:

$$2P_{pos_{hor}} = -2\Delta m_{pos} r \omega^2 \sin(180 + \varphi) = +2\Delta m_{pos} r \omega^2 \sin \varphi;$$

$$2P_{pos_{ver}} = -2\Delta m_{pos} r \omega^2 \cos(180 + \varphi) = +2\Delta m_{pos} r \omega^2 \cos \varphi$$

Shunday qilib, qo'shimcha posangilar markazdan qochirma kuchining vertikal tashkil etuvchisi birinchi tartibli inersiya kuchlari qonuni bo'yicha o'zgaradi, lekin unga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi. Shu sababli tegishli tarzda Δm_{pos} massani tanlab birinchi tartibli inersiya kuchlarini to'liq yoki qisman muvozanatlash mumkin. Lekin bunda muvozanatlashmagan o'zgaruvchan gorizontal kuch $2P_{pos_{hor}}$ bosil bo'ladi, ya'ni amaliy jihatdan birinchi tartibli inersiya kuchlari faza bo'yicha 90° ga siljib gorizontal tekislikka ko'chadi.

Ko'pincha Δm_{pos} massa kattaligini P_A kuchining yarmi muvozanatlashadigan qilib tanlanadi. Bu holda:

$$2P_{pos} = 2\Delta m_{pos} r \omega^2 = -0,5m_A R \omega^2,$$

$$\text{bundan } \Delta m_{pos} = 0,5 \frac{m_A R}{2r} = \frac{m_A R}{4r}$$

Har bir posangining to'liq massasi:

$$m_{pos} = m_{pos_{mq}} + \Delta m_{pos} = (m_b + 0,5m_A) \frac{R}{2r}$$

Shunday qilib, bir silindrli motorlarda faqat markazdan qochirma kuchlar to'liq muvozanatlanadi, birinchi tartibli inersiya kuchlari esa ko'pincha faza bo'yicha siljitib qisman gorizontal tekislikka ko'chiriladi. Ikkinci tartibli inersiya kuchlari muvozanatlanmaydi va tayanchlar bilan to'liq qabul qilinadi.

Zamonaviy traktor va avtomobilarda, asosan, to'rt hamda olti silindrlidir to'rt taktli motorlar qo'llaniladi. Muvozanatlashni o'rghanish va muvozanatlash uslubi bareha motorlar uchun umumiy ekanligini hisobga olib shu ikki turdag'i motorlarni ko'rib chiqish bilan cheklanamiz.

To'rt taktli, to'rt silindrlidir motorlarda tirsakli val krivoship bo'yinlari bir tekislikda (krivoshiplar orsidagi burchak 180°) simmetrik joylashgan bo'ladi (14.10-rasm). Silindrlar ish tartibi 1-2-4-3 yoki 1-3-4-2 bo'lishi mumkin. Inersiya kuchlari va ularning momentini ko'rib chiqamiz.

Birinchi tartibli inersiya kuchlarining yig'indisi:

$$\begin{aligned}\sum P_{jI} &= P_{jI}^I + P_{jI}^{II} + P_{jI}^{III} + P_{jI}^{IV} = -m_A R \omega^2 \cos \varphi - m_A R \omega^2 \cos(180^\circ + \varphi) - \\ &- m_A R \omega^2 \cos(540^\circ + \varphi) - m_A R \omega^2 \cos(360^\circ + \varphi) = \\ &= -m_A R \omega^2 (\cos \varphi + \cos \varphi + \cos \varphi + \cos \varphi) = 0\end{aligned}$$

Ikkinchi tartibli inersiya kuchlari yig'indisi:

$$\begin{aligned}\sum P_{jII} &= P_{jII}^I + P_{jII}^{II} + P_{jII}^{III} + P_{jII}^{IV} = -m_A R \omega^2 \cos 2\varphi - m_A R \omega^2 \cos 2(180^\circ + \varphi) - \\ &- m_A R \omega^2 \cos 2(540^\circ + \varphi) - m_A R \omega^2 \cos 2(360^\circ + \varphi) = \\ &= -m_A R \omega^2 (\cos 2\varphi + \cos 2\varphi + \cos 2\varphi + \cos 2\varphi) = -4m_A R \omega^2 \cos 2\varphi\end{aligned}$$

Markazdan qochirma kuchlar yig'indisi:

$$\sum P_{mq} = P_{q1} - P_{q2} - P_{q3} + P_{q4} = 0$$


Barcha inersiya kuchlarining momentlari yig'indisi val simmetrikligi uchun nolga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\sum M_{jI} - \sum M_{jII} - \sum M_{mq} = 0$$

Shunday qilib, yassi simmetrik valli to'rt silindrlidir, to'rt taktli motorlarda saqat ikkinchi tartibli inersiya kuchlari muvozanatlanmay qoladi, ularning teng ta'sir etuvchisi bu kuchlarning barcha silindrlar uchun yig'indisiga teng. Bunday motorlarda ikkinchi tartibli inersiya kuchlarini tayanchlar qabul qiladi.

To'rt taktli, olti silindrlidir motorlarda tirsakli valning krivoship bo'yinlari burchak ostida joylashgan (14.11-rasm). Silindrlarning keng tarqalgan ishlash tartibi 1-5-3-6-2-4.

Birinchi tartibli inersiya kuchlari yig'indisi:



14.10-rasm. Toʻrt taktli, bir qatorli toʻrt silindirli
motorni muvozanatlash

$$\begin{aligned}\sum P_{ji} &= -m_A R \omega^2 \cos \varphi - m_A R \omega^2 \cos(240^\circ + \varphi) - m_A R \omega^2 \cos(120^\circ + \varphi) - \\&- m_A R \omega^2 \cos(120^\circ + \varphi) - m_A R \omega^2 \cos(240^\circ + \varphi) - m_A R \omega^2 \cos(360^\circ + \varphi) = \\&= -2m_A R \omega^2 \left\{ \cos \varphi + \cos(120^\circ + \varphi) + \cos(240^\circ + \varphi) \right\} = 0\end{aligned}$$

Ikkinchi tartibli inersiya kuchlari yigʻindisi:


$$\sum P_{ji} = -2m_A R \omega^2 |\cos 2\varphi + \cos 2(120^\circ + \varphi) + \cos 2(240^\circ + \varphi)| = 0$$

Markazdan qochirma kuchlar yigʻindisi:

$$\begin{aligned}\sum P_{mq} &= -m_B R \omega^2 - m_B R \omega^2 \cos 120^\circ - m_B R \omega^2 \cos 240^\circ = \\&= -m_B R \omega^2 + \frac{1}{2} m_B R \omega^2 + \frac{1}{2} m_B R \omega^2 = 0\end{aligned}$$

Yal simmetrik boʻlgani uchun inersiya kuchlarining momentlari yigʻindisi:

$$\sum M_{ji} = \sum M_{ji} = \sum M_{mq} = 0$$



14.11-rasm. Olti silindrli, to'rt taktli motorni muvozanatlash

Demak, to'rt taktli, olti silindrli motor birinchi va ikkinchi tartibli inersiya kuchlaridan hamda markazdan qochirma kuchlardan, shuningdek, ularning momentlaridan to'lq muvozanatlangan. Shunga qaramay ba'zan olti silindrli motorlarda, to'rt silindrli motordagi kabi krivoship jag'iga posangilar qo'yiladi. Bunday posangilarning vazifasi tirsakli valning o'zak bo'yinlariga markazdan qochirma kuchlar ta'sirini yengillashtirishdir, motorni muvozanatlashtirishga ular ta'sir ko'rsatmaydi.

Nazorat savollari

1. Krivoship-shatun mexanizmiga qanday kuchlar ta'sir etadi?
2. Motorni muvozanatlash nima uchun kerak?
3. Dezarsaj kiritishdan maqsad nima?
4. Birinchi va ikkinchi tartibli inersiya kuchlari qanday yo'qotiladi?
5. Tirsakli valga posangilar nima maqsadda ao'yiladi?

1-§. Transmissiyaning vazifasi, ishlash tamoyili va tasnifi

G'ildirakli va o'rmalovchi zanjirli traktorlar hamda avtomobilarning transmissiyalari murakkab qurilma bo'lib, u qator agregat va qismlardan tashkil topgan. Transmissiya energiyani manbalaridan iste'molchilarga qulay bo'lgan ko'rinishda uzatib beradi.

Transmissiyalarni uzatishlar sonini o'zgartirib berish usuliga qarab pog'onasiz, pog'onali va kombinatsiyalashgan turlarga bo'lish mumkin.

Pog'onasiz transmissiyalar berilgan uzatishlar soni oralig'iда, ularning istalgan qiymatlarida mashina-traktor aggregatining ishlashi doimo unumliroq va tejamliroq bo'lishini ta'minlaydi. Pog'onali transmissiyalar ma'lum uzatishlar soni oralig'iga (pog'onasiga) ega bo'lib, uning sohasida mashina-traktor aggregatining ishi yetarli darajada unumli va tejamli bo'ladi. Kombinatsiyalashgan transmissiyalar uzatishlar oralig'i aralash bo'lib, unda uzatishlar sonini pog'onasiz o'zgartirish imkonи mayjud. Burovchi momentni o'zgartirib berish usuliga qarab transmissiyalarni mexanik, gidravlik, elektrik va kombinatsiyalashgan turlarga bo'lish mumkin.

Pog'onasiz transmissiyalar bu belgilari bo'yicha mexanik (friksion toroidli, ponasimon tasmalii va impulsli-inersion), gidravlik (gidrodinamik va gidrohajmiy), elektrik (elektromexanik) turlarga bo'linadi.

Pog'onali transmissiya mexanik hisoblanadi, unda burovchi momentni o'zgartirish shesternali reduktorlar yordamida sodir bo'ladi. Ulardan biri uzatmalar qutisi hisoblanadi, unda uzatishlar sonini o'zgartirish tishli uzatma juftliklarining tishlari sonini tanlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ko'pchilik qishloq xo'jalik traktorlarida tuzilish jihatdan ancha mukammal, nisbatan soddaligda, ishlatishda qulay va puxta, ancha yuqori FIKga ega, qiymati pastroq bo'lgan pog'onali shesternali transmissiyalar qo'llaniladi. Ularning asosiy kamchiliklari burovchi momentlarning pog'onali rostlanishi hisoblanadi, bu esa uni ko'p hollarda motor quvvatidan samarasiz foydalananishga olib keladi.

Pog'onali transmissiyalarning kinematik sxemasi ikki turda bo'lishi mumkin. Birinchi an'anaviy sxemada (15.1-rasm, a, b) motorning

quvvati traktorning yetaklovchi g'ildiraklariga uzatmalar qutisidan so'ng bo'linadi, bu bitta markaziy uzatma bo'lishini taqozo qiladi, u odatda (o'rmalovchi yoki orqa g'ildiraklari yetaklovchi bo'lgan g'ildirakli) traktorning orqa ko'prigi korpusiga joylashtiriladi. Bunday sxema nisbatan sodda, yaxshi joylashuvchan, ancha yuqori mexanik FIKga ega va qoniqarli darajadagi material sarfiga ega.


Ikkinchi kinematik sxemadagi transmissiyada (15.1-rasm, d) motordan chiqqan quvvat uzatmalar qutisi oldidan yoki unda bo'linadi, bu esa ikkita markaziy uzatma bo'lishini taqozo qiladi. Bu sxemaning ijobji tomoniga uzatmalar qutisi va markaziy uzatma detallarining kam yuklanganligi va o'rmalovchi zanjirli traktor burish mexanimi o'lchamlarining kichiklashuv imkoniyati mavjudligi, ularni transmissiyaning kam yuklamali qismiga markaziy uzatmagacha o'rnatish mumkinligi kiradi. Bu sxemaning xususiyatlaridan biri uzatmalar qutisi va burish mexanizmi vazifalarini aniq ajratib bo'imasligi va bu vazifani birgina agregat bilan bajarish mumkinligi hisoblanadi. Bunday xildagi transmissiya faqat o'rmalovchi zanjirli traktorlarga o'rnatiladi.

Orqa g'ildiraklari yetaklovchi bo'lgan g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirli traktorlar transmissiyasining ar'anaviy kinematik sxemalarida (15.1-rasm, a, b) ichki yonuv motori energiya manbayi bo'lib hisoblanadi, uning tirsakli validan bo'linmagan quvvat oqini transmissiyaning birinchi agregati ilashish mustasi (2) ga keladi. Ilashish mustasi transmissiyani motor bilan birlashtirish yoki ajratish uchun xizmat qiladi. Ilashish mustasidan so'ng quvvat oqimi uzatmalar qutisi (3) ga yetib keladi, unda uzatilgan burovchi moment kerakli uzatishlar sonini hosil qiluvchi ilashmadagi shesternalar yordamida pog'onali o'zgartiriladi. Odatda, traktor uzatmalar qutisida to'g'ri va oshiruvchi transport uzatmalari bo'lsa-da, u pasaytiruvchi reduktor hisoblanadi.

Konusli shesternalar juftligi (4) markaziy uzatmani tashkil qiladi, u uzatmalar qutisini traktorning yetaklovchi orqa ko'prigi ko'ndalang vali bilan birlashtiradi. Markaziy uzatma uzatmalar qutisidan chiqqan quvvat oqimini traktor bortlariga uzatiladigan ikki mustaqil oqimga ajratib beradi va bu reduktor doimiy uzatish soniga ega bo'lgan pasaytiruvchi reduktor hisoblanadi.

G'ildirakli traktorda markaziy uzatmaning yetaklanuvchi shesternasi differensial (7) (transmissiya mexanizmi) ning korpusiga o'rnatiladi, markaziy uzatma bilan oxirgi uzatma (5) ning yetaklovchi vallari kinematik bog'lanishda bo'ladi (15.1-rasm, a). Differensial traktorning yetaklovchi g'ildiraklari (6) ni burilishda yoki ularni yo'lning notekis-

liklarda hərakatlanganda turli chastotalarda aylanish imkonini beradi. Doimiy uzatishlar soniga ega bo'lgan oxirgi uzatma yakunlovchi pasaytiruvchi reduktor hisoblanadi va u ko'p hollarda traktorning yo'l tırqishini belgilaydi.



15.1-rasm. Traktorlar pog'onali transmissiyasining kinematik sxemasi:

a – an'anaviy g'ildiraklı; *b* – an'anaviy o'rmalovchi;
d – quvvat oqimi uzatmalar qutisidan oldin bo'linadigan o'rmalovchi traktorlarda

Motor quvvatining bir qismini avvaldan nazarda tutilgan boshqa iste'molchifarga yetkazib berish uchun, g'ildiraklı traktor, odatda, ikkitadan kam bo'lмаган (orqa 8 va yonaki 9) quvvat olish vali yuritmasiga ega bo'ladi.

O'rmalovchi traktorda quvvat oqimi tarmoqlari markaziy uzatma (4) dan (15.1-rasm, *b*) so'ng burish mexanizmi (5) ga, undan so'ng esa oxirgi uzatma (6) ga va yetaklovechi g'ildirak (7) ka (ularni yetaklovechi yulduzcha deb ham ataladi) uzatiladi. Burish mexanizmi o'ng va chap g'ildiraklar (7) ga turli yetaklovechi moment va aylanish chastotalarini uzatishni ta'minlaydi va enga muvofiq o'rmalovchi zanjirli traktorning burilishi sodir bo'ladi. Ayrim burish mexanizmlari pasaytiruvchi (planetary) reduktor sifatida ham yasalishi mumkin. O'rmalovchi traktorda, odatda, bittadan kam bo'lмаган quvvat olish vali (8) ning orqa yuritmasi bo'lishi lozim.

Uzatmalar qutisidan oldin quvvat oqimi bo'linadigan (15.1-rasm, *d*) o'rmalovchi zanjirli traktor transmissiyasida quvvat oqimi motor (1) dan ilashish mustasi (2) ga va undan so'ng tarqatuvchi shesternali reduktor (3) ga (uning yetaklanuvchi vallari ikki parallel uzatmalar

qutisi (4) ning yuritmasi hisoblanadi) uzatiladi. Bunday uzatmalar qutisining boshqalaridan farqi traktoring harakati davomida, oddiy friksion gidravlik siquvchi muftalar yordamida qvvat oqimini uzmadan uzatmalarning almashtirilishi hisoblanadi.

Uzatmalar qutisi yetaklanuvchi vallariga ketma-ket tormoz (5) va alohida markaziy uzatma (6) ning yetaklovchi konusli shesternasi o'rnatiladi. Tormozlar (5) va uzatmalar qutisining blokirovka muftalar bir paytning o'zida shu xildagi transmissiyali o'rmalovchi zanjirli trakter burish mexanizmining agregatlari hisoblanadi.

Oxirgi uzatma (7) va yetaklovchi g'ildirak (8) yuqorida ko'rib o'tilganiga mos keladi. Qvvat olish vali (9) ga yuritma, odatda, tarqatuvchi reduktor (3) orqali amalgalashiriladi.

2-§. Transmissiyaning uzatish soni, FIK va yetaklovchi momentlar

Transmissiyaning umumiy uzatish sonini u_0 motor tirsaklı vali aylanishlar chastotasi n_m ni yoki burchak tezligi ω_m ni traktor yetaklovchi g'ildiraklarining o'rtacha aylanishlar chastotasi n_k yoki burchak tezligi ω_k ga nisbati deb qarash mumkin:

$$u_0 = \frac{n_m}{n_k} = \frac{\omega_m}{\omega_k} \quad (1)$$

n_k va ω_k larning o'rtacha qiymatini o'ng va chap yetaklovchi g'ildiraklarning notekis aylanishiga muvofiq qabul qilinadi.

Shuning uchun $n_k = \frac{n_{o'ng} + n_{chap}}{2}$ va $\omega_k = \frac{\omega_{o'ng} + \omega_{chap}}{2}$, bunda «o'ng»

va «chap» indekslar mos ravishda o'ng va chap g'ildiraklar uchun.

Ko'rib o'tilgan pog'onali transmissiyalarning umumiy uzatish sonini uni tashkil qiluvchi agregatlar uzatish sonlarining ko'paytmasi sifatida tasavvur qilish mumkin:

g'ildirakli traktorlar uchun $u_{0g} = u_{uq} \cdot u_{mu} \cdot u_{bm} \cdot u_{ou}$;

o'rmalovchi traktorlar uchun $u_{0o} = u_{uq} \cdot u_{mu} \cdot u_{bm} \cdot u_{ou}$,

bu yerda: u_{uq} , u_{mu} , u_{bm} va u_{ou} — mos ravishda uzatmalar qutisi, markaziy uzatma, burish mexanizmining va oxirgi uzatmaning uzatishlar soni.

Transmissiyaning uzatishlar sonini o'zgartirish, asosan, uzatmalar qutisi bilan amalgalashiriladi. Ammo bir qator transmissiyalarda marka-

ziy uzatma va burish mexanizmi traktoring umumiy uzatishlar sonini ikki maratoba oshiruvchi ikki pog'onali reduktor sifatida ishlab chiqiladi.

Motordan quvvatni yetaklovchi g'ildiraklarga yetkazib berishda uning bir qismi transmissiyaning oraliq reduktorlarida tishli ilashma juftliklaridagi ishgalanish, ularning vallari podshipniklarida, ularning zinchlovehilarida va korpusdagi moyni sachratish natijasida yo'qotiladi. Barcha quvvat yo'qotishlar transmissiyaning mexanik FIK η_m bilan hisobga olinadi, uning qiymati yetaklovchi g'ildiraklarga keltilrilgan quvvat N_g ni motoring samarali quvvati N_e ga nisbatli bilan aniqlanadi:

$$\eta_m = \frac{N_g}{N_e} \quad (2)$$

Quvvat qiymatini uning tashkil etuvchilari bilan almashtirib va u_0 ifodani hisobga olib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\eta_m = \frac{M_g \omega_g}{M_m \omega_m} = \frac{M_g}{M_m u_0},$$

bu yerda: M_m — motoring burovchi momenti; M_g — g'ildiraklardagi yetaklovchi moment.

Bu ifoda yordamida traktor g'ildiraklaridagi yetaklovchi moment M_g quyidagicha aniqlanadi:

$$M_g = M_m \cdot u_0 \cdot \eta_m \quad (3)$$

Shunday qilib traktoring yetaklovchi g'ildiraklariga berilgan moment, motor tomonidan hosil qilingan burovchi momentga, transmissiyaning uzatishlar soniga va uning mexanik FIK ga bog'liq.

3-§. Traktoring tortish balansi va nor grafisi

Traktor tomonidan hosil qilingan tortish kuchi va motor ishining tejamkorligi to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun traktor bo'sh horizontal tekislikda, ilgagida yuklama bilan shartli prinsipial sxemi bo'sh harakatini ko'rib chiqamiz. Bunda inersiya kuchi va qiya tekislikda harakatlantirgichning tuproq bilan tishlashuvchanligi ta'minlangan deb qabul qilamiz.

Ilgadagi yuklama va traktoring dumalashga qarshiligi o'zgarmas, harakatlantirgichning tuproq bilan tishlashuvchanligi ta'minlangan deb qabul qilamiz.

15.2-rasmida r_k radiusli, doimiy V tezlikka, orqa g'ildiraklari (6) yetaklovchi klassik komponovkaga ega bo'lgan g'ildirakli traktorning shartli harakat sxemasi keltirilgan.

Motor (1) ning M_m burovchi momenti transmissiya agregatlari ilashish mustasi (2), uzatmalar qutisi (3), markaziy uzatma va oxirgi uzatma (5) orqali yetaklovchi g'ildiraklar (6) ga yetkazib beriladi, ularda esa yetaklovchi moment M_{k^*} hosil qilinadi. Yetaklovchi g'ildiraklarni tuproq bilan puxta ilashma hosil qilishi natijasida M_{k^*} momenti ta'sirida tuproqda urinma reaksiyasi hosil bo'ladi, bu kuchlarning teng ta'sir etuvchisi P_g , traktorning harakat tomoniga yo'nalgan bo'ladi. P_g ni urinma tortish kuchi deb ataluvchi bu kuch harakatlantirgich detallari orqali traktorning asosiga uzatiladi va uni oldinga harakatlantiradi. Bu kuchning bir qismi tuproq tomonidan shartli tasavvur qilingan, yo'naltiruvchi g'ildiraklar (7) oldida hosil bo'ladigan traktorning dumalashga qarshiligi P_d ni yengishga sarflanadi. Mashina-traktor agregati ishlaganda P_g kuchining asosiy qismi traktor ilgogida foydali tortish kuchi P_g ni hosil qilish uchun foydalaniлади, у ham traktorning harakat yo'nalishiga teskari yo'nalgan bo'ladi.

Traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlarni gorizontal tekislikka proyeksiyalab ushbuga ega bo'lamiz:

$$P_{k^*} = P_f + P_d \quad (4)$$


Bu tenglamani traktorning barqaror gorizontal tekislikda harakatidagi tortish balansi tenglamasi deyiladi. U urinma tortish kuchi P_g nimaga sarf bo'lishini ko'rsatadi. Agar traktor salt yurishda ilgakda yuklamasiz harakatlansa $P_{k^*} = P_d$. Bu yerda urinma tortish kuchi P_g tuproq tomonidan traktorning harakatiga bo'lgan qarshiligini yengishga sarflanadi. P_g kuchi bilan motor momenti M_m o'rtasidagi bog'lanish M_s ifodasi bilan aniqlanadi.

Harakatlantirgichni tuproq bilan tishlashuvchanligi ta'minlanganda M_s ni urinma tortish kuchi P_g va yetaklovchi g'ildirak radiusi r_k orqali aniqlash mumkin:

$$M_s = R_k \cdot r_k \quad (5)$$

(3) va (5) ifodaiardagi M_s ning qiymatlarini tenglab va tenglamani

P_g ga nisbatan yechib $P_g = \frac{M_m u_0 \eta_m}{r_k}$ ni hosil qilamiz. $S = u_0 \eta_m / r_k$ deb qabul qilinsa, $P_g = M_m S$ hosil bo'ladi.



15.2-rasm. Klassik komponovkaga ega bo'lgan traktoring
gorizontal yo'lida harakatlanish sxemasi

η_m va r_g kam o'zgarishini, u_o ning qiymati shu uzatma uchun o'zgarmastigini hisobga olib, S koefitsientining qiymatini yetarli darajadagi aniqlikda qabul qilish mumkin.


Shunday qilib, urinma tortish kuchi P_d motorning burovchi momenti M_m ga to'g'ri proporsional, S koefitsientning qiymati transmissiyaning umumiyligi soni u_o ga bog'liq, uning qiymati uzatmalor qutisi qaysi uzatmaga ulanganligiga qarab o'zgaradi.

Mashina-traktor agregatining barqaror harakatida tortish kuchi P_d mashina uskunasi tomonidan he'il qilingan P_m qarshilik kuchiga teng, ya'ni $P_d = P_m$.

Traktor transmissiyasida uzatmaiar qutisining qo'llanishi zarurligini ko'rsatish uchun, uning ishini uzatmalar qutisiz ko'rib chiqamiz (15.3-rasm). Aytaylik traktor katta uzatish soniga ega bo'lgan faqat bittagina uzatmaga ega bo'lsin, motorning nominal burovchi momenti M_{mn} da va yonilg'ining minimal ilgak sarfida $q_{il\ dasiga}$ nisbatan mashina-traktor agregatining uncha katta bo'lmagan harakat tezligida eng katta tortish kuchi $P_{d\ max}$ hosil qilish imkonini bo'lsin. Ushbu chegaralangan $P_{d\ max}$ va $P_{g\ max}$ oraliq'idan mashina-traktor agregatining ishi juda samarali bo'lsa.

Eng katta tortish qarshiligi P_m ga ega bo'lgan mashina uskunali traktor qanday ishlashini ko'rib chiqamiz. P_m qarshilikka ega bo'lgan mashina-traktor agregati ishi samaradorligini aniqlash uchun nur grafigini quramiz (15.3-rasm), unda abssissa o'qiga P_d , P_d , P_g va P_g larning ordinatalari o'qiga esa M_m , M_n va q_i lemnina qiymatlarini qo'yib chiqamiz. P_d va P_g larning hisobi O nuqtadan, P_d va P_m larning

hisobi esa O' nuqtadan boshlansin. $P_{d \max}$ nuqtaga gorizontal bilan kesishguncha $M_{m \max}$ nuqta orqali perpendikular o'tkazib A nuqtani hosil qilamiz. OA nuri ma'lum bo'lgan $P_d = M_m S$ proporsionalitkini tavsiflaydi. Uning qiyaligi uzatishlar soni u_d ning qiyamatini ifodalovchi S koefitsientiga bog'liq. U qanchalik kichik bo'lsa OA nurining qiyaligi shunchalik kichik bo'ladi. Shu perpendikularning o'zida $q_{d \text{ daqqa}}$ ning qiyamatini qo'yib uning R_d ga bog'liqlik grafigini quramiz.



15.3-rasm. Nur grafigi

Motor momenti mashina-traktor agregati P_m qarshilik bilan ishlaganda M_d ni va ilgakdag'i yonilg'inining nisbiy sarfi q_d ni aniqlash uchun P_d nuqtadan perpendikular o'tkazamiz. (I) va (I') larning mos ravishda M_d va q_d larning birinchi uzatmadagi kesishish nuqtalari motorning past yuklama bilan va katta ilgak yonilg'i sarfi bilan ishlashini ko'rsatadi. Bu mashina-traktor aggregatining past unum dorlik va tejamsizlik bilan ishlashini ko'rsatadi, chunki u uncha katta bo'limgan tezlik va katta yonilg'i sarfi bilan harakatlanadi.

Bu mashina-traktor agregati P_m ilgakdag'i qarshilik kuchi bilan ishlaganda uning samaradorligini oshirish mumkinmi? Faraz qilaylik, bu traktorning uzatmalar qutisida bir necha uzatmalar mavjud, avvalgiga o'xshash grafiklar qurishni P_d (P_{d1} , P_{d2} va P_{d3}) larning past harakat tezliklarining katta qiyamatlarida (shtrix chiziqlar bilan ko'r-satilgan), uch uzatma uchun amalga oshiramiz.

Bu grafiklarning tahlili shuni ko'rsatadi, mashina-traktor agregatining ishi ikkinchi uzatmaga o'tganda motorning yuklanish darajasi M_j kattalashadi (2-nuqta). ilgakdag'i yonilg'i sarfi q_d kamayadi (3'-nuqta). Uchinchi uzatmaga o'tganda motorning yuklanish darajasi nominal (3'-nuqta), ilgakdag'i yonilg'i sarfi (3'-nuqta) minimal darajasiga yaqinlashadi. Ammo to'rtinchi uzatmaga o'tish uchun qilingan harakat motorni va traktorni to'xtashga olib keladi, chunki $P_d < P_m$.

Shunday qilib, uzatmalar qutisi yordamida mashina-traktor agregati yuqori unumdarlik va tejamkorlik bilan ishlaydigan uzatmani tanlash mumkin.

4-\$. Gidrodinamik uzatmalar va gidromexanik transmissiyalar


Gidrodinamik uzatmalarning mexanik uzatmalardan farqi energiya manbayi va iste'molchilar o'ttasida qattiq bog'lanish yo'qligidir. Ulardagi parrakli g'ildiraklar iste'molchidan energiyani oluvchi va beruvchi ishchi suyuqlik bilan to'lg'izilgan umumiy bo'shlqdida joylashgan bo'ladi.

Burovchi momentni o'zgartirmasdan faqat uzatuvchi gidrodinamik uzatmani gidrodinamik musta, uni o'zgartiruvchi gidrodinamik uzatmani esa gidrotransformator deb ataladi.

Gidromustaning principial sxemasi 15.4-rasmda keltirilgan. Gidromustaning asosiy elementlariga yetaklovchi g'ilofli ikki parrakli nasos (2), yetaktanuvchi turbina (4) g'ildiraklar kiradi. Yetaklovchi val (1) energiya manbayi bo'lgan traktor motori, yetaktanuvchisi (5) esa transmissiyaning yeritma vali bilan ulangan.

Gidromustaning ishchi g'ildiraklari, odatda, radial parraklarga ega, nasos va turbinadagi parraklar soni rezonansning oldini olish maqsadida bir-birlaridan bir-muncha farq qiladi. Ishchi suyuqlik bilan to'lg'izilgan g'ildirak kuraklari g'ilof (qobiq) (3) ichki sirti bilan gidromustaning ishchi bo'shlqlarini hosil qiladi.

Nasos g'ildiraklari aylanganda uning parraklari suyuqlikni qamrab oladi, tezlik bo'yicha ortuvchi markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik markazdan gidrodinamik



15.4-rasm. Gidromustaning principial sxemasi

bosim hosil qilib, g'ildirakning cheti tomon intiladi. Bunday bosim bilan suyuqlik turbina g'ildiragining chetiga uzatiladi va u o'z energiyasini turbina g'ildiragini aylantirishga sarflab uning markazi tomon intiladi, suyuqliknинг navbatdagi sirkulatsiya doirasini tugatadi (sxemada strelkali shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan).

Nasos g'ildiragi qanchalik tez aylansa, gidromusta shunchalik katta burovchi moment uzatadi. Shuning uchun ham gidromuftani ularsh, uzatiladigan moment turbina g'ildiragining qarshilik momentidan katta bo'lsa, avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Gidromusta ishining farqli xususiyati g'ildiraklarning biroz shataksirashiga ehtiyoj tug'ilishidir. Bu shu bilan bog'liqki, aylanishi chastotalarining tengligi nasos va turbina g'ildiraklaridagi markazdan qochma kuchlarning tenglashuviga olib keladi, natijada suyuqlik sirkulatsiyasi va gidromufta tomonidan burovchi momentning uzatilishi to'xtaydi. Shataksirashning eng katta qiymati (100%) traktoring joyidan qo'zg'alishida, eng kichik qiymati esa uning barqaror harakatida (2-4 % atrofida) sodir bo'ladi.

Shataksirash qiymati sirpanish koefitsienti bilan baholanadi:

$$S = (n_s - n_r) / n_s,$$

bu yerda: n_s va n_r — mos ravishda nasos va turbina g'ildiraklarining aylanishlar chastotasi.

$$S + \eta_{gm} = 1,$$

bu yerda: η_{gm} — gidromuftaning FIK.


Gidromusta bilan uzatiladigan moment:

$$M = \gamma \lambda n_s^2 D^2,$$

bu yerda: γ — ishechi suyuqlikning solishtirma og'irligi; λ — proporsionallik koefitsienti (moment koefitsienti); D — gidromuftaning faol diametri (ishechi qismining eng katta diametri).

15.5-rasmda keltirilgan gidromuftaning tashqi tavsifi. $n_s = const$ bo'lgandagi uning ko'rsatkichlarini n_s / n_r ning qiymatiga bog'liqligini ifodalaydi.

Gidromuftalar friksion ilashish mustalariga nisbatan ma'lum afzalliklarga ega: ular mashina-traktor aggregatining ish rejimi keskin o'zgaranda motor va transmissiyadagi dinamik yuklamani anchaga kamaytiradi, bu ularning ishlash muddatini oshiradi; ishlash paytida rostlash talab qilmaydi, boshqarishni soddalashtiradi va mashina-traktor agre-




15.5-rasm. Gidromustaning tashqi tavsifi

gatining o'tuvchanligini yaxshilaydi. Ammo ularning bir muhim kamchiligi mavjud — ular uzatmalarni ularash sifatini ta'minlay olmaydi, uzatmani almashtirish odadagi quvvat oqimini uzib uzatmalarni o'zgartiradigan ko'p bosqichli mexanik uzatmalalar qutisiga nisbatan qiyinlashadi. Undan tashqari, ularni qo'llash transmissiyaning FIK biroz kamayishiga olib keladi, chunki ular har doim eng kamida 2–4 % sirpanish bilan ishlaydi.

Gidrotransformatorning principial sxemasi 15.6-rasm, a da ko'rsatilgan. U gidromustadan farqli o'laroq, ikki harakatlanuvchi nasos (3) va turbina g'ildiraklaridan tashqari, bir qo'zg'almas reaktor g'ildiragiga ega bo'lib, u ichki qismida bo'shilq bo'lgan val (5) ga qotirilgan. Gidrotransformator ishechi suyuqligining oqimini yaxshi shakllantirish uchun uning ichki halqalari tor shaklida yasalgan, ularning tashqi sirtlari esa ishechi bo'shilqning chegarasi hisoblanadi. Bunday maqsad uchun g'ildirak kuraklari egor qilib yasalgan.

Reaktor (4) oqib o'tayotgan suyuqlik oqimi yo'nalishini o'zgartiradi, bunda u hidrotransformator qo'zg'almas korpusidan reaktiv moment M_r ni qabul qiladi. Buning natijasida reaktor nasos g'ildiragi



15.6-rasm. Prinsipial sxema:
a — gidrotransformatorni;
b — kompleks hidrodinamik
 uzatmaniki

kiruvchi ishechi suyuqlik kuch hosil qiluvchi oqimining yo'nalishi va unga mos holda reaktiv moment M_r ham o'zgaradi. Nasos g'ildiragining aylanishlar chastotasi $n_n = \text{const}$ bo'lganda qurilgan hidrotransformatorning tashqi tavsifi 15.7-rasmida keltirilgan. A nuqtadan chaproqda reaktor g'ildiragidagi moment nasos g'ildiragi M_n momenti tomon yo'nalgan.

Bunda turbina g'ildiragidagi M_t momenti (6) ifodadan aniqlanadi. M_t va M_n momentlarining tengligida (A nuqta) reaktiv momenti M_r nolga teng bo'lib qoladi. Turbina g'ildiragi n_t ning aylanishlar chastotasi yanada (A nuqtadan o'ngroqda) reaktor g'ildiragining burovchi momenti M_r nasos g'ildiragi momentining qarama-qarshi tomoniga yo'nalgan bo'ladi.

Turbina g'ildiragi yetaklanuvchi validagi burovchi moment M_t ni o'zgartirish jarayoni uning aylanish chastotasiga bog'liq holda avtomatik ravishda sodir bo'ladi.

Mashina-traktor agregati barqaror harakatlanganda valdag'i M_t momenti shu val (6) ga keltirilgan traktor harakatiga qarshilik momentiga teng. Mashina-traktor agregatiga tashqi yuklama oshganda

(3) momentiga gidrotransformatori ishlash paytidagi tezlik yuklanish rejimiaga bog'liq holda xuddi bu reaktiv momentni turbina g'ildiragi (2) ga uzatish uchun qo'shgandek yoki uning teskarisi M_n momentni uning momen-tidan ayirgandek bo'ladi.

Turbina g'ildiragi qo'zg'almas bo'l-ganda (traktor joyidan qo'zg'aiayotgan paytida) M_t burovchi momenti unda eng katta qiymatga ega be'ladi:

$$M_t = M_n + M_r, \quad (6)$$

bu yerda: M_n — hidrotransformatorning yetaklovchi vali (1) ga keltiril-gan, motor burovchi momentiga teng bo'lgan, nasos g'ildiragidagi burovchi moment.


Turbina g'ildiragining aylanishlar chastotasiga bog'liq holda reaktorga hosil qiluvchi oqimining yo'nalishi va

unga mos holda reaktiv moment M_r ham o'zgaradi. Nasos g'ildiragining aylanishlar chastotasi $n_n = \text{const}$ bo'lganda qurilgan hidrotransformatorning tashqi tavsifi 15.7-rasmida keltirilgan. A nuqtadan chaproqda reaktor g'ildiragidagi moment nasos g'ildiragi M_n momenti tomon yo'nalgan.

Bunda turbina g'ildiragidagi M_t momenti (6) ifodadan aniqlanadi. M_t va M_n momentlarining tengligida (A nuqta) reaktiv momenti M_r nolga teng bo'lib qoladi. Turbina g'ildiragi n_t ning aylanishlar chastotasi yanada (A nuqtadan o'ngroqda) reaktor g'ildiragining burovchi momenti M_r nasos g'ildiragi momentining qarama-qarshi tomoniga yo'nalgan bo'ladi.

Turbina g'ildiragi yetaklanuvchi validagi burovchi moment M_t ni o'zgartirish jarayoni uning aylanish chastotasiga bog'liq holda avtomatik ravishda sodir bo'ladi.

Mashina-traktor agregati barqaror harakatlanganda valdag'i M_t momenti shu val (6) ga keltirilgan traktor harakatiga qarshilik momentiga teng. Mashina-traktor agregatiga tashqi yuklama oshganda



15.7-rasm. Gidrotransformatorning tashqi tavsisi

val (6) aylanish chastotasi pasayadi va natijada kuch muvozanati tiklanguncha M_t momenti ortadi (15.6-rasmga qarang).

Gidrotransformatorning o'zgartira olish xususiyati transformatsiya koefitsienti (kuch uzatish bo'yicha uzatishlar soni) bilan baho-lanadi:

$$K_t = M_t / M_n \quad (7)$$

Gidrotransformatorda energetik yo'qotishlarni baholovchi FIK:

$$\eta_t = \frac{N_t}{N_n} \cdot \frac{M_t n_t}{M_n n_t} \cdot \frac{K_t}{u_t}, \quad (8)$$

bu yerda: N_n — nasos g'ildiragi vali (I) ga berilgan quvvat; N_t — turbina g'ildiragi vali (6) dan chiqarib yuboriladigan quvvat; $u_t = n_t / n_t$ — gidrotransformatorning kinematik uzatishlari soni.

Tashqi tavsifdan ko'rinish turibdiki (15.7-rasm), η_t katta oraliqda o'zgaradi. η_t ning maksimal qiymati 0.92 dan oshmaydi. Turbina g'ildiragidagi eng katta moment M_t va unga mos holda transformatsiya koefitsienti K_t mashina-traktor agregatining qo'zg'alish paytida (stop rejimida), $\eta_t = 0$ bo'lqanda sodir bo'ladi. Aylanishlar chastotasi n_t oshganda M_t momenti (mos ravishda K_t) tushib ketadi, η_t esa ortadi,

$\eta_r/n_n = 0,5-0,6$ bo'lganda maksimumiga yetadi. η_r ning yanada ortishi η_r ning sezilarli pasayib ketishiga olib keladi. $\eta_r/n_n \approx 0,65-0,75$ bo'lganda transformatsiya koefitsienti K_r bиргача pasayadi. Bu yerda $M_r = M_n$ bo'lsa, ishlab turgan gidromustadagidek bo'ladi. Biroq turbina g'ildiragi aylanish chastotasining yanada oshishi, $M_r < M_n$ bo'lsa, η_r ning keskin pasayib ketishi, gidrotransformatorni yanada ishlatish samarasiz ekanligini ko'rsatadi.

Agar gidrotransformatorning tavsifiga avval keltirilgan gidromustaning 15.7-rasmida shtrix chiziq bilan ko'rsatilgan FIK o'zgarish tavsifi qo'shib yuborilsa, o'ngroqdagi A nuqtada gidromustadan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatadi. Bu shu bilan bog'liqki uning FIK gidrotransformator shu tezlik rejimida ishlaganligiga nisbatan ancha yuqori (0,97 gacha) bo'ladi.

Gidrotransformatorning shunday tashqi tavsifini ta'minlash uchun, reaktorni uning korpusiga erkin harakatlanuvchi musta (*I*) (15.6-rasm, *b*) orqali bikr qilib qotirilishi zarur.

Bunda musta (*I*) ning ponalanib qolishi shu darajada bo'lishi kerakki, bunda reaktordagi moment musbat qiymatga ega bo'lsin (15.7-rasmida A nuqtadan chaproqda). A nuqtadan o'ngroqda reaktordagi moment M_R ning yo'nalishi o'zgaradi va u erkin aylana boshlaydi, chunki musta (*I*) (15.6-rasm, *b*) ponalanmagan bo'ladi. Bunda gidrotransformator yuqoriroq FIKga ega bo'lgan gidromusta rejimida ishlay boshlaydi.

Bunday gidrotransformatorni *kompleks gidrodinamik* uzatma deviladi, uning FIK odatdagি qo'zg'almas reaktorli gidrotransformatornikidan yuqori bo'ladi.

Gidrotransformatorlar gidromustalar kabi ijobjiy tomonlarga ega, undan tashqari turbina g'ildiragi qarshilik momentining qiymatiga bog'liq holda kinematik va dinamik uzatishlar sonini avtomatik ravishda o'zgartirib bera olish xususiyatiga ham ega.

Gidrotansformator xususiyatlarning oxirgisi traktor transmissiyalarda uzatishlar sonini bosqichsiz o'zgartiruvchi uzatmalar qutisi sifatida foydalanish imkonini beradi. Ammo buning uchun traktor transmissiyasiga orqaga harakatlanish va motorni shataklab yurgizib yuborish uchun qo'shimcha mexanik reduktor o'rnatilishi lozim. Bu gidrotransformatorni traktor transmissiyasida uzatmalar qutisi sifatida foydalanish mumkinligi uning ijobjiy xususiyatini biroz pasaytiradi.

Shuni ko'rsatib o'tish kerakki, traktorlarda uzatmalar qutisi sifatidagi gidrotransformator go'llanilmaydi, chunki yuklamani rostlash diapazoni

nisbatan kam ($K_t \leq 2,5-4$) va u mashina-traktor aggregatining talablariga javob bermaydi.

Shuning uchun ham transmissiyaning uzatishlar sonini pog'onasiz rostlash diapazonini oshirish uchun ko'p hollarda bir-birlari bilan ketma-ket yoki parallel ulangan *gidrodinamik* va *pog'onali* mexanik uzatmalar birgalikda qo'llaniladi.

Ular ketma-ket ulanganda uzatishlar sonini rostlash diapazoni kattaroq, biroq uzatmaning FIK pastroq. Ular parallel ulanganda uzatmaning FIK ortadi. Bunday uzatmalar (transmissiyalar)ni gidromexanik transmissiya deb ataladi.

Gidromexanik transmissiyalarda uzatmalar qutisi uzatishlar sonini bosqichsiz o'zgartirish diapazonlarini va orqaga harakatni olishni ta'minlaydi, bunda berilgan diapazon ichida bosqichsiz uzatishlar soni qatorini olish imkonи paydo bo'ladi.


5-§. Gidrohajmiy va elektr transmissiyalar

Gidrohajmiy uzatmalar energiyani suyuqlik bosimi bilan uzatish prinsipiiga asoslangan. Bunda ishlatalish kuchi va burovchi moment amaliy jihatdan ishechi suyuqlikning harakat tezligiga bog'liq emas. Bunday uzatmada eng kamida bir-birlari bilan truboprovod yordamida bog'langan ikkita asosiy gidravlik mashinalar: burovchi mexanik aylantiruvechi energiya oqimini ilgarilanma gidravlik kuch energiyasi oqimiga aylantirib beruvchi hajmiy gidronasos va gidravlik energiya oqiniini teskarisiga mexanik energiya oqimi (burovchi moment) ga aylantirib beruvchi gidromotordan iborat bo'ladi.

Suyuqliknasosdan motorga uzatish turiga qarab gidrohajmiy uzatma ochiq va yopiq bo'ladi, ularning prinsipial sxemasi 15.8-rasmida ko'rsatilgan.

Ochiq gidrohajmiy uzatmada nasos va motor o'rtaida teskari gidravlik bog'lanish yo'q (15.8-rasm, a). Nasos (1) bak (4) dan ishechi suyuqlikn so'rib bosim bilan quvur o'tkazgich (2) orqali gidromotor (3) ga uzatadi, undan so'ng suyuqlik yana bak (4) ga quyiladi. Tizim sodda bo'lsa-da, ammo uzatiladigan quvvat miqdori bakning hajmiga bog'liq. Shu sababdan bu xildagi uzatmalar traktorlarda faqat yordamchi qurilmalarga xizmat ko'rsatish uchun qo'llaniladi (servoqurimalarda, moylash tizimlarida va boshqalarda).

Traktor transmissiyasi aggregatlari sifatida, asosan, yopiq turdagи gidrohajmiy uzatmalar qo'llaniladi (15.8-rasm, b), ularda suyuqlik



15.8-rasm. Gidrohajmiy uzatmaning principial sxemasi:

a — ochiq turdag'i; *b* — yopiq turdag'i


gidromotor (3) dan yana nasos (1) ning so'rish magistrali (6) ga keladi. Bunda to'ldirib turuvchi qo'shimcha nasos (5) so'rish magistralidagi bosimni atmosfera bosimidan baland qilib ushlab turadi, bu bilan ishchi suyuqlik kavitsiyasining oldini oladi va uzaumani ishlash paytida oqib ketgan suyuqlikni kompensatsiya qiladi. Bak (4) ning kichik hajmida uzatma ixcham bo'ladi.

Traktor transmissiyalarida qo'llaniladigan gidrohajmiy uzatmalar ikki asosiy: to'liq oqimli (bir oqimli) va gidrodifferensial (ikki oqimli) guruhga bo'linadi. Bir oqimli transmissiyada barcha energiya motordan ketma-ket bir (gidravlik va mexanik) oqim bilan harakatlantirgichning yetaklovchi g'ildiraklariga uzatiladi. Ikki oqimli transmissiyada bosqichlarning birortasida bir oqimli quvvat ikki parallel, gidravlik va mexanik tarmoqqa bo'linadi, ular undan so'ng yana birlashadi.


15.9-rasmida g'ildirak formulasi 4K2 bo'lган traktor to'liq oqimli hidrohajmiy transmissiyasining ikkita principial strukturali kinematik sxemasi ko'rsatilgan.

Motor va orqa ko'priq yetaklovchi g'ildiraklari (5) bilan yig'masi orasiga quvuro'tkazgich (6) bilan birlashtirilgan rostlanuvechan hidronasos (2) va gidromotor (3) dan tuzilgan hidrohajmiy uzatma bloki o'rnatilgan (15.9-rasm, *a*). Bunday sxemada ilashish mustasi va uzatmalar qutisi uzatmalar blokini almashtiradi, transmissiyaning qolgan qismi odatdag'i traktorlarnikidek mexanik bo'ladi. Ushbu sxema asosida traktoring bosqichli mexanik transmissiyasini gidravlik bosqichsiz transmissiyaga osongina o'zgartirish mumkin.

15.9-rasm, *b* da keltirilgan sxemada motor (1) ham rostlanadigan hajmiy hidronasos (2) ishlaganda, ishchi suyuqlik bosimini truboprovodlar



15.9-rasm. G'ildirakli traktor to'liq oqimli gidrohajmiy transmissiyasi tuzilishining kinematik sxemasi




15.10-rasm. Ikki oqimli transmissiya tuzilishining kinematik sxemasi

(6) bilan traktoring yetaklovchi g'ildiraklariga o'rnatilgan ikki yuqori momentli gidromotor (3) va (4) ga uzatadi. Gidrohajniy uzatmaning bunday sxemasi traktoring hidravlik transmissiyasini oson joylashadigan qiladi.

Ikki oqimli (gidrodifferensial) transmissiyaning prinsipial strukturali sxemasi 15.10-rasmda ko'rsatilgan. Bir oqimli energiya val (1) ga keladi, undan so'ng tishli uzatma (7) ishtirokida ikki oqimga ajratiladi. Energiya oqimining biri mexanik differensial-planetary reduktor (2) ga, ikkinchi oqim esa rostlanadigan hajmiy nasos (6) va gidromotor (5) dan tuzilgan hidrohajmiy uzatma blokiga keladi. Ikkala oqimni shesternali uzatma (4) yetaklanuvchi val (3) da birlashtiradi. Bunday uzatmalarining FIK qiyomi, kinematik sxemasi to'g'ri tanlangan bo'lsa, hidrohajmiy uzatmaning FIK dan yuqori bo'lishi mumkin.

Ikki oqimli transmissiya, odatda, markaziy uzatma va oxirgi uzatma mexanik reduktorlari bilan doimio birgalikda qo'llaniladi, bu esa traktor transmissiyasining umumiy FIKni biroz kamaytiradi.

Elektr transmissiya bosqichsiz bo'lib, unda burovchi moment traktorning yetaklovchi g'ildiraklariga elektr energiyasi yordamida yetkazib beriladi. Ishlash tavfsisi bo'yicha u ko'p jihatdan hidrohajmiy to'liq oqimli transmissiyani eslatadi, chunki unda dastlab motorning mexanik energiyasini elektr energiyasiga, undan so'ng esa, uning teskarisi yetaklovchi g'ildiraklariga beriladigan mexanik energiyaga o'zgartirib beradi.



15.11-rasm. Elektr transmissiyali quvvatli g'ildirakli traktoring prinsipial strukturali kinematik sxemasi

Odatda, traktor motori bilan harakatga keltiriladigan doimiy tok generatori elektr energiyasi manbayi tokni teskarisiga mexanik energiyaga o'zgartiruvchi bo'lib hisoblanadi. Ko'p hollarda katta yurgizib yuboruvchi burovchi momentga ega bo'lgan tortish elektromotori hisoblanadi. Ishlash jarayonida bunday elektromotorlar yuklama bilan ishlaganda yaxshigina o'z-o'zidan rostlanish xususiyatiga ega bo'lib, yuklama oshsa uning burovchi momenti ortadi, pasayishi bilan esa kamayadi. Elektromotorning bunday xususiyati, elektr transmissiyaning (uzatmalar qutisi qo'llamasdan) bosqichsiz bo'lishiga imkon beradi.

Katta quvvatli g'ildirakli traktorlarda tortuvchi elektromotorlar ko'p hollarda yetaklovchi g'ildiraklardan oldin o'ma-

tiladi, bunday strukturali sxema 15.11-rasmida ko'rsatilgan. Motor (1) elektrogenerator (2) ni harakatga keltiradi, undan so'ng elektr energiyasi boshqarish bloki (3) ga keladi. Mashina-traktor aggregatining ish texnologiyasiga va yo'l sharoitiga muvofiq elektr energiyasi elektr kabellari (4) orqali yetaklovchi g'ildiraklar (6) ning tortish elektromotorlari (5) ga ulanadi. Tortish elektromotorining va yetaklovchi g'ildirakning bunday joylashtirilishini, odatda, «motor-g'ildirak» deb ataladi.

Nazorat savollari

1. *Transmissiyaning vazifasi va turlarini aytib bering.*
2. *Traktoring yetaklovchi g'ildiraklaridagi moment nimalarga bog'liq?*
3. *Gidrodinamik va gidrohajmiy uzatmalar haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Elektr transmissiyaning asosiy qismlari va ishlashini tushintiring.*

16-boʻb. ILASHISH MUFTALARI VA ORALIQ BIRIKMALAR

1-\$. Kuch uzatish qismlarining asosiy mexanizmlari


Traktor yoki avtomobilning kuch uzatish qismlari (transmissiyasi) motorning quvvatini yetakchi g’ildiraklarga yoki yetakchi yulduz-chalarga uzatadi va ularning burovchi momentini o’zgartiradi, ya’ni harakat tezligining o’zgartirilishi hisobiga tortish kuchini o’zgartiradi, shuningdek, harakat yo’nalishini o’zgartirishga (oldinga va ketinga yurgizishga) imkon beradi. Quvvat olish vali va harakat uzatish shkivi ham ko’pincha kuch uzatish qismlari orqali aylantiriladi. Traktoring kuch uzatish qismi (16.1-rasm) ilashish mustasi (1), oraliq birikma (2), uzatmalar qutisi (3), asosiy uzatma (4), differensial (5) (g’ildirakli traktorlarda) yoki boshqarish mustalari (8) (o’rnalovchi zanjirli traktorlarda) va oxirgi uzatma (6) dan iborat. Harakat oxirgi uzatmalardan yarim o’qlar (7) orqali g’ildiraklarga yoki yetakchi yulduzchalar (9) ga uzatiladi.

Avtomobilning kuch uzatish qismi (16.2-rasm, a) ilashish mustasi (1), uzatmalar qutisi (2), kardan uzatma (3), asosiy uzatma (4), differensial (5) va yarim o’q (6) lardan iborat. Harakat yarim o’qlardan g’ildiraklar (7) ga uzatiladi.

Agar avtomobil yoki traktoring oldingi g’ildiraklari ham yetakchi qilib ishlangan bo’lsa (16.2-rasm, b), uzatmalar qutisidan keyin harakat tarqatish qutisi (8) o’rnatalib, undan harakat ketingi g’ildiraklarga qanday uzatilsa, oldingi g’ildiraklarga ham shunday uzatiladi. Oldingi g’ildiraklar yaxlit o’qda o’rnatilmasdan, yarim o’qlar (9) ga mahkam-lanadi. Transmissiyaning asosiy uzatma va differensial (yoki boshqarish mustalari) joylashtirilgan qismi traktor yoki avtomobilning *ketingi ko’prigi* deyiladi.

2-\$. Ilashish mustasining tuzilishi va ishlash prinsipi

Ilashish mustasi motor tirsaklı valining aylanma harakatini transmissiyaning valiga uzatadi, uzatmalarni almashtirib qo’shishda, traktor yoki avtomobilni tormozlashda va to’xtatishda motorni uzatmalar




16. I-rasm. Traktor kuch uzatish qismlarining sxemalari:

- a* — g'ildirakli; *b* — o'rmaiovechi zangrli traktorlar;
- 1 — ilashish mustasi; 2 — oraliq burikma; 3 — uzatmalar qo'sisi;
- 4 — asosiy uzatma; 5 — differensial; 6 — oxirgi uzatma; 7 — yanim o'q.
- 8 — boshqarish mustasi; 9 — yetakchi yulduzcha

qutisidan tezda ajratadi hamda traktor va avtomobilni o'rnidan asta qo'zg'atib yurgizishga imkon beradi. Transmissiya qismlarining rivojon tezlanib harakat qilishi ularning yeyilishini kamaytiradi va sifarijat saqlaydi.

Barcha traktorlarda va ko'pchilik avtomobillarda ishqalanish kuchi hisobiga ishkaydigan friksion ilashish mustalari ba'zan esa gidravlik mustalar qo'llaniladi. Ilashish mustasi yetakchi va yetaklanuvchi qism, siqivechi qism va boshqarish mexanizmidan iborat. Mustaning yetakchi qismi motorning tirsakli valiga biriktirilgan bo'lib, yetakchanuvchi qismi uzatmalar qutisining valiga birlashtirilgan bo'ladi. Mustaning yetakchi



16.2-rasm. Avtomobillar kuch uzatish qismining sxemasi:

- a* — ketingi g'ildiraklari yetakechi; *b* — barcha g'ildiragi yetakechi avtomobil; 1 — ilashish muftasi; 2 — uzatmalar qutisi; 3 — kardan uzatma; 4 — asosiy uzatma; 5 — differensial; 6 — yarim o'q; 7 — g'ildirak; 8 — tarqatish qutisi; 9 — oldingi yarim o'q

va yetaklanuvchi qismi bir-biriga siqlisa, musta qo'shiladi, ular o'rtaida ishqalanish kuchi paydo bo'lib, harakat uzatiladi, bir-biridan uzoqlashdirilsa, musta ajraladi, harakat uzatish to'xtaydi.

Quruq yoki moyli, bir diskli, ikki diskli yoki ko'p diskli, muttasil qo'shilgan yoki muvaqqat qo'shilgan va kombinatsiyalangan ilashish muftalari bo'ladi.

Quruq ilashish muftasi eng ko'p tarqalgan, chunki ishqalanuvchi sirti kichik bo'lgani holda, katta kuchni uzata oladi, oddiy tuzilgan, ravon qo'shishga va tez ajratishga imkon beradi. Disklar sirtiga friksion qoplama o'rnatiladi, u ancha tez yeyiladi, shu sababli muftani tez-tez rostlab turishga to'g'ri keladi.

Moyli ilashish muftalarida friksion qoplama bo'lmaydi, ular po'lat disklardan iborat. Yetarli darajada ravon qo'shilib ishlaydi, ammo katta kuchni uzatish uchun ishqalanish sirti katta bo'lishi lozim. Bu musta yaxshi ajralmaydi va ancha murakkab tuzilgan (traktorlarning yurgizib yuborish motorlarida qo'llaniladi).

Ilashish muftasining ishqalanuvchi sirtlarini oshirish uchun ular ko'p diskli qilinadi. Bir diskli mustaning ikkita ishqalanuvchi sirti

bo'ladi. Ko'p diskli qurtiq mustalar o'rnatilganda zanjirli traktorlarning boshqarish mustalari sifatida qo'llaniladi.

Mustani ajratish va ajralgan holda saqlash uchun tashqaridan kuch ta'sir etishi shart bo'lgan musta **muttasil qo'shilgan musta** deyiladi. Ajratish yoki qo'shish uchun tashqaridan kuch ta'sir etishi shart bo'lib, o'zicha ajralgan holda turadigan musta **muvaqqat qo'shilgan musta** deyiladi.


Bir diskli ilashish mustasi (16.3-rasm, a). Motor maxovigi (1) ga boltlar bilan mahkamlangan g'ilof (4) ichidagi siquvchi disk (3) va maxovikning o'zi mustaning yetakechi qismi, maxovik bilan siquvchi disk o'rtaosida joylashtirilgan po'lat disk (2) esa yetaklanuvchi qismidir. Yetaklanuvchi diskning ikki tomoniga qoplama o'rnatilgan bo'lib, u ilashish mustasining vali (8) ga o'tqazilgan. Bu valdan harakat uzatmalar qutisiga uzatiladi.

Mustaning korpusi bilan siquvchi diskni orasidagi stakanchalarga siqilgan prujina (10) lar joylashtirilib, yetaklanuvchi diskni, siquvchi disk va maxovik orasida siqadi. Surilma musta (7) siquvchi diskning qaytarish barmog'i (5) va ajratuvchi richaglar (6) ga ta'sir etib, pedal (9) vositasida boshqariladi.

Mustani ajratish uchun pedalni bosib prujinalar (10) ni qo'shimcha ravishda qisish, ya'ni yetakechi va yetaklanuvchi disklarni bir-biridan uzoqlashtirish kerak. Bunda yetaklanuvchi disk va u o'tqazilgan val aylanishdan to'xtaydi. Pedal bo'shatilsa, prujinalar keriiib, yetakechi va yetaklanuvchi disklar bir-biriga qisiladi, ya'ni musta yana qo'shiladi.


Mustaning ravon qo'shilishi uchun pedalni asta-sekin bo'shatish kerak. Ajratuvchi richaglar (6) ning ichki uchlari bilan surilma multa (7) orasida ma'lum tirkish bo'lishi lozim. Bu tirkishning qiymati pedaldan harakat uzatadigan tortqining uzunligini o'zgartirib rostlanadi.

Ikki diskli muttasil qo'shilgan ilashish mustasining bir diskli mustaga nisbatan ishqalanish sirti ortib, u ko'proq quvvat uzata oladi. Bunday multa (16.3-rasm, b) g'ilof (4) orqali maxovik (1) ga biriktirilgan ikkita yetakechi disk (13 va 15), mustaning vali (8) ga o'rnatilgan ikkita yetaklanuvchi disk (14 va 16) dan iborat. Ilashish mustasi qo'shilganda disklar g'ilof bilan yetakechi disk (13) orasiga qo'yilgan prujinalar ta'sirida bir-biriga siqilib, maxovikning aylanma harakatini mustaning valiga uzatadi. Pedalni bosib ilashish mustasi ajratilsa, prujina (11) o'rta yetakechi disk (15) ni rostlash bolti (12) ga qadar itaradi. Bunda yetakechi va yetaklanuvchi disklar bir-biriga siqilmaydi va musta ajraladi.



16.3-rasm. Muttasil qo'shilgan itashish multasining sxemalari:

a — bir diskli; *b* — ikki diskli; 1 — maxovik; 2, 14 va 16 — yetaklanuvchi disk; 3 — siqyuchi disk; 4 — g'ilof; 5 — qaytarish barmog'i; 6 — ajratuvchi richag; 7 — surilma multa; 8 — multa vali; 9 — pedal; 10 va 11 — prujina; 12 — rostlash bolti; 13 va 15 — yetakchi disk




16.4-rasm. Muvaqqat qo'shilgan itashish multasining sxemasi:

1 — maxovik; 2 — yetakchi disk; 3 — tirak disk; 4 — siqyuchi disk; 5 — krestovina; 6 — chetlangich; 7 — multa vali; 8 — boldoq; 9 — kulachok; 10 — richag

Muvaqqat qo'shilgan ilashish muftasining (16.4-rasm) yetakchi disk (2) tishli gardish yoki rezina qoplangan matodan yasalgan egiluvechan piankalar vositasida maxovik (1) ga biriktirilgan. Yetakchi disk ikkita yetaklanuvchi disk orasida siqiladi. Oldingi yetaklanuvchi tirak disk (3) ilashish muftasining vali (7) ga qo'zg'almaydigan qilib mahkamlangan. Ketingi siquvchi disk (4) mufta valining shlitsalarida yoki oldingi disk gupebagida surila oladi. Disklar qulogchali krestovina (5), boldoq (8), siquvchi kulachoklar (9) dan iborat bo'lgan qo'shish va ajratish mexanizmi bilan siqiladi.

Bu mexanizm ajratkich (6) ni suradigan richag (10) bilan boshqariladi. Richag itarib qo'yilsa, mufta ajratilgancha turaveradi va o'z holicha qo'shilmaydi. Bu mufta krestovina (5) ni burib rostlanadi. Muftani qo'shish uchun richagni tortib burish kerak. Bunday mufta traktorga qishloq xo'jalik mashinalarini tirkash va zarur bo'lganda tez to'xtatish uchun qulaydir, ammo muftaning siquvchi mexanizmi ravon qo'shilmaydi va uni tez-tez rostlab turish kerak, shuning uchun bunday mufta kam qo'llaniladi.

Motordan transmissiya mexanizmlariga va quvvat olish valiga mustaqil harakat uzatish uchun **kombinatsiyalangan ilashish muftalari** (16.5-rasm, a) qo'llaniladi. Kombinatsiyalangan ilashish muftasi mustaqil ishlaydigan ikkita muftadan iborat bo'lib, ularning har qaysisi



16.5-rasm. Kombinatsiyalangan ilashish muftalarining sxemasi:

a - ikkita pedal bilan boshqariladigan; b - bitta pedal bilan boshqariladigan;
 1 va 4 - yetaklanuvchi disklar; 2 va 3 - yetakchi disklar; 5 va 8 - ajratuvchi
 richag; 6, 7 va 13 - pedal; 9 - unumiy prujina; 10 - sbiti; 11 - rostlash
 bolti; 12 - richag; 14 - prujina

alohida pedal (6 va 7) yoki ikkalasi umumiy bitta pedal (13) bilan boshqariladi.

Har ikkala ilashish mustasining o'ziga xos yetakechi (2 va 3) hamda yetaklanuvchi (1 va 4) disklari bor bo'lib, umumiy prujinalar (9) bilan bir-birlariga siqiladi. Disk (1) asosiy ilashish mustasining yetaklanuvchi disk bo'lib, u o'rnatilgan valdan harakat transmissiya mexanizmlariga uzatiladi. Harakat yetaklanuvchi disk (4) o'rnatilgan ichi kovak valgan quvvat olish valiga uzatiladi.

Ilashish mustalari ayrim pedallar bilan boshqarilganda pedal (6) ajratuvchi richaglar (5) ga ta'sir etib, asosiy muftani boshqaradi. Pedal (7) ajratuvchi richaglar (8) ga ta'sir etib, quvvat olish valining mustasini boshqaradi.

Bir pedal bilan boshqariladigan kombinatsiyalangan ilashish mustasining (16.5-rasm, b) pedali (13) bosilganda, dastlab richaglar (12), yetakechi disklar (2 va 3) ni yetaklanuvchi disk (4) bilan birga ketinga (o'ngga) suradi. Bunda prujinalar (14 va 9) siqiladi, asosiy ilashish multasi ajraladi, chunki yetaklanuvchi disk (1) bo'shatiladi va traktor to'xtaydi. Pedal ko'proq bosilganda oldingi yetakechi diskning shtifti (10) rostlash bolti (11) ga tiraladi. Bunda prujinalar (9 va 14) yana ham siqiladi. Endi disk (3) ketinga surilib, quvvat olish valining yetaklanuvchi disk (4) siquvchi disklar orasida siqilmaydi, ikkinchi mufta ham ajraladi va quvvat olish valiga harakat uzatilmaydi.

Ilashish mustasining tormozchasi. Uzatmalarni almashtirib qo'shishda ilashish mustasining yetaklanuvchi qismi aylanishda davom etsa, shesternalar tishi bir-biriga uriladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ko'pchilik traktorlarda ilashish mustasini ajratganda yetaklanuvchi qismni tez to'xtatadigan maxsus tormozcha o'rnatiladi.


Tormozcha ko'pincha mustanining aylanuvchi valiga mahkamlangan friksion qoplamlari flanes va musta ajratilganda shu flanesga tiraladigan harakatlanmaydigan sirtdan iborat. Ba'zi multalarda tormozcha shkiv va kolodkadan iborat bo'lib, musta ajratilganda kolodkali lentalar shkivga qisiladi. Ilashish mustasi tormozchasining tuzilishi quyida tasvirlangan.

Muttasil qo'shilgan ilashish mustasining tuzilishini o'rganish maqsadida AT-75 traktori ilashish mustasini ko'rib o'tamiz. Bu traktorga quruq, bir diskli, tormozchali, pedal bilan boshqariladigan muttasil qo'shilgan friksion musta o'rnatilgan.

Mustanining (16.6-rasm) tirsakli val bilan birga aylanadigan yetakechi qismi maxovik (1) va siquvchi disk (3) dan iborat. Siquvchi disk

maxovikka boltlar bilan mahkamlangan g'ilosga o'rnatilgan. Maxovik bilan siquvchi disk o'rtasiga o'rnatilgan yetaklanuvchi disk (2) va shu disk o'rnatilgan mufta vali (5) multaning yetaklanuvchi qismidir. Pedal bo'shatilganda yetaklanuvchi disk maxovik bilan siquvchi disk orasida siqiladi, bunda muftaning yetaklanuvchi qismi maxovik bilan birga aylanadi.

Muftaning ajratish mexanizmi pedal, tortqi, richag (8), vilka (7), ajratuvchi mufta (6) va uchta ajratuvchi richag (9) dan iborat. Pedal bosilganda ajratuvchi mufta (6) ajratuvchi richaglar (9) ning ichki uchini bosadi, richag o'z o'qi atrosida burilib, uning tashqi uchi siquvchi disk (3) ni yetaklanuvchi diskdan uzoqlashtiradi. Bunda g'ilosdagi siakanlarga siqilgan holda o'rnatilgan o'n ikkita prujina (4) yana ham siqiladi. Mufta ajratilganda yetaklanuvchi disk va shu disk o'rnatilgan val aylanmaydi.



*16.6-rasm. Bir diskli muftasit qo'shilgan ilashish
muftasi (JU-75):*

1 — maxovik; 2 — yetaklanuvchi disk; 3 — siquvchi disk; 4 va 10 — prujina;
5 — mufta vali; 6 — ajratuvchi mufta; 7 — vilka; 8 — richag; 9 — ajratuvchi
richag; 11 — bolt; 12 — stakan; 13 — disk; 14 — qoplama; 15 — gupchak

Muftaning tormozchasi disk (13) va mufta valiga o'rnatilgan gupchak (15) dan iborat. Gupchakning flanesiga raybest qoplama (14) qoplangan. Mufta qo'shilganda tormoz diskni flanesga tegmaydi. Disk

(13) stakan (12), prujina (10) va boltiar (11) orqali ajratuvchi mufta (6) ga biriktirilgan. Ilashish mustasi ajratilganda tormozning disk flanesning qoplamasi (14) ga tiralib ishqatalanishi natijasida muftaning yetaklanuvchi qismi tez to'xtaydi. Mufta valining oldindi uchi tirsakti val o'yig'idagi sharikli podshipnikda turadi. Ilashish mustasi qo'shilganda ajratuvchi richaglari (9) ning uchlari ajratuvchi mufta (6) ning podshipnigidan baravar uzoqlikda turadi, ular orasida 3,5 — 4,5 mm tirkish bo lishi kerak.

Ilashish mustasi diskalarining diametrini va prujinalarining siqish kuchini oshirmasdan turib, kattaroq burovchi moment uzata olishi uchun 3 va 4 t sinf traktorlarda ikki diskli ilashish mustalari qo'llaniladi. Misol tariqasida UT-75 traktori ilashish mustasining tuzilishi va ishlashini bayon etamiz.


Ilashish mustasi (16.7-rasm) maxovik (7) bilan mufta g'ilofi o'tasiga joylashtirilgan ikkita yetakchi (10, 12) va friksion qoplamalni ikkita yetaklanuvchi (2, 3) disk, ularni siqb turuvchi o'n ikkita prujina (9) va ajratuvchi mufta (7) dan iborat. Yetakchi disklar maxovikka uch just yetakchi barmoq (11) bilan biriktirilgan. Disklar o'q yo'naiishida siljiganda barmoqlar ustida yo'nafadi. Yetaklanuvchi disklar mufta vali (4) shiltsalariga o'rnatilgan va u bilan birga aylanadi.

Ilashish mustasi richag bilan boshqariladi. Richag oldinga siljitilganda vilka vali (8), ajratuvchi mufta (7), ajratuvchi richag (6) orqali biriktiruvchi barmoqlar (5) ni keyingi yetakchi disk (12) bilan birga orqaga siljitaladi.

Bunda prujinalar (9) siqiladi va mufta ajraladi. Mufta ajralganda oldindi yetakchi diskni maxovikdan uzoqlashtirish uchun unga shpilkalar orqali uecta tortqi (14) biriktirilgan. Tortqilar prujina bilan siqb qo'yilgan.

Mufta ajralganda prujinalar kerilib, diskni maxovikdan siljitaladi. Oldindi yetakchi diskning siljishi tirak vint (13) bilan sozlanadi. Boshqarish richagi tortilganda mufta qo'shiladi. Richagni boshqarishni yengillashtirish uchun maxsus servoprujina bor.

Ko'pchilik avtomobil va ba'zi traktorlar ilashish mustasining yetaklanuvchi diskiga burovche tebranishlar so'ndirgichi (demser) qilinadi. Bunda yetaklanuvchi disk o'z gupchagiga qattiq biriktirimasdan siqilgan holda o'rnatilgan bir necha prujinalar vositasida biriktiriladi. Burovchi tebranishlar hosil bo'lqanda prujinalar siqilib disklarini bir-biriga nisbatan siljitaladi va tebranishlar so'nadi.



16.7-rasm. Ikki diskli muttasil qo'shilgan ilashish mustasi (ДТ-75):


- 1 — maxovik; 2 — ketingi yetaklanuvchi disk;
- 3 — oldingi yetaklanuvchi disk; 4 — mutta vali;
- 5 — biriktiruvchi barmoq;
- 6 — ajratuvchi rishag;
- 7 — ajratuvchi musta;
- 8 — vilka vali;
- 9 — prujina;
- 10 — ketingi yetakchi disk;
- 11 — yo'naltiruvchi barmoqlar;
- 12 — oldingi yetakchi disk;
- 13 — tirak vint;
- 14 — tertqi

3-§. Oralıq birikmalar

Ko'pchilik traktorlarda uzatmalar qutisi ilashish mustasiga yonmay-yon joylashtirilmasdan, undan birmuncha nariroqda o'rnatiladi. Traktorni yig'ishda motor va transmissiya vallarini qat'yan bir o'q chiziqda joylashtirish juda qiyin, bundan tashqari, traktor ishlagan vaqtida uning ramasi sal-pal qiyshayishi mumkin, natijada vallar bir-biriga nisbatan o'z holatini o'zgartiradi.

Traktorlarda motor (yoki ilashish mustasi) va uzatmalar qutisi (ba'zan burovchi moment kuchaytirgichi) vallarining o'q chiziqlari bir-biriga nisbatan birmuncha (2° dan 10° gacha) siljiganda ham normal harakat uzatish uchun ularning o'rtafiga oraliq birikma o'rnatiladi. Elastik, qattiq va kombinatsiyalangan oraliq birikmalar bo'lib, zamonaviy traktorlarda, asosan, elastik oraliq birikmalar qo'llaniladi.

Elastik oraliq birikmaga misol tarzida $\Delta T-75$ markali traktor oraliq birikmasining tuzilishi bilan tanishtirib e'tamiz. Bu oraliq birikma (16.8-rasm) ilashish mustasining yetaklanuvchi vali bilan uzatmalar qutisining birlamchi vali orasiga joylashtirilgan ikkita elastik musta va biriktiruvchi valdan iborat.



16.8-rasm. Traktoring oraliq birikmasi ($\Delta T-75$):
1, 5 va 7 — vilka; 2 — rezina vtulka; 3 — kallak; 4 — bolt;
6 — oraliq val; 8 — sim to'r karkas; 9 — po'lat vtulka

Har qaysi elastik musta ikkita vilka (1, 5) va ular o'rtafiga joylashtirilgan kallak (3) dan iborat. Oldingi mustaning vilkasi (1) ilashish mustasining valiga mahkamlanadi, vilka (5) esa oraliq val (6) da siljiy oladi. Kallak (3) bir-biriga parchinlangan ikkita po'lat diskidan iborat bo'lib, ularning halqasimon oralig'iga elastik rezina vtulka (2) joylashtirilgan.

Rezina vtulkalar sim to'r karkas (8) ga mahkamlanib, uning teshigiga po'lat vtulka (9) kirgizilgan. Har bir vilka kallakka gaykali ikkita bolt

(4) bilan biriktirilgan. Oldingi elastik musta qanday tuzilgan bo'lsa, ketingisi ham shunday tuzilgan. Ketingi mustaning vilkasi (7) uzatmalar qutisi valining shlitsali uchiga o'rnatilgan.

4-§. Ilashish mustasi va oraliq birikmalarga texnik xizmat ko'rsatish

Ilashish mustasiga texnik xizmat ko'rsatish podshipniklarni moylash, bo'shab qelgan qismrlarni mahkamlash, qo'shish va ajratish mexanizmini rostlash hamda friksion qoplamlarini yuvishdan iborat.

Ilasnih mustasidan foydalanishda: richag bilan boshqariladigan mustalarni ajratilgan holda qoldirmaslik, pedalni uzoq bosib turmaslik va oyoqni pedalga qo'yib yurmaslik zarur. Mustani uzatmalarni qo'shish va ajratish vaqtidagina ajratilgan holda saqlab, to'xtatib qo'yish uchun uzatmalar richagini neytral holatga qo'yish va mustani darhol qo'shish lozini.

Mufa podshipniklarini moylash jadvalida ko'rsatilgan muddat-lardagina moylash kerak, ularni ko'p moylash disk qoplamlarining moy bosishiga sabab bo'ladi.

Mustaning qoplamlariga moy tegsa, ular ortiqcha ko'p yeyilgan bo'lsa, shuningdek, sozi buzilsa, ilashish mustasi sirpanib ishlaydi, ya'ni motor durust ishlasa ham traktor yoki avtomobil yaxshi tortmaydi.

Yetaklanuvchi yoki siquvchi disk qiysaysa, friksion qoplamlalar sinib tushgan bo'lsa yoki musta noto'g'ri rostlangan bo'lsa, musta to'la ajralmaydi va uzatmalarni qo'shish qiyin bo'ladi.

Qoplamlarga tekkan moy benzin bilan yuvib ketkaziladi, yeyilgan qoplamlar yangitanadi va lozim bo'lsa musta rostlanadi.

Pedal bilan boshqariladigan mustalarni rostlashning zarurligi pedalning erkin yo'liga va ajratuvchi richaglar bilan tirak podshipnik orasidagi tirkishga qarab aniqlanadi.

Ko'pchilik traktor va avtomobilarning bir diskli ilashish mustalarida ajrauvchi richag bilan tirak podshipnik orasidagi tirkish 3,5—4,5 mm bo'lishi lozim, bu musta pedalining 35—50 mm erkin yo'liga to'g'ri keladi.

Agar tirkish kichik bo'lsa, musta sirpanib ishlaydi, katta bo'lsa, uning ajralishi qiyinlashadi (musta sudraydi). Bu tirkish ajratuvchi richagning rostlash gaykasini burab yoki musta tortqisining uzunligini o'zgartirib rostlanadi. Masalan, ЎГ-75 traktorida tortqining uzunligi o'zgartirilka, musta tormozchasining sozi buziladi. Tirak podshipnik

bilan ayrim richaglarning uchi orasidagi tirkishlar baravar bo'lmasa, u ham richagning rostlash gaykasi bilan to'g'rilanadi.

Ikki diskli ilashish mustalarida oldingi siquvchi diskning yurish yo'li ham sozlanadi. Ayrim boshqariladigan kombinatsiyalangan ilashish mustalari alohida sozlanadi. Umumiy pedal bilan boshqariladigan mustalarda ikkala mustaning ishi birgalikda sozlanadi.

Oraliq birikmalarga texnik xizmat ko'rsatish. Oraliq birikmalarning qo'llanilishiga qaramay, traktorni yig'ishda motor va transmissiya vallarining bir chiziqda turishiga erishish zarur, chunki vallar qancha qiyshi joylashtirilsa, oraliq birikmaning qismlari shuncha tez yeyilib, ishdan chiqadi.

Oraliq birikmaning rezina elementlarini yonilg'i va moy tegishidan ehtiyyotlash zarur. Oraliq birikmalarini vaqtqi-vaqtqi bilan ko'zdan kechirish, moylash va boltlarini burab mahkamlash va shplintlab qo'yish lozim.

Nazorat savollari

1. G'ildirakli va o'rmalovchi zanjirli traktorning kuch uzatish qismlari qanday asosiy mexanizmlardan iborai?
2. Avtomohillarning kuch uzatish qismlari qanday mexanizmlardan tuzilgan?
3. Ilashish mustasining tiplari, vazifasi, tuzilishi va ishlash tarzini tushuntirib bering.
4. AT-75 traktorining ilashish mustasi va tormozchasini qanday tuzilgan?
5. Oraliq birikmalarning vazifasi va tuzilishini tushuntirib bering.
6. Ilashish mustasi va oraliq birikmaga texnik xizmat ko'rsatish vaqtida qanday ishlar amalga oshiriladi?

1-\$. Uzatmalar qutisining vazifasi va ishlashi

Traktor agregatini ishlaganda qishloq xo'jalik mashinalari turli qarshilik ko'rsatadi, avtomobil o'midan qo'zg'alishida, tepalikka chiqishda va og'ir yo'l sharoitlarida yurganda uning motoriga zo'r keladi. Shu qarshiliklarni yengib harakat etishi uchun traktor va avtomobilidan turi tortish kuchi talab etiladi, ya'ni yetakechi g'ildiraklariga (yoki yetakechi yulduzchalariga) uzatiladigan burovchi moment keng miqyosda o'zgartirilishi kerak.

Uzatmalar qutisi motor bilan yetakechi g'ildiraklar (yulduzchalar) orasidagi uzatish sonini o'zgartiradi, ya'ni motorning quvvati va valining aylanishlar soni o'zgartirilmagan holda, traktor yoki avtomobilning yurish tezligini o'zgartirib, uning tortish kuchini o'zgartiradi, shuningdek, tirsaklı vaining doim bir tomonga aylanishiga qapamay, traktor va avtomobilni oldinga yoki ketinga yurgizadi. Ba'zi traktorlar oldinga necha turli tezlikda harakat qilsa, ketinga ham shuncha tezlikda harakat qiladi.

Bundan tashqari, uzatmalar qutisi traktor yoki avtomobil to'xtatib qo'yilganda motorni ishlatishg'a, ya'ni motorni ishga tushirish, salt ishlatish va undan statsionar ishlarda foydalanish imkonini beradi. Quvvat olish vali va harakatlantirish shkivi ko'pincha uzatmalar qutisi orqali harakatga keltiriladi.

Zamonaviy traktor va avtomobillarda, asosan, shesternali uzatmalar qutisi qo'llaniladi. Bunda harakat motor validan traktor yoki avtomobilning yetakechi qismlariga tishlarining soni turlicha bo'lgan shesternalar orqali uzatiladi. Yetaklanuvchi shesterna o'rnatilgan valning harakat tezligi qancha kamaytirilsa, uning tortish kuchi shuncha ortadi. Yetakechi va yetaklanuvchi shesterna orasiga qo'shimcha shesterna qo'shilsa, traktor yoki avtomobil ketinga yuradi.


Uzatmalar qutisi uning devorlaridagi podshipniklarga o'rnatilgan vallar, bu vallarga kiygizilgan shesternalar va ularni bir-biriga almashtirib qo'shadigan (ilashtiradigan) mexanizmdan iborat.

Uzatmalar quiisi (17.1-rasm) korpusi (*1*) ning devorlaridagi yumalanish podshipniklariga yuqorigi yetakechi (birlamchi) val (*19*) va pastki

yetaklanuvchi (ikkilamchi) val (17) o'matilgan. Aylanma harakat ilashish muftasidan birlamchi val orqali yetaklanuvchi valga, bundan esa konus shesterna (12) orqali asosiy uzatmaga uzatiladi.

Yetakchi valning shlitsalariga yakka shesterna (18) li va qo'shaloq shesterna (10, 11) li karetkalar o'tqazilgan. Karetkalar val bilan birga aylanadi va ularni vilka (2, 6) yordamida val bo'ylab siljitim mumkin. Shesternalar (13, 14, 15) yetaklanuvchi val (17) ga mahkamlangan va u bilan birga aylanadi.

Uzatmalar qutisining almashtirib qo'shish mexanizmi qutining qopqog'i (3) ga joylashtirilib, richag (5), kulisa (4), suriluvchi sterjenlar (8, 9) va fiksatorlar (7) dan iborat.




17.1-rasm. Bir juft shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisining sxemasi:

- 1 — korpus;
- 2 va 6 — vilka;
- 3 — qopqog;
- 4 — kulisa;
- 5 — richag;
- 7 — tiksator;
- 8 va 9 — sterjen,
- 10 va 11 — qo'shaloq shesterna;
- 12 — konus shesterna;
- 13, 14, 15 va
- 18 — shesterna;
- 16 — ketinga yurgazish shesternasi;
- 17 — yetaklanuvchi (ikkilamehi) val;
- 19 — yetakchi (birlamchi) val

Almashtirib qo'shish richagi (5) ning pastki uchi vilkalar (2, 6) ning o'yig'iga kirgizilgan bo'lib, shar tayanch atrofida burilishi mumkin. Vilkalar sterjenlar (8, 9) ga mahkamlangan bo'lib, ularning pastki uchi karetkalarni qamrab turadi. Vilkalar karetka shesternalarining aylanishiga xalal bermaydi. Sterjenlar o'zicha surilmasligi uchun fiksatorlar bilan mahkamlangan. Fiksatorning sharigi yoki shtifti sterjen o'yig'iga kiygililib, ularni prujina bosib turadi. Bunday quti bilan uch turli uzatma hosil qilish mumkin. Sxemada uzatmalar qutisi neytral holatda (*nh*) ko'rsatilgan. Yetakchi valdag'i eng kichik shesterna (18) yetaklanuvchi valdag'i eng katta shesterna (15) ga ilashtirilsa, birinchi uzatma qo'shiladi, yetaklanuvchi val sekin aylanadi, ammo mashinaning tortish kuchi ko'p bo'ladi. Shesterna (10) bilan shesterna (14) ilashtirilsa — ikkinchi uzatma, shesterna (11) bilan shesterna (13) ilashtirilsa — uchinchi uzatma qo'shiladi, bunda yetaklanuvchi val tez aylanadi, ammo tortish kuchi birinehidagiga ko'ra kam bo'ladi.

Ketinga yurgizish (*ry*) uzatmasini qo'shish uchun alohida o'qqa qo'shaloq shesterna (16) o'rnatilib, uning kichigi ikkilamchi valning katta shesternasi (15) bilan doimo qo'shilgan holda turadi. Qo'shaloq shesternaning ikkinchisi — kattarog'i yetakchi val shesternasi (18) bilan ilashtirilsa, ketinga yurgizish uzatmasi qo'shiladi.

Uzatmalarni almashirib qo'shishda richag (5) ning pastki uchi kulisa orqali vilkalarning o'yig'iga kirganligi sababli ikki uzatma bir vaqtida qo'shilmaydi. Turli uzatmalarni qo'shishdagi richagning turish holati sxemada ko'rsatilgan.



17.2-rasm. Uzatmalar qutisi blokirovka mexanizmining sxemasi:
a — blokirovka mexanizmi ishlamaydi — uzatmalarni almashirib qo'shib bo'lmaydi; *b* — blokirovka mexanizmi ishlaydi — uzatmalarni almashirib qo'shish mumkin; *1* — pedal; *2* — richag; *3* — chiqiq; *4* — valik; *5* — fiksator; *6* — sterjen

Blokirovka mexanizmi. Ilashish mustasini to'la ajratmasdan uzatmalar qo'shilsa, shesternalarning tishlari bir-biriga urilib sinishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ko'pehilik traktorlarning uzatmalar qutisida blokirovka mexanizmi qo'llanilib, u almashtirib qo'shish mexanizmiga birlashtiriladi va ilashish mustasining boshqarish pedali yoki richagi bilan bog'lanadi (blokirovka qilinadi).

Blokirovka mexanizmi (17.2-rasm) fiksatorlar (5) shiftining ustida joylashgan valik (4) va ilashish mustasining pedali (1) yoki richagiga tortqi vositasida birlashtirilgan richag (2) dan iborat. Uzatmalar qutisining qopqog'idagi chiqiq (3) qa joylashtirilgan valikning uzun o'yig'i (yoki teshiklari) bor. Mustani ajratib, uzatmani almashtirib qo'shganimizda (b holat) fiksator yuqoriga ko'tarilib, uning shifti valikning o'yig'iga kiradi (fiksator prujinasi siqladi).

Ilashish mustasi ajratilmaganda (*a* hotat) fiksatorning yuqorigi uchi valikning o'yilmagan qismiga tiraради. Bunday hoida fiksator ko'tarilmaydi va almashtirib qo'shish sterjeni (6) ni surish, binobarin, uzatmani almashtirib qo'shish mumkin bo'lmaydi.

2-§. Uzatmalar qutisining xillari va burovechi momentni kuchaytirgich


Uzatmalar qutisi yordamida necha turli uzatma hosil qilinsa, u shuncha pog'onali deyiladi. Uzatmalar qutisi qancha ko'p pog'onali bo'lса, motor quvvatidan shuncha to'larоq foydalанiladi, ya'ni traktorning tortish tezlik ko'rsatkichlari shuncha yaxshilanadi. Shuning uchun traktorlarda keyingi vaqtда 8—9 va undan ko'p pog'onali uzatmalar qutisi qo'llanilmoqda.

Uzatmalar qutisi almashtirib qo'shish mexanizmi bilan siljitaladigan karetkalarining soniga qarab ikki, uch va to'rt yo'lli bo'ladi.

Uzatmalar qutisi shesternalarining ilashish sxemasiga qarab bir just shesternasi ilashadigan, to'g'ri uzatmali va bir necha just shesternasi ilashadigan bo'ladi. Harakat uzatuvchi vallarining soniga qarab, ikki, uch va undan ko'p valli, vallarining joylashtirilishiga qarab esa vallari uzunasiga va ko'ndalangiga joylashtirilgan uzatmalar qutisi bo'ladi. Uch pog'onali, ikki yo'lli, bir just shesternasi ilashadigan, vallari uzunasiga joylashtirilgan ikki valli uzatmalar qutisi 17.1-rasmida ko'rsatilgan.

To'g'ri uzatmali uzatmalar qutisi (17.3-rasm, *a*) uchta: yetakchi (1), yetaklanuvchi (4) va oraliq (6) vallardan iborat. Yetakchi val ilashish mustasidan harakatga keltiriladi, uning ketingi uchida enli

shesterna (2) bor. Yetakechi va yetaklanuvchi vallar bir o'q chiziqda turadi.



17.3-rasm. To'g'ri uzatmali (a) va bir necha just shesternali ilashadigan (b) uzatmalar qutisining sxemasi:


1 — yetakechi val; 2, 3, 5, 9, 10 va 11 — shesternalar;
4 — yetaklanuvchi val; 6 va 8 — oraliq val; 7 — karetka

Yetaklanuvchi valning old uchidagi shesterna (3) yetakechi yoki oraliq valning shesternasi bilan ilashadi. Oraliq valning chap tomonidagi shesterna (7) yetakechi valning shesternasi bilan doimiy ilashgan, o'ng tomonidagi shesterna (5) esa yetaklanuvchi valning shesternasi bilan ilashtirilishi mumkin.

Agar yetaklanuvchi valning shesternasini o'ng tomonga siljitib, oraliq valning shesternasiga ilashtirilsa, quyi uzatma qo'shilib, harakat ikki juft shesterna orqali uzatiladi. Yetaklanuvchi valning shesternasi chapga siljitsila uning ichki tishlari yetakechi valning shesternasi bilan ilashib, to'g'ri uzatma qo'shiladi, ya'nii yetakechi va yetaklanuvchi val bir butan bo'lib aylanadi. Bunday holda oraliq val salt aylanadi. To'g'ri uzatmali uzatmalar qutisi, asosan, avtomobilarda va ba'zi traktorlarda qo'llaniladi, ancha ixcham tuzilgan.

Bir necha just shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisi (17.3-rasm, b) ham uchta valdan iborat, ammo uning yetakechi va yetaklanuvchi vali bir o'qqa joylashtirilmagan. Harakat yetakechi val (1) dan shesternalar (2, 11, 10) orqali oraliq val (8) ga, undan esa turli shesternalar orqali yetaklanuvchi val (4) ga uzatiladi. Oraliq valning shlitsasidagi karetkani siljitsib quyi yoki yuqori uzatmani qo'shish mumkin.

Karetka (7) o'ngga siljilib, uning kichik shesternasi yetaklanuvchi valning katta shesternasi (5) ga ilashtirilsa, yuqori uzatma hosil qilinadi, aksineha, karetka (7) ni chapga siljilib, katta shesterna eraliq valning kichik shesternasi (9) ga ilashtirilsa, ikkinchi uzatma hosil bo'ladi. Yetakchi valdag'i shesterna (3) siljilib, yetaklanuvchi valning shesternasi (5) bilan ilashtirilsa, yuqori uzatma hosil bo'ladi. Bunday uzatmalar qutisi birmuncha murakkab tuzilgan bo'lishiga qaramay, ko'p turli uzatma hosil qilish uchun qulay, shu sababli traktorlarda keng qo'llaniladi.




17.4-rasm. Revers mexanizm sxemasi:

1 – ilashish mustasining vali; 2, 4 va 7 – konus shesternalar;
3 – yetakchi val; 5 – richag; 6 – surilma musta

Revers mexanizm. Traktorning oldinga necha turli uzatmada harakat qilsa, ketinga ham shuncha uzatmada harakat qilishga imkon beradigan mexanizmi revers deyiladi. Bir necha juft shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisida (17.3-rasm, б) shesternalar (2, 7) o'rniغا yetakchi valga bitta katta shesterna o'rmatib, bir necha ketinga yurish uzatmasini olish mumkin.

Vallari ko'ndalang joylashtirilgan uzatmalar qutisida maxsus revers mexanizm (17.4-rasm) qo'llaniladi. Bunda harakat ilashish mustasining vali (1) dan konus shesternalar (2, 4 yoki 2, 7) orqali uzatmalar qutisining yetakchi vali (3) ga uzatiladi. Shesterna (2) ilashish mustasining vali

(1) ga mahkamlangan, shesternalar (4, 7) esa val (3) ga erkin o'rnatilgan. Val (3) ning shesternalar o'tasidagi shiitsali qismida surilma musta (6) joylashgan. Bu musta revers richagi (5) bilan o'ngga siljiltsa, konus shesterna (4) ning ichki tishlariga ilashadi, bunda val (3) traktor oldinga yuradigan tomonga aylanadi. Musta (6) chapga siljiltsa, konus shesterna (7) bilan ilashadi, bunda val (3) teskari tomonga aylanadi va traktor barcha uzatmada ketinga yuradi.



17.5-rasm. Uzatmalar qutisining sinxronizatori:

1 va 5 — shesterna; 2 — tishlar; 3 — vilka; 4 — halqa; 6 — yetaklanuvchi val;
7 — prujina halqa; 8 — gupchak; 9 — suxar; 10 — musta; 11 — halqa o'yig'i;
12 — mutta o'yig'i; 13 — gupchak o'yig'i

Sinxronizator. Barcha yengil va ko'pchilik yuk avtomobillarining uzatmalar qutisida qo'llanilib, uzatmalarni zarb va shovqinsiz qo'shishga imkon beradi.

Sinxronizator (17.5-rasm) ikkilamchi (yetaklanuvchi) val (6) shiitsalariga mahkamlangan gupchak (8), uning ustida siljiy oladigan

tishli musta (10), uehta blokirovka suxarlari (9) va ikkita blokirovka halqasi (4) dan iborat.

Suxarlar gupchakning o'yiqlari (13) va halqaning o'yiqlari (11) ga kirdgizilib, mustaning o'yig'i (12) ga kirdgiziladigan prujina halqalar (7) bilan siqib qo'yilgan. Halqa (4) ning o'yiqlari (11) suxar (9) dan sal kengroq qilingan.


Blokirovka halqasining sirtida, shuningdek, shesternalar (1, 5) ning yon tomonida musta (10) ning ichki tishlariga loyiq tishlar (2) qilingan.

Sinxronizator qo'shilmaganida shesterna (5) ikkilamehi valda erkin aylanadi. Uzatmani (masalan, to'g'ri uzatmani) qo'shish uchun tishli musta (8) vilka (5) bilan chapga siljiltiladi. Bunda musta suxarlar (9) ni ham surib, ularni halqa (4) ning o'yig'i (11) ga tiraydi. Halqaning ichki konus sirti shesterna (1) ning o'ng yonidagi sirtqi konus sirtiga tirilib sinxronizatorni ham aylantira boshlaydi.

Suxarlar halqaning o'yig'i (11) dan ensizroq bo'lgani uchun uning aylanish tomoniga tiraladi. Musta (10) tishlari halqa (4) tishlariga tiralib, halqani shesterna (1) ga kuchliroq tiraydi. Ularning konus sirtlari orasida hosil bo'lgan ishqalanish tusayli teziikkali tenglashadi va yon bosim kamayadi. Musta (10) halqa (4) va shesterna (1) tishlari (2) ustida siljib uzatinmani shovqinsiz qo'shadi.

Burovchi momentni kuchaytirgich. Traktorni o'rnidan qo'zg'atgandan keyin tezlatib haydash kerak. Ish vaqtida qishloq xo'jalik mashinalarining traktorga ko'rsatadigan qarshiligi vaqt-vaqt bilan ortishi mumkin. Bunday paytda traktor har qanday uzatmada yurib ketayotganda uzatish sonini va yetakchi g'ildiraklarga uzatiladigan burovchi momentni oshirish uchun ba'zi traktorlarning transmissiyasiga burovchi momentni kuchaytirgich o'matiladi. Bu mexanizm motor quvvatidan to'la foydalanishga imkon beradi va traktor vaqtincha zo'riqib ishlaganda uni to'xtatib, uzatmalarni almashtirib qo'shishga ehtiyoj qolmaydi, natijada traktor aggregatining ish unumi ortadi.

Burovchi momentni kuchaytirgichning (17.6-rasm) yetakchi vali (2) traktor asosiy ilashish mustasining valiga, yetaklanuvchi vali (13) esa uzatmalar quisining yetakchi valiga birlashtirilgan. Bu mexanizmning bir diskli ilashish mustasi qo'shilganda val (13) ning aylanish tezligi kamayadi, burovchi moment esa oshadi. Traktor muvaqqat qarshilikdan o'tib, burovchi momentni kuchaytirishga ehtiyoj qolmaga, uni to'xtatmasdan musta qo'shiladi va bu mexanizmdan foydalanimasdan ishlanadi. Burovchi momentni kuchaytiruvchi mexanizm LT-75 va M F3-80 traktorlarida qo'llaniladi.



17.6-rasm. Burovchi momentni kuchaytirgichning sxemasi:
 1 – boshqarish riebagi; 2 – yetakchi val; 3 – ajratuvchi riebagi;
 4 – prujina; 5 – siquvchi disk; 6 – yetakchi disk; 7 – korpus;
 8 – erkin yo'lli mustaq; 9 – vedlo; 10 – satellit;
 11 – yetaklanuvchi quyosh shesterna;
 12 – yetakchi quyosh shesterna; 13 – yetaklanuvchi val

3-§. Uzatmalar qutisining tuzilishi

Traktor va avtomobillar uzatmalar qutisining tuzilishi bilan tanishtirish uchun har qaysi tipidan birortasini ko'rib o'tamiz.

Bir juft shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisining tuzilishi (17.7-rasm). AT-75 traktorlariga bir juft shesternasi ilashadigan to'rt yo'lli, besh pog'onali uzatmalar qutisi o'rnatilib, oldinga yurish uchun beshta uzatmasi va ketinga yurish uchun bir uzatmasi bor. Uzatmalar qutisi cho'yan korpus (19), korpus qopqog'i, to'rtta: yetakchi (12), yetaklanuvchi (13), oraliq (24) va ketinga yurish (16) vallari, turli uzatmalar hesil qilinadigan shesternalar, almashtirib qo'shish mexanizmi va blokirovka mexanizmi (2) dan iborat.

Uzatmalar qutisi korpusining old tomoni traktor ramasining ketingi ko'ndalang brusiga tiralib, orqa tomoni ketingi ko'priq korpusiga mahkamlanadi. Uzatmalar qutisi yetaklanuvchi valining ketingi podshipnigi rofikli bo'lib, qutining boshqa barcha podshipniklari shariklidir. Yetakchi valning oldingi uchi oraliq birikma vositasida ilashish mustasiga tutashtiriladi. Yetaklanuvchi val (13) qutining korpusidan chiqarilgan konus shesterna bilan birga yasalgan.

Yetakehi val (12) shlitsalarida ikkinchi va uchinchini uzatma shesternalarining karetkasi (5), birinchi va to'rtinchi uzatma shesternalarining karetkasi (10) almashtirib qo'shish vilkalari (6, 7) bilan siljilishi mumkin. Bu valning oldingi uchiga ketinga yurish vali (11) ning shesternasi (23) bilan doimo ilashgan shesterna (3) o'rnatilgan.


Yetakianuvchi val (13) ning shlitsalariga ikkinchi (18), beshinchi (17), uchinchi (16), to'rtinchi (15) va birinchi (14) uzatmalar shesternasi kiygililgan.

Ketinga yurish vali (11) ning shlitsalariga surilmaydigan shesterna (23) va vilka (9) bilan siljiladigan shesterna (8) o'rnatilgan. Bu valning qutidan chiqarilgan shlitsali uchiga quvvat olish valining mustasi o'rnatilishi mumkin.

Birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi uzatmalarda harakat yetakehi valdan yetaklanuvchi valga bir just, beshinchi uzatmada uch just, ketinga yurishda esa ikki just shesterna orqali uzatiladi. Beshinchi uzatmada harakat yetakehi valdan ketinga yurish valiga, bundan oraliq valga, oraliq valdan esa yetaklanuvchi valga uzatiladi. Beshinchi uzatmani qo'shish uchun oraliq val (24) karetkasi (25) tebranuvchi vilka (4) bilan surilib, tishli musta qo'shiladi, xolos, chunki boshqa vallarning shesternalari (3, 23, 27) doimo qo'shilgan holda turadi. Ketinga yurgizishda harakat yetakehi valdan doimiy ilashgan shesternalar orqali ketinga yurish valiga, uning karetkali shesternasidan esa yetaklanuvchi valga uzatiladi.

Oraliq valning oldingi shesternasi, moy sachratadigan shesterna (26) bilan ham doimo ilashgan, bu shesterna oraliq val shesternasidan pastga joylashtirilgan kalta o'qda aylanadi va traktor statsionar ishlaganda quti shesternalariga moy chiqaradi.

Uzatmalar qutisining almashtirib qo'shish va blokirovka mexanizmlari sharnir tayanchili rizchag (1), vilka (6, 7, 8) li uchta sterjen (20, 21, 22) dan iborat bo'lib, yuqorida bayon etilgan sxemada ishlaydi. Uzatmalar qutisining turli uzatmalarda ishlash sxemasi 17.8-rasmda keltirilgan.




17.7-rasm. Bir juft shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisining (UT-75) tuzilishi:

1 — boshqarish richagi; 2 — blokirovka mexanizmining valigi; 3 — yetakchi valning doimo ilashgan shesternasi; 4 — V uzatmani qo'shuvchi vilka; 5 — yetakchi valdag'i II va III uzatma shesternalarining karetkasi; 6 — II va III uzatmani qo'shuvchi vilka; 7 — I va IV uzatmani qo'shuvchi vilka; 8 — ketinga yurish shesternasining karetkasi; 9 — ketinga yurish uzatmasini qo'shuvchi vilka; 10 — yetakchi valdag'i I va IV uzatma karetkasi; 11 — ketingi yurish vali, 12 — yetakchi val; 13 — yetaklanuvchi val; 14 — yetaklanuvchi valdag'i I uzatma shesternasi; 15 — yetaklanuvchi valdag'i IV uzatma shesternasi; 16 — yetaklanuvchi valdag'i III uzatma shesternasi; 17 — yetaklanuvchi valdag'i V uzatma shesternasi; 18 — yetaklanuvchi valdag'i II uzatma shesternasi; 19 — korpus; 20, 21 va 22 — almashtirib qo'shuvchi sterjen; 23 — ketinga yurgizish valining doimo ilashgan shesternasi; 24 — oraliq val; 25 — oraliq valning V uzatma karetkasi; 26 — moy sachratadigan shesterna; 27 — oraliq valning doimo ilashgan shesternasi.

To'g'ri uzatmali uzatmalar qutisining tuzilishi (ГАЗ-51А). Bu uch yo'lli, to'rt bosqichli, bir juft shesternasi donmo ilashgan holda turadigan uzatmalar qutisi bo'lib, avtomobilarda ko'p qo'llaniladi (17.9-rasm). Uzatmalar qutisining korpusi (20) ilashish mustasining karteriga boltlar bilan mahkamlanadi.

Uzatmalar qutisining uchta: birlamchi (yetakchi), ikkilamchi (yetaklanuvchi) va oraliq vali bor.




17.8-rasm. Bir juft shesternasi ilashdigan uzatmalar qutisining (IT-75) turli uzatmalarida ishlash sxemasi (raqamlar 17.7-rasmdagilarga mos keladi)

Birlamchi vali (25) doimiy ilashgan shesterna (26) bilan yaxlit yasalgan, uning oldindi uchi tirsakli valning toresiga presslangan sharikli podshipnikda, ketingi uchi esa uzatmalar qutisining korpusidagi sharikli podshipnikda aylanadi. Birlamchi valning oldindi uchidagi shlitsalariga ilashish mustasining yetaklanuvchi diskni o'rnatilgan.

Ikkilamchi val (17) ning oldindi uchi birlamchi valning o'yig'idagi rolikli podshipnikda, ketingi uchi esa quti korpusining (9) devoridagi sharikli podshipnikda aylanadi. Shesternalar bloki oraliq val sifatida ishlab, o'q (18) dagi ikkita rolikli podshipnikda aylanadi.

Ikkilamchi val shlitsasida I - II uzatma shesternalari (7, 9) karetkasi va III-V uzatmalar shesternasi karetkasi (24) bor. Oraliq val (18)



17.9-rasm. To'g'ri uzatmali uzatmalar qutisining (UAZ-51A) tuzilishi:
1 — boshqarish richagi; 2 — ketinga yurgizish saqlagichi; 3 — III va IV uzatma vilkasi, 4 — I va II uzatma vilkasi; 5 va 6 — I-II va III-VI uzatmalar vilkasi; 7 va 9 — II va I uzatma shesternasi; 8 — qopqoq; 10 — ketinga yurgizish uzatmasini qo'shuvchi vilka; 11 — vilka povodogi; 12 — ketinga yurgizish uzatmasini qo'shuvchi valtik; 13 — vilka o'qi; 14 — ketinga yurgizish karetkasining o'qi; 15 va 16 — ketinga yurgizish shesternasi; 17 — ikkilamchi val; 18 — oraliq val (o'q); 19, 21 va 22 — I, II va III uzatmalar shesternasi; 20 — quti korpusi; 23 — doimo ilashgan shesterna; 24 — III -- IV uzatma karetkasi; 25 — birlamchi val; 26 — birlamchi val shesternasi; 27 — fiksator

shesternalari bloki to'rtta (19, 21, 22, 23) shesternadan iborat. 1 — II va III uzatmada harakat birlamchi valdan shesternalar (26, 25) orqali oraliq valga, bundan esa ikkilamchi valga uzatiladi. IV to'g'ri uzatma hosil etish uchun ikkilamchi valdag'i karetka (24) ning ichki tishli shesternasini birlamchi val shesternasining uchidagi yo'nilgan o'yig'iga ilashtiriladi. Bunda birlamchi va ikkilamchi val yaxlit bo'lib aylanadi. Ketinga yurgizish uchun alohida o'q (14) qa o'rnatilgan ikkita shesterna (15, 16) li karetka bor.

Almashtirib qo'shish mexanizmi richag (1), uchta sirpanuvchi sterjen (5, 6, 12) va uchta vilka (3, 4, 10) dan iborat. Ketinga yurish vilkasi povodok (11) orqali harakatga keltiriladi. Sterjenlarga fiksatorlar (27) va qulflar o'rnatilgan. Ketinga yurish vilkasi o'q (13) qa o'rnatilgan. Ketinga yurish uzatmasi richagning alohida ilgagini ko'tarib qo'shiladi. Buning uchun richagning past uchida maxsus saqlagichi (2) bor.

Almashtirib qo'shish mexanizmi uzatmalar qutisining qopqog'i (8) ga joylashtirilgan.

Bu uzatmalar qutisida turli uzatmalarda quyidagi shesternalar orqali harakat birlamchi val (25) dan ikkilamchi val (17) ga o'tadi, chunonchi: I uzatmada shesternalar (26 – 23 – 19 – 9) orqali; II uzatmada shesternalar (26 – 23 – 21 – 7) orqali; III uzatmada shesternalar (26 – 23 – 22 – 24) orqali o'tadi; IV uzatmada shesterna (24) ning bir qismi shesterna (26) ichiga kengizilib, birlamchi va ikkilamchi val bir yaxlit singari ishlaydi. Ketinga yurgizish uchun harakat shesternalar (26 – 23 – 19) orqali ketinga yurgizish shesternasi (15) ga va u bilan birga yasalgan shesterna (16) dan shesterna (9) ga o'tadi. Quti neytral holda turganda ham birlamchi (25) va oraliq (18) vallar aylanib turadi.


Bir necha juft shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisining tuzilishini TT3-100K.11 traktori misolda ko'rib o'tamiz. Bu quti vositasida traktor yetti xil uzatmada oldinga va uch xil uzatmada ketinga harakat qila oladi. Uzatmalar qutisi shesternalari orqali traktorning quvvat olish vali mustaqil va nomustaqlar harakatga keltiriladi.

Qutining yozib ko'rsatilgan kesmasi 17.10-rasmida keltirilgan. Ilashish mustasi validan harakat oladigan yetakchi val (13) ga quvvat olish valini nomustaqlar harakatga keltiruvchi shesterna (1), ketinga yurgizish va V uzatma shesternalari (16, 17), uchinchi pog'onali reduktoring mustasi (14) hamda birinchi va ikkinchi pog'onali reduktor shesternasining karetkasi (12) o'rnatilgan. Musta va karetka val ustida siljiy oladi.

Quvvat olish valini mustaqil harakatga keltiruvchi shesterna (2) ning trubasimon vali (3) ilashish mustasi korpusiga bog'langan. Oraliq val (5) ga I, II va V uzatma shesternasi (4), III, IV, V va ketinga yurgizish shesternasi (7), ikkinchi pog'onali reduktor shesternasi (9) va birinchi pog'onali reduktor shesternasi (11) o'rnatilgan. By shesternalar val bilan birga aylanib, uning ustida surilmaydi.

Yetaklanuvchi val (10) shlitsalariga I, II, V uzatma va ketinga yurgizish shesternasining karetkasi (6) hamda III, IV va VI, VII uzatmalar shesternasining karetkasi (8) kengizilib bu karetkalar val ustida siljiy oladi. Yetaklanuvchi val asosiy uzatmaning yetakchi konus shesternasi bilan birga yasalgan.

Uzatmalar qutisida faqat yetaklanuvchi valining ketingi uchi silindrik rolikli podshipnikda aylanib, uning oldingi uchi va boshqa barcha vallari sharikli podshipnikda aylanadi. Uzatmalar qutisining almashtirib qo'shish mexanizmi quti qopqog'iga joylashtirilib, ikkita rinchag bilan



17.10-rasm. Bir necha juft shesternasi ilashadigan uzatmalar qutisining tuzilishi (TT3-100 K.11):

- 1 — quvvat olish valining nomustaql barakatga keltiruvchi shesternasi;
- 2 — quvvat olish valining mustaql harakatga keltiruvchi shesternasi;
- 3 — quvursimon val; 4 — I, II, III uzatmalar shesternasi; 5 — oraliq val;
- 6 — I, II, V uzatma va orqaga yurgizish shesternasi; 7 — III, IV, V uzatma va orqaga yurgizish shesternasi; 8 — III, IV va VI, VII uzatmalar shesternasining karetkasi; 9 — ikkinchi pog'onali reduktor shesternasi;
- 10 — yetaklanuvchi val; 11 — birinchi pog'onali reduktor shesternasi;
- 12 — birinchi va ikkinchi pog'onali reduktor shesternasining karetkasi;
- 13 — yetakchi val; 14 — uchinchi pog'onali reduktorning tishli muftasi;
- 15 — quvvat olish vali; 16 — V uzatma va orqaga yurish shesternasi;
- 17 — ketinga yurgizish shesternasi; 18 — quvvat olish valining yetaklanuvchi shesternasi.

boshqariladi. Tegishli uzatmalar oldin o'ng tomondagi richag bilan yetakchi valdag'i reduktorlar karetkasini, keyin chap tomondagi richag bilan yetaklanuvchi valdag'i shesternalar karetkasini surib qo'shiladi. Quvvat olish valining shesternalari alohida richag bilan boshqariladi. Uzatmalar qutisi traktor transmissiya korpusining oldindi xonasiga joylashtirilgan. Yetaklanuvchi va oraliq vallar deyarli yonma-yon o'matilib, ularning ikkalasi ostida (o'tasida) yetakchi val turadi. Yetakchi val ostiga quvvat olish vali joylashtirilgan.

Turli uzatmalar qo'shilganda quyidagi shesternalar ilashib, harakat yetakchi val (13) dan yetaklanuvchi val (10) ga o'tadi: I uzatmada shesternalar (12 - 11 - 4 - 6) orqali, II uzatmada shesternalar (12 - 9 - 4 - 6) orqali, III uzatmada shesternalar (12 - 11 - 7 - 8) orqali, IV uzatmada shesternalar (12 - 9 - 7 - 8) orqali, V uzatmada shesternalar (14 - 16 - 7 - 4 - 6) orqali, VI uzatmada shesternalar (12 - 11 - 9 - 8) orqali, VII uzatmada shesternalar (12 - 9 - 8) orqali o'tadi.

Traktorni ketinga yurgizish uchun quyidagi shesternalarni ilashtirish kerak: I ketinga yurgizish uzatmasida shesternalar (12 - 11 - 7 - 16 - 17 - 6) ni, II ketinga yurgizish uzatmasida shesternalar (12 - 9 - 7 - 16 - 17 - 6) ni, III ketinga yurgizish uzatmasida shesternalar (14 - 16 - 17 - 6) ni ilashtirish kerak.


Quvvat olish vali (15) ga mustaqil harakat uzatish uchun uning yetaklanuvchi shesternasi (18) ni shesterna (2) ga, nomustaqil (ilashish muftasi orqali) harakatga keltirish uchun unga shesterna (1) ni ilashtirish kerak. Zavod yo'riqnomasiga muvofiq VII uzatmani qo'shish man etiladi.

4-\$. Tarqatish qutisi

Oldindi yo'naltiruvchi g'ildiraklari yetakchi avtomobilarga va traktorlarga uzatmalar qutisidan tashqari (uning keyiniga) harakat tarqatish qutisi o'rnatiladi. Bu quti aylanma harakatni faqat ketingi ke'priksa yoki ham ketingi, ham oldindi ko'priksa, yoxud ketingi va oldindi ko'priklarga sekinlashtirib (tortish kuchini oshirib) o'tkazishi mumkin.

FAZ-69 avtomobilining *tarqatish qutisi* (17.11-rasm) karter (9), uning ichiga joylashtirilgan to'rtta: yetakchi (2), oraliq (5), ketingi ko'priksa harakat uzatuvchi (6) va oldindi ko'priksa harakat uzatuvchi (11) vallardan iborat. Yetakchi val shlitsalariga shesterna (1) o'rnatilgan. Oraliq valga sekinlashtiruvchi uzatma shesternasi (4) hamda ketingi va oldindi ko'priklarga harakat uzatuvchi shesternalar bilan doimiy ilashgan shesterna (3) o'rnatilgan.

Yetakehi val uzatmalar qutisidan harakatga keltiriladi. Shesterna (7) chapga surilib, shesterna (8) ning gardishi bilan ilashdirilsa, to'g'ri uzatma qo'shiladi; tishli mufta (10) chapga surilib, uning ichki tishi val (11) gardishi bilan ilashdirilsa, oldindi ko'prikkha ham harakat uzatiladi; shesterna (7) o'ngga surilib, shesterna (4) bilan ilashdirilsa, sekinalashtiruvchi uzatma qo'shiladi. Tarqatish qutisini boshqarish uchun haydovechi kabinasida ikkita richag bor. Tarqatish qutisining qo'shish (blokirovka) mexanizmi shunday tuzilganki, oldindi ko'prikkha harakat uzatilmagan holda, sekinalashtiruvchi uzatmani qo'shib bo'lmaydi. Bu ketingi ko'prik mexanizmlarini zo'r qib ishlashdan saqlaydi.



17.11-rasm Tarqatish qutisi:

- 1 — yetakehi shesterna; 2 — yetakehi shesterna vali; 3 — oraliq val shesternasi; 4 — sekinalashtiruvchi uzatmaning yetakehi shesternasi;
- 5 — oraliq val; 6 — ketingi ko'prikkha harakat uzatuvchi val;
- 7 — ketingi ko'prikkha sekinalashtiruvchi uzatmani qo'shevchi shesterna;
- 8 — yetaklanuvchi shesterna; 9 — karter; 10 — oldindi ko'priknii qo'shuvchi mufta; 11 — oldindi ko'priknii qo'shuvchi val

5-§. Uzatmalar qutisidan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish

Traktor va avtomobil uzatmalar qutisining uzoq muddat bekam-u ko'st ishlashi undan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish qoidalariga to'la rioya qilishga bog'liq.

Uzatmalarni qo'shish, ajratish va almashtirishdan oldin ilashish muftasini to'la ajratish, traktorlarni esa almashtirib qo'shish oldidan batamom to'xtatish lozim. Uzatmalar qutisi richagini siltamasdan osoyishta surish va mustani ravon qo'shib, traktorni asta-sekin o'rnidan qo'zg'atish zarur. Avtomobil yurib ketayotganda uzatmalarni almash-tirib qo'shishda vallarining aylanishlarini tenglab, keyin qo'shish kerak.

Uzatmalar qutisiga texnik xizmat ko'rsatish moyining sathini tekshirib, zarur bo'lsa moy qo'shish, texnik xizmat ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan muddatlarda moyini almashtirish, bo'shashgan qismilarini mahkamlash va yegilgan detallari o'rniغا yangisini qo'yishdan iborat.

Uzatmalar qutisi ortiqcha qizisa, shovqin bilan ishlasa, uzatmalar qiyinlik bilan qo'shilsa yoki o'z-o'zicha chiqib ketsa, uni qismlarga ajratib, kamchilikni yo'qotish zarur. Traktor va avtomobilarning uzatmalar qutisi avtotraktor transmissiya moyi (yoki motor moyi) bilan moyolanadi. Moyni almashtirishda karterni dizel yonilg'isi yoki kerosin bilan yuvib, keyin yangi moy quyish kerak. Moy sathi nazorat tiqini yoki o'lhash chizg'ichi bilan tekshiriladi. Burevchi momentni kuchay-tirgich o'rnatilgan traktorlarda reduktorni moylash, ilashish mustasini moy tegishdan saqlash, ajratuvchi musta podshipniklarini moylash hamda ilashish mustasini tegishli usulda rostlash lozim.

Nazorat savollari

1. *Uzatmalar qutisining vazifasi va ishslash prinsipini tushuntirib bering.*
2. *Uzatmalar qutisining almashtirib qo'shish va blokirovka qilish mexanizmi nima uchun kerak va u qanday ishlaydi?*
3. *Uzatmalar qutisining xillari, tuzilishi va ishslashini tushuntirib bering.*
4. *Revers mexanizm va sinxronizatorning tuzilishi va ishlatilishini bayon qiling.*
5. *Burovchi momentni kuchaytirgichning vazifasi, tuzilishi va ishslashini tushuntirib bering.*
6. *MT-75 va TT3-100K.11 markali traktorlarning hamda TA3-53 avtomobilining uzatmalar qutisi qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?*
7. *Targatish qutisi nima uchun kerak?*
8. *Uzatmalar qutisidan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish qoidalari nimadan iborat?*

I-§. Avtomobilarning kardan uzatması


Avtomobilarda uzatmalar qutisi ramaga mahkamlangan, undan aylanma harakat oluvebi asosiy uzatma esa ketingi ko'priq korpusiga joylashtirilgan. Ketingi ko'priq ramaga ressorlar vositasida o'rnatilib, uzatmalar qutisidan narida joylashtirilgan. Ketingi ko'priknning yetakechi vali uzatmalar qutisining ikkilamechi valiga nisbatan pastroqda joylashtirilgan va ish vaqtida uning turish holati o'zgarishi mumkin. Shuning uchun aylanma harakat ikkilamchi valdan ketingi ko'priknning yetakechi valiga kardan uzatma vositasida uzatildi. Bir va bir necha kardandan iborat kardan uzatmalar qo'llaniladi.

Yuk avtomobilining *kardan uzatmasi* (18.1-rasm) ikkita: oraliq (1) va asosiy (4) kardan val hamda uchta kardan sharnirdan iborat. Oraliq kardan vai sharnirining vilkasi uzatmalar qutisining ikkilamchi valiga biriktirilgan.

Kardan sharnirlar kardan valning oldingi uchini oraliq valga, ketingi uchini esa flanes (5) orqali asosiy uzatmaga birlashtiradi. Kardan sharnirining bir-biriga nisbatan to'g'ri burchak hosil qiladigan va krestovina (14) bilan bog'langan ikkita vilkasi (7) bor. Vilkalar bilan krestovinaning shiplari orasiga ninasimon podshipnik o'rnatilgan. Sharnirlar podshipnigi moydon (8, 13) lar orqali moylanib, ularga salnik (6) joylashtirilgan. Salniklarning saqlagich klapani (15) bor.

Kardanlarning oraliq tayanchi sharikli podshipnikka o'rnatilib, bu podshipnik elastik rezina yostiq (10) qa joylashtirilgan. Sharikli podshipnik moy tutib turuvchi qaytargich shaybalar (11, 12) bilan to'silgan. Oraliq valning ketingi shlitsali uchiga o'rta kardanning vilkasi kirgizilgan. Shlitsali birikma namat halqa va rezina salnik (3) bilan zichlanib, qaytaruvchi halqa (2) va gardish (9) o'rnatilgan.

Kardan vallarning ikkalasi ham yengil va mustahkam bo'lishi uchun yupqa po'lat quvurdan yasalgan. Kardan sharnirlarning uchalasi bir xit tuzilgan. Ressorlar egilib-to'g'rilanib, kardan val o'z o'qi bo'yicha siljiganda ham oraliq valning uchligi shlitsali vtulkada siljib, kardanning normal ishlashini ta'minlaydi.



18.1-rasm. Yuk avtomobilining asosiy va oraliq kardan vallari:

1 — oraliq kardan val; 2 — qaytaruvchi halqa; 3 — rezina salnik;
 4 — asosiy kardan val; 5 — flanes; 6 — salnik; 7 — vilka; 8 va 13 — moydon;
 9 — gardish; 10 — rezina yostiq; 11 va 12 — qaytargich shayba;
 14 — krestovina; 15 — saqlagich klapan

Oldingi g'ildiraklari ham yetakchi bo'lgan avtomobilarning kardan uzatmasi (16.2-rasm, b) uchta: uzatmalar qutisini tarqatish qutisiga, tarqatish qutisini esa ketingi va oldingi ko'priklarga birlashtiruvchi kardan vallardan hamda vallarning uchidagi kardan sharnirlardan iborat.

Kardan uzatmaga texnik xizmat ko'rsatish bo'shashgan boltlarni tortish, sharnirlarning nina podshipniklarini va shlitsali birikmalarni moylash jadvaliga muvosiq vaqtiga vaqtiga bilan moylashdan iborat. Ba'zi kardanlarda vilka va shlitsalar moylanmaydi.

Salnik va g'iloflarning bekam-u ko'stligi tekshiriladi. Kardan valni yig'ishda quvurdagi va vilkadagi belgilarning bir-biriga ro'para kelishiga e'tibor berish lozim.

2-§. Traktor va avtomobilarning asosiy uzatmalar


Asosiy uzatma traktor yoki avtomobilning uzunasiga joylashtirilgan uzatmalar qutisi yoki kardan validan ularning ko'ndalangiga joylashtirilgan ketingi ko'prik vallariga harakat uzatadi, shuningdek, aylanish tezligini pasaytirib, tortish kuchini (burovchi momentni) oshiradi.

Traktor va avtomobilarda shesternali asosiy uzatmalar qo'llaniladi. Necha just shesterna orqali harakat uzatilishiga qarab bir just va ikki just shesternali asosiy uzatmalar bo'ldi.

Traktorlarning asosiy uzatmasi (18.2-rasm) uzatmalar qutisining yetaklanuvchi vali (1) bilan yaxlit yasalgan yetakechi kichik konus shesterna (3) va g'ildirakli traktorlarda differensial (6) orqali yarim o'qlar (5) ga, o'rmalovchi zanjirli traktorlarda esa boshqarish mustalarining yetakechi vali (8) ga harakat uzatadigan yetaklanuvchi katta konus shesterna (4) dan iborat.


Konus shesternalar ishlaganda o'q bo'ylab yo'nalgan kuchlarga bardosh berishi uchun yetaklanuvchi shesterna vallari konus tolilikli pooshipnikda turadi. Konus shesternalarning tishlashishi va konus podshipniklarning tirqishi qistirmalar (7) va podshipniklarning uyasiga buralgan gaykalar (9) bilan rostlanadi. Shesternalar tishlarining orasidagi tirqishni rostlashda ikkilamchi val podshipnigi flanesining ostidagi qistirmalar (2) soni o'zgartiriladi.

Uzatmalar qutisining vallari ko'ndalang joylashtirilgan g'ildirakli traktorlarda asosiy uzatma ilashish mustasidan uzatmalar qutisiga harakat uzatadigan revers mexanizmli bir just konus shesterna va uzatmalar qutisidan differensialga harakat uzatadigan bir just silindrik shesternadan iborat.



18.2-rasm. Traktoring asosiy uzatmalar:

- a -- g'ildirakli; b -- o'rmalovchi zanjirli traktorlar; 1 -- uzatmalar qutisining yetaklanuvchi vali; 2 va 7 -- qistirma; 3 -- yetakechi konus shesterna; 4 -- yetaklanuvchi konus shesterna; 5 -- yarim o'q; 6 -- differensial; 8 -- boshqarish mustalarining yetakechi vali; 9 -- rostlash gaykasi



18.3-rasm. Avtomobil asosiy uzatmalari:

a -- bir juft shesternali; *b* -- ikki juft shesternali; 1 -- yetakechi ko'rus shesterna; 2 -- yetaklanuvchi konus shesterna; 3 -- kichik silindrik shesterna; 4 -- katta silindrik shesterna; 5 -- differensial

Avtomobillarning bir juft shesternali asosiy uzatmasi (18.3-rasm, *a*) kardan valning (ketingi uchidagi sharnirli mexanizmga biriktirilgan yetakchi val bilan yaxlit yasalgan yetakechi kichik konus shesterna (1) va differensial (5) qutisiga harakat uzatadigan yetaklanuvchi katta konus shesterna (2) dan iborat.

Konus shesternalar spiral tishli yoki gipoid uzatmali qilingadi.


Ikki juft shesternali asosiy uzatmada (18.3-rasm, *b*) harakat kardan valdan differensial qutisiga bir juft konus (1, 2) va bir juft silindrik (3, 4) shesternalar orqali uzatilib, bunda ham shesternalarining yetakchisi kichik, yetaklanuvchisi esa katta qilingan. Katta silindrik shesterna gupchagiga differensial (5) joylashtirilgan. Harakat kichik shesternalardan kattasiga uzatilganligi sababli transmissiyaning uzatish soni ortadi.

3-§. Traktor va avtomobillarning differensiali

G'ildiraklı traktor yoki avtomobil to'g'ri yo'ldan yurganda ikkala yetakechi g'ildiragi baravar aylanadi. Notekis yo'ldan yurganda, shuningdek, burlishlarda yetakechi g'ildiraklar turli tezlikda aylanishi lozim, aks holda g'ildiraklar yerda sirpanib g'ildirab quvvat nobud bo'ladi va shinalar tez yeyiladi. Yetakechi g'ildiraklar turli tezlikda aylana olishi uchun asosiy uzatmadan g'ildiraklarga harakat uzatadigan ko'ndalang val ikki bo'lakdan — yarim o'qlardan* iborat bo'lib, ular bir-biriga differensial orqali biriktiriladi.

* Yarim o'q shartli olingan, ma'nova jihatdan yarim val deyish to'g'ri bo'ladi.

Differensial (18.4-rasm) traktor yoki avtomobil to'g'ri yurganda yetakchi g'ildiraklarning bir xil tezlikda, burliganda esa turli tezlikda aylanishini ta'minlaydi.



18.4-rasm. Differensialning tuzilish sxemasi:

1 va 10 — yarim o'qlar; 2 — differensial qutisi; 3 va 5 — yarim o'q shesternalari; 4 — satellitlar o'qi; 6 — yetaklanuvchi konus shesterna; 7 — yetakchi konus shesterna; 8 — asosiy uzatma vali; 9 va 13 — tormoz; 11 — konus shesterna; 12 — kulachokli mufta

Differensial asosiy uzatmaning vali (8) dagi yetakchi shesterna (7) bilan tishlashgan yetaklanuvchi shesternasi (6) ga mahkamlangan. Differensial qutisi (2) va uning ichiga joylashtirilgan satellitlar (yoki krestovina) o'qi (4), 2—4 ta konus shesternalar (satellitlar) (11) va ikkita yarim o'qlar (1, 10) ning shesternalari (3, 5) dan iborat.

Krestovina differensial qutisi bilan birga aylanadi. Satellitlar krestovinada ravon aylana oladigan qilib o'rnatiladi, yarim o'qlar shesternasi bilan doimiy tishlashgan.

Traktor yoki avtomobil to'g'ri yo'ldan yurganda o'ng va chap g'ildiragi bir turli qarshilikka duch keladi. Bunda differensial qutisi, satellitlar bilan birga krestovina, yarim o'qlar shesternasi va yetakchi konus shesterna yaxlit aylanadi, ya'ni satellitlar o'z o'qi atrofida (krestovinada) aylanmasdan, yarim o'qlar shesternasi orasida pona singari turadi.

Traktor yoki avtomobil burliganda, shuningdek, ularning yetakchi g'ildiraklaridan birortasi kattaroq qarshilikka duch kelganda satellitlarning muvozanat holati buzikadi va ular o'z o'qi atrofida, ya'ni sekin aylanayotgan yarim o'q shesternasi ustida g'ildirab aylana boshlaydi. Satellitning o'z o'qi atrofida aylanishi ikkinchi g'ildirak yarim o'qi shesternasining aylanish yo'nalishi bilan qo'shiladi. Bunday holda

burilmayotgan tomondagi g'ildirak differensial qutisi bilan birga aylanishdan tashqari, satellitning qo'shimcha aylantirishi hisobiga tezroq aylantiriladi. Agar biror g'ildirak tormoz (9 yoki 13) bilan tormozlansa yoki qattiq yerda turib qelsa boshqasi to'g'ri yurgandagi tezligiga nisbatan ikki baravar tezroq aylanadi.

Differensialni blokirovka qilish. G'ildirakli traktor va avtomobilning burilishi uchun zarur bo'lgan differensial ba'zan ularning yomon yo'llardan o'tib ketishiga xalal beradi.


G'ildiraklarning bittasi qattiq yerda turib, ikkinchisi yumshoq yerda (qumida, loyda) turib qolib o'z joyida g'ildiray boshlaganda differensialni blokirovka qilish zarur bo'ladi.

Blokirovka mexanizmi maxsus rinchag yoki pedal bilan boshqarilib, kulachokli musta (12) differensial korpusi (2) ga qo'shib, differensialni ishlamaydigan qilib qo'yadi. Shunda yarim o'qlar yaxlit val singari aylanib qattiq yerda turgan g'ildirak ham aylana boshlab, traktor yuriq ketadi. Traktorni to'ppa-to'g'ri yuritish uchun ham differensial blokirovka qilinadi. Oldingi g'ildiraklari ham yetakchi qilingan ba'zi traktorlarda va avtomobilarda avtomat ravishda blokirovka qilinadigan differensial o'rnatiladi. Mashina og'ir sharoitga tushganda differensial o'z-o'zicha blokirovka qilinadi.

4-\$. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning burish mexanizmi

O'rmalovchi zanjirli traktorni burish uchun uning ketingi ko'prigiga asosiy va oxirgi uzatmalar oraliq'iga har qaysi o'rmalovchi zanjir uchun alohida burish mexanizmi o'rnatiladi. Traktorni qaysi tomonga burish kerak bo'lsa, o'sha tomondagi o'rmalovchi zanjiriga harakat uzatilmaydi. Ko'pchilik traktorlarda friksion boshqarish mustalar, ba'zilarida esa, planetar beshqarish mexanizmlari qo'llanilmoqda. Ba'zi maxsus traktorlarda elektr magnit mustalar ham qo'llaniladi.

Boshqarish mustasi (18.5-rasm) multasili qo'shiigan ke'p diskli quruq ilashish mustasi bo'lib, asosiy uzatma yetaklanuvchi shesternasi (10) ning vali (11) ga mahkamlangan yetakchi baraban (6), yetaklanuvchi baraban (5), barabanlar orasiga joylashtirilgan yetakchi (12) va yetaklanuvchi (13) disklar hamda siquvchi tarelka (7) dan iborat. Yetaklanuvchi baraban flanesi (2) oxirgi uzatmaning yetakchi shesternasi (1) ga mahkamlangan. Siquvchi tarelkaning shpilka (3) lariga prujinalar (4) o'rnatilgan.



18.5-rasm. Frikcion boshqarish mustasining sxemasi:

1 — oxirgi uzatmaning yetakchi shesternasi; 2 — yetaklanuvchi baraban flanesi; 3 — shpilka; 4 — prujina; 5 — yetaklanuvchi baraban; 6 — yetakechi baraban; 7 — siquvchi tarelka; 8 — ajratuvchi richag; 9 — chetlagich; 10 — asosiy uzatmaning yetaklanuvchi konus shesternasi; 11 — val; 12 — yetakechi disk; 13 — yetaklanuvchi disk; 14 — tasmali tormoz; 15, 19 va 21 — oraliq richaglar; 16 va 20 — tortqi; 17 — tormoz pedali; 18 — boshqarish richagi

Yetakechi baraban (6) ning sirtiga tishlar chiqarilgan, yetakechi po'lat disklar (12) ning ich tomenida yetakechi baraban tishlariga kirib turadigan tishlari bor. Yetaklanuvchi baraban (5) ning ichki yuzasi ham tishli qilib ishlangan. Ikki tomoniga raybest qoplama qoqlig'an yetaklanuvchi po'lat disklar (13) ning aylana sirtida yetaklanuvchi baraban tishlariga kirib turadigan tishlari bor.

Yetakechi va yetaklanuvchi disklar birining orasiga ikkinchisi kirib turadigan qilib yig'ilgan. Siquvchi tarelkaning shpilkalarida siqilgan holda turadigan prujinalar disklarni yetakechi barabanning flanesi bilan siquvchi tarelka orasida qisadi. Bunday holda musta qo'shilgan bo'ladi va hirakat asosiy uzamoya validan oxirgi uzatmaga yetakechi baraban,

yetakechi disk, yetaklanuvchi disk va yetaklanuvchi baraban orqali uzatiladi. Sxemada traktorning chap tomonidagi boshqarish muftasi ko'rsatilgan, o'ng tomonida ham xuddi shunday mufta bo'ladi.


Siquvchi tarelka boshqarish richagi (18), oraliq richaglar (19, 21), tortqi (20) va vilkali ajratuvchi richag (8) hamda ajratgich (9) vositasida o'ingga siljitimdan prujinalar siqilib, yetakechi baraban flanesi bilan siquvchi tarelka orasidagi oraliq kengayadi va disklar bir-biriga siqilmaydi, ya'ni mufta ajraladi. Bunday holda gusenitsa harakati sekinlashadi yoki to'xtaydi.

Yetaklanuvchi baraban ustiga tasmali tormoz (14) o'rnatilgan. Tormoz pedal (17), oraliq richag (15) va tortqi (16) bilan boshqariladi. O'rmalovchi zanjirmi batamom to'xtatib, traktorni keskin burish uchun dastlab richag tortilib boshqarish muftasi ajratiladi, keyin pedal bosilib yetaklanuvchi baraban tormozlanadi. Tormoz traktorni tepalikdan tushirishda va qiya yerlarda to'xtatib qo'yishda ham ishlataladi. Agar ikkala richag baravar tortilsa, traktor to'xtaydi. Katta traktorlarda boshqarish muftalarining richagini siljitimishni yengillashtirish uchun gidravlik kuchaytirgichlar qo'llaniladi. Ketingi ko'priking boshqarish muftalari o'rnatilgan xonalari asosiy uzatma va oxirgi uzatma mexanizmlari joylashtirilgan bo'limlardan ajratilib, ularga moy o'tmaydigan qilinadi.

Planetar boshqarish mexanizmi (18.6-rasm) traktor ketingi ko'prigining o'rta qismida asosiy uzatmaning yetaklanuvchi shesternasi o'rnatilgan silindrik korpus ichiga joylashtirilgan. Planetar mexanizm ikkita bo'lib, har biri alohida o'rmalovchi zanjirni boshqaradi. Bu mexanizmlar yoniga boshqarish tormozlari o'rnatilgan.

Planetar mexanizm korpusining ichidagi ikkita halqasimon shesterna (6) ga uchta, ba'zan to'rtta satellit (8) doimiy tishlashgan. Satellittar vodilo (16) ga mahkamlangan o'qlar (15) ga o'tkazilgan. Vodilo yarim o'q (3) qa o'rnatilib, bu o'qqa tormozlash shkivi (2) va oxirgi uzatmaning yetakechi shesternasi (1) mahkamlangan. Satellittar quyosh shesterna (9) bilan tishlashgan. Quyosh shesterna gupchaginining uchiga tormozlash shkivi (4) mahkamlangan. Bu shkivga o'ralgan tormozlash tasmasi (10) richag (13) bilan boshqariladi. Yarim o'qning tormozlash shkivi (2) ni tasma (11) o'rab turadi va tepki (12) bilan boshqariladi. Richag va pedal traktorchi kabinasida joylashgan.

Traktor to'g'ri yo'naliishda harakat etayotganida ikkala planetar mexanizmning richagi (13) bo'sh qo'yiladi. Bunda tormozlash tasmasi (10) prujina (14) kuchi bilan tortiladi va tormozlash shkivi (4) quyosh shesterna (9) bilan birga tormozlanib aylanmaydi. Harakat asosiy



18.6-rasm. Planetar boshqarish mexanizmining sxemasi:

- 1 - oxirgi uzatmaning yetakchi shesternasi; 2 — yarim o'qning tormozlash shkivi; 3 — yarim o'q; 4 — quyosh shesternasining tormozlash shkivi;
- 5 — asosiy uzatmaning yetaklanuvchi shesternasi; 6 — halqasimon shesterna;
- 7 — korpus; 8 — satellit; 9 — quyosh shesterna; 10 va 11 — tormozlar tasimasi; 12 — tormoz tepkisi; 13 — tormoz riebagi; 14 — prujina;
- 15 — satellitlar o'qi; 16 — vodilo

uzatmaning yetaklanuvchi shesternasi (5) dan oxirgi uzatmalarining yetakchi shesternasi (1) ga korpus (7), halqa shesterna (6), satellitlar (8), o'qlar (15), vodilo (16) va yarim o'q (3) orqali uzatiladi.

Bunda satellitlar o'qlar (15) da aylanib, harakatlanmay turgan quyosh shesterna (9) ustida g'ildiraydi va ikkala o'rmalovchi zanjir baravar tezlikda aylanadi.

Traktorni qaysi tomonga burish kerak bo'isa, o'sha tomondagi quyosh shesternaning tormoz richagi (13) tortiladi. Tormozlash barabani tormozlanishdan to'xtaydi. Halqa shesternadan harakat oluvchi satellitlar quyosh shesternani teskari tomonga aylantira boshlab, vodiloga harakat uzatmaydi. Bunda o'rmalovchi zanjirning harakati sekinlashadi, chunki u inersiya bo'yicha harakat qiladi, shu sababli traktor tormoz bo'shatilgandan keyin biroz yurib, so'ng buriladi.

Traktorni keskin burish uchun richag (13) tortilgan holda pedal (12) ham bosiladi va yarim o'q (3) oxirgi uzatma shesternalari bilan birga tormozlanadi. O'sha tomondagi o'rmalovchi zanjir batamom aylanishdan to'xtaydi va traktor shu o'rmalovchi zanjir atrofida buriladi. Traktor kerakligicha burilgandan keyin oldin pedal, so'ng richag bo'shatiladi. Planetar mexanizmda ham ikkala richag tortilsa, traktor to'xtaydi. Ba'zi traktorlarda (masalan, T-4M) planetar mexanizmlar faqat richag bilan boshqariladigan qilingan, bunda richag oldin quyosh shesternasi tormozini bo'shatadi, keyin yarim o'q shkivi tormozlanadi.

Planetar mexanizm friksion boshqarish muftasiga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. Planetar mexanizm ixcham, yengil, boshqarish uchun kam kuch talab etadi. Barcha qismlari moy vannasida ishlashi va shesternalari doimo tishlashgan holda turganligi sababli kam yeyildi. Boshqarish muftasi singari yeyiladigan qoplamlari yo'q. Planetar mexanizm orqali uzatish sonini kamaytirish ham mumkin, bu oxirgi uzatma shesternalarini ixchamlashtirishga imkon beradi, shuning uchun planetar mexanizm ko'proq qo'llaniladi.


5-§. Traktorlarning oxirgi uzatmalari

Traktorlarning yetakchi g'ildiraklari yoki yetakchi yulduzchalari harakatni oxirgi uzatmalardan oladi. Oxirgi uzatma aylanish tezligini kamaytirib, tortish kuchini oshiradi va traktor ketingi ko'prigini yerdan baland ko'tarish imkonini beradi.

Bog'-poliz traktorlari va ba'zi universal traktorlarda oxirgi uzatma ning karterini yetaklanuvchi shesternasi bilan birga ketingi ko'priq karteriga nisbatan burib, traktor korpusini yerga yaqinlashtirib, bog'da ishlashga yoki yerdan balandroq ko'tarib polizda ishlashga moslashtiladi.

Oxirgi uzatmalar traktoring ketingi ko'prigi yoniga alohida karterda, ba'zi g'ildirakli traktorlarda esa ketingi ko'priknning korpusiga joylashtiriladi.

Oxirgi uzatma doimiy tishlashgan bir just, ba'zan esa ikki just silindrik shesternadan iborat (bir yoki ikki pog'onali) bo'ladi. Maxsus karter (4) ga joylashtirilgan bir pog'onali oxirgi uzatmaning (18.7-rasm) kichik yetakchi shesternasi (1) yetakchi yarim o'q (2) qo'yoki boshqarish mustasining yetaklanuvchi barabaniga mahkamlangan.



18.7-rasm. Traktorlarning oxirgi uzatmasi:

- a — g'ildirakli; b — o'rmalovchi zanjirli; 1 -- yetakchi shesterna;
- 2 -- yetakchi yarim o'q; 3 -- yetaklanuvchi shesterna; 4 -- karter;
- 5 -- yetakchi g'ildirak; 6 -- val; 7 -- o'q; 8 -- yulduzcha gupchagi;
- 9 -- yetakchi yulduzcha

Katta yetaklanuvchi shesterna (3) yetakchi g'ildirak (5) vali (6) ga yoki o'rmalovchi zanjirli traktorda o'q (7) da aylanadigan yetakchi yulduzcha (9) ning gupchagi (8) ga mahkamlangan. Oxirgi uzatmalar karter (4) ga joylashtirilib, unga ma'lum sathga qadar moy quyiladi. Moy sizmasligi uchun salniklar o'rnatiladi.

6-§. Ketingi ko'priklarning tuzilishi

Ketingi ko'priklarning tuzilishini o'rganish uchun yuk avtomobili, g'ildirakli va o'rmalovchi zanjirli traktorlar ketingi ko'prigi konstruksiyasi bilan tanishtirib o'tamiz.

Yuk avtomobili (ГАЗ-53) ning ketingi ko'prigi (18.8-rasm) bir umumiy karterga joylashtirilib, asosiy uzatma, differensial va yarim o'qlardan iborat. Bu avtomobilga spiral tishli konus shesternalardan iborat bir pog'onali asosiy uzatma o'rnatilgan.

Asosiy uzatmaning yetakechi kichik shesternasi bitta silindrik va ikkita konus rolikli podshipniklarga o'tkazilgan val (2) bilan yaxlit yasalgan. Yetaklanuvchi shesternasi (7) differensial korpusining chap yarmisiga mahkamlangan.

Differensial korpus, krestovina (3), to'rtta satellit (4) va ikkita yarim o'q (10) shesternalari (9) dan iborat. Differensial korpusi ikki bo'lak (5, 8) dan iborat bo'lib, bir-biriga boltlar (6) bilan biriktirilgan.


Yarim o'qlarning g'ilofi (12) ketingi ko'priq karteri (11) ga mahkamlangan bo'lib, uning ichki uchidagi shlitsalariga yarim o'q shesternalari, tashqi uchiga esa avtomobilning yetakechi g'ildiraklari mahkamlangan. G'ildirak gupchaklari yarim o'q flanesiga mahkamlanib, yarim o'qning g'ilofidagi ikkita konus rolikli podshipnikka o'rnatilgan.

Asosiy uzatma va differensial qismlarini moylash uchun ketingi ko'priq karteriga ma'lum sathga qadar transmissiya moyi quyiladi.

G'ildiraklı traktor (ТТЗ-100 К.11) ketingi ko'prigining (18.9-rasm) barcha mexanizmlari — asosiy uzatmasi, differensiali va oxirgi uzatmalari transmissiya korpusi (1) ning ketingi qismiga joylashtirilgan. Bu traktoring g'o'za va boshqa baland poyali ekinlarning qator oralarini ishlashga mo'ljallangan xillarida yarim o'qlarining g'ilofini yerdan balandroq ko'tarish uchun qo'shimcha oxirgi uzatma o'rnatilgan. Uning asosiy uzatmasi ikkita konus shesternalidan iborat bo'lib, kichik yetakechi shesterna uzatmalar qutisining yetaklanuvchi vali (2) bilan yaxlit qilib yasalgan. Katta yetaklanuvchi konus shesterna (3) differensial gupchagi (9) ga boltlar bilan mahkamlangan. Differensial gupchagi tormoz barabani g'ilofiga o'rnatilgan konus rolikli podshipniklarda aylanadigan ko'ndalang val (8) ga qo'zg'almaydigan qilib mahkamlangan.

Differensial gupchakka mahkamlangan o'q (6) da erkin aylana oladigan qilib o'rnatilgan ikkita satellit (7) va ikkita konus shesternalardan iborat. Satellitlar gupchakning maxsus teshiklariga joylashtirilib, konus shesternalarga doimiy tishlashgan. Konus shesternalar oxirgi uzatmaning yetakechi silindrik shesternasi (5) bilan birga blok tarzida yasalib, differensialning gupchagi o'rnatilgan ko'ndalang valda aylana oladi.

Shesternalar blokining shlitsali uchiga tormoz barabani kiygizilib, gayka bilan mahkamlangan. Demak, konus va silindrik shesternalar




18.8-rasm. Yuk avtomobilining (ГАЗ-53) ketingi ko'prigi:

1 - kardan flanesi; 2 -- val; 3 --- krestovina; 4 --- satellit; 5 va 8 -- differensial korpusi; 6 -- bolt; 7 - yetaklanuvchi shesterna; 9 -- yarim o'q shesternasi;
10 -- yarim o'q; 11 -- ketingi ko'priki karteri; 12 -- yarim o'qlar g'ilofi

bloki hamda tormoz barabani ko'ndalang val bilan birga aylanishi. shuningdek, ko'ndalang valga nisbatan mustaqil aylanishi mumkin.

Traktor to'g'riga yurganida ikkala tomondag'i shesternalar bloki va ko'ndalang val bir yaxlit bo'lib aylanadi. Bunda satellitlar o'z o'qi atrofida aylanmaydi. Traktor burilganda yoki yetakchi g'ildiraklari turli qarshilikka duch kelganda satellitlar o'z o'qida burilib, har qaysi yetakchi g'ildirakning turli tezlikda aylanishini ta'minlaydi. Shesternalar bloki birining sekin aylanishi hisobiga ikkinchisi tezroq, ya'ni ko'ndalang val ustida aylanadi.

Oxirgi uzatmalar bir bosqichli bo'lib, ketingi ko'priki korpusining ikkala tomoniga joylashtirilgan. Yetakchi shesterna (5) konus shesterna bilan yaxlit qilib yasalgan. Yetaklanuvchi shesterna (10) yetakchi g'ildirak



18.9-rasm. G'ildirakli traktoring (TT3-100K.11) ketingi ko'prigi:

- 1 — transmissiya korpusi; 2 — uzatmalar qutisining yetaklanuvchi vali;
- 3 — yetaklanuvchi konus shesterna; 4 — pedal; 5 — oxirgi uzatmaning yetakchi shesternasi; 6 — o'q; 7 — satellit; 8 — ko'ndalang val;
- 9 — differensial gupchagi; 10 — oxirgi uzatmaning yetaklanuvchi shesternasi;
- 11 — prujina; 12 va 13 — blokirovka mehanizmining shesternalari;
- 14 — blokirovka mehanizmining vali; 15 — yarim o'q g'ilofi; 16 — yarim o'q

yarim o'qi (16) ning shlitsali ichki uchiga kiygizilib, gayka va stopor shaybalari bilan mahkamlangan. Yarim o'qlar g'ilof (15) ga o'rnatilgan ikkita sharikli podshipnikda aylanib, ularning tashqi uchiga yetakchi g'ildirak gupchagi mahkamlanadi. Differensialni blokirovka qilish uchun ketingi ko'priq karteriga ikkita sharikli podshipnikka val (14) joylashtirilgan. Valning shlitsalarida ikkita silindrik shesterna (12, 13) bor. Chap tomondag shesternasi (13) valga surilmaydigan qilib mahkamlangan va chap tomondag oxirgi uzatmaning yetaklanuvchi shesternasi bilan doimiy tishlashgan. O'ng tomondag shesternani (12) val bo'ylab

siljilib, o'ng tomondagi oxirgi uzatmaning yetaklanuvchi shesternasiga tishlashtirilsa, g'ildiraklarning yarim o'qlari yaxlit aylanadi, differensial ishlamaydigan holatga keltiriladi, ya'ni blokirovka qilinadi.


Bu shesterna vilka, tortqi, pedal (4) vositasida siljilib. Pedal bosilganda prujina (11) cho'ziladi, bo'shatilganda prujina yig'ilib, shesterna (12) ni shesterna (10) dan chiqaradi va blokirovka mexanizmni ajratilgan holda saqlaydi. Valning ketingi ko'priq korpusidan chiqarilgan chap tomondagi uchi yon quvvat olish vali sifatida xizmat qiladi va uning aylanish tezligi traktorning harakat tezligi bilan bir xilda o'zgaradi. Shuning uchun val (14) sinxron quvvat olish vali deb ham ataladi.

TT3-100 traktorining teleskopik ketingi ko'prigi va qo'shimcha oxirgi uzatmalari (18.10-rasm). TT3-100 traktorini turli kenglikdag'i ekin qator oralarida ishlashga moslashtirish uchun uning ketingi g'ildiraklari o'rtaсидаги оралиғни 1800 dan 2400 mm gacha o'zgartirishga imkon beradigan teleskopik ko'priq qo'llamiladi. Teleskopik ko'priqli traktorning yetakechi g'ildiraklari bevosita yarim o'qlarga o'rnatilmaydi va harakatni qo'shimcha oxirgi uzatma orqali oladi.

Qo'shimcha oxirgi uzatma ketingi yarim o'qlar g'ilofini yerdan balandroq ko'taradi. Yarim o'q g'ilofi (2) ichiga shponka ustida uzunasiga surila oladigan gilza (9) kirdizilib, boltlar bilan mahkamlab qo'yiladi. Gilza ichidagi ikkita podshipnikda yarim o'q quvuri (10) turadi. Quvurning shlitsali uchiga qo'shimcha oxirgi uzatmaning yetakchi shesternasi (5) o'rnatilib, gayka bilan mahkamlangan. Bir uchi oxirgi uzatma yetaklanuvchi shesternasi (7) ning gupechagiga kirkizilgan yarim o'q (11) ning ikkinchi uchi quvursimon valning shlitsasiga kirkizilgan.

Traktoring g'ildiraklari oralig'ini o'zgartirish uchun gilzaning ilgagi bilan yarim o'q g'ilofi flanesining orasiga gidravlik silindr (3) o'rnatiladi. Suriladigan tomondagi yarim o'q g'ilofi ostiga domkrat qo'yib g'ildirak yerdan ko'tariladi. Tortib turadigan boltlarning gaykasini bo'shatib, gilza gidrosilindr vositasida g'ilofidan kerakli masofaga chiqariladi. Se'ningra boltlar qotirilib, g'ildirak yerga tushiriladi. Traktoring ikkinchi g'ildiragi ham shu tarzda suriladi. G'ildiraklar surilgandan keyin gidrotsilindr olib qo'yiladi. G'ildiraklarni gidrosilindrdan foydalansadan ham surish mumkin.

Qo'shimcha oxirgi uzatma diametri teng bo'lgan uchta — yetakechi (8), oraliq (5) va yetaklanuvchi (6) shesternadan iborat. Yetakechi shesterna yarim o'q quvuridan harakatga keltiriladi. Oraliq shesterna qo'shimcha oxirgi uzatma karteri (4) ga o'rnatilgan o'qdagi ikkita rolikli



18.10-rasm. TT3-100 traktorining teleskopik ketingi ko'prigi va qo'shimcha oxirgi uzatmasi:

1 — oxirgi uzatmaning yetaklanuvchi shesterna; 2 — yarim o'q g'ilofi; 3 — hidravlik silindr; 4 — qo'shimcha oxirgi uzatma karteri; 5 — oraliq shesterna; 6 — yetaklanuvchi shesterna; 7 — yarim o'q flanesi; 8 — yetakchi shesterna; 9 — suriladigan gilza; 10 — yarim o'q quvuri; 11 — yarim o'q podshipnikda turadi. Yetaklanuvchi shesterna yarim o'qining flanesi (7) ga yetakechi g'ildirak diskni mahkamlanadi.

O'rmalovchi zanjirli traktor (UT-75)ning ketingi ko'prigi (18.11-rasm). Ketingi ko'priq mehanizmlari cho'yan korpus (23) ichiga joylashtirilib, asosiy uzatma, ikkita boshqarish mustasi va ketingi ko'priq korpusining yoniga joylashtirilgan ikkita oxirgi uzatmadan iborat.

Asosiy uzatma uzatmalar qutisining yetaklanuvchi vali bilan birga yasalgan yetakchi kichik konus shesterna (1) va ketingi ko'priq valining flanesiga boltlar bilan mahkamlangan yetaklanuvchi katta konus shesterna (2) dan iborat. Boshqarish mustalari vali (16) stakanlar (19) ga o'rnatilgan ikkita konus rolikli podshipnikda turadi.


Asosiy uzatma ketingi ko'priq korpusining to'siqlar bilan ajratilgan o'rta qismiga joylashtirilgan.

Asosiy uzatma shesternalari ketingi ko'priq korpusiga va uzatmalar qutisiga quyilgan moy bilan moylanadi. Moy quyish bo'g'zi (22)

tiqinining o'lehash chizig'i bor. Moy magnitli tiqin (20) ni ochib bo'shatib olinadi.

Boshqarish muftalari ketingi ko'priq korpusining ikki chekkasidagi xonasiga joylashtirilgan. Ketingi ko'priq valining shu xonalarga chiqarilgan shlitsali uchlariga boshqarish muftalarining yetakchi barabani (13) kiygizilib, gayka bilan mahkamlangan.

Yetakchi barabanning sirtidagi tishlariga to'qqizta yetakchi po'lat disk (11) kirdizilgan. Yetakchi disklar orasiga to'qqizta yetaklanuvchi disk (10) kirdizilgan. Yetaklanuvchi diskarning ikkala tomoniga raybest qoplama qoqilgan, ularning sirtidagi tishlari yetaklanuvchi baraban (9) ning ichki yuzasidagi tishlariga kirib turadi.



18. II-rasm. O'rmalovchi zanjirli traktoring (UT-75) ketingi ko'prigi:

- 1 — asosiy uzatmaning yetakchi konus shesternasi; 2 va 3 — ajratgich richagi; 4 va 26 — tortqi; 5 va 7 — tormoziar tepkisi; 6 — boshqarish muftalari richagi; 8 — ilashish muftasining tepkisi; 9 — yetaklanuvchi baraban; 10 — yetaklanuvchi disk; 11 — yetakchi disk; 12 — prujina; 13 — yetakchi baraban; 14 — oxitiq uzatmaning yetakchi shesternasi; 15 — rostlash bolti; 16 — boshqa'ishi muftalari vali; 17 — siquvchi tarelka; 18 — ajratgich; 19 — stakan; 20 — magnitli tiqin; 21 — yetaklanuvchi konus shesterna; 22 — bo'g'iz; 23 — ketingi ko'priq korpusi; 24 — tormoz tasmasi; 25 — tormoz tortqisining richagi

Disklar olti just prujina (12) vositasida yetakchi baraban flanesi bilan siquvchi tarelka (17) orasida siqladi. Prujinalarniig bir tomoni yetakchi barabanga, ikkinchi tomoni shpilkaga suxariklar bilan mahkamlangan tarelkaga tirilib turadi. Boshqarish mustalari richaglar (6) bilan boshqariladi. Richag (6) tortilganda tortqi (4) va ajratish richagi (3) orqali ajratgichning richagi (2) buriladi. Bu richag ajratgich (18) ni va u bilan bog'langan siquvchi tarelka (17) ni chapga suradi. Qaysi richag tortilsa, o'sha tomondag'i boshqarish mustasi ajraladi.

Oxirgi uzatma yetakchi shesternasi (14) valining shlitsali uchiga o'rnatilgan gupchak yetaklanuvchi barabanga mahkamlangan.

Yetaklanuvchi barabanga tormoz tasmasi (24) o'ralgan. Po'lat tasmaning ichki sirtiga friksion qoplama qoqilgan. Tasmaning bir uchi tormoz (5 yoki 7) ga ulangan tortqi (26) va richag (25) ga biriktirilgan. ikkinchi uchi esa korpus teshigidan chiqarilgan vilkaga biriktirilgan. Tepki (8) yordamida asosiy tishlashish mustasi boshqariladi.

Vilkaning uchiga tormoz tasmasi bilan baraban orasidagi tirkishni rostlaydigan gayka buralgan. Tormoz bo'shatilganda tormoz lasmasining salqib turishi rostlash bolti (15) bilan cheklanadi. Oxirgi uzatmalar ketingi ko'priq korpusi yoniga mahkamlangan karter ichiga joylash-tirilgan. Har bir oxirgi uzatma ikkita silindrik shesternadan iborat. Kichik yetakchi shesterna (14) ikkita silindrik rolikli podshipnikda turadigan val bilan yaxlit qilib yasalgan. Bu valning uchi boshqarish mustasi yetaklanuvchi barabanining gupchagiga mahkamiangan.

7-§. Ketingi ko'priq mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish

Ketingi ko'priq mexanizmlarining bekam-u ko'st ishlashini doim kuzatib borish zarur. Mexanizmlarning ish vaqtida taqillash ovozlati chiqarmasdan ishlashini, to'xtatgandan keyin ortiqcha qizimaganligini, moy sathini, moy oqmasligini tekshirish lozim.

Ketingi ko'priq mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish korpuslari: chang va loydan tozalash, bo'shab qolgan joylarni burab qotirish, moylash, boshqarish mustalari va tormozlarni moy tegishidan saqlash, konus shesternalarning tishlashishini, konus rolikli podshipniklarni, boshqarish mustalari va tormozlarni rostlash hamda yuz bergen kamchiliklarini yo'qotishdan iborat.

Asosiy uzatma, differensial va oxirgi uzatma mexanizmlari uzatmalar quisi uchun qo'llaniladigan transmissiya moyi yoki motorlar uchun

qo'llaniladigan moy biian moylanadi. Texnik xizmat ko'rsatish qoidalarida ko'rsatilgan muddatlarda moyning sathini tekshirish, kamaygan bo'lsa moy quyib to'ldirish va karterlarni yuvish sharti bilan moyni almashtirish hamda moyning sizishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Konus shesternalar tishlari orasidagi tirqish, shuningdek, konus rolikli podshipniklar tirqishi tekshiriladi va lezim topilsa rostlanadi.

Boshqarish muftalarining disklarini moy bossa, ular kerosin bilan yuviladi. Boshqarish muftalari va tormozlarni traktor to'xtatilgan zahoti (sovimasdan) yuvish kerak. Yig'ilib qolgan moy tushirib olingandan keyin boshqarish muftalari bo'limiga 3 — 4 l kerosin quyiladi. Boshqarish muftalari ajratilmasdan traktor 5—8 daqiqa o'dinga va ketinga yurgiziladi.

Iilos kerosin bo'shatib olinib, yana shuncha tozasi quyiladi, II uzatma qo'shilib, ikkala boshqarish muftasi ajratilib, traktor turgentida kamida 5 daqiqa ishlataladi. Keyin kamida 1 — 2 soat shunday (mufta ajratilgancha) qoldiriladi. Mufta va tormozlarning boshqarish mexanizmlari moylanadi va asosiy hamda oxirgi uzatmalar karteridagi moy almashtiriladi, chunki ularga kerosin o'tishi mumkin.

Tasmali tormozlarni moy bossa, qoplamalari yeyilsa va sozi buzilsa, tormozlar durust ishlamaydi. Bunday holda tormoz yuviladi va rostlanadi.

Oxirgi uzatma shesternalarining tishlari bir tomonlama yeyilganda chap va o'ng tomondagilarni almashtirib o'rnatish mumkin.

Nazorat savollari

1. Avtomobilarga o'rnatiladigan kardan uzatmaning vazifasini va tuzilishini aytib bering.
2. Traktor va avtomobilarning asosiy uzatmalarini qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
3. Differensialning vazifikasi, tuzilishi va ishlashini iushuntirib bering.
4. Boshqarish muftalari qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
5. Pianetar boshqarish mexanizmi boshqarish muftalariga nishbatan qanday afzaliliklarga ega?
6. Oxirgi uzatma nima uchun o'rnatiladi va qanday tuzilgan?
7. FAZ-5.3 avtomobilining ketingi ko'prigi qanday tuzilgan?
8. TT3-100 markali traktoring teleskopik ketingi ko'prigi va qo'shimcha oxirgi uzatmasi qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
9. JLT-75 markali traktor ketingi ko'prigining mexanizmlari qanday tuzilgan?
10. Ketingi ko'prik mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish ishlari nimalaridan iborat?


19-bob. TRAKTOR VA AVTOMOBILLARNING YURISH QISMI

1-§. Traktor va avtomobilarning asosi

Traktor yoki avtomobil yurish qismi asos, oldingi va ketingi g'ildiraklari o'qi bilan yoki o'rnatiladigan zanjirlari hamda ularning osmalaridan iborat. Traktor yoki avtomobilning yurish qismi uning barcha mexanizm va qismlari o'rnatiladigan aravani tashkil etadi.

Traktor yoki avtomobilning barcha qismlari mahkamlanganadigan rama asos deyiladi. Traktorlar asosining tuzilishiga qarab ramali, ramesiz va yarim ramali bo'ladi.

Yuk avtomobilining ramasi (19.1-rasm) bo'yamasiga qo'yilgan ikkita balka (1) va bir necha ko'ndalang balka (4) dan iborat.




19.1-rasm. Yuk avtomobilining ramasi:

- 1 -- bo'yamasiga qo'yilgan balka; 2 -- tirkama; 3 va 5 -- kronshteyn;
4 -- ko'ndalang balka; 6 -- shatakka olish ilmoqlari

Ramaning oldingi ko'ndalang balkalariga motor, ketingi balkasiga esa, tirkama (2) mahkamlangan. O'rtadagi ko'ndalang balkalarda kuch uzatish qismi va kardan val podshipniyi o'rnatilgan. Bo'ylama balkalarining oldingi uchiga bufer va avtomobilni shatakka olish ilmoqlari (6) mahkamlangan. Shuningdek, ularga ressorlar va zinapoyalar o'rnatiladigan kronshteyntar (3 va 5) mahkamlanadi.

Yarim ramali traktor asosi (19.2-rasm) ikkita yon brus (lonjeron) (5), oldingi brus (1), ilashish muftasi karteri (3), transmissiya korpusi (4) va yarim o'qlari g'ilofsi (5) dan iborat. Yarim ramalar oldingi brus va ilashish muftasi karteriga boltlar bilan mahkamlanadi. Uch g'ildirakli traktorlarning oldingi brusi vertikal o'q o'tadigan qilib ishlangan. Traktorga qishloq xo'jalik mashina va qurollarini o'rnatish uchun oldingi brus, yarim rama va yarim o'qlar g'ilofiga turli teshiklar qilingan.




19.2-rasm. **Yarim ramali traktor asosi:**
1 — oldingi brus; 2 — yon brus; 3 — ilashish muftasining karteri;
4 — transmissiya korpusi; 5 — yarim o'q g'ilofsi

Ramasiz traktorlarda ketingi ko'priki korpusi motor karteri bilan mahkam biriktirilib, traktor asosini tashkil etadi. Yengil avtomobillarda ko'taruvchi kuzov rama vazifasini o'taydi.

2-§. G'ildirakli traktor va avtomobillarning yurish qismi

Traktor yoki avtomobilning yurish qismini uning va ortilgan yuk, o'rnatilgan qurochning og'irliklarini yerga uzatadi, traktor va avtomobilning ilgarilanma harakatini ta'minlaydi, ya'ni burovchi momentni tortish kuchiga aylantiradi. Kuch uzatish mexanizmlari orqali motordan harakatga keltiriladigan g'ildiraklar yetakchi g'ildiraklar deyiladi, boshqarish mexanizmi orqali harakat yo'nalishi o'zgartiriladigan g'ildiraklar esa, boshqariluvchi g'ildiraklar deyiladi.

Traktorlarning ketingi g'ildiraklari yarim o'qlarga yoki qoshimcha bort uzatmaning yetaklanuvchi shesternalari o'qiga mahkamlanadi. Ko'pincha ketingi g'ildiraklar yetakchi, oldingitari boshqariluvchi bo'ladi, ammo oldingi g'ildiraklar ham yetakchi bo'lishi mumkin. Bunday holda oldingi g'ildiraklar boshqariluvchi, ham yetakchi bo'ladi, ularga zanjir yoki kardan uzatma orqali harakat uzatiladi. Traktorning



19.3-rasm. G'ildirakli traktorlar kolejasi (a) va agrotexnika masofasi (b)

oldingi va ketingi g'ildiraklari yetakchi bo'lsa, uning yer bilan tishlashishi yaxshilanadi va yumshoq yerda kamroq sirpanadi.


Traktorlar uch g'ildirakli (19.3-rasm, b) va to'rt g'ildirakli (19.3-rasm, a) bo'lishi mumkin. Uch g'ildirakli traktorlar kalta burila oladi, bu esa qayrilish uchun ensizroq joy qoldirishga imkon beradi, ammoy traktor yetarli turg'un bo'lmaydi. Tez yurganda va burilishlarda ag'darilishi ehtimol. To'rt g'ildirakli traktoring burilish radiusi katta, ammoy ag'darilish xavfi kamroq va ketingi g'ildirak oldingisi izidan yurishi sababli traktoring harakatlanishi uchun kam quvvat sarf bo'ladi.

Traktor oldingi yoki ketingi ko'prigining yerdan balandligi (h) traktoring agrotexnika masofasi deyiladi. Ketingi yoki oldingi g'ildiraklar o'rtaqidagi oraliq (l) traktoring kolejasi deyiladi.

Ketingi g'ildiraklar orasini o'zgartirish uchun turli usullar qo'llaniladi. Yarim o'q (2) ning (19.4-rasm, a) uchiga yuqori tomonidan maxsus ariqcha ochib gupchak (3) uzun shponka (4) ga o'rnatilib, boltlar bilan mahkamlanadi. G'ildirakni o'q ustida surish uchun boltlar bo'shatiladi, chervyak (4) ni burab, traktor g'ildiragi orasidagi masofa o'zgartiriladi va boltlar qotiriladi.

Yetakchi g'ildirak diskini (6) (19.4-rasm, b) botiq tomonini ichkariga yoki tashqariga qaratib yarim o'q flanesi (5) ga o'rnatib, shuningdek, g'ildirak to'g'ini (7) ni diskning ichiga yoki sirtiga mahkamlab ham bu oraliqni o'zgartirish mumkin. Paxtachilik traktorlarining g'ildirak oraliq'ini o'zgartirish usuli 16.7-rasmida ko'rsatilgan.

Ba'zi universal va bog' traktorlarining bort uzatmasi shesternakirini ustma-ust o'rnatib, traktor asosini yerdan balandroq ko'tarib, baland




19.4-rasm. Yetakchi g'ildiraklar oralig'ini o'zgartirish usullari:

1 — shponka; 2 — yarim o'q; 3 — g'ildirak gupehagi; 4 — chervyak;
5 — o'q flanesi; 6 — g'ildirak diskii; 7 — g'ildirak to'g'ini

poyali ekinlar orasida ishlaydigan qilish (19.5-rasm, a, 2-holat) yoki yonma-yon (gorizontal) o'matib yerga yaqinroq joylashtirib, bog'larda ishlashga moslashtirish mumkin (/ - va 3- holat).


Traktor ketingi ko'prigi bilan birga oldindi o'qini ham yerdan balandroq ko'tarish yoki yerga yaqinlashirish uchun burilish sapfalarining flanesini shkvorenlar pastki uchi flanesiga nisbatan 180° burib o'matib (19.5-rasm, d) yoki oldindi o'q uchliklaridagi ustunlarni surib (19.5-rasm, b) o'zgartiriladi.



19.5-rasm. Universal traktorlarning agrotexnika masofasini
o'zgartirish usullari:

a — bort uzatma shesternalarini ustma-ist (2) va yonni yon (1 - 3)
o'matish; b — oldindi o'q sapflarini va d — uchliklarni past-balad o'matish

Avtomobillar ko'priklarining soniga qarab ikki va uch ko'prikl bo'ladi. Odatda, ko'priklarning oldingisi yo'naltiruvchi, ketingisi esa yetakchi bo'ladi. Oldingi ko'prigi ham yo'naltiruvchi, ham yetakchi avtomobillar ham bo'ladi. Ko'priklar g'ildiraklarining soni va ularning yetakchisi ikkita raqam bilan belgilanadi, masalan «6x4» deyilsa, bu avtomobilda oltita g'ildirak (uch o'q) borligini, undan to'rttasi (ikkita o'qi) yetakchi ekanligini ko'rsatadi.



19.6-rasm. Avtomobil oldingi ko'prigining sxemasi:

- 1 — rama;
- 2 — boldoq;
- 3 — oldingi o'q;
- 4 — burish sapsasi;
- 5 — g'ildirak gupchagi;
- 6 — g'ildirak;
- 7 — shkvoren;
- 8 — ressor;
- 9 — barmoq;
- 10 — kronshteyn;
- 11 — stremyanka

Yuk avtomobilining oldingi yo'naltiruvchi ko'prigi (19.6-rasm) qo'shtavr qirqimli yaxlit o'q (3), shkvorenlar (7) bilan biriktirilgan burish sapsasi (4) dan iborat. Sapsaning podshipniklarida g'ildirak (6) ning gupchagi (5) turadi.

Oldingi o'q rama (1) ga ressor (8) orqali o'rnatilib, ressoring bir uchi kronshteyn (10) va barmoq (9) bilan ramaga, ikkinchi uchi esa boldoq (2) orqali kronshteynga biriktirilgan. Ressoring o'rta qismi oldingi o'qqa stremyanka (11) bilan mahkamlangan. Oldingi o'q bilan rama orasiga amortizator qo'yiladi.

Amortizatorlar ressorlarning tebranishini so'ndiradi, avtomobilning silkinmasdan ravon yurishiga va osmalarining ishlash muddatini oshirishga imkon beradi. Yengil avtomobillarda va avtobuslarda har qaysi g'ildirakka, yuk avtomobillarida esa, faqat oldingi g'ildiraklarga

amortizator qo'yiladi. Zamонавиј автоМобилларда иккি төмөнлөмө ашхайдиган гидравлик amortизаторлар qо'ланылади.

Richagli va teleskopik amortизаторлар ham bo'lib, уларнинг исфаси суюқиқнинг кичик тешиклар орқали о'tayotganda qаршилик ко'rsatishiga асосланган. Ко'пчилек автоМобилларда teleskopik amortизаторлар qо'ланылади.

Teleskopik amortизаторнинг (19.7-рasm) ўуqориги qulog'i (1) автоМобил рамасига, pastki qulog'i (11) esa, o'qqa mahкамланади. Pastki qulogqa shtok (17) mahкамланган. Shtokning pastki uchida porshen (13) bo'lib, унинг о'tказиб yуборувчи klapani (5), qaytarish klapani (7) hamda aylanasi bo'yicha diametri kichikroq teshiklari (14) va diametri kattaroq teshiklari (6) bor.

Porshen silindr (16) ichida harakat qiladi. Silindr rezervuar (15) ichida turadi. Silindrning past temoni siqish klapani (9) ning korpusi bilan berkitilib, унинг ostida teshiklari (10) bor. Shu korpusning tepasida kiritish klapani (8) да, teshiklar (12) teshilgan. Silindrning ўуqori qismi shtok yo'naltirgichi bilan berkitilib, унинг konus prujinasi, zichlovchi salnigi (3) va gaykasi (2) bor.

Silindрга amortизатор суюқлиги quyiladi. Shtok silijiganda yo'naltirgichning орасидан сизиб o'tган суюқлик teshik (18) орқали silindr bilan rezervuar (15) орасидаги bo'shilqqa oqib tushadi. Shtok yo'naltirgichi bilan salnik gardishi орасида rezina halqa (4) bor.

O'tказиб yуборувчи klapani (5) va kiritish klapani (8) yulduzcha nusxa prujina bilan siqilib turadi. Qaytarish klapani (7) va siqish klapani (9) ning spiral prujinasi bor. Amortизатор quyidagiча ishlaydi. АвтоМобил g'ildiragi to'sqintlikka duch kelib, ressor to'g'rilanganda amortизатор qisqaradi. Porshen pastga harakat qiladi, унинг tagidagi суюқлик o'tказиб yуборувчи klapani (5) ni ochib, porshenning tashqi qator teshiklari (6) орқали silindрга o'tadi. Porshen pastga harakat qilganda shtok silindрга kirib унинг hajmini qisman ishg'ol qiladi. Shuning uchun shtokning silindрга kirgan hajmiga суюқлик siqish klapani (9) ni ochib teshiklari (10) орқали rezervuar korpusiga o'tadi (amortизаторнинг siqilish yo'lli sodir bo'ladi).


Ressorga zo'r kelmay egilganda (o'q ramadan uzoqlashganda) amortизатор uzayadi. Porshen tepasidagi суюқлик bosimi ortadi. Bu bosim kuchi bilan qayta o'tkazish klapani (5) porshenning tashqi teshiklari (6) ni yopadi.

Суюқлик bosimini porshenning ichki qator teshiklari (14) орқали o'tib qaytarish klapani (7) ni ochadi. Klapan diskini va унинг spiral prujinasi

suyuqlik o'tishiga qarshilik ko'rsatib, silkinishlarni so'ndiradi. Bunda shtok silindrda qisman chiqib, uning sirti bilan rezervuar korpusi (15) orasida bosim hosil qiladi. Shu sababli, shtokning silindrda chiqqan hajmicha suyuqlik siqish klapanining korpusidagi teshiklar (12) orqali o'tib, qaytarish klapani (7) ni ochib porshen ostiga kiradi (amortizatorning yozilish yo'li sodir bo'ladi).

Amortizator uzayishi uchun siqilishiga nisbatan ko'proq kuch talab etiladi. Bu esa tebranishlarning tezroq so'nishiga imkon beradi.


Yuk avtomobilari ketingi ko'prigining osmasi (19.8-rasm) ayrim varaqlardan yig'ilgan asosiy ressor (5) va qo'shimcha ressor (4) dan



19.7-rasm. Teleskopik amortizator:

1 — yuqorigi qulog'i; 2 — gayka; 3 — salnik; 4 — rezina halqa; 5 — o'tkazib yuboruvchi klapan; 6, 10, 12, 14 va 18 — teshiklar; 7 — qaytarish klapani; 8 — kiritish klapani; 9 — siqish klapani; 11 — pastki qulog'i; 13 — porshen; 15 — rezervuar; 16 — silindr; 17 — shtok

iborat. Ressorlar avtomobil ramasi (10) ga joylashtiriladi, asosiy ressorning o'rta qismi yarim o'qlar g'ilofi (7) ga stremyankalar (6) bilan mahkamlanadi. Uning oldingi uchi ramaning kronshteyni (1) ga, ketingi uchi esa boldoq (5) ga sharmirli biriktiriladi. Boldoq ketingi kronshteyn (9) ga mahkamlanadi. Ressor varaqlari xomut (2) lar bilan siqib qo'yiladi.



19.8-rasm. Yuk avtomobili ketingi ko'prigining osmasi:

1, 3 va 9 — kronshteyn; 2 — xomut; 4 — qoshimcha ressor; 5 — asosiy ressor; 6 — stremyanka; 7 — yarim o'q g'ilofi; 8 — boldoq; 10 — rama


Qoshimcha ressor (podressornik) yuk avtomobili osmasining elastikligini oshiradi va uni mustahkam qiladi. Asosiy ressor egilganda qoshimcha ressorning uchlari kronshteynlari (3) ga tiraлади, ya'ni qoshimcha ressor asosiy ressorga zo'r kelgandagina ishlaydi.

3-§. Traktor va avtomobillarning g'ildiraklari va shinalar

Traktor va yuk avtomobillarining ketingi g'ildiraklariga ko'proq og'irlik tushadi. Shuning uchun traktorlarda ketingi g'ildiraklar kattaroq va pokrishkalarining naqshlari chuqurroq qilinadi. Yuk avtomobillarida ketingi g'ildiraklar qo'shaloq, ba'zan ikkita ketingi ko'priki bo'ladi. Traktorlarda boshqarishga oson bo'lishi uchun oldingi g'ildiraklari kichikroq va yoniga sirg'anmasligi uchun pokrishkasining protektoriga halqasimon qovurg'alar qilinadi.

Har bir g'ildirak (19.9-rasm) gupchak, disk (5) va to'g'indan iborat. Gupchak (6) shpilka va gaykalar bilan yarim o'q (7) qa mahkamianadi. To'g'in (3) ga pnevmatik shina o'rnatilib, u pokrishka (1), kamera (2), ventil (4) to'g'in lentasidan iborat. G'ildirak to'g'ini botiq (chuqur) va tekis profilli bo'ladi. Botiq'i traktorlarda va yengil avtomobillarda, tekisi esa yuk avtomobillarida qo'llaniladi. Pnevmatik shina g'ildiraklarga duch kelgan turkilarni qabul qilib, zarblarni so'ndiradi, yerni kamroq

zichlaydi, mashinaning harakatlanishi uchun sarf bo'ladigan qurvvatni kainaytiradi va traktorlarni tez yurgizib, yuk tashishda foydalanish imkonini beradi.



19.9-rasm. Traktoring yetakchi g'ildiragi:
1 — pokrishka; 2 — kamera; 3 - to'g'in; 4 — ventil;
5 — disk; 6 — gupchak; 7 — yarim o'q

Shina pokrishkasi kamerani to'g'inda tutib turib, uni shikastlanishdan saqlaydi va g'ildirakning yer bilan tishlashishini ta'minlaydi. Kamera uchlari biriktirilgan rezina quvur halqadan iborat bo'lib, elastik havo yostig'i hosil qiladi. Ventil kameraga havo o'tkazib, uning kameradan chiqishiga yo'l qo'ymaydi.


Kamerali va kamerasiz pokrishkalar bo'ladi. Pokrishka (19.10-rasm, a) yer bilan tishlashadigan naqsh (1) li proektor (2), yostiq qavati (3), rezina to'qima karkas (4), karkasni qoplab turuvchi yondori (5), po'lat

sim o'zak (7) li bort (6) dan iborat. Pokrishkaning barcha elementlari bir-biriga yelimlangan va vulkanizatsiya qilingan. Pokrishka borti g'ildirak to'g'iniga mahkamlanadi.

Kamerasiz shina (19.10-rasm, *b*) bortida silliq rezina qavati (3) bo'lganligi uchun g'ildirak to'g'in (2) ga jips o'tqazilib, ichidagi havo bosimi kuchi bilan to'g'inga siqlib turadi. Shinaning ichki yuzasida havo o'tkazmaydigan rezina qavat (4) bor. Ventil (*I*) g'ildirak to'g'iniga o'rnatilgan.

Kamerasiz shinalar kichikroq teshilib, havo bosimi sal kamaysa ham ishlayveradi, damni yaxshi saqlaydi, ammo g'ildirak to'g'inini silliq, chaqalanmagan va zihni pachaqlanmagan bo'lishi shart.

Oddiy shina (19.10-rasm, *d*) karkasining iplari (2) pokrishka bortiga nisbatan diagonal yo'nalishda joylashtirilgan va yostiq qismi (*I*) viskozadan yasaladi. R tipidagi shina (19.10-rasm, *e*) iplari (2) pokrishka



19.10-rasm. Pnevmatik shinalar:


- a* — shina elementlari. *1* — naqsh; *2* — protektor; *3* — yostiq qismi;
4 — karkas; *5* — yondor; *6* — bort; *7* — po'lat sim o'zak; *b* — kamerasiz shina;
I — ventil; *2* — to'g'in; *3* — silliq rezina qavati; *4* — havo o'tkazmaydigan
rezina qavati; *d* — oddiy shina; *e* — R tipidagi shina; *f* — RS tipidagi shina;
I — karkas, *2* — yostiq qismi; *3* — olinadigan protektor halqlari,
g — gumbazsimon shina

bortiga nisbatan radial yo'nalishda joylashtirilgan (shuning uchun R tipdagi shina deyiladi), yostiq qismi viskoza va metall to'qimadan iborat. Bunday shina elastik, chidamli va yengil bo'jadi.

RS tipidagi shinaning (19.10-rasm, *f*) ham karkasi radial joylash-tirilgan ipli va olinadigan protektorli qilinadi. Pokrishkasi sirtida uchta nov bo'lib, unga metall-viskoza karkasli olinadigan protektor halqalar (*g*) kiygiziladi. Halqa yedirilsa, o'rniغا boshqasini qo'yib shina ishlatala beradi. Shuningdek, yo'l sharoitiga mos naqshli halqalar qo'llanilishi mumkin.

Yuk avtomobilining ikkita ketingi g'ildiragi o'rniغا bitta gumbazsimon shina (19.10-rasm, *g*) o'rnatilmoqda. Bu shina ham kamerasiz bo'lib, pokrishka g'ildirak to'g'iniga shpilka va gaykalar bilan mahkamlanadi. Gumbazsimon shina keng profilli, ichidagi havo bosimi ozroq (0,05 — 0,14 MPa), chuqur naqshli bo'lganligi uchun yomon yo'llarda, shuningdek, yo'lsiz joylarda yurishga imkon beradi.

Traktor va avtomobil shinalarining ventillari (19.11-rasm) turlicha tuzilgan. Traktor ventillari kameraga havo kiritishdan tashqari, suv to'ldirishga ham mo'ljalangan. Ventil kameraga jips mahkamlangan



19.11-rasm. Avtomobil (*a*) va traktor (*b*) shinalarining ventili:
1 — qalpoqcha; *2* — zolotnik; *3* — rezina vtulka; *4* — klapan;
5 — shpilka; *6* — korpus; *7* — oboyma

rezina-metall yoki metall korpus (6), zolotnik (2) va qalpoqcha (1) dan iborat. Zolotnikning zichlovechi rezina vtulkasi (3) bor. Klapan (4) li shpilka (5) zolotnik orqali o'tkazilgan.

Shinaga dam berish uchun qalpoqcha burab chiqarilib, ventilga havo nasosining shlangi kirgiziladi. Havo bosimi klapan (4) ni ochib, kameraga o'tadi. Shpilka prujinasi va kamera ichidagi havo bosimi klapanni jips berkitib turadi, shu sababli havo kameradan qaytib chiqolmaydi. Kameradan havoni chiqarish uchun shpilkani itarib, klapanni ochish yoki zolotnikni burab chiqarish kerak.

Traktor shinalariga suv yoki muzlamaydigan suyuqlik to'ldirish uchun oboyma (7) chiqarilib, korpus (6) ga suv to'lg'izish moslamasi mahkamlanadi.

Shinalar o'lehami pokrishkaning yon tomoniga ikkita raqam bilan yoziladi. Bu raqamlarning birinchisi shina profilining eni (B) ni (19.10-rasm, a), ikkinchisi g'ildirak to'g'inining tashqi diametri (D) ni dyuym yoki millimetrlarda ifodalaydi (bir dyuym 25,4 mm ga teng). Masalan, 8,25–40" deyilsa: profilining eni $B = 8,25"$ va g'ildirak to'g'inining tashqi diametri $D = 40"$ ga teng bo'ladi. Shinaning tashqi diametri $D_t = 2B + D$ formulasi bo'yicha aniqlanadi. Ў 146 modelli gumbazsimon shina 1140×700 deb belgilanadi, bunda shina profilining eni 1140 mm va g'ildirak to'g'inining diametri 700 mm bo'ladi.

Traktor va avtomobillarda, asosan, past (0,08–0,5 MPa) bosim shinalar (ballonlar) qo'llaniladi. Shinalardagi havo bosimi ko'pchilik yuk avtomobillarida 0,3–0,45 MPa, yengil avtomobillarda 0,15 – 0,22 MPa, traktorlarning yetakchi g'ildiraklarida 0,08–0,5 MPa, oldingi g'ildiraklarida 0,16 – 0,5 MPa (ТТЗ-100 da 0,4 MPa) bo'ladi.

Pnevmatik shinalarning sirpanib g'ildirashini kamaytirish traktorda unumli foydalanish uchun g'oyat katta ahamiyatga ega. Nam va yumshoq yerdan yurganda shinalarning yer bilan tishlashishini kuchaytirish uchun g'ildiraklarga qo'shimcha yuk (cho'yan tosh) osiladi, shina kameralariga hajmining $3/4$ qismiga qadar suv yoki og'irligi bo'yicha $1/4$ qismi xlorid kalsiyidan iborat eritma to'ldiriladi; traktorning gidravlik o'rnatish tizimining vazminlashtirgichlaridan foydalaniлади; yetakchi va boshqariluvchi g'ildirak o'rtasiga qo'shimcha taranglovchi g'ildirak o'rnatib, qo'shimcha va yetakchi g'ildiraklarga o'rnatilovchi zanjir tasma kiygiziladi; yetakchi g'ildiraklarga panjara nusxa kengaytirgich va qaytarma (yer tishlagichlar) o'rnatiladi. Kengaytirgich yumshoq yerda, yer tishlagichlar esa nam yerlarda qo'llaniladi.

Normal tuproqli yeriarda, shuningdek, o'rnatma qishloq xo'jalik mashinalaridan foydalanilganda yetakechi g'ildiraklarning yerga tushadi-gan vaznini oshirishga ehtiyoj qolmaydi. Paxtachilikda qo'llaniladigan uch g'ildirakli universal traktorni muvozanatlash uchun oldingi g'ildiragi tepasiga (yarim ramalarning oldingi brusiga) qo'shimcha yuk qo'yiladi, chunki mashinalar, asosan, traktorning orqa qismiga o'rnatiladi.

4-§. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning yurish qismi

O'rmalovchi zanjirli traktorning yurish qismi (19.12-rasm) asos, ikkala tomoniga joylashtirilgan ikkita o'rmalovchi zanjirli yuritgich va ularning osmalaridan iborat. Har bir yuritgich yetakechi yulduzcha (8), taranglovchi g'ildirak (7), tayanch g'ildiraklar (7), tutqich rolik (5) lar va ularning barchasini o'rab turadigan o'rmalovchi zanjir (3) dan iborat. Taranglovchi g'ildirakning taranglovchi va amortizatsiya qiluvchi moslamasi (2) bor.


O'rmalovchi zanjirli traktorlar asosining turiga qarab ramali va yarim ramali bo'ladi.

Yetakchi yulduzcha motordan kuch uzatish mexanizmlari orqali harakatga kelib aylanganda, uning tishlari o'rmalovchi zanjirining bo'g'inlariga yoki tishlariga birin-ketin ilinib, o'rmalovchi zanjirni aylanishga majbur etadi.

Traktor ramasi (4) tayanch g'ildiraklar (7) orqali o'rnnalovchi zanjirning ichki sirtidagi izga tayanadi. Demak o'rmalovchi zanjirli traktor yer ustida yurmasdan, balki metall iz-yo'l ustida harakat qilganligi sababli o'zining yurishiaga kam quvvat sarf etadi. O'rmalovchi zanjirning yerga tayanib turadigan yuzasining sathi katta bo'lganligi uchun traktor og'ir bo'lishiga qaramay, uning yerga tushadigan solishtirma og'irligi g'ildirakli traktorlarnikidan kam. O'rmalovchi zanjir zvenolarining bir nechasi birqalikda yerga tishlashganligi uchun o'rmaiovchi zanjirli traktor kamroq sirpanib harakatlanadi.

O'rmalovchi zanjirli traktorlarning osmasi traktorning og'irligini yurish qismlariga uzatadi. Zamonaviy traktorlarda yarim qattiq va elastik osmalar qo'llaniladi.

Yarim qattiq osmali o'rmalovchi zanjirlarda taranglovchi g'ildirak, tayanch va tutqich roliklarning o'qlari alohida o'rmalovchi zanjir ramasiغا o'rnatiladi. Bu rama aravachaga o'xshaydi. Yetakchi yulduzcha traktor ketindi ko'prigining korpusidagi podshipniklarda aylanadi. Traktor asosining old tomoni o'rmalovchi zanjir ramasiga ko'ndalang




19.12-rasm. O'r'malovchi zanjirli traktorning yurish qismi:

- 1 — taranglovetli g'ildirak; 2 - taranglash va amortizatsiya moslamasi;
- 3 — o'r'malovchi zanjir; 4 — traktor ramasi; 5 — tutqich rolik; 6 -- karetka;
- 7 — tayanch g'ildirak; 8 — yetakchi yulduzcha

balansir-ressor orqali biriktinladi. Traktor notejis yo'lidan yurganda o'r'malovchi zanjir yetakchi yulduzcha o'qining atrosida biroz burila oladi. Bunday holda o'r'malovchi zanjir tayanch yuzasining ozroq qismi yerga tegadi, do'ngdan o'tgach o'r'malovchi zanjirning old qismi yo'lga uriladi. Bu yarim qattiq osmaning kamchiligi bo'lib, traktorni tezroq haydashga to'sqinlik qiladi.

Elastik osmali o'r'malovchi zanjirli yuritgichning barcha elementlari traktor ramasiga o'rnatiladi. Ramaga mahkamlangan o'qlarga balansirli karetkalar (6), balansirlar o'qiga esa tayanch g'ildiraklar o'rnatiladi. Balansirlarning yuqorigi uchidagi prujinalar elastiklik hosil qiladi. Elastik osmali o'r'malovchi zanjir yo'lning baland-pastligiga moslashib harakat qilib, notejis yerda ham o'r'malovchi zanjirning tayanch yuzasi deyarli yerga tegib turadi. Harakat vaqtida zarb va turtkilarni o'r'malovchi zanjirli yuritgich qabul qiladi, shu sababli traktor birmuncha ravon va silkinmasdan ishlab, tez yurishi mumkin.

O'r'malovchi zanjirli traktorning ramasi (19.13-rasm) bo'yamasiga qo'yiladigan ikkita balka (5), oldingi brus (1), ikkita ko'ndalang brus (4), bo'ylama balkalar keyiniga mahkamlangan kronshteynlar (6) dan iborat. Rama balkalarining old qismiga taranglovchi g'ildiraklar (2)



19.13-rasm. 3 kN sinif traktoring ramasi va osmasi:

1 — oldingi brus; 2 — taranglovchi g'ildirek; 3 — tutqich rolik;
4 — ko'ndalang brus; 5 — ramaning bo'ylama balkalari; 6 — kronshteyn;
7 — quvur; 8 — qopqoq; 9 — karetka; 10 — tayanch g'ildirak; 11, 12 va
16 — o'q; 13 — ichki balansir; 14 — qo'shaloq prujina; 15 — tashqi balansir;
17 — o'rmalovchi zanjir

kronshteyni va ularning taranglash moslamasi mahkamlangan. Uchala balkalarning yon tomoniga tutqich roliklar (3) kronshteyni mahkamlangan. Ko'ndalang bruslar uchiga balansir karetkalar (9) sapiasi o'rmatilgan. Kronshteynlar (6) ga qopqoq (8) va boltlar bilan mahkamlangan quvur (7) ketingi ko'priq karterining tayanchi va yetakchi yulduzchalarining esa, o'qi vazifasini bajaradi.

O'rmalovchi zanjir (17) o'zaro sharnirli biriktirilgan zvenolardan yig'ilgan uchsiz zanjirdan iborat. Yaxlit quyilgan va shtampovka qilingan o'rmalovchi zanjirlar bo'ladi.

Yaxlit quyilgan po'lat zvenoning (19.14-rasm, a) yo'naltiruvchi chiqiq'i (3), yetakchi yulduzchaning tishi ilinadigan o'rta qulog'i (1), yer bilan tishlashadigan shpori (4) bo'tib, zvenolar barmoq (2) vositasida bir-biriga sharnirli biriktirilgan. Bu zvenoning beshta qulog'i bor, keyingi vaqtida yettita qulqoqli zvenodan iborat o'rmalovchi zanjir ko'proq qo'llanilmoqda.

Shtampovka qilingan o'rmalovchi zanjir (19.14-rasm, b) vtuika (2) ga kirgizilgan barmoq (1) vositasida sharnirli biriktirilgan o'ng (3) va chap (4) zvenolar va ularga boltlar bilan mahkamlangan shporali boshmoq (5) dan iborat.

Birinchi tipdagisi o'rmalovchi zanjir yengil, oddiy, yig'ish va ajratish uchun qulay, ammo chidamsizroq. Ikkinchisi tipdagisi esa chidamliroq,


ammo og'ir, murakkab, yig'ish va ajratish qiyin, qimmat turadi, shu sababli kam qo'llaniladi.

Yetakchi yulduzcha (8) (19.12-rasm) oxirgi uzatma yetaklanuvchi shesternasining gupchagiga mahkamlanadi. Yulduzcha tishlarining o'ttasidagi oraliq o'rmalovchi zanjir zvenolari barmoqlarining o'ttasidagi oraliqdan ikki baravar torroq qilingan. Shu bilan birga, yulduzcha tishlarining soni toq bo'ladi, natijada tishlar galma-gal ishlab, har qaysi tish ikki aylanganda o'rmalovchi zanjir zvenosiga bir marta ilinadi.

O'rmalovchi zanjirli yuritgichning to'rtta *balansir karetkasi* bor. Har bir karetkaning (19.13-rasm) ikkita tayanch g'ildiragi (10), ichki (13) va tashqi (15) balansiri bo'ladi. Balansirlar o'q (12) da bir-biriga sharnirli birlashtirilgan. Tashqi balansir rama ko'ndalang brusining uchidagi o'q (11) sapfasining atrosida burila oladi. Balansirlarning yuqorigi qismiga elastik osma ressor vazifasini bajaradigan qo'shaloq prujina (14) o'rnatilgan. Tayanch g'ildirak (10) o'q (16) dagi ikkita konus rolikli podshipnikda aylanadi.


Balansir karetkalar traktorning yo'ldagi past-balndliliklarga moslashiga imkon beradigan qilib tuzilgan. Ularning ishlashi 19.15-rasmda ko'rsatilgan. Prujinalar (14) balansirlar o'ttasiga birmuncha siqilgan holda o'rnatiladi. Traktor do'ngdan o'tganda prujinalarning yana ham siqilishi hisobiga balansirning g'ildiragi ko'tarilib, o'rmalovchi zanjir yerning past-balnidiga moslashadi (19.15-rasm, b).

Tutqich roliklar (19.13-rasm, 3) o'rmalovchi zanjirning yuqorigi qismini tutib turadi. Rolik ikkita (biri sharikli, ikkinchisi rolikli) podshipnikda aylanadi. Bu podshipniklar ramaga mahkamlangan kronshteynnning o'qiga o'rnatilgan.



19.14-rasm. O'rmalovchi zanjirlarning turlari:

a — quyma zeno; 1 — o'nta qulog'i; 2 — harmoq; 3 — yo'naltiruvchi chiqiq'i; 4 — shpon; b — shtampovka qilib yasalgan zeno. 1 — harmoq; 2 — vtulka; 3 — o'ng zeno; 4 — chap zeno; 5 — boshmeq



19.15-rasm. Balansirli karetkaning ishlash sxemasi:
(raqamlar 19.13-rasmdagidek belgilangan)

Taranglovchi g'ildirak va taranglash moslamasi o'rmalovchi zanjirni ma'lum taranglikda saqlaydi. Traktor ishlagan vaqtida o'rmalovchi zanjir zvenolari, ularning barmoqlari, yetakechi yulduzcha tishlari, taranglovchi g'ildirak va roliklarning to'g'ini ishqalanib yeyiladi. Natijada o'rmalovchi zanjir bo'shashib qoladi.


O'rmalovchi zanjir ortiqcha bo'shashib qolsa yoki juda tarang bo'lsa, yurish qismining detallari tez yeyiladi, o'rmalovchi zanjir chiqib ketadi va uziladi, traktoring yurishi uchun sarf bo'ladigan quvvat, yonilg'ining solishtirma sarfi ortadi. Ikkala o'rmalovchi zanjir baravar taranglanmasa traktor to'g'ri yurmaydi. Shuning uchun taranglovchi g'ildirakning taranglash moslamasi bo'ladi. Polzunli va krivoshipli taranglash moslamalari qo'llaniladi.

Taranglovchi g'ildirakning (19.16-rasm, a) krivoshipli o'qi (3) rama oldingi brusining kronshteyniga mahkamlanib, uning vtulkasida burila

oladi. Taranglovchi g'ildirak (1) tirsaklı o'qning sapfasidagi ikkita shariqli podshipnikda aylanadi. Taranglash prujinasi vilkasining qulog'i (2) tirsaklı o'qqa mahkamlangan. Tirsaklı o'qni burib o'rmalovchi zanjirning tarangligi o'zgartiriladi. Tirsaklı o'q taranglash moslamasi bilan buriladi.

Taranglash moslamasining (19.16-rasin, d) bolti (6) ga amortizatsiya prujinasi (5) kiygizilib, gayka (10) bilan ma'lum darajada siqb taranglanadi. Bolt kallagi vilka (4) dan o'tkazilgan, sterjeni esa ramaning tayanch kronshteyni (9) dagi sharsimon tayanch (8) orqali o'tkazilgin. O'rmalovchi zanjirning tarangligi kontrgayka (7) ni burab rostlanadi (19.16-rasin, b).

Traktor do'ngga urilganda tirsaklı o'q amortizatsiya prujinasi (5) ning yana ham siqifishi hisobiga buriladi, natijada turkilar yumshoqroq sezildi va o'rmalovchi zanjir detallari shikastlanishdan saqlanadi (19.16-rasin, e).



19.16-rasm. Taranglovchi g'ildirak va taranglash moslamasi:
1 — taranglovchi g'ildirak; 2 — vilkaning qulog'i; 3 — tirsaklı o'q;
4 — vilka; 5 — amortizatsiya prujinasi; 6 — bolt;
7 — kontrgayka;
8 — sharsimon tayanch;
9 — tayanch kronshteyni;
10 — gayka

5-\$. Traktor va avtomobilarning yurish qismiga texnik xizmat ko'rsatish

Traktor va avtomobilarning yurish qismi bevosita yerga tegib ishlaydi va mashinaning butun og'irligini yerga uzatadi. Yurish qismi detallari — g'ildirak shinalari, o'rmalovchi zanjir zvenolari va g'ildiraklari mashinaning boshqa detallariga nisbatan ko'proq yeyiladi. Yurish qismining kamchiliklari ko'pincha jiddiy avariyyaga sabab bo'ladi (bundan tashqari, shinalar va o'rmalovchi zanjirlari yuritgich qism detallari ancha qimmat turadi). Shuning uchun yurish qism detali va uzellalariga texnik xizmat ko'rsatish qoidalariga jiddiy e'tibor berish zarur.

Yurish qismiga texnik xizmat ko'rsatish ularni diqqat bilan ko'zdan kechirish, tozalash, bo'shab qolgan bolt va gaykalarini mahkamlash, shinalardagi havo bosimini, o'rmalovchi zanjirlarning tarangligini, g'ildirak va rolik podshipniklarini rostlash va ishlatalmagan vaqtida to'g'ri saqlashdan iborat.

G'ildiraklar gaykasi, o'rmalovchi zanjir zvenolari shplinti va boshmoqlarini zvenolarga mahkamlovchi boltlarni tekshirib, bo'shab qolganlarini mahkamlash lozim. Shuningdek, shinalarda havoning bosimi shina manometri bilan tekshirilishi va lozim bo'lsa, qo'shimcha dam berilishi zarur. Shuni unutmaslik kerakki, havo bosimining belgilanganidan ortiq bo'lishi, ayniqsa, kam bo'lishi shinalarning ishslash mud-datini keskin qisqartiradi.

Pokrishkalar strelka bilan ko'rsatilgan yo'nalishida aylanadigan qilib o'rnatilishi kerak, aks holda tez yeyiladi, hatto chuqur naqshlari sinadi. Shuningdek, qo'sh g'ildirakli shinalarda pokrishkalarning o'lchami, naqshining nusxasi, yangi-eskiligi bir xil bo'lishi va baravar bosimda dam berilishi shart. Shinalarni almashtirish (oldingi, ketingi, chap va o'ng tomondagilarni alishtirib qo'yish) ishslash muddatini oshiradi.

Mashinani siltab o'rnidan qo'zg'atish, birdaniga tormozlab to'xtatish, shinalarga yonilg'i va moy tegishi, shuningdek, temir-tersak, shisha sinig'i va boshqa tig'li buyumlarni bosib o'tish va oldingi g'ildiraklarning noto'g'ri o'rnatilishi pokrishkalarning tez yeyilishiga (yedirilishiga, teshilib yirtilishiga va chirishiga) sabab bo'ladi.


Traktor va avtomobillar uzoq vaqt to'xtatib qo'yilganda o'qlari ostiga tirkak qo'yib g'ildiraklarini yerdan ko'tarib qo'yish, shuningdek, shinalarni yong'indan va quyosh nuridan saqlash lozim. Zaxira pokrishka va kameralar quruq, salqin va kun tushmaydigan binoda saqlanishi kerak. Pokrishkalarni ustma-ust taxlash yaramaydi, ularni yonlamasiga

tikka qo'yib saqlash lozim. Kameralarni sal dam berib qoziqqa osib saqlash tavsya qilinadi.

Traktor va avtomobil oldingi g'ildiraklari, o'rmalovchi zanjirlarning taranglovchi g'ildiragi, tayanch g'ildiraklarining podshipniklarini rostlashning zarurligi g'ildiraklarni yerdan ko'tarib va o'rmalovchi zanjirni bo'shatib, liqillatib ko'rib aniqlanadi. Podshipniklarning rostlash gaykali g'ildiraklar sal qadalib aylana boshlaguncha burab qotirilib, keyin oldingi g'ildirak gaykasi 1/16-1/12 aylanaga, taranglovchi g'ildirak gaykasi 1/5-1/3 aylanaga burab bo'shatilib, g'ildirak liqillamasdan ravon aylanadigan qilinadi.

Oldingi g'ildirak, tayanch g'ildirak, tutqich roliklar podshipnigini, shuningdek, ressor barmoqlari va boshqalarini belgilangan muddatda sisatl moylash ularni yeyilishdan saqlashning eng zarur shartidir. Amortizatorlar suyuqligi kamayib qolishi sababli durust ishlamaydi. Odatta, suyuqlik yilda bir marta almashtiriladi.

O'rmalovchi zanjirli traktor yurish qisimining ishi sharoiti nihoyatda og'ir, chunki zvenolar moylanmaydi va doim qum va tuproqqa tegib ishlaydi. O'rmalovchi zanjirning normal tarangligini tekshirib turish lozim. Uning normal salqiligi tutqich roliklar (19.17-rasm, 1) tepasidan o'rmalovchi zanjirlar (2) barmog'i (3) ustiga reyka (4) qo'yib tekshiriladi.



19.17-rasm. O'rmalovchi zanjirning tarangligini tekshirish:

1 — tutqich rolik; 2 — o'rmalovchi zanjir zvenosi;

3 — barmog; 4 — teyka

Reykaning pastki zihi bilan zveno barmog'i o'rtasidagi oraliq 30 — 50 mm bo'lishi kerak.


Nazorat savollari

1. Traktor va avtomobilning yurish qismiga kiruvchi detallarning vazifasi nimada?
2. Ramali, ramasiz va yarim ramali traktorlar asosi qanday detallardan tuzilgan?
3. Universal traktorlarning yetakchi g'ildiraklari o'rtasidagi oraliq va yarim o'qlar g'ilofining yerdan balandligi qanday o'zgartiriladi?
4. Yuk avtomobiilining oldingi va ketingi ko'prigi va ularning osmasi qanday tuzilgan?
5. Teleskopik amortizatorning tuzilishi va ishlash tartibini bayon qiling.
6. G'ildirak va shinalar qanday tuzilgan? Kamerasiz va gumbazsimon shinalarning afzalliklari.
7. Pnevmatik shinalarning sirpanib g'ildirashini kamaytirish uchun nimalar qilinadi?
8. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning yurish qismi qanday tuzilgan?
9. Balansir karetkalar va taranglovchi g'ildirak qanday ishlaydi?
10. Traktor va avtomobilarning yurish qismiga texnik xizmat ko'rsatish vaqtida bajariladigan ishlarni aytib hering.

**1-\$. G'ildirakli traktor va avtomobilarning
rul boshqarmasi**

Rul boshqarmasi va tormozlar traktor va avtomobilarning boshqarish mexanizmlari deb ataladi. Rul boshqarmasi harakat yo'naliishini o'zgartiradi. Haydovchining ozmi-ko'pmi charchashi, mashinaning xavfsiz ishlashi, shinalarning yeyilishi rul boshqarmasining tuzilishiga va bekam-u ko'stligiga ko'p jihatdan bog'liqdirdi.

Rul boshqarmasi (20.1-rasm) rul mexanizmni va rul yuritmasidan iborat. Rul chambaragi (1), rul kolonkasi (2), rul vali (3), chervyak (19) va rolik (18) dan iborat rul mexanizmi rul chambaragining harakatini soshka (richag) vali (17) ga uzatadi. Chervyak va tishli sektor, chervyak va chervyak shesternali rul mexanizmi ham bo'ladi.




20.1-rasm. Rul boshqarmasining sxemasi:

- 1 — rul chambaragi; 2 — rul kolonkasi; 3 — rul vali; 4 va 13 — rul richagi;
5 va 12 — boshqariluvchi g'ildirak; 6 va 11 — sapfa; 7 va 10 — shkvoren;
8 — burish richagi; 9 — oldingi o'q; 14 — ko'ndalang tortqi; 15 — bo'ylama
tortqi; 16 — rul soshkasi; 17 — soshka vali; 18 — rolik; 19 — chervyak

Rul yuritmasi rul mexanizmining harakatini boshqariluvchi g'ildiraklar (5, 12) o'rnatilgan oldingi ko'prikka uzatadi. Rul yuritmasi rul soshkasi (16), bo'ylama tortqi (15), burish richagi (8) va rul trapetsiyasidan iborat. *Rul trapetsiyasi* buriladigan tomonendagi (ichki)

g'ildirakning ko'proq, tashqi g'ildirakning esa, kamroq burilishini ta'minlaydigan sharnir vositasida biriktirilgan to'rt zvenoli mexanizmdir. Bu mexanizm oldingi o'q (9) ko'ndalang tortqi (14) va rul richaglari (4, 13) dan tuzilgan. Oldingi o'qning uchlariga shkvorenlar (7, 10) vositasida burilish sapfalari (6, 11) biriktirilib, ular ko'ndalang tortqi va rul richaglari orqali bir-biriga bog'langan.

Traktor yoki avtomobil burilganda barcha g'ildiraklari sirpanmay g'ildirashi shart, aks holda og'ir buriladi va shinalar tez yeyiladi. G'ildiraklarning sirpanmasdan burilishini ta'minlash uchun barcha g'ildiraklar *burilish markazi* deb ataladigan O nuqta atrofida R radiusi bilan burilishi lozim (20.2-rasm). Yuqorida aytigandek, oldingi g'ildiraklarning turli (α_1 va α_2) burchakka burilishlarini — rul trapetsiyasi, ketingi g'ildiraklarning turli tezlikda aylanishlarini differensial ta'minlaydi.



20.2-rasm. To'rt (a) va uch (b) g'ildirakli traktoring burilish sxemasi

Boshqariluvchisi g'ildiraklarni qaysi tomonga burish lozim bo'lsa, rul chambaragi o'sha tomonga buriladi (20.1-rasm). Harakat rul vali, rul mexanizmi, rul soshkasi, bo'ylama tortqi orqali burchakli richagga va unga bog'langan chap sapfa (6) ga uzatiladi. Ko'ndalang tortqi harakatni chap sapfadан o'ng sapfa (1) ga o'tkazib, mashinaning burilishi ta'milanadi.


Traktorlar oldingi ko'prigini yerdan balandroq ko'tarish uchun burilish sapfalari oldingi o'qdan pastroq joylanadi (19.5-rasm, b, d), ba'zan traktoring yerdan balandligini o'zgartirish uchun sapfalar oldingi o'qqa yaqinroq yoki uzoqroq o'rnatiladigan qilinadi.

Rulning yengil buralishi uchun chambarak bilan burilish sapfasi orasida uzatma son oshiriladi va ba'zi traktor va avtomobillar rul

mexanizmida gidravlik, ba'zan pnevmatik kuchaytirgichlar o'rnatiladi.

Gidravlik kuchaytirgich rul chambaragini burashni 5—6 baravar vengillashtiradi va tezroq burlishni ta'minlaydi hamda boshqariluvchi g'ildiraklarga duch keladigan turkilarni so'ndiradi. Gidravlik kuchaytirgich moy nasosi hosil qiladigan moy bosimi kuchi bilan yengillik tug'diradi. Uning moy nasosi va moy baki ko'pincha traktorlarning alohida agregatli gidrotizimi bilan umumiy qilinadi.

Gidravlik kuchaytirgich (20.3-rasm) moy baki (10), shesternali nasos (8), zolotnik (4) li taqsimlagich (3) va kuch silindri (1) dan iborat. Moy nasosi traktor motoridan harakatga keltiriladi. Taqsimlagich rul mexanizmi chervyagi (11) ning valiga o'rnatilib, ikkala tomonida siqilgan holda o'rnatilgan prujinasi (5) bor. Kuch silindri porsheni (2) ning shtogi (16) reyka va sektor (13) orqali rul trapetsiyasiga biriktirilgan.




20.3-rasm. Rul gidravlik kuchaytirgichining ishlash sxemasi:

1 — kuch silindri; 2 — porshen; 3 — taqsimlagich; 4 — zolotnik; 5 — prujina; 6 — yuqorigi kanal; 7 — saqlagich klapan; 8 — moy nasosi; 9 — haydash kanali; 10 — moy baki; 11 — rul mexanizmining chervyagi; 12 — rul chambaragi; 13 — sektor; 14 — soshka; 15 — rul vali; 16 — shtok; 17 — burish richagi; 18 — boshqariluvchi g'ildirak

Rul chambaragi (12) buralmaganda zolotnik (4) siqib qo'yilgan prujinalar (5) kuchi ta'siri ostida neytral (o'rta) holatda turadi (18.9-rasm, a). Moy nasosi (8) dan haydash kanali (9) orqali kuch silindriga kirgan moy porshenning ikkala tomoniga baravar ta'sir etgani sababli uni siljitasdan moy bakiga qaytadi, ya'ni gidravlik kuchaytirgich ishlamaydi.

Rul chambaragi biror tomonga (masalan, o'ngga) burilganda chervyak (*1*) zolotnik (*4*) ni burib oldinga siljitadi (20.3-rasm, *b*). Bunday holda haydash kanali (*9*) kuch silindrining past tomoniga tutashib porshenni oldinga bosadi. Porshen o'z navbatida old tomonidagi moyni bosib, kanal (*6*) orqali bakka qaytaradi. Shtok (*16*) reykasi rul vali (*15*) bilan birga sektorni buradi. Rul valiga biriktirilgan soshka (*14*) rul trapetsiyasining burish richaglari (*17*) ni va ularning sapfalaridagi boshqariluvchi g'ildiraklar (*18*) ni o'ngga buradi.

Rul chambaragi chapga burilganda nasos haydagan moy yuqorigi kanal (*6*) dan porshennenning old tomoniga boradi. Shunda porshen siljib, uning orqasidagi moy bakka siqib chiqariladi. Nasos bilan haydaladigan moyning bosimi saqlagich klapan (*7*) bilan cheklanib, u 8 MPa bosimda ochiladigan qilib rostlangan. Rul chambaragini burash to'xtatilsa,



20.4-rasm. Boshqariluvchi g'ildiraklarning o'rnatilishi:

a — g'ildirakning og'ishi; *b* — shkvorenning uzunasiga qiya o'rnatilishi;
d — g'ildiraklarning yaqinlashuvi

g'ildiraklar ham burilishdan to'xtaydi, chunki kuch silindri sektorni buradi va chervyak ish holatidan neytral holatga qaytadi.

Boshqariluvchi g'ildiraklarning o'rnatilishi. G'ildiraklar burilgandan so'ng to'g'ri yo'nalishda harakat qiladigan holatga tezda qayta olishi, ya'ni g'ildiraklarning turg'unligini oshirish (stabillashtirish) va yengil boshqarilishi uchun shkvorenlar ko'ndalangiga (orqa tomonga) va uzunasiga (ichki tomonga) qiyaroq qilib o'rnatiladi (20.4-rasm, a, b).


Ko'ndalang qiyaligi β burchagi $6 - 8^\circ$, uzunasiga qiyaligi α burchagi $0 - 8^\circ$ gacha qilinadi. Bu burchaklarning ortiq bo'lishi avtomobilarning va traktorlarning katta tezliklarda turg'unligini oshiradi, ammo boshqarilishi og'irlashadi.

Avtomobil va traktorni burishni yengillashtirish, g'ildirak gupchaklaridagi podshipniklarga zo'r kelmasligi uchun oldingi g'ildiraklar tik o'rnatilmasdan 2° gacha qiyaroq (α burchagi) o'rnatilib, bu g'ildiraklarning og'ishi deyiladi. G'ildiraklarning og'ishi, shkvorenlarning ko'ndalang va uzunasiga qiyaligi rostlanmaydi.

G'ildiraklar og'ib turganligi, shkvoren, tortqi va podshipniklarda tirkish bo'lganligi sababli ular to'g'ri (parallel) turishi va kerilib sirpanmasligi uchun g'ildiraklar o'rtasidagi oraliq (20.4-rasm, d) old tomonda (*B*) torroq, orqa tomonda (*A*) kengroq bo'ladi. Bu oraliqlar ayirmasi $2 - 12$ mm qilinib, g'ildiraklarning yaqinlashuvi deyiladi. G'ildiraklarning yaqinlashuvi rul ko'ndalang tortqisining uzunligini o'zgartirib rostlanadi.

Rul boshqarmasining tuzilishini uch va to'rt g'ildiraklı traktor hamda yuk avtomobili misolida ko'tib o'tamiz.


Uch g'ildiraklı traktoring oldingi ko'prigi va rul boshqarmasi (20.5-rasm). Rul boshqarmasi oldingi g'ildirakning harakat yo'nalishini o'zgartiradi. Rul mexanizmi rul vali (3) ga o'rnatilgan ikki yo'lli chervyak (14) va burish vali (4) ga o'rnatilgan qiya tishli chervyak g'ildirak (sektor) (13) dan iborat. Rul vali burchak hosil qiladigan ikki qismidan iborat bo'lib, ular o'zaro kardan vositasida biriktirilgan. Rul chambaragi (1), rul stoykasi (2) ning ichidan o'tkazilgan valga o'rnatilgan. Burish valining uchiga g'ildirak vilkasi (7) mahkamlanib, vilkaga g'ildirak o'qi (8) o'rnatilgan. Oldingi g'ildirak (9) o'qdagi ikkita rolikli podshipnikda aylanadi. Rul mexanizmi yarimi ramaning oldingi brusi (6) ga mahkamlangan rul kolonkasi (5) ning yuqori qismiga o'rnatilgan. Chervyak ikkita konus rolikli podshipnikda aylanadi. Bu podshipniklarning ichki halqasi yo'q, sirtqi halqasi stakan (12) ichida turadi. Stakan rostlash gaykasi (11) orqali burilib, chervyak bilan sektor



20.5-rasm. Uch g'ildirakli traktoring oldingi ko'prigi va rul boshqarmasi:

1 — rul chambaragi; 2 — rul stoykasi; 3 — rul vali; 4 — burish vali;
 5 — rul kolonkasi; 6 — oldingi brus; 7 — g'ildirak vilkasi; 8 — g'ildirak o'qi;
 9 — oldingi g'ildirak; 10 — vint; 11 — gayka; 12 — stakan; 13 — chervyak
 g'ildirak (sektor); 14 — chervyak

tishlarining orasidagi tirqish rostlanadi. Konus podshipniklar tirqishi
 gayka (11) ga burab kirgizilgan vint (10) bilan rostlanadi. Vintning
 uchi stakan (12) ichiga joylashtirilgan shaybaga tiraladi.




20.6-rasm. To'rt g'ildirakli traktorning oldingi ko'prigi va rul boshqarmasi:

1 — rul vali; 2 — uchlik; 3 — shlitsali vtulka; 4 — hidravlik kuchaytirgich korpusi; 5 — vertikal val; 6 — oldingi o'q; 7 — barmoq; 8 — quvur; 9 — prujina; 10 — shkvoren; 11 — burish sapfasi; 12 — g'ildirak gupchagi; 13 — burish richagi; 14 — ko'ndalang tortqi; 15 — rul richagi; 16 — kardan sharnir; 17 — rul chambabaragi

To'rt g'ildirakli traktorning oldingi ko'prigi va rul boshqarmasi (20.6-rasm). Rul boshqarmasi hidravlik kuchaytirgichli bo'lib, rul chambabaragi (17) kardan sharnir (16) orqali biriktirilgan ikki bo'lak rul vali (1) ga mahkamlangan. Shlitsali vtulka (3) rul valini hidravlik kuchaytirgichning korpusi (4) dagi chervyak valiga biriktiradi. Rul mexanizmidan harakatga keltiriladigan vertikal val (5) markaziy rul richagi (15), ko'ndalang tortqi (14) va burish richaglari (13) orqali shkvorenlar (10) ga bog'langan.

Po'lat quvur balka ko'rinishidagi oldingi o'q (6) barmoq (7) vositasida yarim rama oldingi brusining kronshteyniga biriktirilgan. Quvursimon balkaning ikkala tomoniga quvurlar (8) kirgizilgan. Bu quvurlarga payvandlangan uchliklar (2) ga stoykalar boltlar bilan mahkamlangan. Stoykaning ichidagi vtulkaga burish sapsfasi (11) bilan yaxlit yasalgan shkvoren (10) kirgizilgan. G'ildirak gupchagi (12) sapfalardagi konus rolikli podshipniklarda aylanadi. Stoyka prujina (9) orqali shkvorendagi sharikli podshipnikka tiraladi.

Quvurlar (8) ni siljitim oldingi g'ildiraklar o'ttasidagi oraliqni o'zgartirish mumkin. Stoyka ichiga moydon orqali moy to'ldiriladi, G'ildirak gupchagiga ham moy to'latiladi. Rul boshqarmasida chervyak bilan sektorning va sektor bilan reykaning (gidravlik kuchaytirgich reykasining) tirqishi, shuningdek, gidravlik kuchaytirgichning saqlash klapani rostlanadi.



20.7-rasm. Avtomobilning rul mexanizmi:

- 1 — rul chambaragi; 2 — rul kolonkasi; 3 — rul vali; 4 — qistirma;
- 5 — chervyak; 6 — rolik o'qi; 7 — ikki tishli rolik; 8 — soshka valining kallagi;
- 9 — rostlash vinti; 10 — qalpoqli g'yaka; 11 — rul soshkasi;
- 12 — soshka vali; 13 — korpus

Avtomobilning rul mexanizmi (20.7-rasm) ramaning chap tomonidagi bo'ylama joylashgan balkasiga boltlar bilan mahkamlangan cho'yan korpus (13) ichiga joylashtirilgan chervyak (5) va ikki tishli rolik (7) dan iborat. Chervyak quvursimon rul vali (3) ning pastki uchiga presslab o'rnatilib, ikkita konus rolikli podshipnikda aylanadi. Rolik o'q (6) dagi ikkita sharikli podshipnikda turadi. O'q rul soshkasi (11) vali (12)

ning kallagi (3) ga presslab o'tqazilgan. Rul vali rul kolonkasi (2) ning ichiga joylashtirilib, uning yuqorigi uchiga rul chambaragi (1) mahkamlangan.

Chervyak podshipniklarining tirqishi qistirmalar (4) sonini o'zgartirib rostlanadi. Rolik bilan chervyakning tishlashishi (tishlarining orasidagi tirqishi) ustiga qalpoqli gayka (10) burab qo'yilgan rostlash vinti (9) bilan rostlanadi.

2-\$. Traktor va avtomobillarning tormozi

Tormoz mashinaning harakat tezligini sekinlashtiradi, to'xtatadi va to'xtatilgan holatda saqlab turadi hamda keskin burishga imkon beradi (traktorlarda).

Traktorni to'xtatilgan holatda qo'zg'atmasdan turg'izish undan statSIONar ishda foydalanish uchun ham zarur.


Traktorlarda kuch uzatish qismi mexanizmlari (oxirgi uzatma va boshqarish mexanizmlarining vali, shkivi va barabanlari) tormozlanadi. Avtomobillarda, asosan, yetakchi va boshqariluvchi g'ildiraklar, yuk avtomobillarida esa, qo'shimcha ravishda transmissiya mexanizmi (kardan val) ham tormozlanadi.

Traktor va avtomobilning tormozlash tizimi tormoz mexanizmi va tormoz yuritmasidan iborat.

Tasmali, diskli va kolodkali tormoz mexanizmlari bo'ladi. Tasmali tormoz, asosan, traktorlarda, diskli tormoz traktor va avtomobillarning ba'zilarida, kolodkali tormozlar esa, deyarli barcha avtomobillarda va ba'zi traktorlarda qo'llaniladi.

Tormozni harakatga keltirish uchun mexanik, gidravlik va pnevmatik yuritmalari qo'llaniladi. Barcha traktorlarning tormozlari va avtomobillarning qo'l tormizi mexanik yuritmali bo'ladi. Gidravlik yuritma yengil avtomobillarda va yuk avtomobillarida, pnevmatik yuritma ba'zi yuk avtomobillarida qo'llaniladi. Tormoz yuritmalaringin gidravlik-vakuum kuchaytirgichlari gidravlik yuritmalarini yana ham takomillash-tirishga imkon beradi, ular keyingi vaqtarda kengroq qo'llanila boshlandi.

Tasmali tormoz (20.8-rasm) valda aylanuvchi shkiv (5) ni o'rabi turadigan tasma (6), bo'shatuvchi prujina (3) va harakatga keltiradigan tepki (1) dan iborat. Ishqalanish kuchini oshirish uchun tasmaning shkivga tegadigan sirtiga friksion qoplama mahkamlangan. Oddiy va erkin tasmali tormozlar bo'ladi.



20.8-rasm. Tasmalni tormozlar sxemasi:

a — oddiy tasmali; *b* — erkin tasmali; *1* — tepki; *2* — rostlash tortqisi; *3* — prujina; *4* — rostlash bolti; *5* — shkiv; *6* — tasma; *7* — uch yelkali richag


Oddiy tasmalni tormoz (20.8-rasm, *a*) tasmasi (*6*) ning bir uchi barmoq va rostlovchi tortqi (*2*) vositasida karterga, ikkinchi uchi richag va tortqlar orqali tormoz tepki (*1*) ga biriktirilgan. Tepki bosilmaganda tasma prujina (*3*) bilan tortilib, shkivga tegmaydi va salqimasligi uchun rostlash bolti (*4*) ga tegib turadi. Tepki bosilganda tasma (*6*) tortilib, shkivga ishqalanadi va uni to'xtatadi. Oddiy tormoz tasmasining bir uchi qo'zg'almaydi, shuning uchun shkiv bir tomonga (strelka bilan ko'rsatilgan tomonga) aylanganda yaxshi tormozlanadi, teskari tomonga aylanganda (masalan, traktor orqaga yurganda) kuchli tormozlanmay, tepkini qattiqroq bosish kerak bo'ladi.

Erkin tasmalni tormoz (20.8-rasm, *b*) tasmasi (*6*) ning ikkala uchi uch yelkali richag (*7*) va tortqi orqali tormoz tepki (*1*) ga bog'langanligi uchun ikkala uchi ham tortilishi mumkin. Shkiv (*5*) qaysi tomonga aylansa, tasma (*6*) ning o'sha tomondagi uchi qo'zg'almaydi, shuning uchun ikkala tomonga aylanganda ham baravar kuch bilan tormozlanaveradi.

Tasma bilan shkiv orasidagi tirkish tormoz tepkining yurish yo'liga qarab rostlanadi, buning uchun tasmaning bir uchida rostlash gaykasi bor.

Diskli tormoz (20.9-rasm) aylanuvchi valga o'matilgan tormoz diskini va unga ishqalanib tormozlovchi harakatlanmaydigan disk yoki kolodkalardan iborat. Dasta bilan boshqariladigan bir diskli tormoz (20.9-rasm, *a*) quyidagicha tuzilgan. Transmissiya vali (*5*) ga mahkan-

langan tormoz diskisi (5) ning ikki yoniga friksion qoplamlari kolodkalar (3) o'rnatilgan. Dasta (1) tortilganda kolodkalar disk (5) ga siqilib uni tormozlaydi, bunda siqilgan holda o'rnatilgan prujina (2) yana siqiladi. Dasta bo'shatilishi bilan kolodkalar prujina kuchi ta'sirida kerilib, diskdan uzoqlashadi, transmissiya vali (4) tormozlanmaydi.




20.9-rasm. Diskli tormozlar sxemasi:

a — bir diskli; *b* — ikki diskli; 1 — dasta; 2 — prujina; 3 — kolodka;
4 — transmissiya vali; 5 — tormoz diskisi; 6 — tepki; 7 va 10 — qoplamali disk;
8 va 9 — siquvchi disk; 11 — aylanuvchi val; 12 — sharik

Tepki bilan boshqariladigan ikki diskli tormozning (20.9-rasm, *b*) aylanuvchi val (11) ga o'rnatilgan friksion qoplamlari (7, 10) va shariklar (12) bilan suriladigan siquvchi disklari (8, 9) bor. Siquvchi disklar bir-biriga prujinalar bilan tortib qo'yilgan, ularning sirtida bir tomoni chuqurroq qilingan bir necha o'yig'i bor. Tormoz tepki (6) bosilmaganda disklar orasidagi shariklar (12) o'yilarning chuqur tomoniga joylashib, disklarni kermaydi. Tepki bosilganda siquvchi disklar (8, 9) tortqi va boldoqlar yordamida qarama-qarshi tormonga buriladi. Bunda shariklar disklar o'yig'inining yuzaroq qismiga tiralib, ularni keradi. Siquvchi disklar aylanuvchi disklar (7, 10) ga tiralib, ularni tormozlaydi. Tepki bo'shatilganda siquvchi disklarni tortib turuvchi prujinalar dastlabki holatiga qaytaradi.

Kolodkali tormoz (20.10-rasm) aylanuvchi baraban va qo'zg'almas kolodkalardan iborat. G'ildirak (1) diskii baraban (5) shpilkalariga mahkamlangan. Baraban ichiga joylashtirilgan kolodkalar (6) ning bir uchi barmoqlar (7) da burila oladi. Kolodkalar sirtiga friksion qoplamalari qoplangan va prujina (4) bilan tortib qo'yilgan. Tormozlanmagan holda

kolodkalar barabanga tegmaydi. Tormoz tepki (2) bosilganda tortqi va richaglar orqali keruvchi kulak (3) burilib, kolodkalarni barabanga tiraydi, bunda prujina (4) yana ham cho'ziladi. Kolodkalar bilan baraban orasida hosil bo'lgan ishqalanish g'ildirakni tormozlab to'xtatadi. Tepki bo'shatilgach, kolodkalar prujina ta'sirida tortilib, barabandan uzoqlashadi.




20.10-rasm. Kolodkali tormozning ishlash sxemasi:

1 — g'ildirak; 2 — tepki; 3 — mush; 4 — prujina;
5 — diskli baraban; 6 — kolodkalar; 7 — barmoq

Gidravlik tormoz yuritmasi (20.11-rasm) tormozlash tizimini oson boshqarishga, barcha g'ildirakni bir me'yorda ravon tormozlashga imkon beradi. Gidravlik yuritma asosiy silindr (5) quvurchalar (3) va g'ildirak tormozlash silindri (2) dan iborat. Tizim past haroratda qotmaydigan maxsus suyuqlik bilan to'ldiriladi.

Tormoz tepki (4) bosilganda asosiy silindrning porsheni (6) suyuqlikni 7 — 8 MPa gacha bosimda tormozlash silindrlari (2) ga yuboradi. Suyuqlik bosimi kolodkalar (1) ni barabanga tirab g'ildiraklarni tormozlaydi. Tepki bo'shatilgach, tizimdagi suyuqlik bosimi darhol kamayadi, asosiy silindr prujinasi porshenni dastlabki holatga qaytaradi. Kolodkalar prujina (7) bilan tortilib, barabandan ajraladi, tormozlash silindriga yuborilgan suyuqlik esa, asosiy silindrga qaytadi.




20.11-rasm. Gidravlik tormoz yuritmasining sxemasi:
 1 — kolodka; 2 — g'ildirak tormozlash silindr; 3 — quvurchalar;
 4 — tepki; 5 — asosiy silindr; 6 — porshen

Pnevmatik tormoz yuritmasi (20.12-rasm) havoning bosim kuchi bilan tormozlarni boshqarishni yengillashtirib, o'rta va og'ir yuk avtomobillarida qo'llaniladi. Pnevmatik yuritma avtomobil motoridan harakatga keltiriladigan kompressor (5), siqilgan havo balloni (7), tormoz tepki (10) bilan bog'langan tormoz krani (8) va har qaysi g'ildirak tormozlariga o'rnatilgan tormoz kameralari (3) dan iborat bo'lib, bularning barchasi trubka (9) lar bilan bir-biriga bog'langan.

Kompressorda 0,9 MPa ga qadar siqilgan havodan oyna tozalagichlarni harakatga keltirish, shinalarga dam berish, avtomobilga tirkal-gan pritsepning tormozlarini boshqarish uchun ham foydalanish mumkin. Tiziindagi havoning bosimi manometr (6) bilan tekshirilib, maxsus regulator bilan rostlanadi yoki kompressor klapani ma'lum bosimda ochiladigan qilinadi. Rasmida tormoz yuritmasining oddiy sxemasi keitirilgan. Zamonaviy avtomobillarda havo balloni ikkita, manometrning ikkita tili bo'ladi. Tormoz krani tirkama tormozini ham boshqaradi.

Tormoz tepkisi (10) bosilganda jo'mrak (8) ballon (7) ni tormoz kameralari (3) ga tutashtiradi. Tormoz kamerasiga kirgan havo uning diafragmasi (11) ni bosib, unga bog'langan shtokni siljitadi, burda prujina (2) siqiladi. Shtokka bog'langan rinchag (1) va valik kulak (12) ni burzadi. Kulak prujina (13) ni cho'zib, tormoz kolodkalari (4) ni

barabanga siqadi. Tormoz tepki bo'shatilganda tormoz krami tormoz kameralarini ballondan ajratadi va ularni atmosfera bilan tutashtiradi. Tormoz kamerasidagi bosim pasayadi. Diafragma (11) prujina (2) ning kuchi ta'siri ostida dastlabki holatga qaytadi. Keruvchi kulak (12) buriladi va kolodkalarni prujina (13) barabandan ajratadi.



20.12-rasm. Pnevmatik tormoz yuritmasining sxemasi:


1 — richag; 2 va 13 — prujina; 3 — tormoz kamerasi; 4 — tormoz kolodkali;
5 — kompressor; 6 — manometr; 7 — havo balloni; 8 — tormoz krami;
9 — quvurchalar; 10 — tormoz tepkisi; 11 — diafragma; 12 — musht

Tormozlarning tuzilishini o'rganish uchun ulardan ba'zi birlarining konstruksiyasini ko'rib o'tamiz.

TT3-60 traktorining har qaysi yetakchi g'ildiragini alohida (lozim bo'lsa ikkalasini bir vaqtda) tormozlashga imkon beradigan ikkita tasmalı tormozi (20.13-rasm) bor. Tormoz barabani (4) oxirgi uzatma yetakchi shesternasining shlitsali uchi (6) ga o'rnatilib, tasma (5) bilan o'ralgan. Tasmaning uchlari, tormozning kulachokli vali (1) ga mahkamlangan barmoqlar (3) ga biriktirilgan. Tasmaning barabanga tegadigan sirtiga friksion qoplama (7) mahkamlangan. Tormoz qopqog'i (8) ga o'rnatilgan bolt (9) tasmani tutib turadi. Tormozning kulachokli vali (1) ga mahkamlangan richag (2) tortqi va vilka orqali tormoz tepkiga bog'langan.

Tepki bosilganda kulachokli val burilib, tasmaning uchlari tortiladi. Tasmaning barabanga ishqalanib, uni tormozlaydi. Tasmaning ikkala uchi

kulachokka bog'langanligi uchun, traktor oldinga va ketinga yurganda ham bir xil kuch bilan tormozlanadi. Tormoz bo'shatilganda uning prujinasi tepkini dastlabki holatga qaytaradi va richag burilib tasma barabanga tegmaydi. Ikkala tormozni birga ishlatalish (blokirovka qilish) uchun ilgak bor. Traktorni to'xtatilgan holda tormozlab qo'yish uchun maxsus ilgak va xrapovik bor. Tormoz tasmasining friksion qoplamasi yeyilganda tortqining vilkasini burab, uning uzunligini o'zgartirib va richag (2) ni val (1) ning shlitsalaridan chiqarib olib burib, keyin qaytadan o'rnatish yo'li bilan tormoz rostlanadi.




20.13-rasm. TT3-60 traktorining tasmali tormizi:

- 1 — kulachokli val; 2 — richag; 3 — barmoq; 4 — tormoz barabani;
- 5 — tasma; 6 — quyruq; 7 — qoplama; 8 — qopqoq; 9 — bolt

TA3-53A avtomobilining g'ildiraklariga o'rnatilgan kolodkali tormoz oyoq tepki bilan gidravlik yuritma orqali boshqariladi. Uzatmalar qutisi keyiniga (kardan valga) kolodkali dastaki tormoz o'rnatilgan.

Oldingi va ketingi g'ildirak tormozlari bir xil tuzilgan bo'lib, ketingi kolodkalar enliroq bo'ladi. Kolodkali tormoz (20.14-rasm) diskiga (4) ning past tomoniga eksentrik bronza shayba (6) li kolodkalar o'qi (7), yuqorigi qismiga esa g'ildirakning tormozlash silindri (1) mahkamlangan. Oldingi g'ildiraklar diskiga burish sifalarining flanesiga, ketingi g'ildiraklar diskiga esa, yarim o'qlar kojuxining flanesiga mahkamlangan. Kolodkalar (5) ga friksion qoplamlar qoplanib, kolodkalar prujina (5) bilan tortib qo'yilgan. Kolodkalar yon tomonga siljimasligi uchun prujinali skobalar (3) qo'yilgan.

Kolodkalar bilan baraban orasida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchi old tomondagi kolodka porshenining itarilishiغا qo'shilib, tuni barabanga



20.14-rasm. Yuk avtomobilining (TAZ-53A) g'ildirak tormozi:


1 — g'ildirak tormoz silindri; 2 — eksentrik; 3 — skoba; 4 — disk;
5 — kolodka; 6 — shayba; 7 — kolodkalar o\'qi; 8 — prujina

kuchliroq siqadi; ketingi kolodka porshenini esa, aksincha, itarilishiga qarshi ta'sir etib, uning barabanga siqlishini kamaytiradi. Shu sababli kolodkalarning baravar yeyilishi uchun oldingsining qoplamasi uzunroq qilinadi. Tormoz barabani bilan kolodkalar orasidagi tirqish yuqori tomondagi prujinali rostlash ekssentrigi (2) bilan, past tornondan esa, kolodkalar o\'qi (7) ni burib rostlanadi.

Gidravlik tormoz yuritma (20.15-rasm) asosiy silindri korpusi (1) ning yuqorigi qismiga rezervuar, pastki qismiga silindr joylashtirilib, ular o'tkazuvchi teshik (2) va kompensatsiya teshigi (3) bilan bir-biriga tutashtirilgan. Korpus avtomobil ramasiga mahkamlangan. Rezervuar tijinli qopqoq bilan berkitilgan.

Silindr ichiga kallagida oltita teshigi bo'lgan porshen (15) joylashtirilgan. Porshen kallagi bilan manjeta (13) orasiga yulduzsimon prujina (14) joylashtirilgan. Manjeta (13) kiritish klapani (11) prujinasi (12) ning ta'sirida porshenga siqiladi. Kiritish klapani tarelkasiga chiqarish klapani (4) o'rnatilib, uning prujinasi (10) bor. Porshen ichiga shtok (16) kirgizilib, u tortqi (17) va richag orqali tormoz tepkiga bog'langan.

Asosiy silindr quvur va shlanglar orqali g'ildiraklarning tormozlash silindriga tutashtirilgan. G'ildirak silindri korpus (6), ikkita porshen




20.15-rasm. Gidravlik tormoz yuritmasi asosiy silindri va g'ildirak silindrlerining ishlash sxemasi:

a — tormozlanganda; b — tormoz bo'shatilganda; 1 — asosiy silindr korpusi; 2 — o'tkazuvechi teshik; 3 — kompensatsiya teshigi; 4 — chiqarish klapani; 5 — porshen; 6 — g'ildirak silindr korpusi; 7 — manjeta; 8, 10, 12 va 18 — prujina; 9 — turtgich; 11 — kiritish klapani; 13 — manjeta; 14 — yulduzsimon prujina; 15 — asosiy silindr porsheni; 16 — shtok; 17 — tortqi; 19 — kolodkalar; 20 — baraban

(5) va ikkita turtgich (9) dan iborat. Porshenlarning prujina (8) bilan qisilgan manjetasi (7) bor. Turtgichlar (9) kolodkalar (19) ga tiraladi. Kolodkalar prujina (18) bilan tortib qo'yilgan.

Tormoz tepki bosilganda asosiy silindrning porsheni (15) o'ng tomonga siljiy boshlaydi. Porshen kompensatsiya teshigi (3) ni berkitishi bilan silindrda suyuqlik chiqarish klapani (4) ni ochib, quvur orqali g'ildirak silindriga yo'naladi. Suyuqlik bosimi prujina (18) ning tortish kuchini yengib, porshenlar (5) ni siljitaldi. Turtgichlar (9) kolodkalar (19) ni baraban (20) ga qisadi.

Tormoz tepki bo'shatilishi bilan tizimdagи suyuqlik bosimi pasayadi. Asosiy silindr porsheni (15) prujina (12) ta'sirida chapga siljiydi. Bunda silindrda siyraklanish hosil bo'lib, prujina (14) ni manjet (13) ga siqadi va suyuqlik porshennenning teshiklaridan silindrغا o'tadi. Kolodkalar prujina (18) kuchi bilan tortilib barabanga ishqalanmaydi va suyuqlik g'ildiraklar



20.16-rasm. Gidrovakuum tormoz yuritmasi kuchaytirgichining ishlash sxemasi:


1 — asosiy silindr; 2 — tepki; 3 — so'rish quvuri; 4 — berkitish klapani;
 5 — kamera; 6 — diafragma; 7 — prujina; 8 — shtok; 9 — klapan;
 10 — porshen; 11 — kuchaytirgich silindr; 12 — havo filtri;
 13 — boshqarish klapani

silindridan chiqib, kiritish klapani (11) ni ochib, asosiy silindrda qaytadi. Prijina (18) kiritish klapanining ochilishiga qarshilik ko'rsatganligi uchun g'ildirak silindrлari va quvurlarda doim 0,05 MPa chamasida suyuqlik bosimi saqlanadi.

Agar g'ildiraklar silindridan suyuqlikning qaytishi natijasida asosiy silindrдagi bosim ortsa, suyuqlikning bir qismi kompensatsiya teshigi (3) orqali rezervuarga o'tadi.

Avtomobilning yaxshiroq tormozlanishi va haydovchiga yengil tushishi uchun oyoq tormozlar yuritmasiga gidrovakuum kuchaytirgich о'rnataladi. Gidrovakuum kuchaytirgich (20.16-rasm) gidravlik asosiy silindr (1), gidrovakuum kamera (5), boshqarish klapani (13), havo filtri (12) va shlanglardan iborat.

Gidrovakuum kuchaytirgichning ishlashi gidravlik yuritina tizimida qо'shimcha kuch hosil qilishda motor so'rish quvuridagi siyraklanishdan foydalanishga asoslangan.



20.17-rasm Tormoz yuritmasi gidrovakuum kuchaytirgichining boshqarish klapani:

Raqamlar 20.16-rasmdagidek, 14 — atmosfera klapani; 15 — katta turtgich; 16 — vakuum klapan; 17 -- koromislo; 18 -- diafragma; 19 — kichik turtgich; 20 va 21 — prujina

Kamera (5) ning ichiga diafragma (6) va prujina (7) joylashtirilgan. Diafragmaga bog'langan shtok (8) ning ikkinchi uchi kuchaytirgich silindri (11) ning porsheni (10) ga biriktirilgan. Porshen (10) ichida klapan (9) bor. Kuchaytirgich silindri (11) shlanglar orqali gidraviik tormoz silindri (1) ga, boshqarish klapani (13) ning III va V xonasiga tutashtirilgan.

Diafragmaning I (chap) xonasi boshqarish klapanining VI xonasiga, II (o'ng) xonasi esa IV xonasiga birlashtirilgan. Boshqarish klapanining

VI xonasi motorning so'rish quvuri (3) ga ulangan. Birlashtirish quvuriga berkitish klapani (4) o'rnatilgan.

Boshqarish klapaniga (20.17-rasm) havo filtri (12), atmosfera klapani (14), katta turtgich (15), kichik turtgich (19), vakuum klapan (16), koromislo (17) joylashtirilgan. Turtgichlarning diafragmalar (18) bo'lib, kichik turtgichning diafragmasini prujina (20) bosadi.

Motor ishlayotgan vaqtida tormoz tepki bosilmasa, so'rish quvuri-dagi siyraklanish shlanglar orqali I, II, IV va VI xonalarga uzatiladi. Vakuum-klapan (16) ochiq bo'ladi va kuchaytirgich ishlamaydi.


Tormoz tepki (2) bosilganda suyuqlik asosiy silindr (1) dan kuchaytirgich silindri (11) ga va boshqarish klapanining III va V xonalariga boradi. Bunda porshen (10) ning klapani (9) ochiq bo'ladi. Katta turtgich (15) ning bosish sirti kichik turtgich (19) nikidan uch baravar katta bo'lgani uchun III kameradagi bosim ortib, prujina (20) ni siqadi va koromislo (17) ni bosadi. Vakuum-klapan (16) yopiladi, atmosfera klapani ham yopiqligicha turadi. Keyin suyuqlik bosimi ortib, koromisloni ko'proq bosadi, prujina (21) siqilib, atmosfera klapani (14) ochiladi. Bunda havo atmosferadan filtr (12) orqali IV xonaga va trubka orqali kuchaytirgichning I xonasiga kiradi. Kuchaytirgichning I va II xonasidagi bosimlar o'tasidagi farq diafragmaga ta'sir etib shtok (8) ni o'ngga suradi va gidravlik tizimda qo'shimcha bosim kuchi hosil bo'ladi.

Tepki bo'shatilganda suyuqlik bosimi pasayadi, prujina (20) turtgichlarni bosib dastlabki holatga qaytaradi. Atmosfera klapani yopiladi, vakuum klapan ochiladi, diafragma itarilmaydi, ya'ni kuchaytirgich ishlamaydi. Berkitish klapani (4) tizimdagи siyraklanishni saqlaydi. Motor o'chirilganda tizimdagи qoldiq siyraklanish 1 — 2 marta tormoz-lashga yetadi.

Kolodkali dastaki tormozning (20.18-rasm), tayanch diskni uzatmalar qutisining orqa devoriga, tormoz barabani esa kardan vilkasining flanesiga mahkamlangan (rasmda baraban ko'rsatilmagan). Tayanch disk (5) ning yuqorigi qismiga keruvchi mexanizm korpusi (9), past tomoniga rostlash vinti (14) ning korpusi (7) o'rnatilgan. Keruvchi mexanizm korpusi (9) ning teshiklariga barmoqlar (10) kirdizilib, ularning o'tasiga keruvchi sterjen (11) joylashtirilgan. Sterjen uchida ikkita sharik bor. Rostlash vinti korpusi (7) ning teshigiga barmoqlar (13) kirdizilib, rostlash vinti (14) bilan bog'langan pona (12) joylashtirilgan. Kolodkalar (6, 17) ning yuqorigi uchlari barmoqlar (10) ning kesigiga, pastki uchlari esa barmoqlar (13) ga kirdizilgan. Har bir

kolodkaning yuqorigi va pastki uchi barmoqqa alohida (hammasi bo'lib to'rtta) prujina bilan tortib qo'yilgan.

Tormoz boshqarish richagi (1) ga tortqi (2), ilgak (16) va tortqi (3) orqali birlashtirilgan. Tortqi (3) richag (4) teshigidan o'tkazilib, richagning ikkinchi uchi keruvchi sterjen (11) ga tiralgan. Richag (1) tortilganda tortqi (3) richag (4) ni buradi, uning ikkinchi uchi sterjen (11) ni itarib, barmoqlar (10) ni keradi. Barmoqlar kolodkalarni barabanga qisadi va kardan val tormozlanadi. Kolodka (6) ning tortib turuvchi prujinalari bo'shroq bo'lGANI uchun u barabanga oldinroq



20.18-rasm. Yuk avtomobilining qo'l tormizi:

1 va 4 — richag; 2 va 3 — tortqi; 5 — tayanch disk; 6 — kolodka;
7 va 9 — korpus; 8 — prujina; 10 va 13 — barmoq; 11 — keruvchi sterjen;
12 — point; 14 — rostlash vinti; 15 — sektor; 16 — ilgak; 17 — kolodka

tiralib, uning pastki uchi pona (12) orqali kolodka (17) ni barabanga kuchliroq sijilishini ta'minlaydi. Mashinan tormozlangan holda qoldirish uchun ilgak (16) sektor (15) tishiga ilintirib qo'yiladi. Tormozni bo'shatish uchun richag (1) uchidagi tugmachani bosib richagni surish kerak.

3-§. Traktor va avtomobilning boshqarish organlari va nazorat asboblari

Traktor, avtomobil va ularning alohiba mexanizmlarini boshqarish hamda ishini kuzatish uchun boshqarish organlari va nazorat asboblari bo'lib, ular asosan kabinaga haydovchi o'rindig'i ro'parasiga joylash-tiriladi. Traktor boshqarish organlari va nazorat asboblarining joylash-tirishini o'rganish uchun startyor bilan yurgizib yuboriladigan T-40 markali traktor va yurgizib yuborish motoridan o't oldiriladigan йТ-75 markali traktor boshqarish organlari va nazorat asboblarining joylashtirilishini va ishlatalishini ko'rsatib o'tamiz.

T-40 markali traktoring boshqarish organlari va nazorat asboblariga quyidagilar kiradi (20.19-rasm):

1 — rul chambaragi;

2 — ketingi quvvat olish valini qo'shish richagi -- richagni uch holatga surish mumkin;

3, 5 — chap va o'ng tormoz tepki — o'ng oyoq bilan bosiladi;

4 — tormoz tepkilarini birlashtiruvchi planka — planka tushirib qo'yilsa, ikkala tormoz birga ishlaydi;

6 — tormozlangan holda qoldirish uchun surib qo'yiladigan ilmoq. Tepki bosilib, ilmoq itarib qo'yiladi;

7 — uzatmalarni almashtirib qo'shish richagi — richag to'qqiz holatda qo'yilishi mumkin;

8 — differensialni blokirovka qilish tepkisi. Tepki bosilganda differensial ishlamaydi;


9 — revers richagi — ikki holatga surilishi mumkin;

10 — yonilg'i yuborishni oyoq bilan boshqarish tepkisi — tepki bosilsa, yonilg'i ko'p yuboriladi;

11 — yon quvvat olish valini qo'shish richagi, richagning uch holati bor;

12 — quvvat olish vali tishlashish muftasining tepkisi;

13 — silindrлar jaluzasining richagi — richag tortib qo'yilsa, jaluzalar ochiladi, itarib qo'yilsa yopiladi;



20.19-rasm. T-40 traktorining boshqarish organlari va nazorat asboblari

14 — asosiy tishlashish mustasining tepkisi — tepki bosilsa, musta ajraladi;

15 — startyorni qo'shish tepkisi — tepkini bosganda startyor qo'shiladi;

16 — dekompressiya mexanizmining richagi — richag yuqoriga ko'tarib qo'yilsa, mexanizm qo'shiladi, ya'ni silindrlarda havo siqilmaydi;

17 — moy termometri — motor karteridagi moyning haroratini ko'rsatadi;

18 — ampermetr — akkumulatorning zaryadlanishini yoki zaryadsizlanishini ko'rsatadi;

19 — shehit lampochkasi — asboblar taxtasini yoritadi;

20 — nazorat lampochka — motor kallagi ortiqcha qiziganda lampochka qizil yonadi. Lampochkaning datchigi to'rtinchli silindr kallagiga o'rnatilgan;

21 — saqlagich — yoritish va signalizatsiya elektr zanjiri zo'riqib ishlaganda va qisqa tutashganda ishlaydigan termobimetall saqlagich;

22 — yonilg'i yuborilishini boshqarish richagi — ko'tarib qo'yilsa, yonilg'i yuborilmaydi, pastga bosilsa, yonilg'i yuborilishi ortadi;

23 — moy manometri — asosiy moy magistralidagi moyning bosimini ko'rsatadi;

24 — elektr alangali isitgichning nazorat elementi — isitgich qo'shilganda uning elementi qanchalik qiziganligini ko'rsatadi;

25 — elektr alangali isitgichning tugmasi — isitgichni qo'shadi;

26 — gidravlik taqsimlagichning richaglari — chap va o'ng tomondagilari chiqarma gidrosilindrlarni, o'tradagisi ketingi asosiy kuch silindrini boshqaradi, har qaysi richagning to'rt holati bor.

Eslatma. T-40A va boshqa traktor hamda avtomobilarning boshqarish organlari va nazorat asboblari zavodlar tomonidan o'zgartirib va qo'shimcha uskunalar o'rnatib takomillashdirilib turiladi, shuning uchun bu sxemalar haqiqatda boshqacharoq bo'lishi mumkin. Masalan, T-40A markali traktorning keyingi chiqarilganlarida ventilatorning tasmasi uzilganda yonadigan signal lampa qo'yilgan, startyor tepki o'miga tugmacha qilingan va hokazo.

JT-75 markali traktorning boshqarish organlari va nazorat asboblari quyidagilardan iborat (20.20-rasm):

1 — yurgizib yuborish motori benzin bakining krani — ishlatalgan vaqtida ochilib, boshqa vaqtida berkitib qo'yiladi;

2 — karburator drossel to'sig'ining povodogi;

3 — karburator havo to'sig'ining povodogi;

4 — karburator havo kiradigan qisqa quvurining qopqog'i;

5 — mayin yonilg'i filtrining ventili;

6 — yonilg'i pompasi qo'l nasosining dastasi;


7 — yonilg'i nasosi quyuqlashtirgichining tugmachasi — quyuqlash-tirgichni ishlatish uchun tugmacha tortib qo'yiladi;

8 — yondirishni o'chirish tugmasi — yurgizib yuborish motorini o'chirish uchun tugma bosiladi;

9 — yurgizib yuborish motori tishlashish mustasining richagi — oldinga surib qo'yilganda mufta qo'shiladi, ketinga surilganda ajraladi;

10 — reduktor richagi — orqaga oxirigacha surilganda birinchi uzatma, oldinga oxirigacha surilganda esa, ikkinchi (to'g'ri) uzatma qo'shiladi;

11 — yurgizib yuborish motorining o't oldirish chizimchasi — o't oldirish uchun maxovik chizimcha bilan aylantiriladi;



20.20-rasm. JET-75 traktorining boshqarish organlari va nazorat asboblari

12 – harakatlantirish mexanizmining shesternasini qo'shuvchi richag. Harakatlantirish shesternasini maxovikning tishli gardishiga tishlashtirish uchun richag pastga bosib, keyin yana yuqoriga ko'tarib qo'yiladi;

13 – dekompressiya mexanizmining richagi — richag «Прорыв — 1» holatiga qo'yilganda barcha silindrda, «Прорыв — 2» holatiga qo'yilganda esa, birinchi va ikkinchi silindrлarda havo siqlimaydi (kompressiya bo'lmaydi), «Рабора» holatida dizelning barcha silindrлarda havo siqladi;

14 — asosiy tishlashish mustasining tepkisi — traktorchining o'ng oyog'i ostida bo'lib, qo'shilgan holda turadi, bosilganda musta ajraladi;

15 va 20 — tormozlar tepkisi — traktorni qaysi tomonga keskin burish kerak bo'lsa, o'sha tomondagi musta ajratilib, keyin tepki bosiladi;

16 — tormoz tepkining ilgagi — traktorni to'xtatib tormozlangan holda qoldirish uchun tepki oxirigacha bosilib, keyin sektorlari qo'l bilan ko'tarib tepki shifstiga tishlashtiriladi;

17 — yonilg'i manometri — mayin filtridan o'tgan yoniilg'i bosimini ko'rsatadi;

18 — moy termometri — asosiy moy magistralidagi moyning haroratini ko'rsatadi;

19 — yoritish ulab-uzgichi — faralardagi lampochkalarni yoqish uchun richagchalari yuqoriga ko'tariladi, o'chirish uchun pastga tushiriladi;

21 — sovitish tizimi termometri — silindrlar kallagidan radiatorga o'tadigan suvning haroratini ko'rsatadi;

22 — moy manometri — asosiy moy magistralidagi moyning bosimini ko'rsatadi;

23 — gidravlik tizim taqsimlagichining boshqarish richaglari — chap va o'ng tomondagi richag chap va o'ng chiqarma silindrlarni, o'rtradagisi esa asosiy silindrnini boshqaradi;

24 — shchit lampasi — shchitdagini nazorat asboblarni yoritadi;

25 — tovush signalining trosi — traktorchi pritsepechini ogohlantirish uchun foydalanadi;

26 — ketingi fara va qo'shimcha rozetka ulab-uzgichi — ketingi va tirkalgan mashinalardagi faralarni yoqadi va o'chiradi;

27 — uzatmalarni almashtirib qo'shish richagi — yetti turli holatga qo'yilishi mumkin;


28 va 29 — traktorning burish mustalarini boshqarish richaglari — traktorni qaysi tomonga ravon burish kerak bo'lsa, o'sha tomondagi richag tortiladi, keskin burish uchun o'sha tomondagi tormoz tepki ham bosiladi;

30 — yonilg'i yuboruvchi mexanizm richagi — richag yuqoriga oxirigacha ko'tarib qo'yilsa, yonilg'i yuborilmaydi va dizel o'chadi, pastga oxirigacha bosilsa, yonilg'i eng ko'p yuboriladi.

Bu sxemada ko'rsatilganlardan tashqari, silindrlar blokining old tomonida gidravlik tizimning moy nasosini qo'shish richagi va motorning necha soat ishlaganligini ko'rsatuvchi motor-soatlar hisoblagichi o'rnatilgan.

Avtomobil va uning alohida mexanizmlarini boshqarish organlari va nazorat asboblari kabinaga joylashtirilgan. Bularning joylashtirilishi va ishlatalishini TA3-51A avtomobili misolida ko'rib o'tamiz (20.21-rasm).


- 1 — oyoq qayta ufragichi — faralar uzoqni yoritishdan yaqinni yoritishga va, aksincha, almashtirib yoqiladi;
 2 -- ilashish mustasining tepkisi;
 3 -- tormoz tepkisi;
 4 -- akselerator tepkisi — tepki qancha ko'p bosilsa, karburatorning drossel to'sig'i shuncha katta ochiladi;
 5 -- startyor tepkisi;
 6 — qo'l tormoz richagi — tortilganda markaziy tormoz ishga solinadi, bo'shatish uchun richag tepasidagi tugmani bosib richagni oldinga itarish kerak;



20.21-rasm. GAZ-51A avtomobilining boshqarish organiari va nazorat asboblari

- 7 -- radiator jaluzasining boshqarish dastasi -- tortib qo'yilsa, jaluzalar yopiladi;
 8 — oyna tozalagich yoqib-o'chirgichi;
 9 — signal tugmasi;
 10 -- rul chambargi;
 11 — asboblar shchiti (paneli) -- 20.22-rasmida alohida ko'rsatilgan;
 12 -- uzatimalarni almashtirib qo'shish richagi;

13 — kabinani shamollatish va isitish tuynugini boshqarish richagi — richag oldinga surilganda qopqoq ochilib, kabinaga isitgich orqali sof havo kiradi.



20.22-rasm. FAZ-51A avtomobili shchitiga joylashtirilgan asboblar

Asboblar shchitiga quyidagilar joylashtirilgan (20.22-rasm):

- 1 — bakdagi yonilg'i sathini ko'rsatkichi;
- 2 — nazorat lampochka;
- 3 — moy manometri;
- 4 — shchit lampochkasi — shchitdagi asboblarni yoritadi;
- 5 — spidometr — avtomobilning harakat tezligini km/soatlarda va ishlataligandan beri qancha yo'l bosganini (km) ko'rsatadi;
- 6 — shchit va plafon lampochkasining ulab-uzgichi;
- 7 — termometr;
- 8 — yondirish yoqib-o'chirgichi — kalit kirgizilib, o'ngga buralsa, yondirish tizimi ulanadi;
- 9 — burilishni ko'rsatkichning nazorat lampochkasi — burilish ko'rsatkichi qo'shilganda qizil yonadi;
- 10 — yoritish tizimining markaziy yoqib-o'chirgichi — uning tugmali tortqisi itarib qo'yilganda lampochkalar yonmaydi; oldinga bir xona tortib chiqarilganda — podsfarniklar, ketingi fonar, shchit va plafon lampochkasi yonadi, oxirigacha tortib chiqarilganda, faralar, ketingi fonar, kichik fonar va plafon lampochkasi yonadi;
- 11 — ampermetr;
- 12 — karburator havo to'sig'inining dastasi;
- 13 — shamol to'sadigan oyna puflagichning yoqib-o'chirgichi;
- 14 — burilishni ko'rsatkichning ulab-uzgichi — avtomobilni qaysi tomonga burish lozim bo'lsa, ulab-uzgich richagchasi o'sha tomonga yotqiziladi;

15 — karburator drossel to'sig'ining dastasi — dasta tortib chiqarilsa, drossel to'sig'i ochiladi.

4-§. Traktor va avtomobilarning boshqarish mexanizmlariga va tormozlariga texnik xizmat ko'rsatish

Rul boshqarmasining qismlariga zarb va turtkilar ta'sir etadi. Shu sababli, ular bo'shab, yeyilib, liqillab qoladi, ammo traktor va avtomobilning xavfsiz harakat qilishi uchun rul boshqarmasi bekam-u ko'st bo'lshi shart. Rul boshqarmasiga texnik xizmat ko'rsatish uning bo'shab qolgan qismlarini mahkamlash, tartibli ravishda moylash va rostlashdan iborat.

Rul mexanizmi transmissiya moyi bilan, tortqi, richag sharniri va beshqalar solidol bilan moylanadi. Rul tortqisining sharniri va rul mexanizmining detallari, podshipniklar va shkvorenlar yeyilishi natijasida rul chambaragining lyufti (g'ildiraklarga harakat o'tkazmay, liqillab, burilishi) ortadi. Bu lyufti lyuftomer bilan o'chanib, avtomobillarda 0 — 15° chamasida, traktorlarda 15 — 25° dan ortiq bo'imasligi kerak. Rul chambaragining lyufti belgilangandan ortiq be'lsa, uni albatta kamaytirish lozim, chunki boshqarish qiyinlashadi va xavfli bo'ladi.

Lyuftni kamaytirish uchun rul boshqarmasining bo'shab qolgan qismlari burab qotirligandan keyin, oldingi g'ildirak podshipnikiari, rul tortqilarining sharnirlari, chervyakning konus podshipnigi va rul mexanizmi tirqishi rostlanadi. Tortqilar sharniridagi tirqishni yo'qotish uchun tiqinlari burab kirkizilib, qaytdan shplintlab qo'yiladi.

Tormozlash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish. Avtomobil va traktorning xavfsiz harakat etishi birinchi navbatda tormoz tizimining bekam-u ko'st ishlashiga bog'liq. Traktorning tormozi yaxshi ishlamasa, uni keskin burish qiyin bo'ladi. Tormozlash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish har safar ishga chiqish oldidan uning begidir ishlashini tekshirish, toza holda saqlash va kamchitiklarini bartaraf qilishdan iborat.

Tormoz durust ishlamasa, tepki bosilganda yoki richag tortilganda mashina yetarli tormozlanmaydi, tormozlanganda biror tomonga surilib ketadi, tepki yoki richag bo'shatilsa ham tormozlanish davom etaveradi.

Tormoz kelodkasi, tasmasi yoki diskining qoplamasini moy bossa yoki ular yeyilgan bo'lسا, tormoz noto'g'i rostlangan bo'lسا va gidravlik yuritmada suyuqlik oz bo'lسا yokiunga havo kirib qolgan bo'lسا,

tormoz yaxshi ishlamaydi. O'ng va chap g'ildiraklarning tormoz yuritmalari bir tekis rostlanmasa, mashina tormozlanganda bir tomoniga surilib ketadi. Tormoz to'g'ri rostlanmagan bo'lsa, kolodkalarining tortib turuvechi prujinasi sinsa, kolodkalarining ustqo'ymasi (qoplamasи) ko'chgan bo'lsa, yuritma valiklari qadalib qolsa, tepki bo'shatilishiga qaramay, tormozlanish davom etaveradi.

Moy bosgan qoplamlalar tozalanadi va kerosin yoki benzinda yuviladi, yeyilganlari almashtiriladi. Yeyilgan tormoz barabanlari yo'nib tekislanadi. Tormoz tizimida tepkinining erkin yo'li va baraban bilan kolodka yoki tasma orasidagi tirqish rostlanadi.

ГАЗ-51А avtomobilining gidravlik tormoz yuritmasi porsheni (15) bilan shtogi (16) uchi orasidagi tirqish 1,5–2,5 mm chamasida bo'lishi kerak (20.15-rasm). Bu tormoz tepkinining 8–14 mm erkin yo'liga to'g'ri keladi. Tirqish shtokni burab kirgizish yoki burab chiqarish bilan tortqi (17) uzunligini o'zgartirib rostlanadi.

Tormoz kolodkalarini bilan baraban orasidagi tirqish g'ildirak tormozlarida (20.14-rasm) ishlatish vaqtida sozlovchi ekssentrik (2) ni burab, ta'mirlash vaqtida kolodkalar o'qi o'rnatilgan ekssentrik (6) ni burab rostlanadi. Baraban bilan qoplama orasidagi tirqish qoplama chetidan 30–35 mm naridan o'chaganda tepe tomonida 6,25 mm, pastida 0,12 mm bo'lishi lozim.

Gidravlik yuritma asosiy silindrining rezervuariga quyish teshididan 10–15 mm pastroq sathga qadar suyuqlik to'ldiriladi. Gidravlik yuritma tizimiga havo kirib qolsa, tepki bosilgancha qolaveradi. Kirib qolgan havo har qaysi g'ildirak silindridan birma-bir chiqariladi. Buning uchun g'ildirak silindridagi chiqarish klapanining bolti burab chiqarilib, uning o'rniga shtutserli maxsus shlang burab qo'yiladi. Shlangning ikkinchi uchi yarmisiga qadar tormoz suyuqligi quyilgan 0,5 / sig'imli idishga tushiriladi.

Chiqarish klapanini biroz ochib, tepki bir necha marta tez bosilib, sekin bo'shatiladi. Tepki shlangdan suyuqlikka havo pufakchalarini chiqishi tugaguncha bosilaveriladi. Bunda rezervuarda suyuqlik kamayib qolishiga yo'l qo'ymasdan quyib turish kerak. Havo chiqarib yuborilgandan keyin, tepki bosilgan holatda, chiqarish klapani burab qotiriladi, shlang olinib, bolt joyiga burab qo'yiladi.

Pnevmatik yuritmali tormozlash tizimida havo bosimi manometr bo'yicha kuzatib boriladi. Uzoq muddat to'xtatib qo'yilgan mashinada bosim 0,45 MPa dan kam bo'lmasligi lozim. Ish vaqtida bosim 0,56 – 0,73 MPa bo'lishi kerak. Bosimning kamayishi tashqariga havo sizishini,

ortiq bo'lishi esa, bosim regulatorining durust ishlamasligini yoki saqlagich klapanning buzilganini ko'rsatadi.


Nazorat savollari

1. Traktor va avtomobil rul boshqarmasining vazifasi, tuzilishi va qanday ishlashini tushuntirib bering.
2. Traktor va avtomobil qanday buriladi? Mashina burilganda nima uchun g'ildiraklari sirpanmaydi?
3. Rul mexanizmining gidravlik kuchaytirgichi qanday yengillik tag'diradi, uning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
4. Boshqariladigan g'ildiraklar va burilish sapsfalar qanday o'rnatiladi? Noto'g'ri o'rnatilsa, qanday qiyinchiliklar tug'iladi?
5. Traktor va avtomobil tormozlari nima uchun kerak? Tormozlash mexanizmlari va tormoz yuritmalarining turlarini so'zlab bering.
6. Tasmali, diskli va kolodkali tormozlarning tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.
7. Tormozlarning gidravlik yuritmasi qanday tuzilgan va qanday ishlaydi?
8. Tormozlarning pnevmatik yuritmasi qanday asosiy qismlardan iborat?
9. TA3-53A avtomobilining tormoz tizimi qanday asosiy qismlardan iborat? G'ildirak tormozlarining gidravlik yuritmasi qanday ishlaydi?
10. TA3-53A avtomobili kolodkali dastaki tormozining tuzilishi va ishlash prinsipi.
11. Traktorlarga (T-40 va AT-75A) qanday boshqarish organlari va nazorat asboblari o'rnatiladi va ular qanday ishlatiladi?
12. TA3-53A avtomobilining boshqarish organlarini va nazorat asboblarini birma-bir ko'rsatib, vazifa ini va ishlatilishini aytib bering.
13. Rul boshqarmasiga texnik xizmat ko'rsatish nimadan iborat? Rul chambargining lyufti qanday rostlamadi?
14. Tormozlarning yaxshi ishlamasligi qanday aniqlanadi?

1-§. Tirkash moslamasi

Traktorning qishloq xo'jalik mashina va qurollari biriktiriladigan hamda ularni harakatga keltiradigan qismi *ish uskunaları* deyiladi. Traktorning ish uskunalariga tirkash moslamasi, quvvat olish vali, harakatlantirish shkivi va o'rnatish tizimi kiradi.

Traktorlarga qishloq xo'jalik mashinalarini tirkash uchun *tkash moslamasi* o'rnatiladi. Tirkash moslamasi traktorning ketingi bugeliga yoki o'rnatish mexanizmining bo'ylama qo'yilgan tortqisiga mahkamlanadi. Masalan, TT3-60 markali traktor tirkash moslamasining (21 I-rasm, a) ko'ndalang qismi (3) o'rnatish mexanizmining bo'ylama tortqisi (1) ga mahkamlanib, ikkala uchiga chuv (2) kirgizilgan. Vilka (4) barmoqlar (5) yordamida ko'ndalang qism (3) ga mahkamlanadi. Vilkaning ketingi uchiga shkvoren (7) kirgizilib, uning ham pastki uchiga prujinali chuv (6) o'rnatilgan.



21.I-rasm. Tirkash ilmog'i:

- a — traktorniki; 1 — bo ylama tortqi; 2 — chuv; 3 — ko'ndalang qismi;
- 4 — vilka; 5 — barmoq; 6 — prujinali chuv; 7 — shkvoren; b — avtomobilniki;
- 1 — sterjen; 2 — prujiinali chuv; 3 — qulf; 4 — ilmoq; 5 — ko'ndalang balka

Vilka (4) ni turli teshiklarga o'rnatib tirkash nuqtasini gorizontal tekislikda o'zgartirish mumkin. O'rnatish mexanizmini kuch silindri yordamida ko'tarish va tushirish bilan o'rnatish nuqtasi vertikal tekislikda o'zgartiriladi. Avtomobilarga pritsep tirkash va boshqa mashinalarni shatakka olish uchun tirkash moslamasi qilinadi. Tirkash moslamasi

(21.1-rasm, b) avtomobil ramasining ketingi ko'ndalang balkasi (5) ga mahkamlanib, uning sterjeni (1) prujina (2) va vtulkalar orasidan o'tkaziladi. Prujina pritsep avtomobilni o'rnidan qo'zg'atganda va avtomobil notekis yo'llardan yurganda hosil bo'ladiqan turkilarni yumshatadi. Avtomobil tirkash moslamasining ilmog'i (4) qulf (3) bilan mahkamlab qo'yiladi. Avtomobilni shatakka olish uchun ba'zan old qismiga ham tirkash ilmog'i o'rnatiladi.

2-\$. Traktorlarning quvvat olish vallari


Traktorga tirkalgan yoki o'rnatilgan qishloq xo'jalik mashinalarining ish organlarini motor validan harakatga keltirish uchun traktorlarga quvvat olish vallari o'rnatiladi. Ilashish muftasi qo'shilganda aylanadigan nomustaqil, ilashish muftasi bilan bog'lanmagan mustaqil val uzatmalar qutisining uzatish soniga qarab aylanish tezligi o'zgaradigan sinxron quvvat olish vallari bo'ladi. Nomustaqil va mustaqil quvvat olish vallarining aylanish soni motoring nominal tezliklarida turli traktorlarda 520—550 ayl/daqiqa atrosida bo'ladi. Nomustaqil quvvat olish vali (IT-75 traktori misolida) ketingi ko'prik korpusining o'rta qismiga joylashtirilib (21.2-rasm), uzatmalar qutisining ketinga yurgizish vali (7) dan harakatga keltiriladi.

Quvvat olish valini qo'shish uchun traktoring asosiy ilashish muftasi ajratiladi, richag (4) ketinga suriladi; tebrannma richag (3) vilkali valik (2) bo'ylab siljitaldi, shunda kulachokni mufta (5) ham oldinga siljib, uning kulachoklari ketinga yurgizish vali (7) ning muftasi (6) o'yiqlariga kiradi. Ilashish muftasi qo'shiladi va quvvat olish vali aylana boshlaydi. Quvvat olish validan foydalanimagan vaqtida uning shlitsali uchi maxsus qalpoq bilan berkitib qo'yiladi.

Mustaqil quvvat olish vali alohida pedal (7) bilan boshqariladi (16.5-rasm, a). Traktoring asosiy ilashish muftasi va quvvat olish valining muftasi bir pedal (7,3) bilan boshqarilsa, bunday quvvat olish valini (16.5-rasm, b) to'xtatish uchun traktorni ham to'xtatish i'erak. Shuning uchun bunday val *yarim mustaqil* quvvat olish vali deyiladi.

Sinxron quvvat olish vali traktorga o'rnatilgan seyalka, o'g'itlagich va boshqa mashinalarning ish organlarini harakatga keltirish uchun qo'llanilib, traktor tez harakat qilsa, tez aylanadi. Bu val (14) ham (18.9-rasm) traktor yurgandagina aylanadi.

Zamonaviy traktorlarga, asosan, mustaqil yoki yarimi mustaqil va sinxron quvvat olish vallari o'rnatiladi. Mustaqil quvvat enish vallaridan




21.2-rasm. Traktoring nomustaqil quvvat olish vali:

1 — quvvat olish vali; 2 — vilkaii valik; 3 — tebranma richag;
4 — richag; 5 — kulachokli musta; 6 — ketinga yurgizish vali mustasi;
7 — ketinga yurgazish vali

statsionar mashinalarni (masalan, ko'sak chuvish mashinasini) harakatga keltirish uchun ham foydalanish mumkin.

Harakatlantirish shkivi statsionar (bir yerga o'rnatib ishlataladigan) mashinalarni traktordan tasma orqali harakatga keltirish uchun o'rnatiladi. Shkiv traktoring orqasiga, yoniga va old qismiga o'rnatilishi mumkin.

Harakatlantirish shkivi (TT3-60 traktori misolida) quvvat olish vali (2) dan (21.3-rasm) harakatga keltiriladi. Shkiv (5) cho'yan korpus (1) ga o'rnatilgan bo'lib, valdan bir juft konus shesterna (3 va 4) orqali aylanma harakat oladi. Shkiv quvvat olish valining richagi bilan boshqariladi. Shesternalar tishlarining orasidagi tirqish qistirmalar (6) sonini o'zgartirib rostlanadi.




21.3-rasm. Traktoring harakatlantirish shkivi:

1 — cho'yan korpus; 2 — quvvat olish vali;
3 va 4 — konus shesterna; 5 — shkiv; 6 — qistirma

3-§. Traktorlarning gidravlik o'rnatish tizimi

Zamonaviy traktorlarda alohida agregatli o'rnatish tizimi bo'ladi. Traktorchi o'tirgan joyida traktoring ketiga, oldiga va yon tomonlariga o'rnatilgan mashina va qurollarni, shuningdek, tirkalgan mashina va qurollarning ish organlarini gidravlik tizim yordamida boshqaradi. Bunda tashqari, o'rnatish tizirning yuqori bosim moy magistralliga ba'zan rulning gidravlik kuchaytirgichi va g'ildiraklarning vazminlashtirgichlari uylanadi.

Traktorga qishloq xo'jalik mashinalarini bunday o'rnatish birmuncha alzalliklarga ega, chunonchi: qishloq xo'jalik mashinalari mo'jaz va yengil bo'ladi, ularning tortishda ko'rsatadigan qarshiligi birmuncha kamayadi, boshqarsh osonlashadi, g'ildirakli traktoring yerga tushadigan bosimi ortib, sirpanib g'ildirashi kamayadi.



21.4-rasm. Alovida agregatli o'rnatish tizimining sxemasi:

1 — moy baki; 2 — moy nasosi; 3 — taqsimlagich; 4 — taqsimlagich richagi;
5 va 6 — o'rnatish mexanizmi richaglari; 7 — asosiy silindr; 8 — o'rnatish
mexanizmi; 9 — o'rnatma qurol

Alovida agregatli o'rnatish tizimi (21.4-rasm) gidravlik yuritma va o'rnatish mexanizmidan iborat. Gidravlik yuritma (privod) motor quvvatining bir qismini asosiy silindrga va chiqarma silindrлarga uzatadi, u moy baki (1), moy nasosi (2), taqsimlagich (3), asosiy silindr (7) va chiqarma silindrлar, quvur va armaturalardan iborat. Qishloq xo'jalik qurollari (9) o'rnatish mexanizmi (8) ga o'rnatiladi. O'rnatish mexanizmi richaglar (5 va 6) vositasida kuch silindriga biriktirilgan ikkita pastki bo'ylama tortqi va yuqorigi markaziy tortqidan iborat. O'rnatish tizimi gidravlik taqsimlagichning richagi (4) bilan boshqariladi.

O'rnatish tizimi nasosdan borgan moyni taqsimlagich moy bakiga qaytarsa va kuch silindrining yuqorigi hamda pastki bo'shlig'ini bir-biriga tutashtirib qo'ysa (21.4-rasmdagi holat), o'rnatilgan qurol *erkin holatda* bo'ladi. Tayanch g'ildirakli qurollar shu tarzda biriktirib ishlataladi.

Nasosdan borgan moyni taqsimlagich kuch silindrining pastki bo'shlig'iga yuborsa va yuqorigi bo'shlig'idagi moy taqsimlagichga qaytib, undan bakka quyilsa, o'rnatilgan qurol *majburan ko'tarilib*, transport holatga o'tadi.

O'rnatilgan qurolni *majburan tushirish* uchun nasosdan borgan moy taqsimlagich orqali kuch silindrining yuqorigi bo'shlig'iga yuboriladi, pastki bo'shlig'idagi moy taqsimlagichga va undan moy bakiga qaytadi.


Agar taqsimlagich kuch silindrining yuqorigi va pastki bo'shliqlaridan moy chiqadigan teshik berkitib qo'yilsa, o'rnatilgan qurol *neytral holatda*

bo'lib, ko'tarilgancha yoki tushirilgancha turaveradi. Nasosdan taqsimlagichga borgan moy bakka qaytarilib, moy nasosi erkin holatdagi kabi salt ishlaydi.

Gidravlik o'rnatish tizimi ayrim elementlarining tuzilishi va ishlashi bilan tanishib o'tamiz.

Moy baki. Moy bakida moy zaxirasi saqlanib, uning shakli va sig'imi turliche bo'ladi. Bak motorning old qismiga, traktor uzatmalar qutisi yoniga yoki ilashish mustasi karteri ustiga o'rnatiladi.

Moy nasosi bakdag'i moyni so'rib olib taqsimlagichga yuqori bosimda chiqaradi. Nasos (21.5-rasm, a) aluminiy korpus (1) ichiga



21.5-rasm. Moy nasosi (a) va uning ishlash sxemasi (b):

1 — kerpus; 2 — yetakchi shesterna; 3 — yetaklanuvchi shesterna;
4 va 13 — bronza vtulka; 5 — bo'shliq; 6 va 7 — rezina halqa; 8 — teshik;
9 — salnik; 10 — qopqoq; 11 — so'rish sohasi; 12 — haydash bo'shlig'i

joylashtirilgan yetakechi (2) va yetaklanuvchi (3) shesternalardan iborat bo'lib, qopqoq (10) bilan berkitilgan. Yetakechi shesterna motor tirsaklı validan harakatga keltiriladi. Shesternalar sifasi bronza vtulkalar (4 va 13) da aylanadi. Nasosdan moy sizmasligi uchun salnik (9) va rezina halqa (7) qo'yilgan.

Bu nasos ham motorning moylash tizimidagi shesternali nasos singari ishlaydi. Lekin nasosning detallari bir-biriga nihoyatda loyiq qilib yasalganligi va moyning bir qismi haydash bo'shlig'i (12) dan aylana bo'shliq (5) qa o'tib vtulkalarni shesternalarga siqishi sababli yuqori bosim hosil qiladi.

Nasos moyni taqsimlagichga 10—14 MPa bosimda chiqaradi. Barcha traktorlar moy nasosi bir xil tuzilgan bo'lib, bir-biridan katta-kichikligi bilan farq qiladi.

Taqsimlagich moy nasosidan boradigan moyni turli bosimda asosiy yoki chiqarma kuch silindrilarining tegishli bo'shliqlariga yuborib, o'rnatish tizimining ishini boshqaradi. Ikki va uch seksiyali zolotnikli taqsimlagichlar qo'llanilib, har qaysi seksiya ma'lum ish silindrini boshqaradi.


Uch seksiyali taqsimlagich (21.6-rasm) cho'yan korpus (6) ichiga joylashtirilgan uchta zolotnik (9), o'tkazib yuboruvchi klapan (11), saqlagich klapan (27), korpusning ustki qopqog'i (7), bakka moy qaytib boradigan teshikli pastki qopqoq (26) dan iborat. Korpusning moy trubkalari biriktiriladigan teshiklari va moy o'tadigan kanallari bor, chunonchi: moy nasosidan moy keladigan teshik (12), chiqarma silindrning yuqori bo'shlig'iga biriktiriladigan teshik (1), chiqarma silindrning pastki bo'shlig'iga biriktiriladigan teshik (3) (boshqa kuch silindrleri uchun ham shunday teshiklari bor), yuqori bosim kanali (2), qaytish kanallari (4, 5) bor.

Zolotniklar sirti yo'nilgan silindrik valik ko'rinishida bo'lib, korpus teshiklariga nihoyatda loyiq qilib yasalgan. Zolotnik dastali richag (8) bilan boshqarilib, turli holatga o'rnatilganda uning yo'nilgan o'yiglari korpus kanallariga ro'para kelib yoki ularni berkitib kuch silindrilarining ishini boshqaradi.

Zolotnikning pastki qismiga gilza (17) burab kirgizilgan va qaytaruvchi prujinasi (23) bor. Gilzaning ichiga zolotnikni neytral holatga qaytaruvchi avtomat mexanizmning sharsimon klapani (14), turtgich (15), prujina (16) va plunjер (18) joylashtirilgan; teshik (13) orqali gilza moy magistralli (2) ga tutashadi. Plunjер ostidan prujina (22) ko'tarib turadigan vtulka (20) ga tiraladi. Vtulka tubining konus qismiga

besita sharik-fiksator (19) tiraladi. Fiksatorlar oboyma (21) ning o'yiglariga kirib turadi. Oboyma bilan stakan (25) orasiga zolotnik prujinasi (23) joylashtirilgan.

Fizimdag'i moyning bosimi 13,5 MPa dan ortganda saqlagich klapan (27) ning prujinasi (28) siqilib, klapan ochiladi va ortiqcha moy kanal (10) orqali bo'shlq (24) qa qaytadi (21.7-rasm).



21.6-rasm. Gidravlik o'rnatish tizimining taqsimlagichi:


- 1 — chiqarma silindrning yuqorigi bo'shlig'i bilan tutashtriladigan teshik;
- 2 — yuqori bosim kanali; 3 — chiqarma silindrning pastki bo'shlig'i bilan tutashtriladigan teshik; 4 va 5 — qaytish kanali; 6 — korpus;
- 7 — ustki qopqoq; 8 — dastali richag; 9 — zolotnik; 10 — kanal;
- 11 — o'tkazib yuboruvchi klapan; 12 — moy keladigan teshik; 13 — teshik;
- 14 — sharsimon klapan; 15 — turtgich; 16, 22, 23 va 28 — prujina; 17 — gilza;
- 18 — plunjер; 19 — fiksator; 20 — vtulka; 21 — oboyma; 24 — bo'shlq;
- 25 — stakan; 26 — pastki qopqoq; 27 — saqlagich klapan

Taqsimlagichning ishlash sxemasi 21.7-rasmida berilgan, kuch silindrлariga ularadigan trubkalar shartli ravishda taqsimlagichning past tomonidan chiqarilgan va har qaysi zolotnik turli holatda ko'rsatilgan, qismlari 21.6-rasmdagidek raqamlar bilan belgilangan.

Zolotnikning boshqarish richagi pastga, oxirigacha burilsa, dasta (4) ning 21.4-rasmida turish holatida zolotnik eng yuqoriga ko'tarilib «erkin» holatga o'tadi (21.7-rasm, e holat); fiksatorlar (19) oboyma (21) ning yuqorigi o'yig'iga qadaladi; zolotnik kuch silindriga tutash-tirilgan kanallar (1 va 3) ni moy haydash kanalidan ajratib, moy oqib tushadigan kanallar (4 va 5) ga tutashtiradi; moy nasosidan teshik (12) orqali kelgan moyning bir qismi kanal (5) ga oqib chiqadi; moy bosimi o'tkazib yuboruvchi klapan (11) ning yuqori (prujina tomonga) va pastki tomoniga ta'sir etadi; klapanning yuqori sirti pastki sirtidan katta bo'lganligi uchun moy bosimi prujinaning kuchini yengib klapanni ochadi; natijada nasosdan kelgan yuqori bosimli moy qaytish bo'shilg'i (24) ga va trubka orqali moy bakiga qaytadi; kuch silindrining yuqorigi va pastki bo'shliqlari moy qaytish bo'shilg'iga tutashadi; traktorga o'rnatilgan qurol tayanch g'ildiragiga tiralib, dalaning past-balandlik-lariga moslanib, erkin harakat qilaveradi, kuch silindrining porsheni yuqoriga yoki pastga siljivveradi. O'rnatilgan mashinalar yerga tushirib qo'yilganda taqsimlagich richagi shu holatda qoldirilishi kerak.

Boshqarish richagi bir xona yuqoriga ko'tarilsa, zolotnik «tushirish» holatiga o'tadi (21.7-rasm, d); fiksatorlar (19) oboyma (21) ning o'rtadagi o'yig'iga kiradi; kuch silindrining yuqorigi bo'shilg'iga moy boradigan teshik (1) haydash kanali (2) ga, pastki bo'shilg'i esa, qaytish kanali (4) ga tutashadi; kuch silindrining yuqorigi bo'shilg'iya yuborilgan moy bosimi porshen va shtokni pastga siljitib, o'rnatilgan qurolni majburan pastga (ish holatiga) tushiradi; kuch silindrining pastki bo'shilg'idan siqib chiqarilgan moy trubka (3) va kanal (4) orqali qaytish bo'shilg'i (24) ga, bundan esa bakga qaytadi. Kuch silindrining porsheni belgilangancha pastga tushgach, haydash magistralidagi moy bosimi tez oshadi va 11 MPa ga yetgach, kanal (2) dagi moy teshik (13) orqali o'tib, prujina (16) ni siqib, sharsimon klapan (34) ni ochadi. Plunjер (18) moy bosimi ta'sirida vtulka (20) ni pastga siljitib, fiksatorlar (19) ni oboymaning o'yig'idan chiqaradi va zolotnik prujina (23) ta'sirida pastga siljib «neytral» holatga ko'chadi. Traktorga o'rnatilgan yer qazish, yuk ortish va boshqa maxsus mashinalar majburan tushirib ishlataladi.

Shunday qilib, zolotnik tushirish yoki ko'tarish holatidan avtomat ravishda «neytral» holatga ko'chadi yoki richag qo'l bilan surib ko'chi-



21.7-ravm. Gidravlik taqsimlagichning ishlash sxemasi
(raqamlar 21.6-rasmdagidek)

riladi. Zolotnikning neytral holatida (21.7-rasm, *b* holat) kuch silindrini taqsimlagichga biriktiruvchi teshiklar (*1* va *3*) berkitilib, kuch silindrining porsheni harakatlanmaydi. Moy nasosidan yuborilgan moy «erkin» holatdagi singari o'tkazib yuboruvchi klapan (*11*) ni ochib bakga qaytadi.

Boshqarish richagi yuqoriga, oxirigacha ko'tarilsa, zolotnik eng pastki «ko'tarish» holatiga o'tadi; fiksatorlar (*19*) oboyma (*21*) ning pastki o'yig'iga tiraladi; zolotnik plunjerning prujinasi bilan tutib turiladi, prujina stakanı (*25*) taqsimlagich tubiga tiraladi. Kuch silindrining pastki bo'shlig'iga trubka (*3*) dan yuqori bosimli moy borib, uning porshenini shtogi bilan birga ko'taradi; traktorga o'rnatilgan qurol ish holatidan transport holatga ko'tariladi, ya'ni «tushirish» hofatidagiga nisbatan aksincha harakat qiladi, kuch silindri belgigacha ko'tarilgach, zolotnik tushirish holatidagidek yana neytral holatga qaytadi.


Kuch silindri taqsimlagich vositasida boshqariladi. U moy bosimi kuchi bilan o'rnatish mexanizmini harakatga keltiradi. Asosiy va chiqarma kuch silindrлari bo'lib, ular bir-biridan katta-kichikligiga qarab farq qiladi. Asosiy silindr traktoring orqa qismiga joylashtirilib, traktorga o'rnatilgan mashina va qurollarni boshqaradi, traktordan tashqari chiqarilgan silindrлar esa, traktorga o'rnatiladigan qurollarni yoki tirkalgan quollarning ish organlarini boshqaradi.

Kuch silindri (21.8-rasm) aluminiy qotishmasidan ishlangan porshen (*4*), po'lat korpus (*5*), yuqorigi (*7*) va pastki (*2*) qopqoqlardan iborat. Pastki qopqoq bugeli (*1*) o'rnatish mexanizmining o'qiga biriktiriladi. Porshen shtok (*10*) ga bog'lanib, shtok o'rnatish mexanizmining tebranuvchi richagiga biriktirilgan. Moyning silindrдан sizmasligi uchun korpus bilan qopqoqlar orasiga rezina halqalar qo'yilgan. Porshenga zichlovechi halqa va manjeta (*3*) kiygilgan. Silindrning yuqorigi qopqoq'iga shlanglar (*12* va *13*) biriktirilgan va porshenning harakat yo'llini chegaralaydigan klapan (*8*) joylashtirilgan.

Shlanglar taqsimlagichning teshiklariga ulanib ularning biri (*12*) silindrning yuqorigi bo'shlig'iga, boshqasi esa (*13*) vertikal kanal (*16*) va quvurcha (*6*) orqali silindrning pastki bo'shlig'iga tutashtirilgan. Moy shlang (*13*) dan borib, shlang (*12*) dan taqsimlagichga va undan moy bakiga qaytsa, o'rnatilgan qurol ko'tariladi. Qurolni tushirish va yerga botirish uchun silindrning yuqorigi bo'shlig'iga shlang (*12*) dan moy yuborilib, pastki bo'shlig'idan taqsimlagichga qaytarilishi lozim.

Shtokdagi cheklagich tirak (*11*) ni surib, qurolning pastga tushishini cheklash mumkin. Bunda shtok tiragi (*11*) klapan (*8*) ga tiralib uni

o'chadi va silindrning pastki bo'shlig'idan moyning chiqishi to'xtaydi. Shtok yuqorigi qopqoqqa o'rnatilgan rezina halqa va tozalovchi plastinalar (9) bilan jipslanadi va ishqalanib tozalanadi.



21.8-rasm. Gidravlik o'rnatish tizimining kuch silindri:


1 — qopqoq bugeli; 2 — pastki qopqoq; 3 — manjeta; 4 — porshen; 5 — korpus (gilza); 6 — quvureha; 7 — yuqorigi qopqoq; 8 — cheklyydigan klapan; 9 — tozalovchi plastina; 10 — shtok; 11 — shtok tiragi; 12 va 13 — shlang; 14 — sekinlashtiruvchi klapan; 15 — shtutser, 16 — vertikal kanal; 17 — shtift

O'rnatilgan mashina-quroqning ravon va asta-sekin pastga tushishi uchun shtutser (15) ga sekinlashtiruvchi klapan (14) o'rnatilgan. Taqsimlagichning zolotnigi tushirish holatiga o'tkazilganda moy silindrning pastki bo'shlig'idan shlang (12) ga chiqib klapan (shayba) ni shtutserga tiraydi va klapanning o'rtaisdagi kichik ieshkidan oz miqdorda o'tib, porshennenig sekin harakat etishini ta'minlaydi. Moy shlang (12) dan silindrning pastki bo'shlig'iga o'tganda (mashina-quroq ko'tarilganda) klapan uchta shtift (17) ga tiralib moyning o'tishiga qarshilik ko'rsatmaydi, quroq tez ko'tariladi.

Moy quvurlari va armaturalar. O'rnatash tizimining agregatlari bir-biriga po'lat quvurlar va rezina shlanglar bilan birkiritiladi.

Po'lat quvurlar rezina shlanglarga klapanli birlashtiruvchi mustalar bilan tutashtiriladi.


Birlashtiruvchi musta (21.9-rasm) po'lat quvur uchidagi shtutser (1), korpusi (2) ga va shlang shtutseri (6) ning korpusi (5) ga prujinalar bilan qisilgan zoldir (3), uning ustidan buralgan gayka (4) dan iborat. Quvurlar ajratilganda zoldir prujina ta'sirida korpusning teshigini berkitib, moyning oqib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Gayka (4) ni burab trubkalarni bir-biriga biriktirganda zoldirlar bir-biriga tiraladi va ularning atrosida moy o'tadigan tirkish hosil bo'ladi.



21.9-rasm. Moy trubkalarini birlashtiruvchi musta:
1 va 6 -- shtutser; 2 va 5 -- korpus; 3 -- zoldir; 4 -- gayka

Traktorga tirkalgan quroldagi chiqarma silindrning shlangi traktoring gidravlik tizimiga saqlagich musta vositasida biriktiriladi. Tirkalgan qurol tasodifan traktordan ajralib qolsa, saqlagich musta quvurlarni bir-biridan ajratib tizimdagি moyning to'kilishiga yo'l qo'ymaydi. Saqlagich musta birlashtiruvchi musta kabi sharikli klapanlarga ega bo'lib, uning zoldirli yoki shtiftli qulfi bo'ladi.

Sharik qulflи saqlagich musta (21.10-rasm) ko'pchilik traktorlarda qo'llaniladi. Qishloq xo'jalik mashinasiga biriktirilgan shlang shtutseri (1) korpusi (2) ning zoldir (3) kirib turadigan teshiklari bor. Musta biriktirilganda shariklar traktorga biriktirilgan shlang shtutseri (6) korpusi (4) dagi halqaning o'yig'iga kirib turadi. Korpus (4) ustiga vtulka (7) o'rnatilgan bo'lib, bu vtulka traktor kronshteyniga mahkamlangan, vtulkani prujina (5) itarib turadi. Agar shtutser (1) ning shlangi 150 --



21.10 rasm. Zoldir qulflı saqlagich musta:


1 va 6 – shtutser; 2 va 4 – korpus; 3 va 8 – zoldirlar;
5 – prujina; 7 – vtulka

200 N kuch bilan tortilsa, prujina (5) siqilib, shariklar (8) korpus (4) ning halqasimon o'yig'idan chiqadi va musta ajraladi.

O'rnatish mexanizmi. Traktoring bu mexanizmi to'rt zvenoli sharnirli mexanizmdan iborat bo'lib, uning tortqilariga mashina va qurollar o'rnatiladi. O'rnatish mexanizmi kuch silindri orqali harakatga keltirilib, mashina va qurollarni salt holatga ko'taradi va ish holatga tushiradi.

O'rnatish mexanizmining tuzilishi va ishlashini T 4A traktori misolida ko'rib chiqamiz. Bu traktoring o'rnatish mexanizmi (21.11-rasm, a) ikki just stoykalar (1) dan iborat bo'lgan ramaga mahkamlangan. To'rtala stoykaning yuqorigi uchi yuqorigi o'q (2) qa, ikkitasining pastki uchi traktor ketigi ko'prigining korpusiga, bosliqa ikkitasining pastki uchi esa kronshteyn (11) orqali traktor ramasiga mahkamlangan o'q (12) qa o'rnatilgan.

Yuqorigi o'qdagi vtulkalarga burish vali (13) o'rnatilib, bu valning yon tomoniga ikkita ko'taruvcchi richag (16), o'rtasiga esa markaziga tortqi (4) o'rnatilgan. Ko'taruvcchi richaglarning uchlari kashaklar (7) ga biriktirilgan. Kashaklarning vilkasi (17) pastki bo'yylarna tortqilar (10) ga mahkamlangan. Asosiy kuch silindri (14) ning bugeli pastki o'qqa, shtokning yuqorigi uchi esa barmoq vositasida burish vali (18)



21.11-rasm. Traktoring o'rnatish mexanizmi:

a -- yonidan ko'rinishi; b -- ikki nuqtali, d -- uch nuqtali o'rnatish mexanizmlari; 1 -- stoyka; 2 -- o'q; 3 -- prujina; 4 -- markaziy tortqi;
 5, 6 va 22 -- vintli musta; 7 -- kashak; 8 -- boldoq; 9 -- bugel;
 10 -- bo'ylama tortqi; 11 -- kronshteyn; 12 -- o'q; 13 -- shtift;
 14 -- kuch silindri; 15 -- richag; 16 -- ko'taruvchi richag; 17 -- vilka;
 18 -- burish vali; 19 -- skoba; 20 -- tebranma musta; 21 -- zanjir

ning richagi (15) ga biriktirilgan. O'rnatilgan qurollarning salt holatda tebranmasligi uchun bo'ylama tortqilar cheklovchi zanjir (21) bilan tortib qo'yiladi. Markaziy tortqi (4), kashaklar (7) va zanjir (21) ning uzunligi vintli mustalar (5, 6 va 22) ni burab rostlanadi. Pastki tortqilar (10) ning uzunligini o'zgartirgandan keyin, ular shtift (13) bilan mahkamlanadi. Markaziy tortqi (4) tebranma musta (20) orqali yuqorigi o'q (2) qa mahkamlangan. Bu tortqining o'rta qismida turtilarni so'ndiruvchi prujina (3) bor.

Kuch silindri gidravlik taqsimlagichning tegishli zolotnigi bilan boshqariladi. Moy silindrning pastki bo'shlig'iga yuborilsa, uning shtogi richag (15) orqali val (18) ni buradi; valga mahkamilangan markaziy tortqi (4) va richag (16) lar buriladi; richaglar kashaklar (7) orqali pastki bo'ylama tortqilar (10) ni burab, o'rnatilgan qurolni ko'taradi. Moy kuch silindrining yuqorigi bo'shlig'iga yuborilsa, aksincha, o'rnatma quroq pastga tushadi.

Qishloq xo'jalik mashinalari traktorga skoba (19), boldoq — vilka (8), o'q (12) qa o'rnatilgan bugellar (9) vositasida tirkaladi.

Pastki bo'ylama tortqilar (10) ning ichki uchi o'q (12) qa bir nuqtada birlashtirilsa, ikki nuqtali o'rnatish mexanizmi hosil bo'ladi (20.11-rasm, b). Bunda traktor yerga botirilgan quroq bilan to'g'ri harakat qilishi va burilishda 20° gacha burchak hosil qilishi mumkin. Bunday o'rnatish mexanizmi plug bilan ishlashda qo'llanilishi mumkin. Bo'ylama tortqilar o'qi (2) ga ikki nuqtada mahkamlansa, uch nuqtali o'rnatish mexanizmi hosil bo'ladi (20.11-rasm, d). Kultivator, seyalka va hokazo qurollar bilan ishlaganda ana shunday sxemali o'rnatish mexanizmi qo'llaniladi. Har ikkala holda ham, ya'ni o'rnatish mexanizmi ikki yoki uch nuqtali sxemada yasalganda ham qurollar traktorga (o'rnatish mexanizmiga) doim uch nuqtada (markaziy tortqi va bo'ylama tortqilar uchiga) o'rnatiladi.

Barcha g'ildirakli traktorlarning o'rnatish mexanizmi uch nuqtali bo'lib, kuchli o'rnalovchi zanjirli traktorlarning o'rnatish mexanizmi uch nuqtali yoki ikki nuqtali sxemada ishlay oladigan qilinadi.


4-\$. Yetakechi g'ildiraklarning vazminlashtirgichi

Traktorga tirkalgan qurolning qarshiligi ortganda, masalan, plug va kultivatorlar bilan ishlaganda yetakechi g'ildiraklar sirpanib g'ildiraydi. Agar g'ildiraklarning vazni oshirilsa, sirpanib g'ildirashi kamayadi. Vazminlashtirgichlar traktorga o'rnatilgan quroq og'irligini qisman traktor yetakechi g'ildiraklariga o'tkazadi.

G'ildirakli traktorlarda mexanik va gidravlik vazminlashtirgichlar qo'llaniladi.

Mexanik vazminlashtirgichda o'rnatish mexanizmi markaziy tortqisining birlashtirish nuqtasini o'zgartirib, qurolning og'irligi qisman traktorga ko'chiriladi.

O'rnatish mexanizmining markaziy tortqisi C' (21.12-rasm) kronshteyn (/) ning yuqorigi teshiklariga birlashtirilganda (sxemada punktir



21.12-rasm. Traktor yetakchi g'ildiraklari mexanik vazminlashtirgichining sxemasi:


1 — kronshteyn; 2 — markaziy tortqi; 3 — tayanch g'ildirak

chiziqiar bilan ko'rsatilgan holatda) qurolning og'irligi, asosan, tayanch g'ildirak (3) ka tushadi (bunday holda og'irlik ta'siridan hosil bo'ladigan reaksiya kuchlari sxemada oq strelkalar bilan ko'rsatilgan). Qurol g'ildiragi yerga botib aylanadi, traktoring yetakchi g'ildiragi esa sirpanib g'ildiraydi.

Markaziy tortqisi (2) kronshteynning pastki teshiklariga ko'chirilsa, qurolning tayanch g'ildiragi (3) yerga botmasdan g'ildiraydi, qurol og'itligining bir qismi traktor yetakchi g'ildiraklariga ko'chirilib, uning sirpanib g'ildirashi kamayadi (bu holatdagi og'irlik reaksiyalari sxemada qora streikalar bilan ko'rsatilgan).

Gidravlik vazminlashtirgich tayanch g'ildirakka tiralib ishlaydigan qurolni traktor o'rnatish tizimining «erkin» holatida ishlatmasdan, balki asosiy kuch silindrining pastki bo'shlig'iغا ma'lumi bosimda moy yuborib, o'rnatish mehanizmini biroz ko'tarib ishlatishga asoslangan. Bunda qurolning og'irligi tayanch g'ildiragiga kamroq tushib, traktor yetakchi g'ildiraklariga ko'chiriladi va uning sirpanib g'ildirashi kamayadi.

Traktorga gidravlik vazminlashtirgich o'rnatilganda (21.13-rasm) uning gidravlik o'rnatish tizimiga moy baki (1), moy nasosi (2), taqsimlagich (3), kuch silindri (5), o'rnatish mehanizmi (6) dan tashqari, bosim akkumulatori (4) ham o'rnatiladi. Bosim akkumulatorining (21.14-rasm) boshqaruvchi zolotnigi (8) va bosim regulatori (7) bor.




21.13-rasm. Traktor yetakechi g'ildiraklari gidravlik vazminlashtirgichining sxemasi:

- 1 - moy baki; 2 - moy nasosi; 3 - taqsimlagich;
- 4 - bosim akkumulatori; 5 - kuch silindri; 6 -- o'rnatish mexanizmi;
- 7 - tayanch g'ildirak

Gidravlik vazminlashtirgich qo'shilmasdan o'rnatish tizimi «erkin» holatga qo'yilganda qurol tayanch g'ildiragi (7) ga tayanib harakatlanadi, traktor va qurol og'irligining g'ildiraklarga ta'sir etishidan hosil bo'ladigan reaksiya 21.13-rasmida oq strelkalar bilan ko'rsatilgan.

Gidravlik vazminlashtirgichni qo'shish uchun taqsimlagich (3) richagi «ko'tarish» holatiga, vazminlashtirgichning boshqaruvchi zolotnigi (8) esa «qo'shilgan» holatga qo'yiladi (21.14-rasm). Traktorechi o'tirgan joyida bosim regulatori (7) ning maxovikchasi (6) ni buraganda taqsimlagichdan kelayotgan yuqori bosimli moyning bir qismi bosim akkumulatori (4) ga, qolgan qismi esa (0,8—2,8 MPa) asosiy kuch silindrining pastki bo'shlig'iiga boradi. Moy bosimi kuch silindri vositasida o'rnatish mexanizmini ko'tarib, unga o'rnatilgan qurolni yerdan chiqarishga intiladi. Buning natijasida traktorga o'rnatilgan qurolning og'irligi qisman yetakechi g'ildiraklarga ko'chadi. Gidravlik vazminlashtirgich ishga sofigandagi og'irlik reaksiyalarini qora strelkalar bilan ko'rsatilgan.

Traktorechi o'tirgan joyida maxovikcha (6) ni burab yetakechi g'ildiraklarning vazminlashtirish darajasini o'zgartirishi mumkin. Ish vaqtida traktor agregati burliganda gidravlik vazminlashtirgich zolotnik orqali ishidan to'xtatiladi.



21.14-rasm. Gidravlik vazminlashtirgichning sxemasi:

- 1 — moy baki; 2 — moy nasosi; 3 — taqsimlagich; 4 — bosim akkumulatori;
- 5 — kuch silindri; 6 — maxovikcha; 7 — bosim regulatori;
- 8 — boshqarish zolotnigi

5-§. Kuzov va qo'shimcha uskunalar

Avtomobil kuzoviga passajirlar, yuk yoki maxsus uskunalar joylashtiriladi. Yuk avtomobillarida kabina alohida o'matilib, unda haydovchi va xizmat ko'rsatuvchi xodim o'tirib ketadi. Avtomobilning kapoti, qanoti, qoplamasi, zinasi va buferlari ham kuzovning qismlari hisoblanadi.

Traktorlarda haydovchi o'rindig'i avtomobil tipidagi kabinaga joylashtiriladi yoki tepasi soyabon bilan berkitiladi. Traktoring kabinasi, o'rindig'i, qanoti, kapoti, akkumulatorlar va asboblar yashigi — qe'shimcha uskunalarini hisoblanadi.

Yuk avtomobilari kuzovi platformali va maxsus moslashtirilgan bo'lishi numkin. Platforma ochiladigan bortli, bortsiz va ust soyabonli bo'lishi mumkin. Yukini o'zi ag'daradigan platformali avtomobillar (samosvallar), go'sht, non, g'alla, paxta, sement, bo'sh yashik, uy hayvonlari, suyuqliklar (yonilg'i, sut, go'ng shaltog'i va boshqalar) tashishga mo'ljallangan avtomobilari kuzovi maxsus moslashtirilgan kuzovlardir. Yukni o'zi ag'darganda kuzovi orqasiga, ba'zan o'ng va chap tomoniga agdariladigan qilinadi.

Yukni o'zi ag'daradigan avtomobilarning platformasi ko'tarish mexanizmi vositasida boshqariladi (21.15-rasm). Ko'tarish mexanizmining richagi (5) neytral holatda turganda (a) nasos (3) salt ishlaydi, kuzov (7) ko'tarilgan yoki tushirilgan holatda turadi, silindrga moy kirmaydi.

Kuzovni ko'tarish (yukni ag'darish) uchun richag o'rta holatga ko'chiriladi (b). Jo'mrak (4) burilib, bosim bilan yuborilgan moy haydash klapani (7) ni oehadi. Moy bosimi ta'siridan porshen (2) shtek bilan birga siljib richagli mexanizm (6) ni burib, kuzovni ko'taradi.


Richag orqa holatga burilganda (d) jo'mrak burilib, silindrining ikkala bo'shlig'ini bir-biriga tutashtiradi. Kuzovning og'irligi porshenni o'ngga siljitadi va kuzov pastga tushadi.

Moy haydash klapanini uyasiga siqb, silindrning bir tomonidan boshqa tomoniga oqib o'tadi. Ko'tarish mexanizmining gidravlik tizimiga urchuq moyi quyiladi. Yukni yon tomoniga ag'daradigan kuzovlarning silindri ikkita bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan maxsus kuzovli avtomobillardan bitti 21.16-rasmda tasvirlangan. Bu avtomobil yuklarni tashish uchun mo'ljallangan bo'lib, kuzovi baland bortli, keng hajmli qilingan.

O'ziyurar shassilarga ham almashtiriladigan agregat tarzda yuk platformasi o'rnatilib, uni gidravlik tizimning kuch silindrleridan foydalaniib yukni shassingin yon tomoniga yoki oldiga ag'darish mumkin.

Yuk avtomobilari kabinasi 2 yoki 3 kishilik o'rindiq va suyanchiq bilan uskunalanadi. Kabinaning ikki tomonida eshibi, orqasida va eshiblarida oynasi bo'ladi. Oldingi shamol to'sadigan oynasiga tozalagich o'rnatiladi. Eshiklarining qulfi va oynasining ko'tarish-tushirish mexanizmi bo'ladi. Ko'pchilik avtomobilarda kabinani isitish va shamol-



21.15-rasm. Avtomobil kuzovini ko'tarish mexanizmining ishlash sxemasi:

a — neytral holati; *b* — ko'tarilishi; *c* — tushirilishi; *1* — kuzov; *2* — porshen; *3* — moy nasosi; *4* — jo'mrak; *5* — richag; *6* — richagli mexanizm; *7* — haydash klapani

latish ko'zda tutiladi. Buning uchun alohida elektr motor, ventilator va radiator bo'lib, u sovitish tizimining radiatoriga tutashtiriladi.

Ba'zi avtomobillarning kabinasi motor ustiga o'rnatiladi. Bu platforma sathini oshirishga, zaxira g'ildirakni kabina orqasiga joylantirishga, yo'lni yaxshiroq ko'rishga imkon beradi. Uzoq safarga chiqqanda haydovechi dam olishi uchun ba'zan o'rindiq keyiniga alohida joy qilingan bo'ladi. Bunday kabinalar, odatda, motorga qarash uchun avtomobilning oldiga qarab ochiladigan qilinadi.

Ko'pchilik traktorlarda avtomobil tipidagi kabinalar qo'llaniladi. Ularga ko'pincha ikki kishilik o'rindiq va suyanchiq qilinadi. Kabinan-

larning eshibi ba'zan yoniga siljitim ochiladigan qilinadi, ba'zi kabinalar eshibining oynasi ochilmaydigan bo'ladi. Traktorlar kabinasi ham sovitish tizimidan foydalanib isitiladigan qilinadi. Traktor kabinasining jips yopiladigan qilinishi traktor agregatini ishlagandagi shovqinning haydovchiga eshitilmastigi uchun ham zerurdir. Traktor kabinasiga kichik aptechka, ichimlik suv solinadigan bache, o't o'chirgich o'matiladi.

Ba'zi universal traktorlar va o'ziyutar shassilarga yopiq kabina qilinmasdan, bir yoki ikki kishiilik yumshoq o'rindiq, suyanchiq va soyabon o'matiladi. Soyabon ustunchalari ketingi g'ildirak qanotlariga mahkamlanadi. Bog'larda va umuman soyabonga ehtiyoj bo'limgan sharoitlarda uni olib qo'yish mumkin.

Motorni yog'in, chang va boshqalardan saqlash hamda mashinani ko'rimli qilish uchun barcha traktor va avtomobil motorlari kapot bilan berkitiladi. Kapotlar yaxlit yoki yon devorlari olinadigan qilinadi. Ba'zi traktorlarda oldingi faralar kapoiga mahkamlanadi.

Traktor va avtomobil g'ildiraklari yoki o'rmalovchi zanjirining ketingi qismi ustiga qanot o'matiladi.

Moto-soatlar hisoblagichi traktor motorlarining shartli necha soat ishlaganligini ko'rsatadi. Hisoblagichning ko'rsatkich barabanlari sekinlashtiruvchi ikki just chervyak uzatma orqali motoring taqsimlash shesternalaridan aylantiriladi. Motoring tirsaklı vali 1700 ayl/daqiqa



21.16-rasm. Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan maxsus
kuzovli avtomobil

tezlikda aylansa val 102400 marta aylanganda bir soat ishladi deb ko'rsatadi. Masalan, shu motor 850 ayl/daqiqaga tezlikda ikki soat ishlanguida hisoblagich bir soatni ko'rsatadi. Birlar, o'nlar, yuzlar, minglar xonasini ko'rsatadigan to'rtta barabanchasi bor, 9999 soatdan keyin qaytadan 1 dan boshlaydi.

Spidometr avtomobilning harakat tezligini (km/soat hisobida) va necha kilometr yo'l bosib o'tganligini ko'rsatadi. Spidometr valigi vint uzatmali egiluvchan val orqali uzatmalar qutisining ikkilamchi validan harakatga keltiriladi. Harakat tezligini ko'rsatkich tok magnit maydonining doimiy magnit maydoniga ta'sir etishidan strelka o'qining burilishiga asoslangan.

Kilometrlarni ko'rsatkich traktorlarning moto-soatlar schyotchigi prinsipida ishlab, egiluvchan valikdan uch just chervyak uzatma orqali harakatga keladigan oltita barabanchasi bor. 99999,9 kilometrdan keyin yana 1 dan boshlaydi. Spidometr avtomobilning yetakchi g'ildiraklarning harakat tezligini sirpanishini hisobga olmagan holda ko'rsatganidan, haqiqiy tezlik spidometrning ko'rsatishidan kamroq bo'ladi.

6-§. Gidravlik tizim va qo'shimcha uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish

Gidravlik tizimga texnik xizmat ko'rsatish barcha elementlarni chang va loydan tozalash, bo'shab qolgan bolt va gaykalarni mahkamlash, moy sizishiga yo'l qo'ymaslik, bakdag'i moy sathini tekshirish va lozim bo'lsa, qo'shimcha moy quyish hamda moyni almashtirishdan iborat.

Gidravlik tizimning moy bakiga yozda Дн-11 (М-10Б), qishda esa Дн-8 (М-8Б) markali dizel moyi quyiladi. Moyning sathi har kuni tekshiriladi va texnik xizmat ko'rsatishlarda ko'rsatilgan muddatlarda almashtiriladi.

Traktorga o'rnatilgan mashina va qurollarni salt holatga ko'tarmasdan agregatni burish, to'la burilmasdan ish holatiga tushirish taqiqlanadi.

Moy trubkalarini biriktiruvchi mustaning gaykasini oxirigacha burash kerak, aks holda zoldirlar moy o'tadigan yo'lni ochmaydi.

Moy bakiga faqat moyning belgilangan sortini filtrdan o'tkazib quyish va uning ifloslanishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik kerak. Bakning moy filtrini ko'rsatilgan muddatda yuvib turish zarur. Moyning iflos bo'lishi ishqalanuvchi qismlarning tez yeyilishiga va qadalib yoki tijlitib

durst ishlamasligiga sabab bo'ladi. Moyning harorati +30° bilan +70° chamasida bo'lishi kerak.

Moy nasosini faqat motor ishlamay turgan vaqtida qo'shish yoki ajaratish, shuningdek, gidravlik o'rnatish tizimidan foydalanimagan vaqtarda ishlatmaslik kerak.

Nasosning salnik va qistirmalari bekam-u ko'st bo'lishi va rezbalı birikmalari jips tortilishi lozim.

Taqsimlagichning zolotniklari ravon harakat qilishi, o'tkazib yuboruvchi va saqlagich klapan to'g'ri rostlangan bo'lishi, ish vaqtida to'la ochilishi va jips yopilishi zarur, aks holda bu kamchiliklar gidravlik tizimning durust ishlashiga salbiy ta'sir etib, uning ishi yomonlashib ketadi.

O'rnatish tizimi ko'tarish yoki tushirish holatiga ko'chirilgandan keyin avtomat mexanizm ishlab, zolotnikni neytral holatga tezda o'tkazishi lozim, aks holda nasos va quvurlar zo'riqib ishlab ishdan chiqishi mumkin. Bunday holda zolotnikni qo'l richagi bilan neytral holatga ko'chirish kerak.

Moy quvurlari harakatlanuvchi qismlarga tegib ishqalanmasligi va jips biriktirilishi zarur, aks holda moy sizishi va tizimga tashqaridan havo so'rilishi mumkin. Kuch silindri, qopqoq va shtutserlari jips biriktirilishi va porshenning manjetasi bekam-u ko'st bo'lishi, chektovchi klapan to'g'ri o'rnatilishi va sekinlashtiruvchi klapanining teshigi ifloslanib qolmasligi lozim.

O'rnatish mexanizmi qismlarining rezbalı birikmalari mahkam qotirilgan bo'lishi, mexanizm bajariladigan ishga munosib rostlanishi, uning vaqtida sifatlı moylanishiga e'tibor berish kerak.

Taqsimlagichning o'tkazib yuboruvchi klapani ko'tarilganicha qadalib qolibbekilmasa, moy trubkalari mustasining gaykasi bo'shab ketsa, porshen yo'lini cheklovechi klapan uyasiga qadalib qolsa, sekinlashtiruvchi klapan teshigi bekilib qolsa, moy sovuq yoki kam bo'lsa yoki moy nasosi ishlamasa — o'rnatilgan qurol yuqoriga ko'tarilmaydi yoki pastga tushmaydi.

Moy trubkalari jips biriktirilmasa, moy haddan tashqari ko'p bo'lsa, nasosning moy so'rib oladigan tomonidagi qistirmasi shikastlansa — moy ko'pirib, moy baki sapunidan toshib chiqadi. Nasos yetarli bosim hosil qilmasa, zolotnik filtri ifoslansa, saqlagich klapan kam bosimga sozlangan bo'lsa, moy sovuq yoki ortiqcha issiq bo'lsa — qurol ko'tarilgandan yoki tushirilgandan keyin taqsimlagich richaglari o'zicha neytral holatga qaytmaydi.

Kuch silindrining sekinlashtiruvchi klapani ifloslanib qolsa, moy trubkalarining gaykalari bo'shab ketsa yoki moy sovuq bo'lsa — taqsimlagich richaglari ish holatida turmaydi.

Moy oz bo'lsa yoki isib ketsa, gidrotizim magistraliga havo kirib qolsa, qurollar ravon harakatlansmasdan siltanib ishlaydi, kuch silindri porshenining manjetasi yoki taqsimlagich zolotniklari ko'p yeyilgan bo'lsa, o'rnatilgan mashina yoki quroi ko'tarilgan holatda turmaydi.

Gidravlik moy nasosi yetakchi shesternasining salnigi shikastlangan bo'lsa, gidrotizimdan motor karteriga moy o'tadi.

Kuch silindri yuqorigi qopqog idagi sekinlashtiruvchi klapan noto'g'ri o'rnatilsa (joyiga qo'yilmasa), o'rnatilgan qurol tez pastga tushadi.

Motorning o'rtacha aylanishlarida gidrotizim ishlatalib, moyi isitiladi. Tizimda moy kam bo'lsa, moy baki filtri ifloslanib qolsa, taqsimlagich richagi «ko'tarish» yoki «tushirish» holatida uzoq saqlansa va o'rnatish tizimi zo'riqib ishlasa (mo'ljallanganidan katta quollar o'rnatilsa), tizimdag'i moy ortiqcha qiziydi.

Nazorat savollari

1. *Tirkash moslamasining vazifasi, tuzilishi va undan foydalanish usulini tushuntirib bering.*
2. *Traktorlar quvvat olish valining turlari va ishlatalishi.*
3. *Harakatlantirish shkivining tuzilishi va undan foydalanish usulini tushuntirib bering.*
4. *Traktor gidravlik o'rnatish tizimining vazifasi.*
5. *Moy nasosining tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.*
6. *Gidravlik taqsimlagich qanday ishlaydi?*
7. *Kuch sitindri qanday tuzilgan?*
8. *Qanday moy trubkalari qo'llaniladi? Birlashtiruvchi va saqlagich muftalarning vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.*
9. *O'rnatish mexanizmi qanday tuzilgan va qanday sozlanadi?*
10. *Yetakchi g'ildiraklar vazmirlashirgichining turlari, vazifasi, tuzilishi va ishlashini tushuntirib bering.*

22-bob. TRAKTOR VA AVTOMOBIL NAZARIYASI ASOSLARI

1-\$. Traktor va avtomobillardan foydalanish xususiyatlari

Traktor va avtomobil nazariyasi ularning harakatlanish xususiyatlari o'zgarishini tushuntirib beradi va ularni umumlashtiradi, bu xususiyatlarni belgilaydi va baholaydi, ularning sifat ko'satkichlarini va xususiyatlarini mukammallashtirish muammolariga bag'ishlangan.

Bu nazariyaning asosiy vazifasi ishlab chiqarilayotgan traktor va avtomobilarning tuzilmasini yanada mukammallashtirishdan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini, sanoat ashyolarini ko'proq ishlab chiqarish maqsadida traktor va avtomobilarning samaradorligini oshirishdan va bu jarayonlarni yanada jadallashtirishning ilmiy asoslarini yaratishdan iboratdir.

Traktorsozlikning taraqqiyoti traktorlar energiya bilan to'yinganlik darajasini ortishi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va texnikaviy tadqiqotlarning chuqurlashuvi harakat davomida uzatmalarni o'zgartirish imkoniga ega bo'lgan uzatmalar qutisini va gidravlik yuritmalarini yaratilishi, mashinalarni ergonomik xususiyatlarini, yurish ravonligi, tortish-tishlashish xususiyatlarining yaxshilanishiga olib keldi. Ammo bu yo'nalishda erishilgan muvaffaqiyatlar traktorlarning agrotexnik va ekologik xususiyatlarining yomonlashuviga sababchi bo'imodqa. Natijada g'ildirakning tuproqqa bo'lgan bosimi, harakatlangichlarning sirpanish darajasi ortdi. Traktor va avtomobilarning barqarorligi, boshqaruvechanligi va yonilg'i tejamkorligi yomonlashdi.

Zamonaviy traktor va avtomobillar energiya bilan to'yinganligining ortishi, ularning ishchi tezliklari ortishiga otib keldi, bu o'z naybatida traktorni avtomatik ravishda boshqarishni taqozo qildi, natijada traktorlar va mexanizatorlar soni o'ttasida nomutanosiblikni hosil qildi. Bunday muammolarni hal qilish traktorlarning ishchi organlari harakat tezligini, motorning ish rejimini, harakat yo'nalishi bo'yicha barqarorligini, tormozlash va shig'ov rejimlarini boshqaruvechi avtomatlar yaratish masalasini ko'ndalang qildi.

Ushbu muammolarni hal qilish quyidagi uch yo'nalishda olib borilishi mumkin.

Birinchi yo'nalish. Mashinalarning ayrim qismlari yoki yaxlit mashinaning ayrim ko'rsatkichlarini boshqarishni avtomatlashtirish, ya'ni bu maqsadda maxsus robotlar yaratish. Bunday traktor robotlari o'z-o'zidan rostlanuvchan mikroprotsessorlar va belgilangan dastur asosida ishlovchi mini EHM lar bilan jihozlanishi lozim.

Ikkinci yo'nalish. Traktorning tuproq hosildorligiga va qishloq xo'jalik ekinlari hosliga salbiy ta'sirni kamaytirish, ya'ni tuproq zichlashuvini, daladagi g'ildirak izlari sonini, o'simliklarning hosildorligini oshiruvchi jonivorlarning shikastlanishini kamaytirishdir. Bu muammolarni hal qilishning bir necha usullari mavjud: a) ko'p o'qli aggregatlar yaratish; b) g'ildiraklarga quvvat olish vali orqali harakat berish; d) bir xil g'ildirak izida yuruvchi, ko'priq, energetik vositalari prinsipida ishlovchi mashinalar yaratish; e) tuproqqa bo'lgan bosimni kamaytiruvchi maxsus tayanchli harakatlantirgichlar yaratish. Bularga pnevmatik va havo yostiqchali o'rnatish, ayniqsa, qo'shaloq g'ildiraklar o'rnatish, havo bosimi rostlanadigan keng profilli pnevmoshinalar qo'llash kabilar kiradi.

Uchinchi yo'nalish. Traktor va avtomobillar puxtaligini oshirish. Traktor konstruksiyasining murakkablashuvi, ularning nazorat va xabar beruvchi asboblar bilan jihozlanishi, EHM o'rnatish, ayniqsa, ekish va hosiini yig'ishtirib olishda to'xtovsiz ishlashi puxtalikni ta'minlashning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Bular, o'z navbatida, traktorning ish unumdorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Puxtalik muammosini traktorlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi ishchilarning va ukarni ishlatuvchi mexanizatorlarning malakali xizmatlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham uchinchi yo'nalish nafaqat traktorlarning texnikaviy darajasi bilan bog'liq, balki mexanizatorlarni tayyorlash darajasiga, ishlatish va ta'mirlash sifatiga, qurilmaning tuzilishiga, tuproqqa va o'simliklarga ishlov berishning ilmiy asoslariga ham bog'liq.

Traktorlarning ishlashini baholovchi ko'rsatkichlar. Traktor murakkab harakatga ega bo'lgan energetik vosita bo'lib, qishloq xo'jaligini yalpi mexanizatsiyalash va avtomattashtirishda qo'llaniladi. Shularga binoan traktorlar ma'lum darajadagi ishlatish sifati va xususiyatlari ega bo'lishlari kerak, ular ilmiy asoslangan o'lechov ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

Xususiyatlardan mashinaning qandaydir bir xususiy tomonlarini tavsillab, bu yerda:gi shu xususiyatlarni boshqa mashinalardagisi bilan solishtirish imkonini beradi. Masalan, bir xil nishablik sharoitlarida ishlovchi

traktorning tog' achan mo'ljallangan modifikatsiyasi ravonlikda ishlatalishga mo'ljallangan modifikatsiyasiga nisbatan barqarorroq bo'ladi.

Sifatlar xususiyatlar majmuasi bo'lib, mashinaning shunday muayanligini tashkil qiladiki, undagi muayyanlik boshqa mashinalarnikidan farq qiladi.

Masalan, g'ildirak formulasi 4K4 traktorning yuqori darajadagi tortuvchanlik-tishlashuvchanlik xususiyati bilan birqalikda yuksak darajadagi yurish ravonligi va yuqori darajada energiya bilan ta'minlanganligi g'ildirak formulasi 4K2 bo'lgan traktorning ish unumdorligidan anche yuqori.

Traktorlarning ishlatalish sifati va xususiyatlariiga va ularni belgilovchi ko'rsatkichlarga ish unumdorligi, yonilg'i tejamkorligi, o'tuvechanligi kiradi.

Ish unumdorligi quyidagi ishlatalish xususiyatlari: traktorlarning energiya bilan ta'minlanganlik darajasi, tortish-tishlashuvchanligi, boshqaruvchanligi, barqarorligi, ergonomik xususiyatlari, shig'ovlanish-tormozlamuvchanligi, puxtaligi, ta'mirlashga layoqatliligi bilan tavsiflandi.

Mashinaning yonilg'i tejamkorligi motorning yonilg'i tejamkorligiga, harakat paytida havoning qarshilik kuchi miqdoriga, yo'lning ahvoli va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lib, ergonomik ko'rsatkichlar esa mashinaning boshqaruvchanligi kabi ishlatalish xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Traktorning o'tuvechanligi uning tortish-tishlashuvchanligini, tayannuvchanligi, agroekologik xususiyatlari, yo'l sharoitiga mosligi, buriuvchanligini o'z ichiga oladi.

Energiya bilan ta'minlanganlik darajasi motor quvvatining mashina massasiga nisbati erqali belgilanuvchi ishlatalish xususiyati bilan baholanadi.

Tortuvchanlik-tishlanuvchanlik sifat ko'rsatkichi tishlashuvchanlik, dumalashga qarshilik, sirpanish darajasi, yurish qismining foydalanish koefitsientlari ishlatalish xususiyatlari bilan baholanadi.

Boshqaruvchanlik, buriish radiusi R mashinaning asosiy mexanizmlari bilan boshqarishni avtomatlashtirilganlik darajasini belgilovchi ishlatalish xususiyati bilan o'lchanadi.

Barqarorlik, chegaraviy bo'ylama va ko'ndalang qiyalik burchagi, buriishdagi kritik harakat tezligi ishlatalish xususiyatlari bilan baholanadi.

Ergonomik ko'rsatkichlar kabinaning shovqinsiziik, gamsizlik va changsizlik darajasi kabi ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Shig'ov-tormozlanish xususiyati tezlanish, shig'ov yoki tormozlanish yo'li va vaqt bilan belgilanadi.

Puxtalik ma'lum vaqt davomida, ishlatalish jarayonida sodir bo'lgan ishlamay qolishlar (to'xtovlar) soniga bog'liq. Ta'mirlashga layoqatililik texnik xizmat ko'rsatish davriyligi va takrorlanuvchanligi, traktor tizimlarining nazorat qilish joylari soni, uni asosiy ta'mirlashga moslash-tirilganlik darajasini ko'rsatadi.

Motoring yonilg'i tejamkorligi uning quvvat birligiga to'g'ri keluvechi yonilg'i sarfi bilan belgilanadi.

Tayanuvchanlik xususiyati traktor yuruvechi qismining tuproqqa bo'lgan bosimi, g'ildirak izining chuqurligi kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Agroekologik xususiyat traktor harakatlanganda uning izidagi tuproqning zinchashishi darajasini ko'rsatadi, traktorning yo'l tirkishi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar bilan baholanadi.

Buriluvechanlik, traktorning burilish radiusi, tuproq sirtining shikastlanishi darjasini bilan belgilanadi.

Osma yoki tirkama uskunali agregatda ishllovchi traktorning ish unundorligi qamrov eniga, motoring quvvatiga yoki ishchi organlarning tortishga qarshiligidagi hamda mashina-traktor aggregatining o'rtacha harakat tezligiga bog'liq bo'lib, u o'y navbatida traktorning quvvati bilan baholanadi. Shunday qilib, traktor aggregatining ish unumdonligi uni energiya bilan ta'minlanganlik darajasiga va tortish-tishlashish xususiyatiga bog'liq.

2-§. Traktorga ta'sir etuvchi kuchlar


Traktorga tuproq, havo muhiti, motor, yerning tortishidan hosil bo'lgan quyidagi kuchlar va momentlar ta'sir ko'rsatadi (22.1-rasm).

Og'irlik kuchi G traktorning og'irlik markaziga qo'yilgan bo'lib, gorizontal tekislikka tik yo'nalgan bo'ladi, uning normal $G \cdot \cos \alpha$ va harakat yo'nalishiga parallel bo'lgan $G \cdot \sin \alpha$ tashkil etuvchilari mavjud.

Havoning qarshilik kuchi P_w , traktorning yelkanlik markaziga qo'yilgan bo'lib, uning vertikal koordinatasi og'irlik markazi bilan deyarlik bir xil balandlikda (h_y) joylashgan bo'ladi. P_w kuchi mashinaning peshona qismiga qo'yilgan bo'lib, uning qiymati mashina peshonasining shakliga, tekislik darajasiga, havo sirpanib o'tadigan maydonning kattaligidagi, havoning mashina sirtidan oquvchanligiga bog'liq va bu kuchning qiymati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$P_w = k_w \rho_b F v^2,$$

bu yerda: k_s — oquvchanlik koeffitsienti; ρ_h — havoning zinchligi, F — mashina peshonasining maydoni; $F = B \cdot H$ (bu yerda: B va H mashinaning kengligi va balandligi); v — traktorning harakat tezligi.



22.1-rasm. Traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar va momentlar

Yetaklovchi burovchi moment M_{μ} . Mashinaga o'rmatilgan motorning burovchi momenti transmissiya agregatlari orqali yetaklovchi g'ildiraklarga yetkazib beriladi va uning ta'sirida mashinani harakatga keltiruvchi urinma tortish kuchi hosil bo'ladi.

Traktoring yetaklovchi o'qiga qo'yilgan tuptroqning normal reaksiysi Y_k traktorning yuritgichiga ta'sir ko'rsatadi. U son jihatidan g'ildirak va harakat tekisligi orasidagi tishlashish kuchiga teng bo'ladi. Y_k — normal reaksiya kuchi yetaklovchi g'ildirakning harakat yo'nalishi bo'yicha uning geometrik o'qidan a_k ga teng bo'lgan masofaga qo'yilgan bo'lib, bu masofa a_k ning ta'siridan yetaklovchi g'ildirakning dumalashiga qarshilik momenti hosil bo'ladi. Bu momentning qiymati:

$$M_{\mu} = Y_k a_k$$

G'ildiraklarni dumalashga qarshilik kuchi P_j mashinaning harakat yo'nalishiga parallel:

$$P_j = P_{\mu} - P_{ja}$$

bu yerda: P_{μ} — orqa g'ildiraklarning dumalashga qarshilik kuchi; P_{ja} — oldingi g'ildiraklarning dumalashga qarshilik kuchi.

Bu kuchning teng ta'sir etuvchisi shartli ravishda g'ildirakning tutashuv nuqtalaridan birortasiga qo'yilgan bo'lib, u g'ildirak o'qidan r_k masofa teng bo'lган узоқликда ta'sir ko'rsatadi. G'ildiraklarni dumalashga qarshilik kuchi R harakat yo'nalişiga teskari yo'nalişda qo'yilgan bo'lib, u g'ildirak ostidagi tuproqning qaytmas deformatsiyasiga sababchi bo'ladi, tuproqda sodir bo'lган bunday jarayonni gesterizis deyiladi.

Pnevmatik shinalardagi gesterizis natijasida hosil bo'lган energiya yetaklovchi g'ildiraklarning sirpanishdagi ishqalanish kuchi va boshqa qarshiliklarni yengishga sarflanadi.

G'ildiraklarning dumalashga qarshilik kuchi:

$$P_f = G \cdot f \cdot \cos \alpha,$$

bu yerda: f — mashina g'ildiraklarining dumalashga qarshilik koefitsienti.

G'ildirashdagi qarshilik koefitsienti g'ildirak podshipniklaridagi va o'rmalovchi zanjir elementlaridagi ishqalanishga, tuproqning turiga va deformatsiyasiga, shinalardagi bosimga, o'rmalovchi zanjirining to'g'ri taranglanishiga bog'liq bo'lib, turli tuproq sharoitlarida traktorni sudrab g'ildiratib, sarflanadigan kuchni dinamometr bilan o'lchab tajriba usulida topiladi. Tajribalarda aniqlangan g'ildirashdagi qarshilik koefitsienti f ning qiymatlari 22.1-jadvalda keltirilgan.

22.1-jadval

G'ildirashdagi qarshilik koefitsienti

Dala yoki yo'l holati	Traktor turi	
	pnevmatik shinali	o'rmalovchi zanjirli
1	2	3
Tekis, tuproqli quruq yo'l	0,03 — 0,05	0,05 — 0,07
Qo'riq, berch, ajriq bosgan yer	0,05 — 0,07	0,06 — 0,07
Ang'iz	0,08 — 0,10	0,07 — 0,09
Shudgorlangan dala	0,12 — 0,18	0,08 — 0,10
Haydalgan yer	0,15 — 0,18	0,09 — 0,11
Yumshoq yer, quruq qum	0,16 — 0,19	0,09 — 0,11
Ekishga tayyorlangan dala	0,15 — 0,17	0,09 — 0,12


1	2	3
G'ildiray yoki o'tmalovchi zanjir botadigan loy yer	0,25 – 0,30	0,1 – 0,25
G'ildiray yoki o'tmalovchi zanjir botadigan qalin qor	0,23 – 0,30	0,09 – 0,22
Qor yog'ib bosilgan yo'l	0,03 – 0,04	0,06 – 0,07

Mashinaning yetaklovchi g'ildiraklariga ta'sir etuvchi urinma tortish kuchi P_k . Bu kuch yetaklovchi g'ildiraklarni tuproq bilan tutashish yuzasiga ta'sir ko'rsatuvchi, mashinaning harakat tezligi vektoriga parallel va harakat yo'nalishi bo'yicha yo'nalgan, tuproqning reaksiya kuchi hisoblanadi. Agar mashina gorizontal tekislikda harakatlansa urinma tortish kuchi, tuproq reaksiyasining gorizontal tashkil etuvchisiga teng bo'lib, bu kuch yetaklovchi g'ildiraklarning tutashuv izida sodir bo'ladi.

Shunday qilib urinma tortish kuchi har bir yetaklovchi g'ildirakda hosil bo'lib, u yetaklovchi g'ildirak o'qidan r_k masofaga qo'yilgan bo'ladi. Urinma tortish kuchi r_{ok} masofaga qo'yilgan P_{ok} kuchining bir qismi hisoblanadi (22.2-rasm).

P_{ok} kuchi ta'siridan yetaklovchi g'ildiraklarda yetaklovchi moment hosil qilinadi:

$$M_{ok} = P_{ok}r_{ok} = (P_k - P_t) \cdot r_k + Y_k \cdot a_k$$



22.2-rasm. Traktor g'ildiragiga ta'sir etuvchi qarshilik va harakatlantiruvechi kuchlar

P_k va P_{jk} kuchlarning ayirmasi mashinani harakatga keltiruvchi (itaruvchi) kuch deyiladi:

$$X_k = P_k - P_{jk}$$

Bu kuch traktorni tortishga qarshilik qiluvchi barcha kuchlarni yengishga sarflanadi. U yetaklovechi g'ildirak o'qiga qo'yilgan bo'ladi.

Urinma tortish kuchining mumkin bo'lgan eng katta qiymati:

$$P_{k_{max}} = \varphi_{nh} Y_k$$

bu yerda: φ_{nh} — tajriba yo'li bilan aniqlanadigan harakatlangich bilan tuproq orasidagi tishlashish koefitsienti.

Tishlashish koefitsientining ayrim qiymatlari quyidagicha. Tuproq yo'lda: shinali traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,6 - 0,8$; zanjirli traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,9 - 1,1$. Shudgorlangan dalada: shinali traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,5 - 0,7$; zanjirli traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,60 - 0,8$. Ekishga tayyorlangan dalada: shinali traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,4 - 0,6$; zanjirli traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,6 - 0,7$. Qori yotqizilgan yo'lda: shinali traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,3 - 0,4$; zanjirli traktorlar uchun $\varphi_{nh} = 0,5 - 0,7$.

$P_{k_{max}}$ ni yetaklovechi g'ildiraklarni tuproq bilan **tishlashuvchanligi bo'yicha urinma tortish kuchi** deyiladi. Uning qiymati M_{jet} momentga to'g'ri keluvchi tuproqning eng katta reaksiyasiga teng.

Urinma tortish kuchining umumiy qiymati:

$$P_k = \varphi_j Y_k$$

bilan ifodalanadi, bu yerda: φ_j — tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti. Tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti $0 < \varphi_j < \varphi_{nh}$ oraliqda bo'ladi.

3-§. Yetaklovechi moment va urinma tortish kuchini aniqlash

Aytaylik, traktor barqaror yuklamada ishlayotgan bo'isin, bu yerda: harakatga qarshilik qiluvchi kuchlar P_k , P_p , P_w vaqt bo'yicha o'zgarmas bo'lib qolsin. Unda motor, transmissiya agregatlarining shesternalari va g'ildiraklardagi aylanuvchi qismlari harakatida ham o'zgarish bo'lmaydi, ya'ni bu qismlarning aylanma harakat qiluvchi detallari massalari istalgan vaqt oralig'iда teklis aylanadi.

Bunda motor momenti M_k ning qiymati o'zgartirilib, transmissiya orqali yetaklovechi g'ildirak o'qlariga yetkazib beriladi. Burovchi moment

miqdorining o'zgarishi transmissiya agregatlarining uzatmalar soni hisobiga amalga oshiriladi:

$$i_{tr} = n_k / n_m$$

bu yerda: n_m va n_k – motor tirsaklı valining va traktor yetaklovchi g'ildiraklarining aylanish chastotasi.

Transmissiya agregatlari yordamida o'zgartirib berilgan burovchi momentning bir qismi ishqalanib ishlovchi detallarning qizishiga va undan hosil bo'lgan issiqlikning atrof-muhitga targalishiga sarflanadi. Motordan transmissiya agregatlari orqali yetaklovchi g'ildirak o'qlariga-cha uzatiladigan burovchi moment:

$$M_{wt} = M_k \cdot i_{tr} \cdot \eta_{tr}$$

bu yerda: η_{tr} – transmissiya agregatlarida ishqalanish hisobiga yo'qotilgan energiyani hisobga oluvchi foydali ish koefitsienti.

M_{wt} momentni, motor momenti bilan aniqlangan yetaklovchi moment deyiladi. Bu momentni yetaklovchi g'ildirakning dinamik radiusiga nisbatidan:

$$P_{km} = M_{wt} / r_k$$

Bu kuchni motor bo'yicha hisoblangan urinma tortish kuchi formulasini deyiladi.

M_{wt} va P_{km} larni hisoblash formulalaridan ko'rinish turibdiki, motor bo'yicha yetaklovchi moment va urinma tortish kuchi, muayyan traktor uchun uning transmissiyasi uzatmalar soniga va FIK ga bog'liq.

Motoring burovchi momenti, uning quvvati tirsaklı valning aylanish chastotasiga bog'liq holda ma'lum qiymatga ega bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishlarini motoring rostlanuvchan tavsifi orqali tushuntirib beriladi. Traktor motori tirsaklı val aylanishlar chastotasini rostlovchi regulator bilan jihozlangan, shuning uchun ham traktor nazariyasining ayrim masalalari rostlanuvchan tavsifini o'rganishga bag'ishlangan (22.3-rasm, a, b).

Salt yurishida motor tirsaklı vali n_{tr} aylanishlar chastotasiga ega bo'lib, tashqi yuklama oshganda regulator reykasini siljitim hisobiga silindrlarga yonilg'i berishni ko'paytiriladi, natijada motoring burovchi momenti va samarali quvvati ortadi, buning natijasida tirsaklı val aylanishlar chastotasi birmuncha pasayadi. Motoring quvvati belgilangan eng katta qiymatga yetganda uni nominal quvvat, bu quvvatga to'g'ri kelivchi burovchi momentni – nominal burovchi moment,

aylanish chastotasini esa, nominal aylanish chastotasi deyiladi, $n_{\text{vnu}} = n_n$ ayirmaning qiymati regulatorning tekis ishlash darajasiga bog'liq bo'lib, ayirma qanchalik katta bo'lsa, regulatorning tekis ishlash daroji shunchalik yuqori bo'ladi.

Tirsakli val aylanishlar chastotasining n_{vnu} dan n_n gacha oraliqdagi motorning ishiga to'g'ri keluvchi tavsifiy bog'lanishlarni motorning rostlash tavsifi deyiladi.

Traktorga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi qarshiliklarning yanada oshishi, motor yuklanishini belgilangan chegaradan oshib ketishiga olib keladi, natijada tirsakli val aylanishlar chastotasi keskin pasayib ketadi. Bunday tavsifiy bog'lanishning n_n nuqtadan chapda joylashgan qismini rostlanmaydigan tavsif deyiladi. Tavsifning rostlanmaydigan qismida motor momenti dastlab birmuncha ortadi, ya'ni tirsakli valning aylanishlar chastotasi n_o ga yetganda u eng katta qiymatga ega bo'lib, aylanishlar chastotasining yanada kamayishi motorning ish jarayoni yomonlashuviga olib keladi va buning natijasida burovchi moment kamayadi. Tavsifning n_n dan chapda joylashgan qismiga burovchi momentning kattaroq qiymati to'g'ri keladi. Tavsifning bu qismida motor nobarqaror ishlab, yuklamaning yanada oshivi uning o'chib qolishiga olib kelishi mumkin. Motor aylanishlar chastotasining kamayishi bilan burovchi momentning oshishi yuklama oshganda uni o'zgaruvchan yuklamaga moslashuvini yaxshilaydi.

Motor burovchi momentining zaxira koefitsienti eng katta va nominal burovchi momentlar ayirmasi nominal burovchi momentning qancha qismini tashkil qilishini ko'rsatadi va u quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:


$$k_{\text{zax}} = (M_{\text{kmax}} - M_n) / M_n$$

Motorning burovchi momentga moslashish koefitsienti uning eng katta momenti nominal momentdan qancha katta ekanligini ko'rsatadi:

$$k_m = M_{\text{kmax}} / M_n = 1.0 \dots 1.2$$

Motor tirsakli valining aylanish chastotasiga moslashish koefitsienti uning nominal aylanishlar chastotasi eng katta burovchi momentga to'g'ri keluvchi aylanishlar chastotasidan necha marta katta ekanligini ko'rsatadi:

$$k_o = n_o / n_c$$



22.3-rasm. Motoring regulator tavsiflari:

a — aylanishlar chastotasi bo'yicha;
b — motoring burovchi momenti bo'yicha

Motoring aylanishlar chastotasiga moslashish koeffitsientining qiymati ortishi bilan, motoring qisqa muddatli yuqori yuklamada ishlash xususiyati yaxshilanadi. Bu koeffitsientning qiymati traktor dizeilarida 1,3—1,6 atrosida bo'ladi.

Grafiklar (22.3-rasm) dan ko'rish mumkinki, quvvatning eng katta va solishtirma yonilg'i sarfining eng kichik qiymatiga burovchi momentning nominal qiymati to'g'ri keladi:

$$f_k = f_n$$

Shuning uchun ham mashinadan foydalani layotganda motorning burovchi momentini uning nominal qiymatiga yaqin bo'lgan burovchi momentda ishlatalish ma'qul hisoblanadi, ya'ni:

$$M_n \geq M_k \geq \gamma_{dmn} \cdot M_n,$$

bu yerda: γ_{dmn} — motorning eng kichik ruxsat etilgan burovchi momentdan foydalinish koefitsienti $\gamma_{dmn} = 0,85-1,0$.

Odatda, $\gamma_{dmn} = 0,85$.

Transmissiyaning uzatmalari soni o'zgarmas bo'lsa, motor momenti bo'yicha aniqlangan urinma tortish kuchi

$$M_n i_u \eta_u / r_k \geq F_k \geq \gamma_{dmn} M_n i_u \eta_u / r_k$$

oraliqda o'zgarib turadi.

Nazorat savollari

1. Traktorlarning ishlashini baholovchi ko'rsatkichlarni aytib bering.
2. Traktorga qanday kuchlar va momentlar ta'sir etadi?
3. Traktor g'ildiragiga qanday kuchlar ta'sir ko'rsatadi?
4. Traktorning harakatiga qarshilik qiluvchi kuchlarni aytib bering.
5. Motor burovchi momentining zaxira koefitsienti nimani bildiradi?
6. Motoring regulator tavsifidan traktorning tortish kuchini aniqlashda qanday foydalaniлади?

23-boz. G'ILDIRAKLI TRAKTORNING UMUMIY DINAMIKASI

1-§. Pnevmatik shinaning fizik-mexanik xususiyatlari

Pnevmatik shinalar zarba, tebranish kabi yo'l tomonidan mashinaning asosiga uzatiladigan energiyani so'ndirish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, u g'ildirakli mashinalarda keng qo'llaniladi.

Pnevmatik shinalardagi tebranish energiyasi undagi havoning sifilishiga va protektor materiali elastik deformatsiyasining gisterezis ishiga aylanadi.

G'ildiraklarga tushuvchi tashqi (normal, yonaki hamda burchak bo'yicha va boshqa) yuklamalar ta'sirida shina deformatsiyalanadi va undan issiqik energiyasi ajralib chiqadi, natijada g'ildirakning tayanch yuzasida tutashish izi va uning barcha qismida asos reaksiyasi hosil bo'ladi.

Shunday qilib, pnevmatik g'ildirak deformatsiya energiyasini uzatuvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi, u harakatning kinematik va dinamik ko'rsatkichlarini tavsiflovchi foydali ish koefitsientiga ega.

Pnevmatik g'ildirakning ishlashi, birinchidan, transmissiya, rama va boshqarish organlari bilan bog'liq, ikkinchidan, u tuproq sirti bilan ham bog'langan.

Shuning uchun ham pnevmatik g'ildirakning tortuvchanlik-tishlashuvchanlik, yurish ravonligi, boshqaruvchanligi va yonilg'i tejamkorligi kabi ishlatish xususiyatlari bilan tasvirlanadi .

Pnevmatik shina gisterezis, tayanuvchanlik – yuk ko'taruvchanlik, tishlashuvchanlik, yonaki surilishga qarshilik va burchak bo'yicha deformatsiyalanish (burchak bikirligi) kabi asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oлади.

Pnevmatik shinaning gisterezis xususiyati maxsus stendda tahlil qilinadi. Bunda shina g'ildirak o'qi orqali normal kuch bilan yuklanish va yuksizlantirish imkoniga ega. Yuklanish va yuksizlantirish jarayonidagi g'ildirak markazining siljishi maxsus qurilma yordamida yozib boriladi va natijada gisterezis sirtmog'i hosil qilinadi. Sirtmoq maydonining kattaligi son jihatidan shina protektori materialini sinov qurilmasining ishqalanish sirtida yo'qtgan enegiya naiqdoriga teng.

Tajriba ma'lumotlaridan ma'lumki, gisteresis natijasida energiya yo'qotilishi shinaning dumalashdagi umumiyligiga proporsional bo'ladi. Bunday jarayonda yo'qotilgan energiya miqdori, agar shinaga bir vaqtning o'zida radial yuklama, yetaklovchi moment, yonaki kuch va burchak bo'yicha deformatsiyalovchi moment ta'sir ko'rsatgan hollarda yanada ham ortadi. Ta'sir ko'rsatuvg'chi omillarni hisobga olin-gan holat uchun, pnevmatik shinaning qattiq asosda dumalashga qar-shilik koefitsienti quyidagicha ifodalanadi:

$$f_{qat} = a_1 A_r + a_2 A_m + a_3 A_c + a_4 A_x,$$

bu yerda: a_1 — normal kuch miqdoriga bog'liq bo'lgan proporsionallik koefitsienti; A_r , A_m , A_c va A_x — mos ravishda gisteresis jarayonida shinaga ta'sir etuvchi radial siquvchi kuch, yetaklovchi moment, yonaki kuch va burchak bo'yicha deformatsiyalovchi momentlar ta'sirda bajarilgan ish miqdori; a_2 , a_3 , a_4 — mos ravishda, g'ildirak radiusiga, deformatsiya miqdoriga, yuklanish tezligiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liq bo'lgan proporsionallik koefitsientlari.

Shinaning tayanuvchanlik va yuk ko'taruvchanlik xususiyati. Shinaning tayanuvchanlik xususiyati tutashuv izining maydoniga va bu izga tushuvchi o'rtacha va maksimal bosimiga bog'liq.

Tutashuv izining maydoni shinaning radial deformatsiyasi miqdori bilan belgilanadi. Shina tutashuv izi maydonining taxminiy qiymatini va uning normal deformatsiyasini hisoblash uchun quyidagi formulalardan foydalanish tavsiya etiladi:

$$\lambda_{sh} = \frac{\gamma_g c Q}{\pi P_w \sqrt{D \cdot b}}; \quad F = \pi \lambda_{sh} \sqrt{D \cdot b} \cdot Q \cdot c \cdot \gamma_g / P_w,$$

bu yerda: γ_g — shina tayanadigan asosning qattiliginini hisobga oluvchi koefitsient, $\gamma_g = 0,7-1$; c — tutashuv izining kengligiga, shinadagi havoning bosimiga P_w to'g'ri proporsional va yuklanish Q ga teskari proporsional bo'lgan koefitsient; D — shinaning erkin diametri.

Shinaning yuk ko'tarish qobiliyati deb, uning uchun ruxsat etilgan eng katta normal yuklanish miqdoriga aytildi:

$$Q = (P_w + P_e) \cdot Z^{1/2} (D \cdot b_d / B_{sh}) \cdot \lambda_{sh} \cdot (\lambda_{sh} / H_p)^{1/3},$$

bu yerda: P_w — shinadagi havoning bosimi; P_e — shinaning turli xildagi deformatsiyalishidagi, uning karkasi bikirligiga ekvivalent

bo'lgan bosim; Z – shinadagi kort qatlamlarining soni; D , d_d , B_{sh} , H_p – mos ravishda shinaning erkin diametri, diskning kengligi, pnevmatik shina profilining kengligi va balandligi; λ_{sh} – shinaning radial deformatsiyasi.

Shinaning tishlashuvchanlik xususiyati. Pnevmatik shinaning tishlashuvchanlik xususiyati $\tau_z - s$ yoki $\varphi_z - s$ diagrammasi bilan tavsiflanadi, bu yerda: normal yuklamaning qiymati Q o'zgaruvchan bo'ladi (τ_z – g'ildirak sirti va harakat tekisligi tutashuv yuzasiga ta'sir etuvchi o'rtacha urinma kuchlanish; s – tutashuv izidagi protektor elementining harakat yo'nalishiga teskari yo'nalishdagi sirpanish miqdori; φ_z – shinaning asos bilan tishlashish koefitsienti).


$\tau_z - s$ yoki $\varphi_z - s$ diagrammalari, g'ildiraklarni maxsus stendlarda sinash usuli bilan, maxsus harakatlanuvchan testerlarda, surituvchan plastinkalarni yoki halqalarni sinash natijalaridan foydalananib aniqlanadi.

Shinaning tishlashuvchanlik xususiyatini, tishlashuvchanlik koefitsienti va miqdori jihatidan tutashuv izidagi teng ta'sir etuvchi urinma kuchlanishga teng bo'lgan, urinma tortish kuchni belgilaydi. Urinma kuchlanish miqdori g'ildirak rezinasining tuproqqa nisbatan sirpanish kuchiga va tuproq zarrachalari o'rtasidagi ichki ishqalanish koefitsientiga bog'liq. Bu kuchlanish tuproqning turiga va holatiga, shinadagi tuproq ilashtirgichning tuzilishiha va ularning yuklanish rejimiga va g'ildirakka ta'sir ko'rsatuvchi normal yuklanishga bog'liq.

Yuqori darajadagi o'tuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan traktorlar uchun, ayniqsa, tuproq ilashtirgichlarning tuzilishi muhim ahamiyatga ega, agar ular yirik bo'rtlamali bo'lsa shinaning tishlashuvchanligi yuqori bo'ladi.

Shinaning yonlama surilishga qarshiligi. Mashinaning boshqaruvchanlik xususiyatiga uning yonlama bikirligi muhim ta'sir ko'rsatadi.

Radial kuch bilan yuklangan va aylanish tekisligida harakatlanayotgan,




23.1-rasm. Shinaning yonlama surilishga qarshiligini aniqlash sxemasi

vertikal o'rnatilgan g'ildirakka yonlama Z_k kuchi ta'sir ko'rsatsa (23.1-rasm), g'ildirak profilining yo'l bilan tutashuv shakli o'zgaradi. Bunday o'zgarish nafaqat shinaning tutashuv zonasida, balki uning boshqa qismlarida ham sodir bo'ladi. Shinaning bunday holatini uning yonlama surilishi deyiladi. Bunda g'ildirak dastlabki yo'nalishiga nisbatan δ_{yon} burchak ostida harakatlanadi, δ_{yon} burchagini g'ildirakning yonlama surilish burchagi deyiladi.

G'ildirakning yonlama surilishga qarshilik koeffitsienti:

$$K_{yon} = Z_k / P_e$$

Shinaning yonlama surilishga qarshiligi, uning tuzilishiga va o'chamrlariga, undagi havo bosimiga bog'liq. Yonlama surilishga qarshilik, shinadagi havo bosimi ortishi bilan ortib boradi. Shinaning yonlama surilish burchagi chegaralangan bo'lib, u yengil avtomobilarda 3–5° dan oshmaydi. Bu burchakning qiymati yuk avtomobilari va traktorlar uchun yanada kichikroq bo'ladi. Shunday qilib, shinaning yonlama surilishi deb, Z_k yonlama kuch ta'siri yo'nalishida pnevmatik g'ildirakni dastlabki yo'nalishdan δ_{yon} burchakka chetga chiqishiga aytiladi.



23.2-rasm. Shinaning burchak bikirligini aniqlash sxemasi

Shinaning burchak bo'yicha deformatsiyalanishga qarshiligi. Agar g'ildirakka normal kuchdan tashqari, yo'l sirtiga parallel bo'lган moment qo'yilgan bo'lsa (23.2-rasm), shinaning burchakli deformatsiyasi sodir bo'ladi. Uni quyidagicha tushuntirish mumkin: shina protektorning dastlabki $a - a$ o'rta chizig'ining holati, moment ta'sirida $b - b$ holatlarga o'zgaradi, o'rta chiziqning holatlari bir-birlariga nisbatan ψ burchakni hosil qiladi, uning qiymati burchak bikirligi bilan baholanadi. Shinaning burchak bikirligi M/ψ ga teng.

G'ildirak shinasi, burchak bikirligi hisobiga qisman harakat yo'nalishidan chetga chiqishi, bu-

ning natijasida protektor elementlari yo'lga nisbatan biroz sirpanishi ham mumkin. Bu esa, o'z navbatida, rul mexanizmi bilan burilish sodir etilganda shinaning yeyilishini kamaytirishga olib keladi.

Pnevmatik shinalar ishlatish jarayonida turli xildagi deformatsiya-larga uchraganligi sababli, ularda quyidagi radiuslar qo'llaniladi.

G'ildirakning erkin radiusi deganda, yuklanmagan g'ildirak radiusi tushuniladi.

Statik radius, normal kuch bilan yuklangan, harakatsiz g'ildirak o'qidan uning tayanch tekisligigacha bo'lgan masofadan iborat.

Dinamik radius deb, harakatdagi g'ildirakning radiusiga aytildi. Agar g'ildirak kichik tezlikda qattiq yo'lda harakatlansa, dinamik radiusni taxminan statik radiusga tenglab olish mumkin. Agar harakat deformatsiyalanadigan tuproqda sodir bo'ssa, dinamik radius deformatsiyalarnmaydigan asosdagidan katta bo'ladi.

2-\$. Traktoring oldingi va orqa g'ildiraklariga tushuvchi yo'Ining normal reaksiyasini aniqlash

Tirkamali traktoring gorizontal tekislikka nisbatan α burchaklı qiyalidagi yo'lda tezlanuvchan harakat qilgan holatini ko'rib chiqamiz. Traktoring oldingi g'ildiraklari yetaklanuvchi, orqa g'ildiraklari esa yetaklovchi bo'lsin, ularning diametri mos ravishda $2r_a$ va $2r_b$ ga teng (23.3-rasm).

Traktor to'g'ri chiziqli harakatlanganda uning ko'ndalang tekisligiga quyidagi tashqi kuchlar va reaksiyalar ta'sir ko'rsatadi.


Traktoring og'irlik kuchi, traktoring og'irlik markaziga qo'yilgan bo'ladi. Og'irlik kuchi a va h koordinatalari bilan ta'riflanadi.

Yetaklovchi va yetaklanuvchi g'ildiraklarga qo'yilgan yo'Ining normal reaksiysi Y_k va Y_o . Bu kuchlar harakat yo'nalishi bo'yicha g'ildiraklarning vertikal o'qidan a_k va a_o masofaga surilgan bo'ladi.

Harakat yo'nalishiga parallel bo'lgan yo'Ining reaksiysi, traktorni harakatga keltiruvchi – itaruvechi kuchni tashkil etadi. Bu kuch yetaklovchi g'ildirak o'qidan r_d masofaga qo'yilgan bo'lib, u $Y_k = P_k - P_d$ ga teng.

Oldingi g'ildirakka ta'sir etuvchi reaksiya kuchi harakat yo'nalishiga teskari yo'nalishda ta'sir ko'rsatib, yetaklanuvchi g'ildirak o'qidan r_o masofaga qo'yilgan bo'ladi (P_o kuchi).

Tortishga qarshilik kuchi traktoring tirkash nuqtasiga qo'yilgan bo'lib, yo'l sirtidan vertikal tekislik bo'yicha h_o masofada joylashgan.



23.3-rasm. Traktorning oldingi va orqa g'ildiraklarga tushuvchi normal reaksiyalarni aniqlash sxemasi

Umumiy holda tortishga qarshilik kuchi harakat tekisligiga nisbatan γ_k , burchakda yo'nalgan bo'ladi. Bu burchak, tortishga qarshilik kuchi harakat tekisligiga nisbatan pastga yo'nalgan bo'lsa, inusbat, yuqoriga yo'nalgan bo'lsa, mansiy hisoblanadi.

Ilgarilanma va aylanma harakat qiluvchi massalarni umumiy inersiya kuchi $R_j \delta_{ay/l}$ traktorning nobarqaror tezlikda harakatlanishidan sodir bo'ladi.

Havoning qarshilik kuchi og'irlik markazining balandligiga yaqin bo'lgan masofaga qo'yilgan bo'ladi. Bu masofani traktorning yelkanli markazi deb ataladi. Amalda og'irlik va havoning qarshilik kuchlarining vertikal koordinatalari bir to'g'ri chiziqdagi yotadi deb qabul qilingan.

Hisoblashni osonlashtirish maqsadida tortishga qarshilik kuchining ta'sir yo'nalishini saqlagan holda harakat tekisligiga normal bo'lgan g'ildirak o'qidan o'tuvchi tekislik bilan kesishgan nuqtaga ko'chiramiz. Tortishga qarshilik kuchi qo'yilgan yangi nuqtani shartli tirkash nuqtasi deb ataymiz.

Uning yo'l sirtidan balandligi $h_{kr} = h_{kr} + l_{kr} \cdot \operatorname{tg} \gamma_{kr}$ ifoda bilan hisoblanadi. Bu yerda: l_{kr} — haqiqiy tirkash nuqtasidan yetaklovchi g'ildirakning vertikal o'qigacha bo'lgan masofa.

Oldingi g'ildirakka ta'sir etuvchi yo'lning normal reaksiyasini aniqlash uchun, barcha kuchlardan O_2 nuqtaga nisbatan momentlar tenglamasini tuzamiz. Itaruvchi kuch yo'l sirtiga nisbatan o'tkazilgan normal bilan kesishganligi uchun uning momenti bo'lmaydi. Momentlar tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(G \cdot \sin \alpha + P_f \cdot \delta_{ayi} + P_w) \cdot h + P_{kr} \cdot \cos \gamma_{kr} h_{kr} - G \cdot a \cdot \cos \alpha = 0,$$

bu yerda: L — traktorning bazasi.

Tenglamadagi $U_k \cdot a_k$ va $U_o \cdot a_o$ ko'paytmalarni tegishli M_{jk} va M_{jo} momentlari bilan almashtirib traktor g'ildiraklarining umumiy dumalashga qarshilik momentini hisoblaymiz:

$$M_i = M_{jk} + M_{jo}$$

Yugoridagi ifodani hisobga olib, oldingi g'ildirakka ta'sir etuvchi reaksiya kuchini aniqlaymiz:

$$Y_o = [G \cdot a \cdot \cos \alpha - (G \cdot \sin \alpha + P_f \cdot \delta_{ayi} + P_w) \cdot h - P_{kr} h_{kr} - M_i] / L,$$

bu yerda: va undan keyin ham γ_{kr} burchagining kichikligini hisobga olib, $\cos \gamma_{kr} = 1$ deb qabul qilamiz.

Harakat teklisligiga perpendikular bo'lgan teklislikda ta'sir etuvchi kuchlar proyeksiyalarining yig'indisidan orqa g'ildirak normal reaksiyasini U_k ni aniqlaymiz, ya'ni

$$Y_k + Y_o = G \cos \alpha + P_{kr} \sin \gamma_{kr}$$

Bu ifodaga oldingi g'ildirak reaksiyasi Y_o qiymatini qo'yib, orqa g'ildirak reaksiyasi Y_k ni aniqlaymiz:

$$Y_k = [G \cos \alpha (L - a) + (G \sin \alpha + P_f \cdot \delta_{ayi} + P_w) \cdot h + P_{kr} h_{kr} + M_i] / L + P_{kr} \sin \gamma_{kr}$$

Agar traktor qiya burchakli nishablikda harakatlansa, burchak mansiy hisoblanadi. Inersiya kuchi ham tenglamada turli ishorali bo'lishi mumkin, sekintanuvchan harakatda (tormozlash paytida) uning ishorasini mansiy olish lozim.

Y_k va Y_o reaksiya kuchlarini hisoblash formulalarini tahlil qilamiz.

1. Agar traktor gorizontal yo'lda barqaror harakat qilib, uning tezligi uncha katta bo'lmasa, ya'ni $v = \text{const}$, $\alpha = \theta$ va $P_w = 0$ bo'lsa:

$$Y_o = (G \cdot a + P_{kr} h_{kr} - M_f) / L;$$

$$Y_k = [G(L-a) + P_{kr} h_{kr} + M_f] / L + P_{kr} \sin \gamma_{kr}$$

2. Agar traktor salt yurishda, gorizontal yo'lda, uncha katta bo'lmagan barqaror tezlikda harakatlansa, ya'ni $P_{kr} = 0$, $v = \text{const}$, $\alpha = \theta$, $P_w = 0$ bo'lsa, oldingi va orqa g'ildiraklardagi normal reaksiya:

$$Y_o = (G \cdot a - M_f) / L; \quad Y_k = [G(L-a) + M_f] / L$$

3. Traktor statik (harakatsiz) holatda gorizontal tekislikda tirkamasiz, ya'ni $P_{kr} = 0$, $v = \theta$, $M_f = 0$ bo'lsa, g'ildiraklardagi normal reaksiya kuchi:

$$Y_o = (G \cdot a) / L; \quad Y_k = G(L-a) / L$$

4. Tortishga qarshilik kuchi harakat tekisligiga nisbatan qiya bo'lganda Y_k va Y_o reaksiya kuchlari nafaqat normal yuklamaning qayta taqsimlanishi hisobiga, balki unda $Y_k + Y_o + G \cos \alpha + P_{kr} \sin \gamma_{kr} = 0$ tenglik mayjud bo'ladi.

Turli harakat sharoitlarida normal reaksiya kuchlarining taqsimlanishini aniqlash va ularni solishtirish uchun Y_k va Y_o kuchlarining solishtirma ko'rsatkichlarini kiritamiz, bu ko'rsatkichlarni g'ildiraklarning yuklanish koefitsienti deb qabul qilamiz, ya'ni:

$$\lambda_o = Y_o / G \text{ va } \lambda_k = Y_k / G$$

Traktoring tortuvchi qismidagi tortishga qarshilik kuchi yo'l sirtiga parallel bo'lsa: $\lambda_o + \lambda_k = 1$.

Agar traktoring tortishga qarshiliqi harakat yo'nalishiga nisbatan pastga yo'nalgan bo'lsa: $\lambda_o + \lambda_k > 1$.

Agar tortishga qarshilik harakat yo'nalishiga nisbatan yuqoriga yo'nalgan bo'lsa: $\lambda_o + \lambda_k < 1$.

Agar traktor tirkamasiz gorizontal yo'lda harakatlansa:

$$\lambda_o = \frac{a}{L} - \frac{M_f + P_w h}{GL} = \lambda_{ost} - \frac{M_f + P_w h}{GL};$$

$$\lambda_k = \frac{L-a}{L} + \frac{M_f + P_w h}{GL} = \lambda_{kst} + \frac{M_f + P_w h}{GL},$$

bu yerda: $\lambda_{ost} = a/L$ va $\lambda_{ksr} = (L-a)/L$ – statik holatda bo'lgan traktor g'ildiraklarining yuklanish koefitsientlari.

5. Oldingi va orqa g'ildiraklarga taqsimlanuvchi normal yuklamaga og'irlik markazining ko'ndalang koordinatasini sezslari ta'sir ko'rsatadi. Orqa g'ildiraklari yetaklovchi bo'lgan g'ildirakli traktorlarda og'irlik markazi g'ildiraklarga yaqin joylashgan bo'ladi. Shuning uchun ham:

$$Y_{ksr} = (0,65-0,7) \cdot G$$

Orqa g'ildiraklarga tushuvchi og'irlik kuchining kamayishi traktor tishlashish xususiyatini yomonlashtiradi, oldingi g'ildiraklarga tushuvchi og'irlik kuchining kamayishi esa, traktor boshqaruvchanligiga va bo'ylama barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

6. Mashinaning konstruktiv ko'rsatkichlari normal yuklamaning g'ildiraklar o'rtaida taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mashinaning bazasi qanchalik qisqa bo'lsa, uning og'irlik markazi balandligi va unga mos holda shartli tirkash balandligi ham kattalashadi.

Nazorat savollari

1. Pnevmatik shinaning asosiy xususiyatlarini aytib bering.
2. Shinaning yuk ko'tarish qobiliyati nimalarga bog'liq?
3. Traktoring oldingi va orqa g'ildiraklariga tushuvchi yo'llining normal reaksiyasi qanday aniqlanadi?
4. Traktor nishablikda harakatlanganda oldingi va orqa g'ildiraklardagi reaksiya kuchlari qanday aniqlanadi?

24-bo'b. O'RMALOVCHI ZANJIRLI HARAKATLANTIRGICH NAZARIYASI

1-\$. O'rmalovchi zanjirli harakatlantirgichning kinematik xususiyatlari

O'rmalovchi zanjirli harakatlantirgich ikki parallel aylanuvchi shartnirli va sharnirsiz tasmdl yopiq konturli zanjir deb ataluvchi harakatlantiruvechi mexanizmdan iborat.

Zanjir tasmasi yetaklovchi g'ildirak, ushlab turuvchi va tayanch g'altaklari hamda yo'naltiruvechi g'ildiraklar orqali yopiq konturini hosil qilib, uni zanjir o'ramasi deb ataladi. O'ramaning yetaklovchi g'ildirakdan tuproqqacha bo'lgan (harakat yo'nalishiga qarshi) I_z ga teng bo'lgan qismi ishechi yoki yetaklovchi tarmog'i deyiladi.


Bu qism urinma tortish kuchi bilan yuklangan bo'ladi. O'ramaning I_{er} ga teng bo'lgan harakat yo'nalishi bo'yicha olingen yetaklovchi g'ildirak va tuproq orasidagi qismi zanjirning **erkin tarmog'i** deyiladi. Zanjirning bu qismini urinma tortish kuchi bilan yuklanmaydi. Zanjirning chetki tayanch g'altaklari orasidagi I_z ga teng bo'lgan qismi **tayanch tarmog'i** deyiladi.

Zanjirli o'ramaning uzunligi $L_z = L_{er} + I_z + I_{er}$.

Yetaklovchi g'ildirakning traktorda (oldiga yoki orqasiga) joylashtisiga qarab ishechi I_z va erkin I_{er} o'ramalar uzunliklari keng oraliqda o'zgaradi, ularning nisbati $1/I_{er}$ yetaklovchi g'ildirak oldinda bo'lsa — 0,08—0,4, orqada bo'lsa 7—12 oraliqda bo'ladi.

O'rama tarmog'i yo'naltiruvechi g'ildirak va tayanch g'altaklari (agar yetaklovchi g'ildirak orqada, 24.1-rasm) yoki yetaklovchi g'ildirak va tayanch g'altaklari orasida (agar yetaklovchi g'ildirak oldinda, 24.2-rasm) bo'lsa, uni to'g'ridan to'g'ri yo'naltiruvechi zanjir o'ramasi deyiladi. Zanjirli traktoring yetaklovchi g'ildiraklariga beriladigan yetaklovchi moment zanjir o'ramasining ishechi tarmog'ida urinma tortish kuchini hosil qiladi. Bu kuch zanjirning tayanch qismida tuproq bilan o'zaro ta'siri natijasida namoyon bo'ladi.

Harakatlantirgichning tishlashish kinematikasi zanjirning turiga, uning bo'ylama yo'nalish moyilligiga, o'zaro bog'lanishda bo'lгach elementlarning shakliga, zanjir va yetaklovchi g'ildirak tishlarining qadamiga bog'liq.



24. I-rasm. Yetaklovchi g'ildiragi orqada joylashgan zanjir o'tramasining kinematikasi va dinamikasi

Zanjirli harakatlantirgichda tishlashishning ikki holati amalda ko'proq uchraydi: zanjirning qadami yetaklovchi g'ildirak qadamiga teng yoki undan katta bo'lgan hollar. Traktor sirpanmasdan harakatlanganda yetaklovchi g'ildirak bir aylanishida zanjir zvenolari tashkil etgan ko'p burchakning perimetriga teng bo'lgan yo'lni bosib o'tadi, ya'ni:

$$2\pi r_k = t_{cv} z_{ka},$$

bu yerda: r_k — yetaklovchi g'ildirakning nazariy radiusi; t_{cv} — zanjir o'tramining qadami; z_{ka} — yetaklovchi g'ildirakning zanjirga faol ta'sir ko'rsatuvchi tishlari soni.

Agar yetaklovchi g'ildirakning har bir tishi zanjir o'tramining navbat-dagi zvenosi bilan ilashmada bo'lsa, $z_{ka} = z_k$. Agar ilashma bir tish o'tkazib sodir bo'lsa, unda $z_{ka} = 0,5 z_k$.

Yetaklovchi g'ildirakning nazariy radiusi.

$$r_k = t_{cv} z_{ka} / 2\pi$$

Yetaklovchi g'ildirak nazariy radiusining tajribaviy qiymati.


$$r_k = s / (2\pi n_{ov} \cdot r)$$

bu yerda: s — g'ildirak radiusi aniqlanadigan yo'lning uzunligi; n_{ov} — s masofaga to'g'ri keluvchi yetaklovchi g'ildirak aylanishlari soni.

Agar zanjirli harakatlantirgich yetaklovchi g'ildiragining bir soniya-dagi aylanishlari soni ma'lum bo'lsa, traktorning o'rtacha ilgaritanma nazariy tezligi:

$$v_n = l_{cv} z_{ka} n_k$$

Agar zanjir o'ramasi alohiba bikir zvenolardan tashkil topgan bo'lsa, traktoring haqiqiy ilgarilanma harakat tezligi o'zgaruvchan bo'ladi. Hatto yetaklovchi g'ildirak tekis aylanganda ham traktoring harakat tezligi ma'lum davriylikda o'zgarib turadi. To'liq sikt bo'yicha tezlikning o'zgarish davri yetaklovchi g'ildirakting burilish burchagi $2\pi/z_{ka}$ ga to'g'ri keladi.



24.2-rasm. Yetaklovchi g'ildiragi oldindan joylashgan zanjir o'ramasining kinematikasi va dinamikasi

Traktor tezligi tebranish davriyligining jadalligi uzatmalar qutisining qanday uzatmaga o'zgartirilishiga, zvenolar qadami hamda zanjirli harakatlantirgichning boshqa parametrlariga bog'liq. Tezlikning tebranishi natijasida hosil bo'lgan inersiya kuchi va zorbalar zanjirli harakatlantirgich va mashina asosi detallarida qo'shimcha yuklanishlar hosil qiladi. Zanjirli traktoring ilgarilanma harakat tezligi deyilganda, harakat notekisligini hisobga olinmasdan aniqlangan o'rtacha tezligi tushuniлади.

2-§. O'rmalovchi zanjirli traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar va momentlar

Tirkamali zanjirli traktor tezlanuvchan harakat bilan gorizontal tekislikka nisbatan α burchak ostidagi qiyalikda to'g'ri chiziqli harakatlantayotgan bo'lsin. Bunda bo'ylama vertikal tekislikda traktorga quyidagi tashqi kuchlar va reaksiya kuchlari ta'sir ko'rsatadi (24.3-rasm).


Traktoring og'irligi G uning $G \sin \alpha$ va $G \cos \alpha$ tashkil etuvchilari mos ravishda yo'l sirtiga parallel va perpendikular yo'nalgan bo'ladi.

Traktoring ilgarilanma harakatlanuvchi massalarining **inersiya kuchi** P_i tirkamanining shartli ularash nuqtasiga keltirilgan tortuvechi qismidagi tortish **qarshiligi**, uning tashkil etuvchilari $P_{kr} \cos \gamma_{kr}$ va $P_{kr} \sin \gamma_{kr}$ lardan iborat bo'lib, ular mos ravishda yo'l sirtiga parallel va perpendikular yo'nalishda bo'ladi.

Yo'l sirtiga parallel bo'lgan tuproqning gorizontal reaksiyasi tortishga qarshilik kuchidan va uning tashkil etuvchisi bo'lgan P_m **dumalashga qarshilikdan** iborat. Yo'l sirtiga tik yo'nalgan **reaksiya kuchi** Y , zanjir zvenolariga ta'sir ko'rsatib, barcha vertikal reaksiya kuchlarining teng ta'sir etuvchisi hisoblanadi.

Ormalovchi zanjirli traktorlarning tezliklari past be'lGANI uchun havoning qarshiligi, transmissiya va motorning aylanma harakat qiluvchi detallari urinma inersiya kuchlarining momentlarini hisobga olmaymiz.

Harakatdagi zanjirli traktoring umumiy holdagi tortish balansi tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:



24.3-rasm. Zanjirli traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar va momentlar sxemasi

$$P_{kr} = f(G \cos \alpha + P_{kr} \sin \gamma_{kr}) + G \sin \alpha + \delta_{ayl} P_f + P_{kr} \cos \gamma_{kr}$$

Tuproqning natijaviy normal reaksiyasi qo'yilgan nuqta (D)ni traktoring bosim markazi deyiladi.

Umumiyl holda bosim markazi zanjir tayanch uzunligining o'rtasiga to'g'ri kelmaydi. Bosim markazidan zanjirning tayanch uzunligi o'rtasigacha bo'lgan bo'ylama masofani, bosim markazining surilishi X_d deyiladi.

X_d masofani aniqlash uchun bosim markazi D ga nisbatan traktorga ta'sir etuvchi kuchlar va reaksiyalardan moment olamiz:

$$\begin{aligned} G \cos \alpha \cdot (X_d + a_o) - (G \sin \alpha + P_f) \cdot h_{og:m} - P_k \cos \gamma_{kr} h_{kr} - \\ - P_{f_n} h_n - P_{kr} \sin \gamma_{kr} \cdot (a - a_o - X_d) = 0 \end{aligned}$$

$P_{f_n} \cdot h_n$ – ko'paytmani zanjirli traktoring dumakashga qarshilik momenti deb olamiz.

Momentlar yig'indisidan traktoring bosim markazini, zanjirning tayanch uzunligi o'rtasiga nisbatan siljish masofasini aniqlaymiz:

$$X_d = \frac{(G \sin \alpha + P_f) h_{og:m} - P_{kr} (h_{kr} \cos \gamma_{kr} + a \sin \gamma_{kr}) + M_f}{G \cos \alpha + P_{kr} \cos \gamma_{kr}} - a_o$$

Bu tenglamani xususiy hollar uchun ko'rib chiqamiz:

Traktor gorizontal yo'lida tekis harakatlanganda:

$$X_d = \frac{P_{kr} (h_{kr} \cos \gamma_{kr} + a \sin \gamma_{kr}) + M_f}{G \cos \alpha + P_{kr} \cos \gamma_{kr}} - a_o$$

Agar $\gamma_{kr} = 0$ bo'lsa, unda traktor ilgagidagi P_{kr} ning normal tashkil etuvchisi bilan yuklanmaydi, bu yerda: tashqi kuchlar ta'sirida faqat traktoring bosim markazi siljiydi:

$$X_d = (P_{kr} h_{kr} + M_f) / G - a_o$$

Keltirilgan ifodalardan ko'rinish turibdiki, traktoring bo'ylama koordinatasi a_o ni o'zgartirib, bosim markazi holatini o'zgarmas holatga keltirish mumkin, masalan $X_d = 0$ bo'lganda a_o koordinata quyidagi bog'lanish bo'yicha o'zgarishi lozim:

$$a_o = \frac{P_{kr} (h_{kr} \cos \gamma_{kr} + a \sin \gamma_{kr}) + M_f}{G + P_{kr} \sin \gamma_{kr}}$$

Agar yuqoridagi ifodada $\gamma_{kr} = 0$ bo'lsa,

$$a_o = \left(P_k h_{k\ell} + M_{\ell\ell} \right) / G$$

3-§. Tuproq normal reaksiyasining zanjir tayanch sirtida taqsimlanishi

Zanjirli traktor bosim markazining holati tuproqning teng ta'sir etuvchi normal reaksiyasining holatini aniqlaydi. Normal reaksiyaning zanjir tayanch sirti bo'yicha taqsimlanishi nafaqat bosim markazining holatiga, balki tuproqning holatiga va zanjirli harakatlantirgichning tuzilishiga ham bog'liq.

Agar zanjir tomonidan tuproqqa bo'lgan bosim uning barcha tayanch sirti bo'yicha tekis tarqalgan bolsa, zanjirning tayanch sirtidagi o'rtacha bosim:

$$P_{\sigma\tau} = G / 2 \cdot b \cdot L_{tan},$$

bu yerda: G – traktoring og'irligi; L_{tan} – zanjirning tayanch sirti uzunligi; b – zanjir zvenosining kengligi.

Tuproqqa bo'lgan bosimning qiymati ko'pchilik qishloq xo'jalik traktorlarida $P_{\sigma\tau} = 0,035$ – $0,06$ MPa ni tashkil etadi. Bu bosimni inson oyog'ining tuproqqa bosimi bilan solishtirsak, u bir oyoqda turganda uning tuproqqa bo'lgan bosimi $0,03$ MPa dan oshmaydi.

Bosim markazining joylashishiga qarab bosim epyurasi quyidagi shakkarda bo'lishi mumkin.

1. **To'g'ri burchakli** epyura, bu yerda: tuproqning normal reaksiyasi zanjirning butun tayanch uzunligi bo'yicha bir tekis taqsimlangan bo'ladi.


2. Trapetsiya shaklidagi epyura, bu yerda: tuproqning normal reaksiyasi zanjirning tayanch uzunligi bo'yicha bir tekis taqsimlanmaydi.

3. Uchburchak shaklidagi epyura bosimning eng notejis taqsimlangan shakli hisoblanadi. Epyura qirrasi zanjir tayanch uzunligining chetiga to'g'ri kelsa, unda tuproqqa bo'lgan bunday bosim zanjirning barcha tayanch sirti orqali uzatiladi. Agar epyura qirrasi zanjir tayanch sirtining oralig'ida joylashgan bolsa, tuproqqa bo'lgan bosim, zanjir tayanch sirtining bir qismi orqali uzatiladi.

Bosim markazining holatini o'zgartirib, zanjir o'ramasining tuproqqa botish chuqurligini rostlash mumkin. Agar tayanch g'altaklari qadami l_k ni zanjir zvenosining qadami l_w ga nisbati $1,5$ – $1,7$ dan katta bolsa, normal yuklamaning taqsimlanishini chiziqli deb qabul qilib boilmaydi.

Bunda tuproqqa bo'lgan bosim zanjirning ayrim qismlari orqali uzatiladi, zanjirning bu qismlari tayanch g'altaklarining ostida joylashgan bo'ladi. I_k/I_{k_2} ning 1,5-1,7 dan kattaroq qiymatlari elastik balansirli osmali zanjirli harakatlantirgichlarga tegishlidir.

Bu qiymatlarni ikki tayanchli balansirli osma uchun aniqlaymiz (24.4-rasm). Gorizontal tekislikda traktoring tortuvchi qismi urinma tortish kuchi bilan yuklangan bo'lsin, bu holat uchun traktoring barqaror harakatini ko'rib chiqamiz.



24.4-rasm. Osmasi ikki karetkali bo'lgan zanjir o'ramasiga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi

Orqa balansir karetkalarining tayanch g'altaklaridagi tuproqning normal reaksiyasini Y_2 bilan, oldingi balansir karetkalarining tayanch g'altaklaridagi tuproqning normal reaksiyasini esa Y_1 bilan belgilaymiz. Bu reaksiya kuchlarining vektorlari O_1 va O_2 karetka o'qlari atrofida tebranadi deb qabul qilamiz. Y_1 va Y_2 reaksiyalarining teng ta'sir etuvchisi traktoring bosim markaziga qo'yilgan bo'ladi.

Tortuvchi kuchning tashkil etuvchisini hisobga olmasdan Y_1 va Y_2 reaksiya kuchlarining yig'indisini traktoring og'irligiga tenglab olamiz. Bunda Y_1 va Y_2 reaksiya kuchlaridan bosim markazi D ga nisbatan olingan momentlar yig'indisini nolga tenglaymiz, unda:

$$Y_1 + Y_2 = G$$

$$Y_1 \cdot (0.5 \cdot l_k + X_d) - Y_2 \cdot (0.5 \cdot l_k - X_d) = 0$$

bu yerda: l_k — balansir karetkalar bazasi.

Yuqoridaqenglamalar tizimidan:

$$Y_2 = G \cdot (0.5 \cdot l_k + X_d) / l_k; \quad Y_1 = G \cdot (0.5 \cdot l_k - X_d) / l_k$$

Bu tenglamani tuzishda traktor og'irligidan zanjirming yerda turgan qismi og'irligi chiqarilmagan, chunki ularning og'irligi reaksiya kuchlarining qiymatlariga ta'sir ko'rsatmaydi, bundan tashqari M_{in} momentining qiymati kichik bo'lganligi uchun hisobga olinmagan.

Bosim markazining zanjir tayanch uzunligi markaziga nisbatan surilishi qanchalik katta bo'lsa, oldingi va orqa tayanch karetkalarga tushuvchi og'irlilik kuchi shunchalik notejis taqsimlanadi, agar bu masoфа $0.5 \cdot l_k$ ga teng bo'lsa, unga tegishli karetka, bosim markazining surilishiga qarab to'liq yuksizlanadi va og'irlilik faqat bir just karetkalar orqali uzatiladi.

Y_1 va Y_2 reaksiyalarni karetkalar bo'yicha taqsimlab, uning uchun alohida karetkaning tebranish o'qiga nisbatan muvozanat tenglamasi tuziladi.

G'altakka tushuvchi $Q_{k(i)}$ yokiama ma'lum bo'lsa, u o'rnatilgan joydagи bosimi $P_{max(i)} = K_n Q_{k(i)} / b t_{av}$, bu yerda: K_n – zanjirming faol tayanch qismidagi zvenolar sonini va ular orasidagi bosimning notejis taqsimlanishini hisobga oluvchi koefitsient, agar $l_k / l_{av} > 3$ bo'lsa, $K_n = 0.5$ deb qabul qilish mumkin.

Agar tayanch sirti uzunroq bo'lgan zanjirlar talab qilinsa, uch tayanchli osmalar qo'llash talab qilinadi. Bunday osmalarning tayanch reaksiyalari Y_1 , Y_2 va Y_3 ni topish uchun eng kamida ucta tenglama tuzish zarur. Statik muvozanat sharti tenglamalaridan foydalanib, faqat ikkita tenglamani tuzish mumkin:

$$Y_1 + Y_2 + Y_3 = G, \quad Y_1 \cdot (L_{k1} + X_d) + Y_2 X_d - Y_3 \cdot (L_{k2} - X_d) = 0,$$


bu yerda: L_{k1} va L_{k2} – o'rtadagi karetkadan oldingi va orqadagi karetkalargacha bo'lgan masoфа.

Zarur bo'lgan uchinchi qo'shimcha tenglamani osma elastik elementlarining deformatsiyalanishidan topamiz.

Vertikal yuklanish ta'sirida traktor ramasi yuksiz bolatga nisbatan deformatsiyalanib pastga tushadi. Bunda osmaning prujinalari siqiladi, ularning deformatsiyasini r_1 , r_2 va r_3 bilan belgilaymiz, bu yerda: traktor ramasining deformatsiyasi prujina deformatsiyasiga nisbatan kam bo'lganligi sababli uni hisobga olmaymiz.

Prujinalarning deformatsiyasini shtrixlangan uchburchaklar o'xshashligidan topamiz (24.5-rasm), ya'ni:

$$(f_2 - f_1) / L_{k1} = (f_3 - f_2) / L_{k2},$$



24.5-rasm. Osmasi uch tayanchga ega bo'lgan zanjir o'rmasiga ta'sir etuvchi kuchlar sxemasi

bundan $f_2 = (f_1 \cdot L_{k2} + f_3 \cdot L_{k1}) / (L_{k1} + L_{k2})$.

$Y_1 = r_1 \cdot C_1$, $Y_2 = f_2 \cdot C_2$ va $Y_3 = f_3 \cdot C_3$ ekanligini hisobga olib, (bularda C_1 , C_2 va C_3 – osma prujinalarining bikirlig'i).

Tenglamaga prujina deformatsiyasini qo'yib, quyidagi tenglamani hosil qilamiz:

$$Y_2 = \frac{Y_1 \cdot (C_2 / C_1) \cdot L_{k2} + Y_3 \cdot (C_2 / C_3) \cdot L_{k1}}{L_{k1} + L_{k2}}$$

Dastlab olingan ikki tenglamalar bilan olingan uchinchi tenglamani birgalikda yechib kerak bo'lgan Y_1 , Y_2 va Y_3 larning qiymati aniqlanadi.

Nazorat savollari

1. O'rmalovchi zanjirli harakatlantirgichning kinematik xususiyatlari yetaklovchi g'ildirakning traktorda joylashishiga qarab qanday o'zgaradi?
2. O'rmalovchi zanjirli traktorga qanday tashqi kuchlar va momentlar ta'sir etadi?
3. Tuproq normal reaksiyasi zanjirning tayanch sirtida qanday taqsimlanadi?
4. O'rmalovchi zanjirli traktorning tuproqqa bo'lgan bosimi qanday hisoblanadi?

25-bob. TRAKTORNING TO'G'RIGA HARAKATLANISHI

I-§. Traktoring quvvat balansi

Traktoring quvvat balansi traktor motori hosil qilgan quvvat ishlash paytida qanday qarshiliklarni yengishga sarf bo'lishini ko'rsatuvchi tenglamadir. Motor quvvati traktoring harakati davomida turli qarshiliklarni yengishga sarflangan quvvatlar yig'indisidan iborat. Umumiy holda tortish balansi tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$N_c = N_o + N_{tr} + N_g + N_f + N_i + N_{kr} + N_{pr} + N_{gov} + N_{g} + N_{gio}$$

bu yerda: N_o – traktor tizimlariga va mexanizator ish sharoitini yaxshilashga sarflangan quvvat; N_{tr} – traktor transmissiyasi mexanizmlaridagi ishqalanishni yengishga sarflangan quvvat; N_g – yetaklovchi organlarning sirpanishiga sarflangan quvvat; N_i – balandlikdan o'tishdagi qarshilikni yengishga sarflagan quvvat; N_f – traktor agregatining tezligini o'zgartirishga sarflangan quvvat; N_{kr} – ishchi mashinalarni va tirkama uskunalarni harakatlantirishga sarflangan tortish quvвати; N_{pr} – quvvat olish vali yuritmasidagi ishqalanishni yengishga sarflangan quvvat; N_{gov} – quvvat olish valiga ulangan mexanizmlarni harakatlantirishga sarflangan quvvat; N_g – quvvat olish valining gidravlik yuritmasiga sarflangan quvvat; N_{gio} – qishloq xo'jalik mashinalarining gidravlik ishchi organlarini harakatlantirishga sarflangan quvvat.

Formulaga kirgan N va N_c quvvatlar turli ishorali bo'lib, ularning ishorasi traktor do'nglikka yoki nishablikka harakatlantirishiga, tezlanuvchan yoki sekintunuvchan harakatlantirishiga bog'liq. Traktor do'nglikka harakatlansa va shig'ov rejimida ishlasa, quvvat belgilari oldiga musbat, pastlikka va sekintunuvchan harakatlansa quvvat belgilari oldiga mansiy ishora qo'yiladi. Traktor gorizontal yo'lda tekis va barqaror harakatlansa, bu quvvatlar nolga teng.

Traktor gorizontal yo'lda barqaror harakatlansa uning umumiy FIK:

$$\eta = (N_{kr} + N_{gov} + N_{gio}) / N_c$$

Traktor statsionar holatda ishlaganda:

$$\eta = \eta_{pr}$$

bu yerda: η_{pr} — quvvat olish vali yuritmasi (quvvat olish vali gidrotizimi) ning FIK.

Traktor statsionar holatda ishlaganda uning tortuvchanligi bo'yicha FIK:

$$\eta_t = \frac{N_{kr}}{N_e - (N_{pr} + N_{qov} + N_g + N_{qin})}$$

Traktor quvvat olish vali va gidrosistemadan foydalanmasdan ishlaganda:

$$\eta_t = N_{kr}/N_e$$

Traktoring tortuvchanligi bo'yicha FIK, umumiy hoida quyida gicha ifodalanadi:

$$\eta_t = \eta_{tr}\eta_\delta\eta_f,$$

bu yerda: η_{tr} — transmissiyadagi mexanik energiyaning yo'qotilishini hisobga oluvchi FIK; η_δ — yetaklovchi g'ildiraklar sirpanishi natijasida yo'qotilgan energiyani hisobga oluvchi FIK; η_f — traktor g'ildiraklarini dumalashga qarshiligidini yengish uchun yo'qotilgan energiyani hisobga oluvchi FIK.

Keltirilgan foydali ish koefitsientlarini tajriba yoki hisoblash usuli bilan aniqlash mumkin. Masalan, η_{tr} koefitsientining qiymatini laboratoriya da yoki bevosita traktor dalada ishlayotgan paytida aniqlash mumkin. Buning uchun motorning burovchi va g'ildirakdagi yetaklovchi momenilar maxsus rotatsion dinamograflar bilan o'lchanadi, dinamograflardan biri motor va uzatmalar qutisi oralig'iga, qolganlari esa yetaklovchi g'ildiraklarga o'rnatiladi. FIKning qiymati:

$$\eta_{tr} = M_{st} / M_i \cdot i_{tr},$$

bu yerda: i_{tr} — transmissiyaning tajriba paytidagi uzatishlari soni.

Yetaklovchi g'ildiraklarning sirpanishi bo'yicha FIK:

$$\eta_\delta = i - \delta$$


δ koefitsientining qiymatlarini faqat taxminan hisoblash mumkin. Traktor g'ildiraklarini dumalashga qarshiligidini hisobga oluvchi FIK.

$$\eta_f = P_{kr} / (P_{kr} + P_f) = P_{kr} / P_k$$

δ ning qiymatlarini tajriba usulida aniqlash uchun bir paytning o'zida P_k va P_{kr} larni o'lchanish talab etildi. Ulardan birinchisi yetak-

lovchi moment bo'yicha, ikkinchisi esa traktor va yuklovchi qurilma o'ttasiga o'rnatalgan dinamograflar bilan o'lehanadi.

Tortuvchanlik bo'yicha FIK to'g'risida ko'rgazmali tasavvur hosil qilish uchun unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar orqali traktorning quvvat balansini grafik ravishda ifodalaymiz. (25.1-rasm). Bunda traktor pog'onasiz transmissiyaga ega deb qabul qilamiz, bunday transmissiya yordamida yuklashni avtomatik ravishda o'zgartirish hisobiga motorning tezligini o'zgartirish mumkin.



25.1-rasm. Traktorning potensial tortish tavsifi

Grafikni qurish uchun abssissalar o'qiga P_{kr} tortish kuchini qo'yib chiqamiz. Keyinchalik kerak bo'ladigan sirpanish va dumalashga qarshilik koefitsientlari grafiklarini tajriba yoki ma'lumotlaridan foydalaniib shtrix punkti chiziq bilan chizamiz. Ordinata o'qiga esa, ma'lum mashtabda motorning nominal quvvatini qo'yamiz, bu nuqta ortqali abssissalar o'qiga parallel chiziq o'tkazamiz.

Bu motorning doimiy yuklanish bilan ishlashini ko'rsatadi. Yuqorida shartga muvofiq, transmissiyada mexanik yo'qotishiga sarflangan quvvat o'zgarmas bo'lib, u traktorning tortuvchi qismida qanday tortish kuchi hosil qilishga bog'liq emas. N_w chiziqidan pastga qarab qabul qilingan mashtabga muvofiq N_w quvvatini qo'yamiz va u orqali

abssissalar o'qiga parallel bo'lган иккинчи to'g'ri chiziqni o'tkazamiz. Ikki to'g'ri chiziq orasidagi masofa, transmissiyada yo'qotilgan quvvatga teng bo'ladi.

$N_n(1-\eta_r)$ quvvat yetaklovchi organlarga beriladigan N_k quvvatiga to'g'ri keladi.

N_k quvvatining bir qismi yetaklovchi organlarning sirpanishiga sarflanadi, uning qiymati sirpanish koefitsientiga proporsional bo'ladi:

$$N_\delta = N_n \delta$$

Yordamchi, sirpanish darajasi δ ning grafigidan foydalaniб, uning bir necha qiymatlari uchun N_δ ni hisoblaymiz va ularni δ ning qiymatlariga mos holda ordinata o'qiga qo'yib chiqamiz. N_k va N_δ grafiklari orasidagi uchastkaning ordinatasi sirpanishga sarflangan quvvatga to'g'ri keladi.

Dumalashga qarshilikni yengishga sarflangan quvvatni aniqlashdan oldin traktorning nazariy tezliklari grafigini chizamiz. Ma'lumki traktorning yetaklovchi organlarida hosil bo'lган quvvat:

$$N_k = 10^{-3} P_k v_t,$$

unda, $v_t = 10^{-3} N_k / P_k = 10^{-3} N_k / (P_k + fG)$, bu formula orqali nazariy tezliklar grafigining qiymatlari aniqlangan.

Traktor g'ildiraklarining dumalashga qarshilik quvvati:

$$N_f = 10^{-3} P_f v_t = 10^{-3} G v_t (1 - \delta)$$

N_f ning qiymatlarini bir necha nuqtalar uchun hisoblab avval qurilgan grafiklarning pastiga qo'yib chiqamiz, natijada N_δ va N_f larning oralig'iда uchinchi uchastkani hosil qilamiz. Bu uchastkaning ordinatasi dumalashga qarshilikni yengishga sarflangan quvvatni ko'rsatadi. Shu grafikdan pastda joylashgan uchastkaning ordinatalari N_k ning qiymatlariga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, bu uchastka traktorning tortuvechanlik bo'yicha FIKni ham ko'rsatadi.

Hosil qilingan $N_{kr} = f(P_k)$ grafikni traktorning potensial tortish taysisi deb ham ataladi.

Shunday qilib, potensial tortish taysisidan shu narsani ko'rish mumkinki, traktorning tortuvechi qismidagi kuchning ma'lum qiymati oralig'iда, traktor yuqoriroq tortish FIKda ishlashi mumkin.

2-§. Traktorning tortuvchanligini hisoblash

Traktorning tortuvchanlik bo'yicha samaradorligi, uning asosiy ko'rsatkichlari to'g'ri tanlangandagina ta'minlanishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarga traktorning massasi, harakat tezligi (transmissiyaning uzatmalarini soni) va motorning quvvati kiradi.

Traktorning ilgagidagi nominal tortish kuchini, undagi minimal tortish kuchiga nisbati traktorning hisoblangan tortish oralig'i deb ataladi, u quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\delta_t = \varepsilon P_n / P_{n1},$$

bu yerda: ε -- traktor tortish sohasining kengayishini hisobga oluvchi koefitsient; P_n va P_{n1} -- tortuvchanligi bo'yicha traktorning n sinfdagi va undan oldingi, n_1 sinfdagi nominal tortish kuchi. Umumiyligi tortish sohasi bo'limgan traktorlarda $\delta_t = 2$ deb qabul qilinadi.

Tortuvchanlikni hisoblashning keyingi bosqichi traktorning massasini tanlashdan iborat. Traktorlarda konstruktiv m_g va ishlatalish massalari m_{ish} qo'llaniladi. Ishlatish massasi har doim konstruktiv massadan katta bo'ladi, ya'ni:

$$m_{ish\min} = (1,07 \dots 1,1) m_g$$

G'ildirakli traktorlarda, ko'p hollarda, uning ishlatalish massasini oshirishga harakat qilinadi, chunki ishlatalish massasi ortishi bilan traktorning tortuvchanlik-tishlashuvchanlik xususiyatlari yaxshilanadi. Eng katta ishlatalish massasi shunday tarkishni kerakki, traktor ma'lum sharoitda ishlaganda, uning yetaklovchi organlarining sirpanishi δ_{ish} ruxsat etilgan chegaradan oshmasligi lozim. Agar g'ildirakli traktor horizontal uchastkada harakatlansa, uning tishlashuvchanligiga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi_{kra} \lambda_k m_{ish\max} g = P_n f_1 m_{ish\max} g,$$

bu yerda: φ_{kra} -- yetaklovchi g'ildiraklarning ruxsat etilgan sirpanish darajasidagi tishlashish kuchidan foydalinish koefitsienti; λ_k -- yetaklovchi g'ildiraklarning yuklanish koefitsienti; f_1 -- yetaklovchi g'ildiraklarning dumalashga qarshilik koefitsienti.

Keltirilgan tenglamadan:

$$m_{ish\max} = \frac{P_n}{(\varphi_{kra} \lambda_k + f_1) g}$$

Traktorning faqat orqa g'ildiraklari yetaklovchi bo'lsa, $\lambda_k = 0,75 - 0,80$, barcha g'ildiraklari yetaklovchi bo'lsa, $\lambda_k = 1$. Yetaklovchi g'ildiraklarning tuzilishiga va o'lehamiga bog'liq bo'lgan holda, g'ildirakli traktorlarda tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti $\phi_{k_{max}} = 0,5 - 0,65$ atrofida bo'ladi.

Agar traktor massasini $m_{sh_{max}}$ gacha oshirish lozim bo'lsa, unda traktorning ballast massasi: $m_b = \lambda_k (m_{sh_{max}} - m_{sh_{min}})$ bo'ladi.

Zanjirli traktorning eng katta ilashish massasi: $m_{sh_{max}} = \frac{P_n}{(\phi_{k_{max}} + f_1) g}$,

bu yerda: $\lambda_k = 1$; f_1 — faqat tashqi dumalashga qarshiligidini hisobga oladi. Hisoblashda $\phi_{k_{max}} = 0,6 - 0,65$ va $f_1 = 0,5 f$ deb qabul qilamiz.

Traktorning **nominal tezligi** deganda, motor tirsaklı vali nominal aylanish chastotasiga ega bo'lgandagi nazariy tezligi tushuniladi. Traktorning asosiy uzatmalari soni Z ga teng, uning yuqori asosiy uzatmalardagi tezligini — $v_{n(z)}$, past uzatmadagi tezligini — $v_{n(t)}$ deb belgilasak, $v_{n(z)}/v_{n(t)} = \delta_{v_{asosiy}}$ ni traktorning nominal tezliklari oraliq'i deb ataymiz.

Traktorning $v_{n(z)}$ tezligidan, traktor minimal tortish kuchida ishlaga ganda foydalanish kerak. Bunda traktorning ishlatish massasi $m_{sh_{min}}$ ga teng va motor to'liq yukianmagan bo'ladi. Bu talablar quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{aligned} P_n + f_1 (m_{sh_{min}} + m_b) g r_k &= M_n i_n \eta_n; \\ (P_n / \delta_t + f_1 m_{sh_{min}} g) r_k &= \gamma_{d_{min}} M_n i_{n(z)} \eta_n, \end{aligned}$$

bu yerda: $i_{n(t)}$ va $i_{n(z)}$ — transmissiyating pastki va yuqori asosiy uzatmalarining uzatishlari soni.

Keltirilgan tenglamalar nisbatini olamiz, bunda: $i_{n(t)}/i_{n(z)} = v_{n(z)}/v_{n(t)} = \delta_{v_{asosiy}}$ ekanligini nazarda tutib

$$\delta_{v_{asosiy}} = \gamma_{d_{min}} \delta_t \frac{P_n + f_1 (m_{sh_{min}} + m_b) g}{P_n + f_1 \delta_t m_{sh_{min}} g},$$

f_1 ning qiymati f_1 dan anche katta ekanligini hisobga olsak

$$\delta_{v_{asosiy}} = \gamma_{d_{min}} \delta_t.$$

Traktor transmissiyasidagi asosiy uzatmalar soni talab etiladigan asosiy tezliklar oraliqlariga bog'liq. Uzatmalar qutisi tuzilmasining

takomillashishi, masolan, harakat davomida uzatmalarni almashtiruvchi uzatmalar qutisi yaratilishi, uzatmalar bilan manyovrlashning yangi imkoniyatlarini o'chib berdi. Bunday uzatmalar qutisi bilan asosiy uzatmalar sonini o'zgartirish mumkin. Uzatmalar orasidagi maqbul nisbatlarni aniqlaymiz, ya'ni asosiy uzatmalar qatorining strukturasini tanlaymiz. Odadta traktoring asosiy uzatmalari qatori geometrik progressiya prinsipi asosida quriladi. U quyidagi ko'rinishga ega:

$$v_{n,1} / v_{n,2-1} = \dots = v_{n,3} / v_{n,2} = v_{n,2} / v_{n,1} = q.$$

bu yerda: v_n — nominal tezlik, indekslari esa uzatmalar raqamini ko'rsatadi; q — geometrik progressiya mahrajasi. Bu nisbatlarni o'zaro ko'paytirib hamda $v_{n,2}/v_{n,1} = \delta_{v_{n,2}/v_{n,1}}$ ekanligini hisobga olib, $\delta_{v_{n,2}/v_{n,1}} = q^{-1}$, bu yerdan:

$$q = \delta_{v_{n,2}/v_{n,1}}^{1/(z-1)}$$

Tezliklar oraliq'i qiymatlarida motorning chegaraviy nuqtalarda qanday yuklanishini, ya'ni uning bir uzatmadan ikkinchisiga o'tish paytidagi holatini aniqlaymiz.

Chegaraviy nuqtalar uchun quyidagi tenglamalarni keltiramiz:

$$\begin{array}{ll} P_k^I r_k / i_{n,2} \eta_{nr} = M_n; & P_k^I r_k / i_{n,1} \eta_{nr} = M^I k_{\min}; \\ P_k^{II} r_k / i_{n,3} \eta_{nr} = M_n; & P_k^{II} r_k / i_{n,2} \eta_{nr} = M^{II} k_{\min}, \end{array}$$

bu yerda: P_k^I, P_k^{II} — bir uzatmadan ikkinchisiga o'tishda chegaraviy nuqtalardagi urinma tortish kuchi. Yuqoridagi tenglamalarni bir-birlariga hadma-had bo'lsak:

$$M^I k_{\min} / M_n = i_{n,2} / i_{n,1}; \quad M^{II} k_{\min} / M_n = i_{n,3} / i_{n,2}$$

Uzatmalarning geometrik qatori:

$$i_{n,2} / i_{n,1} = i_{n,3} / i_{n,2} = \dots = 1/q$$

Barcha uzatmalardagi motorning yuklanish koefitsienti:

$$Y_{k_{\min}} = M^I k_{\min} / M_n = 1/q.$$

Geometrik progressiyaning mahrajini va traktoring nominal tezligini birinchi asosiy uzatmada aniqlab, boshqa uzatmalardagi nominal tezliklar qiymatini hisoblaymiz:

$$v_{n,2} = v_{n,1} \cdot q, \quad v_{n,3} = v_{n,2} \cdot q = v_{n,1} \cdot q^2 \text{ va boshqalar.}$$

Aniqlangan qatorlarni shesternalar tishlari soniga mosligini hisobga olib, tezlik qatorlarini yaxlitlash lozim.

Transport uzatmalarining soni va ularning nominal tezliklari traktoring yurish qismi tuzilishiga qarab tanlanadi. O'rmalovchi zanjirli traktorlarda bir transport uzatmasi, g'ildirakli traktorlarda esa bu uzatma ikkitadan kam bo'lmasligi kerak.

Oraliq transport tezliklarini o'rtacha geometrik yoki arifmetik qiymatlari bo'yicha tanlash mumkin:

$$v_{tr}^{\frac{1}{2}} = v_{max} v_{n(z)} \text{ yoki } v_{tr}^{\frac{1}{2}} = 0,5 (v_{max} + v_{n(z)})$$

Traktor agregati shunday komplektlanishi kerakki, tirsakli valga keltirilgan qarshitik momenti motorning nominal burovchi momentidan birmuncha kichik bo'lishi lozim. Bu momentlar nishbatini traktor motorining ishlashdagi yuklanish koefitsienti deyiladi va u $X_{nh} = 0,8 - 0,9$ oralig'ida bo'ladi. Shunday qilib, talab etiladigan traktor motorining nominal quvvati:

$$N_n = \frac{(P_n + (m_{ish\ min} + m_b) f_1 g) v_{nl}}{10^3 \eta_{tr} X_{nh}},$$

bu yerda: P_n — traktoring nominal tortish kuchi; v_{nl} — tortish kuchiga to'g'ri keluvchi nominal harakat tezligi; f_1 — traktor nominal tortish kuchi bilan ishlaganda g'ildiraklarning dumalashga qarshilik koefitsienti; η_{tr} — traktor transmissiyaning FIK. Motor hisoblangan quvvatining traktor massasiga nisbati traktoring solishtirma quvvati deyiladi:

$$N_{sol} = N_n / m_{ish\ min}$$

Solishtirma quvvat traktoring energiya bilan to'yinganlik darajasini ko'rsatadi. Solishtirma quvvatga teskari bo'lgan qiymatni solishtirma massa deviladi. Bu ko'rsatkich traktorga metall sarfi darajasini ko'rsatadi. U traktor konstruktiv massasining nominal quvvatga nisbati bilan aniqlanadi:

$$m_{sol} = m_o / N_n$$

G'ildirakli traktorlar uchun $m_{sol} = 40 - 50 \text{ kg/W}$ ni, zanjirli traktorlar uchun esa $m_{sol} = 60 - 80 \text{ kg/W}$ ni tashkil etadi.

Nazorat savollari

1. Traktoring quvvat balansi qanday tashkil etuvchilardan iborat?
2. Traktoring tortuvchanligi bo'yicha FIK qanday aniqlanadi?
3. Traktoring potensial tortish taysisi qanday quriladi?
4. Traktoring tortuvchanligi nimalarga bog'liq va u qanday hisoblanadi?

26-bob. G'ILDIRAKLI MASHINALARNING BURILISHI

1-\$. Burilishning asosiy turlari va kinematikasi

Qishloq xo'jaligidagi transport ishiari, umumiy ish hajmining 20 % ni tashkil etadi. Bunda mashinaning asosiy xususiyatlardan biri uning boshqariluvchanligi hisoblanadi.

Mashinaning boshqariluvchanligi deganda, uning harakat davomidagi belgilangan yo'nalishni aniq saqlay olishi va unga ta'sir ko'rsatilganda harakat trayektoriyasini kerakli yo'nalishga o'zgartira olish xususiyati tushuniladi. Birinchi xususiyatni mashinaning yo'nalish bo'yicha barqarorligi, ikkinchisini esa mashinaning buriluvchanligi deyiladi.

G'ildirakli mashinalarning buriluvchanligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: eng kichik burilish radiusi (aylana bo'yicha harakatlanganda); harakat tezligining trayektoriya bo'yicha chegaraviy qiymati; berilgan trayektoriya bo'yicha harakatlanganda sarflangan energiya miqdori; burilish uchun zarur bo'lgan solishtirma tortish kuchi; burilishda ilashish og'irligidan foydalanish koefitsienti.

Burilish radiusi qanchalik kichik, harakat trayektoriyasining egritigiga mos ravishda chegaraviy harakat tezligi qanchalik katta va boshqarishda qanchalik kam energiya sarflansa, mashinaning boshqariluvchanligi va buriluvchanligi shunchalik yaxshi hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda, to'liq uzatmalgi traktorlar burilishni barcha boshqariluvchi g'ildiraklar bilan amalga oshiradi (26.1-rasm, a, b). Bunday mashinaning harakat yo'nalishi ikki usulda o'zgartiriladi:

1) oldingi va orqa g'ildiraklar turli tomonga buriladi va mashina aylanish o'qining kesishish nuqtasiga nisbatan aylanma harakat qiladi;

2) barcha g'ildiraklar bir tomonga buriladi. Bunda traktorning ko'ndalang barqarorligi yaxshilanadi, ammo kichik radiusli burilishni amalga oshirish ancha mushkul bo'ladi.

Rul boshqarmasining yuritmasi bunday mashinalarda, ayniqsa, barcha g'ildirakiari bilan boshqariladigan mashinalarda, murakkab tuzilishga ega. Shu munosobat bilan burilishning yangi sxemasi yaratilgan, bu usulni «sinuvchan ramali» usul deb ataladi (26.1-rasm, e). Bu usulda burilishda, traktorning yaxshi buriluvchanligiga erishilib,

burilish radiusi kichik bo'ladi hamda sharnirlar soni karnayadi, chunki bunda g'ildirak o'qlari ramaga nisbatan qo'zg'almas qilib o'matiladi. Ammo bunday mashinalar qiyalikda yomoni ishlaydi.

Yuqori darajada buriluvchan va tuzilmasi sodda bo'lgan traktorlarni yaratish ishlari natijasida g'ildirak formulasi 4K4 bo'lgan zanjirli traktorlar yaratildi. Bunday traktorlarda, oldingi va orqa g'ildiraklarning har bir tomoni tishli yoki zanjirli uzatmalar bilan birlashtirilgan (26.1-rasm, f) bo'ladi. Burilishda traktoring tomonlaridan biri uzib qo'yiladi yoki keskin burilish talab qilinganda ulardan biri tormozlab qo'yilishi ham mumkin.

Ko'rib o'tilgan burilishlarning har biri e'zining xususiy burilish kinematikasiga ega. Shuning uchun dastlab, eng sodda burilish kinematikasiga, bir boshqariluvchi g'ildirakka ega bo'lgan traktoring burilish kinematikasini ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, traktoring burilish radiusi o'zgarmas bo'lib, u barqaror tezlikka ega, shinalari esa yonaki elastikklikka ega emas. Bunday mashinalarning burilish markazi tayanch sirti tezlik vektorlariga o'tkazilgan normallarning kesishgan nuqtasida bo'ladi. Bu nuqtani burilish markazi deb ataladi. Burilish markazidan orqa ko'priq markazigacha bo'lgan masofa OO_2 ni burilish radiusi deyiladi. U $R=Letga$ ga teng, bu yerda: L — traktoring bo'ylama bazasi; α — oldingi g'ildirakni burilishda to'g'ri chiziqli harakat holatiga nisbatan chetga chiqish burchagi.

Mashinaning minimal burilish radiusi R_{min} uning bazasi L ga va g'ildirakning burilish burchagi $\alpha_{max} = 35-45^\circ$ ga bog'liq:


$$R_{min} = 0,5L \cdot \operatorname{ctg} \alpha_{max}$$

Oldingi ikki g'ildiragi boshqariluvchan bo'lgan mashinalaring burilish kinematikasini soddalashtirish maqsadida boshqariluvchi g'ildirakning o'rtacha burilish burchagi aniqlanadi:

$$\alpha = (\alpha_{ich} + \alpha_{tash}) / 2$$

To'g'ri chiziqli harakatdan, barqaror radiusli egri chiziqli harakatga o'tishda egrilik radiusi $R = \infty$ dan $R = const$ gacha o'zgaradi. Xuddi shunday egri chiziqli harakatdan to'g'ri chiziqli harakatga o'tishda $R = const$ dan $R = \infty$ gacha o'zgaradi.

Oraliq uchastkasining uzunligi mashinaning konstruktiv ko'rsatkichlariga, bazasiga, rul yuritmasining tuzilishiga, ishlatalish omillariga, burilishdagi harakat tezligiga hamda burilishning keskinlik darajasiga



26. I-rasm. Traktor burilishining asosiy kinematik sxemalari:

a — oldingi va orqa g'ildiraklari turli tomonga buriladi; *b* — barcha g'ildiraklari bir tomonga buriladi; *d* — bir boshqariluvchi g'ildirakka ega bo'lgan traktoring burilish sxemasi; *e* — sinuvchan ramali burilish sxemasi; *f* — 4K4 g'ildirak formulasiga ega bo'lgan traktoring burilish sxemasi

bog'liq. Mashinaning tezligi qanchalik katta bo'lsa, burilish shunchalik silliq bo'lib, oraliq uchastkaning uzunligi shunchalik katta bo'ladi.

2-§. Oldingi g'ildiragi boshqaruvchi bo'lgan mashinalarning burilish dinamikasi

Umumiy holda bir boshqaruvchi g'ildirakka ega bo'lgan mashinaga quyidagi kuchlar ta'sir ko'rsatadi (26.2-rasm): burilish burchagi bo'yicha ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruvchi g'ildirakdagi dumalashga qarshilik kuchi; burilish paytida burilish markazi O_1 ga nisbatan ma'lum burchak tezlikda harakatlanayotgan traktor asosiga ta'sir ko'rsatuvchi inersion markazdan qochma kuch, bu kuch traktoring og'irlik markaziga qo'yilgan bo'ladi. Burilishda ishtirok etuvchi ichki va tashqi g'ildiraklarga ta'sir ko'rsatuvchi urinma tortish kuchlari R_{k1} va R_{k2} , O_2 nuqtaga nisbatan burilishga qarshilik qiluvchi moment

$$M_{bq} = P_{f0}L \sin \alpha + P_m a \cos \gamma_m + (P_{k2} - P_{k1}) \cdot 0,5B$$

Boshqaruvchi g'ildirakka traktoring asosi orqali ta'sir ko'rsatuvchi momentlar yig'indisini M_{nat} bilan belgilab, uni $L_{cos\alpha}$ masofada dumalash o'qi markaziga qo'yilgan, shartli qabul qilingan, burilishga qarshilik kuchi Z_o ning momenti sifatida ifodalaymiz:

$$M_{nat} = Z_o L \cos \alpha$$

Bunda burilishga qarshilik momenti:

$$M_{bq} = M_{nat} + P_{f0}L \sin \alpha$$

Traktoring burilish jarayonida yo'lning yonlama qarshiligidan, boshqaruvchi g'ildirakning neytral holatga nisbatan burchak ostida o'rnatilganda buruvchi R_o kuchi hosil bo'ladi. Bu kuch boshqaruvchi g'ildirakning aylanish markaziga qo'yilgan bo'lib, uning ta'sir chizig'i traktoring burilish markazidan o'tadi. Bu kuchning O_2 nuqtaga nisbatan buruvchi momenti: $M_b = P_o L \cos \alpha$.


Burilishda $M_b = M_{bq}$ bo'ladi, ya'ni:

$$P_o L \cos \alpha = M_{nat} + P_{f0}L \sin \alpha$$

Bundan:

$$P_o = M_{nat} / L \cos \alpha + P_{f0} \operatorname{tg} \alpha$$

Buruvchi kuchning $R_o \sin \alpha$ bo'ylama tashkil etuvchisi oldingi o'q sharniriga qo'yilgan bo'lib, harakat yo'nalishiga teskari yo'naligan



26.2-rasm. Bir boshqariluvchi g'ildirakka ega bo'lgan traktoring burilish kinematikasi va dinamikasi

bo'ladi. Burilishdagi dumalashga qarshilik xuddi shu sharoitdagi to'g'ri chiziqli harakat qarshiligidan ancha katta bo'ladi.

Traktoring burilishga qarshilik momentiga tashqi omillardan tashqari, g'ildiraklar oralig'idagi differensialning ishi ham ta'sir ko'rsatadi. Agar traktorda g'ildiraklararo differensial bo'lmasa yoki u blokirovka qilingan bo'lsa, ishqalanish kuchlaridan va yetaklovchi g'ildirakka tushuvchi tuproqning boshqa reaksiyalaridan hosil bo'lgan burilishga qarshilik ancha katta bo'ladi. Bu esa o'z navbatida traktorni burish uchun zatur bo'lgan buruvchi kuchning oshishiga, uni boshqarishning qiyinlashishiga, oldingi g'ildiraklar va rul mexanizmining katta yuklama bilan ishlashiga olib keladi.

Differensial ishlaganda, burilish jarayonida har bir g'ildirak o'zining erkin trayektoriyasiga ega bo'ladi. Shu sababli ko'rsatib o'tilgan kuchlardan hosil bo'lgan burilishga qarshilik differensiali blokirovka qilingan holdagiga qaraganda ancha kichik bo'ladi.

Buruvchi kuchning chegaraviy qiymati tuproqning xususiyatiga va shina sirtining tishlashuvchanlik xususiyatlariiga bog'liq:

$$P_{r,\max} = \varphi_{u,f} Y_u$$

Shunday qilib, quyidagi shart bajarilsa, burishni amalga oshirish mumkin:

$$\varphi_{ash} Y_o > M_{nat} / L \cos \alpha + P_h \operatorname{tg} \alpha$$

Quruq va qattiq yo'lda yuqorida keltirilgan boshqaruvchanlik shartini bajarish mukammal darajada ta'minlansadi. Sirpanchiq yo'llarda, g'ovak tuproqlarda esa bu shart ko'p hollarda bajarilmay qoladi. Traktoring boshqaruvchanligi u katta tortish kuchi va osma uskunalar bilan ishlaganda oldingi g'ildiraklardagi yuklama va shu sababga ko'ra tuproq bilan tishlashish kuchi kamayishi natijasida yomonlashadi. Shuni hisobga olish kerakki, uch g'ildirakli traktorlarning boshqaruvchanligi, g'ildiraklarining tuproq bilan yonlama tishlashish kuchi bir boshqaruvchi g'ildirakka ega bo'lган traktorga nisbatan g'ildirak oraliqlari keng qilib o'rnatilgan ikki boshqaruvchi g'ildirakli traktoring tishlashish kuchidan kichik bo'ladi.

3-§. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning burilishi

Burilish kinematikasi (26.3-rasm). Hozirgi zamон zanjirli traktorlari burilish mexanizmi bilan jihozlangan, bu mexanizmning isblashi zanjir o'ramining o'tish tezligini rostlashga asoslangan. Kichik tezlik bilan harakat qiluvchi zanjir o'ramini orqada qoluvchi, katta tezlikka ega bo'lган zanjir o'ramini esa oldinlovchi deb ataymiz. Traktor tayanch sirtida, burilish markazi deb ataluvechi nuqta atrofida buriladi. Zanjirli traktoring burilishi burilish burchak tezligi va burilish radiusi bilan tavsiflanadi. Zanjir o'ramining harakatini ikki harakatga: O_1 va O_2 qutblar atrofida traktoring burilish burchak tezligiga teng bo'lган, burchak tezlikdagi aylanma va v_1 , v_2 tezlikdagi to'g'ri chiziqli ilgarilanma harakatga ajratish mumkin.

Zanjirli traktoring burilish mexanizmlari ikki sinfga bo'linadi. Birinchi sinfdagi burish mexanizmi quvvatni yetaklovchi g'ildiraklarga bir oqimda uzatib beradi, ikkinchi sinfdagilari esa aralash mexanizmlarga tegishli bo'lib, ular quvvatni ikki parallel oqimda uzatadi.

Burish mexanizmlari, tuzilishiga qarab friksion va planetar-friksion mexanizmli turlarga bo'linadi. Friksion burilish mexanizmida quvvat yetaklovchi g'ildiraklarga friksion mustalar orqali uzatiladi. Planetar-friksion mexanizmlar, oddiy va ikkilangan differensiali, bir va ikki bosqichli planetar hamda aralash burish mexanizmlaridir, iborat bo'lishi mumkin. Kinematik belgilari bo'yicha zanjirli mashinalarning burish mexanizmlarini uch turga bo'lish mumkin:



26.3-rasm. Zanjirli traktorning burilish kinematikasi

1. Differensialli mexanizm qo'llanilganda traktorning burilish jarayonidagi o'rtacha tezligi $v^1 = 0.5(v_1 + v_2)$ burilishdan oldin qanday bo'lsa, burilishda ham shundayligicha qoladi, bunda motor valining aylanish chastotasi va zanjirning sirpanishi ikki holda ham bir xil deb qabul qilamiz (26.4-rasm, a).

2. Burish mexanizmlarida burish mustalari yoki bir bosqichli planetar uzatmalar qo'llanilganda, oldinlovelchi yarim o'q, yetaklovelchi va burilishdan oldin qanday kinematik bog'lanishda bo'lgan bo'lsa, burilish jarayonida ham shunday kinematik bog'lanishda bo'ladi, ya'ni $v_2 = v$ (26.4-rasm, b).

3. Aralash tuzilmaga ega bo'lgan burish mexanizmlarida, ikkala zanjirning ham ilgarilanma harakat tezligi burilish paytida kamayib, burilishgacha bo'lgan chiziqli tezlik vektori oldinlovelchi zanjir o'rmasidan tashqarida joylashgan bo'ladi (26.4-rasm, d).


Agar, harakat davomida zanjir sirpanmasa, uning ilgarilanma harakat tezliklari quyidagi ifodalar bilan aniqlanadi:

$$v_2 = \omega_b(R + 0.5B), \quad v_1 = \omega_b(R - 0.5B)$$

Traktorning burilish radiusi va yetaklovelchi yarim o'qlarning n_2 (tezlanuvchan) va n_1 (sekinlanuvchan) aylanishlar chastotasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaymiz. Sirpanish bo'lmaganda traktorning ilgarilanma harakat tezligi tegishli o'qlarning aylanish chastotasiga proporsional ekanligi hisobga olib,

$$\frac{v_2}{v_1} = \frac{n_2}{n_1} = \frac{R + 0.5B}{R - 0.5B},$$

bundan nisbiy burilish radiusi



26.4-rasm. Kinematik belgilari bo'yicha zanjirli mashinalarning yurish mexanizmlari turlari:

a — differensialli mexanizm; *b* — burish ustaligi mexanizm;
c — aralash tuzilishiga ega bo'lgan mexanizm

$$R = \frac{0,5B(v_2 + v_1)}{v_2 - v_1} = \frac{0,5B(n_1 + n_2)}{n_2 - n_1}$$

26.4-rasm, *a* da traktorning yetaklovchi yarim o'qlariga o'rnatilgan oddiy differensialli burilish mexanizmining sxemasi ifodalangan. Differensial yarim o'qlardagi tormozlar bilan birgalikda burish mexanizmi vazifasini bajaradi.

To'g'ri chiziqli harakat paytida ikkala tormoz ham bo'shatilgan bo'lishi kerak. Agar ikki tomondagi qarshilik bir xil bo'lsa, satellitlar o'z o'qi atrofida aylanmaydi va traktorning ikkala yarim o'qi bir xil chastotada aylanadi, ya'ni $n_2 = n_1 = n_{dp}$ bunda n_{dp} — differensial qutisining aylanish chastotasi.

Traktorning burilishi sekinlanuvchi yarim o'qni tormozlash natijasida sodir bo'ladi. Bunda satellit o'z o'qi atrosida aylana boshlaydi, natijada sekinlanuvchi yarim o'qining aylanish chastotasi kamayadi, oldinlovchi yarim o'qining aylanish chastotasi esa shunchaga ortadi. Shunday qilib ikkala yarim o'q aylanishlar chastotasining yarim yig'indisi differensial qutisining aylanishlar chastotasisiga teng bo'ladi. Yuqoridagilarni hisobga olganda, oddiy differensialli burilish mexanizmining burilish radiusi:

$$\rho = \frac{R}{B} = \frac{0,5(n_1 + n_2)}{n_2 - n_1}$$

Sekinlanuvchi yarim o'q aylanishlar chastotasining eng katta qiymati to'g'ri chiziqli harakatda $n_1 = n_2$ dan, eng kichik qiymati yarim o'q to'liq to'xtaguncha tormozlanganda $n_1 = 0$ gacha o'zgaradi.

Shunday qilib, oddiy differensialli burilish mexanizmi yordamida istalgan radiusli ($R_{\max} = \infty$ to'g'ri chiziqli harakatni, $R_{\min} = B \cdot n_{dif} / n_2$ — traktor minimal burilish radiusi bilan) burilishni amalga oshirish mumkin. Agar $n_1 = 0$ bo'lsa, oldinlovchi yarim o'qning aylanish chastotasi $n_2 = 2n_{dif}$ ga teng bo'ladi, bunda $R_{\min} = 0,5B$.

O'rmalovchi zanjirli traktorlarda ikkinchi guruh burish mexanizmlari keng miyosda qo'llaniladi. Tormozli friksion mustali burish mexanizmi kinematikasi bilan tanishamiz.

Traktor to'g'ri chiziqli harakatlanganda burish mustasi ulangan bo'lib, tormozlar esa bo'shatilgan bo'lishi kerak. Agar musta sirpanmasa, ikkala zanjir ham bir xil tezlikda harakatlanadi. Burilishda orqa ko'priki vali sekinlanuvchi zanjirni tutashtiruvchi musta qisman yoki to'liq uzeladi. Ayrim hollarda esa, traktorni burish uchun sekinlanuvchi zanjirni tormozlash ham talab etiladi.

Etaraz qilaylik, motor valining aylanishlar chastotasi to'g'ri chiziqli harakatdan burilishga o'tganda o'zgarmasin, unda oldinlovchi zanjirning aylanish chastotasi $n_2 = \text{const}$, sekinlovchi zanjirning aylanish chastotasi kamayib to'g'ri chiziqli harakatda $n_1 < n_2$ dan, burilishda $n_1 > 0$ gacha o'zgaradi. n_1 ning kamayishi bilan burilish radiusi ham kamayib boradi va $n_1 = 0$ bo'lganda $R_{\min} = 0,5B$ bo'ladi. Mustali traktorlar uchun burilishdagi o'rtacha ilgarilanma tezlik:

$$v^t = vR / (R + 0,5B)$$

Agar $R = R_{\min}$ bo'lsa, $v_{\min}^t = 0,5v$ bo'ladi.

Planetar burish mexanizmlardan bir bosqichli mexanizmni ko'rib chiqamiz. Mexanizm toj, quyosh shesternalaridan va satellitlardan iborat. Toj shesternasi qutiga o'rnatilgan bo'lib, traktor transmissiyasidan harakatlanadi, quyosh shesternasi esa planetar mexanizmning tormozlari, satellit o'qlari va vodilo orqali orqa ko'priking yarim o'qlari bilan birlashtirilgan. To'g'ri chiziqli harakatda traktoring yarim o'q tormozlari bo'shatilgan bo'lib, planetar mexanizmi tormozlari tortilgan bo'lishi kerak. Bunda planetar mexanizm pasaytiruvechi reduktor vazifasini bajaradi, uning uzatimlar soni:

$$i_{pl} = (Z_k + Z_i) / Z_k .$$

bu yerda: Z_k va Z_i — mos ravishda toj va quyosh shesternalarining tishlari soni.

Traktori burish uchun planetar mexanizmi tormozini qisman yoki batamom sekinlovchi zanjirdan bo'shatish lozim, ayrim hollarda kerakli yarim o'qning tormozi tortib qo'yilishi ham mumkin.

Kinematikasi bo'yicha bunday mexanizmning ishlashi, musta va tormozli burish mexanizmining ishlashi bilan bir xil.

Aralash burilish mexanizmidan qurilish va melorativ ishlarni bajarishda qo'llaniladigan traktorlarda feydalanish mumkin.


Burilish jarayonida oldinlovchi zanjir doimo shataksiraydi, sekinlanuvchi zanjir burovchi momentni uzatishda ishtirot etsa, shataksirashi yoki u tormozlangan bo'lsa, sirpanishi mumkin. Shataksirash hisobga olinsa traktoring burilish radiusi:

$$R' = 0.5B \frac{v_2' + v_1'}{v_2' - v_1'} = 0.5B \frac{v_2(1-\delta'') + v_1(1-\delta')}{v_2(1-\delta') - v_1(1-\delta')}$$

bu yerda: δ'' va δ' — oldinlovchi va sekinlovchi zanjirlarning shataksirash koefitsientlari.

4-§. Burilish dinamikasi. Burilishga qarshilik momenti

Zanjir o'ramalari O_1 va O_2 qutblar atrofida aylaganda zanjir va yo'l sirti orasida ishqalanish kuchi va burilishga qarshilik qiluvchi yonlama reaksiya kuchlari hosil bo'ladi. Burilishga qarshilik momenti quyidagicha hisoblanadi. Ikki zanjir o'ramalarining har biridan cheksiz kichik uzunlikka ega bo'lgan O_1 va O_2 chiziqdandan x masofada joylashgan dx masofani ajratib olamiz (26.5-rasm). Bu uchastkalarning har biridan tayanch sirtiga uzatiladigan normal yuklama:



26.5-rasm. Zanjidi traktoring burilish kinematikasi va dinamikasi

$$dG \approx 0.5Gdx / L_{zan},$$

bu yerda: $0.5G$ — har bir zanjir o'ramasiga tushuvchi traktoring og'irlik kuchi; L_{zan} — zanjir tayanch tarmog'ining uzunligi.


Faraz qitaylik, traktoring og'irligi ikkala zanjirga ham teng taqsimlansin. Zanjirning ajratilgan har bir qismiga ta'sir etuvchi burilishga qarshilik qiluvchi elementlar kuchini μdG ga teng deb qabul qilamiz, bu yerda: μ — zanjirning burilishiga qarshilik qiluvchi yo'lning barcha yonaki qarshiliklarini hisobga oluvchi, keltirilgan koefitsient. Tuproqning reaksiyasini zanjirning barcha tayanch uzualligi bo'yicha bir xil deb qabul qilamiz. Har bir elementtar kuch, x yelkada burilishga qarshilik qiluvchi moment hosil qiladi. Unda burilishga qarshilik qiluvchi umumiy moment:

$$M_q = 4 \int_0^{0.5L_{zan}} \frac{0.5\mu Gx}{I_{zan}} dx = 0.25\mu GL_{zan}$$

Taxminiy hisoblarda, turli burilish radiuslarida burilishga qarshilik koefitsienti:

$$\mu = \mu_{max} \cdot (a + (1-a) \cdot (\rho + 0.5)),$$

bu yerda: μ_{max} — burilishga qarshilik koeffitsientining shu tuproq sharoitidagi eng katta qiymati, qattiq yo'llar uchun $\mu_{max} = 0,7-1,0$; tuproq sharoitiga bog'liq holda $a = 0,75-0,9$.



26.6-rasm. Tirkamali zanjirli traktoring burilish kinematikasi va dinamikasi

Tirkamali zanjirli traktoring burilishini ko'rib chiqamiz (26.6-rasm). Bu holda traktorga ta'sir etuvchi qo'shimcha qarshilik, P_e tortuvechi qismga ta'sir qiluvchi, tortishga qarshilik kuchidir. Tortishga qarshilik kuchi P_kr traktoring bo'ylama o'qiga qo'yilgan bo'lib, uning qiymati buriliish radiusiga bog'liq emas. Egri chiziqli harakatda tortishga qarshilik kuchi bu o'qqa nisbatan γ burchak ostida yo'nalgan.

P_{kr} kuchini ikki tashkil etuvchiga ajratamiz, ular bo'ylama $P_kr \cos \gamma$ va ko'ndalang $P_kr \sin \gamma$ tashkil etuvchilardan iborat. $P_kr \cos \gamma$ tashkil etuvchisi ta'sirida traktoring bosim markazi tayanch sirtidan orqaga, x masofaga siljiydi. $P_kr \sin \gamma$ tashkil etuvchisi ta'sirida esa tuproqning yonaki reaksiyasi hosil bo'ladi. Burilish markazining surilishi natijasida M_q momentining qiymati ham o'zgaradi. Uning o'zgarishi to'g'rilovchi koeffitsient K ni kiritish bilan hisobga olinadi:

$$M_q = 0,25K \cdot \mu \cdot G \cdot L_{zun}$$

Burilishga qarshilikning natijaviy momenti M_{nat} , M_q va $P_kr \sin \gamma$ kuchi momentining yig'indisiga teng:

$$M_{nat} = 0,25K \cdot \mu \cdot G \cdot L_{zun} + P_kr \sin \gamma \cdot (l_{kr} - x_b)$$

bu yerda: l_k — tirkash nuqtasidan zanjirning tayanch uzunligi o'rta-sigacha bo'lgan bo'ylama masofa. K koefitsientining va x_b masofaning qiymatlarini aniqlash ancha murakkab, shuning uchun ham ularni taxminiy hisoblarda $K = 1$ va $x_b = 0$ deb qabul qilamiz, u holda.

$$M_{nat} = 0.25 \mu \cdot G \cdot L_{zun} + P_k \cdot \sin \gamma \cdot l_k$$

5-§. Buruvchi moment

Burishga qarshilik momentini yengish uchun, uni yengishga yetarli bo'lgan buruvchi moment hosil qilish lozim, bunday momentni oldinlovchi va sekinlanuvchi zanjirdagi tortish kuchlarining farqi hisobiga hosil qilish mumkin.

Oldinlovchi zanjirdagi urinma tortish kuchini P_{k_2} , sekinlashuvchi zanjirdagini esa P_{k_1} bilan belgilaymiz. Burilish paytida ularning qiymati turlicha, ayrim hollarda esa ularning ishorasi ham turlicha bo'lishi mumkin. Traktoring dumalashga qarshiligi, burilishda to'g'ri chiziqli harakatdagiga qaraganda kattaroq bo'ladi, hatto u oldinlovechi va sekinlashuvchi zanjirlarda ham turlicha bo'lishi mumkin. Bu kuchlardan tashqari traktorga burishga qarshilik momenti va tortuvchi qismidagi tortishga qarshilik kuchi ham ta'sir ko'rsatadi, O_1 va O_2 , qutblarga nisbatan traktoring muvozanat tenglamalarini tuzamiz:

$$P_{k_2}B = P_{f_2}B + M_b + P_k \cos \gamma 0.5B + P_k \sin \gamma (l_k - x_n);$$

$$P_{k_1}B = P_{f_1}B - M_b + P_k \cos \gamma 0.5B - P_k \sin \gamma (l_k - x_n).$$

Tenglamalarni hadma-had ayirib quyidagilarni hosil qilamiz:

$$(P_{k_2} - P_{k_1}) \cdot B + (P_{f_1} - P_{f_2}) \cdot B = 2M_{nat}.$$

Natijaviy M_{nat} moment (burishga qarshilik momenti) ni yengishga quyidagi buruvchi moment talab etiladi:

$$M_n = 0.5 \cdot (P_{k_2} - P_{k_1}) \cdot B + (P_{f_1} - P_{f_2}) \cdot B.$$

$P_{k_2} - P_{k_1}$ ayirma rostlanadigan qiymat bo'lib, u burish mexanizmi ta'sirida sodir bo'ladi. $P_{f_1} - P_{f_2}$ ayirma esa mustaqil holda sodir bo'lib, burilish sharoitiga bog'liq bo'ladi. $P_{f_1} - P_{f_2}$ ayirma musbat bo'lsa, traktoring buruvchi momenti ortadi. Bu ayirmaning ta'siri keskin burilishda, past uzatmada, tortish qarshiligi P_k ning yonlama tashkil etuvchisi $P_k \sin \gamma$ ta'sirida ortadi.

Burilishda oldinlovchi zanjirga, sekinlanuvchi zanjirga qaraganda ko'proq og'irlilik kuchi tushadi, chunki oldinlovchi va sekinlashuvchi zanjirlarning burilish radiuslari turlichadir.

Ishlatish sharoitida esa $P_{f1} = P_{k1}$ ayrimaning qiymati uncha katta emas, shuning uchun:

$$P_{f1} = P_{k1} - 0,5 f_b G,$$

bu yerda: f_b — traktorni burilishdagi dumalashga qarshilik koefitsienti.

Burilishdagi dumalashga qarshilikni hisobga olmasak, buruvchi moment: $M_b = 0,5B(P_{k2} - P_{k1})$.

Trakterni burilishdagi dumalashga qarshilik momentini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$f_b = f \left(1 + \frac{15}{15 + \rho} \right),$$

bu yerda: f — ishlatish sharoitiga to'g'ri keluvchi traktorning to'g'ri chiziqli harakatidagi dumalashga qarshilik koefitsienti; ρ — nisbiy burilish radiusi.

Burilish paytidagi dumalashga qarshilik, to'g'ri chiziqli harakatidagi qaraganda quyidagi sabablarga ko'ra kattaroq bo'ladi:

1. Buriliish paytida traktorning tayanch g'altaklari zanjirning yo'naltiruvechi yo'laklariga yoki zanjirning bo'rtmalariga siqiladi.

2. Traktor g'ovak tuproqda ishlaganda, burilish paytida zanjir bilan sidirilgan tuproq, zanjirning yo'laklariga to'kilib, tayanch g'altaklarining dumalashini qiyinlashtiradi.

3. G'ovak tuproqda, keskin burilishda zanjirning old qismiga tushuvchi qarshilikning oshishi hisobiga, nisbatan chuqurroq bo'lgan zanjir izi hosil bo'ladi.

Burilishda har bir zanjir o'rungi ta'sir etuvchi urinma tortish kuchining qiyamatini aniqlaymiz. Buning uchen yuqorida keltirilgan tenglamalarni koleya kengligi B ga bo'lamiz:

$$P_{k2} = P_{f2} + 0,5P_{kr} \cos \gamma + \frac{M_{b,k} + P_{kr} \sin \gamma (P_{kr} - x_b)}{B} = 0,5P_{k,b} + \frac{M_{nat}}{B};$$

$$P_{k1} = P_{f2} + 0,5P_{kr} \cos \gamma - \frac{M_{b,k} + P_{kr} \sin \gamma (P_{kr} - x_b)}{B} = 0,5P_{k,b} - \frac{M_{nat}}{B},$$

bu yerda: P_{k_2} — traktorning burilishda, uning tortuvchi qismi yuklama bilan ishlaganda hosil bo'ladigan umumiy urinma tortish kuchi.

6-§. Burilish mexanizmi turlarining burilish dinamikasiga ta'siri

Oddiy differensialga beriladigan burovchi moment, yarim o'qlarga undagi qarshiliklar bo'yicha proporsional taqsimlanadi. Oldinlovchi yarim o'qda bu moment, urinma tortish kuchi P_{k_1} ning momenti, sekinlanuvchi yarim o'qda esa tormoz ishqalanish kuchining momenti M_n va urinma tortish kuchi P_{k_1} ning momenti bilan muvozanatlanadi. Bularga asosan burilishdag'i urinma tortish kuchining qiymatlari:

$$P_{k_2} = 0,5M_{dif}/r_k; \quad P_{k_1} = (0,5M_{dif} - M_n)/r_k$$

Zanjir o'ramasidagi urinma tortish kuchlarining tengsizligidan buruvchi moment hosil bo'ladi. uning qiymati

$$M_h = 0,5(P_{k_2} + P_{k_1}) \cdot B = 0,5B(0,5M_{dif} - (0,5M_{dif} - M_n))/r_k = 0,5B \cdot M_n/r_k$$

Shunday qilib, oddiy differensiali burilish mexanizmi bilan hosil qilingan buruvchi moment, tormoz momentiga to'g'ri proporsional bo'lib, uning qiymati sekinlanuvchi yarim o'qning tormozlanish me'yoriga bog'liq.

Ikkilanma differensiali burish mexanizmi oddiy differensiali burish mexanizmi kabi, to'g'ri chiziqli harakatda burovchi momentni zanjir o'ramalariga taqsimlab beradi. Barqaror burilishda buruvchi moment:

$$M_h = 0,5B \cdot M_n i_{dif}/r_k$$

Shunday qilib, ikkilangan differensial bilan hosil qilingan buruvchi moment tormozlanish darajasiga, ya'mi M_n ga bog'liq. Hosil bo'lgan buruvchi moment oddiy differensialga qaraganda i_{dif} marta katta bo'ladi. Differensiali burish mexanizmlari traktorning to'g'ri chiziqli harakat yo'nalishining barqarorligini ta'minlay olmaydi. Agar tortishga qarshilik kuchining ta'sir chizig'i traktorning bo'ylama simmetriya o'qiga to'g'ri kelmasa, o'ng va chap zanjir o'ramalarining tuproq bilan tishlashuvchanligi bir xil bo'lmasligi va boshqa sabablar unga ta'sir ko'rsatadi va buning natijasida traktor osongina berilgan yo'nalishdan

chetga chiqadi. Shuning uchun ham differensialli burish mexanizmlari zanjirlar traktorlarda qo'llanilmaydi. Burish mustatari traktoring to'g'ri chiziqli harakatidagi qo'yilgan qarshiliklarga qarab yetaklovchi momentni proporsional taqsimlab beradi. Barqaror burilishda, yetaklovchi momentning zanjirlarga taqsimlanishi sekinlanuvchi zanjir o'ramasini tormozlab yoki tormozlamasdan burilishiga bog'liq.

Tormozlab burilganda yetaklovchi ko'prikkasi berilgan M_{vib} momenti zanjir o'ramalariga quyidagicha taqsimlanadi:

$$M_{set} - M_m = M_{vib} + M_{m} - M_m,$$

bu yerda: M_m -- sekinlanuvchi zanjir tomoniga o'rnatilgan mustaning ishqalanish momenti.

Buruvchi moment mustaning ishqalanish momentini o'zgartirish hisobiga rostlanadi, ya'ni:

$$M_b = 0,5B \left(\frac{M_{vib} - M_m}{r_k} - \frac{M_m}{r_k} \right) = 0,5B \left(\frac{M_{vib} - 2M_m}{r_k} \right)$$

Sekinlanuvchi zanjir o'ramasining mustasi to'liq uzib qo'yilganda $M_m = 0$, bunda buruvchi moment:

$$M_c = 0,5BM_{vib}/r_k$$

Burilish musta uzilgan holda va sekinlanuvchi zanjirni tormozlab amalga oshirilsa, M_{vib} momenti to'liqligicha oldinlovechi zanjirga uzatiladi, sekinlashuvchi zanjirda esa, tormozning ishqalanish momentiga teng bo'lgan manfiy moment hosil bo'ladi. Bunda buruvchi moment:

$$M_b = 0,5B(M_{vib} + M_m)/r_k$$

Bir pog'ona ni planetar burish mexanizmlarning dinamikasi muftali va tormozli burish mexanizmlarini bilan bir xil bo'ladi.

Nazorat savollari

1. G'ildirakli mashinalar buriluvchaniqini baholash uchun qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
2. Traktor burilishining asosiy kinematik sxemalarini tushintirib bering.
3. O'rmalovchi zanjirlar traktorlar qanday buriladi?
4. Zanjirlar traktoring burilish kinematikasini tushintirib bering.
5. Burilishga qarshilik momenti qanday hisoblanadi?
6. Tirkama zanjirlar traktoring burilishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Ikkilanma differensialli burish mexanizmi burish mustataridan nima bilan farqlanadi?

1-\$. Traktoring bo'ylama barqarorligi

Traktoring barqarorligi uni bo'ylama va ko'ndalang nishabliklarda ag'anamasdan ishlay olish xususiyati bilan taysislanadi. Shu munosabat bilan traktoring barqarorligi bo'ylama va ko'ndalang turlarga bo'linadi. Traktor ag'anamasdan tura oladigan eng katta nishablik burchagini statik nishablik burchagi (α_b) deyiladi.

Agar traktoring oldingi g'ildiraklari to'liq yuksizlanib, undagi normal reaksiya $Y_b = 0$ bo'lsa, orqa g'ildiraklar atrosida ag'darilish sodir bo'ladi. Bunda og'irlik kuchidan hosil bo'lgan normal reaksiya orqa g'ildiraklarga tushadi (27.1-rasm). Bu reaksiya:

$$Y_i = G \cos \alpha_b$$

Og'irlik kuchining tashkil etuvchisi traktorni pastga dumalab tushishiغا intiladi. Buni bartaraf etish uchun orqa g'ildiraklarga tormozlovi chi kuch P_g qo'yilgan bo'ladi. G'ildiraklarni dumalashga qarshilik momenti ham soat mili bo'yicha ta'sir ko'rsatib, traktorni pastga dumalashiga qarshilik ko'rsatadi. Bu momentning qiymati uncha katta bo'limganligi sababli uni hisobga olmaymiz. Traktoring dumalab tushishi mumkin bo'lgan o'qqa nisbatan muvozanat shartidan:

$$G \cos \alpha_b - G \sin \alpha_b \cdot h_{om} = 0,$$


bu yerda: α va h_{om} — mos ravishda og'irlik markazining bo'ylama va vertikal koordinatalari. Bundan:

$$\operatorname{tg} \alpha_b = a / h_{om}$$

Agar traktor chegaraviy dumalash burchagi α'_b bilan nishablikda turgan bo'lsa, orqa g'ildirak to'liq yuksizlanadi. Oldingi g'ildirakning normal reaksiysi:

$$Y_p = G \cos \alpha'_b$$

Oldingi g'ildiraklarning dumalashga qarshiliqi kam bo'lganligi uchun uni hisobga olmaymiz. Traktoring O , nuqtaga nisbatan muvozanat tenglamasi:



27.1-rasm. G'ildirakli traktorning bo'ylama barqarorlik sxemasi:
a - traktor nishablikda turganda; b - traktor do'nglikda turganda

$$G \cos \alpha_h' \cdot (L-a) - G \sin \alpha_h' \cdot h_{om} = 0,$$

$$\text{bungan } \operatorname{tg} \alpha_h' = (L-a)/h_{om}.$$

Traktor osma mashinalar bilan jihozlangan bo'lsa, a va h_{om} koordinatlari a_{agr} va h_{agr} bilan almashtiriladi.

Universal g'ildirakli traktorlar uchun $\alpha_h = 35\text{--}40^\circ$, $\alpha_h' = 60^\circ$ va undan ham kattaroq bo'lishi mumkin.

Traktorning bo'ylama barqarorligi nafaqat dumalash natijasida buzilishi mumkin, balki maksimal tormozlovchi kuch $P_{t_{max}}$ uni qiya tekislikda ushlab turishi uchun yetarli bo'lmasdan qolishi mumkin, bunda barqarorlikning buzilishi traktor sirpanishi natijasida sodir bo'ladi. Barqarorlikni ta'minlovchi burchaklarni $\alpha\varphi$ va $\alpha\varphi'$ bilan belgilaymiz. Traktorlarning tormozi orqa g'ildiraklarga o'rnatilgan, shu sababga ko'ta bu burchaklarning qiymati quyidagi shartlar bilan chegaralangan:

$$G \sin \alpha\varphi - P_{t_{max}} = Y_k \varphi_d + \varphi_d (G \cos \alpha\varphi (L-a) - G \sin \alpha\varphi \cdot h_{om})/L,$$

$$G \sin \alpha\varphi' - P_{t_{max}} = Y_k \varphi_d + \varphi_d (G \cos \alpha\varphi' (L-a) - G \sin \alpha\varphi' \cdot h_{om})/L.$$

Bu tenglamalardan quyidagilarni hosil qilamiz:

$$\operatorname{tg} \alpha \varphi - \varphi_d (L - a) / (L - \varphi_d \cdot h_{om}),$$

$$\operatorname{tg} \alpha \varphi' = \varphi_d (L - a) / (L + \varphi_d \cdot h_{om})$$

Agar tormoz traktorning barcha g'ildiraklariga o'rnatilgan bo'lsa, uning oldindi va orqa g'ildiraklaridagi tishlashuvchanlik bir xil bo'ladi. Unda maksimal tormozlovchi kuch do'nglikda va nishablikda bir xil bo'ladi, ya'ni:

$$P_{tmax} = \varphi_d G \cos \alpha_b$$

Bu holda do'nglikdagagi va nishablikdagagi sirpanish sharti ham bir xil bo'ladi, ya'ni:

$$\operatorname{tg} \alpha \varphi = \operatorname{tg} \alpha \varphi' - \varphi_d$$

G'ildirakli traktorlarning bo'ylama barqarorligini va boshqa-riluvchanligini yaxshilashning turli usullari mavjud. Ularga traktorning oldindi g'ildiraklariga va oldindi o'qiga yuk osish, traktorning bazasini kattalashtirish kabi tadbirlar kiradi.

Zanjirli traktorning bo'ylama barqarorligi (27.2-rasm) bosim markazining holatiga bog'liq. Yarim bikir osinali traktorning bo'ylama o'qi bo'yicha dumalamasdan tura olish burchagi bosim markazining zanjir tayanch sirtining orqa tomoniga siljishi bilan bog'liq. Chegaraviy nishablik burchagi esa bosim markazining zanjirning oldindi tomoniga surilishi bilan bog'liq. Bu hollar uchun traktorning bosim markaziga nisbatan muvozanat tenglamalarini tuzamiz:

$$G \sin \alpha_b (0,5L_{zam} + a_0) - G \sin \alpha_b \cdot h_{om} = 0;$$

$$G \cos \alpha_b (0,5L_{zam} - a_0) + G \sin \alpha_b \cdot h_{om} = 0,$$


bu yerda: a_0 — traktorning og'irlik markazidan zanjirning tayanch sirti o'rtafigacha bo'lgan masofa

Bularidan:

$$\operatorname{tg} \alpha_b = (0,5L_{zam} + a_0) / h_{om},$$

$$\operatorname{tg} \alpha_b' = (0,5L_{zam} - a_0) / h_{om}$$

Bu formulalarda zanjirning peshona qarshiligidan hosil bo'lgan moment hisobga olinmagan.



27.2-rasm. Zanjirli traktorning bo'ylama barqarorlik sxemasi:
a — traktor nishablikda turganda; b — traktor do'nglikda turganda

Yarim bikir osmali traktorlar uchun chegaraviy statik bo'ylama barqarorlik burchagi $35 - 45^\circ$ ni, ikki tayanchli balansir osmali traktorlar uchun esa bu burchak $30 - 35^\circ$ ni tashkil etadi.

2-§. Traktorning ko'ndalang barqarorligi

Chegaraviy ko'ndalang statik barqarorlik burchagi deb, shunday eng katta nishablik burchagi tushuniladiki, bunda traktor yon tomonga ag'darilmasdan va siljimasdan tura oladi. β_b burchakning qiymatini tuproqning $V^{\prime \prime}$ normal reaksiyasini nolga teng bo'lgan hol uchun aniqlaymiz, bu burchakda traktor yon tomonga dumalay boshlaydi. Dumalashi mumkin bo'lgan O o'qqa nisbatan (27.3-rasm) momentlar tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:


$$G \sin \beta_b \cdot h_{om} - 0,5BG \cos \beta_b = 0,$$

bundan:

$$\operatorname{tg} \beta_b = 0,5B/h_{om}$$

bu yerda: V — traktorning koleyasi.

Agar tuproq yetarli darajada qattiq bo'lsa, zanjirli traktorning dumalashi quyidagi burchakdan kattalashganda sodir bo'ladi:



27.3-rasm. Traktoring ko'ndalang barqarorlik sxemasi

$$\operatorname{tg} \beta_h = 0.5(B + b) / h_{om},$$

bu yerda: b — zanjir kengligi.

Odatda zanjirli traktoring kolejasi rostlanuvchan bo'ladi. Koleyaga bog'liq holda chegaraviy ko'ndalang statik barqarorlik burchagi ham o'zgarib turadi. 4K2 va 4K4 g'ildirak formulasiga ega bo'lgan traktorlar uchun bu burchak qiymati 40—50° atrofida bo'ladi. Zanjirli traktor uchun ham barqarorlik burchagi shu qiymat atrofida bo'ladi. G'ildirak formulasi ZK2 bo'lgan traktorlar uchun statik barqarorlik burchagi 30—35° ni tashkil etadi.

Traktor qiya tekislikda yon tomonga siljishi mumkin bo'lgan statik burchakni aniqlaymiz. Keltirilgan sxemaga muvofiq barcha kuchlarning ko'ndalang tekislikdagi proeksiya tenglamasini tuzamiz:

$$G \sin \beta \varphi = Z' + Z'' = \varphi_1 (Y' + Y'') - \varphi_2 G \cos \beta \varphi,$$

bu yerda: Z' , Z'' va Y' , Y'' mos ravishda yo'lning normal va yonaki reaksiyalari; φ_z — harakatlantirgichning tuproq bilan yonaki fishlashuv chanligi.

Yuqoridagi tenglamadan

$$\operatorname{tg} \beta \varphi = \varphi_z$$

φ_z koefitsientining qiymati yo'lning mexanikaviy xususiyatlariga va harakatlantirgichning tuzilishiga bog'liq. Mashinalarda yonaki sirpanish muzlagan yo'llarda sodir bo'lishi ma'lum.

Zanjirli traktorlarda yonaki sirpanishga barqarorlik 16° gacha bo'lgan qiyalikda ta'minlanadi. Traktor bundan kattaroq qiyalikda ishlashi uchun zanjirning tuproq ilashtirgichlari xususiy tuzilishga ega bo'lishi lozim. Amalda esa traktorning yon tomoniga dumalashi va yonaki sirpanishi juda kam sodir bo'ladigan holatdir.

Traktor yonaki nishablikda ishlaganda, uning harakatlantirgichiga dinamik ta'sir bo'lganda, u o'z barqarorligini saqlay oladigan qiyalik burchagini yonaki **dinamik barqarorlik burchagi** deyiladi, tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadi:

$$\beta_{dn} = (0.4 - 0.6) \cdot \beta_u,$$

bu yerda: β_u — traktorning muayyan yo'l sharoiti uchun statik yonaki barqarorlik burchagi.


Mashinaning harakat tezligi qanchalik katta bo'lsa, dinamik omillar shunchalik jadalroq namoyon bo'ladi va β_{dn}/β_u nisbat shunchalik kichik bo'ladi. G'ildirak notejislikka urilishidan hosil bo'lgan shinaning qo'shimcha ezilishi traktor yonaki dinamik barqarorligining pasayishiga sabab bo'ladi.

Traktor egri chiziqli trayektoriya bilan harakatlangunda (27.4-rasm) inersiya kuchi hosil bo'ladi va u traktorning ko'ndalang barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Traktorning burilishida unga natijaviy markazdan qochma kuch ta'sir ko'rsatadi va bu kuch traktorning og'irlik markaziga qo'yilgan bo'ladi. Natijaviy markazdan qochma kuchning qiymati:

$$P_m = G \omega_b^2 \cdot R_{om} / g,$$

bu yerda: ω_b — burilish markaziga nisbatan burilayotgan mashinaning aylanish burchak tezligi.

P_m kuchni bo'ylama va ko'ndalang tekisliklar bo'yicha ikki tashkil etuvchiga ajratamiz. Bu kuchlardan birinchisi normal yuklanishning



27.4-rasm. Traktorning burlish kinematikasi va dinamikasi

oldingi va orqa g'ildiraklarga qayta taqsimlanishini ta'minlaydi, ikkinchisi esa mashinani yon tomonga ag'darishga harakat qiladi. Markazdan qochma kuchning ko'ndalang tashkil etuvchisi:


$$P_m \cos \gamma_m : \left(\frac{G}{g} \right) \omega^2 R_{om} \cos \gamma_m = \frac{G \omega^2 R}{g} = \frac{G \cdot v^2}{R}$$

bu yerda: γ_m — ko'ndalang tekislikka nisbatan markazdan qochma kuchning ta'sir burchagi; v — mashinaning burlishdagi o'rtacha tezligi; R — burlish radiusi (27.5-rasm).

Traktorning ag'anashi mumkin bo'lgan O' o'qiga nisbatan muvozanat tenglamasi:

$$(P_m^T \cos \beta - G \sin \beta) \cdot h_{om} + (P_m^T \sin \beta + G \cos \beta) \cdot 0,5R = 0$$

Markazdan qochma kuchning tashkil etuvchisi o'rniiga uning qiymati $(G/g)/(v^2/R)$ ni qo'yib traktorning egri chiziqli harakatdagi muvozanasi shartini hosil qilamiz:



27.5-rasm. Traktorning burilishdagi barqarorlik sxemasi

$$Gv^2(h_{om} \cos \beta - 0.5B \sin \beta) / gR < G(0.5B \cos \beta + h_{om} \sin \beta)$$

Tenglamaning ikkala tomonini $G \cdot h_{om} \cos \beta$ ga bo'lainiz, unda:

$$v^2 \frac{1 - 0.5B \sin \beta}{h_{om} - \cos \beta} < gR \left(\frac{0.5B}{h_{om}} + \frac{\sin \beta}{\cos \beta} \right)$$

Mashinaning burilish tezligi:

$$v < \sqrt{gR \cdot \frac{\operatorname{tg} \beta_h + \operatorname{tg} \beta}{1 + \operatorname{tg} \beta_h \cdot \operatorname{tg} \beta}}$$

Agar yo'lning ko'ndalang nishabligi burilish markaziga nisbatan teskari tomonga yo'nalgan bo'lsa:

$$v < \sqrt{gR \cdot \frac{\operatorname{tg} \beta_h - \operatorname{tg} \beta}{1 + \operatorname{tg} \beta_h \cdot \operatorname{tg} \beta}}$$

3-§. Traktorning tortuvchanlik-tishlashuvchanlik xususiyati

Traktor og'ir yo'l sharoitida ishlashi uchun uning urinma tortish kuchini oshirish, oddiy ishlatish sharoitida esa bu kuchning ma'lum qiymatlariida traktorning tortuvchanlik-tishlashuvchanlik xususiyatini

saqlash lozim. Shuning uchun ham maxsus tuzilmaga ega bo'lgan traktorlarni yaratishda, urinma-tortish kuchini va harakatlantirgichning FIK oshirish choralarini ko'rish lozim.

Harakatlantirgichning FIK ifodasini g'ildirakli va zanjirli traktor uchun yozamiz, bunda traktor gorizontal yo'lida tekis harakat qiladi deb qabui qilamiz:

$$\eta_k = \frac{\left(P_k + P_f \right) v}{P_k v_t} = \frac{G_d \varphi_{fov} - (f_n + f_{gov}) \cdot G}{\varphi_{fov} G_d} \cdot (1 - \delta);$$

$$\eta_{van} = \frac{\left(P_o + P_f \right) v}{P_o v_t} = \frac{\varphi_{fov} - (f_n + f_{gov})}{\varphi_{fov} + f_m} \cdot (1 - \delta),$$

bu yerda: P_k va P_f — traktoring urinma tortish kuchi va dumalashiga qarshilik kuchi; G_d va G — mos holda traktoring tishlashish va umumiy og'irligi; φ_{fov} — traktoring tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti; f_n va f_{gov} — tuproqni ezish va gisteresis natijasida yo'qotilgan energiyani hisobga oluvchi koefitsientlar; R_o — zanjirning yetaklovchi zvenosidagi urinma kuchi; f_m — zanjirdagi mexanikaviy energiyaning yo'qolishimi hisobga oluvchi dumalashga qarshilik koefitsienti.

Keltirilgan formulalarga asosan traktoring yetaklovchi g'ildiraklaridagi FIK ni oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.

1-usul. Traktor tishlashish og'irligini, uning to'liq umumiy og'irligigacha oshirish.

Agar $G_d = G$ bo'lsa, yetaklovchi g'ildiraklarning FIK:

$$\eta = \frac{\varphi_{fov} - (f_n + f_{gov})}{\varphi_{fov}} \cdot (1 - \delta) + \frac{f_n - f_{gov}}{\varphi_{fov}} \cdot (1 - \delta)$$

2-usul. Tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsientining qiymatini oshirish. FIK formulasidan ko'rish mumkinki, δ va f larning qiymati o'zgarmas bo'lsa-da δ_{fov} oshganda η , ning qiymati ham ortadi.

Tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti g'ildirak formulasi 4K4 bo'lgan traktorlar uchun quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\varphi_{fov} = \frac{P_{k1} + P_{k2} + P_{k3} + P_{k4}}{Q_{k1} + Q_{k2} + Q_{k3} + Q_{k4}} = \frac{\sum_1^n P_{ki}}{\sum_1^n Q_{ki}},$$

yoki

$$\varphi_{fov} = \frac{\varphi_{fov1}Q_{k1} + \varphi_{fov2}Q_{k2} + \varphi_{fov3}Q_{k3} + \varphi_{fov4}Q_{k4}}{Q_{k1} + Q_{k2} + Q_{k3} + Q_{k4}} = \frac{\sum_{i=1}^n \varphi_{fov_i} Q_{ki}}{\sum_{i=1}^n Q_{ki}}.$$

bu yerda: P_{ki} va Q_{ki} — urinma tortish kuchi va yetaklovchi g'ildirakning tishlashish og'irligi; φ_{fov_i} — yetaklovchi g'ildiraklarning tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti.

Masalani soddalashtirish maqsadida traktor saqat bir yetaklovchi o'qqa ega deb qabul qilamiz, unda:

$$\varphi_{fov} = \frac{\varphi_{fov1}Q_{k1} + \varphi_{fov2}Q_{k2}}{Q_{k1} + Q_{k2}}$$

Bu ifodadan ko'proq yuklangan o'qda (g'ildirakda) gi tishlashish og'irligini aniqlaymiz:

$$Q_{k2} = \frac{\varphi_{fov} - \varphi_{fov1}}{\varphi_{fov2} - \varphi_{fov}} Q_{k1} = k \cdot Q_{k1},$$

bu yerda: $k = Q_{k2}/Q_{k1}$ — g'ildiraklar yoki o'qlarning notekis yuklanishi hisobga oluvchi koefitsient.

Bu tenglama koordinat o'qi boshidan o'tuvchi to'g'ri chiziqning tenglamasi bo'lib, uning burchak koefitsienti k ga teng. Bu tenglamanini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\varphi_{fov} = (\varphi_{fov2}k + \varphi_{fov1}) / (1 + k)$$

Hosil qilingan tenglamani tahlil qilamiz:

1. Agar $k=1$ bo'lsa, ya'ni barcha yetaklovchi g'ildiraklar bir xil yuklamaga ega bo'lsa:

$$\varphi_{fov} = 0,5 \cdot (\varphi_{fov1} + \varphi_{fov2})$$

2. Agar $\varphi_{fov} = \varphi_{fov2}$ va $k > 1$, tishlashuvchanlik bareha yetaklovchi g'ildiraklarda bir xil bo'lsa:

$$\varphi_{fov} = \varphi_{fov1} = \varphi_{fov2}$$

3. Agar $\varphi_{fov2} > \varphi_{fov1}$ va $k > 1$, φ_{fov} koefitsientining qiymati qancha katta bo'lsa, k ning qiymati shunchalik katta bo'ladi. Bundan shunday

xulosa qiliş mumkinki, φ_{ay} ning qiymatini oshirish uchun g'ildirak o'qini shunday yuklash kerakki, undagi tishlashuvchanlik kattaroq qiymatga ega bo'lsin.

Differensialli yuritmaning yetaklovchi g'ildiraklardagi yoki o'qlardagi yetaklovchi momentning taqsimlanishi differensialning ishlashiga bog'liq.

Satellitni uning o'qiga nisbatan muvozanat shartidan $P_1 \cdot r_1 = P_2 \cdot r_2$, bundan $P_1/P_2 = 1$, ya'ni $P_1 = P_2$ bunda, P_1, P_2 va r_1 — mos ravishda, sattelitning yarim o'q shesternalari bilan ilashmasidagi urinma kuch va sattelit boshlang'ich aylanasining radiusi.

Yetaklovchi o'qlar tomonidan o'ng va chap g'ildiraklarga uzatiladigan burovchi moment:

$$M_{et1} = P_1 \cdot r_1; \quad M_{et2} = P_2 \cdot r_2.$$

Simmetrik differensiallarda $P_1 = P_2$ unda $M_{et1} = M_{et2}$.

G'ildiraklardagi momentlar yig'indisi differensial tomonidan uzatilgan momentga teng bo'ladi:

$$M_{dfl} = M_{et1} + M_{et2}$$

$M_{et1}/M_{et2} = 1$ bo'lib, ya'ni simmetrik differensialning uzatishlari soni 1 ga teng bo'lsa.

$$M_{et1} = M_{et2} = 0.5M_{dfl}$$

Differensialning ichki ishqalanishini hisobga olmasak, g'ildirakdag'i normal yuklama bir xil bo'lganda, ya'ni

$$Q_{k1} = Q_{k2} = Q_k$$

Differensiallik samarasini natijasida ikkala g'ildiraklardagi yetaklovchi momentlar bir xil va minimal qiymatga ega bo'lsin, ya'ni:

$$M_{vet1} = M_{et1} = M_{vetmin}$$

Tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti bir xil hamda minimal qiymatiga ega bo'lsin:

$$\varphi_{fot} = \varphi_{fot2} = M_{dfl} / 2r_k Q_k = V_{vermin} / r_k Q_k$$

$$\varphi_{fm} = \varphi_{fot1} + \varphi_{fot2} = 2\varphi_{fotmin}$$

bu yerda: $\varphi_{fot} =$ ikkala yetaklovchi g'ildirakdag'i tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti.

Bu holda mashinaning urinma tortish kuchi:

$$P_k = 2\varphi_{fov\min} Q_k$$

Agar differensial blokirovka qilingan bo'lsa, ikkala g'ildirakning tishlashuvchanlik xususiyatidan to'liq foydalaniladi. Tishlashuvchanlik bo'yicha tortish kuchining eng katta qiymati (ma'lum yo'l sharoiti uchun):

$$P_{k\text{el}} = P_{k1} + P_{k2} - Q_k (\varphi_{fov\min} + \varphi_{fov\max}).$$

bu yerda: $\varphi_{fov\max} = \varphi_{fov2}$ — tuproq bilan eng yaxshi tishlashish sharoitida bo'lgan g'ildirakning tishlashish og'irligidan foydalanish koefitsienti.

Blokirovkaning samaradorligi koefitsienti:

$$E = P_{k\text{el}} / P_k.$$

Yetaklovchi g'ildirakdagagi normal yuklanish bir xil bo'lsa:

$$E_{bl} = 0.5(\varphi_{fov\min} + \varphi_{fov\max}) / \varphi_{fov\min} = 0.5(1 + \varphi_{fov\max} / \varphi_{fov\min})$$

Differensial blokirovka bo'lganda, mustaning ishqalanish momenti ta'sirida ikkala yarim o'q bir butun holda aylanadi va differensialga uzatiladigan burovchi moment yarim o'qlar o'rtaсидаги qarshiliklarga proporsional ravishda taqsimlanadi. Blokirovka qilinmagan differensialda «oldinlovchi» yarim o'q tezroq, «sekinlanuvchi» yarim o'q esa sekinroq aylanadi. Bu hol uchun yetaklovchi momentni yarim o'qlar orasida taqsimlanishini ko'rib chiqamiz.

Yarim o'qlarga beriladigan va differensialdagagi ishqalanishni yengishga sarflanadigan quvvat:

$$M_{dy} = M_{yet1} + M_{yet2};$$

$$N_{dy} = N_1 + N_2 + N_r,$$

bu yerda: M_{dy} va N_{dy} — mos ravishda differensialga beriladigan moment va quvvat; M_{yet1} va N_1 — sekinlanuvchi yarim o'qqa beriladigan burovchi moment va quvvat; M_{yet2} va N_2 — oldinlovchi yarim o'qqa beriladigan burovchi moment va quvvat; N_r — differensialdagagi ishqalanishni yengishga sarflangan quvvat.

Sekinlanuvchi yarim o'qning burchak tezligini ω_p , oldinlovchi yarim o'qning burchak tezligini ω_s , differensial qutisining burchak tezligini ω_{dy} bilan belgilaymiz, unda:

$$\omega_{df} = 0.5(\omega_1 + \omega_2)$$

Shunday qilib:

$$N_1 = M_{et1}\omega_1; N_2 = M_{et2}\omega_2; N_n = M_{df}\omega_{df}$$

Blokirovka muftasining yetaklovchi va yetaklanuvchi diskalarining nisbiy burchak tezliklari:

$$\omega_{df} - \omega_1 = 0.5(\omega_2 - \omega_1) - \omega_1 = 0.5(\omega_2 - 2\omega_1)$$

Buni hisobga olsak:

$$N_n = 0.5M_{df}(\omega_2 - \omega_1),$$

bu yerda: M_{df} – blokirovka muftasining ishqalanish momenti.

O'z-o'zidan blokirovka qilinuvchi differensiallarda differensiallik samarasi oldinlovchi va sekintlovchi yarim o'qlardagi yetaklovchi momentning quyidagi qiymatlarida sodir bo'ladi:

$$M_{vet1} = 0.5(M_{df1} + M_{tr}); M_{vet2} = 0.5(M_{df2} + M_{tr})$$

Blokirovka koefitsientining qiymatlari:

$$K_H = M_{et1}/M_{et2} = (M_{df1} + M_{tr})/(M_{df2} + M_{tr})$$

O'z-o'zidan blokirovka qilinuvchi differensial qo'llanilganda, oldingi ko'prikdiragi urinma tortish kuchi:

$$P\varphi_{bl} = P\varphi_{min}(1 + K_{bl})$$

Burilishda o'z-o'zidan blokirovka qiluvechi differensial ishlaganda, unda ishqalanishga energiya sarflanadi, differensialdan foydalanish koefitsienti:

$$\eta_{df} = (N_1 + N_2)/N_{df} = (M_{et1}\omega_1 + M_{et2}\omega_2)/M_{df}\omega_{df}$$

$M_{df} + M_{vet1} + M_{vet2} = M_{et2}(1 + K_{bl})$ – hamda $\omega_{df} = 0.5(\omega_1 + \omega_2)$ ekanligini hisobga olib:

$$\eta_{df} = 2 \frac{K_{bl} + \omega_2/\omega_1}{(K_{bl} + 1)(\omega_2/\omega_1 + 1)}$$

Burchak tezliklari o'rtaqidagi nisbat va traktoring burilish radiusi R o'rtaSIDA quyidagi bog'ianish mavjud:

$$\omega_2/\omega_1 = (R + 0.5B)/(R - 0.5B)$$

Buni hisobga olib, differensialning FIK ni hisoblaymiz:

$$\eta_{du} = \frac{1 - B(K_{pl} - 1)}{2R(K_{pl} + 1)}$$

3-usul. Shataksirash koeffitsienti δ ni kamaytirish hisobiga FIKni ko'paytirish. ya'ni

$$\eta_p = (1 - \delta)$$

Mashinaning o'tuvchanligini oshirish uchun g'ildirak yuritmalarini to'liq blokirovka qilishni ta'minlash lozim. Biroq g'ildiraklarning shataksirashi agregatlarning konstruktiv va kinematik mos kelmasligi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunday holat shina protektorlarining turlicha yeyilishi, shinalardagi bosimning va g'ildiraklarga tushuvchi normal yuklananining bir xil emasligi natijasida sodir bo'ladi.

Faraz qilaylik, g'ildirak formulasi 4K2 bo'lgan traktor shataksirayotgan bo'lsin. Chap g'ildirakning shataksirash koeffitsienti δ_1 uning dinamik radiusi r_{k1} , o'ng g'ildirakning shataksirash koeffitsienti δ_2 va uning dinamik radiusi r_{k2} bo'lsin. Agar $\delta_1 > \delta_2$ bo'lsa, kinematik mos kelmaslik koeffitsienti:

$$K_{mk} = \frac{1 - \delta_2}{1 - \delta_1} = \frac{v_{t1}}{v_{t2}} = \frac{\omega_1 r_{k1}}{\omega_2 r_{k2}}$$

Mashinaning shataksirash koeffitsienti, yetaklovchi o'qining shataksirash koeffitsientiga teng:

$$\delta = \frac{v_h}{v_t} = \frac{v_t + v_d}{v_t} = 1 + \frac{v_d}{v_t}$$

Mashinaning haqiqiy harakat tezligi:

$$v_d = v_{t1}(1 - \delta_1) + v_{t2}(1 - \delta_2)$$

Mashinaning nazariy harakat tezligi:

$$v_t = 0.5(\omega_1 + \omega_2)r_{um}$$

bu yerda: $r_{um} = 2r_{k1}r_{k2}/(r_{k1} + r_{k2})$.

Agar traktorda kinematik mos kelmaslik bo'lmasa:

$$r_{k1} < r_{k2} \text{ ya } r_{um} < r_{k1} + r_{k2}$$

Traktoring nazariy tezligi

$$v_t = \frac{(\omega_1 + \omega_2) r_{k1} r_{k2}}{r_{k1} + r_{k2}} = \frac{v_{l1} r_{k2} + v_{l2} r_{k1}}{r_{k1} + r_{k2}} = v_d \frac{r_{k2} / (1 - \delta_2) + r_{k1} / (1 - \delta_1)}{r_{k1} + r_{k2}},$$

bundan

$$\frac{v_d}{v_t} = \frac{(r_{k1} + r_{k2})(1 - \delta_1)(1 - \delta_2)}{r_{k1}(1 - \delta_1) + r_{k2}(1 - \delta_2)} = \frac{(1 - K_k)(1 - \delta_2)}{K_{nd} + K_k},$$

bu yerda: $K_{mk} = \frac{\omega_1 r_{k1}}{\omega_2 r_{k2}} = \frac{1 - \delta_2}{1 - \delta_1}$ – o'ng va chap yetaklovchi

g'ildiraklarning kinematik mos kelmaslik koefitsienti; $K_{mk} = r_{k1}/r_{k2}$ – yetaklovchi g'ildiraklar dinamik radiuslarining mos kelmaslik koefitsienti.

Agar g'ildirak to'liq blokirovkada bo'lsa, $\omega_1 = \omega_2$ va $K_{mk} = K_k$, unda:

$$\eta_b = (1 - \delta) = 0,5(1 - K_k)(1 - \delta_2)/K_k$$

4-usul. Dumalashga qarshilikni kamaytirish. Traktorning dumalashga qarshiligi barcha g'ildiraklarning yoki zanjirlarning dumalashga qarshiliklarining yig'indisiga teng:

$$f = f_b - f_{gov} = \sum P_{fi} / \sum Q_i - \sum f_i Q_i / \sum Q_i$$

Agar barcha g'ildiraklarda normal yuklama bir xil bo'lsa, $Q_i = Q = const$, unda $f = \sum f_i / i$.

Agar barcha g'ildirakdagi yoki zanjirlardagi dumalashga qarshilik koefitsienti bir xil bo'lsa, ya'ni $f_i = const$, $f = f_i$ bo'ladi.


4-§. Traktorning buriluvchanligi

Statik buriluvchanlik, burilishdagi o'tuvechanlikning umumlashitilgan ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkich nisbiy burilish radiusi hisoblanadi. Nisbiy burilish radiusi orqali burilish uchun zarur bo'lgan maydonchaning o'lehamini va oldinlovchi zanjirning tuproq bilan tishlashuvchanligi bo'yicha burilishini baholash mumkin.

Traktorning oldinlovchi zanjiridagi urinma tortish kuchi P_{k2} ni, orqada qoluvchi zanjirning ish paytidagi qutbiga nisbatan muvozanat shartidan aniqlaymiz (27.6-rasm).

$$P_{k2} \cdot B = 0,5 f_{bur} G \cdot B + M_c - F_{zj} \cdot 0,5 \cdot B = 0$$

Bundan $P_{k2} - 0,5 f_{bur} G - M_c / B - 0,5 P_{kr} < 0,5 \varphi_{il} \cdot G$



27.6-rasm. Türkamali zanjirli traktoring beriluvchanligini baholovchi sxema

Agar burilish qutbi bo'ylama tekislikda siljisá, burilishga qarshitik momenti.

$$M_c = \frac{40 \mu_{max} K}{37 + G \rho_{kmin}} \cdot \frac{L_{zan} Q}{4},$$

bu yerda: μ_{max} — zanjirning burilishga qarshilik koefitsientining eng katta qiymati. $\mu_{max} = 0,6-0,7$; K — zanjirning burilish qutbini va bosim markazining surilishini hisobga oluvchi koefitsient; L_{zan} — zanjitayanch tarimog'ining uzunligi.

Urimma tortish kuchi tenglainesini ρ_{kmin} ga nisbatan yechilganda:

$$\rho_{kmin} > \frac{3,33 \mu_{max}}{\varphi_{il} - f_{bur} - D_{kr}} \cdot \frac{L_{zan}}{B} - 6,15,$$

bu yerda: D_{kr} — tortuvchi qismdag'i P_{kr} yuklamaning traktor og'irligi G ga nisbati.

Zanjirli traktor buriluvchanligining qo'shimcha ko'rsatkichi sifatida **ilashish zaxirasi** koeffitsientidan ham foydalaniлади. Traktor yuklamasiz burilganda ilashish zaxirasi koeffitsienti:

$$K_{\varphi}^I = \frac{0,5 f_{bur} + 0,25 \mu L_{zax}}{\varphi_d} < 1,$$

bu yerda: $\mu = 40 \mu_{\max} / (37 + G \rho_{\min})$.

Bu formuladagi K_{φ}^I koeffitsientining qiymati qanchalik kichik bo'lsa, burilishdagi yo'qotilish ehtimoli shunchalik kichik bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin.

Nazorat savollari

1. Traktoring bo'ylama va ko'ndalang barqarorligiga ta'rif bering.
2. Traktoring og'irlik markazi va zanjirning tayanch sirti bo'ylama barqarorlikka qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Tormozlashning bo'ylama barqarorlikka ta'sirini tushintiring.
4. Traktor qiya tekislikda yon tomonga siljishi mumkin bo'lgan burchak qanday aniqlanadi?
5. Yonaki dinamik barqarorlik burchagi nimani bildiradi?
6. Traktoring yetaklovchi g'ildiraklaridagi FIK ni oshirish uchun qanday usullardan foydalaniлади?

1-§. Traktorning agroekologik xususiyati

Traktor yurish qismining tuproq hosildorligiga salbiy ta'sirini kamaytirish usullarini topish uchun uni g'ildirak oralig'i kengligiga, ishchi uskunaning qamrov eni V_{qam} ga va yuruvchi qismning izi v ga bog'liqligini ko'rib chiqamiz.

Biologik hosildorlik B ni, hosildorligining ma'lum maydon F_{volq} da yo'qotilishi ΔU va **haqiqiy hosildorlik** F orqali quyidagicha ifodalaymiz:

$$B = \Delta U \cdot F_{volq} + F$$

Faraz qilaylik hosildorlikning yo'qotilishi faqat traktorning yuruvchi qismalarida sodir bo'lsin:

$$\Delta U = U - U_n,$$

bu yerda: U — daladagi hosildorlik; U_n — hosildorlikning dalaning traktor iziga to'g'ri kelgan qismi, unda traktor izi tashkil etgan maydon R_n ni hisobga olsak:

$$B = U \cdot F_{volq} + F$$

Traktor izida hosildorlikning yo'qotilish koefitsienti:

$$K_{volq} = (U - U_n) / U = 1 - U_n / U$$

Biologik hosildorlikning daladagi mashina izlari hisobiga kamaygan qismi:

$$D = (B - F) / B$$

B , F , ΔU ning qiymatlarini ishlov beriladigan dala va mashina traktor agregati o'lechamlari orqali ifodalab,

$$B = U L_{dala} I; F = (1 - D)B = U L_{dala} / (1 - D); \Delta U \cdot F_n = K_{volq} U \cdot I \cdot b \cdot m \cdot n,$$

bu yerda: L_{dala} , I — ishlov beriladigan dalaning uzunligi va kengligi; b — g'ildirakli (zanjirli) mashinaning V_{qam} ga teng bo'lgan qamrov

eniga to'g'ri keluvchi g'ildirak (zanjur) bir o'tishda qoldirgan izlarining kengligi; n — bir mashinaning daladagi o'tishlari soni.

Butun dala uchun $L_{data} = n \cdot B_{qam}$ va $I = i_{dem}$ deb qabul qilamiz. unda $B = \Delta U / F_{uz}$ — F ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$UL_{data}I = K(U \cdot I \cdot b \cdot m \cdot n) = UL_{data}I(1 - D)$$

Bundan

$$D = m \cdot k_p \cdot b / B_{qam}$$

O'simliklarga ishlov berish texnologiyasida urug' ekilgandan so'ng yana ikki marta ishlov berish nazarda tutiladi, bunda hosildorlikning pasayishi D har bir agregat o'zining koleyasiga ega bo'lsa, u quyidagicha bo'ladi:

$$D = \sum_{i=1}^{t-1} m_i K_p b_i / B_{qam},$$

bu yerda: m_i , K_p , b_i , B_{qam} — har bir traktor agregati uchun izlar soni, hosilning pasayish koefitsienti, iz kengligi, qamrov eni; t — hosil ekilgandan, uni yig'ishgacha dalada bajariladigan qamrov eni B_{qam} ga to'g'ri keluvchi iz juftlari soni.

1. Agar $K_p = K_p = const$, $b_i = b = const$, $m_i = m = const$, $B_{qam} = const$ bo'lsa, hosilning yo'qotilishi D , z ga proporsional bo'ladi:

$$D = z \cdot K_p b / B_{qam}$$

2. O'simliklarga ishlov beruvchi mashinalar tizimi yuruvchi qismlarining hosildorlikni kamayishi D ni z marta qisqartirish uchun, ishlov beruvchi barcha mashinalar koleyasi B_k ni bir xil bo'lishini va ular keyingi operatsiyalarni ham shu doimiy koleyada harakatlanib bajarsa, $i=1$ dan $i=z$ gacha, iz juftlari z dan oshmaydi, ya'ni uning haqiqiy qiymati $z=1$, unda

$$D = m \cdot K_p b / B_{qam}$$

3. Faraz qilaylik $B_{qam} = B_{qam} : const$; $b_i < b = const$, ya'ni g'ildirak kengligi b ga teng bo'lgan maydonda hosildorlik to'liq ye'qoladi ($U_{uz}=0$; $K_p=1$) va $z=1$, bunda barcha mashinalar bir va doimiy koleyada harakatlanadi:

$$D = m \cdot b / B_{qam}$$

2-§. Motor emissiyasi va uni zararsizlantirish yo'llari

Traktor va avtomobilarning havo muhitini ifloslantiruvchi manba sifatida qator o'ziga xos xususiyatlari bor. Birinchidan, traktor va avtomobilarning soni kundan kunga ortib bormoqda, shu bilan birga ular atmosferaga chiqarayotgan zararli moddalarning umumiy miqdori ham tinmay oshmoqda. Ikkinchidan, qo'zg'almas sanoat manbalaridan farqli ravishda traktor va avtomobillar atmosferani ifloslantiruvchi harakatehan manbalar hisoblanadi.

Uchinchidan, traktor va avtomobil motorlari chiqarayotgan gazlar havoning yerga juda yaqin qatlamiga qo'shiladi. Va niyoyat, chiqindi gazlar zaharliligini pasaytirishning zamонави имкониятлари havoning tozaligini talab etilgan darajada ta'minlab berishga hozircha qodir etmas.

Bu xususiyatlar havoni ifloslanishdan himoya qilishni eng murakkab, muhim va dolzarb muammolar qatoriga qo'yadi.

Motor emissiyasi deganda, motordan atrof-muhitga chiqayotgan gaz va bug'lar tushuniladi.

Chiqindi gazlar tarkibida 280 ga yaqin tashkil etuvchilar topilgan. Ulardan azot, kislород, vodorod, suv bug'i, sunungdek, karbonat angidrid zararsiz hisoblanadi. Zaharli tashkil etuvchilarga is gazi, azot oksidlari, uglevodorodlarning ko'p sonli guruhi (parafinlar, olefinlar, aromatiklar, benzapiren va boshqalar). aldegidlar va qerakuya kiradi.

Avtotraktor motorlating yonib bo'lgan gazlari tarkibi 28 l-jadvalda keltirilgan.

1 kg benzin yonganda 0,75 kg is gazi (CO) ajralib chiqadi. Emissiya tarkibida is gazining o'rtacha miqdori 5,5 % ni tashkil etadi.

Azot oksidlari (NO va NO_2) havodagi azotning motor silindrlaridagi yuqori harorat va bosim ta'siri ostida termik qaytuvchi reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi.

Ular sovgan sari ikki-, uch-, to'rt azot oksidlariiga aylanadi, havo bilan aralashish jarayonida esa azot oksidlarning konsentratsiyasi va oksidlanish tezligi keskin kamayadi.

Motordan azot oksidlari chiqishiga ishchi siklning maksimal harorati va uning yonish jarayonida o'zgarishi, shuningdek, ishchi aralashmaning tarkibi ta'sir etadi. Benzinli motorlarning emissiyasida 98—99% azot oksidi va faqat 1—2% azot ikki oksidi, dizellarda esa bu nisbat 90 va 10 % bo'ladi.

Avtotraktor motorlarining yenib bo'lgan gazlari tarkibi

№	Tashkil etuvchilar nomi	Kimyo-viy for-mulasi	Moddaning ulushi			
			Benzinali motor		Dizel	
			%	1000 litr yonil-g'iga, kg	%	1000 litr yonil-g'iga, kg
1.	Uglerod oksidi (is gazi)	CO	0,5 —12,0	200	0,01 —0,5	25
2.	Uglerod ikki oksidi (karbonat angidrid)	CO ₂	5,0 —12,0	—	1—10	—
3.	Kanserogen bo'lmagan uglevodorodlar	CH	0,2—3,0	25	0,09 —0,5	8,0
4.	Azot oksidi	NO _x	0,8 gacha	20	0,5 gacha	36
5.	Aldegidlar	CHO	0,2 mg/l	—	0,009 mg/l	—
6.	Oltinugurt ikki oksidi	SO ₂	6.008	—	0,03	—
7.	Qorakuya		0,004	1	0,01 —1,1	3
8.	Benzapiren	C ₁₀ H ₁₂	10—20 mkg/m ³	3	8—10 mkg/m ³	—
9.	Qo'rg'oshin	Pb	0,0003 g/kg	—	—	—
10.	Azot	N ₂	74—77	—	76—78	—
11.	Suv bug'i	H ₂ O	3,0—5,5	—	0,5—4,0	—
12.	Kislород	O ₂	0,3—8,0	—	2—18	—

Uglevodorodlar orasidan barcha gomologik qatorlarning vakillari: alkanlar, alkadiyenlar, siklanlar hamda aromatik birikmalar, shu jumladan kanserogenlar topilgan. Su guruhga kiruvchi benzapiren 400°C

haroratda hosil bo'la boshlaydi va $850\text{--}900^{\circ}\text{C}$ da eng ko'p chiqshi kuzatiladi.

Benzinli motor emissiyasi tarkibida aldegidlardan formaldegid — 60%, alifatik aldegidlar — 32% va aromatik aldegidlar 3% ni tashkil etadi.

Dizel motorlari emissiyasiga xos bo'lган qorakuyani alohida ko'r-satish mumkin. Bu modda chiqindi gazlar tarkibidagi kanserogenlarni yutish qobiliyatiga ega. Qorakuya mavjudligini chiqindi gazlarning rangi (tutuni) qora bo'lishi orqali aniqlash mumkin.

Shunday qilib, benzinli motorlar uchun: CO, CH, NO_x va qorg'o-shin birikmalari, dizel motorlar uchun: NO hamda qorakuya emissiyaning zaharli tashkil etuvchilar hisoblanadi.

Motor emissiyasi tarkibida uchraydigan ba'zi moddalarning chergaraviy yo'l qo'yiladigan konsentratsiyasi 28.2-jadvalda keltirilgan.

28.2-jadval


Motor emissiyasi tarkibida uchraydigan moddalarning konsentratsiyasi

№	Moddaning nomi	Chegaraviy yo'l qo'yiladigan konsentratsiyasi , mg/m ³	Agregat holati
1.	Azot oksidlari (NO, ga qayta hisoblaganda)	5	bug'
2.	Oltингugurt ikki oksidi	10	bug'
3.	Benzapiren	0,00015	aerozol
4.	Qo'rg'oshin va uning noorganik birikmalari	0,01	aerozol
5.	Uglerod oksidi	20	bug'
6.	Benzin (uglevodorodlar)	300	bug'
7.	Formaldegid	0,5	bug'

Traktor va avtomobillar motori emissiyasidagi zaharli tashkil etuvchilarini kamaytirishning loyihalash bosqichidagi yo'llariga: yonish jarayonlarini takomillashtirish, eng ma'qul yonilg'i-havo aratashmasini hosil qilishga erishish, motor ishlashiga mos tartibda ishlaydigan azot

oksidiarini qayta katalitik tozalash va qattiq qorakuya zarra chalarini tutib qoluvshi filtrlarni chiqarish tizimini o'rnatish kabi tadbirlar kiradi.


Foydalinish davrida esa, traktor va avtomobilning harakatini yoki motor ishlash vaqtidagi yuklanishining to'g'ri tashkil etilishi hamda qismlar va agregatlarning texnik holati uning yonilg'i sarfida namoyon boladi. Shuning uchun ishlatilgan gazlardagi zararli moddalar miqdorini aks ettiruvchi vositali mezon sifatida yonilg'i sarfidan foydalinish mumkin.



28.1-rasm Yuk avtomobilining 6 t foydali yuklanishdagи tezlik tavsifi

Yonilg'i sarfini, demak, avtomobil ishlatilgan gazlarining zaharliligini kamaytirishda, mos keluvchi harakat tartiblarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. 28.1- va 28.2-rasmarda yuk avtomobili (motori) ning ishlatilgan gazlari tarkibi turli omillarga bog'liq holda ko'rsatilgan.

Ularda avtomobildar foydalinish sharoitlarida yonilg'i sarfi va ishlatilgan gazlar zaharliligini kamaytirishga erishish mumkinligining fizik ma'nosini tushuntiruvchi o'zgarish qonuniyatları keltirilgan.



28.2-rasm Kun mobaynida emissiya tarkibining o'zgarish grafigi

3-§. Traktor va avtomobilning ergonomik xususiyatlari

Traktordagi ishlash sharoiti mashina-traktor agregatiga unumдорligiga katta ta'sir ko'rsatadi, chunki traktorning energiya sig'imi, texnologik va transport operatsiyalarini bajarish tezligi, traktor bilan agregatlanadigan mashinalar va jihozlar soni oshishi natijasida traktorchining ish faoliyati murakkablashadi. Traktorni boshqarish postini qulay qiliш natijasida, haydovchining toliqishini ancha kamaytirish, uni ishdagi noqulayliklardan xalos etish, ish unumдорligini oshirish va eng muhim, umumiш va kasidan kelib chiqadigan kasallanish xavfini kamaytirish mumkin.

Traktor kabinasi tegishli jihozlar bilan traktorchini avariya vaqtida og'ir jarohatlanishdan himoya qilishi, shovqin va vibratsiya darajasini pasaytirishi, ish o'tnidan atrof-manzarani yaxshi kuzatish, qulay kirish va chiqishga, shuningdek, traktorchining antropometrik taysisiga (inson tanasining o'lchamlariga) mos keladigan boshqarish organlari va ishchi o'rning joylashishiga ega bo'lishi kerak. Kabinadagi mikroiqlim tashqi sharoitlarning o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda saqlab turilishi, ventilatsiya tizimi chang va boshqa zararli qo'shimcholardan tozalangan havo berishni ta'minlashi kerak.

Haydovchiga qulay ish sharoiti yaratadigan, ratsional loyihalangan kabina anchagini mablag' talab qiladi. Zamonaviy traktor kabinasining narxi umumiy mashina narxining 40—50% ni tashkil etishini ta'kidlash yetarlidir.

Ishchi o'rni va boshqarish posti. Traktor kabinasi shinam, boshqarish organlari, nazorat-o'lehov asboblari va jihozlari qulay joylashgan bo'lishi lozim.

Vazifa nuqtayi nazaridan, ayniqsa, traktorchining faoliyati kabinada va uning tashqarisida bajariladigan operatsiyalar almashishi bilan bog'liq bo'lgan traktorlarda, ishchi o'rniiga yengil kirib borish muhim hisoblanadi. Kabinaga kirish va chiqishni ta'minlaydigan elementlarga eshiklar, avariya tuyunigi, zinalar va tutqichlar kiradi.


Traktor ko'pincha aholi punktidan uzoqda ishlaysdi, u ag'darilganda esa eshiklar qisilib qolishi mumkin. Shuning uchun uning kabinasi qarama-qarshi tomonlarda joylashgan kamida uecta avariya chiqishi: eshiklar, sindiriladigan oynalar yoki tomdagi tuyruk bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Avariya chiqishlarining o'lehamlari 600 x 600 mm (kvadrat), 470 x 650 mm (to'g'ri burchakli), 700 mm (aylana), 640 x 440 mm (ellips) dan kain bo'lmasligi kerak.

Issiq iqlim sharoitida kabinada mikroiqlimni me'yorida saqlash qurilmalari (ventilatsiya, isitish, havoni mo'tadillash, uni zararli qo'shimchalardan tozalash) kabinaning majburiy jahozi hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan jihozlarni kabinada joylashtirish uchun uning hajmi va gabarit o'lehamlarini, faqat ergonomik talablar sababli boshqarish pultiga kerak bo'lganiga nisbatan, mos ravishda ko'paytirish talab qilinadi.

Ishchi o'rnidan manzara ko'rinishi. Manzara ko'rinishi deganda, me'yordagi kunduzgi yorug'likda va iqlim xalaqit bermaganda, mashinani boshqarish jarayonida (qo'shimcha yordamchi moslamalarsiz) traktori tomonidan ishlaydigan sohalar va kuzatish obyektlarini to'g'ridan to'g'ri ko'rish imkoniyatini ifodalaydigan mashina konstruksiyining xossalari yig'indisi nazarida tutiladi.

Ishchi o'rnidan manzara ko'rinishi kabinaning traktorda qanday joylashishiga ko'p jihatdan bog'liq. G'ildirakli qishloq xo'jaligi traktori uchun kabinaning orqa o'q ustida joylashishi an'anaviy hisoblanadi. Kabina traktor g'ildirak bazasining o'rtasida yoki zanjirli harakatlantiruvchi yurish tizimining o'tta qism sohasida joylashtirilgan kompanovka sxemasi xolis yechim hisoblanadi.

Orqani ko'rish ko'zgularidan foydalananish (tashqarini va kabina ichidan katta tekis ko'zgular) orqani ko'rishni ancha yaxshilaydi.



28.3- rasm. Haydovchi kabinasining ishehi o'rni:

- 1 — ilishish muftasining pedali; 2 — tormozlarning pedallari;
- 3 — rul kolonkasi; 4 — nazorat ko'rsatkichi; 5 — organi ko'rish ko'zgusi;
- 6, 19 — konditsionering yonbosh va orqa filtrlari; 7 — yoritish plafoni;
- 8 — nazorat asbobi; 9 - oldingi faraalar; 10 — konditsionering joylashish bo'shlig'i; 11 — konditsioner havoiga ishlav berish bloki; 12 — oyna tozaigich; 13 — asboblar paneli; 14 - konditsioner havosini resirkulatsiya klapani; 15 — uzib-qayta ulagichlar taxtasi; 16 — boshqarish dastagi;
- 17 — asboblar taxtasi; 18 — konditsioner shlanglari; 20 — boshqarish paneli;
- 21 — uzib-ulagichlar paneli; 22, 23 — uzatmalarni almashtirish va yonilg'i uzatish richaglari; 24 — relening olinadigan konteyneri; 25 — o'rindiq;
- 26 — asboblar va shaxsiy buyumlar uchun quti; 27 — havo olish parjarakuri;
- 28, 29 — to'xtab turish tormozi va boshqarish richaglari;
- 30 — rul kolonkasining egilishini boshqarish pedali

Traktorchiga kerakli ko'rish axborotini yetkazib berishning istiqbolli choralari televizion qurilmalar va grafik mnemosxemalar, yorug'lik va tovush signallari ko'rinishida axborot beruvchi turli tuzilmalar qo'ilashdir.

Kabinani issiqlik, shovqin va vibratsiyadan himoyalash. Kabinetlarni loyihalashda va ularni traktorda joylashtirishda traktorchini shovqin, vibratsiya va iqlim omillarining ta'siridan himoya qilish qoida tarzida birga ko'rildi va yechiladi.



Kabinaga yoz vaqtida kirayotgan issiqlik miqdori (kabinetning issiqlik yuklanishi) kabina ichidagi issiqlik ajralishidan (traktorchi va mexanizmlardan) hamda tashqaridan kirayotgan issiqlikdan (motor, transsmissiya, oyna orqali quyosh radiatsiyasi, quyoshda qizigan to'siqlar va tashqaridagi havodan) yig'iladi.

Traktorlarda motordan va transmissiyadan issiqlik kelishi anchagini katta bo'lishi mumkin, chunki qator hollarda kabina motor bo'linmasiga bevosita tutashgan va issiq havo oqimi motor sovitish tizimining radiatoridan ventilator bilan kabina tomoniga pusanadi, transmissiya korpusining yuqori qismi esa ko'pincha kabinetning poli bo'lib xizmat qiladi. Traktor agregatlarida issiqlik ajralishi natijasida uning kabinasi atrofida issiqlik maydoni hosil bo'ladi, undagi havo harorati, ayniqsa, quvvatli motor o'rnatilgan traktorlarda, atrofdagi tashqi haroratdan 10°C ortiq bo'lishi mumkin. Havoda sovitiladigan motor o'rnatilgan traktorlarda havo oqimi ko'ndalang yo'nalishda mashinani kesib o'tadi va kabina atrofidagi havo haroratining oshishi 1,5 — 2°C dan ortiq bo'lmaydi.

Kabinaga motordan va transmissiyadan kelayotgan havo oqimi uni motor bo'linmasidan va transmissiyadan ajratilgan ko'rinishida bajarilganda kamayishi mumkin. Bunday konstruktiv usul bir vaqtida kabinetni vibroisolatorlarga o'rnatish bilan birga ishechi o'rniда shovqin va vibratsiya darajasini kamaytirishning umumqabul qilingan samarali vositasi hisoblanadi.

28.4-rasmida kabinetni traktorda joylashtirishning mumkin bo'lgan variantlaridan biri ko'rsatilgan.

Traktorning (10) shassisida vibroisolatorlarda kabina (9) mahkamlangan. Motor (2) kapot (3) bilan va kabina (9) orasida qandaydir masofada yonilg'i baki (1) joylashgan. Bakning yuqori qismi (5) qiyshi qilib bajarilgan, u yuqoriga egilgan (7) kapot qirrasi bilan birga havo oqimi o'tishi uchun (6) kanal hosil qiladi. Bak yig'ishtiriladigan yo'naltiruvchi (4) to'sma qopqoq bilan ta'minlangan.



28.4-rasm. Kabinani traktorda joylashtirish:

- a — yo'naltiruvchi to'sma qopqoq qurilmasi yilning issiq vaqtida;
- b — qurilma yilning sovuq vaqtida: 1 — yonilg'i baki; 2 — motor;
- 3 — kapot; 4 — yo'naltiruvchi to'sma qopqoq; 5 — bakning yuqoridagi qiyshiqligi; 6 — havo o'tishi uchun kanal; 7 — yuqoriga egilgan kapot qirrasi;
- 8 — kabinaning oldindi oynasi;
- 9 — kabina vibroizolatorlar bilan;
- 10 — traktor shassisi

Yilning issiq vaqtida (28.4-rasm, a) motor qizdirgan havo kabinaning oldindi (8) oynasi tomoniga o'tishi yo'naltiruvchi (4) to'sma qopqoq bilan berkitilgan va u pastga tushirib yuboriladi. Motordan kelayotgan havo oqimi bilan isitilan bakning o'zidan kabinaga issiqlik uzatilishi, ular o'rtaida havo oralig'i borligi uchun ro'y bermaydi.

Yilning sovuq vaqtida (28.4-rasm, b) issiq havo (**4**) to'sma qopqoq bilan kabinaning oldingi oynasiga yo'naltiriladi va uni isitadi, bu uning terlashi va muzlashiga to'sqinlik qiladi.

T-25A va TT3-60 traktorlarida qilinganidek (**1**) bak o'rniغا akkumulator batareyalari bo'lmasini o'rnatish mumkin. Kapotning yonboshlarida motor bo'lmasining oxirida havo oqimini kapot osti bo'shilg'idan kabina tarafga yo'naltirish uchun tik jaluzlar qo'llash maqsadga muvosiqdir. Yoz vaqtida kapot yonbosh panellarni olib qo'yish yo'li bilan motor bo'lmasining tagini ochish bu davrda motorning kabinaga issiqlik ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

Quyosh radiatsiyasining kabinaga ta'siridan samarali himoya vositasi sifatida oynalarni va kabina tomini ekranlash qo'llaniladi. Himoya ekranlarini yupqa list po'iatdan yoki plastmassalardan tayyorlanadi va kabina korpusidan qandaydir (kamida 30–40 mm) masofada, ular orasida ventilatsiyalanadigan havo qatlami tashkil qilib joylashtiriladi.

Issiqlikdani himoyalovchi tonirovkalangan shisha oynalar shaffof to'siqlar orqali kabinaga kiradigan quyosh radiatsiyasini kamaytirish, traktorchini to'g'ri va yer sirtidan aks etib qaytg'an quyosh radiatsiyasidan himoyalashning samarali vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, qator hollarda tashqi quyoshdan himoyalovchi soyabon ayvonchalar qo'llaniladi. Masalan, TT3-60 traktorida orqa oyna tepasida kengligi 300 mm atrosidagi quyoshdan himoyalovchi soyabon qo'llangan, u traktorchini orqa tomondan to'g'ri quyosh nurlari tushishidan saqlaydi, chunki o'rindiq orqa oynaga yaqin joylashgan.

Kabinani vibroizolatorlarga o'rnatish vibratsiya darajasini kamaytirishning keng tarqalgan vositasi hisoblanadi. Eshik bo'shliqlari, oynalar va boshqarish richaglarining chiqish joylariga ishonchli zichlagichlar o'rnatish, vibroizolatsiyalovchi materiallar va ikki qatlamli to'siqlar qo'llash, kabina panellarining vibratsiyasini yo'qotish kabinani sifatli germetiklashni ta'minlashning samarali vositasi hisoblanadi.


Aytib o'tish kerakki, oyna maydonini oshirishga intilish qator hollarda oynaning vibratsiyasi natijasida kabinadagi shovqin darajasining oshishiga olib keladi. Bu hodisani yo'qotish uchun ularni maxsus rezina zichlagichlar bilan panellarda sifatliroq qotirib o'rnatish qo'llaniladi, qator ho'llarda esa qavariq oynalardan foydalilanadi.

Traktorchi o'rindiq ida vibratsiyaning me'yorlanadigan parametrlari (past chastotali vibratsiya) traktor osmasining kerakli parametrlarini tanlash va ressorlangan o'rindiq qo'llash bilan ta'minlanadi (28.5-rasm). Bunday turdag'i o'rindiq (**1**) yostiq, (**2**) suyanchiq, (**3**) taglik va

osma mexanizmini o'z ichiga oladi. Osma mexanizmi (9) kronshteyn, (8) richaglar va amortizatsiyalovchi qurilmadan iborat. Amortizatsiyalovchi qurilma (5) prujinalar, ikkita kronshteyn (4) va (7) dan tashkil topgan. (5) silindrsimon prujina ichidagi tik tebranishlarni so'ndirish uchun (6) gidravlik teleskopik amortizator o'rnatilgan.

Traktorchining og'irligiga bog'liq holda o'rindiq osmasining bikrligini sozlash richagning A, B, D va E o'yiqchalarida (6) amortizator pastki o'qi joyini almashtirish bilan analga oshiriladi. O'rindiq suyanchig'inining qiyalik burchagi xohishga ko'ra 2° dan 22° gacha o'zgartirilishi mumkin. O'rindiq rul kolonkasiga nisbatan 150 mm chegarasida surilishi mumkin.

Kabinadagi mikroiqlimni mo'tadillash va undagi havo muhitini zararli qo'shimchalardan himoya qilish. Amalda traktorlar butun yil



28.5-rasm. Traktorchining ressorlangan o'rindig'i:
1 — o'rindiq; 2 — suyanchiq; 3 — taglik; 4 va 7 — kronshteyn;
5 — prujina; 6 va 8 — richaglar; 9 — osma mexanizmi

davomida foydalanilgani sababli kabinadagi mikroiqlimini mo'tadillash uchun isitish, ventilatsiya, havoni sovitish va tozalash, havoni konditsionerlash qurilmalari kerak bo'ladi.

Turli tortish sinifidagi traktorlar kabinasining hajmi 1,5--3,4 m³ ni tashkil etadi. Traktorchining kabinadagi xavfsizligini ta'minlash uchun, traktor ag'darilganda va kabina korpusi deformatsiyalanganda, uning qobiq elementlari va unda joylashgan jihozlar kirmasligi kerak bo'lgan maxsus soha belgilangan. Shu munosabat bilan havoni konditsionerlash qurilmasini kabinaning yuqori qismida haydovchidan oldinda joylashtrish qabul qilingan. Bu holda nafaqat xavfsizlik sohasi, balki zamonaviy interyer ham ta'minlanadi, shuningdek, kabinaga uzatilayotgan havoni qoniqarli taqsimlash mumkin bo'ladi.

Kerakli havo uzatishni ta'minlaydigan ventilatsiya bloki kabinetalar-dagi **mikroiqlimi mo'tadillash tizimining** umumiy funksional qismi hisoblanadi. Uning asosini, qoida tarzida, spiral korpusli radial markazdan qochma ventilator, ma'lum profildagi parrakli ishchi g'ildirak va yuritmali elektr motori tashkil etadi.

Asosiy blok-modul sifatida bir tomonidan ventilatorlar bilan ikkin-chisiga esa havoni ishlash uchun qurilma (konditsionerning isitkichi va bug'latkichining issiqlik almashtiruvchilari, suv berish uchligi, havo filtri) va bosimni tenglash kamerasi qabul qilingan. Havo filtri bevosita havoni ishlash blokiga uning kirish tomonidan qotiriladi yoki kabinaning istalgan qulay joyiga mahkamlanadi va blokka mos ravishda havo o'tkazgichlar bilan ulanadi.

Traktor mikroiqlimi mo'tadillash tizimi isitkichini suyuq issiqlik tashuvchi yordamida oziqlantirish uchun kerakli issiqlik energiyasiga ega bo'lGANI sababli, isitkichli blokning turli modifikatsiyalarini olish muammo keltirib chiqarmaydi. Xladonli konditsioner yoki adiabatik suv bug'lantirigichli havo sovitkichlarni o'z ichiga oladigan boshqa modifikatsiyalarda ish qiyinroq kechadi. Xladonli konditsionerlarni ularning murakkabligi va yuqori narxi tusayli faqat og'ir sharoitlarda ishlaydigan (sanoat) traktorlar yoki og'ir iqlim sharoitlarida (yuqori harorat, havoning yuqori namligi) qo'llish maqsadga muvosifq.

Qishloq xo'jalik traktorlarida adiabatik suv bug'lantirigichli havo sovitkichlardan foydalaniлади.

28.6-rasmda havo sovitkich o'rnatilgan isitkich bilan (modifikatsiya CHM-1-4 uchta ventilatorlar bilan) uning TT3-60 traktori kabinasida joylashishi ko'rsatilgan. Suv baki bilan nasos kabina polida traktorchi e'rindig'i ostiga joylashgan (rasmda ko'rsatilmagan).

Havo oqimi yo'lliga, uni changdan davriy tozalash uchun, tez olinadigan elementlar yordamida qotirlgan (1) qog'oz filtr o'rnatilgan. Havo kabinaga buriladigan (9) taqsimlovchi panjara (ventilatorlarning har birida bittadan) orqali beriladi. Isituvchining (2) quvursimon-plastinasimon issiqlik almashtiruvchisidan keyin (15) plastmassa panjarada serg'ovak miplast plastinalardan yig'ilgan (14) suv beruvchi uchlik o'rnatilgan.

Issiqlik almashtiruvchi (2) va nasadka (14), pastki qismida suv to'kish uchun (10) patrubkalari bo'lgan poddon bilan jihozlangan va ustidan (11) plasmassa qopqoq bilan yopilgan (16) plasmassa korpusda joylashtirilgan. Korpusda havo nasadkaga kirish joyida, osilib turgan qirrada berilayotgan suv oqimini oqim va tomchilarga ajratadigan tishlari bo'lgan (13) plasmassa ajratkich, chiqishda esa, (12) plasmassa tortqi o'rnatilgan.


(11) qopqoqda (14) nasadkaning piastinalarini yuqori qismi ustidan berilayotgan suvni uzatish uchun teshikli piasmassa trubka (17) va suv oqimini oqim va tomchilarga ajratish uchun tishlari bo'lgan plasmassa taroqlar (18) va (19) joylashtirilgan.

Korpus (16) tortuvchi boltlari (13) bilan po'lat listdan bajarilgan, yon tomonlaridagi kronshteynlar yordamida kabinaga biriktirilgan, bosimni tenglash tashuvechi kameraga biriktirilgan. (4) kameraga qarama-qarshi nasadka tomonidan havo o'tishi uchun teshiklari bo'lgan plasmassa maska (5) va uchta elektr motorli (6) ventilatorlardan iborat bo'lgan ventilator qismi mahkamlanadi.

MT3-80/82 traktorlarida qo'llanadigan mikroiqlimni mo'tadillash tizimi (28.7-rasmi) dag'al (2) va mayin (3) havo tozalash filtrlari bo'lgan, (1) tashqi havo oluvchidan, (4) ichki havo oluvchidan, (5) suv baki filtri bilan, korpusdan isituvchisi va sovituvchisi bilan, sovitilgan yoki isitilgan havoni uzatish va taqsimlash tizimidan iborat.

Isitkichning (6) radiatori (7) va (8) shlanglar bilan motorming sovitish tizimiga birlashtirilgan. Qulf jo'nragi (9) ochilganda issiq suv sovitish tizimidan isitkich radiatoriga kiradi. Elektr motor (11) harakatga keltiradigan markazdan qochirma (10) ventilator tashqarining tozalangan havosini (6) radiatorga uzatadi. Isitilgan havo havo taqsimlash tizimi orqali traktor kabinasiga kiradi. Uning isitish darajasi resirkulatsion tuynuk va to'sma qopqoqlar bilan rostlanadi.

Yoz davrida kabinadagi havoni sovitish mayda zarrachalarga aylantirilgan suv bug'lanishi uchun undan issiqlikni olish hisobiga amalga oshadi.




28.6-rasm. Mikroiqlimni mo'tadillash tizimining kabinada joylashishi:

a — tom bo'shlig'ida joylashishi; *b* — blok konstruksiyasi elementlarining tuzilishi;

- 1 — havo filtri; 2 — issiqlik almashtirgich; 3 — tortish bolti; 4 — kamera;
- 5 — ventilatorlar maskasi; 6 — ventilator; 7 — kabinaning oldingi oynasi;
- 8 — sovitilgan havo oqimi; 9 — havo taqsimlagich panjara;
- 10 — to'kish patrubksi; 11 — qopqoq; 12 — plastmassa torteq;
- 13 — ajratkichi; 14 — nasadka; 15 — panjara; 16 — korpus;
- 17 — teshikli trubka; 18, 19 — taroqlar; 20 — kabina tomining ekran;
- 21 — kabinaning ichki paneli; 22 — tashqi havo oqimi

Siqilgan havo oqimi (12) trubkadan o'tishidan kelib chiqqan siyraklashish ta'sirida suv (5) bakdan (13) quvurchalar bo'yicha (14) purkagichga kiradi. Siqilgan havo traktor pnevmotizimining (15) ressiveridan uzatiladi.



28.7-rasm. MT3-80 traktori mikroiqlimi mo'tadillash tizimi sxemasi:

1 – tashqi havo oluvchi; 2 – dag'al tozalash filtri; 3 – mayin havo tozalash filtri, 4 – ichki havo oluvchi; 5 – suv baki; 6 – radiator;
7 va 8 – shlanglar; 9 – qulfi jo'mragi; 10 – ventilator; 11 – elektr motor;
12 – trubka; 13 – quvurchalar; 14 – purkagich; 15 – ressiver

Blok korpusiga ventilator yo'naltirayotgan tashqarining tozalangan havosi purkagichlardan tushayotgan suvning bug'lanishiga issiqqlikni beradi, bunda havo namlanib taqsimlash tizimi orqali kabinaga kiradi.

Sovitish qurilmasining me'yorida ishlashi uchun filtrlarni davriy yuvib turish va har 5–6 soat ishlashdan so'ng (5) bakka suv qo'shib turish talab etiladi.

Nazorat savollari

1. Traktor yurish qismining tuproq hosildorligiga salbiy ta'sirini tushintiring.
2. Motor chiqindi gazlari tarkibiga benzinli va dizel motorlarda qanday cheklanishlar qo'yilgan?
3. Chiqindi gazlarining zaharlilikini kamaytirish uchun qanday choralar ko'rildi?
4. Traktor kabinasining ergonomik qulayligi qaysi ko'satkichlar bilan belgilanadi?
5. Traktor kabinasidagi mikroiqlim qanday umalga oshiriladi?
6. Traktor kabinasidagi shovqinni kamaytirish usullarini aytib bering.

29.-bob. G'ILDIRAKLI TRAKTORLAR VA O'ZIYURAR SHASSHLARNING QISQACHA TAFSILOTI

1-§. T-25A traktori

T-25A traktori (29.1-rasm) 1966–1972-villarda Xarkov traktor zavodida chiqarilgan T-25 traktorini takomillashtirib ishlab chiqilgan va 1973-yildan boshlab Vladimir traktor zavodida chiqariladi. Bu to'rt g'ildirakli ramasiz traktor bog'-polizlarda ishlatishga mo'ljallangan (0,6 t sinf traktorlar qatoriga kiradi).

Traktorga to'rt taktli, ikki silindrli havo bilan sovitiladigan dizel motor o'rnatilgan. Motor elektr startyor bilan yurgizib yuboriladi, sovuq vaqtida yurgizib yuborishni yengillashtirish uchun qizdiruvchi traktorga Й-37M motori asosida yasalgan ikki silindrli Й-21A-1 dizel o'rnatilgan, ularning 75% ga yaqin detali bir xil tuzilishga ega.

Motorda yonilg'i bevosita porshenning yarim sferik kamerasiga purkalib aralashma hosil qilinadi. Siqish darajasi — 16; tirsaklı vali daqiqasiga 1800 marta aylanadi; quvvati — 25 o.k. (18,3 kW). Silindrinining diametri — 105 mm; porshenining yo'lli — 120 mm; silindrлarinining ish hajmi — 2,07 l.

Motorning qovurg'ali qilib ishlangan silindrлari karter teshigiga o'rnatilib, shpilkalar bilan mahkamlangan; silindr kallagi ham aluminiy



29.1-rasm. T-25A traktori

qotishmasidan qovurg'ali qilib quyilgan. Porshenining uchta kompression va ikkita moy sidiruvchi halqasi bor; moy sidiruvchi halqalariga xrom qoplangan.

Taqsimlash vali karterning o'ng tomonidagi cho'yan vtulkada aylanadi. Kiritish, chiqarish klapanularining kulachoklari bir xil profilli qilingan. Gaz taqsimlash fazasi Δ -37M dizelidagidek; kiritishi va chiqarish klapanlarining issiqlik tirqishi — 0,3 mm.

Havo bilan sovitish tizimi ventilatorining tasmasi avtomat ravishda rostlanadi. Moylash tizimi kombinatsiyalangan. Moy filtri tizimga ketma-ket ulangan sentrifugadan iborat.

Motorga HJ-21/2 markali bir plunjерli yonilg'i nasosi o'rnatilgan. Yonilg'i uch sidra tozalaniб (forsunka shtutserida ham filtr bor), $170+5$ kg/sm² bosimda purkaladi; yonilg'ining solishtirma sarfi — 195 g/e.o k.s.

Motorga Г-302 markali o'zgartuvchan tok generatori o'rnatiladi, quvvati — 180 W. Traktoring massasi — 1780 kg, uzatmalar qutisi oldinga 8 ta va ketinga 6 ta uzatmaga ega. Oldinga harakat tezliklar diapazoni — 1,8—21,6 km/soat.

Traktoring balandligini (agrotexnik tirqishni) asosiy, past va baland bo'lgan uch holatga o'zgartirish mumkin.


2-\$. T-16M o'ziyurar shassi

O'ziyurar shassi — motori va kuch uzatish qismi umumiyl aggregat tarzda biriktirilib, traktorchi o'rindig'i ketiniga joylashtirilgan to'rt g'ildirakli universal traktordir. Traktor ramasiga turli qishloq xo'jalik mashinalari yoki o'zi ag'dariladigan platforma o'rnatish muunkin.

T-16M markali o'ziyurar shassi (29.2-rasm) Xarkov traktor o'ziyurar shassi zavodida 1967-yildan boshlab chiqariladi U 0.6 t sinif traktordarga oiddir. T-16M markali o'ziyurar shassiga T-25 traktoriga o'rnatiladigan Δ -21A-2 markali dizel motori o'rnatilgan.

Tishlashish mustasi muttasil qo'shilgan bir diskli quruq musta bo'lib, mustaqil quvvat olish valini harakatga keltirish uchun qo'shimcha mustasi ham bor. Traktoring kuch uzatish qismi ixcham joylashtirilib, olti turli uzatmada oldinga va bir uzatmada ketinga yurishga imkon beradi. Bundan tashqari, sekinlashtiruvchi uzatmasi ham bor. Differensiali blokirovkalash mexanizmi bilan ta'minlangan. Oldinga harakat tezliklar diapazoni — 5,5—23,2 km/soat.

Yurishni sekinlashtirgich orqali uzatmadagi harakat tezligi — 1,6 km/soat.



29.2-rasm. T-16M o'ziyurar shassi

O'ziyurar shassining to'rtta quvvat olish vali bor. Ulardan bittasi traktor bo'ylama o'qiga parallel joylashtirilgan mustaqil privodli, boshqalari nomustaqligini privodli bo'lib, uzatmalar qutisi ikkilamechi valining uchi va ketingi g'ildiraklari valining ichkari tomondag'i uchlaridir.

Shassining rul uzatmasi ikki just konus shesternadan iborat. Oldingi va ketingi g'ildiraklari oralig'i kengligini rostlash mumkin. Traktorning asosi yarim ramali. Shassi tirkash moslamasi, harakatlantirish shkivi, yetakchi g'ildiraklar izini yumshatuvchi panjalar va alohida agregatli gidravlik o'rnatish tizimi bilan uskunalangan. Shassining 1 m² sig' imli platformasi bo'lib, unga 750 kg gacha yuk ortish mumkin.

Shassining foydalanish massasi — 1810 kg. Zarurat tug'ilganda tent bilan o'raladigan eshikli karkas o'rnatish ko'zda tutilgan.

3-§. T-40M traktori

T-40M traktori (29.3-rasm) Lipetsk traktor zavodida 1972-yildan boshlab chiqariladi. Bu to'rt g'ildiraklı universal traktor bo'lib, 0,9 t sinif traktorlarga oiddir. U chopiq qilinadigan ekinlarga ishlov berish va yig'ishtirish, yengil yerlarni haydash, ekish, pichan o'trim-yig'imi, shuningdek, transport ishlariga mo'ljalangan.

T-40M traktori an'anaviy joylashuvdagi konstruksiyasi yarim ramali. Unga quvvati 50 o.k. ga yetkazilgan to'rt silindrlı havo bilan sovitiladigan D-37M motori o'rnatilgan. Traktor motori elektr startyor yoki yurgizib yuborish motori bilan ishga tushiriladi. Oldingi va ketingi g'ildiraklarining orasi (1200–1800 mm) va yerdan balandligi (500–650 mm) o'zgartirilishi mumkin. Traktorga muttasil qo'shilgan quruq ilashish muftasi o'rnatilib, asosiy ilashish muftasi va mustaqil quvvat olish



29.3-rasm. T-40M
traktori

valining ilashish mustasiga birlashtirilgan, ammo har qaysisi alohida pedal bilan boshqariladi.

Traktorga vallari ko'ndalang joylashtirilgan oldinga va ketinga yetti uzatmali uzatmalar qutisi o'rnatilgan. Uzatmalar qutisi va asosiy uzatma umumiy karterga, oxirgi uzatmalar yetakechi g'ildiraklar yoniga joylashtirilgan. Differensiali yopiq turda bo'lib, blokirovka mexanizmi bor. Traktor oldinga va keninga qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda 1,6 km/soat dan yuk tashishda 26,7 km/soat gacha tezlikda harakat qilishi mumkin. Traktorning sinxron va mustaqil harakatga keltiriladigan ketingi va yon quvvat olish vali bor. Rul uzatmasi chervyakli bo'lib, gidravlik kuchaytirgich bilan uskunalangan. Traktor alohida agregatli o'rnatish tizimiga ega bo'lib, o'rnatish mexanizmi tortqisining biriktirilish nuqtasini o'zgartirib, yetakechi g'ildiraklarni vazminlashtirish mumkin.

Traktorning yetakechi g'ildiraklariga 11-38" (qator oraliqlari ensizroq bo'lganda esa 9-42") o'lchamli, oldingi g'ildiraklariga 6,5-16" o'lchamli shinalar o'rnatiladi. Asos yarim ramali, kabina yopiq tipda qilingan. Traktorning og'irligi — 2570 kg. Traktorning barcha g'ildiraklari yetakechi qilingan modifikatsiyasi T-40A markasi bilan chiqariladi.

4-\$. TT3 100.K11 traktori

TT3 100K.11 traktori Toshkent traktor zavodida 1997-yildan ishlab chiqarilmogda. U uch g'ildirakli qishloq xo'jaligida qator oralari 60 va 90 sm bo'lgan paxta va boshqa baland poyali ekinlarga ishlov berish va hosilini yig'ishtirib olish ishlarini mexanizatsiyalashga mo'ljal-

langan. Traktor bilan paxta va boshqa turli qishloq xo'jalik ekinlariga ishlov berish va hosilini yig'ish mashinalari, o'g'itlash, zaharli dorilar sepadigan mashinalar o'rnatma, yarim o'rnatma va ekish uchun yerga ishlov beradigan mashina hamda agregatlar ishlataladi.

Traktorga zichlangan bir o'rinni kabina, rul boshqarmasining hajmiy gidravlik kuchaytirgichi va «Kamminz» firmasining qatorli sovitiladigan to'rt takti 4BT-3,9-A-92 modelidagi dizel motori o'rnatilgan. Motor startyor yordamida ishga tushiriladi.

Traktor tuzilishida katta manzara ko'rinvchanligi, kichik burilish radiusi, turli xil shinaflar o'rnatilishi ko'zda tutilgan bo'lib, undan ham keng va ham tor qator oralarida ishlov berishda foydalanish mumkin.

Kabina tayanchlar orqali zARBni so'ndiruvchilar yordamida ilashish mustasining karteriga va qo'shimcha oxirgi uzatmalar yarim o'qlarining g'iloflariga mahkamlanadi. Kabina haydovchining mehnati va xavfsizligi uchun kerakli sharoitlarni ta'minlovchi ressorlangan o'rindiq va boshqa uskunalar bilan ta'minlangan. Traktor asosiga uning barcha mexanizmlari o'rnatilib mahkamlanadi. Oldi to'sin ichiga burilish mexanizmi joylashgan, uning harakatlanuvchi halqasiga esa, oldingi o'qning vilkasi mahkamlanadi. Halqa korpus ustida joylashgan rul boshqaruvingning ikkita ish silindrлari bilan boshqariladi. Motoring old qismi amortizatsiyalovchi osma orqali asosga, orqa qismi esa, ilashish muftasining karteriga mahkamlanadi. Motoring oldi va ust qoplarna bilan yopilgan.

Uzatmalar qutisi, asosiy uzatma, differensial mexanizmi, differensialni blokirovkalash va oxirgi uzatmalar transmissiya korpusi deb ataluvchi yagona korpus ichida joylashgan. Qo'shimcha oxirgi uzatmalar traktor yetakchi g'ildiraklarining orasini 1800–2400 mm oralig'iда rostlashga imkon beradi. Traktoring ketingi g'ildiraklar yarim o'qlari g'iloflarining ostida agroteknik tirqishi — 830 mm.

Oxirgi uzatmalarning to'g'ri tishli silindrik shesternalari transmissiya korpusida joylashgan. Qo'shimcha oxirgi uzatmalarning to'g'ri tishli silindrik shesternalari alohida karterlarda joylashgan.

Traktoring diskdagи osma og'irligini oshirish uchun orqa qismiga qo'shimcha yuklar o'rnatish mumkin. Traktoring boshqariluvchanligini yaxshilash maqsadida, uning oldi qismiga yuklar o'rnatish ko'zda tutilgan. Qishloq xo'jalik mashinalari ishchi organlarini harakatga keltirish uchun traktor orqa va yon quvvat olish vallari bilan jihozlangan.

Uzatmalar qutisi oldinga yurishda 9 ta, orqaga yurishda 3 ta uzatmaga ega. Traktoring eng kichik va eng katta ish tezligi — 2,96–5,77 km/soat; eng kichik va eng katta tezligi — 3,36–11,15 km/soat.

Dizel motorining nominal quvvati 67,7 kW (92 o.k.) bo'lib, nominal quvvatda yonilg'ining solishtirma sarfi — 219 g/kW·soat (158 g/o.k. · soat). Salt yurishda eng kichik barqaror aylanishi, ko'pi bilan 800 ayl/daq. Tirsakli valning nominal aylanish tezligi — 2100 ayl/daq. Motor tirsakli vali nominal chastotada aylanganda orqa valning eng katta quvvat olishi — 62,2 kW, bunda yoqilg'ining solishtirma sarfi — 279 g/kW·soat. Eng katta burovchi moment — 359 N·m.

Ilashish muftasi ikki oqimli, asosiy ilashish muftasi va QOV ilashish muftasidan iborat bo'lib, ularning har biri ishqalanma, quruq, yakka diskli, doimiy qo'shilgan turga mansub.

O'rnatma va yarim o'rnatma qishloq xo'jalik mashinalari va qurollarini boshqarish uchun traktor osma gidravlik tizim bilan jihozlangan. To'rt zvenoli sharnirli turdag'i mexanizmga o'rnatilgan qishloq xo'jalik qurolli sharnirli turdag'i mexanik usulda tutib turiladi. Osma tizimning yuk ko'tarish qobiliyati — 1100 kg. Qishloq xo'jalik quroliga uch nuqtada birlashtiriladi.

Shesternali Hu32-3 nasosdan harakat oladigan ayrim agregatli gidravlik tizimning saqlash klapani cheklaydigan bosim — 17,5_{1,5} MPa. Gidrotizimda ishlataladigan suyuqlik moyi markasi dizelning karterida yilning shu vaqtiga mos. P80-3/1-222 markali gidravlik taqsimlagich uch zolotnikli.

Taqsimlagich dastalari «ko'tarish» va «tushirish» holatlardan betaraf holatga avtomatik tarzda qaytadi. Taqsimlagich zolotnigining vaziyatlari soni 4 ta (betaraf, ko'tarish, tushirish, erkin). Rul boshqarma mexanizmning qo'shimcha gidravlik tizimi gidrohajmiy turda. Ijrochi mexanizm shtokning yo'li 160 mm bo'lgan 2 ta C40 silindrdan iborat.

Traktoring elektr jihozlari 12 V kuchlanishli o'zgarmas tokda ishlaydi. Kabinada haydovchi o'rindig'i ressorlangan, yumshoq, xavfsizlik tasmasi va mahkamlanadigan qurilmasi bor. Yonilg'i baki haydovchi o'rindig'ining ostida joylashgan.

Eng kichik burilish radiusi — 3,44 m, tormozlanish yo'li, 5,2 metrdan ko'p emas.

Shinalar: old g'ildirakniki 12—15 Л-168 modeli 3810, orqa g'ildiraklarniki 15,5 Р 38 yoki 13,6—38. Shinalardagi havoning bosimi ko'pi bilan: 12—16" — 0,25 MPa; 15,5R38—0,18 MPa; 13,6—38 — 0,16 MPa.

Traktoring xizmat muddati 10 yilga mo'ljallangan.

TT3 100K.11 traktoring to'rt g'ildirakli transport modifikatsiyasi TT3 100K.10 markasi bilan chiqariladi.

5-\$. MT3-80, TT3-80X va MT3-82 traktorları

«Беларус» markali MT3-80 va MT3-82 traktorlari Minsk traktor zavodida 1970-yildan boshlab chiqariladi. MT3-80 traktori 1,4 t sinfga oid to'rt g'ildirakli universal traktor. Chopiq qilinadigan ekinlarni ekish va qator oralarini ishlashda, sabzavotchilikda, bog' va tokzorlarda transport ishlariда keng qo'llaniladi.

Traktorga to'rt taktli, to'rt silindrli, uyurma kamerali quvvati 80 o.k. (57 kW) bo'lgan Д-243 motori o'rnatilgan. Motor ancha ixcham, mustahkam va yengillashtirilgan. Motoring silindrlari bir blokka joylashtirilib, quyma gilzali qilingan va umumiy kallak bilan yopiladi. Tirsakli vali beshta o'zak bo'yinli bo'lib, posangilar yo'q.

Motorga УТН-5 markali to'rt plunjerli yoki ОНМ-4 markali bir plunjerli taqsimlovchi yonilg'i nasosi o'rnatiladi. Havo tozalagichi kombinatsiyalangan tipda yasalgan. Yonilg'i bakining mexanik usulda yonilg'i quyish moslamasi bor.

Moylash tizimi ketma-ket ulangan reaktiv sentrifugali, kombinatsiyalangan tizimdir. Motor suv bilan sovitiladi. Ventilator va suv nasosi bir valga o'rnatilib, tasma orgali tirsakli valdan aylantiriladi. Radiatorning yuqorigi qisqa quvuriga termostat qo'yilgan. Motor elektr startyor bilan dizel yonilg'isida o't oldiriladi. Yurgizib yuborishni osonlashtirish uchun yonish kamerasiga cho'g'lanish svechasi o'rnatilgan. Motoring dekompressiya mexanizmi yo'q.

Traktorga bir diskli muttasil qo'shilgan quruq ilashish mustasi o'rnatilgan. Uzatmalar qutisi oldida burovchi moment kuchaytirgichi bor. Uzatmalar qutisi yordamida traktor 22 xil uzatmada oldinga va 8 xil uzatmada ketinga harakat qiladi. Asosiy uzatmasi spiral tishli, differensiali yopiq tipda bo'lib, avtomatik blokirovka mexanizmi bor. Oxirgi uzatmalarini ham ketingi ko'prik korpusiga joylashtirilgan.

Traktoring quvvat olish vali mustaqil va sinxton aylantiriladi. Orqa quvvat olish vali ikki tezlikda ishlaydigan qilib bajarilgan. Quvvat olish valining reduktori planetar tipda bo'lib, ketingi ko'prikka joylashtirilgan. Traktor oxirgi uzatmasi yetakchi shesternalari valining uchiga diskli tormoz o'rnatilgan.

Rul uzatmasi chervyakli tipda bo'lib, gidravlik kuchaytirgichi bor. Yetakchi g'ildiraklarining sirpanib g'ildirashini kamaytirish uchun traktoring gidravlik vazminlashtirgichi bor. Vazminlashtirgich traktoring ayrim agregatlari o'rnatish tizimi bilan birligida ishlab, uning moy nasosidan ta'minlanadi.

Traktorning universal pnevmatik tizimi tirkamalarning tormoz yuritmasi va shinalarga dam berish uchun xizmat qiladi. Traktorning og'irligi — 3160 kg.


TT3-80X traktori (29.4-rasm). Keng qatorli g'o'zalarni ishlash, 6—8 qator ishlaydigan mashinalarni, shuningdek 4 va 6 qatorli paxta terish mashinasini o'rnatish, turli xo'jalik ishlarni bajarishda keng qo'llaniladigan 1,4 t sinf universal traktor. Bu traktor ham MT3-80 traktori asosida vujudga keltirilib, tegishli sinovlardan o'tkazilgach 1974-yildan boshlab Toshkent traktor zavodida ko'plab ishlab chiqarila boshlangan.

MT3-80 traktoriga nisbatan TT3-80X traktorining oldingi o'qi, oldingi g'ildiragi, rul mexanizmi o'zgartirilgan. TT3-80X traktori uch g'ildirakli bo'lib, oldingi yakka g'ildiraklarga 12 — 16" o'lchamli shina o'rnatilgan. MT3-80 traktorining burovchi moment kuchaytirgichi o'rniga harakat yo'nalishini o'zgartirish mexanizmi o'rnatilgan.

Traktorni yerdan balandroq (830 mm) ko'tarish uchun qo'shimcha oxirgi uzatma qilingan. Ketingi g'ildiraklariga 15—30" o'lchamli shina o'rnatiladi. Ketingi g'ildiraklari orasi kengligini 1800—2400 mm qilish mumkin. Oldingi g'ildiraklariga 1,7 kg/sm², ketingilariga 1,1 kg/sm² dam beriladi. Traktorning tortish kuchi 250—1400 kg chegarasida, og'irligi — 3348 kg.

Oldinga harakat tezliklari diapazoni — 0,6—33,4 km/soat.

MT3-80 traktori asosida yasalgan MT3-82P traktori sholipoyalarda ishlatalishga mo'ljallangan.



29.4-rasm. TT3-80X traktori

MT3-82 traktori (29.5-rasm). Bu traktor ham 1,4 t sinf g'ildirakli traktor bo'lib, oldingi g'ildiraklarining yetakchiligi bilan MT3-80 dan farq qiladi. Shuning uchun oldingi ko'prigi o'ziga xos tuzilishga ega va oldingi yetakchi g'ildiraklariga harakat uzatish uchun tegishli qismlar: oraliq shesterna orqali uzatmalar qutisidan harakat oladigan erkin yurish multasi, bir bosqichli qo'shimcha quti, oraliq tayanchli (oraliq va oldingi) kardan val o'rnatilgan.

Qo'shimcha qutining erkin yurish multasi keti g'ildiraklar ortiqcha sirpanib g'ildiraganda oldingi yetakchi ko'priksi avtomat usulda ishga soladi, shuningdek, uni alohida pedal bilan qo'shish ham mumkin, ya'ni oldingi g'ildiraklar zarur bo'lsagina yetakchi g'ildiraklar sifatida aylantiriladi.

MT3-82 traktori oldingi g'ildiraklari yetakchi bo'lganligi uchun oldingi ko'prigida asosiy uzatma, o'zicha blokirovka qilinadigan ko'p diskli differensial, konus shesternali, ikki bosqichli reduktorli bor. Oldingi ko'priks ishga solinganda oldingi g'ildiraklarning birortasi sirpanib g'ildirasa, differensial avtomat ravishda g'ildiraklar valini baravar tezlikda aylanishga majbur qiladi, buning uchun satellitlar yonida friksion disklar bor.

Traktor rul boshqarmasi yordamida burilganda g'ildiraklar duch keigan qarshilik differensial disklarining kuchini yengib, uni odatdagicha ishlashga majbur etadi. Traktoring og'irligi — 3160 kg. Traktoring oldingi g'ildiraklariga 8—20" o'lchamli shina o'rnatilgan.



29.5-rasm. TT3-82 traktori

1-\$. УАЗ-452Д va УАЗ 3303 avtomobilari

УАЗ-452Д avtomobili (30.1-rasm) 0,8 t yuk ko'tara oladigan avtomobil bo'lib, 1966-yildan boshlab Rossiyaning Ulyanov avtomobil zavodida chiqariladi. Bu avtomobil yaxlit metall kabina, uchta borti ochiladigan platforma bilan uskunalanib, turli yo'l sharoitlarida yengil va ixcham yuqlarni tashishga mo'ljallangan, to'rtala g'ildiragi yetakchi kichik yuk avtomobilidir.

УАЗ-452Д avtomobilining motori oldinga siljiturilib, kabinadagi o'rindiqlar o'rtasiga joylashtirilgan. Buning natijasida platforma sathi ancha kengaytirilgan.

Avtomobilga УАЗ-451 markali motor o'rnatilgan, motor silindrining diametri — 92 mm, porshenining yo'li ham 92 mm, tirsaklı valining aylanishlari soni — 4000 ayl/daq, 70 o. k. quvvat beradi.

Motoring to'rtala silindri alumin blok-karter ichiga joylashtirilib, alumin kallak bilan yopiladi. Silindrлari olinadigan gilza ko'rinishida qilinib, tepe tomoniga qisqa «quruq» gilza presslangan. Tirsaklı vali cho'yandan quyilgan, beshta o'zak podshipnigi bor, o'zak va shatun bo'yinlarining ichi kovak qilinib, tijinlar burab qo'yilgan.

Taqsimlash valining beshta bo'yni bor. Turtkichlari stakan nusxa; klapanlari kallakka joylashtirilgan, kiritish klapanining tarelkasi tekis, chiqarish klapaniniki o'yqli qilingan. Motor silindrлarining ishlash tartibi 1-2-4-3.

Sovitish tizimida SUV kallakdagina majburan harakat qiladi, blok SUV ko'ylaklaridagi SUV termosifon prinsipida harakat qiladi, chunki nasos suvni kallakka haydaydi.

Moylash tizimida moy radiatori yo'q; dag'al filtr plastinali, mayin filtri ASFO tipida, ko'pchilik qismlari bosim bilan moylanadi. Motorga diffuzordagi siyraklanishni o'zgartirib dozalovchi uch diffuzorli K-22И karburatori o'rnatilgan, benzin nasosi va havo tozalagichi ГАЗ-51А avtomobilining motoridagidek.

УАЗ-452Д avtomobiliga 6-СТ-54-ЭМ markali akkumulatorlar batareyasi, 250 W quvvatli F-12 markali o'zgarmas tok generatori,

1,5 o.k. quvvatlari CT-21 markali startyor va hozirgi avtomobillarda qo'llanadigan boshqa elektr asboblar o'rnatilgan.

Hushish mustasi bir diskli, quruq, yetaklanuvchi diskining prujinali gupchagi va tebranishlar so'ndirgichi bor. Uzatmalar qutisi to'rt pog'onali, uch yo'lli, uechinchi va to'rtinchi uzatmasi sinxronizatorli qilingan. Tarqatish qutisining shesternalari to'g'ri tishli, u uzatmalar qutisining orqasiga mahkamlanadi.


Yetakchi ko'priklarga ikkita sharnirli kardan val orqali harakat uzatiladi. Asosiy uzatmasi spirai tishli konus shesternalardan iborat; differensialning to'rtta satelliti bor. Oyoq tormizi kolodkali — barcha g'ildiraklariga ta'sir etib, gidravlik privod bilan jihozlangan; qo'l tormizi tarqatish qutisi valiga o'rnatilgan. mexanik privodli kolodkali tormozdir.

Rul mexanizmi globoidal chervyak va qo'shaloq rolikdan iborat, oldingi va ketingi g'ildiraklar osmasi bo'ylama yarim ellips ressorlardan iborat. Osimasining gidravlik amortizatorlari ikki yoqlama ishlaydi.

G'ildiraklariga 8.40—15" o'lchamli shinalar o'rnatilgan, ularga 2—2,5 kg/sm² dam beriladi. Kabinasi yaxlit metalldan yasalgan, sovuq vaqtlarda isititadi, kuzovi uch tomoni ochiladigan bortli platformadan iborat. Yonilg'i bakining sig'imi 56 l, A-76 benzinda ishlaydi, har 100 km ga 12 l benzin sarf qiladi. Avtomobilning ishga tayyor holdagi og'irligi — 1670 kg.



30. I-rasm. YAZ-452L avtomobili



.30.2-rasm. УАЗ 3303 yuk avtomobili va УАЗ 2206 mikroavtobusi

УАЗ-452Д avtomobili asosida sanoat mollari tashish uchun, meditsina xizmati ko'rsatish uchun moslashtirilgan kuzovli ixcham avtomobillar ham chiqariladi.

УАЗ 3303 avtomobili 1996-yildan boshlab Ulyanovsk avtomobil zavodida УАЗ-452Д avtomobilining o'rniiga chiqarilmoqda. Avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati oshirilgan, yangi oshirilgan quvvatlari Ulyanovsk motor zavodining УМЗ-4213 markali benzinli motori o'rnatilgan.

Motoring quvvati — 98 o.k., ishchi hajmi — 2,89 l. Motoring silindrlar bloki aluminiy qotishmasidan quylgan bo'lib, unga yupqa devorli choyan gilzalar o'rnatilgan. Buning natijasida blokning bikirligi oshirilgan va ishqalanishni yengishga sarflanadigan ichki yo'qotishlar kamaygan. Yangi motorda yonilg'i va moy sarfi kamayishi hisobiga tejamkerlik oshgan.

Yuqori o'tag'onlikka ega bolgan УАЗ 2206 mikroavtobusi (30.2-rasm) 11 ta yo'lovchini tashishga mo'ljallangan. Bu avtomobilning konstruksiyasi ramali, bir butun metall kuzovga ega. УАЗ 3962 markali modeli esa, tez tibbiy yordam uchun mo'ljallangan.

2-§. Damas avtomobili

Kichik gabarit o'lchamli yapon masinalari asosida yaratilgan Damas avtomobilini 1991-yildan Koreyaning DAU korporatsiyasida ishlab chiqarila boshlangan (30.3-rasm).

Xitoyda DAU Damas Wulin nomi bilan ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 1996-yildan boshlab O'zbekistonda Asaka avtomobil zavocida ishlab chiqarilmoqda. Besh eshikli bu avtomobilning kuzovi miniven



30.3-rasm. Damas avtomobili

turida, haydovechi va 6 yo'lovchiga mo'ljallangan. Tor ko'chalarda, kichik yo'lklarda foydalanish uenun juda qulay.

Motorning quvvati 5000 ayl/daqiqada 38 o.k. ga teng. Mikroavtobusning uzunligi, kengligi va balandligi — 3230x1400x1920 mm.

Daewoo Damas 0,8 modifikatsiyasining maksimal tezligi — 112 km/soat; 100 km/soat tezlikka erishguncha shig'ov vaqt 24,5 soniya; motorning ishchi hajmi — 796 sm³; aralash siklda harakatlanganda 100 km yo'lga yonilg'i sarfi — 9,4 l.

3-§. KAMAZ avtomobili

Kamaz avtomobili uzoq masofalarga og'ir yuk tashuvchi avtomobillar sinfiga kiradi.

Kamaz avtomobillari Rossiyaning Naberejniye Chelni shahrida joylashgan Kama avtomobil zavodida ishlab chiqariladi.

Avtomobilning yuk ko'tarish qobiliyati — 14 t. Avtomobilning og'irligi — 19050 kg, to'liq yuklangan massasi — 25200 kg, og'irligi 13000 kg bo'lgan tirkama bilan birga ishlay oladi (30.4-rasm).

Avtomobilga quvvati 280 o.k. bo'lgan 740.62-280 (Espo-3) modeldag'i Kamaz motori yoki Cummins 6ISBe 285 (Espo-3) modeldag'i quvvati 285 o.k. bo'lgan Cummins dizel motori o'rnatiladi. Yonilg'i bakining hajmi — 250 l.

Dizel motori puflanayotgan havoni oraliqda sovitadigan turbopulfagich qurilma bilan jihozlangan.



30.4-rasm. Kamaz avtomobili

Kamaz-154 markali ko'p pog'onali uzatmalar qutisi o'nataladi.

G'ildiraklar diskli, shinasi pnevmatik kamerali, 7.5—20" (190—508) gardishga o'rnatilgan 11.P20" (300 P508) o'lchamga ega.

To'liq yuklangan holda maksimal tezligi 80 km/soatdan, qiyalik yo'lda ko'tarilish burchagi — 25°dan kam emas.

Kamaz avtomobilining elektr jiho'lari 24 V kuchlanishli o'zgarmas tekda ishlaydi, akkumulatori ikkita 12 V li 190 A·soat batareyadan tuzilgan. Generatorining kuchlanishi — 28 V, quvvati esa 2000 W.

Hushish muftasi quruq, diafragmali, ikki diskli, tarkibida pnevmatik kuchaytirgichi bo'lgan gidravlik yuritma bilan boshqariladi. Asosiy uzatmaning uzatishlar soni 5,43 yoki 5,94.

Avtomobilning baland tomli kabinasi motor ustida joylashgan. Tormozlari pnevmatik yuritma bilan boshqariladi. Tormoz barabanning diametri — 400 mm, tormozlovchi qoplamaning kengligi 140 mm.

4-§. Qishloq xo'jalik statsionar motorlari

Bir joyda qo'zg'atmay ishlataladigan qishloq xo'jalik mashinalari, chovachilikni mexanizatsiyalashda qo'llaniladigan mashinalar va elektr generatorlar statsionar motorlar bilan harakatga keltiriladi.

Agar bunday mashinalar (ko'sak chuvish, don yanchish mashinalari va boshqalar) bir joydan boshqa joyga tez-tez ko'chirib turilsa, ular traktorning quvvat olish validan harakatga keltiriladi va traktorga tirkab bir joydan ikkinchi joyga ko'chiriladi. Ba'zi xo'jaliklarda mashinalar (suv nasoslari, ventilatorlar) bir joyda ishlatalishiga qaramay, traktor bilan harakatga keltiriladi. Bu texnik-iqtisodiy jihatdan to'g'ri emas, chunki traktorning faqat motori ishlatalib, uning quvvatidan to'la foydalanilmaydi.

Shuning uchun bunday hollarda elektr motorlardan yoki maxsus statsionar motorlardan foydalilanlgani ma'qul.

Qishloq xo'jaligida statsionar va ko'chma qurilmalarni harakatga keltirish uchun elektr motorlardan tashqari, benzинli va dizel motorlar ham qo'llaniladi. Bu motorlar jun qirqish agregatlari, ko'chma kichik elektr stansiyalar, purkagich-changlagichlar, aerosol generatorlar, don tozalagichlar, suv nasoslari, kompressorlar, quritish qurilmalari, qurilish mashinalari, ustaxona dastgohlari va boshqa uskunalarni harakatga keltirish uchun qo'llaniladi.


Д-240 va Д-245 motorlari. Bu motorlarni Belorus Respublikasining Minsk motor zavodida ishlab chiqariladi.

Д-240 motori to'rt taktli, to'rt silindrli dizel bo'lib, foydalishdagи quvvati tirsaklı valning 1800—2200 ayl/daq aylanish takroriyligida 44—55 kW (60—75 o.k.) ni tashkil etadi. U kuch agregati sifatida g'ildirakli va o'rmalovechi zanjirli traktorlarga va turli qurilmalarga o'rnatiladi.

Д-245 dizelining tirsaklı vali 2200 ayl/daq takroriylik bilan aylanganida foydalishdagи quvvati 74 kW (100 o.k.) bo'lib, МТЗ-100 g'ilirakli traktoriga o'rnatiladi. Bu dizel motorning ko'rinishi 30,5-rasmida ko'rsatilgan.

Motor to'rt silindrli, 1-3-4-2 tartibda ishlaydi. Silindrining diametri — 110 mm, porshen yo'li — 125 mm, bareha silindrлarning ishchi hajmi — 4,75 l. Havoning siqilish darajasi — 15,1. Motor tirsaklı valning 1400 ayl/daq aylanish takroriyligida hosil qiladigan burovchi momentning maksimal qiymati — 375 N·m. Moylash tizimida moyning bosimi 0,2—0,3 MPa. Motor nominal quvvatda ishlaganda yonilg'ining solishtirma sarfi — 235 g/kW·soat. Motor 20.3708 modeldagи elektr startyor bilan ishga tushiriladi. Motorning og'irligi — 450 kg.


Д-245 dizeliga ТКР-7 markali turbokompressor o'rnatilgan, buning natijasida asosiy model Д-240 ning chiqarish quvuri, chiqarish va kiritish kollektorlariga o'zgartirish kiritilgan. Suv nasosi va generatorning yuritmasi ikkita ponasimon tasma bilan amalga oshiriadi. Yetarli puxtalikni



30.5-ravm A-245 diesel motor:

1 – chiqarish kollektori quvuri; 2 – kiritish kollektori; 3 – elektr alangali qizdirgich bakhchasi;
4 – kiritish kollektori quvuri; 5 – quvurcha; 6 – yonlig'ini mayin tozalash filtri; 7 – pnevmatik tutashni cheklagich
(pnevmonokorrektor); 8 – quvurcha; 9 – chiqarish kollektori;

10 – turbokompressorga moy kelirish quvurchası;
11 – turbokompressordan moy to'kish quvurchası;
12 – turbokompressordan moy to'kish quvurchası;



ta'miniash maqsadida porshen, tirsakli val, silindrlar bloki va kallagi, klapanlar yuritma mexanizmi, yonilg'i nasosi, forsunka, yonilg'i va havo filtrlari takomillashtirilgan. Maxovikni tirsakli val flanesiga 6 ta o'rniga 7 ta bolt bilan mahkamlanadigan qilingan, o'zak va shatun podshipniklarining vkladishlari polat-aluminiy qotishmasidan tayyorlangan.

Silindrlar bloki (*16*) (30.6-rasm) kulrang cho'yandan quyilgan bo'lib, uning tik o'yuqlariga to'rtta silindrlar gilzasi (*11*) pastki qismidan ikkita rezina halqa bilan zichlab o'rnatilgan. Silindrlar blokining bo'ylama teshigi bo'lib, undan moy tirsakli valning o'zak podshipniklariga va taqsimlash valining bo'yinlariga olib kelinadi. O'zak podshipniklarning tayanchiga o'rnatilgan (*22*) forsunkalardan otilib chiqqan moy porshenni sovitish uchun xizmat qiladi. Silindrlar bloki tagidan karter (*1*) bilan yopilgan. Blokning orqa qismiga mahkamlangan to'siq (*17*) dizelni mashinaga o'rnatish uchun ham ishlatiladi.


Silindrlar (*14*) kallagida klapanlar bilan yopiladigan kiritish va chiqarish kanallari bor. Silindrlar kallagiga qo'yiladigan klapanlar uyasi issiqqa chidamli va yeyilishbardosh qotishmadan tayyorlangan. Silindrlar bloki va kallagi orasiga asbopo'lat to'qimadan tayyorlangan va silindr teshikiari atrofiga storoplast qoplangan qistirma qo'yiladi.

Porshenlar aluminiy qotishmasidan tayyorlangan va uchta zinchlagich va bitta moy sidiruvchi halqa qo'yish uchun o'yiqchalari bor. Pershennning yuqorigi zinchlagich halqasi ostiga nirezist qotishmasidan qistirma qo'yilgan. Taqsimlash vali (*1*) uch tayanchli (30.7-rasm), aylanma harakatni tirsakli valdan taqsimlash shesternasi orqali oladi. Blok o'ymlariga siqib kiritilgan uchta vtulka taqsimlash valining podshipniklari bo'lib xizmat qiladi.

Val kulachoklari ozgina qiyalik bilan tayyorlangani uchun (*2*) turtkichlarning sferasimon yuzasiga ta'sir etganda, turtkichlarni o'z o'qi atrofida aylanishini ta'minlaydi. Klaparlarning (*7*) koromislolari silindrlar kallagining tepasiga shpiikalar bilan mahkamlangan tayanchlarning o'qida tebranma harakat qiladi. Koromislolar o'qining ichi kavak, koromislolarni moylash uchun sakkizta joyda teshik qilingan.

D-245 dizelida sovituvchi suyuqlik harorati me'yordan oshganda harorat ko'rsatkichiga qo'shimcha yorug'lik signalini ham ko'zda tutilgan.


Dizelning moylash tizimi turbokompressor detallarini ham moylaydi. Turbokompressor ishlagan chiqindi gazlar energiyasidan havoni dizel silindrlariga puflab kiritish uchun foydalanish maqsadida qo'yilgan. D-245 dizeliga 4УТНМ-Т markali ko'p rejimli regulator porshenti yonilg'i haydash nasosi biyan bir agregatga birlashtirilgan,



30.6-rasm. J1-245 dizel motori (bo'yylama kesim):

1 – moy karteri; 2 – moy nasosi; 3 – tirsakli val shkivi; 4 – taqsimlash
 shesternalari qopqog'i; 5 – ventilator; 6 – suv nasosi; 7 – termostat korpusi;
 8 – porshen barmog'i; 9 – shatun; 10 – porshen; 11 – silindriar gilzasi;
 12 – qalpoq; 13 – silindrler kallagining qopqog'i; 14 – silindrler kallagi;
 15 – silindrler kallagining qistirmasi; 16 – silindrler bloki; 17 – orqa to'siq;
 18 – maxovik; 19 – tirsakli val posangisi; 20 – tirsakli val; 21 – moy qabul
 qiluvchi; 22 – porshenlarni sovitish forsunkalari

bundan tashqari pnevmatik tutun cheklagichli (pnevmonokorrektor)
 yonilg'i nasosi o'matilgan.



30. 7-rasm. D-245 dizel motori (ko'ndalang kesim):

1 - taqsimlash vali; 2 - turkich; 3 - klapanning yo'naltiruvchi vitulkasi;
 4 - klapan; 5 - shtanga; 6 - turbokompressor; 7 - kotomislo;
 8 - koromislo o'qi; 9 - tarelka; 10 - suxar; 11 - tirkak; 12 - ichki prujina;
 13 - tashqi prujina

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Анилович М.Я., Водолаженко Ю.Т. Конструирование и расчет сельскохозяйственных тракторов. Справочное пособие. —Москва: Машиностроение, 1976.

Гуревич А. М., Болотов А.К., Судницин В.И. Конструкция тракторов и автомобилей. —Москва: Агропромиздат, 1989.

Дизели Д-240, 245 и их модификации: Техн. описание и инструкция по эксплуатации / Минский моторный з-д. 4-изд., перераб. и доп. — Минск: Ураджай, 1986.

Komitov A.I. va boshq. Traktor va avtomobillar. — Toshkent: Talqin, 2003.

Ленский А.В., Яскорский Г.В. Справочник тракториста-машиниста. —Москва: Россельхозиздат, 1980.

Matchonov R.D., Usmonov A.S. Agrosangeat mashinalari. Ma'lumotnomha /prof. Q. Mahkamov tahriri ostida. —Toshkent: Yangi asr avlod, 2002.

Махкамов К.Х., Сайдов Ш.В. Пути развития конструкции тракторов. Монография. —Ташкент: ТашГТУ, 2005.

Solihov I. S. Traktorlar, avtomobillar va qishloq xo'jalik dvigatellari. Toshkent: O'qituvchi, 1969.

Скотников В.А., Мащенский А.А., Солонский А.С. Основы теории и расчета трактора и автомобиля. —Москва: 1986.

Трактор Т-4Л. Инструкция по эксплуатации. Рубцовск: АТЗ, 1978.

Чудаков Д.А. Основы теории и расчета трактора и автомобиля. —Москва: Колос, 1972.

MUNDARIJA

Ikkinchı nashrga so'zboshi.....	3
---------------------------------	---

1-bob. Traktorlar, avtomobilarning tasnifi va umumiyl tuzilishi

1-\$. O'zbekiston qishloq xo'jaligida traktor va avtomobilarning rivojlanish tarixi.....	5
2-\$. Traktorlar tasnifi.....	7
3-\$. Avtomobillar tasnifi.....	9
4-\$. Traktor va avtomobilarning umumiyl tuzilishi.....	10

2-bob. Avtotraktor motorlarining tuzilishi va ishlashi

1-\$. Ichki yonuv motorlarining tasnifi va tuzilish sxemalari.....	14
2-\$. To'rt taktili, benzinli motoring ish jarayoni.....	17
3-\$. To'rt taktili dizel motorining ishlash prinsipi.....	19
4-\$. Ikki taktili, benzinli motoring tuzilish sxemasi va ishlashi.....	23
5-\$. Ko'p silindrlisi, to'rt taktili motorlarning ishlashi.....	25
6-\$. Motoring quvvati, foydalni ish koefitsienti va issiqlik balansi.....	30
7-\$. Ichki yonuv motorining umumiyl tuzilishi.....	35

3-bob. Krivoship-shatun mexanizmi

1-\$. Krivoship-shatun mexanizmining tuzilishi.....	40
2-\$. Krivoship-shatun mexanizmiga ta'sir etuvchi Ruch va momentlar.....	51
3-\$. Krivoship-shatun mexanizmiga texnik xizmat ko'rsatish.....	53

4-bob. Gaz taqsimlash va dekompressiya mexanizmi

1-\$. Gaz taqsimlash mexanizmining tuzilishi.....	58
2-\$. Dekompressiya mexanizmining tuzilishi.....	65
3-\$. Gaz taqsimlash va dekompressiya mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish.....	66

5-bob. Traktor va avtomobil motorlarining ta'minlash tizimlari haqida umumiyl ma'lumot

1-\$. Yonilg'i va uning asosiy xossalari.....	68
2-\$. Yonuvchi aralashmaning tarkibi va uning motor ishiga ta'siri.....	70
3-\$. Havo tozalagichlar.....	72
4-\$. Kiritish va chiqarish quvurlari. Ovoz so'ndirgich va uchqun o'chirgich.....	76
5-\$. Havo tozalagich, kiritish va chiqarish quvurlariga texnik xizmat ko'rsatish.....	78

6-bob. Benzinli motorlarning ta'minlash tizimi

1-§. Ta'minlash tizimining umumiy tuzilishi va ishlash sxemasi.....	80
2-§. Oddiy karburator va uning ishlashi.....	81
3-§. Karburatorlarning qo'shimcha moslamalari.....	83
4-§. Karburatorlarning tuznlishi va ishlashi.....	89
5-§. Karburatorlarga texnik xizmat ko'rsatish.....	96

7-bob. Dizel motorlarining ta'minlash tizimlari

1-§. Ta'minlash tiziminining umumiy sxemasi.....	98
2-§. Dizellarda aralashma hosil etish usullari.....	99
3-§. Yonilg'i purkash payti va uning motor ishiga ta'siri.....	102
4-§. Yonilg'i bakkari, filtrlar va haydovchi pompalar.....	103
5-§. Yonilg'i nasoslari	110
6-§. Forsunkalar	118
7-§. Yonilg'i quvurchalari.....	120
8-§. Ta'minlash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish.....	120

8-bob. Aylanishlar soni rostlagichi

1-§. Regulatorming zarurligi va uning turi.....	126
2-§. Bir tartibli rostlagichlar.....	127
3-§. Ko'p tartibli rostlagichlar.....	129
4-§. Motorming maksimal aylanishlarini cheklagich.....	136
5-§. Rostlagichlarga texnik xizmat ko'rsatish.....	139

9-bob. Moylash tizimi

1-§. Moylash tizimining vazifasi va turi.....	140
2-§. Traktor va avtomobililar uchun qo'llaniladigan moylar va ularning xossalari.....	141
3-§. Moylash tizimining umumiy sxemasi.....	144
4-§. Moylash tizimining asbob va mexanizmlari.....	145
5-§. Moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish.....	158

10-bob. Sovitish tizimi

1-§. Sovitish tizimining vazifasi va turlari.....	160
2-§. Sovitish tizimlarining tuzilishi va ishlash sxemasi.....	161
3-§. Sovitish tizimi elementlarining tuzilishi.....	163
4-§. Sovitish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish.....	170

11-bob. Traktor va avtomobilarning elektr jihozlari

1-§. Umumiy ma'lumotlar.....	172
2-§. Yonilg'ini yondirish usullari va yondirish payti.....	172
3-§. Yondirish svechalari.....	174
4-§. Magnetoda yondirish tizimi. Yuqori kuchlanishli magnetoning tuzilishi va ishlashi.....	175

5-§. Magnetoni o'rnatish va unga texnik xizmat ko'rsatish.....	181
6-§. Akkumulatorlar batareyasi.....	182
7-§. Generator va rele-regulator.....	185
8-§. Batareyali yondirish tizimi.....	191
9-§. Batareyali yendirish tizimi asboblarini o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish.....	198
10-§. Elektr startyorlar.....	199
11-§. Yoritish va signalizatsiya asboblari.....	203
12-§. Nazorat-o'lehash asboblari va boshqa uskunalar.....	206

12-bob. Motorlarni yurgizib yuborish

1-§. Traktor va avtomobil motorlarning yurgizib yuborish tizimlari.....	216
2-§. Yurgizib yuborish motorlari.....	218
3-§. Yurgizib yuborish tizimining kuch uzatish qismlari.....	220
4-§. Yurgizib yuborish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish.....	226

13-bob. Motorlarni tormozlab sinash

1-§. Tormozlab sinash usullari va tormoz qurilmalari.....	228
2-§. Tormozlab sinash texnikasi.....	231
3-§. Sinov natijalarni ishlab chiqish. Motordarning taysifi.....	232

14-bob. Krivoship-shatun mexanizmi dinamikasi

1-§. Krivoship-shatun mexanizmi kinematikasi.....	238
2-§. Krivoship-shatun mexanizmi dinamikasi.....	242
3-§. Motorni muvozamatlash.....	247

15-bob. Transmissiyalar haqida ma'lumotlar

1-§. Transmissiyaning vazifasi, ishlash tamoyili va tasnisi.....	253
2-§. Transmissiyaning uzatish soni, FIK va yetaklovchi momentlar.....	256
3-§. Traktoring tortish balansi va nur grafigi.....	257
4-§. Gidrodinamik uzatmalar va gidromexanik transmissiyalar.....	261
5-§. Gidrohajnuv va elektr transmissiyalar.....	267

16-bob. Ilashish multalari va oraliq birikmalar

1-§. Kuch uzatish qismlarining asosiy mexanizmlari.....	272
2-§. Ilashish multasining tuzilishi va ishlash prinsipi.....	272
3-§. Oraliq birikmalar	281
4-§. Ilashish multasi va oraliq birikmalarga texnik xizmat ko'rsatish.....	283

17-bob. Uzatmalar qutisi

1-§. Uzatmalar qutusining vazifasi va ishlashi.....	285
2-§. Uzatmalar qutusining xillari va burovchi momentni kuchaytingich.....	288
3-§. Uzatmalar qutusining tuzilishi.....	293
4-§. Targatish qutisi.....	300
5-§. Uzatmalar qutusidan foydalanish va unga texnik xizmat ko'rsatish.....	302

18-bob. Traktor va avtomobilarning ketingi ko'pri

1-\$. Avtomobilarning kardan uzatmasi.....	303
2-\$. Traktor va avtomobilarning asosiy uzatmalari.....	304
3-\$. Traktor va avtomobilarning differensiali.....	306
4-\$. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning burish mexanizmi.....	308
5-\$. Traktorlarning oxirgi uzatmalari.....	312
6-\$. Ketingi ko'priklarning tuzilishi.....	313
7-\$. Ketingi ko'prik mexanizmlariga texnik xizmat ko'rsatish.....	320

19-bob. Traktor va avtomobilarning yurish qismi

1-\$. Traktor va avtomobilarning asosi.....	322
2-\$. G'ildirakli traktor va avtomobilarning yurish qismi.....	323
3-\$. Traktor va avtomobilarning g'ildiraklari va shinalari.....	329
4-\$. O'rmalovchi zanjirli traktorlarning yurish qismi.....	334
5-\$. Traktor va avtomobilarning yurish qismigiga texnik xizmat ko'rsatish.....	340

20-bob. Traktor va avtomobilarning boshqarish mexanizmlari

1-\$. G'ildirakli traktor va avtomobilarning rul boshqarmasi.....	343
2-\$. Traktor va avtomobilarning tormozi.....	351
3-\$. Traktor va avtomobilning boshqarish organlari va nazorat asboblari.....	364
4-\$. Traktor va avtomobilarning boshqarish mexanizmlariga va tormozlariga texnik xizmat ko'rsatish	371

21-bob. Traktorlar va avtomobilarning ish uskulalari va qo'shimcha uskulalari

1-\$. Tirkash moslamasi.....	374
2-\$. Traktorlarning quvvat olish vallari.....	375
3-\$. Traktorlarning gidravlik o'rnatish tizimi	377
4-\$. Yetakchi g'ildiraklarning vazminlashtirgichi	389
5-\$. Kuzov va qo'shimcha uskulalar.....	391
6-\$. Gidravlik tizim va qo'shimcha uskulalanga texnik xizmat ko'rsatish.....	396

22-bob. Traktor va avtomobil nazariyasi asoslari

1-\$. Traktor va avtomobillardan foydalanan xususiyatlari.....	399
2-\$. Traktorga ta'sir etuvchi kuchlar.....	402
3-\$. Yetaklovchi moment va urinma tortish kuchini aniqlash.....	406

23-bob. G'ildirakli traktorning umumiyligi dinamikasi

1-\$. Pnevmatik shinaning fizik-mexanik xususiyatlari.....	411
2-\$. Traktorning oldindi va orqa g'ildiraklariiga tushuvchi yo'lning normal reaksiyasini aniqlash.....	415

24-bob. O'rmalovchi zanjirli harakatlantirgich nazariyasi

1-\$. O'rmalovchi zanjirli harakatlantirgichning kinematik xususiyatlari....	420
--	-----

2-\$. O'rmalovchi zanjirli traktorga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar va morrientlar.....	422
3-\$. Tuproq normal reaksiyasining zanjir tayanch sirtida taqsimlanishi.....	425
25-bob. Traktoring to'g'riga harakatlanishi	
1-\$. Traktoring quvvat bafansi.....	429
2-\$. Traktoring tortuvchanligini hisoblash.....	433
26-bob. G'ildirakli mashinalarning burilishi	
1-\$. Burilishining asosiy turlari va kinematikasi.....	437
2-\$. Oldingi g'ildiragi boshqaruvchi bo'lgan mashinalarning burilish dinamikasi.....	440
3-\$. O'rmalovchi zanjirli traktolarning burilishi.....	442
4-\$. Burilish dinamikasi. Burilishga qarshilik momenti.....	446
5-\$. Buruvchi moment.....	449
6-\$. Burilish mexanizmi turlarining burilish dinamikasiga ta'siri.....	451
27-bob. Traktor harakatining barqarorligi	
1-\$. Traktoring bo'ylama barqarorligi.....	453
2-\$. Traktoring ke'ndalang barqarorligi.....	456
3-\$. Traktoring tortuvchanlik-tishlashuvchanlik xususiyati.....	460
4-\$. Traktoring buriluvchanligi.....	467
28-bob. Traktor va avtomobilning ergonomik va ekologik ko'rsatkichlari	
1-\$. Traktoring agroekologik xususiyati.....	470
2-\$. Motor emissiyasi va uni zararsizlantrish yo'llari.....	472
3-\$. Traktor va avtomobilning ergonomik xususiyatlari	476
29-bob. G'ildirakli traktorlar va o'ziyurar shassilarning qisqacha tafsiloti	
1-\$. T-25A traktori.....	487
2-\$. T-16M o'ziyurar shassi.....	488
3-\$. T-40M traktori.....	489
4-\$. TT3 100.K11 traktori.....	490
5-\$. MT3-80, TT3-80X va MГ3-82 traktorları.....	493
30-bob. Avtomobillar va motorlar	
1-\$. YA3-452/I va YA3-3303 avtomobilari.....	496
2-\$. Damas avtomobili.....	498
3-\$. KAMA3 avtomobili.....	499
4-\$. Qishloq xo'jaiik statcionar motorlari.....	500
Foydalilanigan adabiyotlar.....	506

ISMOIL SOLIHOVICH SOLIHOV

**TRAKTORLAR VA
AVTOMOBILLAR**

(Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri)

Oliy o'quv yurtlari uchun darslik

Muharrir Barno Xudoyorova

Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Kompyuterda sahifalovchi Munisa Ismailova

Litsenziya raqami AI № 163, Bosishga ruxsat etildi 09.08.2012, Bichimi 60x84¹/₁₆, Tayms TAD garniturasi, Sharfi b.t. 29,76, Nashr b.t. 31,12, Sharfnoma № 48-2012 300 nusxada, Buyurtma № 1-31-14.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 100129 Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

«TAFAKKUR-BO'STON» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Chilonzor ko'chasi, 1.